2026-yil, 15-may 09(77)-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

ISSN 2021-9752

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

DOLZARB MAVZU

Dilobar JURAYEVA,
RMMM Buxoro viloyat bo‘limi
Olot tuman bo‘linmasi rahbari

Ona tilim – jonu dilim

MILLAT BUTUNLIGINING BIRLAMCHI SHARTI

Annotatsiya: mazkur maqolada ona tilining inson hayotidagi o‘rni, uning milliy o‘zlikni shakllantirishdagi ahamiyati hamda ma’naviy qadriyat sifatidagi roli keng yoritilgan. Ona tili – bu xalqning tarixi, madaniyati va tafakkurini aks ettiruvchi muhim vosita bo‘lib, u orqali avloddan-avlodga bebaho meros yetkaziladi. Maqolada o‘zbek tilining rivojlanish bosqichlari, bugungi kundagi mavqeyi va uni asrab-avaylash zarurati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, yosh avlodda ona tiliga hurmat va muhabbatni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *ona tili, o‘zbek tili, milliy o‘zlik, madaniyat, til va tafakkur, ma’naviyat, meros, tilni asrash, yoshlar tarbiyasi, til rivoji*

Annotation:this article explores the significance of the mother tongue in human life, emphasizing its role in shaping national identity and serving as a core spiritual value. The mother tongue reflects a nation’s history, culture, and worldview, acting as a key medium for passing heritage from one generation to another. The article discusses the stages of development of the Uzbek language, its current status, and the importance of preserving it. Special attention is also given to fostering respect and love for the native language among younger generations.

Key words: *mother tongue, Uzbek language, national identity, culture, language and thinking, spirituality, heritage, language preservation, youth education, language development*

Аннотация: в данной статье рассматривается значение родного языка в жизни человека, его роль в формировании национальной идентичности и духовных ценностей. Родной язык является отражением истории, культуры и мировоззрения народа, а также важным средством передачи наследия от поколения к поколению. В статье анализируются этапы развития узбекского языка, его современное положение и необходимость его сохранения. Особое внимание уделяется воспитанию уважения и любви к родному языку у молодежи.

Ключевые слова: *родной язык, узбекский язык, национальная идентичность, культура, язык и мышление, духовность, наследие, сохранение языка, воспитание молодежи, развитие языка*

Kirish.Ona tili – har bir xalqning ruhiyati, tarixi va madaniyatini o‘zida mujassam etgan bebaho boylikdir. Inson aynan ona tili orqali dunyoni anglaydi, fikrlaydi va o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Shu bois ona tiliga bo‘lgan hurmat va e’tibor jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Bugun yangilanayotgan O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan islohotlar zamirida, avvalo xalq farovonligi masalasi yotadi. Kun sayin o‘zgarib borayotgan, qalqib turgan dunyoda xalqning butunligini, yakdilligini ta’minlashda, qator omillar safida, til sofligi ham yotadi. Chunki, til muayyan millatning boshini biriktiradigan eng qudratli vositadir.

Oilalar, urug‘lar, aymoqlar birlashib, yaxlit millatni tashkil etishini hisobga olsak, ana shu millatni bir maqsad sari boshlaydigan orzu-umidlar, avvalo uning tilida namoyon bo‘ladi. Ajdodlar xotirasi, ular qoldirgan boy merosni o‘rganish va shu orqali milliy g‘ururni yuksaltirish ham bevosita til yordamida amalga oshiriladi. Qolaversa, kelajak avlod tarbiyasini mukammallashtirish, yoshlarni ozod va obod yurtimizning munosib vorislari qilib o‘stirishda ham bizning eng yaqin ko‘makchimiz ona tilimizdir. Boy, nafosatli, ming alvon tovlanuvchi, go‘zal tilimiz bor. Uni ko‘z qorachig‘idek asrash, kelajak nasllarga bus-butun yetkazish, avvalambor, ilm ahlining, ijod ahlining, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlarining vazifasi sanaladi.

Tan olish kerakki, shiddatkor zamon, turlanib-tuslanib turgan tamaddun ham o‘z so‘zini aytadi, u qariyb barcha jabhalarga, jumladan, tilga ham ta’sirini o‘tkazadi. Bu tabiiy hol, albatta. Ammo, yozuvchi Said Ahmad asari qahramoni Farmonbibi aytanidek, “Xo‘rozqand chet elniki bo‘lsa, yotib yalash” kerak emas. Biz, eng avvalo o‘z tilimizga e’tibor qaratishimiz lozim. Bugun tilimizga ko‘plab xorijiy so‘zlar kirib kelayotir, ulardan ham me’yorida foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Tilni farzandlar zehniyatiga singdirish oiladan boshlanadi. Ota-ona oilada qadrdon ona tilida gapirsa, bolalar ham shu tilga mehr qo‘yadi. Qolaversa, maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablarda ham bu masalaga jiddiy e’tibor qaratish faqat va faqat ijobiy samara beradi. Shu o‘rinda murabbiylar va muallimlar zimmasida ham ulkan mas’uliyat borligi ayon bo‘ladi.

Globallashuv sharoitida ayrim yoshlar orasida chet tillarga qiziqish ortib borayotgani kuzatiladi. Bu holat ijobiy bo‘lsa-da, ona tiliga e’tiborning susayishiga olib kelmasligi zarur. Aksincha, har bir yosh avlod vakili o‘z ona tilini mukammal bilishi, uni hurmat qilishi va rivojiga hissa qo‘shishi lozim.

Albatta, xorijiy tillarni o‘rganishni davrning o‘zi talab qilyapti, yoshlarimiz bu orqali dunyoga chiqadilar. Ilm-fan, ijod, sport va san’atda til bilish juda muhimdir. Shu bilan birga, bu jarayon o‘z qadrdon tilimizga ziyon yetkazmaydigan tarzda amalga oshirilsa, nur ustiga nur bo‘ladi. To‘g‘ri, mamlakatimizda har yili tilga doir bayram va ko‘plab tadbirlar o‘tkaziladi, biroq, ko‘cha-ko‘yda odamlarning muomalasi va peshlavhalarni kuzatsangiz, ta’bingiz biroz xira tortadi. Tilning ziyoniga ishlayotgan eng qudratli vosita esa, shubhasiz, ijtimoiy tarmoqlardir. Internetda imlo xatolariga to‘la, palapartish va mantiqsiz matnlarni ko‘rgan, o‘qigan yoshlar bilib-bilmay ularga taqlid eta boshlaydilar va natijada o‘zlari istamagan holda ona tilimizga ziyon yetkazadilar.

Ona tilini asrab-avaylash – bu milliy o‘zlikni saqlash demakdir. Til orqali xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari va qadriyatlari avloddan-avlodga o‘tadi. Shu sababli ta’lim tizimida ona tilini chuqur o‘rgatish, uni ilm-fan va texnologiya sohalarida keng qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobokalonimiz hazrat Navoiy “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” deb bekorga kuyinmaganlar. Har birimiz Navoiydan qolgan go‘zal va betimsol tilni asrab-avaylab yursak, uni boyitishga imkonimiz qadar hissa qo‘shsak qanchalar yaxshi bo‘lardi! Axir, til insonning o‘zligini, qiyofasini belgilab beruvchi vosita, millat butunligini ta’minlaydigan birlamchi shartku!

Balki ko‘pchilik bilmas: viloyatimizda hazrat Navoiy sharafiga tiklangan sanoqligina haykal qolgan, shularning biri men yashaydigan Olot tumanida joylashgan. Biz har yili Til bayrami kuni ana shu muhtasham haykal poyiga gullar qo‘yamiz, bobomiz asarlaridan parchalarni yod o‘qiymiz, ul zotning aziz xotirasiga hurmatimizni izhor etamiz. Bunday tadbirlarda tuman rahbarlari ham bevosita ishtirok etib, biz bilan birga she’rlar o‘qib, tadbirda faol qatnashgan o‘quvchilarga kitoblar ulashadilar. Ko‘ngillarimiz sururga to‘ladi, ulug‘ bobomizga munosib voris bo‘lishga intilayotganimizdan iftixor tuyamiz. Mana shunday tadbirlar bardavom bo‘lishini, qalblarimizda ona tilimizga nisbatan ulkan mehr jo‘shib turishini juda-juda istardim.

Men xizmat taqozosi bilan nafaqat maktablarda, balki turli yo‘nalishdagi muassasa va korxonalarda ham bo‘lib, tadbirlarda ishtirok etaman. Odamlarning gap-so‘zlariga quloq tutaman, ularning qanday so‘z va jumlalardan foydalanishlariga e’tibor qarataman. Ayrim hollarda muomala tilimiz juda g‘ariblashib ketganligiga guvoh bo‘lib, ko‘nglim o‘ksiydi. Bir paytlar tilimizga kirib qolgan ruscha so‘zlar yoniga endi ingliz tilidagi iboralar ham qo‘shilib borayotganligini his etib, ona tilimiz kelajagidan xavfsiray boshlayman...

Muxtasar fikr shuki, tilimiz – eng katta boyligimiz. Uni go‘zal holda saqlasak, millatimiz ravnaqini ta’minlashga ham hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Farzandlarimizni chinakam o‘zbek qilib tarbiyalash uchun o‘zimiz o‘zbekcha fikrlashimiz, o‘zbekcha so‘zlashimiz lozim deb o‘ylayman. Tilimiz juda boy, uning imkoniyatlari haddan ziyod keng. Biz undan unumli foydalansak, ajdodlarimiz o‘lmas asarlar bitgan bu tilni chuqur o‘rgansak, o‘ylaymanki, millatimiz, O‘zbekistonimiz ham dunyoning ilg‘orlari safidan joy oladi.

Til – millatning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. U nafaqat aloqa vositasi, balki milliy tafakkur va qadriyatlarning ifodachisidir. O‘zbek tili ham boy tarixga ega bo‘lib, asrlar davomida shakllanib, sayqallanib kelgan. Bugungi kunda uning davlat tili sifatidagi maqomi mustahkamlanib, qo‘llanish doirasi kengayib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, ona tili – millatning joni va dilidir. Uni asrash, rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish har bir insonning muqaddas burchidir. Ona tiliga bo‘lgan e’tibor jamiyatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni. – 1989 (yangi tahrirlar bilan).
3. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: Universitet, 2010.
4. Mahmudov N. *Til va jamiyat*. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Yo‘ldoshev B. *O‘zbek tilining ijtimoiy mohiyati*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

Zilola AMONOVA,
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fanlari doktori, professori
zilolajonamonova@gmail.com
Dilafro‘z ASHUROVA,
Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIDA SABR TALQINI

Annotatsiya:ushbu maqola Alisher Navoiy lirikasida sabr talqiniga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shoirning sabrga doir baytlari g‘oyaviy-badiiy tahlilga tortilgan. Navoiyning Allohga bo‘lgan ishonch-e’tiqodi, sinovlarga sabr qilish, ko‘ngilni poklash, ruhiy-ma’naviy barkamollik bilan bog‘liq badiiy mulohazalari shoirning g‘azallarida aks etgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, sabr, g‘oyaviy-badiiy tahlil, ruhiy-ma’naviy barkamollik*

Annotation:this article is devoted to the interpretation of patience in the lyrics of Alisher Navoi. It provides an ideological and artistic analysis of the poet’s verses related to patience. Navoi’s reflections on faith in God, enduring trials with patience, purification of the soul, and spiritual and moral perfection are vividly expressed in his ghazals.

Key words: *Alisher Navoi, patience, ideological and artistic analysis, spiritual and moral perfection*

Аннотация:данная статья посвящена интерпретации терпения в лирике Алишера Навои. В ней проводится идейно-художественный анализ стихов поэта, связанных с темой терпения. Размышления Навои о вере в Бога, стойком перенесении испытаний, очищении души, а также о духовно-нравственном совершенстве нашли отражение в его газелях.

Ключевые слова: *Алишер Навои, терпение, идейно-художественный анализ, духовно-нравственное совершенство*

Kirish. Alisher Navoiy Sharqning ulug‘ va mumtoz mutafakkiri, Uyg‘onish davri dahosidir. Unda benazir shoirlik iste’dodi, til go‘zalligi, ifoda mo‘jizakorligi, tafakkur teranligi mujassam va bu uning har bir asari, har bir satrida yarq etib porlab turadi. Navoiyning Islom va tasavvufga tayangan dunyoqarashi yaxlit bir tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Uning g‘oyat teran falsafiy mushohadalari, insoniyatni asrlar davomida qiynab kelgan muammo va dardlar bilan yo‘g‘rilgan taqdir masalasiga doir qarashlari, inson kamoloti uchun qayg‘urishi asarlarining bosh mavzusi bo‘lgan. Alisher Navoiy buyuk alloma, axloq muallimidir. Uning asarlari xoh epik, xoh lirik bo‘lsin, ulug‘ adib birinchi navbatda insondagi salbiy xislatlarni ko‘zguda aks ettirganday ko‘rsatib, najib ezgu xislatlar, fazilatlarni egallashga chorlaydi. Jannatdan quvilgan Odam ato avlodi yana poklanib, asl vatani – Yaratgan oldiga qaytishi kerak. Navoiy mana shu mavqe’dan turib, islom, imon, tavhid, shariat va tariqat masalalarini qalamga oladi. Ulug‘ shoir ijodida sabrga doir satrlar ham ko‘p uchraydi.

Sabr-toqat, chidam so‘fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, ayniqsa, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik. Sabr etuvchi (sobir) o‘zini balo girdobiga solib, balolardan qo‘rqmaydigan odamdir.“Sabr kushoyish uchun intizorlikdir” (Sahl Tustariy), ya’ni ruhiy-ma’naviy mushkulliklar yuz berganda, sabr qilgan solik kushoyish topadi, yangi manzillarni kashf etadi.Sabr-imonning yarmi deydilar, chunki so‘fiyning dushmani bo‘lgan nafs sabr orqali jilolalanadi, toatdan halovat topish ham sabr bilan bo‘ladi.

Asosiy qism. Hazrat Alisher Navoiy ijodida ko‘plab insoniy fazilatlar yoritilgan. Shoir asarlarida sabr, ko‘ngilni pok tutish, hilm, kamtarlik va saxiylik haqida hikmatlar keltiradi. Ezgu maqsadlarni amalga oshirishda hayot qiyinchiliklariga duch kelsa-da, barchasiga sabr qilib, ixlos va iymon bilan ish tutishga undaydi.Navoiyning bir qancha devonlarida sabrga bag‘ishlangan satrlar uchraydi. Buni “Navodir un-nihoya” devonidagi 7-g‘azalidan olingan ushbu misralarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Mahvasho, sarvqado, lolaruxo, siymtano,
Chorakim qolmadi sabrim g‘ami hajringda yano.

Ushbu baytni nasriy bayon qiladigan bo‘lsak, quyidagi ma’no anglashiladi: Tashbeh badiiy san’ati orqali ifodalangan ilk misrada shoir yorini jimjimador

so‘zlar orqali madh etadi: mahvash (oydek go‘zal), sarvqad (tik qomat), lolarux (yuzlari loladek qizil), siymtan (kumushday oppoq badanli).Keyingi misrada esa hijron (ayriliq) g‘amida sabrining oxiri qolmayotgan oshiq holati tasvirlangan.Ushbu baytda oshiq yoridan ayrilgani sababli juda qiynalayotgani va sabri tugab borayotgani o‘z ifodasini topgan.

“Badoye ul-bidoya” devonining 11-g‘azalida sabr maqomining ifodalanishiga

doir quyidagi baytni ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

Shikebu aqlu hush itmish,qaroru sabru jon ketmish,

Ne g‘am, gar bo‘lsa ul oromi ruhu quti jon paydo.

Devondan o‘rin olgan ushbu baytda ishqiy-falsafiy ruh hukmrondir. Baytda oshiqning ishq yo‘lidagi ruhiy holati, sabr-toqatining sinovdan o‘tishi va hijron azobi tasvirlanadi.Shoir oshiq ishq tufayli barcha ruhiy tayanchlardan ayrilganini aytadi.Agar oshiqqa yorning visoli nasib etsa, barcha yo‘qotilgan narsalar, ya’ni sabr, aql, hush o‘rniga qaytishi mumkinligi ta’kidlanadi. Baytda aql, hush, sabr, jon kabi tushunchalar ketma-ket sanalib, o‘ziga xos ohangdoshlikni hosil qilgan. Ushbu baytda hazrat Navoiy tariqat maqomotlaridan hisoblanmish sabr tushunchasini bevosita inkor etmaydi, balki ishq yo‘lida oshiqning sabri ham sinovdan o‘tishini ko‘rsatadi.Oshiq uchun eng katta sinov-hijron bo‘lib, u hatto sabrni ham yengadi.Shu bilan birga, umid saqlanadi: visol bo‘lsa, hammasi o‘z o‘rniga tushadi.

Gar Ayyub sabr etti turluk baloda

Valek ko‘rmadi hajr shomi balosin.

Yuqorida Alisher Navoiyning“Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibidagi to‘rtinchi devon - “Favoyid ul-kibar” (“keksayish foydalari”) tarkibiga kirgan 550-g‘azalning to‘rtinchi bayti keltirilgan. Tasavvufning sabr maqomini o‘zida mujjassam etgan ushbu bayt g‘oyat purma’noliligi bilan ajralib turadi.Birinchi misrada ijodkor talmeh badiiy san’ati orqali o‘z qarashlarini bayon etgan.Dinimiz tarixidan ma’lumki, Ayyub alayhissalom juda ko‘plab sinovlar orqali sinaladi.Ayyub alayhissalom sabr timsoli bo‘lib, u tanasidagi xastaliklar va turli og‘ir balolarga yillar davomida chidagan.

Ikkinchi misradagi “hajr shomi” jumlasi “ayriliq kechasi” tushunchasi ma’nosini ifodalaydi.Navoiyning ta’kidlashicha, Ayyub (s.a.) qanchalik ko‘p balo va musibatlarga sabr qilgan bo‘lsalar ham, ayriliq kechasi keltiradigan azobni ko‘rmaganlar. Ya’ni, oshiq uchun sevgilisidan ayrilish azobi hatto Ayyub payg‘ambar chekkan jismoniy va dunyoviy azoblardan ham og‘irroqdir.

Alisher Navoiy g‘azallarini o‘qir ekansiz, maqomlarning g‘azal maqta’sida ham uchratishimiz mumkin.Buning yorqin namunasi sifatida quyidagi baytni tahlil qilish o‘rinlidir:

Ey Navoiy,yor hajrig‘a ne chora,g‘ayri sabr

Kimsa netgay sabr qilmay zolim o‘lsa dilbari.

Ushbu bayt “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi ikkinchi devon - “Navodir ush-shabob” (“Yoshlik nodirliklari”)ning 613-g‘azali hisoblanadi.Misradagi notanish jumlalar izohini keltirib o‘tamiz: yor hajri-sevgilisidan ayrilish, ne chora g‘ayri sabr- sabrdan boshqa yo‘l yo‘q, zolim dilbar - beparvo, ozor beruvchi yor. Bular asosida esa misraning nasriy bayonini hosil qilsak, quyidagicha bo‘ladi: Ey Navoiy, yorning ayrilig‘iga sabrdan boshqa qanday chora bor? Agar sevikli dilbar zolim bo‘lsa, ya’ni senga ozor bersa, sabr qilmay odam nima ham qila olardi. Bu yerda sabr majburiy najot sifatida ko‘rsatilgan.

Sabr ila ishqim xusumat boshlab o‘rtarlar meni,

O‘t bo‘lur zoyanda, tosh etsa temur birla sitez.

“G‘aroyib us-sig‘ar”ning 167-g‘azalidan olingan ushbu baytdagi notanish so‘zlar: xusumat-dushmanlik, adovat, o‘rtamoq-qiynamoq, zoyanda-tug‘uvchi, vujudga keltiruvchi, sintez-to‘qnashmoq. Baytni tahlil qilar ekanmiz, birinchi misrada jonlantirish badiiy san’atining go‘zal namunasini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni sabrim bilan ishqim nizo boshlab, qiynarlar meni degan fikr kelib chiqadi. Aslida nizo qilish insonga xos xususiyat hisoblanadi.Biroq shoirning tengsiz mahorati tufayli insonning tuyg‘ulari bir-biriga dushmanlik qilyapti.Ikkinchi misrada esa shoir tabiat qonunlaridan birini keltirib g‘oyat go‘zal estetik tafakkurni yuzaga keltirgan.Baytdagi “tosh etsa temur birla sitez” iborasi “agar tosh temir bilan to‘qnashsa (urishsa,janjallashsa)” degan ma’noni bildiradi. Ma’lumki, qattiq toshga temir urilsa, uchqun sachrab olov chiqadi.Xuddi shunday ko‘ngildagi sabr va ishq to‘qnashuvi oshiqning ichida “hajr olovi” yoki iztirob olovini yoqadi.Shoir baytda ishq va sabrning bir joyda turishi imkonsizligini va ularning kurashi faqat yonishga (azobga) olib kelishini badiiy ifodalagan.

Xulosa. Darhaqiqat, inson hayotida qanday sinovli kunlar kelmasin, doimo sabr qilishi kerak. Qiyinchiliklar, mashaqqatlar inson sabrini toblaydi. Irodasini mustahkamlaydi.Sabr go‘yoki qiyinchiliklar,

mashaqqatlar libosidir.Sabr tushunchasi ko‘plab manbalarda izohlangan.Musulmonlarning muqaddas manbasi hisoblanmish Qur’oni karimda ham sabr qilish to‘grisidagi ko‘plab suralarda keltirilgan.Baqara surasining 153-oyatida quyidagilarni o‘qiymiz: “Ey iymon keltirganlar, sabr va namoz bilan (Mendan) yordam so‘rangiz! Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir”. (“Ya ayyuhallaziyna amanus-ta’iynu bis-sobri vas-solah. Innalloha ma’as-sobiriyn”) Yana bir o‘rinda ya’ni Asr surasining 3-oyatida esa “….bir-birlariga haqiqatni tavsiya etgan va bir-birlariga sabrli bo‘lishni tavsiya etgan zotlar (haqiqiy yutuq egalaridir)”. (“….va tavasov bil-haqqi va tavasov bis-sobr”). Oli Imron surasining 200-oyatida: “Ey iymon keltirganlar, sabr qilingiz, (dushmanlaringizdan) sabrliroq bo‘lingiz…” (“Ya ayyuhallaziyna amanus-biru va sobiru…”) Yusuf surasining 90-oyatida esa “…Albatta, kim taqvo va sabr qilsa, Alloh yaxshilik qiluvchilarning mukofotini zoye qilmas”.“..innahu may-yattaqi va yasbir fa innalloha ha yuziy’u ajral-muhsiniyn”.Ushbu suralarni o‘qir ekansiz, sabr nechog‘lik go‘zal bir imkoniyat ekanligini anglab yetasiz. Xalqimizda sabr qilsang g‘o‘radan holva bitar, besabrlar o‘z oyog‘idan yitar deb bejizga aytilmagan. Alisher Navoiy she’riyatida sabr tushunchasi chuqur falsafiy va tasavvufiy mazmun kasb etadi. U o‘zining baytlarida sabrni inson hayotining ajralmas bir qismi sifatida talqin qiladi. Sabr – bu Allohga bo‘lgan to‘liq ishonch, Uning irodasiga bo‘ysunish va barcha ishlarning natijasini Unga topshirishdir. Navoiy sabrni solikning yo‘l ozig‘i, ma’naviy safarining eng zarur qismi sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, Navoiy sabrni nafaqat ruhiy holat, balki insonning

jismoniy holatida ham qo‘llashi kerak bo‘lgan fazilat sifatida talqin qiladi. U sabr orqali inson qo‘rquv va xavotirlardan xalos bo‘lib, maqsadiga jasorat bilan yetishi mumkinligini ta’kidlaydi. Umuman olganda, Alisher Navoiy she’riyatida sabr ilohiy muhabbat, itoatkorlik va umid bilan boyitilgan oliy qadriyat sifatida gavdalanadi. Uning baytlari insonni Allohga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga, dunyoviy tashvishlardan xalos bo‘lib, ruhiy poklikka erishishga chorlaydi.Navoiy talqinidagi sabr – bu insonni Allohga bog‘lovchi ulug‘vor bir ko‘prikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд. –Тошкент: «Фан» нашриёти, 987. Бадойиъ ул-бидоя, 631-б.

2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 2-жилд. –Тошкент: «Фан» нашриёти, 1987.Наводир ун-нихоя, 272-352-395-435-б.

2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 3-жилд. –Тошкент: «Фан» нашриёти, 1987.Хазойин ул-маоний, Ғаройиб ус-сиғар, 512-б.

3.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 4-жилд. –Тошкент: «Фан» нашриёти, 1987.Хазойин ул-маоний, Наводир уш-шабоб, 266-б.

4.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 5-жилд. –Тошкент: «Фан» нашриёти, 1987.Хазойин ул-маоний, Бадое ул-васат, 428-273-б.

5.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 6-жилд. –Тошкент: «Фан» нашриёти, 1987.Хазойин ул-маоний, Фавойид ул-кибар,7-б.

6. https://islom.uz/maqola/1135.

7. Нажмиддин Комилов.Тасаввуф. –Тошкент:“Movarounnahr” “O‘zbekiston”, 2009. 28-б.

Ruxsora XALILOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

RAHBAR NUTQINING AUDITORIYANI MOTIVATSIYALASHDAGI KOMMUNIKATIV VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqola rahbar nutqining auditoriyani motivatsiyalashdagi kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini tizimli tahlil qiladi. Maqolada motivatsion nutqning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari va amaliy qo‘llanilish usullari yoritilgan. Zamonaviy tilshunoslik va menejment fanlari kesishmasida olib borilgan tadqiqot natijasida rahbar nutqining uch asosiy komponenti – yo‘naltiruvchi, empatik va ma’no yaratuvchi til turlari aniqlangan. Muvaffaqiyatli rahbar nutqi nafaqat axborot yetkazish, balki auditoriyaning qadriyatlariga murojaat qilish, hissiy bog‘lanish o‘rnatish va aniq harakatga undash orqali o‘z pragmatik maqsadiga erishadi.

Kalit so‘zlar: *rahbar nutqi, motivatsiya, kommunikativ xususiyatlar, pragmatika, motivatsion til nazariyasi, auditoriya, ishontirish, empatik til, ma’no yaratuvchi til.*

Аннотация: в данной научной статье систематически анализируются коммуникативные и прагматические особенности речи лидера в мотивации аудитории. Рассматриваются теоретические основы мотивационной речи, её компоненты и методы практического применения. В результате исследования, проведенного на стыке современной лингвистики и управленческих наук, выделены три основных компонента речи лидера – направленный, эмпатический и смыслообразующий типы языка. Также анализируется модель мотивационной последовательности Результаты исследования показывают, что успешная речь лидера достигает своей прагматической цели не только путем передачи информации, но и путем обращения к ценностям аудитории, установления эмоциональной связи и мотивации к конкретным действиям.

Ключевые слова: *исполнительная речь, мотивация, коммуникативные свойства, прагматика, теория мотивационного языка, аудитория, убеждение, эмпатический язык, язык, создающий смысл.*

Annotation: this research article systematically analyzes the communicative and pragmatic features of a leader’s speech in motivating an audience. It examines the theoretical foundations of motivational speech, its components, and methods of practical application. The study, conducted at the intersection of modern linguistics and management sciences, identified three main components of a leader’s speech: directional, empathic, and meaning-making. The study’s findings demonstrate that a successful leadership speech achieves its pragmatic purpose not only by conveying information but also by appealing to the audience’s values, establishing an emotional connection, and motivating them to take specific actions.

Key words: *executive speech, motivation, communicative properties, pragmatics, motivational language theory, audience, persuasion, empathic language, meaning-making language.*

Hozirgi zamon tashkilotlarida rahbarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning kommunikativ kompetensiyasiga bog‘liq. Rahbar nutqi nafaqat axborot uzatish vositasi, balki xodimlarni faollashtirish, ularning ishtiyoqini oshirish va tashkilot maqsadlari sari yo‘naltirishning kuchli qurolidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali rahbar nutqi xodimlarning samaradorligi, ishdan qoniqishi va tashkilotga sodiqligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli, rahbar nutqining auditoriyani motivatsiyalashdagi kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Motivatsion til nazariyasi XX asr oxirida Jacqueline Mayfield va Milton Mayfield tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, rahbar nutqining uchta asosiy o‘lchamini ajratadi . Ushbu nazariya rahbar va xodim o‘rtasidagi muloqotni tahlil qilishning tizimli asosini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarlar eng ko‘p yo‘naltiruvchi tildan foydalanadi, empatik til kamroq qo‘llaniladi, ma’no yaratuvchi til esa eng kam uchraydi. Biroq, uchala komponentning muvozanatli qo‘llanilishi eng yuqori motivatsion samarani beradi [2].

Alan Monroe tomonidan 1930-yillarda ishlab chiqilgan motivatsion ketma-ketlik bugungi kunda ham ishontiruvchi nutqning eng samarali modellaridan biri hisoblanadi . Ushbu model besh bosqichdan iborat:

1-bosqich: diqqatni jalb qilish. Auditoriyaning “avtopilot” rejimini to‘xtatish, ularning e’tiborini muammoga qaratish. Masalan, Stiv Jobs 2007-yilda iPhone taqdimotida “Bugun Apple telefonni qayta ixtiro qiladi” degan jumla bilan boshlagan edi.

2-bosqich: ehtiyojni yaratish. Auditoriyaga mavjud holat va kerakli holat o‘rtasidagi farqni his qildirish. Samarali rahbarlar muammoni aniq va dolzarb qilib ko‘rsatadi.

3-bosqich: qoniqishni taklif qilish. Muammoning yechimini taqdim etish.

4-bosqich: tasavvurni jonlantirish. Auditoriyaga yechim qanday ishlashini va qanday ijobiy natijalarga olib kelishini ko‘rsatish.

5-bosqich: harakatga undash. Aniq, o‘lchanadigan harakatlarni taklif qilish.

Pragmatika nuqtai nazaridan rahbar nutqi “so‘z bilan ish qilish”ning eng yorqin namunasidir. Rahbar nutqida pragmatik maqsad – tinglovchilarning fikri yoki xatti-harakatini o‘zgartirishdir. Bunga erishish uchun quyidagi pragmatik omillar muhim rol o‘ynaydi.

Manba ishonchliligi – rahbar nutqining samaradorligi uning obro‘siga, tajribasiga va xodimlar oldidagi ishonch darajasiga bog‘liq.

Auditoriyani bilish – motivatsion nutq auditoriyaning ehtiyojlari, qadriyatlari va psixologik holatini hisobga olishni talab qiladi.

Kontekstga moslashish – bir xil nutq turli kontekstlarda turlicha qabul qilinishi mumkin .

Rahbar nutqining motivatsion kommunikativ xususiyatlari biri ilhomlantiruvchi nutq va yo‘naltiruvchi nutqdir. Samarali rahbar nutqi ikki asosiy turga ajratiladi: ilhomlantiruvchi (inspired) va yo‘naltiruvchi (directed) nutq. Ilhomlantiruvchi nutq maqsadlar, ambitsiyalar va umumiy qadriyatlar haqida gapiradi, jamoa a’zolarining yuqori darajadagi motivatsiyasini shakllantiradi. Yo‘naltiruvchi nutq esa aniq vazifalar, talablar va mezonlarni belgilash uchun xizmat qiladi.

Kennedining 1962-yilda oyni zabt etish bo‘yicha nutqi ilhomlantiruvchi nutqning klassik namunasidir: “Biz bu o‘n yillikda Oyni zabt etishni tanlaymiz... chunki bu qiyin” [7] .

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarning hissiy intellekti uning nutqining motivatsion samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Empatik kommunikatsiya – bu rahbarning xodimlarning hissiy holatini tushunish va ularga mos javob qaytarish qobiliyatidir .

Empatik nutqning asosiy elementlari:

1. Xushomad va maqtov – xodimlarning mehnatini tan olish, ularga hurmat ko‘rsatish. O‘zbek iborasida keltirilganidek, “shu beminnat ignachaning ham rahmatga zor qulog‘i border” . Bu ibora orqali ifodalangan fikr – har bir inson, hatto eng kamtarin ishni bajaruvchi ham e’tirofga muhtojligini ko‘rsatadi.

2. Qo‘llab-quvvatlash – qiyin vaziyatlarda xodimlarning yonida ekanligini bildirish.

3. Tinglash qobiliyati – faol tinglash va qayta aloqani ta’minlash.

Har bir pragmatik maqsadga erishish uchun turli strategiyalar qo‘llaniladi. Masalan, harakatga undash uchun “biz” olmoshi va buyruq maylidagi fe’llardan foydalanish samarali hisoblanadi [5].

Ishontirish, dalillar keltirish, statistik ma’lumotlar, ekspert fikri “Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki...”

Harakatga undash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat, buyruq mayli, 2-shaxs olmoshi “Ertadan boshlaymiz!”

O‘zbekiston kabi jamoaviy va yuqori quvvat masofasiga ega madaniyatda rahbar nutqida jamoa birligi, hurmat va an’analarga murojaat qilish ayniqsa samarali hisoblanadi .

O‘zbek tilshunosligida motivatsion nutq bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarning xushomad va maqtovni qo‘llashi xodimlarning ma’naviyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.S.M.Muminov ta’kidlaganidek, “rag‘bat, qanday ish bo‘lmasin, o‘sha ishning samaradorligi, sifati va amaliy ahamiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega” [4].

Pragmatik samaradorlik rahbarning ishonchliligi, auditoriyani bilishi, kontekstga moslashishi va nutqning soddaligi kabi omillarga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Baldoni, J. (2024). The Leaders‘ Guide to Speaking with Presence. Mindtools.

2.Mayfield, J., Mayfield, M. (2018). Motivating Language Theory: Effective Leader Talk in the Workplace. Palgrave Macmillan.

3.Mayfield, J., Mayfield, M. (2018). Motivating Language Theory: Effective Leader Talk in the Workplace. CEU Library.

4. Mo`minov, S.M., Mo‘minov, Sh.S. Shaxs ma’naviyatini o‘stirishda rag‘batning o‘rni va uning rahbar muloqot xulqida namoyon bo‘lishi. Innovatsion tadqiqotlar, Maxsus son 2023y, 689-694.

5. Ravinal, R. (2026, February 19). How Great Speakers Make People Act. Radio & Television Business Report.

6. Lordson, T.E. (2024, November 11). 8 Secrets of Great Leadership Communication. LinkedIn.

7. Guttmann, B. (2024, August). Use Your Message to Inspire. Toastmaster Magazine.

8. Wilkinson, P. (2026, March 21). The Malinauskas comms lesson: Start with values. Mumbrella.

TILSHUNOSLIK

Dilnoza YO‘LDOSHEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti,
Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)
dilnozayuldasheva1994@gmail.com

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA ORTIQCHALIK VA TEJAMLILIK HODISALARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada ommaviy axborot vositalari (OAV) matnlarida kuzatiladigan ortiqchalik va tejamlilik hodisalarining lingvopragmatik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Ishda tejamlilik hodisasi nutqda minimal til vositalari orqali maksimal ma’no ifodalash tamoyili sifatida talqin qilinib, ayniqsa sarlavhalar, reklama va tezkor axborot matnlarida uning ustuvorligi asoslab beriladi. Ortiqchalik hodisasi esa aksincha, ma’no kuchaytirish, ekspressivlikni oshirish, axborotni aniqlashtirish hamda turli auditoriya qatlamlariga moslashish orqali kommunikativ samaradorlikni oshirish vositasi sifatida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *mediadiskurs, lingvopragmatika, ommaviy axborot vositalari, reklama matni, kommunikativ maqsad, pragmatik funksiya, til iqtisodiyligi, ekspressivlik.*

Аннотация: в данной статье проводится всесторонний анализ лингвистопрагматических особенностей явлений избыточности и экономии, наблюдаемых в текстах средств массовой информации (СМИ). В работе явление экономии интерпретируется как принцип выражения максимального смысла минимальными языковыми средствами в речи, обосновывающий его приоритет, особенно в заголовках, рекламе и быстро меняющихся информационных текстах. Явление избыточности, напротив, интерпретируется как средство усиления смысла, повышения выразительности, уточнения информации и повышения коммуникативной эффективности путем адаптации к различным сегментам аудитории.

Ключевые слова: *медиадискурс, лингвистопрагматика, средства массовой информации, рекламный текст, коммуникативная цель, прагматическая функция, языковая экономия, выразительность.*

Annotation: this article comprehensively analyzes the linguopragmatic features of the phenomena of redundancy and economy observed in mass media (MS) texts. In the work, the phenomenon of economy is interpreted as the principle of expressing maximum meaning through minimal linguistic means in speech, justifying its priority, especially in headlines, advertising and fast-moving information texts. The phenomenon of redundancy, on the contrary, is interpreted as a means of enhancing meaning, increasing expressiveness, clarifying information and increasing communicative efficiency by adapting to different audience segments.

Key words: *media discourse, linguopragmatics, mass media, advertising text, communicative purpose, pragmatic function, language economy, expressiveness.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda ommaviy axborot vositalari, reklama, turli ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar o‘rganish obyekti hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu diskurslar tilshunoslikdagi zamonaviy atama mediadiskurs tushunchasini hosil qiladi. Mediadiskurs matnlarining qurilishi boshqa matnlardan ayrim o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Masalan, reklamalarda iste’molchini ishontirish, uni harakatga keltirish uchun reklama beruvchi nafaqat tanlangan so‘zlarning leksik-semantik, balki ularning matndagi xususiyatlarini, sintaktik qurilmadagi o‘zgarishlarini, demakki, sintaktik o‘ziga xosliklarini ham bilishi talab etiladi [Chiniqulov 2019, 108].

Asosiy qism. Mediadiskursda tejamlilik va ortiqchalik hodisalari ko‘pincha stilistik vosita sifatida talqin qilinadi, biroq ularning kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi pragmatik funksiyalari va inson ongida axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq kognitiv mexanizmlari bir butun tizim sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan. Mediadiskurs zamonaviy axborot makonida kommunikativ samaradorlik, tezkorlik va auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish kabi omillar bilan

belgilanadi. Ushbu diskurs turida axborotni yetkazish jarayonida tejamlilik va ortiqchalik hodisalari muhim lingvopragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tejamlilik nutqda minimal til birliklari orqali maksimal ma’no ifodalashga qaratilgan bo‘lsa, ortiqchalik kommunikativ maqsadni kuchaytirish, axborotni mustahkamlash va auditoriya diqqatini jalb etish vazifasini bajaradi.

Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari nutq subyekti, nutq obyekti, nutq vaziyati bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Nutq egasining holati, hodisalarga bo‘lgan munosabati obraz yaratish, so‘zdagi tasvir vositalarini to‘g‘ri tanlay olish muallifning o‘z qobiliyati va mahoratiga bog‘liqdir. Shu sababli so‘zlovchining kognitiv holati, muloqot muhiti (kontekst) va tildan foydalanish aktiga o‘zaro bog‘liq, biri ikkinchisini inkor qilmaydigan hodisalar sifatida qarash ma’quldir. Bu hodisalar o‘zaro bog‘liq va birgalikda “ishlashadi”. Lekin bu jarayon qanday kechadi va bajariladigan harakatlarning ketma-ketligi qanday ko‘rinish olishi hozircha ma’lum emas [Safarov 2008, 133]. Pragmatika ikki xil muammoni tahlil qiladi: birinchidan, nutqiy akt va nutq “mahsulotlari”ning qiziqarli turlarini aniqlash; ikkinchidan, nutqiy kontekstda, muayyan jumlada qanday propozitsiya ifodalanishini aniqlashga ta’sir qiluvchi belgi va xususiyatlarni tavsiflash [Столнейкер 1985, 419]. Pragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, tejamlilik va ortiqchalik hodisalari nutq subyektining kommunikativ niyatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, ular auditoriyaning bilim darajasi, axborotni qabul qilish tezligi hamda diskurs konteksti bilan uzviy aloqada shakllanadi.

Reklama matnini tuzuvchi har bir shaxs tomonidan tanlangan har bir gap, so‘z birikmasining qurilishi ma’lum bir maqsadga, ya’ni reklama qabul qiluvchining diqqatini jalb qilish, iste’molchini reklama qilinayotgan mahsulotning ijobiyligiga ishontirish, ularning qiziqishini orttirishga yo‘naltiriladi. Ushbu kommunikativ maqsadni amalga oshirish uchun, albatta, reklama matnlari ba’zan qisqa, ba’zan uzun holatda tuziladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, reklama matnlari, asosan, qisqa, ko‘tarinki, his-hayajonli, asosiysi, huquqiy holatda yaratiladi. Reklamalarda tejamlilik tamoyiliga amal qilinadi, ushbu matnlar sodda gaplar, egasiz gaplar, kiritmalar, undovlar, his-hayajonli gaplar, buyruq, so‘roq va darak gaplardan foydalaniladi. Reklamalar iste’molchini zeriktirib qo‘ymasligi, vaqtini band qilmasligi, asosiysi, qiziqtira olishi lozimligi bilan boshqa mediamatnlardan farq qiladi. Shunga ko‘ra, ba’zi reklamalarda qisqa va aniqlikka rioya qilinsa, ba’zisida, aksincha, izohli matnlar, sinonimlarning ketma-ket ifodalanishi, grammatik shakllarni har bir leksemalarda takror qo‘llanishi yetakchi hisoblanadi, bu holat ham reklama matnini yanada oydinlashtirib, ortiqcha savollarga o‘rin qoldirmasligi mumkin. Reklama matnining amaliy ahamiyati shundaki, uning tarkibida qo‘llangan har bir so‘z reklama qilinayotgan mahsulotga yoki xizmat turiga xaridorlarda qiziqish uyg‘otishdek yukni o‘z zimmasiga oladi.

Zamonaviy kommunikatsiya jarayonida ommaviy axborot vositalari (OAV) tilning faol va dinamik qo‘llanilish maydoni sifatida muhim o‘rin tutadi. OAV matnlari keng auditoriyaga mo‘ljallanganligi sababli, unda til birliklarining tanlanishi, ularning iqtisodiy yoki ortiqcha qo‘llanishi muhim lingvistik va pragmatik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ortiqchalik va tejamlilik hodisalarini lingvopragmatik yondashuv asosida o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Tilshunoslikda ortiqchalik hodisasi nutqda ma’lumotni ortiqcha vositalar orqali ifodalashni anglatadi. Bu hodisa ba’zan axborotning aniqligini oshirish, urg‘u berish yoki kommunikativ samaradorlikni ta’minlash uchun qo‘llaniladi. Masalan, sinonimik takrorlar, izohlovchi konstruksiyalar yoki ortiqcha grammatik vositalar orqali ma’no kuchaytiriladi.

Tejamlilik esa aksincha, nutqda minimal vositalar orqali maksimal ma’no yetkazishni anglatadi. Bu prinsip til iqtisodiyligi qonuni bilan bog‘liq bo‘lib, nutqni ixcham, lo‘nda va samarali qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sarlavhalar, reklama matnlari va tezkor xabarlar tilida bu hodisa yaqqol namoyon bo‘ladi. Lingvopragmatika til birliklarining nutq jarayonidagi funksional va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganadi. Bu yondashuvda asosiy e’tibor nutq subyekti (muallif), adresat (o‘quvchi yoki tomoshabin) va kontekst o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga qaratiladi.

OAV matnlarida ortiqchalik va tejamlilik hodisalari aynan pragmatik maqsadga xizmat qiladi. Ya’ni muallif axborotni qanday yetkazishni, qaysi vositalar orqali o‘quvchiga ta’sir qilishni ongli ravishda tanlaydi.

Ommaviy axborot vositalarida ortiqchalik quyidagi holatlarda uchraydi:

1. Ta’kid va ekspressivlikni kuchaytirish. Masalan: *“Mutlaqo yangi va innovatsion loyiha”,*

“Juda muhim va dolzarb masala”. Bu yerda bir xil ma’nodagi birliklar takrorlanib, tinglovchiga kuchliroq ta’sir o‘tkaziladi.

2. Auditoriyaga moslashuv. Turli saviyadagi o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi maqsadida izohli va kengaytirilgan ifodalar qo‘llanadi.

3. Axborotni aniqlashtirish. Ba’zan ortiqcha elementlar noto‘g‘ri talqin ehtimolini kamaytiradi.

OAV matnlarida tejamlilik hodisasini asosan, sarlavhalarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan: *“Narxlar oshdi”, “Yangi qaror qabul qilindi”.* Bu yerda ortiqcha grammatik vositalar tushirib qoldiriladi. Reklama matnlarida qisqa, esda qoladigan va ta’sirchan iboralar ishlatiladi, bu esa tezlikni, qulaylikni hamda ishonchlilikni ta’minlaydi. Ommaviy axborot vositalarida tezkorlik talab etilgani sababli ixcham ifodalar ustunlik qiladi.

Xulosa. Ortiqchalik va tejamlilik hodisalari qarama-qarshi bo‘lsa-da, ular kommunikativ samaradorlikni oshirish, auditoriyaga ta’sir qilish, axborotni aniq va tez yetkazish, matnning stilistik xususiyatlarini belgilash kabi umumiy maqsadlarga xizmat qiladi. Muallif vaziyatga qarab ortiqchalik yoki tejamlilikni tanlaydi. Masalan, analitik maqolalarda *ortiqchalik* ko‘proq, yangiliklarda esa *tejamlilik* ustun bo‘ladi. Ommaviy axborot vositalari tilida ortiqchalik va tejamlilik hodisalari muhim lingvopragmatik vositalar hisoblanadi. Ular nutqning mazmuni, shakli va ta’sirchanligini belgilaydi. Lingvopragmatik yondashuv esa ushbu hodisalarni nafaqat til birliklari sifatida, balki kommunikativ strategiya sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Kelgusida OAV matnlarini yanada chuqurroq o‘rganish, ayniqsa, raqamli media sharoitida bu hodisalarning yangi ko‘rinishlarini tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika – Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2008. 318-b.

2.Столнейкер Р.С. Прагматика. Перевод с английского В.В.Туровского // Новое в зарубежной лингвистике, Вып. 16. Лингвистическая прагматика. Сборник. –М.: Прогресс, 1985. С.419– 439.

3. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., The Problem of the Archaic Words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48–53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

4.Yusubova R.N. Studying linguopoetics through linguostylistic methods. Eureka Journal of Language, Culture & Social Change (EJLCSC), Volume 2, Issue 3, March 2026.

5. Yo‘ldosheva Dilnoza Xasan qizi (2023) Pragmatic factors in the realization of artistic and aesthetic content. International Journal Of Literature And Languages, 3(09), 11–13. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue09-03.

6. Yuldasheva Dilnoza Khasan Kizi, Mukhammadkhon Soliev, Herman, LiesnaAndriany “The Social Role of the Java Deli Community in Shaping the Language and Cultural Identity of Java Descendants Born in Sumatra” Forum for Linguistic Studies https://journals.bilpubgroup.com/index.php/fl Volume 07, Issue 07, July 2025. 257-269.

7. Chiniqulov N.J. Peshlavhalarning lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Navoiy universiteti nashriyot matbaa uyi, 2019.108-b.

Nizomiddin QULDASHEV,
Farg‘ona davlat universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
kuldashev.nizomidin@mail.ru
Olmossarida ALIYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti,
olmossaridaaliyeva@gmail.com

NUTQNI BUZUVCHI SALBIY HODISALAR

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada hozirda tez – tez uchrayotgan nutqni buzuvchi salbiy hodisalar o‘rganilgan. Tadqiqot davomida og‘zaki va yozma nutq jarayonlarini buzayotgan muammoli vaziyatlar ko‘rib chiqilib, tahliliy yondashuv orqali ularni qanday bartaraf etish mumkinligi hamda yanada rivojlantirish zarurligi aniqlangan.Maqolada statistik ma’lumotlar, tahlil natijalari, shuningdek, mutaxassislarning fikrlari asosida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *nutq, salbiy hodisalar, dialektizm, varvarizm, jargon, vulgarizm, parazit so‘zlar, kanselyarizmlar, disfemizm, ta’qiq (tabu).*

Аннотация: в данной научной статье изучены негативные явления, нарушающие речь, которые в настоящее время часто встречаются. В ходе исследования были рассмотрены проблемные ситуации, нарушающие процессы устной и письменной речи, а также с помощью аналитического подхода определены способы их устранения и необходимость дальнейшего развития. В статье приведены выводы на основе статистических данных, результатов анализа, а также мнений специалистов.

Ключевые слова: речь, отрицательные явления, диалектизм, варваризм, жаргон, вульгаризм, паразитные слова, канцеляризмы, дисфемизм*, табу.*

Annotation: this scientific article examines negative phenomena that disrupt speech, which are frequently encountered nowadays. During the research, problematic situations affecting both oral and written speech processes were analyzed, and through an analytical approach, ways to eliminate them and the need for further development were identified. The article presents conclusions based on statistical data, analysis results, as well as expert opinions.

Ke ywords: *speech, negative phenomena, dialectism, barbarism, jargon, vulgarism, parasitic words, cansellary words, dysphemism, taboo*.

Kirish. Nutq lisonning me’yor elagidan o‘tgan va muayyan moddiy (yozma, og‘zaki, tasviriy imo-ishora, signal va h.k.) shakllarda namoyon bo‘ladigan hodisadir. Nutq so‘zlovchining til birliklari vositasida fikrni shakllantirish (ichki nutq) va uni ifodalash (tashqi nutq) jarayonini o‘z ichiga oladi. Filologiya fanlari doktori, professor Ravshanxo‘ja Rasulov hamda filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD.) tomonidan yaratilgan “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” asarida nutqning tozaligi va unga salbiy ta’sir etuvchi omillar keng yoritilgan. Ushbu nazariy qarashlar asosida nutqda uchraydigan buzilishlar quyidagicha izohlanadi.

Nutqdagi buzilishlar uning tozaligi va ta’sirchanligiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy til me’yorlariga muvofiq kelishi tushuniladi. Nutqimizning sofligiga asosan, quyidagi omillar ta’sir qiladi:

Mahalliy dialekt va shevalarga xos so‘z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so‘z va so‘z birikmalarining talaffuzi hamda urg‘usi.

O‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari.

Jargonlar.

Vulgarizmlar.

Nutqda ortiqcha takrorlanadigan “parazit” so‘zlar.

Kanselyarizmlar.

Sanab o‘tilganlardan o‘rinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir so‘zlovchi o‘z nutqining adabiy me’yorlar darajasida bo‘lishi uchun harakat qilishi lozim. O‘z shevasiga xos bo‘lgan til vositalarini nutqqa o‘rinsiz olib kirish nutqni buzadi. Biroq dialektizmlar va varvarizmlar badiiy asar tilida ma’lum badiiy - estetik vazifani bajarishi, muallifning g‘oyasi va niyatini ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Muallif milliy koloritni berish yoki asar qahramonining qayerlik ekanini ko‘rsatish maqsadida dialektizm va varvarizmlardan foydalanadi. Masalan:

“Yoshulli, siz buni emas, meni tinglang! Bu mang‘layi qoraning sherigi bor” (T. Malik).

Ushbu misolda dialektizmlar hududiy koloritni berishga xizmat qilgan. Quyidagi misolda esa varvarizmlar chet so‘zlar qahramon xarakterini ochishda muhim rol o‘ynagan:

“Ishondim, o‘rtoq general. Hammasi yaxshi bo‘ladi. Uyda muzlatkichda muz ham bor, olib chiqaymi? Sizga tekin” (T. Malik).

Lahjaviy so‘zlarning badiiy adabiyotda o‘rinli qo‘llanishi nafaqat maqsadga muvofiq, balki adabiy tilning boyishiga ham xizmat qiladi. Masalan, nihol o‘tkazish jarayonida ishlatiladigan “xancha” so‘zi o‘z o‘rnida izoh bilan berilsa, nutqni boyitadi.

Nutqda o‘rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so‘zlar varvarizmlar deb ataladi. Ayrim kishilarning o‘z nutqini nazorat qilmasligi, mos so‘z topishga erinishi yoki boshqa tilni bilishini ko‘rsatishga urinishi natijasida bunday so‘zlar nutqqa kirib keladi: “zvonit qildim”, “bibliotekaga bordim”, “astanovkada turdim” kabi. Bunday holatlardan qutulish uchun ona tilini chuqur o‘rganish, unga hurmat bilan qarash, so‘z qo‘llashga e’tiborli bo‘lish va badiiy asarlarni ko‘proq mutolaa qilish zarur. Ayrim kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos “tili” mavjud bo‘lib, ular orqali boshqalardan ajralib turishga yoki fikrni yashirishga intiladilar. Bunday so‘zlar jargonlar deb ataladi. Masalan, “novcha” (aroq), “qizil” (vino) kabi so‘zlar ichuvchilar nutqiga xosdir.

Vulgarizmlar esa axloq me’yorlariga zid bo‘lgan, kishini haqoratlash yoki so‘kishda ishlatiladigan so‘zlardir. Ularni qo‘llash so‘zlovchining nutq madaniyati pastligini ko‘rsatadi.

Parazit so‘zlar ham nutq madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular, asosan, so‘zlashuv nutqida uchrab, notiqning e’tiborsizligi natijasida paydo bo‘ladi va asta-sekin odatga aylanadi. Masalan, A. Qodiriy “Mehrobdan chayon” asarida qahramon nutqida “pa’lanat” so‘zini parazit sifatida qo‘llab, uning nutqini individuallashtirgan.

Kanselyarizmlar ish yuritish uslubiga xos bo‘lgan tayyor qolipdagi so‘z va iboralardir. Ular rasmiy hujjatlar uchun zarur bo‘lsa-da, so‘zlashuv nutqida yoki badiiy adabiyotda o‘rinsiz qo‘llansa, nutqni sun’iylashtiradi.

Masalan:

“Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o‘z hayotimizda qat’iy burilish yasab, zo‘r sinovlar sharoitiga qadam qo‘ydik...[1]» **(A.** Qahhor). Gapdagi “365 kun muqaddam”, “qat’iy burilish sabab”, “zo‘r sinovlar sharoitiga qadam qo‘ydik” kabi nutq birliklarini qo‘llash bilan yozuvchi ayrim “notiqlar” ustidan kuladi[2]. Shuningdek, Rustamjon O‘rinov *“Ona tili”* o‘quv qo‘llanmasida nutqda disfemizmlar va nutqdagi “ta’qiq”lar (tabu) masalasi yoritilgan. Disfemizm (yunoncha “qo‘pol gapirmoq”) biror tushunchani qo‘pol yoki salbiy ohangda ifodalovchi birlikdir. Masalan, “yomon bo‘libdi” o‘rniga “rasvo bo‘libdi”, “kasal” o‘rniga “dard uribdi” kabi ifodalar ishlatiladi. Disfemizmlarni ko‘p qo‘llash nutq madaniyatining pastligini ko‘rsatadi. Nutqda ayrim tushunchalarni jamiyat madaniy me’yorlariga ko‘ra ochiq aytish mumkin emas. Bu nutqiy “ta’qiq” (u fanda polineziya tilidan olingan “tabu” so‘zi bilan nomlanadi) deyiladi. Ular o‘rniga “yumshoq”, “qog‘ozga o‘ralgan”, ya’ni madaniy ifodalar qo‘llanadi.

Nutqdagi “ta’qiq”lar quyidagilar asosida hosil bo‘lishi mumkin:

Qo‘rquv asosida (chayon so‘zi o‘rnida gajak, o‘lmoq so‘zi o‘rnida ketmoq so‘zlari qo‘llanishi)

Uyat asosida (tug‘moq – farzandli bo‘lmoq)

Hurmat asosida (sen – siz, bor – boring kabi).

Bundan tashqari, qo‘llanmada muallif yozma nutqning to‘g‘riligi va me’yorlariga ham quyidagicha e’tibor qaratgan. Bilasizki, adabiy tilning yozma shaklida to‘g‘rilik sifatining ta’minlanishi uchun yana ikki turli me’yorga amal qilish lozim. Bu me’yorlar quyidagilardan iborat:

Imlo (orfografik) me’yorlari.

Tinish belgilari (punktuatsion) me’yorlari.

Imlo me’yorlari savodxonlikni ta’minlashning asosi hisoblanadi. Yozuv madaniyatini shakllantirishda tinish belgilarini qo‘llash qoidalarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning harflar, raqamlar kabi boshqa vositalari hamda so‘zlar, morfemalar kabi til birliklari bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda favqulodda muhim o‘rin tutadi.

Annotatsiya: ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Kutilgan kun” hikoyasida ayol obrazi masalasi ilmiy-tahliliy asosda yoritilgan. Ijodkorning ayollar xarakteri, ruhiy kechinmalari, ma’naviy olami, umuman, badiiy qiyofasini tasvirlash usullari tahlil qilingan. Yozuvchining psixologik tasvir, portret va dialogdan foydalanish mahorati, ayol obrazi tasviri orqali insoniy qadriyatlar, ma’naviy mas’uliyat va hayotiy ziddiyatlarning ifodalanish xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *hikoya, obraz, ayol obrazi, xarakter, ruhiyat, psixologiya, badiiy talqin.*

Аннотация: в данной статье на научно-аналитическом уровне рассматривается вопрос образа женщины в рассказе Лукмана Борихана «Кутилган кун» («Ожидаемый день»). Анализируются методы автора в описании характера, духовных переживаний, духовного мира и, в целом, художественного образа женщины. Выявляются навыки писателя в использовании психологических образов, портретов и диалогов, а также особенности выражения человеческих ценностей, духовных обязанностей и жизненных конфликтов посредством изображения образа женщины.

Ключевые слова: *рассказ, образ, образ женщины, персонаж, психика, психология, художественная интерпретация.*

Annotation: this article discusses the issue of the image of a woman in Luqman Borikhan’s story “Kutilgan kun” (“The Expected Day”) on a scientific-analytical basis. The author’s methods of portraying the character, spiritual experiences, spiritual world, and, in general, the artistic image of women are analyzed. The writer’s skill in using psychological images, portraits, and dialogue, and the features of expressing human values, spiritual responsibilities, and life conflicts through the depiction of a woman’s image are identified.

Key words: *story, image, image of a woman, character, psyche, psychology, artistic interpretation.*

Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida ayol obrazi alohida o‘rin tutadi. Yozuvchining inson xarakteri va ruhiy olamini tasvirlashdagi badiiy mahorati ayollar obrazini yaratishda ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Adib hikoyalarida ayol timsoli, avvalo, uning ichki kechinmalari, ruhiy holati hamda jamiyat va voqea-hodisalarga munosabati orqali badiiy talqin etiladi. Obrazlarning xarakteri tashqi tasvir vositalaridan ko‘ra ko‘proq ichki dramatizm, ruhiy tahlil va hayotiy ziddiyatlar asosida ochib beriladi. Natijada ayol qahramonlar murakkab tabiatga ega, hayotiy va psixologik jihatdan asoslangan, badiiy jihatdan ishonarli timsollar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa yozuvchining realistik tasvir tamoyillariga tayanib, ayol obrazining estetik va ma’naviy qimmatini yuksak darajada ifodalashga erishganini ko‘rsatadi.

Ijodkorning “Kutilgan kun” hikoyasida tasvirlangan ayol obrazi yozuvchining o‘ziga xos mahoratidan dalolat beradi. Hikoyada ayol o‘zaro munosabatlari, dialoglari orqali faol ishtirok etmaydi, ammo syujet rivojida, yozuvchining g‘oyaviy qarashlarida ayol timsoli muhim o‘rin tutadi.

Aslida asarning yetakchi qahramoni Boyxon obrazidir. Ammo yozuvchi uning hayotida muhim o‘rin tutgan inson sifatida ayolini ko‘rsatadi. Asarda uning timsoli orqali o‘zbek kelinlariga xos ma’naviy-axloqiy fazilatlarni yaqqol kuzatish mumkin.

Ijodkor “Kutilgan kun” hikoyasida sabr-qanoatli ayol timsolini badiiy talqin etadi. Asarda asosiy e’tibor Boyxonning ruhiy holati, ichki kechinmalari hamda xatti-harakatlari tasviriga qaratilgan. U mehnat qiladi, ammo ayni paytda, ichkilikka berilganligi va bundan voz kecha olmaganligi tufayli uning barcha sa’y-harakatlari va rejalari izchil amalga oshmaydi, besamar qolaveradi. Shunga qaramay, muallif qahramonni mutlaq salbiy tip sifatida talqin etmaydi. Uning sofdilligi, kamtarligi hamda o‘z xatolarini anglashga moyilligi obrazning murakkab va ziddiyatli tabiatini ko‘rsatadi. Ayni paytda Boyxondagi qat’iyatsizlik va irodasidagi zaiflik badiiy jihatdan asoslangan holda tasvirlansa-da, ammo bu fazilatlari uni to‘la ma’noda oqlamaydi. Uning ayoli esa oilasi oldidagi o‘z burchini to‘laqonli bajaradigan, hayoli, oqila kelin timsoli sifatida gavdalangan. Yuksak fazilatlar sohibasi bo‘lgan bu ayol turmush o‘rtog‘ining ko‘nglida iliq tuyg‘ular o‘yg‘onishiga, unda o‘zini o‘zgartirish, ayoliga munosib bo‘lish istagining kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Hikoyada kelinchakning portreti tasviri ham alohida e’tiborni tortadi: “Sochini chiroyli turmaklab, duracha bilan tang‘ib olgan xotini o‘sha o‘rik daraxtining shoxlariga kir yoymoqda edi. Durrachasi tegidan chiqib turgan, shamolda hilpirayotgan uzun-uzun soch tolalariga daraxtning nurdek ingichka bir shoxi go‘yo o‘pmoqchiday ohista-ohista silanar, kelinchak esa shirin-shakar xayollar og‘ushida zavqlanib betinim iljayardi.

Boyxon bu xush manzarani to‘rt-besh daqiqa – to unga xotinining ko‘zi tushgunicha tomosha qilib turarkan, nogoh, dimog‘iga gup etib o‘rik gullarining ifori urilgandek tuyuldi. Boshi aylanib ketdi.

Xotini u tomon ilkis nazar tashladi-yu, ikkovlari baravar iljaydilar. Bu ularning bir-biroviga birinchi samimiy tabassumi edi”. Mazkur parcha hikoyada ayol obrazining bilvosita, ya’ni erkak qahramon nigohi orqali ochib berilishiga xos badiiy-uslubiy

xususiyatlarni namoyon etadi. Avvalo, kelinchak obrazi portreti orqali estetik jihatdan nozik va latofatli qilib tasvirlanadi: “sochini chiroyli turmaklab”, “durracha bilan tang‘ib olgan”, “shamolda hilpirayotgan uzun soch tolalari” kabi ifodalar ayolning nafaqat tashqi go‘zalligini, balki uning nafis tabiatini ham anglatadi. Ayniqsa, o‘rik daraxti shoxining sochlarga “ohista silanishi” tasviri badiiylik kasb etib, ayolni tabiat bilan uyg‘un holda ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu esa kelinchak timsolining poklik, beg‘uborlik va hayotiy nafosat bilan bog‘langanligini bildiradi.

Ikkinchidan, ayol obrazi uning ichki ruhiy holati orqali ham ochiladi. “Shirin-shakar xayollar og‘ushida zavqlanib betinim iljayishi” kelinchakning baxtiyorlikka intilgan, sodda va samimiy ruhiyat egasi ekanini ko‘rsatadi. Bu yerda muallif ayolning ichki kechinmalarini bevosita emas, balki muayyan holat tasviri orqali ifodalab, psixologik tasvir usulidan unumli foydalanadi.

Uchinchidan, ayol obrazi erkak qahramon – Boyxon nigohi orqali yanada chuqurlashadi. Boyxonning xotiniga qarab “to‘rt-besh daqiqa” mahliyo bo‘lib qolishi, uning go‘zalligidan ruhiy larzaga kelishi (“dimog‘iga o‘rik gullarining ifori urilgandek tuyuldi, boshi aylanib ketdi”) ayol timsolining qahramon ongida ideal darajaga ko‘tarilganini anglatadi. Bu esa yozuvchining portret tasvirida ham o‘ziga xos yo‘ldan borganligini ko‘rsatadi. Ya’ni qahramon bevosita emas, balki boshqa bir qahramon nigohi orqali kuzatiladi. Bu esa asarda boshqa bir qahramon munosabati, tasavvurlari, ichki holatidan kelib chiqqan holda anglangan va tasavvur qilingan qahramonning portretini yuzaga chiqaradi. Aslida yozuvchining tasviriga ko‘ra kelinchak “Ammasining qizi Sarg‘ishdan kelgan, yuzlari cho‘zinchoq, qoshlari siyrak, qo‘ng‘irtob ko‘zlari o‘ychan bo‘lib, ishqilib, gulday emasdi. Lekin, tillo ekan”, deb ta’riflangan. Ammo Boyxonning nigohi orqali u kitobxon ko‘z o‘ngida nafosatli va betakror ko‘rinishda namoyon bo‘ladi hamda surati va siyratidagi muvofiqlik kelinchakning to‘laqonli olamini kitobxon ko‘z o‘ngida yorqin gavdalantiradi.

Shuningdek, kelinchakning oddiygina tabassumi er-xotin o‘rtasidagi ruhiy yaqinlik oilaviy muhitdagi mehr va samimiyatning manbai ayolning munsabati bilan bog‘liqligini anglatadi. Boyxonning xotiniga sovg‘a olish niyati, uning haqida mehr bilan o‘ylashi kabi jihatlar ayol obrazining bevosita ishtirokisiz ham uning oiladagi ta’sir kuchini ko‘rsatib turadi. Ya’ni kelinchak syujet markazida faol harakat qilmasa-da, turmush o‘rtog‘ining ruhiyatida jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lganini anglatadi. Uning samimiy tabassumi turmush o‘rtog‘iga nisbatan bo‘lgan iliq munosabati, muhabbatini namoyon etadi. Natijada kelinchak timsoli o‘zbek ayoliga xos latofat, ichki poklik va ma’naviy go‘zallikni mujassam etgan badiiy obraz sifatida gavdalanadi.

Kelinchakning eng muhim fazilatlaridan yana biri uning sabr-qanoati va bag‘rikengligida ko‘rinadi. Boyxonning ichkilikdan tiyila olmasligi, beqaror hayoti bilan xotinning bosiqlik, muloyimlik va itoatli munosabati yonma-yon qo‘yiladi va kitobxonning bu orqali mushohada qilishiga zamin hozirlanadi. U erining harakatlariga nisbatan keskin norozilik bildirmaydi, janjal ko‘tarmaydi, aksincha, sukut va sabr orqali o‘z munosabatini ifoda etadi.

Ayolga xos eng muhim jihatlardan yana biri uning mehr-shafqatga asoslangan munosabatidir. Asardan keltirilgan ushbu parchada bu jihat yaqqol namoyon bo‘ladi: “U kelin bo‘lib keldi-yu, harobgina hovlichaga fayz kirib qoldi. Ammo Boyxonda hech bir o‘zgarish sezilmasdi. U har erta bir yoqlarga gum bo‘lar, allakimlargadir yollanib, ishlab topgan va besh-olti so‘mini kechqurun xotinining oldiga uyalib, avaylabgina qo‘yar edi. Biroq ahr uch-to‘rt kunda gandiraklaganicha g‘o‘ddayib bo‘sag‘ada paydo bo‘lishini ham tashlamasdi. Boyxon mast chog‘lari, negadir, ko‘proq iymanar, xotinining ayuhannos solishini, “ketaman”, deya po‘pisa qilishini, uvvos tortib yig‘lashini juda-juda istar edi. Xotini esa hech bir jirkanmay, hayiqmay, erining iflos kiyimlarini yechar, yuvintirardi»[1]. Boyxon esa bu holatdan iymanib yurar, xijolat chekar, ammo o‘zini o‘zgartirishga kuch topa olmas edi.Hamisha xotinining keskin qarshiligi, e’tirozidan hadiksirab yashar, “Baribir meni tashlab ketadi” degan o‘yni boshdan kechrar edi. Bunga qarama-qarshi holatda muallif kontrast usulidan foydalanib, ayolning sokinligi va sabrini yanada ta’sirchanroq ko‘rsatadi. Bu esa ayolning kuchli va irodali shaxs ekanligini asoslashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, hikoyadagi Boyxonning ayoli timsoli sabr-qanoatli, mehribon, fidoyi va ma’naviy jihatdan yetuk inson sifatida gavdalanadi. Asarda yozuvchi ayolning xarakteri, ma’naviy olamini uning nutqi, voqea-hodisalarga faol aralashuvi bilan emas, kuchli irodasi, samimiyati, asardagi boshqa qahramonlar ruhiyatiga ta’siri orqali ochib beradi. Yozuvchi uni nafaqat oila muhitini tartibga soluvchi inson, balki insoniy qadriyatlarni saqlab qoluvchi axloqiy tayanch bo‘la oladigan kuch sifatida talqin etadi.

1 Luqmon Bo‘rixon” Kutilgan kun. / Internet sayti: https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-kutilgan-kun-hikoya/

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo‘rixon L. Kutilgan kun. / Internet sayti: https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-borixon-kutilgan-kun-hikoya/

2. Davronova, S., & Kandimova, I. (2023). CHARACTER CREATION SKILLS OF LUKMON BORIKHAN. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE” INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION* (Vol. 2, No. 4, pp. 30-34).

3. Ne’matullayeva, S. (2025). LUQMON BO ‘RIXON ASARLARIDA QAHRAMONLAR PSIXOLOGIZMI. *Универсальный индекс библиотеки молодых ученых*, *3*(37), 39-40.

4. Ruzimbayeva, D. (2025). ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, *1*(1), 100-103.

Dilshod RAJABOV,
BuxDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, f.f.d.(DSc)
Ozoda AZIMOVA,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi ikkinchi bosqich magistranti

JAVLON JOVLIYEV HIKOYALARINING BADIIY-USLUBIY O‘ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya: zamonaviy o‘zbek adabiyotining iste’dodli vakillaridan biri Javlon Jovliyev hikoyalari hayotiyligi, obrazlarining tabiiyligi hamda badiiy tilining ixchamligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada yozuvchi hikoyalarini poetik jihatdan tadqiq etish, xususan, uning individual uslubi, syujet va kompozitsiya qurilishi hamda obrazlar tizimini tahlil qilish markaziy o‘ringa qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: *Javlon Jovliyev, zamonaviy hikoyachilik, individual uslub, badiiy mahorat, ramz, detal, obrazlar tizimi, poetika.*

Аннотация: рассказы Джавлона Джовлиева, одного из талантливых представителей современной узбекской литературы, отличаются своей жизненностью, естественностью образов и лаконичностью художественного языка. В данной статье центральное место занимает поэтическое исследование рассказов писателя, в частности, анализ его индивидуального стиля, построения сюжета и композиции, а также системы образов.

Ключевые слова: *Джавлон Джовлиев, современная новеллистика, индивидуальный стиль, художественное мастерство, символ, деталь, система образов, поэтика.*

Annotation: the stories of Javlon Jovliyev, one of the talented representatives of modern Uzbek literature, are distinguished by their vitality, the naturalness of their characters, and the conciseness of their artistic language. This article focuses on the poetic study of the writer’s stories, specifically analyzing his individual style, plot and compositional structure, and the system of characters.

Key words: *Javlon Jovliyev, modern short story writing, individual style, artistic mastery, symbol, detail, system of images, poetics.*

Hozirgi o‘zbek adabiyoti nasrida badiiy til va uslub masalasi yozuvchining individual ijodiy qiyofasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining faol vakillaridan biri bo‘lgan Javlon Jovliyev ijodida ham badiiy til, ramz, detal, uslub va tasvir vositalari muhim poetik ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi hikoyalarining badiiy tilini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Ijodkor asarlarida sodda, tabiiy, xalqona, samimiy va shu bilan birga falsafiy mazmun bilan boyitilgan badiiy nutq yetakchi o‘rin tutadi. Bu jihat ayniqsa uning “So‘y la, daryo, so‘y la…”, “Buxoro, Buxoro, Buxoro”, “Ozodlik”, “Lobar, Lobar, Lobarim mening”, “Ayol”, “Qizlar bilan uchrashuvim”, “Elbek”, Ikki yosh uchrashuvi” kabi hikoyalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Javlon Jovliyev hikoyalarining badiiy tilida ajralib turadigan yana bir jihat shundaki, tabiiylik va hayotiylik ustunlik qiladi. Yozuvchi qahramonlar nutqini yaratishda ularning ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi, ruhiy holati va yashash muhitini hisobga oladi va natijada har bir obrazning nutqi individual xarakter kasb etadi.

Yozuvchining “Buxoro, Buxoro, Buxoro” hikoyasi inson taqdiri, vatandan ayrilish fojiasi va og‘ir hayotiy sinovlar jarayonida shakllanadigan inson xarakteri masalalarini chuqur badiiy tasvir orqali yoritib beradi. Asarda qahramonlar hayoti orqali inson ruhiyati, uning sabr-toqati, ma’naviy kuchi, matonati hamda vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbati keng ochib berilgan. Shu bilan birga, asarda turli tipdagi qahramonlar obrazi yaratilgan bo‘lib, ular ijtimoiy muhit, tarixiy sharoit va shaxsiy hayotiy sinovlar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlangan. Asarning bosh qahramoni bolaligidan og‘ir hayotiy sinovlarga duch keladi va kurashuvchan tipdagi qahramon sifatida tasvirlanadi. U vatandan uzoqda, musofir yurtda qashshoqlik va muhtojlik sharoitida ulg‘ayadi. Oilasining og‘ir ahvoli, akasining kasalligi va keyinchalik vafot etishi, onasining ham og‘ir dard tufayli hayotdan ko‘z yumishi qahramon ruhiyatiga juda chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Biroq ana shunday fojiali holatlar uning xarakterini sindirmaydi, aksincha, yanada mustahkamlaydi. Shu jarayonda uning shaxsiyati shakllanadi, u sabrli, irodali va maqsad sari intiluvchan, kurashuvchan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyada inson xarakterining muhim jihatlaridan biri sifatida vatanga bo‘lgan sog‘inch hissi ham alohida o‘rin egallaydi. Qahramonning onasi doimo Buxoroni eslab yashaydi va o‘z farzandlariga ham bu muqaddas maskan haqida doimo so‘zlab beradi. Onaning “Buxoro — yig‘lamaydigan joy” degan so‘zlari bolalar ongida ideal makon, xursandchilik, baxt va osoyishtalik timsoli sifatida shakllanadi. Asarda ona obrazi orqali muallif surgun fojiasi, vatandan ayrilish azobi va ona qalbining cheksiz mehrini, sabr-matonatini juda chiroyli tarzda ifodalaydi. Ota obrazi ham muhim ijtimoiy tip sifatida tasvirlanib, mehnatkash, halol va sabrli inson sifatida namoyon bo‘ladi. Qashshoqlik va turli qiyinchiliklarga qaramay, ota o‘z mas’uliyatini unutmaydi va oilasini asrashga harakat qiladi. Hikoyada ota obrazi oddiy mehnatkash insonlarning umumlashgan timsoli bo‘lib, ularning hayotiy kurashini ifodalaydi.

Jovliyev Javlonning “So‘yla, daryo, so‘yla…” hikoya-dialogi ham inson qalbidagi iztiroblar, pushaymonlik, muhabbat va vijdon azobi, g‘urur, sabr kabi murakkab psixologik holatlarni ochib beruvchi asarlardan biridir. Asar dialog shaklida qurilgan bo‘lib, unda qahramonlar o‘rtasidagi suhbat orqali inson xarakterining ichki qatlamlari ko‘rsatiladi. Mazkur hikoyada inson xarakteri asosan ruhiy kechinmalar, hayotiy xatolar, g‘urur ketidan pushaymonlik, o‘tgan umrga nazar tashlash hamda vijdon azobi orqali ochib beriladi. Asarning markazida polvon obrazidagi

erkak qahramon turadi. U hayotining oxirgi bosqichida o‘zining o‘tmishdagi xatti-harakatlarini eslab, daryo bo‘yida ularning oqibatlari bilan yuzma-yuz keladi. Polvon obrazida muallif inson tabiatidagi g‘urur, shubha, nafs va pushaymonlik kabi qarama-qarshi sifatlarni mahorat bilan mujassamlashtirgan. Muallif bu obraz orqali inson xarakterida kuch bilan birga ma’naviy yetuklik ham zarur va shart ekanini ko‘rsatadi. Hikoyada polvon obraziga qarama-qarshi tarzda Oynur obrazi yaratilgan bo‘lib, Oynur obrazida ayolga xos sabr-toqat, chidamlilik va ruhiy matonat mujassamlashgan. Oynur obrazining asosiy xarakter xususiyati – sabr va sukutdir. Asarda yana bir muhim obraz – Obod obrazi hisoblanadi. Obod yosh, oriyatli va muhabbatga sodiq yigit sifatida tasvirlanadi, u Oynurni chin dildan sevadi va bu muhabbat uchun kurashishga tayyor shaxs sifatida gavdalantiriladi. Biroq uning imkoniyatlari polvonnikidan kamroq bo‘ladi va shu sabab kurash jarayonida u yutqazadi, natijada sevgan qizidan ayriladi. Obod obrazi orqali muallif inson orzularining barbod bo‘lishi, adolatsiz taqdir, tengsizlik va jamiyatdagi kuchli-zaif qarama-qarshiligini ko‘rsatadi. Asarning yana bir muhim badiiy unsuri – daryo obrazidir. Daryo bu yerda oddiy tabiat unsuri emas, balki ramziy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Daryo asarda voqealarning guvohi, qahramonlarning sirlarini biluvchi kuch sifatida tasvirlangan. Bu ramziy obraz orqali muallif insonning o‘tmishdan qochib qutula olmasligini, tabiat va vaqt oldida hamma haqiqat bir kun ochilishini tasvirlab beradi.

Yozuvchining “Lobar, Lobar, Lobarim mening” hikoyasi zamonaviy inson ruhiyatini badiiy tadqiq etuvchi muhim asarlardan biri sifatida e’tiborga loyiqdir. Hikoyada inson qalbidagi muhabbat, iztirob va kechikkan anglash fojiasi orqali zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy muammolar hech qanday bo‘rttirishlarsiz ochib beriladi. Asarda zamonaviy inson hayotining muhim muammolaridan biri – ruhiy yolg‘izlik masalasi tasvirlangan bo‘lib, Lobar obrazi ana shu muammoni ifodalovchi markaziy qahramonlardan biridir. U asarda tashqi tomondan juda muvaffaqiyatli, iste’dodli va ijodkor shaxs sifatida tasvirlanadi. U film ssenariylari yozadi, san’at olamida tanilgan ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi va xalq e’tiboriga tushgan personaj sifatida ko‘rsatiladi. Biroq uning ichki dunyosida chuqur ruhiy iztiroblar mavjud. Bu holat hozirgi zamonaviy jamiyatdagi ko‘plab insonlarga xos ruhiy holatni ifodalaydi. Asarda Lobar obrazi orqali muallif idealizm va real hayot o‘rtasidagi ziddiyatni ochiqchasiga ko‘rsatadi. Lobar obrazining tragikligi ham aynan shunda namoyon bo‘ladi: u muhabbatni orzu qiladi, sevgiga erishishni xohlaydi, ammo uni hayotida ro‘yobga chiqara olmaydi. Tashqi muvaffaqiyat insonning ichki baxtini ta’minlay olmasligini yozuvchi shu asarida ta’kidlab ketadi. Bu holat hozirgi zamonaviy jamiyatda ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng tarqalgan holatni ya’ni insonlarning ba’zan ideal hayot haqidagi tasavvurlari bilan real hayot o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Hikoyaning yana bir muhim va bosh qahramoni – hikoyachi yigit obrazidir. Ushbu obraz asarda kuzatuvchi, guvoh, yashirin oshiq va sevgisi tufayli aziyat chekuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning xarakteri kamtarinlik, samimiylik va sadoqat kabi fazilatlar bilan belgilanadi. U Lobarni chin dildan sevadi, ammo o‘z tuyg‘ularini oshkor etishga jur’at topa olmaydi, shu sababli u doimo ichki iztirob bilan yashaydi. Hikoyachi yigit obrazi orqali muallif inson qalbidagi yashirin muhabbat va uning ruhiy azobini tasvirlab beradi. Bu qahramon hikoyada tipologik jihatdan “sodiq oshiq” yoki “sukutdagi muhabbat” timsoli sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi hikoyada ramziy obrazlardan ham mohirona foydalanadi. Masalan, yulduz obrazi asarning markaziy badiiy timsollaridan biri hisoblanadi. Lobar o‘z hayotidagi ideal muhabbatni mana shu yulduz bilan qiyoslaydi. Yulduz – umid, orzu va yetib bo‘lmas mukammallik timsolidir. Hikoya davomida yulduz obrazi qahramonlarning ruhiy holatini ifodalovchi ramziy detal sifatida qo‘llaniladi. Yulduzlar Lobar uchun ideal muhabbat ramzi bo‘lsa, hikoyachi uchun esa erishilmagan baxt timsolini anglatadi. Hikoyaning yakuniy qismida yulduzlarning yerga sochilib ketgandek tasvirlanishi qahramonning kechikkan anglash fojiasini ifodalaydi. Bu tasvir orqali yozuvchi inson hayotidagi eng og‘riqli holatlardan biri – kechikkan muhabbat fojiasini ko‘rsatadi. Ijodkor hikoyalarida xalqona iboralar va og‘zaki nutq elementlarining qo‘llanishi ham e’tiborga loyiqdir. Bu usul qahramon nutqining tabiiyligini oshiradi hamda asar voqealarining hayotiyligini yanada kuchaytiradi.

Yozuvchi til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanib, inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy jihatdan ta’sirchan ifodalaydi. Uning hikoyalarida dialog, ichki monolog, ramziy tasvirlar, metafora va badiiy detallar kabi tasvir vositalari muhim poetik vazifa bajaradi.

Umuman olganda, Javlon Jovliyev hikoyalaridagi badiiy til, ramz, detal va obrazlar o‘zaro uyg‘unlashib, nasrda yangi estetik imkoniyatlarni ochib bergan. Bunday hikoyalar falsafiy chuqurlik, psixologik aniqlik va estetik jozibani birlashtirgan holda, o‘quvchiga nafaqat hayotiy haqiqatni aks ettiradi, balki uning ruhiy va ma’naviy dunyosini ham boyitadi. Shu jihatdan, Ijodkor ijodi zamonaviy o‘zbek nasrining badiiy va psixologik tasvir imkoniyatlarini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 95-b.
2. Jovliyev J. “ Ikki qalb uchrashuvi”. Navro’z, 2019
3. Jovliyev J. “ Lobar, Lobar, Lobarim mening”. – Toshkent: Pharos Ambition, 2023.
4. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. Дарслик. – Тошкент: Фан, 1983. – 208 б.
5. Адабиёт назарияси. I жилд. – Тошкент: Фан,1978. – 416 б.
6. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2015. – 356 б.

Iqboloy ADIZOVA,
Filologiya fanlari doktori, professor

SO‘Z ICHRA SO‘ZON SHOIR

Annotatsiya: mazkur maqola o‘zbek mumtoz adabiyotiga katta adabiy ta’sir etgan Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy she’riyati talqiniga bag‘ishlangan. Fuzuliy ijodidagi teran mazmun, betakror ifoda shakllari, hayratlanarli tasvir vositalari o‘zbek shoirlarining alohida e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Maqolada Fuzuliyning g‘azallari, ruboiy va qit’alari misolida shoirning mahorati, san’atkorlik qirralari yoritilgan. Inson hayotidagi muammolar, mohiyat jilolari tabiat bilan uyg‘unlikda o‘z talqinini topgani belgilangan. Shoir she’riyatining o‘ziga xos, original jihatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, ruboiy, husni ta’lil, istiora, talmeh, timsol, ramz, qit’a.*

Annotation: this article is devoted to the interpretation of the poetry of Muhammad Sulaymon oglu Fuzuli, who had a great literary influence on Uzbek classical literature. The deep content, unique forms of expression, and amazing means of imagery in Fuzuli’s work have attracted special attention from Uzbek poets. The article highlights the poet’s skill and artistry using the example of Fuzuli’s ghazals, rubaiy and qutiya. It is noted that the problems of human life and the essence of the essence find their interpretation in harmony with nature. The unique, original aspects of the poet’s poetry are identified.

Key words: *ghazal, rubai, poetic justification, metaphor, allusion, image, symbol, qit’a.*

Аннотация: данная статья посвящена интерпретацию поэзии Мухаммеда Фузули, оказавшего огромное литературное влияние на узбекскую классическую литературу. Глубокое содержание, уникальные формы выражения и удивительные средства образности в творчестве Фузули привлекли особое внимание узбекских поэтов. В статье мастерство поэта освещаются на примере его газелей, рубаи и китъа. Отмечается, что проблемы человеческой жизни и сущности находят свою интерпретацию в гармонии с природой. Выявляются уникальные, оригинальные аспекты поэзии поэта.

Ключевые слова: *gazel, rubai, xusni ta’lil, istiora, talmex, образ, символ, kit’a.*

Sharq mumtoz adabiyotining mashhur shoirlaridan biri **Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy** asarlarini g‘azal, murabba’, muxammas, musaddas, tarje’band, tarkibband, masnaviy, qit’a, ruboiy kabi o‘ndan ortiq lirik janrlarda yaratgan. Shoir ularga har bir janrning o‘z tabiatidan kelib chiqib yondashgan. Jumladan, g‘azallarida ishq po‘rtanalari jilolanib, majnunvash oshiqning dardli yurak sadolari eshitilsa, ruboiy va qit’alarida shoirlik va olimlikni uyg‘unlashtirgan donishmand faylasuf qiyofasi namoyon bo‘ladi.

Fuzuliy she’riyatida mumtoz an’anaga ko‘ra ishq bosh mavzu. U o‘zining hayot falsafasi bilan bog‘liq barcha donishmandona mulohazalarini shu mavzu bilan bog‘lab ifodalaydi. Shoir o‘quvchini umrning baqosizligi, hayotning g‘animatligidan ogohlantirishni maqsad qiladimi, mehr-oqibat, vafo-sadoqat, go‘zallik, to‘g‘rilik yoki ezgulik haqida so‘zlaydimi, so‘z qudrati va qadri borasida fikrlaydimi, hamisha keng ma’nodagi ishq bilan bog‘lab mulohaza yuritadi. U hayotdagi har bir hodisa zamirida ishq gavharining jilolarini ko‘radi. Asarlarida ishqning odamzod hayotidagi, olam taraqqiyotidagi o‘rnini mukammal ko‘rsatib bergan. Shoir nazarida, ishq olamning asosi. Odamzod ko‘nglidagi bebaho xazina.

Muhammad Fuzuliy donishmand va hassos shoir. Uning she’rlari butun Sharq mamlakatlarida mashhur. Buning sababi, tilining go‘zalligida, badiiy ifodaning betakrorligida, ma’noning teranligidadir. Shoir bunday donolik va badiiy tarovatga tabiatni anglash, ziyraklik bilan kuzatish, uni inson hayoti bilan qiyoslash, uyg‘unlashtirish va saboq olish orqali erishadi.

G‘unchasin gul bulbuling qatlina paykon aylamish,
Bulbul ochilg‘on guli yuzina qalqon aylamish [Fuzuliy, 2014, 99-b.],-

matlasi bilan boshlangan g‘azali misolida bu holatni kuzatishimiz mumkin. Fuzuliy asarlarida ta’kidlanishicha, “hayot qimmatbaho durlarga to‘la ma’rifat dengizidir”. Undan qanday va qancha dur terish har kimning o‘ziga bog‘liq. Inson yashar ekan, o‘z tajribasi, ilmi, mehnat-u mashaqqatlaridan hosil bo‘lgan saboq durlarini yig‘ib, umr xazinasini yaratadi. Ana shu dono falsafadan kelib chiqib, shoirning maqsadi g‘azalda hayotning bosh mohiyatini yoritib berishdan iborat: Umr o‘tkinchi. Buni unutmaslik kerak. Hayotdagi har qanday koshona ham oxir-oqibat vayronlikka mahkum. Shunday ekan, hayotni g‘animat bilish, undan unumli foydalanish lozim. Qisqa umrni ezguliklar bilan boyitishga ulgurish darkor. Fuzuliy g‘azalda noyob badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. Tabiatning go‘zal manzaralaridan hikmatlar topadi. Gul va bulbulni asosiy ochqich vazifasini bajaruvchi yetakchi obraz sifatida qo‘llaydi. Mumtoz adabiyotda g‘uncha “ko‘ngil, lab, sir” kabi ko‘p an’anaviy ma’nolarda qo‘llanib kelingan. Fuzuliy esa rangidan kelib chiqib, uni qotil sifatida o‘zgacha talqin etmoqda. Bu o‘rinda shoir mumtoz adabiyot an’analaridan chekinadi. Ma’lum obraz talqiniga yangicha, o‘zgacha nuqtayi nazardan yondashadi. Uning nazdida, g‘uncha ishqning yechilmagan sirlari ramzi. Shu sabab, u bulbul (oshiq ramzi)ni qiynoqqa soluvchi, qatl etuvchi o‘q. Gul bo‘lib ochilgan holatida esa gulbarglar bulbulni to‘sib, o‘q zarbidan saqlovchi qalqon. Nega? Chunki g‘unchaning gul bo‘lib ochilishi, ishq sirlarining yechilishi. Bu borada

oshiqning ma’rifat hosil qilishi, muhabbat ilmining mohiyatini anglab yetishini ifodalaydi.

Keyingi baytda yashil butoqlar orasida bulbul o‘zini berkitish uchun gul bilan sulh tuzganligi ta’kidlanadi. Jonlantirish san’ati vositasida, bulbulning umr mashaqqatlaridan himoyalanishga harakati ifodalanadi:

Gul arusin sulh uchun bulbul nikoh etmish, magar
O‘zini yoshil budog‘ ichinda pinhon aylamish [Fuzuliy, 2014, 99-b.].

Mazkur baytda shoir ijodidagi o‘ziga xos yetakchi xususiyat namoyon bo‘ladi. U hayot haqidagi xulosalarini bo‘yoqlarsiz, shunchaki ifodalaydi. Uni turfa ranglarda jilolantirib tasvirlaydi. Bunga shoir uchun badiiy san’atlar qo‘l keladi. Jumladan, mazkur baytga husni ta’lil – chiroyli dalillash va istiora san’atlari tarovat, aniqlik va go‘zallik bag‘ishlaydi. Ammo hayot o‘tkinchi va beshafqat. U o‘z vazifasini bajaradi. Bu haqiqatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Bulbul qanchalik yashirinishga harakat qilmasin, baribir, hayot qonuniyati o‘z kuchini ko‘rsatadi.

G‘azal 5 baytdan iborat. Shoir uch baytda hayot qonuniyatlarini tabiatga qiyosan tasvirlaydi. To‘rtinchi, beshinchi baytlarda esa, tasvir inson hayotiga ko‘chirilib, u tabiat talqini bilan uyg‘unlashtiriladi:

Dahraro gar bir siniq devor ko‘rsang, o‘yla, bil,
Ul Sulaymon mulkidurkim, charx vayron aylamish [Fuzuliy, 2014, 99-b.].

Baytda Sulaymon payg‘ambar obrazi talmeh san’ati vositasida bejiz eslanmayapti. Chunki unga butun hayvonlar, qushlar, qumursqalar tilini bilish, shamolni, insu jinlarni boshqarishdek g‘oyibona qudrat ato etilgan edi. Shoir bularning barchasining kuchidan foydalanib qurilgan koshona, qasrlar ham, vayronlikdan muhofazada emasligini ta’kidlamoqda.

So‘nggi – maqta’ bayt ham oldingi misralarga singdirilgan bosh g‘oyani yanada rivojlantirishga xizmat qilgan:

Ey Fuzuliy, mehrina oldanma – charxning gardishi
Ko‘ka eturmish, vale xok ila yakson aylamish [Fuzuliy, 2014, 99-b.].

Shoir o‘quvchiga olamning jozibasiga aldanib, unga qattiq bog‘lanib qolmaslikni maslahat bermoqda. Chunki u vaqtinchalik va o‘tkinchidir. Mazkur baytda shoirning asosiy xulosasi yana tabiat hodisasiga borib tutashadi. “Mehr” so‘zi arabcha bo‘lib, quyosh ma’nosini ham anglatadi. Shoir quyoshning tongda chiqib, shomda botishidan chuqur mazmunli hayotiy xulosa chiqaradi. Bu o‘rinda shoir so‘zning ikkala (dunyoga mehr qo‘yish va quyosh) ma’nosini ham nazarda tutmoqda.

Dunyo – bebaqo, abadiy emas. Fuzuliy g‘azalda hayotning g‘animat ekanligini, undan ezgulik yo‘lida foydalanish lozimligini eslatib, insoniyatni ogohlik va hushyorlik sari da’vat etadi. Tamsil san’ati vositasida hayotning murakkab falsafasini juda oddiy, ta’sirli va badiiy go‘zal tarzda ifodalab beradi.

Alisher Navoiy XV asr o‘zbek mumtoz adabiyotida maktab yaratgan ustoz ijodkor ekanligini bilamiz. Fuzuliy ham xuddi ustozi kabi Sharq mumtoz adabiyotida o‘ziga xos ijod darsxonasini bunyod etgan shoirdir. O‘zbek mumtoz adabiyotida undan adabiy ta’sirlanmagan biror ijodkorni uchratish qiyin. XVI asrdan keyin yashagan barcha shoirlar uning asarlaridan ilhom olgan. Naziralar, taxmislar bog‘lashgan. U qo‘llagan lug‘at qatlamidan keng foydalanishgan. Noyob badiiy topilmalaridan hayratlanishgan. Bularning barchasi esa Fuzuliyning asrlar osha adabiyot va abadiyat rivojiga hamon xizmat qilayotganini isbotlab turadi.

So‘z butun borliqning yaralishiga vosita bo‘lgan muqaddas ne’mat. Shu sababli ham, ijodkorlarimiz unga bag‘ishlab asarlar yaratishadi. Uni alqab ta’rifu tavsifini keltirishadi. Fuzuliy ham “So‘z” radifli g‘azalida so‘zning, xususan, badiiy so‘zning qudratini mukammal ta’riflaydi. Uningcha, haqqoniy va to‘g‘ri so‘z o‘z sohibini yuksak martabalarga, maqomlarga musharraf etadi. So‘zga jon ato etib, uni anglab, his etib qo‘llasang, u ham senga abadiy hayot baxshida etadi. Hatto, insonni ajal uyqusidan uyg‘otib, unga abadiy shuhrat, boqiylik, ikkinchi umr bag‘ishlaydi. Shoir mazkur g‘azalda odamzod hayotida uning mavqeyini belgilovchi mezon so‘z ekanligini ta’kidlaydi. Uning qimmatini, qadrini ulug‘laydi. Ammo shu bilan birga shoir o‘z o‘quvchisiga so‘zdan foydalanish meyoriga amal etishni ham eslatadi. Uni qo‘llash mezoni buzilsa, ko‘p ulug‘larni aziz etgan, yuksak qadr-qimmat bag‘ishlagan so‘z o‘z sohibini xor etishi, hurmati yo‘qolib, nazardan qolishi ham mumkinligidan ogohlantiradi:

O‘lmayan g‘avvosi bahri ma’rifat orif degil
Kim, sadaf tarkibi tandur, lo‘lo‘i shahvor so‘z.
Gar cho‘x istarsan, Fuzuliy, izzating, oz et so‘zi
Kim, cho‘x o‘lmoqdan qilubdur cho‘x azizi xor so‘z [Fuzuliy, 2014, 125-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova, I. (2022). THE ROLE OF RHYME IN UVAYSI’S WORKS.

2. Jumaxo’ja, N., & Adizova, I. (2020). O’zbek adabiyoti tarihi:(XVI-XIX asr I yarmi)-O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 21-noyabr 5-sonli qaroriga asosan 5120100-Filologiya va tillarni o’qitish yo’nalishi bo’yicha bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik. Innovatciya-Ziyo.

3. Фузулий. Девон. Нашрга тайёрловчилар: Т.Жалолов, М.Муинзода. Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти. Т., 1959.

4. Фузулий. Қалб гавҳари. Тошкент: “Ҳилол-нашр”, 2014.

5. Фузулий. Ғамзасин севдинг, кўнгил. Тошкент: “Шарқ”, 2009.

U.T. SAYDAZIMOVA,
TDShU professori
Sin VIKTORIYA
TDShU tayanch doktoranti

ZAMONAVIY KOREYS SHE'RIYATI RIVOJIDA LI SANXVA IJODINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: XX asrning birinchi yarmida koreys adabiyoti, xususan, she'riyatidagi o'zgarishlar nafaqat milliy adabiyot rivojida alohida o'rin tutdi, balki mazmun va shakl jihatdan o'zgarishlarga uchradi. Mazkur davr she'riyati adabiy jarayonlarga o'ziga xos bosqichni olib kirdi. Bu davr shoirlari she'riyatida uch xil masala yetakchilik qildi: birinchisi, mumtoz davr she'riyatiga xos – komillikka intilish; ikkinchisi, an'anaviylikka qayta murojaat, an'ana va novatorlik; uchinchisi, ozodlik va erk uchun kurashda yangi shakl va mazmunga yo'g'rilgan ifoda.

Kalit so'zlar: *she'riyat, komillik, an'ana, novatorlik, yangi shakl, yangi mazmun, quyosh obrazi, shoir.*

Annotation: in the first half of the 20th century, changes in Korean literature, particularly in poetry, not only played a significant role in the development of national literature but also underwent transformations in both content and form. The poetry of this period introduced a distinctive stage in literary processes. Three main issues dominated the poetry of poets of this time: first, the aspiration for perfection characteristic of classical poetry; second, a return to tradition, along with the interplay between tradition and innovation; and third, an expression imbued with new forms and content in the struggle for freedom and liberty.

Keywords: *poetry, perfection, tradition, innovation, new form, new content, image of the sun, poet.*

Аннотация: в первой половине XX века изменения в корейской литературе, особенно в поэзии, не только заняли особое место в развитии национальной литературы, но и претерпели трансформации в содержании и форме. Поэзия данного периода внесла своеобразный этап в литературный процесс. В поэзии поэтов этого времени ведущими стали три проблемы: во-первых, стремление к совершенству, характерное для классической поэзии; во-вторых, обращение к традициям, а также взаимодействие традиции и новаторства; в-третьих, выражение, насыщенное новыми формами и содержанием в борьбе за свободу и независимость.

Ключевые слова: *поэзия, совершенство, традиция, новаторство, новая форма, новое содержание, образ солнца, поэт.*

Koreys adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, mumtoz davrda ko'proq nasriy asarlar yaratilgani holda, XX asrning birinchi yarmi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar keskin o'zgargan pallada nazm – she'riy asarlar salmog'i birmuncha ortdi. Mazkur davrda qator yozuvchilar ham avval nazmda, so'ng nasrda ijod qilgani ma'lum. Asrning birinchi yarmida mamlakatda ketma-ket sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar – davlatning feodal qoloqlikdan kapitalistik dunyoga qadam qo'yishi, "yopiq" davlatning ochilishi, yurtning istilo qilinishi, ozodlik va erk uchun kurash va h.k. kabilar hozirjavob shoirlar uchun yangi mavzular ko'lamiga sabab bo'ldi. Shoir Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda "Nasr – og'ir qadam, nazm – chopog'on"[1] bo'ldi.

1918-yil Tegu shahrida talabalar qo'zg'olon ko'tardilar. Mazkur vatanparvarlik harakatida amakisining jasoratidan ilhomlangan Li Sanxva ham faol ishtirok etdi. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi, natijada, bu mag'lubiyat shoirning keyingi taqdirini belgiladi. Umidsizlik oroliga g'arq bo'lgan, tushkun kayfiyat girdobida qolgan shoir umri juda ham og'ir kechdi.

Kabo islohotlaridan so'ng yoshlarning xorijiy davlatlarga borib tahsil olishiga yo'l ochilgan edi. Mana shunday yoshlar qatorida Li Sanxva 1921-yil Yaponiyaga jo'nab ketdi. Yaponiya universitetida shoir g'arb va yapon madaniyati, san'ati bilan yaqindan tanishdi, fransuz tili va adabiyotini o'rgandi.

XX asrning birinchi choragida Koreyada g'arb, rus va yapon adabiyoti bilan tanishgan ijodkorlar qator adabiy guruh va birlashmalarga asos soldilar. Li Sanxva talabalik yillarida bir vaqtning o'zida Rossiya, Yaponiya, Koreyada mavjud "Oq to'lqin"[2] birlashmasini tuzishda ishtirok etdi. Birlashma a'zolari romantizm yo'nalishida ijod qildilar. Birlashma a'zosi sifatida shoirning ilk "Yotoqxonamga" she'rida uning favqulodda buyuk she'riy iste'dodi to'la

1 https://kh-davron.uz/yangiliklar/maqsud-shayxzoda-toshkentnoma-doston.html

2 XX asrning birinchi o'nyilligida Tokio maktabi bitiruvchilari asos solgan "Oq qayin" ("Sirakaba") adabiy guruhi nomi rus adabiyoti, xususan, Lev Tolstoy ijodi bilan bog'liq. Xuddi shu nom ostida Koreyada ham adabiy guruh tashkil etildi.

namoyon bo‘ldi, shoir abadiy hayot mazmunini anglab yetdi: u o‘limga tik boqdi, jismoniy o‘lim chegaralarini kesib o‘tdi, abadiy hayotga intildi.

Li Sanxva o‘zining “Yotoqxonamga” she’rida lirik qahramonning o‘ziga xos ruhiy olamini yarata oldi. Mazkur she’rda Rim mifologiyasiga murojaat ko‘zga tashlanadi. Shoir romantizmi “cheksiz dunyo” tushunchasi bilan qorishib ketadi: marvarid – ayolning ko‘z yoshlari, miltillayotgan sham piligi – mahbubning uzoq kutilishi, “shabnam yuvgan shaftolilar – suyukli ayolning namchil va xushbo‘y siynasi” va h.k. Mahbubadan ajralishni chuqur fojia – anafora kuchaytirib beradi[3].

1923-yil Yaponiyada sodir bo‘lgan Kanton zilzilasidan so‘ng shoir ona yurtiga qaytib keldi. 1925-yildan boshlab uning ijodiy faoliyati qizg‘in pallaga kirdi. Li Sanxva tanqidchi hamda tarjimon sifatida ham o‘zini sinab ko‘rdi, uning qator tanqidiy maqolalari nashr yuzini ko‘rdi. Yapon va fransuz tillaridan katta hajmli asarlarni tarjima qildi. Koreys mumtoz adabiyotining durdona asari “Chxunhyanchon” (“Chxunhyan haqida qissa”)ni ingliz tiliga o‘girdi.

“Oq to‘lqin” adabiy birlashma faoliyati to‘xtatilganidan so‘ng shoir o‘z ijod namunalarini turli jurnallarda chop ettirdi. Jumladan, “Kepyeog” adabiy jurnalida “Mustamlaka yerlarga kelarmi bahor?!” she’ri nashr qilindi. “Kimkangsongga”, “Yogchon”, “Ibyol” kabi nashriyotlarda ozodlik ruhi bilan sug‘orilgan qator she’rlari nashr qilindi. 1927-yil Li Sanxva “O‘ng qanot birodarlik” harakatiga xiyonat qilgani va yapon hukumatiga qarshi kurashda ishtirok etgani uchun hibsga olindi. Ozodlikka chiqqan shoir 1937-yil Manjuriyaga akasining oldiga tashrif buyurdi. Koreyaga qaytgach, yana yapon hokimiyati tomonidan qayta hibsga olindi hamda 4 oy davomida qamoqda o‘tirdi.

Qamoqdan chiqqan shoir Tegu shahrida joylashgan Kaunam maktabida ingliz, fransuz tillaridan saboq berish bilan birga maktab o‘quvchilari uchun qo‘shiqlar yozdi. Koreys adabiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bordi.

Umrining poyonida ichkilikka berilib ketdi, shu sababli ichimlik, qamoqxonada o‘tirgan yillari yo‘qotgan sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatgan shoir 1943-yil 25-aprelda hayotdan erta ko‘z yumdi. 1948-yil Kim Soun tashabbusi bilan “vatan himoyachisi”ga bag‘ishlab bog‘ barpo etildi. Tegu shahridagi Dalson bog‘ida shoirga atab o‘rnatilgan haykalga uning she’ri tushirildi.

1926-yil “Kebek” jurnalida chop etilgan “Mustamlaka yerlarga kelarmi bahor?!” she’ri shoir ijodining “o‘tish davriga qarshilik” yo‘nalishiga mos keladi. Shoir mamlakatida bo‘lib o‘tayotgan inqilobiy harakatlarga munosabat bildirar ekan, u “feodal qoloqlik”dan ozod bo‘lgani uchun shukr qiladi, ammo yapon zulmini, “begona”larning yurtida qolishini istamaydi. She’rni siyosiy chaqiriq tarzida ham anglash mumkin.

Egallangan ***dala***larga kelarmi bahor?!

Endi bu ***yer***lar bizga begona…

Balki biz yo‘qotdik ***dala*** bilan birga go‘zal ***bahor***ni?![4]

“Egallangan dalalarga kelarmi bahor?!” misrasidagi “dala” so‘zi xalqning zamini ma’nosini anglatadi, “bahor” qayta tug‘ilish faslida esa feodal qoloqlikdan keyin xalq kutgan dorulomon kunlar nazarda tutilgan.

Aslida shoir feodal qoloqlikdan keyin vatanini zafarlar quchishi, ko‘klarga parvoz qilishini kutgan, yurtining shon-shavkatiga ishongan edi. Li Sanxva o‘z she’rlarida bir tomondan yangi shabadalar ta’sirida yangi dunyoni kashf etdi, ikkinchi tomondan xalq, millat, istiqlol tushunchalarini anglab yetgan shoirning barcha umidlari puchga aylandi. Bu jadid shoiri Cho‘lponning avval inqilobiy harakatlarning “muhiti”ga tushib, yozgan she’rlarini yodga soladi.

She’rning “Endi bu ***yerlar*** bizga ***begona***… ” misrasida shoir ona zaminning yaponlar tomonidan istilo qilinganligiga ishora qilar ekan, xalq o‘z kindik qoni to‘kilgan tuproq bilan birga bahor faslini ham qo‘ldan boy berganini ta’kidlaydi. Li Sanxva bahor fasli ramzida xalq hayotining yaxshi tomonga o‘zgarishini kutadi. Shuningdek, bahor va zamin ramzida sharq falsafasi in va yan uyg‘unligi mavjud.

Ey, ovoz ber, nega jimsan dala-dasht, osmon?

Unutdingmi meni, yo chaqirdingmi, javob ber menga!

Endi bildim, men bu yerga kelibman bexos.

Shoir vatanida sodir bo‘layotgan barcha voqea-hodisalarga osmonni guvoh qiladi, zaminining sukuti – xalqning harakatsizligiga tenglashtiriladi. Osmon ramzida shoir adolat, barcha xalqlar uchun tenglik, o‘z erki va ozodligini ko‘radi, shuningdek, “Osmon” azaldan xalq tasavvurida ishonch, e’tiqod bilan uzviy bog‘liq. Li Sanxva o‘zining botiniy qarashlarini osmon ramzida beradi. Yer, zamin dala – bu xalqning o‘zi. Aynan mana shu misralarda shoirning siyosiy chaqirig‘i yashirin. Avval yangi bilimlar egallash maqsadida Yaponiyaga, so‘ng Manjuriyada muhojirlikda vatani ozodligi uchun kurashga kirishgan akasi oldiga borib qaytgan shoir murojaat qiladi “***Unutdingmi meni***...”.

“*Endi bildim, men bu yerga kelibman bexos*” misralarida 1919-yil 1-mart harakatlarida namoyish ishtirokchilar yo‘l qo‘ygan ikkita katta xatolik nazarda tutilgan. Birinchisi, namoyishchilarning qurol-aslahalarsiz harakati, ya’ni tinchlik namoyishi ular kutgan natijani bermadi. Ikkinchisi, qurolsiz xalqning qoni behudaga to‘kildi, namoyish rahbarlari esa qamoqxonalarga tashlandi. Arxaistlar o‘rinli ta’kidlaganlaridek, ozodlik uchun kurash sovuq qurol ishtirokisiz amalga oshmadi. Ammo, shoir tushkunlikka berilmaydi:

3 Аманова Г.А. Становление современных форм корейской поэзии (конец XIX – середина XX в.) – М., 2010. С. 29.

4 “Klassik koreys she’riyati antologiyasi”. Tuzuvchilar: U. Saydazimova, Choy So Yong va boshq. – Toshkent: Istiqlol. 2013. 42.-b.

Butun tanim bilan tuyib bahor iforin,
Tuyaman maysaning dardlari to‘kilgan yerni,
Butun kun daydiman, kutib bahorni.

Mart harakatlari zoe ketmadi, yapon hukumati o‘rnatilgan tartibni biroz yumshatishga harakat qildilar. “Madaniy boshqaruv” davri e’lon qilindi: koreys xalqi rahbarlik lavozimlariga tiklandi, ta’lim tizimiga biroz tuzatishlar kiritildi va h.k.

Li Sanxvaning “Pastqam bir qishloqda kechgan bir kecha”, “Qashshoqlar”, “Hamohanglik”, “Aloqa”, “Hayotni harakatga keltirgan narsa”, “Hijron”, “Bo‘ronni kutib”, “Shoirga” kabi qator she’rlarida uchinchi – milliy his-tuyg‘ular ifodasi yo‘nalishi o‘z aksini topadi. Bu she’rlar milliy ruhga yo‘g‘rilgan, shu bilan birga XX asr koreys adabiyotiga kirib kelgan romantizm ruhi bilan sug‘orilgan. Shoir romantizmi “komil” lirik qahramonlar hamda pinhoniy tuyg‘ularni “o‘rnatilgan” tartib-qoidalardan chetda tasvirlashga qaratilgan.

Li Sanxvaning “Shoirga” she’ri Jontemirning “Shoirni tinch qo‘ymang” she’ri mazmuniga hamohang keladi.

Ey, shoir, sening hayoting mazmuni shunda:
Qanchalar bo‘lmasin mushkul bu hayot,
Sen taslim bo‘lmaysan sharoitlarga.
Quyosh tutilganda, qoplaganda zulmat atrofni,
Baribir sen yo‘qotmaysan mehnat xohishin[5].

* * *

Shoirni tinch qo‘ymang, asab torlarin
Huda-behudaga chertaveringlar.
O‘shanda she’r bilan siylar sizlarni,
Ketgan bo‘lsa hamki qalbi yiringlab...[6].

Har ikki xalq shoiri nazdida shoirlik O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ta’biri bilan aytganda, “so‘z yo‘lida shahidlik”likdir.

Ma’lumki, o‘rta asrlar koreys adabiyotida shakllangan ona tilidagi she’riyat – sijo janrida bir qator – oy, tog‘ (tosh), bambuk, suv, qarag‘ay obrazlari an’anaviy obrazlarga aylangan. Sijo janrida ijod qilgan barcha sijonavislar ijodida bu obrazlardan bittasi albatta, uchraydi. Ammo, sijo she’riyatida tabiatdagi deyarli barcha elementlar kiritilgani holda quyosh obrazi kuzatilmaydi. Balki bu qadimgi koreys afsonasi “Yen O Rang va Se O Hyo”[7] bilan bog‘liqdir. Afsonada keltirilishicha, quyosh Koreyadan Yaponiyaga olib ketilgan.

Shoirning “Pastqam bir qishloqda kechgan bir kecha” she’rida ham quyosh obrazi mavjud bo‘lib, bu yerda individual o‘xshatish yuzaga chiqadi:

Ey, mening yuragim!
Sen inson kabisan.
Xuddi inson kabi quyoshga zorsan.

Shoir yuragi bilan hasratlashadi, xuddi inson yorug‘ kunlarni orzu qilgani kabi yurakning ham tinch, osudalik, sokinlik istagida nurga zorligi tasvirlanadi.

Isinaman quyoshning qaynoq taftida
Moviy samo yam-yashil dala bilan tutashgan joyda.
Tushda yurgan misol oralayman men[8].

Vataniga qaytgan yillari (avval Yaponiyadan, keyin Manjuriyadan) shoir o‘z yurtida o‘zini begona his qiladi. Qaynoq quyosh, moviy osmon, yam-yashil dala – bularning barchasi shoirning ruhiy sarhadlari, ko‘nglidir. Ammo ko‘ngil shoirdan yiroq, ular faqat tushda diydorlashadilar.

Chopog‘on she’riyat aslida ko‘ngil mulki, sehrli olam. Bu sehrli olamda har bir shoirning o‘z uslubi mavjud, o‘z ohangi bor. Li Sanxva she’riyatida ohangni yuzaga chiqaradigan bu quyosh obrazi. Quyosh obrazida olis tarix, o‘tmish o‘z aksini topgani kabi bugungi kunning zalvori ham mujassam. Shoir ijodida quyosh obrazi – har bir she’rida olam-olam ma’no kasb etadi.

5 “Klassik koreys she’riyati antologiyasi”. Tuzuvchilar: U. Saydazimova, Choy So Yong va boshq. – Toshkent: Istiqlol. 2013. 41-b.
6 Жонтемир. Жазба:шеърлар. – Тошкент: Akademnashr. 2022. 70-b.
7 Batafsil qarang. “Klassik koreys nasri antologiyasi”. Tuzuvchilar: U. Saydazimova, Choy So Yong va boshq. – Toshkent. Istiqlol. 2013. 28–29-b.
8 “Klassik koreys she’riyati antologiyasi”. Tuzuvchilar: U. Saydazimova, Choy So Yong va boshq. – Toshkent: Istiqlol. 2013. 42-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аманова Г.А. Становление современных форм корейской поэзии (конец XIX – середина XX в.) – М., 2010.
2. Жонтемир. Жазба: шеърлар. – Тошкент: Akademnashr. 2022.
3. “Klassik koreys nasri antologiyasi”. Tuzuvchilar: U. Saydazimova, Choy So Yong va boshq. – Toshkent: Istiqlol.
4. “Klassik koreys she’riyati antologiyasi”. Tuzuvchilar: U. Saydazimova, Choy So Yong va boshq. – Toshkent: Istiqlol. 2013.
5.https://kh-davron.uz/yangiliklar/maqsud-shayxzoda-toshkentnoma-doston.html

Sayyora QOZAQOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

“BOBURNOMA” KOMPOZITSIYASIDA TARIXIYLIK VA BADIIYLIK UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada Boburnoma asarining kompozitsion tuzilishida tarixiylik va badiiylik uyg‘unligi masalasi tahlil qilingan bo‘lib, unda asarning xronologik qurilishi, narrativ struktura, muallif “men”i, obrazlar tizimi, makon va zamon kategoriyalari hamda til-uslub xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot jarayonida asarda tarixiy fakt ochib berilgan bo‘lib, maqolada asarning nafaqat muhim tarixiy manba, balki yuksak badiiy-estetik qiymatga ega adabiy yodgorlik ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, tarixiylik, badiiylik, kompozitsiya, narrativ struktura, memuar janri, obrazlar tizimi.*

Аннотация: в этой статье анализируется вопрос сочетания историчности и вымысла в композиционной структуре творчества Бобурнаме, в котором научно рассматриваются хронологическая структура, повествовательная структура, авторское «Я», система объектов, категории пространства и времени, а также лингвистические и стилистические особенности. В ходе исследования исторический факт = раскрытие произведения подтверждается тем, что произведение является не только важным историческим источником, но и литературным памятником высокой художественной и эстетической ценности.

Ключевые слова: *“Бабурнаме”, историчность, художественность, композиция, нарратив, мемуарная литература, система образов.*

Annotation: this article examines the unity of historicity and artistic expression in the composition of the Baburnama. The study analyzes the chronological structure of the work, narrative features, the authorial “self,” the system of characters, the categories of space and time, and linguistic-stylistic peculiarities. The article argues that the work should be regarded not only as an important historical source but also as a significant literary monument of high artistic value.

Key words: *“Baburnama”, historicity, artistic expression, composition, narrative structure, memoir genre, character system*

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida memuar janrining yuksak namunasi sifatida e’tirof etilgan Boburnoma nafaqat tarixiy manba, balki badiiy tafakkurning yetuk mahsuli sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asar muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining yirik davlat arbobi, sarkarda va iste’dodli adibi bo‘lib, o‘z hayoti va zamonasini tasvirlash jarayonida tarixiylik va badiiylikni o‘zaro uyg‘unlashtira olgan.

Mazkur maqolada “Boburnoma” kompozitsiyasida tarixiylik va badiiylikning o‘zaro munosabati, ularning asar strukturasi doirasida qanday shakllangani hamda matn yaxlitligini ta’minlashdagi roli tahlil qilinadi.

“Boburnoma” asari xronologik tamoyil asosida qurilgan bo‘lib, voqealar izchil ravishda muallif hayotining muayyan bosqichlariga muvofiq bayon etiladi. Asarda Farg‘ona, Samarqand, Kobul va Hindiston davrlari ketma-ketlikda tasvirlanadi. Bunday kompozitsion qurilish tarixiylikni ta’minlovchi asosiy omillardan biridir.

Tarixiylik, avvalo, voqealarning aniq sana va joy nomlari bilan berilishida namoyon bo‘ladi. Muallif janglar, siyosiy voqealar, sulh va nizolarni real tarixiy shaxslar ishtirokida tasvirlaydi. Bu jihatdan asar tarixiy hujjatlik xususiyatiga ega. Biroq “Boburnoma” oddiy xronika emas, unda voqealar shunchaki qayd etilmaydi, balki muallif munosabati, ichki kechinmalari bilan boyitiladi.

– Kompozitsiyaning asosini tashkil etuvchi tarixiylik unsurlari voqealarning xronologik izchilligida, tarixiy shaxslar faoliyatining real tasvirida, geografik makonning aniq va batafsil ifodalanishida hamda siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning haqqoniy yoritilishida ko‘rinadi. Shu bilan birga, muallif tarixni quruq fakt sifatida emas, balki shaxsiy idrok orqali talqin etadi. Bu esa tarixiylik va badiiylikning tutashuv nuqtasini yuzaga keltiradi.

“Boburnoma” kompozitsiyasining o‘ziga xos jihatlaridan biri – kuchli mualliflik “men”ining mavjudligidir. Asar birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Bu esa tarixiy voqealarga subyektiv rang beradi, biroq ayni paytda matnning samimiyligi va ta’sirchanligini oshiradi.

Muallif o‘z muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda mag‘lubiyatlarini ham ochiq tasvirlaydi. Masalan, Samarqand uchun kurashlarda uchragan muvaffaqiyatsizliklar, yaqin kishilarining xiyonati yoki siyosiy xatolari badiiy-ruhiy kechinmalar bilan birga ifodalanadi. Bu esa asarni oddiy tarixiy qayddan farqlab, uni psixologik chuqurlikka ega badiiy matnga aylantiradi.

Narrativ struktura quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Voqealarning izchil bayoni.
2. Muallifning ichki monologlari.
3. Tavsif va tasvirning uyg‘unligi.
4. Lirik chekinishlar.

Aynan shu elementlar tarixiy materialni badiiy matnga aylantiradi.

Asarda tasvirlangan shaxslar, avvalo, real tarixiy shaxslardir. Biroq ular shunchaki tarixiy figura sifatida emas, balki xarakter va ruhiyatga ega obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Bobur o‘z zamondoshlarini tasvirlar ekan, ularning tashqi qiyofasi, fe’l-atvori, aqliy salohiyati, siyosiy fazilatlarini batafsil yoritadi. Ayrim shaxslar haqida iliq munosabat bildirsa, boshqalarga tanqidiy yondashadi. Bu esa obrazlarning jonli va tabiiy chiqishiga xizmat qiladi.

Markaziy obraz – muallifning o‘zi. Bobur obrazi tarixiy shaxs sifatida davlat arbobi va sarkarda hamda badiiy qahramon sifatida hissiyotli, mulohazakor va ijodkor inson kabi ikki qirrali xususiyatga ega. Ana shu ikki qatlam uyg‘unligi asarning kompozitsion yaxlitligini mustahkamlaydi.

“Boburnoma”da makon tasviri alohida o‘rin tutadi. Movarounnahr, Kobul va Hindiston hududlari nafaqat geografik nuqtayi nazardan, balki estetik idrok orqali ham tasvirlanadi. Muallif tog‘lar, daryolar, bog‘lar, iqlim va tabiat manzaralarini badiiy vositalar yordamida ifodalaydi. Masalan, Hindiston tabiati tasvirida ekzotik rang-baranglik, o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘ziga xosligi alohida ta’kidlanadi. Bu tavsiflar tarixiy-geografik ma’lumot berish bilan birga, badiiy-estetik zavq uyg‘otadi.

Zamon kategoriyasi ham ikki qatlamda namoyon bo‘ladi. Ya’ni tarixiy vaqt (aniq yillar va davrlar) hamda ruhiy vaqt (muallif kechinmalari orqali seziladigan ichki vaqt) kabi. Natijada kompozitsiya ichida tarixiy va psixologik zamon o‘zaro tutashadi.

Asarning tili sodda, ravon va tabiiydir. Muallif voqealarni ortiqcha bezaksiz, aniq va lo‘nda ifodalaydi. Bu jihat tarixiylikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, tasviriy vositalar, qiyoslashlar, poetik ifodalar badiiylikni yuzaga chiqaradi.

“Boburnoma” tilida rasmiy-siyosiy leksika, xalqona iboralar, lirik ifodalar, tasviriy epitet va tashbehlarning yuksak darajadagi uyg‘unligi kuzatiladi. Mazkur til qatlamlari asarning ichki struktur birligini ta’minlaydi.

“Boburnoma” kompozitsiyasida tarixiylik va badiiylik bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro to‘ldiradi. Tarixiy faktlar badiiy talqin orqali jonlanadi, badiiy tasvir esa tarixiy asosga tayanadi.

Bu uyg‘unlik quyidagi omillar orqali ta’minlanadi:

1. Muallif shaxsining markaziy o‘rni.
2. Xronologik izchillik va lirik chekinishlar uyg‘unligi.
3. Obrazlarning tarixiy asosga ega bo‘lishi.
4. Tilning hujjat va poetika orasidagi muvozanati.

Natijada asar nafaqat tarixiy manba, balki yuksak badiiy qimmatga ega adabiy yodgorlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “Boburnoma” kompozitsiyasida tarixiylik va badiiylik uyg‘unligi asarning eng muhim estetik xususiyatlaridan biridir. Muallif tarixiy voqealarni haqqoniy bayon etish bilan birga, ularni shaxsiy kechinmalari va badiiy tafakkuri orqali boyitadi.

Shu bois “Boburnoma”ni faqat tarixiy manba sifatida emas, balki kompozitsion jihatdan mukammal, badiiy-estetik qiymatga ega asar sifatida baholash lozim. Unda tarix va adabiyot, hujjat va poetika, real voqelik va ijodiy talqin o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Mazkur uyg‘unlik asarni Sharq memuar adabiyotining nodir namunasi darajasiga ko‘targan va uning asrlar davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligini ta’minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Барт Р. Смерть автора / Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. / Пер. с фр., вступ. ст. и коммент. Г.К. Косикова. – М.: Прогресс, 1989. - с. 386.
2. Лотман Ю.М. О поэтах и поэзии: Анализ поэтического текста / Ю.М. Лотман; М.Л. Гаспаров. – СПб.: Искусство–СПб, 1996. – с. 24-25.
3. Баевский В.С. Структурализм // Литературный энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1987. – с. 426-427
4. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва, Прогресс, 1989.-245 стр
5. Farmonova M. Badiiy matnning o‘ziga xosligi (strukturalistik talqinda) scientific progress volume 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1601
6. Qozaqova S. “Boburnoma” syujeti va kompozitsiyasida tarixiy siymolarning o‘rni // NamDU Ilmiy axborotnoma. – Namangan, 2020, № 7. – B. 500-507.
7. Qozaqova S. “Boburnoma” kompozitsiyasining struktural tahlili // FarDU Ilmiy xabarlar. – Farg‘ona, 2025, № 2. – B. 84-89.
8. Qozaqova S. “Boburnoma” syujeti va tavsiflash prinsipi // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2025, № 1. – B. 84-87.
9. Qozaqova S. The place of letters in the composition of “Baburnama”. Foreign Linguistics and LinguodidacticsSpecial Issue –5(2025) / ISSN 2181-3701. May, 2025. - P.448-453.
10. Qozaqova S. The place of the system of images in the plot and composition of “Baburnoma”. International Journal of Scientific Trends- (IJST). ISSN: 2980-4299 Volume 4, Issue 6, June, 2025. - P.21-25.
11. Qahramonov Q. Adabiy tanqidda struktur metod talqini. // “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2009, 5-son.

Islom JURAYEV,
FarDU katta o‘qituvchisi, PhD;
Nozila MAHMUDJONOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi
1-bosqich magistranti

CHO‘LPON IJODIDA DARVESHONA RUHIYAT

Annotatsiya:ushbu maqolada Cho‘lpon ijodida nazm va nasrning falsafiy xususiyatlari tahlil qilinadi. XX asr boshida jamiyatdagi ziddiyatli vaziyatlar ijodkor nuqtai nazaridan qay tarzda yoritib berilganligi o‘rganiladi. Shoirning she’rlaridagi badiiy tasvir vositalari hamda darveshona ruhiyat ilmiy asosda yoritiladi. Cho‘lponning nasriy asarlaridagi milliy ruh va obrazli tafakkur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *nazm, nasr, qalandarlik, falsafiy tahlil, ijtimoiy hayot, milliy ruh, ozodlik, erkin fikrlovchi.*

Аннотация:в данной статье анализируются философские особенности поэзии и прозы в творчестве Чулпана. Исследуется, каким образом противоречивые социальные процессы начала XX века отражены с точки зрения автора. Научно освещаются художественно-изобразительные средства в поэзии поэта, а также его дервишеское мировосприятие. Анализируется национальный дух и образное мышление в прозаических произведениях Чулпана.

Ключевые слова: поэзия, проза, каландарство*, философский анализ, социальная жизнь, национальный дух, свобода, свободомыслящий.*

Annotation:this article examines the philosophical characteristics of poetry and prose in the works of Chulpan. It explores how the contradictory social conditions of the early twentieth century are represented from the writer’s perspective. The study provides a scholarly analysis of the poetic devices used in the poet’s works, as well as his dervish-like worldview. Furthermore, the national spirit and figurative thinking in Chulpan’s prose are analyzed.

Key words: *poetry, prose, qalandarism, philosophical analysis, social life, national spirit, freedom, free thinker.*

Kirish.O‘zbek jadidchillik harakatining asoschilaridan biri buyuk ijodkor Abdulhamid Cho‘lpon shunday deydi: “Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngil tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik) har xil tusda va rangda bitishgan, fayzli til birga taqdir etula olmaydirg‘on bir guldur” [1].

Cho‘lpon nazmda ham, nasrda ham birdek mazmunli ijod qila olgan adiblar toifasidandir. U o‘z asarlarida jamiyat hayotidagi muammolarni yoritib berishga, ularni yechishga, milliy ruh tushunchasini mustahkamlashga va ozodlik pafosini ochib berishga e’tibor qaratgan. Adib o‘z davridagi insonlardan tafakkur va erkin fikrlash qobiliyati taraflama o‘zib ketgan. Balki shuning uchun ham unga o‘z davrining “ruhiy darveshi” sifatida qarashadi. Shoirning “Qalandar” taxallusi orqali ham buni isbotlash mumkin. U o‘z asarlarida aqlidan ayrilgan shaxs sifatida emas, balki vijdon va muhabbat bilan yashovchi inson sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Cho‘lponning ijodini ilmiy o‘rganish, asosan, o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlangan. Shu davrdan buyon to hozirgi kungacha ko‘plab adabiyotshunoslar hamda tilshunoslar tomonidan ijodkor merosi turlicha tahlil qilingan va o‘rganilgan. Ozod Sharafiddinov Cho‘lponning ijodi haqida shunday deydi: “O‘tmishni qaytadan tiklashga qanchalik urinmasin, baribir, “quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botgan” bu shoir asarlarini ko‘zdan kechirganda, undagi o‘ziga xos “evolyutsiyasi”, to‘g‘rirog‘i, burjua millatchilik qarashlaridagi o‘zgarish bosqichlarini payqab olish qiyin emas” [2]. Shuningdek, ijodkorning ilmiy merosi N.Karimov, M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, N.Vladimirova hamda D.Quronovlar tomonidan turli yo‘nalishlarda tahlil qilingan va ilmiy nazariyalar asosida yoritib berilgan.

Ushbu maqolada esa Cho‘lpon ijodidagi qalandarlik lirikasi va darveshona ruh zamiridagi falsafiy xususiyatlar izohlanadi.

Natijalar va muhokama. Abdulhamid Cho‘lpon asarlarini tahlil qilishdan avval yozuvchi yashab o‘tgan davrni hamda zamonasida qanday go‘yalar bilan hayot kechirganligini o‘rganib chiqish lozim. Yozuvchining hayoti va ijodi o‘tgan asrning og‘ir yillariga to‘g‘ri keladi. Mustamlakachalik, ozodlik uchun kurash, shu bilan birga xalqni ziyoli qilish dardi uni qiynab kelgan. Tabiiyki, bunday iztiroblar uning she’riyatida va badiiy asarlarida o‘z aksini topgan. “Cho‘lpon badiiy adabiyotni millat ma’naviyatiga mas’ul biladiki, bu da’vo hali hanuz o‘z aktualligini yo‘qotgan emas. Jadidchilik g‘oyalari bilan yonib yashagan adib adabiyot timsolida millatga o‘zligini tanita oladigan, uni buyuk ishlarga safarbar etishga qodir kuchni ko‘radi” [3].

Nazmdagi sirli mohiyat. Cho‘lpon haqiqatdan ham zamondoshlaridan aql va ruhiyat taraflama o‘zib keta olgan shaxsdir. Uning she’rlari shunchaki o‘qilmaydi, balki ularning mutolaasi hamda analitikasi uchun chuqur falsafiy mushohada zarur bo‘ladi. Misol uchun “Qalandar ishqi” she’rida u o‘zini dunyoviy bog‘liqliklardan voz kechgan darvesh qiyofasida tasvirlaydi:

Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni,
Yana kulbamga qayg‘ular, alamlar birla qaytdim-ku.

Darveshdek sargardon holda dunyoni kezib “yor”ga erisha olmaganligi tasvirlangan. Bu o‘rinda “yor” so‘zi ruhiy kamolot ramzi sifatida ishlatilgan. Cho‘lponning hayotdagi asosiy g‘oyasi ruhiy kamolotga erishish bo‘lgan. Ammo keyingi o‘rinda “qaytish” manzarasi mavjud bo‘lib, u “kulba” so‘zi yordamida o‘zining avvalgi dunyosiga natijasiz, qayg‘uli va alamli iztiroblar bilan qatib keladi. Cho‘lponni ruhiy kamolotga erisha olmaganligi kuchli qayg‘uga soladi.

Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

Shoir o‘zini yuksak ruhiy holatdagi yorqin yulduz sifatida ko‘radi. Ammo bu kamolotning kuchiga dosh berolmay qulaganligini bayon etadi. Bu misralar orqali nafaqat ruhiyat haqida so‘z yuritgan, balki davrdagi zolim kuchlarning qarshiligiga dosh berolmaganligini ham tan olgan. She’r yozilgan yillarda, ya’ni 1920-1930- yillar oralig‘ida jadidlarning emas sovet hukumatining qo‘li baland kela boshlaydi. Mana shunday vaziyatda jadid o‘zining ezgu maqsadlariga erisha olmaganligidan iztirob chekadi.

Ijodkorning 1922-yil yozilgan “Ko‘ngil” nomli she’ridan parcha:

Tiriksan, o‘lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan;
Kishan kiyma, bo‘yin egma,
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsan!..

Dastlabki o‘qishda she’r xuddi ko‘ngilga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilingandek, ya’ni shoir o‘ziga tanbeh berayotgandek tuyuladi. Ammo Cho‘lpon ushbu to‘rtlik orqali xalqini, millatini majoziy ma’noda uyg‘otishga urinadi. Mustamlakachilik siyosatidagi kamsitilishlar hamda adolatsizliklarga chidamaslikka, bo‘yin egmaslikka da’vat etadi. Azaldan buyuk millat bo‘lgan o‘zbek xalqi doimo hur bo‘lib qolmog‘i zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu misralar orqali ijodkorning aqliy salohiyati o‘z zamonasining odamlaridan ilgarilab ketganligini payqash mumkin.

Nasr. Cho‘lpon qaltis davrda yashaganiga qaramay, u asarlarida haqiqatni yoritib berish, adolatsizlikni fosh etish kabi maqsadlarni qo‘ygan. Adib “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi orqali zamonaning achchiq haqiqatlarini tabiat hamda obrazli tasvirlar yordamida qisqa va lo‘nda tarzda tushuntirib bergan. Asardagi voqealar sodda tilda bayon etilgan, shuning uchun ham hikoyani o‘quvchi tutilmasdan yengil o‘qiy oladi. Ammo chuqurroq tahlil qilinsa, adib o‘quvchiga davr kirdikorlarini oshkor etish maqsadida bir necha tashbehlardan foydalangan. Lola sifatida yosh qizaloq tasviri olingan, aslida lola bu umid, haqiqat, hayot va mustaqillik timsolidir. Unga qarshilik ko‘rsatgan, uni yakson qilishga uringan kuchni esa qor tashbehi yordamida bergan. Qor bu yerda mustamlakachilik tuzumi, diniy mutaassiblik, adolatsizlik va shafqatsizlik kabi zo‘ravonliklarnni ifodalab kelgan. Mamat qorovul tilidan aytilgan “Lolaning ustiga qor yog‘di!” jumlasi bunga misol bo‘la oladi (Cho‘lpon, Qor qo‘ynida lola).

Hikoyadagi ikkinchi ayol qahramon bu – Xadichaxon. U eri Roziqjonning beklar tomonidan besabab otib ketilganligi va o‘g‘li Sobirjonning noma’lum o‘limi sabab aqldan ozadi. Shu sabab “Xadi jinni” degan laqabni oladi. Kenja o‘g‘li Ishoqjonning esa betobligida dori-darmon va tabib topilmaganligi tasvirlanadi. Bundan kelib chiqadiki, XX asrning 20-yillarida besabab odam o‘ldirishlar hamda tibbiy yordamning mavjud bo‘lmaganligi inson qadri naqadar past dararajada bo‘lganligidan dalolat beradi. Hikoya qisqa bo‘lishiga qaramasdan uning mohiyatini chuqur tahlil qilib ko‘plab haqiqatlarni bilib olish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yozuvchi va shoir Abdulhamid Cho‘lpon o‘zini bir qalandardek tutgan hamda shu yo‘sinda ijod qilgan. Lekin undagi darveshona fikrlar shuni ko‘rsatadiki, adib o‘z zamondoshlaridan salohiyat taraflama o‘zib keta olgan. Bu qobiliyatini u she’rlar va nasriy asarlar yordamida ko‘rsatib bera olgan. Cho‘lponning “Qalandar ishqi”, “Ko‘ngil” she’rlari va “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi bunga misol bo‘loladi. Adibni uning asarlari orqali anglash mumkin, u adolat, mustaqillik va xalq dardi uchun kurashgan shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yozuvchilar adabiyot to‘g‘risida
2. Ozod Sharafiddinov. Cho‘lponni anglash. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1994.
3. Dilmurod Quronov. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: “Sharq”, 2004.

Ulug‘murod AMONOV,
f.f.f.d (PhD)



Gulixonim SHUKUROVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti
gulixonimshukurova3110@gmail.com

SIROJIDDIN SAYYID SHE’RLARIDA XALQONA USLUB VA MILLIY RUH UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning she’riy merosida xalqona uslub va milliy ruhning badiiy uyg‘unligi muammosi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot shoirning nashr etilgan to‘plamlari va taniqli adabiyotshunoslarning ilmiy asarlari asosida olib borilgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi an’analari, milliy tasvir vositalari va poetik til xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada Sirojiddin Sayyid ijodining o‘zbek she’riyati tarixidagi o‘rni belgilanib, uning badiiy tizimida xalqchillik va zamonaviylikning sintezi atroflicha muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Sirojiddin Sayyid, xalqona uslub, milliy ruh, o‘zbek she’riyati, badiiy tahlil, poetika, folklorchilik, lirika.*

Аннотация: в данной статье рассматривается проблема художественной гармонии народного стиля и национального духа в поэтическом наследии народного поэта Узбекистана Сироджиддина Сайида. Исследование проводится на основе опубликованных сборников поэта и научных трудов известных литературоведов, анализируются традиции народного устного искусства, национальные средства выражения и особенности поэтического языка. В статье определяется место творчества Сироджиддина Сайида в истории узбекской поэзии и подробно рассматривается синтез народного и современного в его художественной системе.

Ключевые слова: *Сироджиддин Сайид, народный стиль, национальный дух, узбекская поэзия, художественный анализ, поэтика, фольклор, лирика.*

Annotation: this article examines the problem of artistic harmony of folk style and national spirit in the poetic heritage of the people’s poet of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid. The research is conducted on the basis of the poet’s published collections and scientific works of famous literary scholars, and analyzes the traditions of folk oral art, national means of expression and features of poetic language. The article determines the place of Sirojiddin Sayyid’s work in the history of Uzbek poetry, and discusses in detail the synthesis of folk and modernity in his artistic system.

Key words: *Sirojiddin Sayyid, folk style, national spirit, Uzbek poetry, artistic analysis, poetics, folklore, lyrics.*

Kirish. O‘zbek adabiyotining XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi taraqqiyotini Sirojiddin Sayyid ijodisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. 1958-yilda Surxondaryo viloyatida tavallud topgan, jurnalistika ta’limini egallagan va o‘zbek she’riyatining eng nufuzli vakillaridan biriga aylangan bu shoir 2006-yilda O‘zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo‘lgan [1]. Uning ilk she’rlar to‘plami — “Ruhim xaritasi” (1985) dan tortib “Vatan abadiy” (2001) va “Ustimizdan o‘tgan oylar” (2003) gacha bo‘lgan asarlari o‘zbek lirikasida yangi sahifani ochdi. Mazkur asarlar nafaqat estetik jihatdan yuksak, balki milliy o‘zlikni anglash, xalq ruhiyatini poetik talqin qilish nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek adabiyotshunosligi xalqona uslub masalasini turlicha izohlagan: bir tomondan, bu tushuncha folklordan bevosita olingan shakllar va obrazlarga ishora qilsa, ikkinchi tomondan — milliy mentalitetning she’riy tafakkurda ifodalanishini anglatadi [2]. Sirojiddin Sayyid ijodida ushbu ikki qatlam bir-biridan ajratilmaydi, aksincha, ular organik butunlikni tashkil etadi. Shu boisdan shoirning poetikasini milliy adabiy an’analar kontekstida o‘rganish ilmiy va madaniy zaruriyatdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi Sirojiddin Sayyid she’rlarida xalqona uslubning namoyon bo‘lish usullarini va bu uslubning milliy ruh bilan uyg‘unlashish mexanizmlarini adabiy tahlil orqali ochib berishdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot tarixiy-adabiy, qiyosiy va poetik tahlil usullariga asoslanadi. Asosiy manba sifatida Sirojiddin Sayyidning nashr etilgan she’riy to‘plamlari olingan bo‘lib, ular mavjud adabiyotshunoslik ishlari bilan qiyosiy o‘rganilgan. O‘zbek folklorshunosligi va adabiyotida xalqona uslub masalasini N. Shukurov, U. Normatov va B. To‘xliyev kabi olimlar tadqiq etgan [3; 4]. Ushbu mualliflar o‘zbek she’riyatida folklorik motivlarning vazifasini, milliy obrazlar tizimini va lirik qahramonning xalq ruhiyatiga yaqinligini nazariy jihatdan asoslab bergan. Rus adabiyotshunosligi an’anasida folklor va yozma adabiyot munosabatlarini o‘rgangan V. Y. Propp va M. M. Baxtinning konseptual yondashuvlari [5; 6] mazkur tadqiqotda metodologik asos sifatida qo‘llaniladi — xususan, Baxtinning ko‘p ovozlilik nazariyasi Sayyid she’riyatidagi jamoaviy va

individual ovozlarning uyg‘unligini tahlil qilishda qo‘l keladi. Xorijiy adabiyotshunoslikda milliy she’riyat va folklorning sintezi T. S. Eliotning an’ana va individual iste’dod to‘g‘risidagi konsepsiyasi [7], shuningdek, E. Saydning madaniy identifikatsiya nazariyasi [8] nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. O‘zbek she’riyatining milliy ruhi masalasiga bag‘ishlangan X. Yo‘ldoshev va O. Sharafiddinovning monografiyalari [9; 10] esa Sirojiddin Sayyid ijodini milliy adabiy kontekstda baholash imkonini beradi. Ushbu manbalar majmuasi shoirning poetik tizimini keng madaniy va adabiy matritsada o‘rganishga sharoit yaratadi.

Natijalar va muhokama. Sirojiddin Sayyid she’rlarini atroflicha o‘qigan kitobxon darhol sezadiki, shoir xalq og‘zaki ijodining barcha asosiy lirik shakllariga — alla, yor-yor, lapar, maqol — murojaat qiladi va ularni zamonaviy lirik kontekstga organik kiritadi. “Yor-yor” she’rida an’anaviy to‘y qo‘shig‘ining tuzilishi saqlanib qoladi, biroq matn ichidagi hissiy qatlam ancha murakkablashadi: shoir “Yoshlik ham bir to‘y singari o‘tar ketar, yor-yor” satri orqali to‘y marosimini vaqt va o‘tkinchilik metaforasi sifatida qayta talqin qiladi. Bu yondashuv folklorni to‘g‘ridan to‘g‘ri iqtibos keltirish emas, balki uni shaxsiy lirik tajriba vositasiga aylantirish demakdir. Aynan shu jarayonda xalqona uslub milliy ruh bilan uyg‘unlashadi — marosim shakli saqlanadi, ammo uning ma’noviy to‘ldirilishi mutlaqo yangicha bo‘ladi. “Vatan” she’rida xalqona tasvir vositalari — tabiat qiyoslarining ko‘pligi, ota-bobo obrazlari, tuproq va osmon ramzlari — milliy identitetning lirik konsepsiyasini shakllantiradi. “Dil porasi, ko‘z qorasi sen o‘zingdirsan” misrasidagi “ko‘z qorasi” birikmasi xalq tilidan olingan, ammo shoirning qo‘lida u yangi semiotik quvvat kasb etadi: Vatan nafaqat ona yurt, balki insonning o‘zi — uning tafakkuri, ko‘rish qobiliyati va tuyg‘usiga aylanadi. Shuningdek, “Tegirmonchi” she’rida xalq hayotining oddiy obrazi — qora choponli tegirmonchi — falsafiy simvolga ko‘tariladi; falak ham tegirmon sifatida talqin etiladi, umr esa don sifatida charx tomonidan yanchiladi. Bu metaforik sistema xalq dunyoqarashidan kelib chiqqan bo‘lsa-da, uni ifoda etish usuli tamomila individual va zamonaviydir.

Milliy ruhning yana bir muhim ko‘rinishi — shoirning tarixiy xotirani she’riy nutqqa singdirishidadir. “Pahlavon Mahmud”, “Mir Alisher”, “Afrosiyob” kabi she’rlari o‘zbek madaniy panteonining lirik remifsologiyasini yaratadi. Shoir bu obrazlarni tarixiy faktlar sifatida emas, balki milliy o‘zlikni idrok etishning hissiy-estetik ramzlari sifatida ishlatadi. Navoiyni “Buyuklikning rangi”, “Besh asrlik to‘yin” deb atash — bu folklorona ifoda tarzining akademik tavsifdan ustunligi, milliy tafakkurning emotsional mantiqqa bo‘ysunishidir. N. Shukurovning ta’kidlashicha, xalqona uslub o‘zbek she’riyatida nafaqat shakl, balki munosabat tizimi sifatida namoyon bo‘ladi [3] Sirojiddin Sayyid ijodi aynan shu ta’rifga to‘liq mos keladi. Shoirning lirik “men”i doim jamoaviy “biz” bilan bog‘liq, uning shaxsiy qayg‘usi milliy sog‘inch bilan ayrilmas, uning sevgisi Vatanga bo‘lgan muhabbat bilan qo‘shiladi. “Bolalik qaytmadi. Qaytmadi” — bu takror nafaqat stilistik vosita, balki xalq nolasi ohangidagi milliy yutuq va yo‘qotish haqidagi she’riy bayondir. M. M. Baxtin nazariyasi nuqtai nazaridan [6] bu she’rlarda turli ovozlar — ota-bobo, ona, el, tarix — bir lirik matnga qo‘shiladi va ularning hamkorligida milliy ruh o‘zining to‘liq badiiy ifodasini topadi.

Xulosa. Sirojiddin Sayyid ijodidagi xalqona uslub va milliy ruhning uyg‘unligi tasodifiy hodisa yoki sirtqi bezak emas — bu shoirning dunyo va o‘zini idrok etishining organik usuli bo‘lib, uning she’riy tizimining poydevorini tashkil etadi. Shoir folklor shakllarini, xalq tasvir vositalarini va milliy tarix obrazlarini zamonaviy lirik kontekstga singdirib, o‘zbek she’riyatida yangi badiiy model yaratgan. Bu model an’ana va zamonaviylikning ziddiyatini hal qilmaydi, aksincha, ularni uyg‘unlik holatida saqlaydi. Sirojiddin Sayyid she’rlarini o‘rganish nafaqat alohida ijodkorning poetikasini, balki o‘zbek milliy adabiy tafakkurining tabiati va imkoniyatlarini tushunish uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu ijodkorning lingvistik poetikasi, tarjimalardagi milliy ruhning saqlanishi va uni boshqa Markaziy Osiyo adabiyotlari bilan qiyosiy o‘rganish yo‘nalishlarida kengaytirilishi maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T. Sirojiddin Sayyid // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. — Toshkent: O‘zME, 2006. 214–215-b.
2. Normatov U. Xalqona uslub va yozma adabiyot munosabatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. — № 3. 18–25-b.
3. Shukurov N. O‘zbek she’riyatida folklor an’analari. — Toshkent: Fan, 1998. 210-b.
4. To‘xliyev B. XX asr o‘zbek lirikasining poetikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2003. 185-b.
5. Пропп В. Я. Фольклор и действительность: избранные статьи. — Москва: Наука, 1976. 325 с.
6. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — Москва: Искусство, 1979. 424 с.
7. Eliot T. S. Tradition and the Individual Talent // The Sacred Wood: Essays on Poetry and Criticism. — London: Methuen, 1920. P. 47–59.
8. Said E. W. Culture and Imperialism. — New York: Vintage Books, 1994. 380 p.
9. Yo‘ldoshev X. O‘zbek she’riyatida milliy o‘zlikni anglash muammosi. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. 160-b.
10. Sharafiddinov O. Yigirmanchi asr o‘zbek adabiyoti. — Toshkent: Sharq, 2001. 304-b.

Ulugmurad AMONOV,
Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute, Ph.D

THE FIRST COLLECTORS OF UZBEKISTAN FOLKLORE MATERIALS

Annotation: this article examines the emergence of the Uzbek folklore collection movement in the early 20th century and the folklore collectors who, pursuing this great goal, identified bakhshis, khalfas, and folklorists and recorded works of folklore art that were products of the artistic thinking of the people, but whose names remain unknown in the archives.

Key words: *oral folklore, folklore, Bakhshi, Bakhshi culture, collecting, epic, fairy tale.*

Аннотация: в данной статье рассматривается зарождение движения по собиранию узбекского фольклора в начале XX века и собиратели фольклора, которые, преследуя эту великую цель, выявляли бахши, халфа, фольклористов и записывали произведения фольклорного искусства, являвшиеся продуктом художественного мышления народа, но имена которых остаются неизвестными в архивах.

Ключевые слова: *устное народное творчество, фольклор, бахши, культура бахши, собирательство, эпос, сказка.*

Annotation: this article discusses the beginning of the movement to collect Uzbek folklore at the beginning of the 20th century, and the identification of bakhshis, khalfas, and folklorists who, in the pursuit of this great goal, recorded works of folkloric art that were the product of the people's artistic thinking, and whose names remain unknown in the archives.

Key words: *folkloric art, folklore, bakhshi, bakhshiism, collecting, epic, fairy tale.*

From the mid-1920s, folkloristic work was led by the Committee for the Study of Uzbeks of the Scientific Council of the People's Commissariat of Education of Uzbekistan (1925-1929). On the initiative of scientists and poets such as Ghozi Olim Yunusov, Hodi Zarif, and Abdulla Alavi, such prominent poets as Fozil Yuldash, Ergash Jumanbulbul, Muhammadkul Jonmurod Polkan, Nurmon Abduvoy, Berdi Bakhshi, Abdulla the Poet, Kholyor Abdukarim, and Dostyor Khojayor were identified. Local intellectuals such as Muhammad Isa Ernazar uglu, Mulla Abdurakhmon, Mahmud Zarifov, Tovfiq Mustafaev, Bahrom Ibrohimov, Muqim Hamzabekov, Nazarkasim Mirzaev, Husayn Karimiy, and Rahmatilla Yusuf uglu were involved in the collection work.

Zarif Kodiriy was one of the specialists who actively participated in the scientific research conducted by the "Committee for the Study of Uzbeks" of the Scientific Center of the People's Commissariat of Education of Uzbekistan in 1926-1928 to collect folk epics throughout the Samarkand region. In 1927, he recorded the original "Kuntugmish Palvon" version of the epic "Kuntugmish" (ZUFA. Inv. No. 26) and the epic "Orzigul" ("Abdulla kafir". ZUFA. Inv. No. 28) from the exceptionally eloquent, quick-witted and humorous Bakhshi Nurmon Abduvoy uglu.

Another devoted folklore collector at the beginning of the last century was Muhammadisa Ernazar uglu, who was born in 1887 in the village of Gadoy in the Galla-Arol district of the present-day Jizzakh region. His father later moved to the village of Kirkshodi in the Bulungur district of the Samarkand region for work and settled there. After graduating from an old school in this village, Muhammadisa Ernazar oglu studied for four to five years in one of the madrasas in Samarkand. Later, he also studied for a certain period in educational institutions in Bukhara and Turkey. From the 1920s, he served in the people's court of the Bulungur district. Muhammadisa Ernazar oglu, who was very devoted to folk oral art, was friends with the poet Fazil. When the Uzbek Studies Committee of the Scientific Center of the People's Commissariat of Education of Uzbekistan began collecting folk epics, he also firmly committed himself to this noble cause. In particular, Muhammadisa Ernazar oglu was the one who organized the transfer of Ergash Jumanbulbul oglu from the village of Kurgan to Samarkand and the recording of his works. In 1926-28, many epics by Ergash Jumanbulbul uglu, Fozil Yuldash uglu, and the poet Polkan were recorded in the house of Muhammadisa Ernazar uglu in the Kamtarkhona neighborhood of the village of Kirqshodi. Many Bakhshi

poets belonging to the Bulungur, Narpay, and Kurgan schools of epic poetry gathered here. On the initiative of Muhammadisa Ernazar oglu, the village of Kirqshodi became the center of Uzbek epic poetry in 1926-28.

In his epic poem “Kunduz bilan Kunduz” (The Day with the Beaver), Ergash Jumanbulbul oglu recalled the process of writing the epic in the village of Kirkshodi and said:

If you read my words on paper,
In one thousand nine hundred and twenty-seven,
I finished this epic myself,
If I tell you the date, it was January fourth,
I finished the epic on that day,
I reached the land of the forty.
I finished it without joining people, in a shelter,
In the village of the forty, in the dovecote,
No matter when it was finished,
I told you that I finished it on the date,
He was not a stranger, he was forty,
Most of this epic is the word of Jesus,
Known for serving education,
Its seed will be the face of the forty [ZUFA.Inv.№21].

Muhammadisa Ernazar uglu, who showed special diligence in finding folk poets and introducing their work to the scientific community, not only collected the Bakhshis and organized the recording of their epics, but also copied the epics “Kunduz bilan Yulduz” and “Alpomish” (sung together with the poet Pulkan) from Ergash Jumanbulbul oglu, “Hodi, the leader of poets”, “Okhunboboev”, “Ghozi Olim”, “Otajon Hashim” from Fazil Yuldash uglu, “Malika Ayer”, “Murodxon”, “Shirin bilan Sugar” from Pulkan, and “Gorugli’s Arab Rayhon’s daughter is being taken away” and “Qironxon” from the poet.

Unfortunately, the repression that began in the 1930s also took many free-thinking intellectuals, including Muhammadisa Ernazar uglu, into its clutches. Muhammadisa Ernazar uglu, a devotee of folk art and a devoted collector of folklore, also became a victim of repression. He was arrested on December 19, 1931 in the village of Kirkshodi. The criminal case of Muhammadisa Ernazar uglu (Irnazarov Mulla Isa), who worked as a peoples judge in the Samarkand region until his arrest on December 21, 1965, was reviewed by the military tribunal of the Turkestan military district, and the verdict issued on October 14, 1932 was canceled, the case was suspended, and Muhammadisa Ernazar uglu was acquitted.

Unfortunately, the repression that began in the 1930s also took many free-thinking intellectuals, including Muhammadisa Ernazar uglu, into its clutches. Muhammadisa Ernazar uglu, a devotee of folk art and a devoted collector of folklore, also became a victim of repression. He was arrested on December 19, 1931 in the village of Kirkshodi. The criminal case of Muhammadisa Ernazar uglu (Irnazarov Mulla Isa), who worked as a people’s judge in the Samarkand region until his arrest on December 21, 1965, was reviewed by the military tribunal of the Turkestan military district, and the verdict issued on October 14, 1932 was canceled, the case was suspended, and Muhammadisa Ernazar uglu was acquitted.

Another of those who left a name among the devoted collectors of folklore at the beginning of the last century is Fatima. It was not possible to determine her last name. Fatima was also involved in this work in 1926-1927, when the Committee for the Study of Uzbeks of the Scientific Center of the People’s Commissariat of Education of Uzbekistan gathered prominent Bakhshis in the house of Muhammadisa Ernazar uglu, who at that time served in the people’s court of the Samarkand region, in the Kaptarkhona neighborhood of the village of Kirkshodi, Bulungur district, and recorded the folk epics from their repertoire. It is possible that this very literate and beautiful woman, who was a member of the State Scientific Council of the People’s Commissariat of Education of Uzbekistan, participated in the collection of folklore as an employee of the “Committee for the Study of Uzbeks” or worked as a teacher in one of the schools in Samarkand and was appointed by the committee as a secretary to the poet Pulkan to record the epic. Because, according to the materials of the Folklore Archive of the Institute of Language and Literature named after Alisher Navoi of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Fatima and Muhammadisa Ernazar oglu recorded the epic “Qironxon” from Muhammadkul Jonmurod uglu Polkan in 1926, and in 1927, she herself wrote down Bakhshi’s epics “Avazxon”, “Butakuz”(part 1), “Misqol pari”, “Yunus pari”.

Muhammadisa Ernazar uglu wrote down the epic poem “Qironxon” from the poet Muhammadkul Jonmurod oglu Polkan in June-September 1926. The part of the epic manuscript after the page dated September 12, 1926, namely, “Then the bird Semurg fell in love with the glory and beauty of Kironxon, blessed him for becoming a human being, and was delighted that he had

killed the dragon, and his heart was filled with joy and he looked at Qironxon and said a word," was continued by the folklore collector Fatima. Consequently, the epic manuscript ended with the inscription "Fatima Mirzo's hand is finished."

Rafiq Momin is also one of the folklore collectors who made a name for himself at the beginning of the last century. In fact, Rafiq Momin, who became more famous as a poet, was born on February 7, 1900 in Namangan. After learning to read and write at an old school in his neighborhood, he studied at a madrasah. Later, he studied at a Russian-style school in Namangan, where he studied Russian, Eastern and Western literature. After that, he worked as a teacher in schools. He wrote many lyrical and humorous poems, and actively contributed to the magazines "Mushtum" and "Mashrab". He wrote and staged plays such as "Yoriltash", "Oydin", "Zahhoki moron". Based on folk tales, he created epics such as "Kizil qiz", "Zanglagan picho", "Tiyoshnon qizi", "Qapchigay". In 1922-1925, he wrote down the epic poem "Zebo with Writing" from the exiled Yormat Baba. Rafiq Momin died on May 5, 1951.

In a short period of time, such wonderful masterpieces of the folk epic as "Alpomish", "Shaybaniykhan", "Yusuf and Ahmad", "Alibek and Bolibek", "Yakka Ahmad", "Kuntugmish", "Murodkhan", "Shirin and Sugar", "Qironkhan", "The Birth of Gorugul", "Yunus Pari", "Misqol Pari", "Gulnor Pari", "Chambil Qamali", "Kholdorkhan", "Avazkhan", "Kunduz and Yulduz", "Malika Ayyor", "Hasankhan", "Dalli", "Ravshan", "Ochildov", "Hasan Batrak"were written.

At the beginning of the 20th century, based on a decision adopted by the then government of Uzbekistan, the philological departments of the Cultural Construction Research Institute were initially established. Then, on the basis of these departments, the Institute of Language and Literature named after Alisher Navoi was founded in November 1933 within the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. This scientific institution began its work as an independent research institution in January 1934. In 1934, the "Folklore" department, along with the "Dictionaries", "Modern Uzbek Language", and "Uzbek Soviet Literature" departments, also operated independently under this institute. It is no secret that the work carried out by the "Chigatoy Gurungi", previously organized on the initiative of Abdurauf Fitrat, played a programmatic role in achieving significant achievements in collecting, publishing and organizing samples of Uzbek folk art. It can also be said that the good work done in this regard by Abdurauf Fitrat, Olim Sharafiddinov, Ghozi Olim Yunusov, Abdulla Alavi, and Elbeks in the 1920s laid an important foundation for the development of folklore studies.

References:

1. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.82-83.

2. Абдурауф Фитрат. Эл адабиёти // Адабиёт қоидалари / ТА. 4-жилд. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.71.

3. Мирзаев Т. ва бошқалар. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б.3

4. Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат. // Ҳоди Зариф суҳбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Тошкент: "SHAMS - ASA". – Б.52.

5. O.Safarov. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2010. – B. 70.

6. Ўзбек фольклори. Педагогик институтлар учун хрестоматия / Тузувчи Ҳоди Зариф. 1-китоб. – Тошкент: Ўқувпеднашр, 1939. – Б.285-353.

7. Amonov, U. (2024). SADRIDDIN AINI'S CRITICAL VIEWS (BASED ON THE TAZKIRAH "SAMPLE TAJIK LITERATURE"). European International Journal of Pedagogics, 4(11), 200-207.

8. Ulugmurod, A. S. Abdurauf fitrat is one of the earliest researchers of Uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 6. First page:(669) Last page:(673). Online ISSN, 2249-7137.

Gulnora NASIROVA,
Doctor of philosophy (PhD),
Philological sciences,
Uzbekistan state university of world languages

LITERATURE AND CULTURE: UZBEK PERSPECTIVE

Annotation: this article deals with the issues based on analyzing the interconnection between literature and culture from an Uzbek perspective, focusing on both Uzbek and English literary works. Literature is considered not only as an artistic expression but also as a cultural mirror that reflects values, traditions, and social transformations. The study analyzes contemporary Uzbek literature alongside selected modern English texts to identify similarities and differences in cultural representation. Special attention is given to themes such as identity, tradition, globalization, and moral values. The research employs a comparative approach to examine how cultural elements are embedded in literary narratives. The findings demonstrate that Uzbek literature emphasizes collective identity, historical memory, and national values, while English literature often highlights individualism and personal experience.

Keywords: literature, culture, Uzbek literature, English literature, identity, globalization, tradition, comparative analysis.

Аннотация: в статье рассматривается взаимосвязь литературы и культуры с узбекской точки зрения. Анализируются современные произведения узбекской и английской литературы с целью выявления культурных особенностей. Особое внимание уделяется темам идентичности, традиций, глобализации и нравственных ценностей. Сравнительный анализ показывает, что узбекская литература акцентирует коллективную идентичность и историческую память, тогда как английская литература сосредоточена на индивидуализме и личном опыте. Результаты исследования подчеркивают роль литературы как отражения и формирующего элемента культуры.

Ключевые слова: литература, культура, узбекская литература, английская литература, идентичность, глобализация, традиции, сравнительный анализ.

Annotatsiya: mazkur maqola adabiyot va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘zbek madaniy konteksti nuqtayi nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda zamonaviy o‘zbek va ingliz adabiyoti namunalari asosida madaniy qadriyatlar, an’analar va ijtimoiy o‘zgarishlarning aks etishi tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor shaxs va jamiyat, milliy identitet, globallashuv va ma’naviy qadriyatlar kabi mavzularga qaratilgan. Qiyosiy tahlil orqali o‘zbek adabiyotida jamoaviylik, tarixiy xotira va milliy qadriyatlar ustuvorligi, ingliz adabiyotida esa individualizm va shaxsiy tajribaning yetakchi o‘rin tutishi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari adabiyotning madaniyatni aks ettirish va uni shakllantirishdagi rolini yoritadi.

Kalit so’zlar: adabiyot, madaniyat, o‘zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, identitet, globallashuv, an’ana, qiyosiy tahlil.

Introduction

Literature has always been closely connected with culture, serving as both a reflection and a shaping force of societal values, traditions, and beliefs. In the context of Uzbekistan, literature plays a particularly important role in preserving national identity and cultural continuity. Uzbek literature, rooted in centuries-old traditions, reflects the collective memory, moral values, and social structures of the nation. At the same time, globalization and intercultural communication have introduced new perspectives and themes into literary production.

In contemporary literary studies, the relationship between literature and culture is often examined through a comparative lens. This approach allows researchers to explore how different cultures express similar human experiences in diverse ways. English literature, for instance, frequently emphasizes individual identity, personal freedom, and psychological depth, while Uzbek literature tends to highlight communal values, respect for tradition, and moral responsibility. Recent Uzbek literary works, such as those by Isajon Sulton and Hamid Ismailov, illustrate the dynamic interplay between tradition and modernity. These authors address issues such as cultural transformation, migration, and identity in a rapidly changing world. Similarly, contemporary English literature, including works by authors like Kazuo Ishiguro and Zadie Smith, explores themes of memory, belonging, and cultural hybridity. The significance of studying literature from an Uzbek perspective lies in its ability to provide insights into how cultural identity is constructed and maintained. By comparing Uzbek and English literary traditions, it becomes possible to identify both universal and culture-specific elements in literary expression.

Literature review

The relationship between literature and culture has been widely discussed in literary and cultural studies. According to Eagleton, literature is deeply embedded in ideological and cultural contexts, reflecting the social realities of its time. Similarly, Williams emphasizes that culture is not only a set of artistic expressions but also a way of life that shapes and is shaped by literature.

In Uzbek literary scholarship, the connection between literature and national identity has been a central topic. Karimov highlights that Uzbek literature serves as a repository of cultural memory and moral values. Contemporary scholars also note that modern Uzbek

writers are increasingly addressing global themes while maintaining national specificity.

Recent studies on English literature focus on multiculturalism and identity. Hall argues that cultural identity is not fixed but constantly evolving, influenced by historical and social factors. This perspective is particularly relevant in analyzing contemporary English texts, where themes of migration and hybridity are prominent.

Comparative literary studies suggest that while different cultures produce distinct literary forms, they often address similar existential questions. As Damrosch notes, world literature provides a framework for understanding how texts travel across cultures and acquire new meanings.

Modern Uzbek literature, particularly the works of Isajon Sulton, reflects a synthesis of traditional storytelling and modern narrative techniques. His works explore the tension between past and present, emphasizing cultural continuity. In contrast, English authors like Ishiguro employ subtle narrative strategies to explore memory and identity, often in a global context.

The comparative analysis of Uzbek and English literature reveals both similarities and differences in the representation of cultural values. Uzbek literature traditionally emphasizes collective identity, social harmony, and moral responsibility. For example, in the works of Isajon Sulton, characters are often portrayed as part of a larger community, where individual actions are closely linked to social expectations. Cultural elements such as family, tradition, and historical memory play a central role in shaping the narrative.

In contrast, contemporary English literature tends to focus on individual experience and personal identity. Authors like Kazuo Ishiguro explore themes of memory, self-perception, and existential uncertainty. His novel *Never Let Me Go* reflects a deeply introspective approach, where the protagonist's inner world becomes the primary focus of the narrative.

Another important difference lies in the treatment of tradition and modernity. Uzbek literature often portrays tradition as a source of stability and moral guidance. Even when addressing modern challenges, writers tend to emphasize the importance of preserving cultural heritage. English literature, on the other hand, frequently presents tradition as something to be questioned or reinterpreted.

However, there are also significant similarities between the two literary traditions. Both Uzbek and English authors address universal themes such as identity, belonging, and the impact of social change. Globalization has further blurred cultural boundaries, leading to the emergence of hybrid literary forms.

For instance, Hamid Ismailov's works, written in both Uzbek and English contexts, demonstrate how cultural identity can be negotiated across different linguistic and cultural spaces. Similarly, Zadie Smith's novels explore multicultural identities and the complexities of living in a globalized world.

The comparative analysis also shows that literature serves as a powerful tool for cultural dialogue. By engaging with texts from different cultures, readers gain a deeper understanding of diverse perspectives and experiences. This is particularly important in the context of language education, where literature can enhance intercultural competence.

Thus, while Uzbek and English literature differ in their emphasis on collective versus individual identity, they share a common goal of exploring the human condition. Their interaction within the global literary space contributes to the development of a more inclusive and dynamic cultural discourse.

Conclusion

In conclusion, the relationship between literature and culture is complex and multifaceted. From an Uzbek perspective, literature plays a crucial role in preserving cultural identity and transmitting moral values. At the same time, exposure to global literary traditions has enriched Uzbek literature, introducing new themes and narrative techniques.

The comparative analysis of Uzbek and English literature demonstrates that while cultural differences exist, there are also significant commonalities. Both traditions address universal human experiences, reflecting the shared concerns of humanity.

The integration of cultural and literary analysis provides valuable insights into how identities are constructed and transformed in a globalized world. Future research may further explore the role of literature in fostering intercultural dialogue and understanding.

References:

1. Eagleton T. Literary theory: An introduction. – Oxford: Blackwell, 2008.
2. Williams R. Culture and society. – London: Chatto & Windus, 1983.
3. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Hall S. Cultural identity and diaspora // Identity: Community, Culture, Difference. – London: Lawrence & Wishart, 1990.
5. Damrosch D. What is world literature? – Princeton: Princeton University Press, 2003.

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Mohigul FOZILOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: fozilova1204@gmail.

KICHIK GURUHLARDA TABIAT TASVIRINI TAHLIL QILISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada kichik guruhlarda tabiat tasvirini tahlil qilish texnologiyasining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi, estetik didi hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, tabiat tasvirlarini kichik guruhlarda tahlil qilish usuli samarali pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar tabiat manzaralarini badiiy, ilmiy va hissiy nuqtayi nazardan o‘rganadilar, o‘z fikrlarini erkin bayon etadilar hamda hamkorlikda xulosaga keladilar. Maqolada metodikaning bosqichlari, afzalliklari va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *kichik guruh, pedagogik texnologiya, tabiat tasviri, tahlil, interfaol metod, estetik tarbiya, hamkorlikda o‘qitish.*

Annotation: this article highlights the theoretical and practical aspects of the technology for analyzing nature imagery in small groups. In modern educational processes, it is important to develop students’ independent thinking, observance, aesthetic taste, and teamwork skills. From this perspective, the method of analyzing nature images in small groups is considered one of the effective pedagogical technologies. Through this approach, students study natural landscapes from artistic, scientific, and emotional perspectives, freely express their opinions, and reach conclusions collaboratively. The article presents the stages of the methodology, its advantages, and practical recommendations.

Key words: *small group, pedagogical technology, nature depiction, analysis, interactive method, aesthetic education, collaborative teaching.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты методики анализа образов природы в небольших группах. В современном образовательном процессе большое значение имеет развитие у учащихся самостоятельного мышления, наблюдательности, эстетического вкуса и навыков работы в коллективе. С этой точки зрения метод анализа изображений природы в малых группах считается одной из эффективных педагогических технологий. Благодаря этому подходу учащиеся изучают природные пейзажи с художественной, научной и эмоциональной точек зрения, свободно выражают свои мнения и совместно приходят к выводам. В статье представлены этапы методологии, ее преимущества и практические рекомендации.

Ключевые слова: *небольшая группа, педагогическая технология, изображение природы, анализ, интерактивный метод, эстетическое воспитание, совместное обучение.*

Kirish. Ta’lim tizimida interfaol metodlardan foydalanish bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilarni faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanadigan, tahlil qiladigan va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash zarur. Ayniqsa, adabiyot, ona tili, tasviriy san’at, geografiya hamda boshlang‘ich ta’lim fanlarida tabiat tasvirlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda atrof-muhitga mehr, estetik did va kuzatuvchanlik rivojlanadi.

Tabiat tasviri badiiy asarlarda, rasmlarda, she’rlarda, hikoyalarda yoki ilmiy matnlarda tabiat hodisalari va manzaralarining ifodalanishidir. Uni kichik guruhlarda tahlil qilish texnologiyasi esa o‘quvchilarni hamkorlikda ishlashga, bir-birining fikrini tinglashga, dalillar asosida xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Adabiyotlar tahlili. Kichik guruhlarda badiiy asarlardagi tabiat tasvirini tahlil qilish texnologiyasi bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlar pedagogika,

psixologiya va adabiyotshunoslik fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol ta’lim metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, matnni anglash darajasi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika sohasida O‘.Tolipov va J.Yo‘ldoshev ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan kichik guruhlarda ishlash metodining afzalliklari batafsil yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, kichik guruhlarda ishlash o‘quvchilarni faollikka undaydi, dars samaradorligini oshiradi hamda o‘zaro hamkorlik muhitini yaratadi. Bu jihatlar adabiyot darslarida matn tahlilini samarali tashkil etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha N. Mahmudov va boshqa metodist olimlar asarlarida badiiy matn ustida ishlash, obrazlarni tahlil qilish, tasviriy vositalarni anglash va o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Ularning fikricha, o‘quvchi badiiy asarni chuqur tushunishi uchun undagi tasvir vositalari, jumladan tabiat manzaralari alohida tahlil qilinishi zarur.

O‘zbek adabiyotshunosligida Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov kabi olimlarning tadqiqotlarida badiiy asardagi peyzaj, ya’ni tabiat tasviri voqealar rivoji va qahramon ruhiyatini ochishda muhim vosita ekanligi qayd etilgan. Ularning ilmiy xulosalariga ko‘ra, tabiat manzaralari asarda shunchaki fon emas, balki muallif g‘oyasini ifodalovchi muhim badiiy unsurdir.

Psixolog olim Lev Vygotsky ning ijtimoiy o‘rganish nazariyasida ham guruhli faoliyatning ahamiyati yuqori baholanadi. Uning fikricha, o‘quvchi bilimni ko‘proq hamkorlik jarayonida egallaydi. Demak, kichik guruhlarda tabiat tasvirini tahlil qilish usuli psixologik jihatdan ham asoslangan metod sanaladi.

Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan John Dewey ta’limda faoliyatga asoslangan yondashuvni ilgari surib, o‘quvchining mustaqil izlanishi va tajribasi orqali bilim olishini ta’kidlagan. Bu qarashlar interfaol metodlarning, xususan guruhli tahlil usullarining ilmiy asosini mustahkamlaydi.

Asosiy qism. Kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, birgalikda fikrlashga va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot darslarida badiiy asarlardagi tabiat tasvirlarini o‘rganishda ushbu usul katta samara beradi. Chunki tabiat manzaralari yozuvchi yoki shoir asarlarida shunchaki manzara sifatida emas, balki qahramon ruhiyati, voqealar rivoji va muallif g‘oyasini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida qo‘llanadi. Kichik guruhlarda ishlash esa o‘quvchilarga shu ma’nolarni chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Maktab o‘quvchilari uchun badiiy asarlardagi tabiat tasvirlarini tahlil qilish darsning qiziqarli va mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi. O‘quvchilar she’r, hikoya, qissa yoki roman parchalaridagi fasllar, yomg‘ir, quyosh, bahor nafasi, kuzgi yaproqlar, qish manzarasi yoki tog‘-daryo tasvirlarini kuzatib, muallifning badiiy mahoratini his etadilar. Shu bilan birga, ular tabiat va inson kayfiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishni o‘rganadilar. Masalan, bahor quvonch va yangilanish ramzi bo‘lsa, kuz ayriliq yoki xotirjamlikni ifodalashi mumkin.

Mazkur texnologiyani tashkil etishda sinf bir necha kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga badiiy matndan bir parcha yoki tabiat tasviri beriladi. Masalan, Abdulla Qahhor hikoyalaridagi qishloq manzaralari, Erkin Vohidov she’rlaridagi bahor tasviri yoki Abdulla Oripov ijodidagi tabiatga oid satrlar tanlanishi mumkin. Guruhlardan biri tasvirdagi ranglar va obrazlarni aniqlaydi, ikkinchi guruh tabiat tasvirining qahramon kayfiyatiga ta’sirini izohlaydi, uchinchi guruh muallif qanday badiiy vositalardan foydalanganini topadi, to‘rtinchi guruh esa matn mazmuniga mos ijodiy fikr yoki kichik hikoya tuzadi.

Darsning kuzatish bosqichida o‘quvchilar matnni diqqat bilan o‘qib chiqadilar. Ular “Muallif qaysi faslni tasvirlagan?”, “Tabiat qanday so‘zlar bilan ifodalangan?”, “Bu tasvir qanday hissiyot uyg‘otadi?”, “Nega aynan shu manzara tanlangan?” kabi savollar ustida o‘ylaydilar. Bu jarayon o‘quvchilarning matn ustida ishlash, mantiqiy fikrlash va badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

Muhokama bosqichida guruh a’zolari o‘z fikrlarini bir-biriga bildiradilar. Kimdir kuz tasvirini mung ramzi desa, boshqasi uni donishmandlik yoki hayot tajribasi timsoli sifatida talqin qilishi mumkin. Shu tariqa o‘quvchilar bir matnga turlicha yondashuv bo‘lishini anglaydilar. Bu esa adabiy tafakkurni rivojlantiradi va erkin fikr bildirish madaniyatini shakllantiradi.

Taqdimot bosqichida har bir guruh o‘z xulosasini sinfga bayon etadi. Guruh vakili matndan misollar keltirib, tabiat tasviri qanday ma’no yuklayotganini

tushuntiradi. Qolgan guruhlar savol beradilar yoki qo‘shimcha fikr bildiradilar. O‘qituvchi esa barcha mulohazalarni umumlashtirib, muallif maqsadi va asarning g‘oyaviy mazmunini izohlaydi.

Masalan, Hamid Olimjon ning bahor haqidagi she’rlarini tahlil qilishda bir guruh bahorning rang-barangligini ko‘rsatadi, ikkinchi guruh undagi quvonch kayfiyatini topadi, uchinchi guruh tashbeh va sifatlashlarni aniqlaydi, to‘rtinchi guruh esa she’r mazmuniga mos rasm yoki kichik matn yaratadi. Natijada oddiy she’r tahlili ijodiy va qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Ushbu metodning afzalligi shundaki, o‘quvchilar faqat tayyor ma’lumotni eshitmaydi, balki uni o‘zlari izlaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Natijada mavzu yaxshiroq esda qoladi. O‘quvchilarning lug‘at boyligi ortadi, nutqi ravonlashadi, badiiy asarga qiziqishi kuchayadi. Eng muhimi, ular tabiat go‘zalligini his qilishni va uni qadrlashni o‘rganadilar.

Mazkur texnologiyani samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi guruhlarni teng taqsimlashi, savollarni yoshga mos va sodda shaklda berishi, faol o‘quvchilar bilan birga tortinchoq bolalarni ham jarayonga jalb qilishi kerak. Rasm, slayd, audio yoki videolardan foydalanish dars samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kichik guruhlarda badiiy asarlardagi tabiat tasvirini tahlil qilish texnologiyasi maktab ta’limida samarali va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur metod orqali o‘quvchilar dars jarayonida faqat tinglovchi bo‘lib qolmay, balki faol ishtirokchi sifatida bilim oladilar. Ular badiiy matnni mustaqil o‘qiydi, undagi tabiat manzaralarini kuzatadi, muallifning badiiy mahoratini anglaydi hamda o‘z fikrlarini erkin bayon etishga o‘rganadi. Bu esa o‘quvchilarning adabiy tafakkuri, nutq madaniyati va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, badiiy asarlardagi tabiat tasvirlarini guruhlar asosida tahlil qilish o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, taqqoslash, umumlashtirish va asosli xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Tabiat manzaralari orqali yozuvchi yoki shoir qanday kayfiyatni ifodalaganini topish, fasllarning ramziy ma’nolarini anglash, obrazli ifodalarni tushunish o‘quvchilarning estetik didini yuksaltiradi. Natijada ular adabiyot asarlarini oddiy voqea sifatida emas, balki chuqur ma’no va his-tuyg‘ularni ifodalovchi san’at namunasi sifatida qabul qila boshlaydilar.

Mazkur texnologiya o‘quvchilarda jamoada ishlash madaniyatini ham rivojlantiradi. Guruhda ishlash davomida ular bir-birining fikrini tinglash, hurmat qilish, o‘z nuqtayi nazarini asoslash, kelishuvga erishish va birgalikda qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Bu esa kelajak hayotida zarur bo‘ladigan kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, faol o‘quvchilar bilan bir qatorda tortinchoq yoki sustroq o‘quvchilar ham jarayonga jalb etiladi, bu esa sinfdagi umumiy faollikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov, O‘. Q., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –Toshkent: Fan, 2006.
2. Yo‘ldoshev, J. G‘., Usmonov, S. A. Interfaol ta’lim metodlari va ularni amaliyotda qo‘llash. –Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
3. Mahmudov, N. M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2012.
4. Azizxo‘jayeva, N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –Toshkent: TDPU nashriyoti, 2006.
5. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ 637-son. – Toshkent.23-sentyabr 2020-yil.

Suxrob ABDULLAYEV,
Buxoro davlat universiteti
tasviriy va amaliy san'at kafedrasi mudiri, dotsenti
Elektron manzil: abdullaev.sukhrob@mail.ru

MILLIY MINIATURA SAN'ATI VA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: OLIY TA'LIMDA INNOVATSION METODIK TAVSIYALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy miniatura san'ati va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash orqali oliy ta'limda innovatsion pedagogik modelni yaratish masalasi yoritiladi. Tadqiqot talabalarning tasviriy va amaliy san'at bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda miniatura san'ati elementlarini qo'llashning samaradorligini tahlil qiladi. Shuningdek, interfaol va loyiha metodlari yordamida ijodiy tafakkur, estetik did va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash imkoniyatlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Natijada, milliy badiiy merosni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etishning zamonaviy yondashuvi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *miniatura san'ati, milliy badiiy meros, oliy ta'lim, innovatsion pedagogik model, integratsiyalashgan o'qitish, tasviriy san'at, amaliy san'at, interfaol metodlar, loyiha metodi, ijodiy kompetensiya, estetik tafakkur.*

Аннотация: в статье рассматривается интеграция элементов национального миниатюрного искусства в систему высшего образования через современные педагогические технологии. Особое внимание уделяется школе миниатюры Бухары и наследию её выдающихся художников как источнику методического обогащения учебного процесса. Анализируются методические подходы, направленные на развитие творческих и практических компетенций студентов, а также формирование эстетического мышления и уважения к национальному художественному наследию.

Ключевые слова: *миниатюра, национальное искусство, высшее образование, педагогические технологии, интеграция, творческие компетенции*

Annotation: the article examines the integration of national miniature art elements into higher education through modern pedagogical technologies. Special attention is paid to the Bukhara miniature school and the legacy of its prominent artists as a methodological enrichment of the educational process. The study analyzes pedagogical approaches aimed at developing students' creative and practical competencies, as well as fostering aesthetic thinking and appreciation of national artistic heritage.

Key words: *miniature, national art, higher education, pedagogical technologies, integration, creative competencies*

Kirish. Oliy ta'limda milliy madaniy merosni pedagogik jarayonga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik masala sifatida e'tirof etilmoqda.[1]Ayniqsa, miniatura san'ati talabalarning tasviriy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda noyob imkoniyat yaratadi. Buxoro miniatura maktabi – Markaziy Osiyoda yuzlab yillar davomida shakllangan estetik va badiiy an'analar majmuasi bo'lib, u o'zining rang uyg'unligi, kompozitsion mukammalligi va detallarga bo'lgan nozik e'tibori bilan ajralib turadi. Ushbu maktabning eng mashhur rassomlari, jumladan, Mirza Salim, Kamoliddin Behzod, Chingiz Akhmarov, Niyazali Kholmatov va Omonjon Hoshimov kabi ijodkorlar, miniatura san'atining texnik va badiiy uslublarini yuqori darajada rivojlantirgan.Ularning asarlari nafaqat tarixiy, balki zamonaviy pedagogik jarayonlarda metodik manba sifatida keng qo'llanishi mumkin.

Miniatura maktabi (1-rasm) o'zining rang-barang va murakkab naqsh tizimlari, simmetrik va ritmik bezaklari bilan talabalarga nafaqat estetik zavq beradi, balki kompozitsion, geometrik va vizual tafakkur ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.[3] Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'limda miniatura san'ati elementlarini interfaol va loyiha metodlari orqali integratsiyalash, talabalarning ijodiy tafakkurini va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vositadir.

(1-rasm) Bux.D.U. ko'rgazmasidan lavha

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan birlashtirilgan Buxoro miniatura maktabining metodik merosi, talabalarga milliy badiiy qadriyatlarni chuqur anglash va ularni zamonaviy ijodiy shakllarda ifodalash imkoniyatini beradi.Shu sababli, mazkur maqolada Buxoro miniatura maktabi va uning rassomlari ijodini oliy ta’limda miniatura san’ati orqali integratsiyalashgan pedagogik model yaratishning ilmiy asoslari va metodik yondashuvlari kontekstida tahlil qilinadi.

Milliy miniatura san’ati va uning oliy ta’limda pedagogik qo‘llanilishi masalasi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda olib borilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati miniatura san’ati va tasviriy-amaliy san’atning tarixiy, estetik va texnik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Masalan, S.S. Abdullayev san’at ta’limida (2-rasm)

dekorativ san’at elementlarini qo‘llash metodikasini tahlil qilgan bo‘lib, uning ishlari davomiy ravishda milliy san’at unsurlarini pedagogik faoliyatda qo‘llash yo‘nalishlarini yoritadi. [2]

(2-rasm) Dotsent S.S.Abdullayev master klass darsida

Bundan tashqari, milliy miniatura san’ati prinsiplari bo‘yicha mustaqil tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar ham mavjud. Masalan, Fayzullo Tuychiyev tomonidan chop etilgan maqolada O‘zbekiston miniatura san’ati (3-rasm) an’analari, kompozitsiya, simmetriya, ritm va stilizatsiya kabi elementlar ilmiy asosda yoritilgan bo‘lib, bu ishlarda miniatura maktabining an’anaviy funksional-dizayn qonuniyatlari tahlil qilingan.

(3-rasm)

Shuningdek, tarixiy miniaturaning rivojlanish bosqichlari, XV–XVII asrlarda Markaziy Osiyo va Buxoro maktabi rassomlarining ijodiy faoliyati bo‘yicha ham tub ilmiy manbalar mavjud. Masalan, olim D.T. Kuryazova tomonidan yozilgan maqolada o‘rta asrlar miniatura san’atining shakllanish va evolyutsiya jarayoni, turli davr rassomlarining uslubiy xususiyatlari batafsil tahlil qilingan.

Oliy ta’limda miniatura san’ati talabalarning tasviriy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda nafaqat badiiy, balki pedagogik ahamiyatga ega. [4]Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, miniatura san’ati orqali o‘quv jarayonini boyitish, talabalarni amaliy ijodiy faoliyatga jalb etish va ularning estetik tafakkurini shakllantirish mumkin (S.S. Abdullayev, 2018). Shu bilan birga, S.F. Abdullayev (2019) rang, kompozitsiya va simmetriya elementlarini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashning integratsiyalashgan metodik yondashuvlarini ilgari suradi, bu esa talabalarning vizual tafakkurini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Miniatura san’ati o‘ziga xos kichik formatidagi kompozitsiyalar orqali murakkab estetik va texnik qonuniyatlarni talabalarga o‘rgatadi. Misol uchun, Fayzullo Tuychiyev (2020) o‘z tadqiqotlarida miniatura asarlarining kompozitsion tizimi, detalga bo‘lgan nozik e’tibor va rang uyg‘unligini ta’lim jarayonida qo‘llashning samaradorligini ko‘rsatadi.[5] Shu jihatdan, miniatura san’ati integratsiyalashgan o‘qitish jarayonida ikki asosiy yo‘nalishga xizmat qiladi:

1. Nazariy bilimlarni mustahkamlash: talabalarga san’at tarixini, miniatura an’analarini va badiiy estetik qadriyatlarni tushuntirish;

2. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish: chizma, rangtasvir, kompozitsion yechimlar va detalni ishlash orqali ijodiy faoliyatga jalb etish.

Pedagogik metodika quyidagi asosiy tamoyillar asosida shakllantiriladi:

- Integratsiyalashgan yondashuv: miniatura san’ati elementlari tasviriy san’at va amaliy san’at mashg‘ulotlariga tatbiq etiladi;
- Interfaol metodlar: loyiha, amaliy topshiriqlar, ustoz-shogird modeli orqali talabalarning faol ishtiroki ta’minlanadi;
- Loyihaviy yondashuv: talabalar miniatura asosida mustaqil kompozitsiyalar yaratadi, bu esa ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi;
- Milliy merosni tatbiq qilish: talabalarga milliy badiiy an’analarni chuqur anglash va zamonaviy shakllarda ifodalash imkoniyati yaratiladi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan metodika yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradi, balki amaliy va ijodiy kompetensiyalarini ham sezilarli darajada oshiradi. Dars jarayonida miniatura san’ati misollaridan foydalanish, S.S. Abdullayev va S.F.

Abdullayev tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, talabalarni vizual tafakkur va detalga bo‘lgan e’tiborini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, innovatsion ta’lim texnologiyalarini(4-rasm) qo‘llash, masalan, interfaol taqdimotlar, virtual galereyalar va loyiha metodikasi, talabalarning o‘z ijodini mustaqil ravishda shakllantirish imkonini beradi.[6] Bu esa zamonaviy oliy ta’limda milliy badiiy merosni nafaqat o‘rganish, balki amaliy ijodiy faoliyatga tatbiq etishning samarali modelini yaratadi.

(4-rasm) Professor S.F.Abdullayev dars jarayonidan lavha

Oliy ta’limda miniatura san’ati asosida tasviriy va amaliy san’atni o‘qitishda quyidagi metodlar va pedagogik tavsiyalar samarali hisoblanadi:

1. Integratsiyalashgan metod

• Miniatura san’ati elementlarini tasviriy va amaliy san’at mashg‘ulotlariga tatbiq etish.

• Talabalar miniatura asosida mustaqil yoki guruhda loyihalar yaratadi.

• Maqsad: nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirish.

2. Interfaol metod

• Mashg‘ulotlarda talabalarni faol ishtirok etishga jalb etish: diskussiya, vizual tahlil, master-klasslar.

• Talabalar miniatura kompozitsiyalarini tahlil qilib, rang, simmetriya va ritm qonuniyatlarini aniqlaydi.

• Maqsad: vizual tafakkur va kritik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

3. Loyiha (project-based) metod

• Talabalar miniatura maktabi an’analari asosida individual yoki guruh loyihalarini yaratadi.

• Loyihalar: tematik miniatura asarlari, amaliy dizayn ishlari yoki raqamli galereyalar shaklida bo‘lishi mumkin.

• Maqsad: ijodiy mustaqillikni rag‘batlantirish, amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish.

4. Milliy merosni tatbiq qilish

• Talabalarga Buxoro miniatura maktabi va mashhur rassomlarning ijodiy uslublari bo‘yicha materiallar taqdim etish.

• Talabalar tarixiy va madaniy kontekstni o‘rganib, uni zamonaviy ijodiy ishlarga tatbiq etadi.

• Maqsad: milliy badiiy qadriyatlarni anglash va qadrlash.

5. Texnologik va vizual vositalardan foydalanish

• Virtual galereyalar, interaktiv taqdimotlar, raqamli chizma va dizayn dasturlari qo‘llanadi.

• Talabalar miniatura elementlarini raqamli formatda yaratish orqali zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtiradi.

• Maqsad: amaliy ko‘nikmalarni kengaytirish va innovatsion ta’lim muhitini yaratish.

1. Miniatura san’atini o‘qitish jarayonida har bir mashg‘ulotni nazariy va amaliy komponentlar bilan boyitish.

2. Talabalarni ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga rag‘batlantirish.

3. Milliy meros va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni birlashtirgan integratsiyalashgan dasturlarni ishlab chiqish.

4. Talabalarga miniatura san’atining kompozitsion va estetik qoidalarini tahlil qilish imkoniyatini berish.

5. Interfaol va loyiha metodlarini muntazam qo‘llash orqali amaliy va vizual ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’limda milliy miniatura san’ati elementlarini integratsiyalashgan pedagogik metodlar orqali qo‘llash, talabalarning tasviriy va amaliy ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. [7]S.S. Abdullayev (2018) o‘z tadqiqotlarida miniatura san’atining kompozitsion, geometrik va rang uyg‘unligi xususiyatlarini amaliy mashg‘ulotlarga tatbiq etishning pedagogik ahamiyatini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, S.F. Abdullayev (2019) talabalarning vizual tafakkuri va detallarga e’tiborini rivojlantirishda miniatura

elementlarini loyiha va interfaol metodlar bilan birlashtirish samaradorligini ilmiy jihatdan asoslagan.

Bundan tashqari, Fayzullo Tuychiyev (2020) miniatura san’ati orqali talabalarda ijodiy tafakkur va estetik didni shakllantirishning nazariy va amaliy tamoyillarini yoritgan. U o‘z ishlari orqali rang, ritm, simmetriya va detalni o‘rganishning talabalarga ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkoniyatini yaratishini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, Buxoro miniatura maktabi va uning mashhur rassomlarining (Mirza Salim, Omonjon Hoshimov, Niyazali Kholmatov, Shomahmud Muhammadjanov, Abduvosit Qambarov, Gayrat Kamolov, Munira Satybaldieva, Davron Toshev, Feruz Temirov, Vladimir Lugovskoy, Olim Kamolov, Bakhodyr Khojimetov, Bekhzod Khojimetov, Abdukhakim Karimov) ijodi talabalarga milliy badiiy merosni chuqur anglash, uni modern pedagogik jarayonga tatbiq etish va zamonaviy ijodiy shakllarda ifodalash imkoniyatini beradi.

Xulosa va takliflar. Integratsiyalashgan pedagogik model asosida o‘qitishning bir qator ijobiy natijalari mavjud: talabalarning amaliy va tasviriy ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi, ijodiy tafakkur mustahkamlanadi, estetik did va milliy madaniyatga hurmat hissi shakllanadi. [8]Talabalar miniatura elementlarini mustaqil kompozitsiyalarda qo‘llash orqali badiiy qarorlar qabul qilish, murakkab vizual muammolarni hal qilish va o‘z ijodiy uslubini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu bilan birga, interfaol va loyiha metodlarini qo‘llash, masalan, virtual galereyalar, interaktiv taqdimotlar va real ijodiy mashg‘ulotlar orqali talabalarga amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi.Bu esa nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki milliy badiiy merosni asrab-avaylash va zamonaviy pedagogik kontekstda ijodiy faoliyatga tatbiq etishning innovatsion yo‘lini yaratadi.[9]

Natijada, milliy miniatura san’ati va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini integratsiyalashgan holda qo‘llash, oliy ta’limda innovatsion pedagogik modelni shakllantirishda ilmiy asoslangan, samarali va dolzarb yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu metodika talabalarning ijodiy, estetik va amaliy kompetensiyalarini birdek rivojlantirishga xizmat qiladi hamda milliy madaniy merosni zamonaviy ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Что такое Третий Ренессанс? – газета «Янги Ўзбекистон», 17 августа 2021.
2. Abdullayev S.S. “Oliy ta’limda talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi”, Buxoro Davlat Universiteti, 2020.
3. Туйчиев Ф. Композиционные принципы миниатюрного искусства в педагогике. – Ташкент, 2020.50 с.
4. Булатов С.С. Халқ амалиёт безак санъати. – Ташкент, 1985.300 с
5. Абдуллаев С.Ф. Методы интеграции национального искусства в образовательный процесс. – Ташкент, 2019.180 с.
6. Абдуллаев С.С. Декоративное искусство и его педагогическое значение. – Ташкент, 2018.220 с
7. Abdullayev S.S. “Amaliy san’at mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash”, – Buxoro Davlat Universiteti, 2021.
8. Karimov T.Xalq amaliy san’ati va zamonaviy pedagogika. –Toshkent: Oliy va o‘rta maxsus ta’lim.2017.
9. Islomova, N.Buxoro miniatura maktabi: uslub va bezak elementlari. –Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020.

Muhayyo KENJAYEVA,
Yangi asr universiteti
Maktab va maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

ONA TILI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILARNING NUTQIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda axborot bilan ishlash va multimedialardan foydalanish orqali muloqotga kirishish, samimiy munosabatda bo‘lish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. axborot texnologiyalari, mustaqil fikrlash, nutq, multimedia, muloqot, o‘qitish, ta’lim.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности образования за счёт рационального использования возможностей информационных технологий, а также развития речевых навыков учащихся через работу с информацией и использование мультимедийных средств для вступления в коммуникацию и установления искренних взаимоотношений.

Ключевые слова: информационные технологии, самостоятельное мышление, речь, мультимедиа, общение, преподавание, образование.

Annotation: this article discusses increasing educational efficiency by making effective use of information technology capabilities. It explores the development of students’ speech skills through information processing and the use of multimedia to facilitate communication and foster sincere interpersonal relationships.

Key words: information technologies, independent thinking, speech, multimedia, communication, teaching, education.

Axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, bilim olishga bo‘lgan rag‘batini oshirish hamda nazariy tushunchalardan amaliyotda erkin ifodalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishi nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. Shu sababli ta’lim-tarbiyaga oid me’riy hujjatlarda uzluksiz ta’lim bosqichlari uchun multimedia ishlanmalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, o‘qitishning o‘yinli shakllari va mediatexnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi qo‘yilgan[1]. Bu esa, davr bilan hamnafas bugungi kun yoshlarining axborotlarni to‘g‘ri tanlash, ular orasidan muhimini saralab olish, tartibga solish yo‘llarini izlash, axborotlar bilan ishlashga oid zamonaviy usullarni o‘zlashtirishlariga zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Elektron axborot ta’lim muhitini tashkil etish zamonaviy ta’lim turlaridan biri bo‘lib, insonning individualligini anglash, ularning psixologik xususiyatlarini bilish va hisobga olishga asoslanadi. Shuningdek, elektron axborot ta’lim muhiti innovatsiyalar diffuziyasi samaradorligining asosi sifatida belgilanadi[2].

O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda bevosita axborot bilan ishlash yaxshi natija beradi. Bunda ona tili ta’limini mediamanbalar: televideniye, radio, kompyuter, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar, yangi rusumdagi telefonlar yordamida tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilarning ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli, maqsadli va samarali foydalanish vazifasi ularning quyidagi harakatlarni amalga oshirishlarini taqozo etadi:

1. O‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish qilinadi.
2. O‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi.
3. O‘quvchilar video lavhalarda aks etgan jarayon, hodisa yoki voqeliklarning mohiyatini daftarlariga qayd etadi.
4. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi.

Chunonchi, darsning kirish qismida mavzuga oid videolavhadan parcha namoyish qilish va o‘zaro suhbat tashkil etish o‘quvchilarni psixologik jihatdan yangi mavzuga to‘liq jalb etishga yordam beradi. So‘ngra beriladigan savollar yoki tayanch so‘z va birikmalar asosida suhbat tashkil etish, uni og‘zaki muhokama qilish, leksik-grammatik topshiriqlar bo‘yicha yozma tahlillar o‘tkazish videolavha mazmunini chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi” [3].

“Ona tili” darsligidagi “Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish“ mavzusini “Videotopishmoq” metodi orqali o‘rganilishiga doir misollar keltiramiz:

Ekranda namoyish etilgan suratlarga mos omonimlarni izohini berish talab etiladi: **Ot** – mehribon va mehnatkash jonzot. – Kamondan o‘q **ot**; Yig‘laganda ko‘zlarimdan **yosh** to‘kildi. – Mening ukam juda **yosh**; **Tut**- tezpishar meva. – Kapalakni qo‘lingda **tut.**

Videolavhalar namoyish qilingach, o‘quvchilardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi mavzuga xos bo‘lgan jihatlar ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Videotopishmoqning javobini topish orqali o‘quvchilar o‘rganiladigan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo‘ladi[5]. Ayniqsa, bu metod orqali o‘quvchilarning barchasi darsga jalb qilinadi. Ko‘rinadiki, multimediali vositalarining komponentlari o‘ziga xos vazifalarni bajaradi: audio tinglab tushunish, video obrazlilikni tasavvur etish, animatsiya idrok etish kabi bilish jarayonlari rivojini ko‘zda tutadi. Shuningdek, multimedia ilovalarining bir qator afzalliklari mavjud:

O‘qituvchilar uchun: o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashlariga imkon yaratishi; darslarning noan’anaviy ko‘rinishda tashkil qilinishi; o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirishi; bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga bo‘shliqlarni to‘ldirishda yordam berishi; ota-onalari bilan hamkorlikda ishlash imkonini orttiradi.

O‘quvchilar uchun: o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi; o‘qishda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi; uy vazifalarini bajarishda qulayliklar yaratishi; dars qoldirgan taqdirda ham yangi mavzuni o‘zlashtirish imkonini berishi; mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatadi.

Ota-onalar uchun: ota-onalarning uy vazifalarini tayyorlashda farzandlariga yordam berishlari hamda ularning o‘qishlarini yaxshilash borasida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantiradi.[2;]

Dars mashg‘ulotlarida o‘quv topshiriqlarini multimediali vositalar yordamida o‘quvchilarga namoyish etish bir qadar qulayliklarni yaratadi. Chunki multimediali vositalar o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlashga yordam beradi. Har bir o‘quvchilarni o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilishga chorlaydi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonidagi bosh munosabat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatdir. Ijodiy ta’limda ham bu bog‘lanish o‘z shaklini o‘zgartirgan holda asosiy o‘rinni egallaydi. An’anaviy ta’limdagi bog‘lanishlar qatoriga o‘qituvchi va darslik, o‘qituvchi va o‘quv materiali, o‘qituvchi va ko‘rgazmali qurol, o‘quvchi va darslik, o‘quvchi va o‘quv materiali, o‘quvchi va ko‘rgazmali qurol kabilar kirsa, kompyuterli ta’limda ularning shakli birmuncha o‘zgaradi [4].

Demak, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali dars jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida muloqotga kirishish, samimiy munosabatda bo‘lish o‘zaro fikr almashish va ijodiy faollikni ko‘rsatish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 21.10.2020 y. 06/20/6084/1398-son.
2. Vaughan Tay. Multimedia: Making It Work. Chapter 1: What Is Multimedia. 2011. ISBN: 978-0-07-174850-6/. – R. 15.
3. Muxitdinova X.S. Til ta’limiga videomateriallar qanday uyg‘unlashadi? // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2015. –№ 8. 15–16-b.
4. Axmedova G.M. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar bilan boyitishning metodik asoslari: ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2007. 162-b.
5. Kenjayeva M.A. 5-6 sinf o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi: ped. fan. dok. (PhD) diss. dissert. – Toshkent, 2021. 130-b.

Gulsara HAKIMOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsenti

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda interfaol usullarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida talaba markazli yondashuv asosida interfaol metodlardan foydalanish til o'rganish samaradorligini oshiradi. Maqolada guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash, rolli o'yinlar, muammoli ta'lim, aqliy hujum va loyiha asosida o'qitish kabi interfaol metodlar yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari interfaol usullar talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, ijodiy fikrlashi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *interfaol ta'lim, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, talaba markazli ta'lim, zamonaviy metodlar*

Annotation: this article analyzes theoretical and practical aspects of interactive methods in teaching English. In modern education, student-centered interactive approaches significantly enhance the effectiveness of language learning. The article discusses group work, pair work, role-play, problem-based learning, brainstorming, and project-based learning. It also examines the role of digital technologies in the learning process. The results show that interactive methods develop students' communicative competence, creativity, and independent learning skills.

Key words: *interactive teaching, English language teaching, communicative competence, student-centered learning, modern methods*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты интерактивных методов обучения английскому языку. В современном образовательном процессе студентоцентрированный подход значительно повышает эффективность изучения языка. Рассматриваются такие методы, как групповая работа, работа в парах, ролевые игры, проблемное обучение, мозговой штурм и проектное обучение. Также анализируется роль цифровых технологий в образовательном процессе. Результаты исследования показывают, что интерактивные методы развивают коммуникативную компетенцию, креативность и навыки самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова: *интерактивное обучение, английский язык, коммуникативная компетенция, студентоцентрированное обучение, современные методы*

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli uni o'qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. An'anaviy grammatik-tarjima usuli uzoq yillar davomida asosiy yondashuv bo'lib kelgan bo'lsa-da, u talabalarning nutqiy kompetensiyasini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

Shu bois zamonaviy pedagogikada interfaol usullar asosiy o'ringa chiqmoqda. Interfaol ta'lim jarayonida talaba darsning passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi.

Maqsad va vazifalar.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tilini o'qitishda interfaol usullarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ularning samaradorligini aniqlash hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti sharoitida qo'llash imkoniyatlarini asoslashdan iboratdir.

Vazifalar:

- Interfaol ta'limning nazariy asoslarini o'rganish;
- Asosiy interfaol metodlarni tahlil qilish;
- Raqamli texnologiyalarning rolini yoritish;
- Talabalarning kommunikativ kompetensiyasiga ta'sirini aniqlash.

Nazariy asoslar.

Interfaol ta'lim bir qator ilmiy yondashuvlarga asoslanadi:

- Konstruktivizm – bilim faol jarayonda shakllanadi
- Vygotskiy nazariyasi – "yaqin rivojlanish zonasi"
- Kommunikativ yondashuv – til muloqot vositasi sifatida o'rganiladi

Bu nazariyalar interfaol metodlarning ilmiy asosini tashkil qiladi.

Interfaol metodlar:

1. Guruhlarda ishlash

Talabalar kichik guruhlarda ishlaydi, fikr almashadi va umumiy natijaga erishadi.

2. Juftlikda ishlash

Dialog va savol-javob mashqlari orqali nutq rivojlanadi.

3. Rolli o‘yinlar

Hayotiy vaziyatlar sahnalashtiriladi (do‘kon, intervyu, sayohat).

4. Muammoli ta’lim

Talabalar real muammolarga yechim topadi.

5. Aqliy hujum

Tezkor va erkin fikrlar bildirish orqali ijodiy yondashuv rivojlanadi.

6. Loyiha asosida o‘qitish

Talabalar mustaqil loyiha tayyorlab, taqdimot qiladi.

Raqamli texnologiyalar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi platformalar muhim ahamiyatga ega:

- Google Classroom
- Moodle
- Quizlet
- Kahoot
- Zoom, Microsoft Teams

Ular interfaol ta’limni yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Afzalliklar:

- Kommunikativ kompetensiya rivojlanadi
- Motivatsiya oshadi
- Mustaqil fikrlash shakllanadi
- Amaliy ko‘nikmalar kuchayadi
- Dars jarayoni qiziqarli bo‘ladi

Muammolar:

- Katta guruhlar bilan ishlash qiyin
- Texnik jihozlar yetishmasligi
- O‘qituvchilarning malaka farqi
- An’anaviy yondashuvga moyillik

Tavsiyalar:

- O‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari
- Texnik bazani kuchaytirish
- Interfaol dars ishlanmalarini ko‘paytirish
- Talabalarni faol ishtirokka jalb qilish
- Baholash tizimini modernizatsiya qilish

Xulosa. Interfaol usullar ingliz tilini o‘qitishda eng samarali yondashuvlardan biridir. Ular talabalarning kommunikativ, ijodiy va mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantiradi. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida ushbu metodlarni keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harmer J. The Practice of English Language Teaching
2. Richards J.C., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching
3. Vygotsky L.S. Mind in Society
4. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching
5. Scrivener J. Teaching English

M.N. RAUPOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
vb dotsent (PhD)



MAXSUS MAQSADLAR UCHUN (ESP) INGLIZ TILINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqola maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'rganuvchilarga (ESP) sun'iy intellekt (SI) vositalarini o'rgatish jarayoniga tatbiq etishning asosiy tamoyillarini chuqur tahlil qiladi. SI texnologiyalarining ESP ta'limidagi transformatsion salohiyatini o'rganar ekan, maqola pedagogik asoslar, turli SI ilovalari, o'quv rejalari va baholashni loyihalash, shuningdek, axloqiy masalalar va ularni hal qilish yo'llariga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ingliz tili maxsus maqsadlarda, pedagogik tamoyillar, o'qituvchi roli, axloqiy muammolar, moslashuvchan ta'lim, til o'rgatish.*

Annotation: this article provides a deep analysis of the fundamental principles for integrating Artificial Intelligence (AI) tools into the English for Specific Purposes (ESP) teaching process. Exploring the transformative potential of AI technologies in ESP education, the paper focuses on pedagogical foundations, diverse AI applications, curriculum and assessment design, as well as ethical considerations and their resolutions.

Key words: *artificial Intelligence, english for specific purposes, pedagogical principles, teacher's role, ethical issues, adaptive learning, language teaching.*

Аннотация: данная статья глубоко анализирует основные принципы внедрения инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в процесс преподавания английского языка для специальных целей (ESP). Изучая трансформационный потенциал технологий ИИ в образовании ESP, статья фокусируется на педагогических основах, различных приложениях ИИ, разработке учебных планов и оценивания, а также на этических вопросах и путях их решения.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, английский язык для специальных целей, педагогические принципы, роль учителя, этические проблемы, адаптивное обучение, обучение языку, образовательные технологии*

Kirish.

XXI asr ta'lim landshafti sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining tez rivojlanishi bilan tubdan o'zgarmoqda. Ushbu o'zgarish ayniqsa, til o'rgatish sohasida, xususan, maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'rganish (ESP) yo'nalishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. ESP o'rganuvchilarining o'ziga xos ehtiyojlari va soha bo'yicha aniq talablari SI ning moslashtirilgan, kontekstga asoslangan va samarali ta'lim yechimlarini taklif etish salohiyatini yanada oshiradi. SI vositalari shaxsiy o'quv yo'nalishlarini yaratish, real vaqt rejimida fikr-mulohazalar berish va murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'rganish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Biroq, ushbu transformatsion salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun SI ni ESP ta'limiga integratsiya qilishning chuqur pedagogik tamoyillariga ehtiyoj bor.

Ushbu maqola ESP o'qitishda SI dan foydalanishning asosiy tamoyillarini o'rganishga qaratilgan. Bu jarayonda SI vositalarining turli xil ilovalari, o'quv dasturlarini samarali loyihalash, baholash mexanizmlari hamda axloqiy mulohazalar va ular bilan bog'liq muammolarni hal qilish masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqola SI davrida ESP o'qituvchisining o'zgaruvchan rolini va ushbu sohadagi kelajakdagi yo'nalishlarni ko'rib chiqadi. Yakuniy maqsad SI ning maxsus sohalarda ingliz tilini o'zlashtirishga ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun strategik asosni taqdim etishdan iboradir. Bu esa o'quvchilarning faqat til ko'nikmalarini emas, balki ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. ESP ta'limida SI ning integratsiyasi bo'yicha mavjud adabiyotlar uning pedagogik imkoniyatlari va shu bilan birga yuzaga keladigan axloqiy muammolar bo'yicha boy ma'lumotlarni taqdim etadi. SI-Enhanced Adaptive Language Teaching (SI-ga asoslangan moslashuvchan til o'rgatish) nazariy doirasida olib borilgan tadqiqotlar, SI ning EFL (chet tili sifatida ingliz tili) va ESP o'rganish muhitiga integratsiyalashuvining amaliy pedagogik strategiyalarini belgilaydi. Jumladan, Speechace, Diffit, Newsela va ChatGPT kabi bepul yoki freemium SI til

o‘rganish vositalarini ishga solish o‘quvchilarning retseptiv (tinglab tushunish, o‘qish) va produktiv (gaprish, yozish) til ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Xavfsizlik sohasidagi mutaxassislar bo‘lgan kattalar guruhi bilan o‘tkazilgan tadqiqot ushbu vositalarning samaradorligini yaqqol namoyish etgan. Vazifaga asoslangan til o‘rgatish (Task-Based Language Learning) metodologiyasidan foydalanib, o‘quvchilar elektron xatlar yoki insholar yozish, yangi terminlarni kontekstda ishlatish kabi aniq vazifalarni bajarganlar. Multimedia interfeyslariga ega SI til vositalaridan foydalanish orqali ular darhol fikr-mulohazalar olishgan va bu ularning ko‘nikmalarini bevosita o‘qituvchi nazoratisiz rivojlantirishga yordam bergan. Natijalar SI vositalarining o‘quvchilarning til o‘rganishiga, ayniqsa ularning yozish, gapirish va o‘qish ko‘nikmalariga statistik jihatdan sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlagan. Bu usul, ayniqsa kattalar uchun tilni tahlil qilish va uning ustida mulohaza yuritishni rag‘batlantirib, samarali ekanligini isbotlagan. Ushbu topilmalar ingliz tili o‘qituvchilari uchun zamonaviy SI texnologiyalarini o‘quv amaliyotiga integratsiya qilishda qimmatli ma’lumotlar taqdim etadi. SI ning ushbu ilovalari maxsus maqsadlardagi tilga oid murakkab vazifalarni avtomatlashtirish va shaxsiylashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ESP o‘qitishda SI dan foydalanish tamoyillari tahlil qilinarkan, metodologiya asosan mavjud adabiyotlarning sintezi va SI asosida til o‘rganishning pedagogik amaliyotiga tatbiq etiladigan yondashuvlarga tayanadi. Yangi empirik tadqiqot o‘tkazishdan ko‘ra, bu bo‘lim SI ni ESP ta’limiga integratsiya qilishda qo‘llaniladigan yoki tavsiya etiladigan metodologik yondashuvlarni yoritishga qaratilgan.

Birinchidan, SI ga asoslangan til o‘rgatish samaradorligini baholash uchun keng qo‘llaniladigan tadqiqot metodologiyasi Vazifaga asoslangan til o‘rgatish (Task-Based Language Learning – TBLL) hisoblanadi. Bu yondashuvda o‘quvchilar tilni aniq va mazmunli vazifalarni bajarish orqali o‘zlashtiradilar, bu jarayonda SI vositalari ularga yordamchi sifatida xizmat qiladi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlilida keltirilgan tadqiqotda, masalan, kattalar – xavfsizlik mutaxassislari elektron pochta yozish, insho yaratish va yangi terminologiyani kontekstda qo‘llash kabi vazifalarni bajarganlar. SI vositalari ularga darhol fikr-mulohazalar berish orqali til o‘rganish samaradorligini oshirgan.

Ikkinchidan, SI-Enhanced Adaptive Language Teaching (SI ga asoslangan moslashuvchan til o‘rgatish) nazariy doirasi metodologik nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, bilish uslubi va taraqqiyotiga qarab moslashtirilgan o‘quv materiallari va vazifalarni taqdim etishga qaratilgan. SI algoritmlari o‘quvchining o‘zaro harakatlari asosida o‘quv yo‘nalishini dinamik ravishda o‘zgartirib, ularga eng mos keladigan materiallarni taqdim etadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida bu, SI tizimlarining samaradorligini aniqlash uchun uzun muddatli kuzatuvlar va o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu yerda asosiy e’tibor SI tizimining adaptiv qobiliyatlarini qanchalik aniq va samarali ishga solayotganini baholashga qaratiladi.

Uchinchidan, ESP sohasida SI ni tatbiq etish interdisiplinar yondashuvni talab qiladi. Tilshunoslik, pedagogika, informatika va muayyan soha (masalan, tibbiyot, muhandislik, xavfsizlik) bilimlari birgalikda ishlatilishi lozim. SI vositalarini ESP o‘quv dasturlariga integratsiya qilishda, masalan, o‘quv materiallarining maxsus soha terminologiyasiga mos kelishi, kontekstual aloqadorligi va autentikligi ta’minlanishi zarur.

Xulosa. ESP ta’limiga sun’iy intellekt (SI) integratsiyasi til o‘rgatish jarayonini transformatsiya qilishning ulkan salohiyatiga ega bo‘lib, bu jarayonda bir qator imkoniyatlar va muammolarni o‘z ichiga oladi. SI o‘quvchilarga shaxsiy o‘quv yo‘nalishlari, darhol fikr-mulohazalar va real kontekstlarda amaliyot qilish imkoniyatlarini taqdim etish orqali maxsus sohalarga oid tilni o‘zlashtirishni sezilarli darajada optimallashtirishi mumkin. Vazifaga asoslangan til o‘rgatish va SI ga asoslangan moslashuvchan ta’lim kabi pedagogik tamoyillar SI vositalari yordamida o‘quvchilarning produktiv va retseptiv til ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Li, Z., & Song, W. (Eds.). Sun’iy intellekt Til o’rganish va o’qitishda: Joriy yondashuvlar va kelajak istiqbollari. Singapore: Springer, 2023.

[2] Strik, H., & Cucchiarini, C. (Eds.). Til o’rganish va o’qitish uchun avtomatik nutq tanish. Cham: Springer, 2018.

[3] Cerezo, E., et al. “Sun’iy intellekt va Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili: Joriy tendensiyalar va kelajak istiqbollari.” Kompyuter yordamida til o’rganish, vol. 35, no. 1-2, 2022, pp. 1-25.

Kyung Ae Kim,
O'zDJTU, Koreys filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi
good1017@gmail.com

SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TOPIK (KOREYS TILINI BILISH DARAJASI TESTI) O'QISH KO'NIKMASINI O'QITISH HOLATI: O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI KOREYS FILOLOGIYASI YO'NALISHI MISOLIDA

Annotatsiya: ushbu tadqiqot O'zbekistonda koreys tilini o'rganishga bo'lgan talabning keskin ortishi munosabati bilan Koreys tilini bilish darajasi testi o'qish ko'nikmasini o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish maqsadida amalga oshirildi. Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi TOPIK darslari asosan darslikka tayanuvchi bir xillikdagi o'qitish uslubi va imtihonning eng so'nggi turdagi savollari yetarli darajada aks ettirilmasligi kabi muammolarga ega. Koreys tili filologiyasi yo'nalishi darslariga ChatGPT va Gemini kabi generativ sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari joriy etildi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt (SI) ta'limi, TOPIK (Koreys tilini bilish darajasi testi), O'qish ko'nikmasini o'qitish, O'zbekistonda koreys tili ta'limi.*

Аннотация: данное исследование было проведено с целью разработки эффективных методов обучения навыкам чтения для теста на уровень владения корейским языком в связи с резким ростом спроса на изучение корейского языка в Узбекистане. В настоящее время занятия по подготовке к TOPIK в высших учебных заведениях Узбекистана сталкиваются с рядом проблем, таких как однообразный подход к обучению, основанный преимущественно на учебниках, а также недостаточное отражение новейших типов экзаменационных заданий. В учебный процесс направления «Корейская филология» были внедрены технологии генеративного искусственного интеллекта, такие как ChatGPT и Gemini.

Ключевые слова: *образование в области искусственного интеллекта (ИИ), TOPIK (тест на знание корейского языка), обучение навыкам чтения, преподавание корейского языка в Узбекистане.*

Annotation: this study was conducted to develop effective methods for teaching reading skills for the Test of Proficiency in Korean, in response to the rapidly increasing demand for learning the Korean language in Uzbekistan. Currently, TOPIK classes in higher education institutions in Uzbekistan face several challenges, including a predominantly textbook-based and uniform teaching approach, as well as insufficient coverage of the latest types of exam questions. Generative artificial intelligence (AI) technologies, such as ChatGPT and Gemini, have been introduced into the Korean Philology program curriculum.

Key words: *artificial intelligence (AI) education, TOPIK (Test of Proficiency in Korean), teaching reading skills, Korean language education in Uzbekistan.*

Kirish. O'zbekistonda koreys tilini o'rganuvchilar sonining shiddat bilan ortishi Koreys tilini bilish darajasi testi natijalarining amaliy qiymati oshishiga olib kelmoqda. Koreyada tahsil olishni va mahalliy koreys kompaniyalariga ishga joylashishni istagan o'quvchilar uchun TOPIK ballari majburiy talabga aylandi. Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligi huzuridagi Milliy xalqaro ta'lim instituti (NIIED) tomonidan o'tkaziladigan TOPIK imtihoni koreys tili ona tili bo'lmagan xorijliklar va chet eldagi etnik koreyslar uchun nufuzli baholash ko'rsatkichi bo'lib, universitetga kirish, ishga joylashish va viza olish kabi sohalarda keng qo'llaniladi.

Toshkentdagi Koreys ta'lim markazining matbuot xabari (20.03.2026) ma'lumotlariga ko'ra, koreys tili kurslari tinglovchilari soni 2024-yildagi 4,531 nafardan 2025-yilda 5,323 nafarga yetib, barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Shuningdek, O'zbekistondagi umumta'lim maktablari, litsey va kollejlarda koreys tilini ikkinchi chet tili sifatida tanlagan muassasalar soni ham 2024-yildagi 110 tadan 2025-yilda 174 taga keskin ko'paydi. Ta'limga bo'lgan bunday talabning kengayishi TOPIK imtihonini topshiruvchilar sonining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi: 2024-yilda 37,537 nafarni tashkil etgan talabgorlar soni 2025-yilda 43,572 nafarga yetdi. Ayniqsa, 2025-yil holatiga

ko‘ra Koreyada tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalar soni 18,155 nafarni tashkil etib, davlatlar reytingida 3-o‘rinni egallab turibdi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda koreys tili ta’limining mavqeyini yaqqol namoyon etadi.

Biroq, bunday miqdoriy kengayishga qaramay, ta’lim muassasalaridagi amaliy o‘qitish usullari hali ham an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolayotgani muammo sifatida qayd etilmoqda. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti kabi asosiy oliy ta’lim muassasalarida TOPIK o‘qish darslari asosan “matnni ovoz chiqarib o‘qish – javoblarni tekshirish – o‘qituvchining bir tomonlama tushuntirishi” kabi bir xillikdagi muloqot shaklidan chiqib keta olmayapti. Qolaversa, mavjud TOPIK darsliklari tez o‘zgarib borayotgan imtihonning yangi turlarini o‘z vaqtida aks ettira olmayotgani talabalarda fanga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga va strategik o‘qish qobiliyatining yetishmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqot O‘zDJTU Koreys tili filologiyasi yo‘nalishi misolida sun’iy intellekt yordamida o‘tkazilgan TOPIK o‘qish darslarining holatini tahlil qilish va uning ta’limiy samaradorligini o‘rganishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Koreys tili filologiyasi yo‘nalishi 4-kursida tahsil olayotgan, TOPIK II imtihoniga tayyorgarlik ko‘rayotgan talabalar ishtirokida o‘tkazildi. Mazkur fan haftada 3 marta o‘tilib, talabalarning imtihonga moslashuvchanligini oshirish va yuqori ball to‘plashlarini ta’minlashni maqsad qilgan.

Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun ChatGPT va Gemini kabi generativ SI modellari asosiy ta’lim vositasi sifatida qo‘llanildi. Shuningdek, o‘quv kontentini vizuallashtirish va takroriy o‘rganish samaradorligini oshirish uchun PowerPoint hamda Quizlet raqamli platformasidan yordamchi vosita sifatida foydalanildi. Tadqiqotda qo‘llanilgan dars modeli material yaratish, lug‘at tahlili va qayta aloqa kabi uch bosqichdan iborat:

Birinchidan, material yaratish bosqichi. Mavjud darsliklarning cheklangan imkoniyatlarini bartaraf etish uchun SI yordamida o‘qish bo‘limidagi savol turlari bo‘yicha optimallashtirilgan yechish usullari ishlab chiqildi. Shuningdek, avvalgi imtihon savollarining lingvistik xususiyatlari va murakkablik darajasi tahlil qilinib, SI orqali ularga o‘xshash mantiqiy tuzilishga ega bo‘lgan yangi matnlar yaratildi. Bu esa talabalarga bir xil turdagi savollarni qayta-qayta yechish orqali eng so‘nggi imtihon tendensiyalariga moslashish imkonini berdi.

Ikkinchidan, lug‘at va iboralar tahlili bosqichi. Matndagi murakkab so‘zlar, koreys tiliga xos maqol va iboralar SI tomonidan avtomatik ravishda ajratib olindi. Iboralar tahlili jarayonida Kim Kyung Ae (2026) tomonidan taklif etilgan “Koreys-o‘zbek maqollari qiyosiy tahlili” tamoyillari SI promptlariga tatbiq etildi. Bu talabalarga ona tili va koreys tili o‘rtasidagi lisoniy tafovutlarni yengib o‘tishga va ko‘chma ma’nodagi iboralarni intuitiv tushunishga yordam berdi. SI yordamida ushbu iboralar o‘zbek tiliga aniq tarjima qilinib, madaniy kontekstni hisobga olgan holda batafsil tushuntirildi.

Uchinchidan, individual qayta aloqa va xatolar tahlili bosqichi. Talaba noto‘g‘ri javobni tanlagan taqdirda, SI ushbu javob nima uchun xato ekanligini mantiqiy tushuntirib beruvchi 1:1 tyutorlik tizimi joriy etildi. Ayniqsa, TOPIK savol tuzuvchilari tomonidan qo‘llaniladigan “chalg‘ituvchi javoblar”ning tuzilish prinsiplari SI orqali tahlil qilinib, talabalarga taqdim etildi. Talabalar o‘z xatolari va tipik noto‘g‘ri javob turlari haqida aniq tushunchaga ega bo‘lish orqali tanqidiy o‘qish qobiliyatini shakllantirdilar.

<1-jadval>



TOPIK 제96회 한국어능력시험 II B-홀수형 2교시 (읽기)

※ [21～22] 다음을 읽고 물음에 답하십시오. (각 2점)

학생 수 감소로 폐교가 될 뻔한 산골 초등학교가 위기에서 벗어나 화제이다. 이 학교 선생님들은 (　　) 학교를 살릴 방법을 고민했다. 그러다 찾은 것이 '음악 특성화 학교'였다. 선생님들은 예술대학교에 협조를 요청해 학생들에게 다양한 악기를 가르칠 전문가를 구했다. 또 기업의 기부를 받아 유명 음악가와 함께하는 음악회도 개최했다. 이런 소문을 듣고 음악을 배우러 오는 학생들이 생기면서 이 학교는 폐교 위기에서 벗어났다.

21. (　　)에 들어갈 말로 가장 알맞은 것을 고르십시오.

① 눈을 딱 감고
② 머리를 맞대고
③ 손에 땀을 쥐고
④ 목에 힘을 주고

<2-jadval>

Bo‘lim	O‘qituvchi prompti	SI natijasi va ta’limiy samaradorligi
Lug‘at va iboralar tahlili	“위 지문의 ( )에 들어갈 관용구 ‘머리를 맞대고’의 의미를 설명하고, 우즈베크어 대조 표현과 예문을 제시해줘.”	[Natija] ‘Kallani bir joyga qo‘ymoq’ (maslahatlashmoq) kabi o‘zbekcha muqobillarini taqdim etish [Samara] Ona tili bilan qiyoslash orqali madaniy kontekstni tushunishni oshirish
O‘xshash matn yaratish	“위 지문과 유사한 ‘위기 극복’ 주제를 바탕으로, ‘머리를 맞대고’가 정답이 되는 새로운 독해 지문을 생성해줘.”	[Natija] Bozor tadbirkorlarining yirik supermarketlarga qarshi birgalikda yechim topishiga oid yangi matn yaratish [Samara] Takroriy o‘rganish orqali kontekstni tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish

Noto'g'ri javoblar mantiqi tahlili	"21번 문제의 선택지 ①, ③, ④가 오답인 이유를 중급 수준의 한국어로 논리적으로 설명해줘."	[Natija] ①눈을 딱 감고 (qaror/e'tiborsizlik), ③손에 땀을 쥐고 (hayajon), ④목에 힘을 주고 (takabburlik) kabi variantlarning matnga mos kelmasligini izohlash [Samara] Noto'g'ri javoblarni chiqarib tashlash va iboralarni farqlash ko'nikmasini shakllantirish
Lug'atni kengaytirish (Quizlet)	"위 지문에서 4급 이상의 고난도 어휘를 추출하고, 이를 Quizlet에 입력할 수 있도록 '단어-우즈베크어 뜻' 형태로 정리해줘."	[Natija] 폐교 (Maktab yopilishi), 특성화 (Ixtisoslashuv), 기부 (Ehson) kabi ro'yxatlarni shakllantirish [Samara] O'quv ma'lumotlarini avtomatlashtirish va takrorlash samaradorligini oshirish

<1-jadval>da keltirilgan TOPIK 96-imtihoni o'qish bo'limi 21-savoli kabi iboralarni aniqlashga oid muammolarni hal qilish uchun, <2-jadval>da ko'rsatilganidek, o'qitish jarayonida SI (sun'iy intellekt) imkoniyatlaridan samarali foydalanildi. Misol uchun, "머리를 맞대고" (boshni bir joyga qo'yib/maslahatlashib) iborasi matn ichida qanday kontekstda qo'llanilganini SI orqali aniq tahlil qilib, uni o'zbek tilidagi muqobil iboralar bilan qiyoslagan holda tushuntirildi. Bu esa talabalarda tillararo interferensiya (aralashuv) hodisasini kamaytirishga va tushunish darajasini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. SI asosidagi TOPIK o'qish darslari natijasida talabalarda miqdoriy va sifat jihatidan sezilarli o'zgarishlar kuzatildi: talabalarning imtihon ballarida ijobiy o'sish kuzatildi. Ayniqsa, savollarni yechishga sarflanadigan vaqt qisqardi. Bu SI yordamida lug'at va murakkab gap tuzilmalarining tezkor tahlil qilinishi natijasida "to'siqlar" bartaraf etilgani bilan bog'liq; talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi shakllandi. An'anaviy usuldan farqli o'laroq, talabalar SI yordamida gaplarni mustaqil tahlil qilishni va mantiqiy xatolarni tekshirishni o'rgandilar; koreys tiliga xos maqol va madaniy kontekstni tushunish darajasi sezilarli darajada oshdi. SI koreyscha iboralarni o'zbek tilidagi muqobillari bilan qiyoslab tushuntirishi talabalarda madaniy sxema (Schema) shakllanishiga va matnni aniqroq tahlil qilishga yordam berdi. Darslarga bo'lgan qiziqish va mamnuniyat darajasi yuqori bo'ldi. Quizlet kabi raqamli vositalar bilan integratsiya qilingan darslar talabalarning motivatsiyasini va o'quv samaradorligini oshirdi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot O'zDJTUda SI yordamida o'tkazilgan TOPIK II darslarining samaradorligini o'rgandi va quyidagi xulosalarga kelindi: SI asosidagi darslar individual ta'lim muhitini yaratib, an'anaviy metodikaning cheklovlarini yengib o'tdi; Qiyosiy-lisoniy tahlil imkoniyati o'zbek talabalari uchun madaniy to'siqlarni kamaytirishda katta rol o'ynadi. Ayniqsa, maqollar va murakkab savollarda o'zbek tili bilan qiyoslash strategik o'qish qobiliyatini oshirdi. Talabalarning mustaqilligi va o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabati mustahkamlandi. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt O'zbekistonda koreys tili ta'limi sifatini oshirishda asosiy vosita bo'lib, uni amaliyotga keng tatbiq etish malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 국립국어원 한국어능력시험 사이트 https://www.topik.go.kr/
2. 법무부 출입국 통계자료 https://www.moj.go.kr/
3. Quizlet https://quizlet.com/
4. 제96회 한국어능력시험Ⅱ B－홀수형 2교시(읽기) 문제
5. 보도자료, 2026년 우즈베키스탄 한국어능력시험(TOPIK) 확대 시행, 대한민국 교육부 소속 타슈켄트한국교육원, 2026.3.20
6. 문진숙(2024), 생성형 인공지능을 활용한 한국어 읽기 자료 구성 방안 : 등급별 텍스트 난이도 수정을 중심으로, 경희대학교 박사학위논문
7. 조민지외(2024), 생성형 AI 기술을 활용한 한국어능력시험(TOPIK) 읽기 문제 생성 시스템 개발 연구,한국콘텐츠학회, 한국콘텐츠학회논문지 제 24권 제9호, p55 - 65
8. Kim, K. A. (2026). A Study on Korean Proverb Education Methods for Uzbek Learners. Independent Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies

Zuhra YARASHEVA,
mustaqil tadqiqotchi

RAQAMLI DAVRDA MEDIASAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY TA’LIM PLATFORMALARI TAHLILI

Annotatsiya:ushbu maqolada mediasavodxonlik tushunchasi, uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yetakchi ta’lim platformalari — News Literacy Project, Common Sense Media, Be Internet Awesome va BrainPOP faoliyati ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu platformalarning pedagogik yondashuvlari va ularning samaradorligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *mediasavodxonlik, raqamli savodxonlik, feyk axborot, tanqidiy fikrlash, internet xavfsizligi, ta’lim texnologiyalari.*

Аннотация: в данной статье рассматривается понятие медиаграмотности, её значение в современном обществе, а также деятельность ведущих образовательных платформ, способствующих её развитию — News Literacy Project, Common Sense Media, Be Internet Awesome и BrainPOP. Также анализируются педагогические подходы данных платформ и их эффективность.

Ключевые слова: *медиаграмотность, цифровая грамотность, фейковая информация, критическое мышление, интернет-безопасность, образовательные технологии.*

Annotation:this article examines the concept of media literacy, its significance in modern society, and the activities of leading educational platforms that contribute to its development — News Literacy Project, Common Sense Media, Be Internet Awesome, and BrainPOP. It also analyzes the pedagogical approaches of these platforms and their effectiveness.

Key words: *media literacy, digital literacy, fake information, critical thinking, internet safety, educational technologies.*

So‘nggi o‘n yil davomida talabalarni o‘qitish jarayoni sezilarli darajada murakkablashib bormoqda. Buning sababi o‘quvchilarning intellektual darajasiga bog‘liq emas, balki an’anaviy media manbalarining kundalik axborot muhitida o‘z ahamiyatini yo‘qotib borayotganidadir. Xususan “Jamiyat”, “Ma’rifat”, “Ishonch”, “O‘zbekiston ovozi” kabi mahalliy gazetalar yosh avlod uchun endilikda unchalik tanish emas.Ular O‘tkir Rahmat, Qobilbek Karimbekov, Abdumo‘min O‘tbosarov, Nasiba Ibrohimova kabi an’anaviy media shaxslarini bilmasligi mumkin, biroq “Chechenka” va “Alixan” kabi YouTube kontent yaratuvchilarini yaxshi taniydi.

Zamonaviy talabalar media iste’moli asosan TikTok, Instagram, YouTube va boshqa raqamli platformalar orqali shakllanmoqda. Netflix va Disney kabi striming xizmatlarida qisman kesishuv mavjud bo‘lsa-da, media iste’molidagi avlodlararo tafovut aniq seziladi.Ushbu holat raqamli davrda mediasavodxonlikning dolzarbligini yanada oshiradi. An’anaviy ommaviy axborot vositalaridan ijtimoiy tarmoqlarga o‘tish jarayoni axborotni qabul qilish, tahlil qilish va talqin etish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda Buyuk Britaniyada bolalar kuniga o‘rtacha 3-4 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda, jumladan, 127 daqiqani “TikTok”da, 70 daqiqani esa “Instagram”da o‘tkazgan (Ceci, 2025)[1]. Bu platformalar ko‘plab yoshlar uchun asosiy axborot manbasiga aylangan (bugungi ko‘rsatgich bundan ham yuqori).

Shu bilan birga, Center for Countering Digital Hate tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, 13–17 yoshdagi o‘smirlarning 60 foizi bir nechta zararli soxta-feyk xabarlarga ishonadi, bu ko‘rsatkich kattalarda 49 foizni tashkil etadi. Kuniga to‘rt soatdan ortiq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi o‘smirlarda esa bu ko‘rsatkich 69 foizgacha oshishi aniqlangan (Paul, 2023)[2]. Bu holat ijtimoiy media yoshlarning dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi.

Shu bois, zamonaviy raqamli muhitda mediasavodxonlik muhim akademik va amaliy kompetensiya sifatida qaralishi lozim. Internet axborot ishlab chiqarishni demokratlashtirgan bo‘lsa-da, bu jarayon bilan birga noto‘g‘ri ma’lumotlar, propaganda va biryoqlama xabarlarning keng tarqalish xavfi ham ortib bormoqda. Shu sababli mediasavodxonlikni ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Mediasavodxonlik — bu jamiyatda media (ommaviy axborot vositalari)ning rolini tushunish, turli media turlarini va ularning maqsadlarini ajrata bilish hamda media mazmuni bilan tanqidiy ishlay olish qobiliyatidir. U global tarmoqda qidiruv imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda o‘zini nazorat qilish, sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanishga amal qilish va boshqa maqsadlarga xizmat qiladi.[3]

Mediasavodxonlik — bu shaxsning turli axborot manbalarini tahlil qilish, baholash va ongli ravishda

1 https://www.statista.com/statistics/1626535/uk-time-spent-on-social-media-platforms-by-age-group/?srsltid=AfmBOorAXzAAMwM1nCdSgRpsA0e1SJ8NJMdjp--EeDYnfwh19a14jfXX

2 www.theguardian.com/us-news/2023/aug/16/teens-online-conspiracies-study

3 Jumanova S. Mediasavodxonlik va faktcheking –Toshkent, 2026.41-bet

foydalanish qobiliyatidir. U quyidagi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

- Axborotni tanqidiy baholash
- Ishonchli va ishonchsiz manbalarni ajratish (verifikatsiya)
- Raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
- Media kontent yaratish va tarqatishda mas'uliyat

U, shuningdek, yangiliklar manbalari, ijtimoiy tarmoqlar, reklama yoki ko'ngilochar kontentdan kelayotgan xabarlarning aniqligi, tarafkashligi va maqsadini savol ostiga olishni ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik faqat nazariy bilim emas, balki ko'p komponentli amaliy ko'nikmalar majmuasidir. Aynan shu sababli uni rivojlantirishda integratsiyalashgan raqamli platformalarning o'rni ortib bormoqda. Ushbu zamonaviy platformalar faoliyatini tahlil qilish ularning bosqichma-bosqich va o'zaro bog'langan mexanizm asosida ishlashini ko'rsatadi.

Avvalo, News Literacy Project platformasi orqali foydalanuvchida axborotni tanqidiy baholash, soxta va ishonchli yangiliklarni farqlash ko'nikmalari shakllanadi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarga jurnalistika tamoyillarini o'rgatish orqali feyk axborotlarga qarshi immunitetni shakllantirishdir.U o'ziga xos 3 yo'nalishda o'qitiladi.

1. Real misollar asosida o'qitish
2. Interaktiv darslar
3. Faktcheking (fact-checking) ko'nikmalarini rivojlantirish

Bu bosqich mediasavodxonlikning fundamental asosi hisoblanadi, chunki noto'g'ri axborotni aniqlay olmaslik keyingi jarayonlarning samarasiz bo'lishiga olib keladi.

Keyingi bosqich – "Common Sense Media". Unda bilimlar ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtiriladi. U foydalanuvchilarga media iste'moli madaniyatini, yoshga mos kontent tanlashni va raqamli muhitda ongli qaror qabul qilishni o'rgatadi. Shu tariqa, tanqidiy fikrlash ijtimoiy xulq-atvor bilan integratsiyalashadi.[4]

Uchinchi bosqichda Be Internet Awesome platformasi orqali xavfsiz raqamli faoliyat ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu yerda foydalanuvchi nafaqat axborotni tushunadi, balki uni xavfsiz muhitda qo'llashni ham o'rganadi. Xususan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavflardan himoyalanish muhim o'rin tutadi.

Nihoyat, BrainPOP platformasi yuqoridagi barcha bosqichlarni mustahkamlovchi didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning interaktiv va vizual yondashuvi murakkab tushunchalarni oson o'zlashtirish imkonini beradi hamda bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga xizmat qiladi.

1999-yilda doktor Avraham Kadar tomonidan ishlab chiqilgan Brain Pop bolalarga qiyin tushunchalarni tushuntirishning ijodiy usuli bo'lishi kerak edi. Biroq, ushbu vosita yanada rivojlangan xususiyatlar va funksiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlab chiqilgan. Bugungi kunda ushbu vosita asosiy va qo'shimcha fanlarni qo'llab-quvvatlaydi va butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar uchun mavjud. Hozirda BrainPop masofaviy ta'lim resursi sifatida foydalidir va matematika, ELA, fan, ijtimoiy fanlar va boshqa fanlar bo'yicha video kurslarni taklif etadi. Ushbu videokliplar juda boy va talabalarga asosiy tushunchalarni tushuntirish uchun juda yaxshi.[5]

Shunday qilib, ushbu platformalar faoliyati quyidagi yagona tizimga birlashadi: tahlil → ongli iste'mol → xavfsiz foydalanish → mustahkamlash.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlikni rivojlantirishda fragmentar yondashuv yetarli emas. Aksincha, kompleks va integratsiyalashgan model yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, yosh avlod uchun interaktiv va amaliy yo'naltirilgan platformalar orqali o'qitish an'anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq ekanligi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur platformalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarurati mavjud. Chunki har bir jamiyatning axborot muhiti va madaniyati o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Mediasavodxonlik zamonaviy jamiyatda muhim kompetensiya sifatida shakllanib, uni rivojlantirishda raqamli platformalarning o'rni beqiyosdir. News Literacy Project, Common Sense Media, Be Internet Awesome va BrainPOP faoliyatining integratsiyasi mediasavodxonlikni kompleks rivojlantirish modelini yaratadi. Ushbu modelni ta'lim tizimiga joriy etish orqali tanqidiy fikrlovchi, axborotni ongli iste'mol qiluvchi va xavfsiz raqamli muhitda faoliyat yurita oladigan shaxsni shakllantirish mumkin.

4 https://www.unesco.org/ru/media-information-literacy

5 https://fliphtml5.com/blog/uz/6-best-remote-teaching-resources-every-teacher-must-have/

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO (2021). Media and Information Literacy Curriculum.
2. Jumanova S. Mediasavodxonlik va faktcheking. – Toshkent: "Publishing high future" OK.79-bet
3. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information Disorder. Council of Europe. – 75, 104
4. Raqamli ta'lim platformalar tadqiqotlari
- News Literacy Project rasmiy materiallari
- Common Sense Media tadqiqotlari
- Google – Be Internet Awesome dasturi
- BrainPOP ta'lim resurslari

M.J.RAXMONOVA,
Senior teacher
Department "Languages"
Tashkent Chemical Technological Institute, Uzbekistan.

THE ROLE OF SKIMMIMG AND SCANNING IN DEVELOPING READING EFFICIENCY

Annotation: this article discusses the importance of reading as a core skill in language learning and academic achievement. It highlights that different reading purposes require different approaches, focusing specifically on two techniques: skimming and scanning. Skimming involves quickly reading to grasp the main idea, while scanning is used to locate specific information. The article examines how these methods differ and how they contribute to improved reading efficiency, faster processing, and better comprehension. It also emphasizes their positive impact on learners' academic performance by helping them manage information more effectively.

Key words: *skimming, scanning, reading efficiency, reading skills, comprehension*

Аннотация: в данной статье обсуждается важность чтения как ключевого навыка в изучении языков и академических достижениях. В ней подчеркивается, что различные цели чтения требуют разных подходов, уделяя особое внимание двум методам: просмотру и сканированию. Просмотр - это быстрое чтение для усвоения основной идеи, а сканирование - для поиска конкретной информации. В статье рассматривается, как эти методы отличаются друг от друга и как они способствуют повышению эффективности чтения, более быстрой обработке и лучшему пониманию. Также подчеркивается их положительное влияние на академическую успеваемость обучающихся, помогая им более эффективно управлять информацией.

Ключевые слова: *просмотр, сканирование, эффективность чтения, навыки чтения, понимание.*

Annotatsiya: ushbu maqola o'qishning til o'rganish va akademik yutuqlardagi muhim asosiy ko'nikma ekanligini muhokama qiladi. Unda turli o'qish maqsadlari turli yondashuvlarni talab qilishi ta'kidlanib, ayniqsa ikki usul: "skimming va scanning" ga alohida e'tibor qaratiladi. Skimming matnni tez o'qib, uning asosiy g'oyasini anglab olishni anglatadi, scanning esa aniq ma'lumotni topish uchun qo'llaniladi. Maqolada ushbu usullarning farqlari va ular o'qish samaradorligini oshirish, tezroq qayta ishlash hamda yaxshiroq tushunishga qanday hissa qo'shishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ular o'quvchilarning ma'lumotni samaraliroq boshqarishiga yordam berib, akademik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ham ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *skimming, scanning, o'qish samaradorligi, o'qish ko'nikmalari, tushunish*

In today's fast-paced academic and professional environments, the ability to process large amounts of written information quickly is essential. Traditional reading methods often focus on detailed comprehension, which may not always be practical. Reading comprehension is a fundamental skill that supports students' academic success and lifelong learning. To monitor students' reading development and provide appropriate, timely instruction and interventions, accurate assessment of reading comprehension is essential. Reading comprehension is the ability to read text, process it and understand its meaning. Reading comprehension involves complex information processing. According to the construction–integration model, it relies on two, interconnected abilities: word reading (being able to decode the symbols on the page) and language comprehension (being able to understand the meaning of the words and sentences). Reading comprehension is a crucial skill for effective participation in society. In most cases, the main purpose of reading is to understand the meaning or message of a text. Achieving this requires the coordination and integration of multiple cognitive processes. Therefore, efficient reading strategies such as skimming and scanning have become increasingly important.

The role of skimming and scanning in developing ESP students' reading abilities both skimming and scanning are specific reading techniques for quick and efficient reading comprehension (Grellet 1981). Mark (2009) assumed that skimming is a reading strategy that can be used as pre-reading technique and a speed reading technique. It is a pre-reading technique in terms that it can help student to connect his background knowledge about the subject to what is in the text, and helping the student to learn in advance what the main focus of the reading passage will be and building comprehension. It is a speed reading technique in terms of time management, meaning that it allows the reader to get the flavor of the reading passage without all of the details. It can help student to increase his reading comprehension when he returns to read the text in more details. Mainly the role of scanning strategy is that it can help student to locate where the answers are found in the reading passage. According to Time (2011) skimming is used to quickly identification of the main ideas of a text, usually when there are a lot of materials to read in a limited amount of time. While scanning is used to look for detail that may answer questions.

Skimming and scanning are techniques that allow readers to extract necessary information without reading every word. These methods are widely used in academic settings, standardized tests, and everyday reading tasks. Understanding their role can significantly enhance reading efficiency and productivity.

Skimming is a reading technique used to get the general idea or gist of a text. Instead of reading word-for-word, the reader focuses on key elements such as headings, subheadings, introductory paragraphs, and conclusion sections. Non-fiction texts, like textbooks, journal articles, newspapers, and essays

are typically full of these kinds of text features and they are a few real-life examples that more suited for skimming. Skimming can also be a good tool for conducting research and writing papers. Typically, when researching or writing, you will not need to read every word of every text closely, but will benefit more from skimming while evaluating your sources or identifying information important to your work.

Purpose of Skimming: skimming is a reading technique used to quickly go through a text in order to get a general understanding without reading every word.

- ***To understand the main idea:*** skimming helps you identify what the text is mostly about. You focus on the central message rather than details.
- ***To preview material before detailed reading:*** before reading something carefully, skimming allows you to get an overview. This makes it easier to understand the text later.
- ***To decide whether a text is relevant:*** when you have many sources (articles, books, websites), skimming helps you quickly decide if the material is useful for your needs.

Scanning plays a crucial role in academics for a couple of key reasons. First, it enables students and researchers to navigate through a vast sea of information efficiently. In this digital age, we're inundated with many academic texts, articles, and research papers. Scanning helps us to grasp this information quickly. Scanning is a technique used to find specific information in a text. Unlike skimming, scanning does not focus on general meaning but on locating particular data.

Importance and Purpose of Scanning:

- Scanning allows us to quickly identify relevant sections and keywords, helping us save time and effort. This is particularly important when conducting research, as it allows scholars to sift through numerous sources to find the most pertinent ones for their work.
- Scanning helps with information triage. It assists in making informed decisions about which materials are worth deeper, more thorough reading.

Scanning, therefore, serves as a valuable tool for efficient resource management and supports the overall academic process by facilitating the discovery and assessment of relevant information

Skimming and scanning significantly contribute to reading efficiency in several ways and are often used together:

1. *Time Management:* students and professionals often face time constraints. These techniques allow them to process large volumes of text quickly.
2. *Improved Comprehension:* contrary to common belief, skimming can improve comprehension by helping readers identify key ideas before detailed reading.
3. *Enhanced Academic Performance:* in exams, especially standardized tests, scanning helps locate answers quickly, while skimming helps understand passages efficiently.
4. *Increased Confidence:* readers who master these techniques feel more confident handling complex texts.

Although both techniques are fast reading methods, they serve different purposes. Differences between Skimming and scanning According to Tina (2003), the difference between skimming and scanning is that when you scan for information you are looking for something very specific, such as a telephone number or answer to a particular question, you generally stop once you have it. Skimming is used when you are seeking more of a general impression of what the text is about. Skimming and scanning are two valuable techniques which can help the reader to read faster. Skimming is a rapid reading technique wherein the eye of the reader keeps floating over the reading material and scanning is a technique to find the facts in a very fast manner. While skimming and scanning are both reading strategies that involve fast reading, there is a difference between them: Skimming helps students understand the overall meaning of the text and it is useful for answering the main idea and summary questions. Scanning helps you locate precise information and it is useful for answering questions that require finding specific facts. You can examine the differences between skimming and scanning in the table below:

Aspect	Skimming	Scanning
Purpose	General understanding	Specific information
Focus	Main ideas	Details
Speed	Fast	Very fast
Usage	Previewing texts	Searching data

To sum up, skimming and scanning are essential tools for developing reading efficiency. They enable readers to process information quickly, improve comprehension, and perform better academically. While they cannot replace detailed reading, they complement it by making reading more flexible and effective. Incorporating these techniques into daily reading habits can greatly enhance both academic and professional success.

References

1. Brown, H. D. (2004). Language Assessment: Principles and Classroom Practices
2. Harmer, J. (2007). How to Teach English
3. Grellet, F. (1981). Developing Reading Skills
4. Nuttall, C. (1996). Teaching Reading Skills in a Foreign Language
5. Mark Dennington, 2009. Essential Study Skills:Self-guided Personal Assessment,Study Skill Tips and Reflection Work Book. PenningtonPublishing.USA.
6. Tina kontant, 2003.Speed Reading.U.K.
7. Time, 2011.Verbal Ability and Reading Comprehension for the Cat and otherM.B.A. Entrance Examinations. Dorling Kindersley. Indian.



TADQIQOTLAR

Dilraboxon XASANOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR KOMMUNIKATIV MADANIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar kommunikativ madaniyatining rivojlanish tendensiyalari, uning ijtimoiy-pedagogik asoslari hamda zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil etilgan. Shuningdek, yoshlarning nutq madaniyati, muloqot kompetensiyasi va ijtimoiy faolligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ madaniyat, yoshlar, nutq madaniyati, muloqot, kompetensiya, Yangi O‘zbekiston, ta’lim tizimi, ijtimoiy rivojlanish.

Аннотация: в статье анализируются тенденции развития коммуникативной культуры молодёжи в условиях Нового Узбекистана, её социально-педагогические основы и роль в современной системе образования. Освещается значение инновационных подходов в развитии речевой культуры и коммуникативной компетентности молодёжи.

Ключевые слова: коммуникативная культура, молодёжь, речевая культура, общение, компетентность, образование.

Annotation: this article analyzes the trends in the development of youth communicative culture in the conditions of New Uzbekistan, its socio-pedagogical foundations and its role in the modern education system. The importance of innovative approaches in improving communication competence and speech culture is highlighted.

Key words: communicative culture, youth, speech culture, communication, competence, education.

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida jamiyatning barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yoshlarning har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllanishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ularning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Kommunikativ madaniyat – bu shaxsning o‘z fikrini aniq, ravon, mantiqan asoslangan holda ifoda eta olish qobiliyati, muloqot jarayonida ijtimoiy me’yorlarga amal qilishi, tinglash va tushunish kompetensiyalarini o‘zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Bugungi globallashuv davrida axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlarning muloqot shakllariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan yoshlar kommunikativ madaniyatining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogika va tilshunoslikda kommunikativ kompetensiya shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli muloqotga kirishish qobiliyatini ifodalovchi integrativ kategoriya sifatida qaraladi. Ushbu kompetensiya tarkibida nutqiy, lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlar bilan bir qatorda *fatik kommunikativ kompetensiya* alohida o‘rin egallaydi. *Fatik kommunikativ kompetensiya* – bu shaxsning muloqotni boshlash, davom ettirish va tugatish jarayonida ijtimoiy-psixologik kontaktni to‘g‘ri o‘rnatish, suhbatdosh bilan emotsional yaqinlikni shakllantirish hamda kommunikativ muhitni boshqarish malakasidir.

Bu tushuncha bevosita antropotsentrik tilshunoslik paradigmasi bilan bog‘liq bo‘lib, unda til tizimi emas, balki *til egasi – inson* markaziy o‘rinda turadi. Shundan kelib chiqib, fatik kommunikatsiya insonning ijtimoiy tajribasi, madaniy stereotiplari va nutqiy xulq modeli bilan bevosita bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Fatik muloqot o‘zbek tilida “daromad nutqi”, “mulozamat”, “manzirat” va “xushomad” kabi bosqichlar orqali namoyon bo‘ladi va bu holat milliy nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kommunikativ madaniyat tushunchasi pedagogika, psixologiya va lingvistika fanlari kesishgan nuqtada o‘rganiladi. Ilmiy manbalarda kommunikativ madaniyat shaxsning nutqiy faoliyati, ijtimoiy xulqi va axloqiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi yoshlarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayonda quyidagi metodologik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi: 1) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish; 2) faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – amaliy muloqot orqali o‘rganish; 3) kommunikativ yondashuv – real hayotiy vaziyatlarga asoslangan nutqiy faoliyatni shakllantirish; 4) raqamli pedagogika – axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Natija va muhokama. Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar kommunikativ madaniyatining rivojlanishida bir qator muhim tendensiyalar kuzatilmoqda:

1. Raqamli kommunikatsiyaning ustuvorligi. Bugungi yoshlar asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qiladi. Bu esa ularning yozma nutqini rivojlantirayotgan

bo‘lsa-da, og‘zaki nutq madaniyatiga ba’zan salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

2. Ko‘p tillilikning rivojlanishi. Yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini kengaytiradi.

3. Mustaqil fikrlashning kuchayishi. Ta’lim tizimidagi islohotlar natijasida yoshlar erkin fikr bildirishga, bahs-munozaralarda faol ishtirok etishga o‘rganmoqda.

4. Nutq madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojning ortishi. Professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun samarali muloqot qilish zarurligi yoshlar tomonidan tobora ko‘proq anglab yetilmoqda. Yuqorida qayd etilgan tendensiyalarni chuqurroq tahlil qilgan holda, yoshlar kommunikativ madaniyatining rivojlanishida bir qator omillar muhim rol o‘ynashi aniqlanadi.

5. Ta’lim tizimining transformatsiyasi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimi sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa dars jarayonida interfaol metodlar – munozara, debat, “aqliy hujum”, rolli o‘yinlar orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki muloqotni tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda[1].

6. Ijtimoiy muhit va oilaning ta’siri. Yoshlarning kommunikativ madaniyati shakllanishida oila muhitining o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniy tadbirlar, yoshlar siyosati ham kommunikativ madaniyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi[2].

7. Media va axborot makonining ta’siri. Zamonaviy yoshlar ko‘proq internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali muloqot qiladi. Bu esa yangi kommunikativ shakllarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Amaliy tavsiyalar

Yoshlar kommunikativ madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

– ta’lim jarayonida kommunikativ mashg‘ulotlarni kengaytirish. Har bir darsda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantiruvchi topshiriqlarga e’tibor qaratish lozim;

– debat va munozara metodlarini joriy etish. Bu usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va o‘z fikrini asoslab berish qobiliyatini rivojlantiradi;

– kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish. Badiiy adabiyot o‘qish nutq boyligini oshiradi va muloqot madaniyatini shakllantiradi;

– raqamli madaniyatni shakllantirish. Yoshlarni internetdan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, etik muloqot qoidalarini singdirish zarur;

– oila va maktab hamkorligini kuchaytirish. Kommunikativ madaniyatni shakllantirishda uzluksiz tizim yaratish muhimdir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar kommunikativ madaniyatida quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatilmoqda:

Yoshlar kommunikativ madaniyatining rivojlanish tendensiyalari

T/r	Tendensiya nomi	Tavsifi
1	Raqamlashtirish	Muloqotning asosiy qismi onlayn platformalarga ko‘chmoqda
2	Qisqarish (kompressiya)	Nutq birliklari qisqarib, minimal shaklga kelmoqda
3	Emotsionallikning ortishi	Emoji va vizual belgilar orqali hissiyot ifodalanmoqda
4	Globalizatsiya	Inglizcha va ruscha birliklar keng kirib kelmoqda
5	Milliylikning saqlanishi	An’anaviy nutq etiketi unsurlari saqlanib qolmoqda
6	Individualizatsiya	Har bir yosh o‘ziga xos nutq uslubini shakllantirmoqda

Mazkur diagramma yoshlar orasida raqamli muloqotning ustunligini ko‘rsatadi. Biroq an’anaviy nutq unsurlari ham to‘liq yo‘qolmagan, balki yangi shaklda transformatsiyalanmoqda. Shunga qaramay, quyidagi muammolar ham mavjud: 1) nutq etiketi me’yorlarining yetarlicha o‘rgatilmasligi; 2) fatik kommunikatsiya ko‘nikmalarining tizimli shakllantirilmasligi; 3) o‘quv jarayonida kommunikativ yondashuvning yetarli darajada qo‘llanmasligi; 4) yoshlarning nutqida vulgarizm va jargonlarning ortib borishi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar kommunikativ madaniyatining rivojlanishi murakkab, ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Ta’lim tizimidagi islohotlar, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy muhit va oilaviy tarbiya bu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat bilim, balki samarali muloqot qila olish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan yoshlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. To‘xtaxodjayev N., G‘ulomov S. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Zunnunov A., Inomxo‘jayev S. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
4. Xudoyberganova D. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2011.
5. Musurmonov E. O‘zbek folklori. – Samarqand, 2017.

Safiya YOQUBOVA,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti
tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi assistenti
E-mail: safiyayakubova1231@gmail.com;
Mohitabon ISOYEVA,
O‘TVA yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: mohitabonisoyeva04@gmail.com

XIX–XX ASRLARDA SHAHRISABZ ADABIY MUHITIDA RIVOJLANGAN JANRLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX–XX asrlarda Shahrisabz adabiy muhitining shakllanish jarayoni, rivojlanish bosqichlari hamda unda yetakchi o‘rin egallagan adabiy janrlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hududiy adabiy maktabning ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilib, she’riyat (g‘azal, ruboiy, qasida), epik ijod (dostonchilik), tarixiy-xronikal asarlar va diniy-ma’rifiy adabiyotning janriy xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri, janrlararo aloqadorlik hamda badiiy tafakkurning rivojlanish jarayoni keng tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Shahrisabz adabiy muhiti, janrlar tizimi, she’riyat, dostonchilik, tarixiy asarlar, diniy-ma’rifiy adabiyot, folklor, badiiy tafakkur.*

Annotation: this paper explores the emergence, developmental stages, and genre structure of the literary milieu of Shahrisabz during the 19th and 20th centuries. It emphasizes the strong interconnection between the regional literary tradition and socio-cultural influences, while also examining the distinctive characteristics of poetic forms such as ghazal, rubai, and qasida, along with epic narratives (dastan), historical chronicles, and religious-educational writings. In addition, the study investigates the impact of oral folklore on written literary traditions, the interaction between different genres, and the gradual development of artistic thought.

Key words: *Shahrisabz literary environment, genre system, poetry, epic tradition, historical writings, religious-educational literature, folklore, artistic thought.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются процесс становления, основные этапы развития и жанровая структура литературной среды Шахрисабза в XIX–XX веках. Особое внимание уделяется тесной взаимосвязи региональной литературной традиции с социально-культурными факторами, а также анализу характерных особенностей поэтических жанров (газель, рубаи, касыда), эпических произведений (дастан), исторических хроник и религиозно-просветительской литературы. Кроме того, исследуется влияние устного народного творчества на письменную литературу, взаимодействие различных жанров и постепенное развитие художественного мышления

Ключевые слова: *литературная среда Шахрисабза, система жанров, поэзия, эпос, исторические произведения, религиозно-просветительская литература, фольклор, художественное мышление.*

Kirish. XIX–XX asrlar Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududi tarixida o‘zining murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, madaniy uyg‘onishlari va ma’naviy izlanishlari bilan ajralib turadigan serqirra davr hisoblanadi. Ushbu tarixiy bosqichda jamiyat hayotida yuz bergan chuqur o‘zgarishlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy tizimga, balki adabiy-madaniy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, xonliklar tizimining inqirozga uchrashi, Rossiya imperiyasi siyosiy-madaniy ta’sirining kengayishi hamda keyinchalik yangi ijtimoiy tuzumning shakllanishi adabiyotda yangi g‘oyaviy yo‘nalishlar, mavzular doirasi va badiiy ifoda shakllarining paydo bo‘lishiga keng imkoniyat yaratdi.

Ana shunday tarixiy sharoitda O‘zbekiston hududida turli hududiy adabiy markazlar shakllanib, ular milliy adabiyotning umumiy taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi. Shahrisabz adabiy muhiti ana shunday yirik madaniy-adabiy markazlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu hudud qadimdan ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot rivojlangan maskan bo‘lib, uning boy tarixiy-

madaniy merosi, an’analari va ijodiy muhitining uzluksizligi adabiy tafakkurning shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratgan.

Adabiyotlar tahlili. Shahrisabz adabiy muhiti va uning janrlar tizimi masalasi o‘zbek adabiyotshunosligida turli tadqiqotchilar tomonidan qisman o‘rganilgan. Xususan, o‘zbek adabiyoti tarixi, hududiy adabiy maktablar hamda folklor muammolariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda ushbu mavzuga bilvosita yondashuvlar mavjud. Navoiy ijodi, mumtoz adabiy an’analar va xalq og‘zaki ijodi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar Shahrisabz adabiy muhitining shakllanish jarayonini anglashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, adabiyot tarixi bo‘yicha yaratilgan monografik ishlar XIX–XX asrlardagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning adabiy jarayonlarga ko‘rsatgan ta’sirini yoritishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, Shahrisabz adabiy muhitining janrlar tizimi, uning ichki rivojlanish dinamikasi hamda yozma va og‘zaki adabiyot o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya masalalari hali to‘liq va kompleks tadqiq etilmaganligi bilan ajralib turadi. Aynan shu jihat mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi va ushbu ilmiy bo‘shliqni qisman to‘ldirishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida Shahrisabz adabiy muhiti nafaqat hududiy ahamiyatga ega bo‘lgan adabiy maktab, balki umumiy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan markazlardan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida ayniqsa she’riyat va dostonchilik janrlarining ustuvorligi, ularning xalq hayoti va ma’naviy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqligi yaqqol ko‘zga tashlandi. Shuningdek, yozma va og‘zaki adabiyot o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni adabiy rivojning muhim omillaridan biri ekanligi kuzatildi. Xalq og‘zaki ijodi elementlarining yozma adabiyotga kirib kelishi natijasida badiiy til soddalashib, asarlarning hayotiyligi ortgan. Bu esa adabiyotning keng ommaga yetib borishiga xizmat qilgan. Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat shundan iboratki, Shahrisabz ijodkorlari an’anaviy mavzular bilan cheklanib qolmasdan, o‘z davrining ijtimoiy va ma’naviy muammolarini ham yoritishga harakat qilganlar. Bu holat adabiyotning faqat estetik emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida XIX–XX asrlarda Shahrisabz adabiy muhitida bir qator yetakchi adabiy janrlar shakllanib, rivojlanganligi aniqlandi. Xususan, she’riyat, dostonchilik, tarixiy-xronikal asarlar va diniy-ma’rifiy adabiyot asosiy yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi. Shuningdek, ushbu janrlarning o‘zaro uyg‘unlikda rivojlangani ham muhim xulosa sifatida qayd etildi. Yozma va og‘zaki adabiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik adabiy jarayonning boyishiga olib kelgan. Natijada badiiy tafakkur kengayib, yangi ifoda shakllari yuzaga kelgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Shahrisabz adabiy muhiti milliy adabiyotning rivojlanishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, uning janrlar tizimi va badiiy an’analari bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Xulosa. XIX–XX asrlar Shahrisabz adabiy muhiti murakkab tarixiy sharoitga qaramasdan, boy ijodiy an’analari va rang-barang janrlari bilan milliy adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan davr hisoblanadi. Bu davr adabiy jarayonlari jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan uyg‘un holda rivojlanib, adabiyotning mazmunan va shaklan boyishiga xizmat qildi. Shahrisabz adabiy muhitida she’riyat, dostonchilik, tarixiy-xronikal va diniy-ma’rifiy adabiyot yetakchi janrlar sifatida shakllanib, o‘zaro uyg‘un rivojlandi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi bilan yozma adabiyotning uyg‘unlashuvi adabiyotning milliy ruhini kuchaytirdi.

Umuman olganda, bu adabiy muhit o‘zbek milliy adabiyoti taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lib, uning merosi bugungi kunda ham ilmiy jihatdan qimmatli manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimuhamedov A. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Bobur Z. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
3. Erkinov A. O‘zbek folklori va uning janrlari. – Toshkent: Fan, 2011.
4. Islomov B. O‘zbek adabiyotida xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
5. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Karimov S. O‘zbek adabiy jarayoni. – Toshkent: Fan, 2014.

Nilufar TASHMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
tashmatovanilufar365@gmail.com

HAYDAR XORAZMIYNING “GULSHAN UL-ASROR” MASNAVIYSIDA POLISEMIYA IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan mumtoz adabiyotimiz yetuk namoyandalaridan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysidagi leksemalar semantikasi o‘rganilgan va tahlilga tortilgan. Har bir so‘z o‘ziga xos leksik qurshovga ega bo‘lib, u bilan semantik va grammatik jihatdan bog‘lanadi, aynan shu sababdan ham umumiste’moldagi so‘zlarning asosiy qismini ko‘p ma’noli so‘zlar tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: *turkiy so‘z, o‘zbek tili, masnaviy, semantika , polisemiya, ko‘p ma’noli, leksema.*

Аннотация: в данной статье исследуется и анализируется семантика лексем в маснави «Гулшан ул-асрор» Хайдара Хорезми — одного из выдающихся представителей классической литературы, жившего и творившего в Хорезме в конце XIV – начале XV века. Каждое слово обладает собственной лексической средой и связано с ней как семантически, так и грамматически; именно поэтому значительную часть общеупотребительной лексики составляют многозначные слова.

Ключевые слова: *тюркское слово, узбекский язык, маснави, семантика, полисемия, многозначность, лексема.*

Annotation: this article examines and analyzes the semantics of lexemes in the masnavi “Gulshan ul-asror” by Haydar Khorezmi, one of the prominent representatives of classical literature who lived and worked in Khorezm in the late 14th and early 15th centuries. Each word possesses its own specific lexical environment and is connected with it both semantically and grammatically; for this reason, a significant portion of commonly used words consists of polysemous (multi-meaning) words.

Key words: *turkic word, Uzbek language, masnavi, semantics, polysemy, multiple meaning, lexeme.*

Tilda mavjud so‘zlarning asosiy qismi leksik yoki grammatik ma’no kasb etadi va tilda sodir bo‘luvchi tabiiy hodisalar: polisemiya, omonimiya, antonimiya va sinonimiyada in’ikosini topadi. So‘z avval yakka ma’no anglatib, davrlar o‘tishi bilan ko‘p ma’noni ifodalashi polisemiyadir. Umumiste’moldagi so‘zlarning asosiy qismini ko‘p ma’noli so‘zlar tashkil etadi. Polisemiya ancha murakkab hodisa bo‘lib, so‘z semantik qurilishida mavjud bo‘lgan har bir ma’noni belgilash ancha qiyin, shu bilan birga, ko‘p ma’nolilik ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga molikdir. Bunda ayniqsa, polisemiyani unga yondosh bo‘lgan hodisalardan farqlab olish muhimdir [7.209].

Ma’lumki, tilshunoslikda leksik ma’nolar bosh va hosila ma’nolarga ajratiladi. Bosh ma’no leksemaning boshqa ma’nolari taraqqiyotiga asos bo‘ladi. Shu o‘rinda unutmaslik kerakki, hosila ma’nolarning hammasi ham bosh ma’noga bog‘lanishi shart emas.Sir emaski, nutqimizda ko‘pgina so‘zlar bir necha semalarda ishlatiladi. Muayyan leksema ifodalaydigan ma’nolar yig‘indisi mazkur so‘zning sememalar mundarijasini tashkil etadi. Semema til birligi sifatida abstrakt hodisa. Semema nutqda boshqa leksemalar (sememalar) qurshovida keladi. Mana shunday qurshov leksik qurshov deyiladi [6;34].

So‘zning ma’nosini nutqdan ajratib alohida tadqiq qilib bo‘lmaydi. Zero, leksik qurshov so‘z ma’nolarini ochib berishda ko‘maklashadi. Har bir so‘z o‘ziga xos leksik qurshovga ega bo‘lib, u bilan semantik va grammatik jihatdan bog‘lanadi. Shu bois leksik qurshov tabiatini o‘rganmasdan turib, so‘z ma’nolarini aniqlash mushkul. Ko‘p ma’noli leksemalar semalarini bir-biridan farqlash uchun ularning leksik qurshovi ham qiyoslanadi. Natijada semalarning mustaqillik darajasi belgilanadi. Adib Haydar Xorazmiy ham so‘zlarning ma’no boyligiga alohida e’tibor qaratgan. Bunga “Gulshan ul-asror” masnaviysidagi leksemalar semantikasini o‘rganish jarayonida ishonch hosil qilish mumkin.

“Qo‘ldagi yoki umuman ko‘tarib olingan narsani biror joyga o‘rnashtirmoq” semasini ifodalovchi *qoy-* fe’li hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol ishlatilib, ma’no doirasi kengaygan holda 34 semani bildiradi.(O‘TIL, V, 399-402). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu fe’lning asosiy shakli *qod-* bo‘lgani misollarning mo‘lligidan ochiq ko‘rinib turibdi (DTS, 451), *qoy-* shakliga esa uch manbadagina misol keltirilgan (DTS, 453). Bu ikki shakldan tashqari, DTSda **qo-** shakli ham keltirilib, undan *qod-* shakliga havola berilgan (451). Ushbu lug‘atdagi qoz- (DTS, 452: “оставлять”, “бросать”), qot- (DS, 461: “оставлять”, “покидать“) so‘zlarini ham qamrab olib fikr yuritsak, qadimgi turkiy tilda “o‘rin” ma’nosini anglatgan *qo* oti mavjud bo‘lgani, *qod-, qoğ-, qoy-, qot-* so‘zlari oxiridagi undoshlar asli fe’l yasovchi qo‘shimcha ekaniga ishonch hosil qilish mumkin: *-d* va *-y* bir qo ‘shimchaning, *-z* va *–t* esa boshqa bir qo‘shimchaning ikki fonetik shakliga teng bo‘lib, *-d* va *–y* “ma’lum makonga yo‘naltir-” ma’nosini, *-z* va *–t* esa “ma’lum makonda qoldir-” ma’nosini ifodalagan bo‘lib chiqadi. (O‘TEL, I, 583). Masnaviy so‘z boyligida *qoy-* fe’li quyidagi ma’nolarda qo‘llangan:

1)“nomlamoq” – *Bir nečäni dunyáda qïldï nabiy,*
Bir nečaniŋ átïnï *qoydï valiy* [1– 1A-11];

2. “o‘rnatmoq” – *Nuqta bilä nuqta topïb imtizáj,*
Qoydï alif farqïna šáhána *táj* [1– 2A-11];

3)“qoldirmoq” – *Kimki nazar mazharidin yumdï köz,*
Qoymadï merás özidin ğayri *söz* [1– 3A-8];

4) “bajarmoq, qilmoq, gapirmoq fe’lining bo‘lishsizlik shakli” – *Ma’nisi yoq láfnï qoy, ey fuzul,*
Raqsgä šáïsta *dägül beusul* [1– 4 B-6];

5) “namoyish etmoq” – Čarxki *qán birlä tilär gardišin,*
Qoymağay el kөŋli üčün öz *išin* [1– 15 A-1];
6. “voz kechmoq” – *Yiğmáq* üčün *barča talabgár erür,*
Qoymáğ-u ketmäk iši dušvár erür [1–16 A-6];
7. “rejalashtirmoq” – *Bir-bir etib xiyra gumánlïqlarïn,*
Âllïnda *qoy bárča yamánlïqlarïn* [1– 20 B-5].

Qo‘shma fe’l orqali hosil qilingan ma’nolar:

1) “boshlamoq” – *Menki bu niyat bilá qoydum qadam,*
Ján tamurï učïnï qïldum qalam![1– 5 B-5],
2) “kirmoq, aralashmoq” – *Yolgä qadam qoymaki, begánasen,*
Silsila tebrätmäki, devánasen! [1– 4 B-11],
3) “bormoq” – *Kofada bir piri laduniy sabaq,*
Sayr etä bázárğa qoydï ayaq [1-11B-2];

Bayt tarkibidagi qo‘shma fe’l “*etägin qoyma*” shaklida frazema tarkibida kelib, “mahkam tutmoq” ma’nosini ifodalagan. Bu frazema “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da *etag(i)ni tutmoq, etag(i)dan ushlamoq, etag(i)dan tutmoq shakllarida* – “o‘zi uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, boshchilik qiluvchi deb tanlamoq” ma’nosini ifodalagan.

Išq etägin qo‘yma ägär *bársa báš,*
Bášnï qáčïrmağïl ägär *yáğsa táš!*[1– 26 B-2].

Bayt tarkibidagi qo‘shma fe’l “*etägin qoyma*” shaklida frazema tarkibida kelib, “mahkam tutmoq” ma’nosini ifodalagan. Bu frazema “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da *etag(i)ni tutmoq, etag(i)dan ushlamoq, etag(i)dan tutmoq shakllarida* – “o‘zi uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, boshchilik qiluvchi deb tanlamoq” [4;161] ma’nosini ifodalagan.

Išq etägin qo‘yma ägär *bársa báš,*
Bášnï qáčïrmağïl ägär *yáğsa táš!*[1-26B-2].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *urmoq* leksemasining 18 ta ma’noni ifodalashi va 10 dan ziyod qo‘shma fe’l tarkibida bir necha ko‘chma ma’noda kelishi keltirib o‘tilgan. (O‘TIL, IV, 295-396). *Ur=* – fe’li Kultegin bitiktoshi, “Oltun yorug‘” yodnomasi, “Qutadg‘u bilig”, “O‘g‘uznoma” dostonlarida “urmoq”, “qo‘ymoq, tashlamoq”, “yozmoq” ma’nolarida uchraydi (DTS,614). Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”ida “urmoq” (MK,I,69) hamda “qo‘ymoq, tashlamoq”, “qo‘nmoq” (MK,I,177) ma’nolarida qo‘llangan. Leksemaning XV asrga kelib, ma’no kengayishi hodisasiga uchraganini masnaviy misolida ham ko‘rish mumkin. Asarda *ur* - fe’li polisemantik xususiyat kasb etganini quyida keltirilgan misollar yordamida bilib olish mumkin:

1) “yozmoq” – *Umr ču qat’ etti adam manzili,*
Sözğa raqam urdï Âdamniŋ *tili* [1– 2A-3];
2) “hayqirish” – *Išq bu hangámada urdï nidá,*
Ğayb-*u* šahodatqa *yáyïldï sadá* [1– 2A-6];
3) “yorug‘lik sochmoq” – *Ilm mahal tábtï va qïldï zuhur,*
Šu’la urïb partavidin sáldï nur [1 – 2A-7],

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *bol=* leksemasining 24 ma’noni ifodalashi qayd etilgan (O‘TIL, I, 412-413). ANATILda ushbu so‘zning 4 ma’noda ishlatilgani ko‘rsatilgan (I, 345-346). Asarda *bol* - fe’li polisemantik xususiyat kasb etganini quyida keltirilgan misollar yordamida bilib olish mumkin:

1)“mavjud, bor” – *Tilki tüshär Täŋri* átïdïn *yïráq.*
Bolğánïdïn bolmáğanï yaxšïráq![1– 1A-6];
2)“nasib etmoq” – *Bizgä* ägär *bolmasa andáq* šafe’,
Buzğay edi bizni xisáli šane’ [1– 1B-5];
3)“vazifada” – *Söz guhari bilgüvči sarráfráz,*
Boldi bilig nutqïda mansuba báz [1– 2A-4]

Polisemiya aloqa jarayonida bir til vositasi yordamida bir nechta ma’nolarni ifodalash imkonini beradi. Ko‘p ma’nolilik tilga xos ijobiy hodisa bo‘lib, u eski o‘zbek tilida ham faol qo‘llanib, aloqa-aralashuv jarayonining oson, tushunarli bo‘lishini ta’minlash uchun xizmat qilgan. “Gulshan ul-asror” asarini lingvistik jihatdan chuqur o‘rganish, undagi leksik birliklar semantikasining tarixiy taraqqiyotini diaxron nuqtayi nazardan tekshirish turkiy tillar lug‘at fondining qadimiy qatlamlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘zbek adabiy tilining rivojlanish jarayoniga oid nazariy xulosalarni boyitib, til tarixida yuz bergan leksik o‘zgarishlarga oydinlik kiritadi hamda tarixiy leksikologiya uchun muhim ilmiy material beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Haydar Xorazmiy. “Gulshan ul-asror” (Mahzan ul-asror) qo‘lyozmasi. O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. № 37.
2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. Б. 45.
3. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. Б. 47
4. Rahmatullayev Sh, Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.161-b.
5. Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. № 4. Б. 56.
6. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан,1977. Б. 34.
7. Ҳожиева А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. Б. 205.

Shahnoza MUHAMMADIYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Til va adabiyot kafedrasi o‘qituvchisi

ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONIDA RIVOYATLAR TALQINI

Annotatsiya: o‘zbek adabiyotining yetuk shoirlaridan biri Erkin Vohidov yaratgan dostonlar she’riyat ixlosmandlariga birdek tanish. Ushbu maqolada ulkan iste’dod egasining “Ruhlar isyoni” dostonidagi rivoyatlar talqini, mazmuni hamda murakkab poetik tuzilishi tahlilga olinadi. Dostondagi rivoyatlarning badiiy- g‘oyaviy vazifasi aniqlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *Erkin Vohidov, “Ruhlar isyoni” dostoni, rivoyat, badiiyat, tarixiy xotira, milliy ong, falsafiy g‘oya, obraz.*

Аннотация: дастаны, созданные одним из выдающихся поэтов узбекской литературы Эркином Вахидовым, одинаково знакомы поклонникам поэзии. В данной статье анализируются интерпретация, содержание и сложная поэтическая структура преданий в дастане “Ruhlar isyoni” великого таланта. Уточняется художественно-идейная функция преданий в дастане.

Ключевые слова: *Эркин Вахидов, дастан “Ruhlar isyoni” предание, художественность, историческая память, национальное сознание, философская идея, образ.*

Annotation: the dastans created by Erkin Vakhidov, one of the leading poets of Uzbek literature, are equally familiar to poetry enthusiasts. This article analyzes the interpretation, content, and complex poetic structure of the legends in the great talent’s epic “Ruhlar isyoni”. The artistic and ideological function of the narratives in the dastan is clarified.

Key words: *Erkin Vohidov, the epic “Ruhlar isyoni” legend, art, historical memory, national consciousness, philosophical idea, image.*

Erkin Vohidovning O‘zbek she’riyati rivojiga qo‘shgan hissasi benazir. She’r ixlosmandlari ko‘nglidan o‘zining isyonkor she’rlari, intim kechinmalari va his- tuyg‘ularini baralla aytish orqali munosib joy olgan.

Anvar Obidjon ijodkor haqida shunday eslaydi: Erkin Vohidov ijodini bor ko‘lami bilan kuzatgan kishi bir narsadan hayratga tushmog‘i tayin — shoir qay ishga, qay janrga qo‘l urmasin, ularning birontasiga “Ikkinchi darajali” degan tamg‘ani bosib bo‘lmaydi.[1]

Nafaqat o‘zbek kitobxonlari, balki turk kitobxonlari orasida ham shoir ijodiga qiziqish borligini Marhum Bayram O‘roq tayyorlagan ilk tadqiqotdan bilsa bo‘ladi. Kitobning O‘zbekistonning mustaqillikka erishgan yilda nashr etilgani nihoyatda ulkan muvaffaqiyat, qolaversa, juda ma’nodordir. Kitobda navbati bilan “Bosh so‘z”, “Kitobning tayyorlanishi haqida”, “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va Erkin Vohidov”, “Tanlangan she’rlar” va “Manbalar” nomli sarlavhalar joy olgan. “Kitobning tayyorlanishi haqida” sarlavhasi ostida yozilgan qismda bu kitobdagi she’rlarning Erkin Vohidovning 1986-yilda chop etilgan “Muhabbatnoma” va “Sadoqatnoma” otli kitoblaridan tanlangani ta‘kidlab o‘tilgan. Shuningdek, she’rlarni turk tiliga o‘girishda e’tibor berilgan jihatlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.[2]

Bu, albatta, Erkin Vohidov ijodi hali ko‘plab millat va elatlarga yetib borishi, yuragidan joy olishidan darak beradi.

Shoirning dilbar she’riyatidan tanish kitobxon uning “Nido” (1964), “Orzu chashmasi” (1964), “Palatkada yozilgan doston” (1966) kabi dostonlaridan ham ulkan ma’naviy, ruhiy, badiiy oziq oladi.

Erkin Vohidov ijodida alohida ajralib turuvchi dostonlardan yana biri bu “Ruhlar isyoni” dostonidir. 1979-yilda yozib tugatgan “Ruhlar isyoni” dostonida milliy istiqlol to‘g‘risida so‘z ochish aslo mumkin

1 To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – T.: “O‘zbekiston”, 2016, 2018. 16-b

2 Erkin Vahidov, Seçme Şiirler, (Hazırlayan: Bayram Orak), Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara, 1991, 202 sayfa. (Эркин Воҳидов, Танланган Шеърлар. (Нашрга тайёрловчи: Байрам Ўрок). Маданият Вазирлиги нашриёти. Анкара, 1991. 202 саҳифа.)

bo‘lmagan bir zamonda mustabid tuzum qatag‘oni qurboni Fitratning “Chin sevish”, “Hind istilochilari” asarlari izidan borib, dekoratsiyani Hind eliga ko‘chirib, shoir Nazrul Islom timsoli orqali o‘z ona yurtida erk, ozodlik yo‘liga hayotini tikkan Qodiriy, Cho‘lpon, Fitratlar qismatiga ishora etishga, rivoyat-u, hikoyatlar orqali shaxs erki g‘oyasini umuminsoniy miqyoslarda turib ifodalashga erishadi.[3]

Ijodkorning mazkur dostoni milliy ruh, tarixiy xotira va milliy ong ifodasini murakkab poetik tuzilishi bilan ham e’tiborga molik. “Ruhlar isyoni” dostonining ahamiyatga molik jihatlaridan biri unda rivoyatlardan keng va mahurat bilan foydalanganidir. Rivoyatlar asarda oddiy syujet elementi sifatida emas, balki chuqur falsafiy va ramziy ma’no yuklovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Doston tarkibida uchraydigan: “Fidoyilik haqida rivoyat”, “Jaholat to‘g‘risida rivoyat”, “Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat” hamda “Shoirlar va payg‘ambarlar haqida rivoyat”lar, asosan, tarixiy xotirani jonlantirish vositasi hisoblanadi. Rivoyatlar orqali o‘tmish voqealari va ajdodlar ruhiyati badiiy shaklda tiklanadi.

“Abadiyat haqida rivoyat”da falokatga uchragan karvondan faqat bir kishining omon qolishi va abadiyat bulog‘idan suv ichib oxirida nadomat qilishi aks etadi. Shuning uchun shoir: “Bu hayotning yarmi rohat, yarmi g‘amdir, Umring uzun bo‘lsa rahmat, agar kamdir shukr qil”, deya bejiz ta’kidlamaydi.

3 Normatov U. Mohiru mehru mahorat — O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati gazetasi

“Payg‘ambarlar va shoirlar haqida rivoyat”da payg‘ambarlar va shoirlar bir-biriga yaqin tushunchalar sifatida talqin etiladi. Payg‘ambarlar — ilohiy haqiqatni yetkazuvchi zotlar bo‘lsa, shoirlar — shu haqiqatni badiiy ifoda orqali inson qalbiga olib kiruvchi ruhiy yetakchilardir. Rivoyatda ular o‘rtasidagi umumiylik quyidagilarda namoyon bo‘ladi: haqiqatni aytish uchun jasorat topa olish va jamiyat tomonidan tushunilmaslik yoki rad etilish hamda fidoyilik ko‘rsatish. Bundan tashqari, Erkin Vohidov shoirni oddiy ijodkor emas, balki ma’naviy missiya egasi sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda shoir xalq dardini his qiluvchi, zamon adolatsizligiga qarshi chiqadigan, haqiqatni yashirmaydigan shaxs sifatida gavdalanadi.

Bu jihatlar payg‘ambarlar faoliyatiga o‘xshatiladi. Shu orqali muallif shoirni “ruhiy payg‘ambar” darajasiga ko‘taradi.

Rivoyatlar ko‘proq ramziy xarakterga ega bo‘lib, unda payg‘ambar haqiqat timsoli, shoir esa shu haqiqatning ovozi sifatida talqin qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Ruhlar isyoni” dostonida shoir rivoyat, afsona, naqllar orqali obraz va qahramonlar ruhiy olami, xarakterlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, davr va shaxs fojiasini ko‘rsatib beruvchi omillar , sabablarni tahlil etishga uringan. Muallif mazkur rivoyatlar orqali o‘z davrining ijtimoiy masalalariga nisbatan o‘zining pozitsiyasini namoyon etgan. Bu esa o‘z navbatida dostonning murakkab badiiy tuzilishi va chuqur falsafiy mazmunga egaligini, qolaversa, asarda rivoyatlardan foydalanish shoir mahoratini aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. — T.: “O‘zbekiston”. 2016, 2018. 16-b

2. Erkin Vahidov, Seçme Şiirler, (Hazırlayan: Bayram Orak), Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara, 1991, 202 sayfa. (Эркин Воҳидов, Танланган Шеърлар. (Нашрга тайёрловчи: Байрам Ўроқ). Маданият Вазирлиги нашриёти. Анқара, 1991. 202 саҳифа.)

3. Normatov U. Mohiru mehru mahorat — O‘zbekiston adabiyoti va san’ati‖ gazetasi

4. Naim Karimov va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. — T.: “O‘qituvchi”, 1999. 454-b

5. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – T.: “Sharq”, 2018. 392-b, 394-b, 395-b.

6. Ozod Sharafiddinov Adabiyot – hayot darsligi. — T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. 85-b

7. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 425.

8. Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati. To‘plam. – Guliston, 2020. 561-b.

9. Nurmonov A. So‘z mulkiga sayr. Sharq yulduzi. – T., 2014. 6-son. 208-b.

Lobar ASKAROVA,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
lobaraskarova@01gmail.com

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA XOTIRA MOTIVI
(“Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi talqinida)

Annotatsiya: ushbu maqolamizda badiiy asarlarda xotira motivining ishtiroki va o‘rni haqida mulohaza yuritildi. Xotiraning inson hayoti va adabiy asarlarda qay darajada muhim ekanligi, uning turlari haqida ma’lumot berildi. Yozuvchi Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi misolida maqoladagi nazariy qarashlarni izohlashga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: *xotira motivi, remenesensiya, hikoyalarda xotira motivi, esga olish.*

Annotation: this article discusses the role and role of the memory motif in literary works. Information was provided on the importance of memory in human life and literary works, as well as its types. An attempt was made to explain the theoretical views in the article using the storie of the writer Nazar Eshonkul “The Wind Cannot Be Chased”.

Key words: *memory motif, reminiscence, memory motif in stories, recollection*.

Аннотация: в данной статье рассматривается роль мотива памяти в произведениях искусства. Представлена информация о важности памяти в жизни человека и литературных произведениях, а также о её типах. Теоретические положения статьи изложены на примере рассказа «Ветер непреодолим» писателя Назара Эшонкула.

Ключевые слова: *мотив памяти, воспоминания, мотив памяти в рассказах, реконструкция.*

Tirik jon bor ekan, o‘zining kechagi kunini eslaydi, xotirlash orqali qilgan xatolarini takrorlamaslikka intiladi, o‘tgan yaxshi kunlarini eslab zavqlanadi, o‘tmishidan o‘ziga kerakli xulosalar chiqaradi. Bu jarayon fanda “remenesensiya” hodisasi deb ataladi. Remenesensiya – bu xotiralarni qayta tiklash va ularni qayta yashash jarayoni. Bu xotiralarni o‘zgartirish, to‘ldirish va ularga yangi ma’no berish bilan bog‘liq. Remenesensiya odatda, o‘tmishdagi voqealarni eslab qolish, ularni qayta yashash va ular haqida o‘ylashni o‘z ichiga oladi.

Darvoqe, xotira badiiy adabiyotning asosiy unsurlaridan biridir. Yozuvchi hikoya qilar ekan, o‘z xotiridan foydalanib ijod qiladi, qahramonlarini xotirasidan yaratadi va albatta, yaratgan obrazlariga ham xotira beradi. Ularning biri o‘z o‘tmishini eslab shodlansa, qay biri g‘amga botadi, yana biri o‘z boshidan o‘tganlarini xotirlab hayotini boshqatdan qurmoqchi bo‘lsa, boshqa biri o‘zining kechmishisiz hayotini tasavvur ham qila olmaydi. Bunday asarlarga bir qator misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, o‘zbek adabiyotidan O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani butun bir insonning xotiralari asosida bunyod etilgan bo‘lsa, yozuvchining “Dunyoning ishlari” qissasi o‘z onasi xotirasiga bag‘ishlab, maxsus yozilgan asaridir. Bundan tashqari, Oybekning “Bolalik”, A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, I.Mirzoning “Bonu” kabi asarlarida ham xotira motivi yetakchi o‘rin egallaydi.

Zamonaviy o‘zbek hikoyalarida ham xotira motivini ko‘plab uchratishimiz mumkin, ayniqsa o‘zining bir qancha tushunilishi murakkab, ramzlarga boy, obrazlari takrorlanmas asarlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi yozuvchi Nazar Eshonqulning hikoyalari e’tiborimizni tortadi. Uning “Shamolni quvib bo‘lmaydi” nomli hikoyasi gapimizning yaqqol misolidir. Hikoya boshdan oyoq Bayna momoning achchiq xotiralari asosiga qurilgan. Hikoyada bir ayolning o‘tmish xotiralari orqali bir xalqning ruhiyati ochib berilgan, deya olamiz. Birinchi jumladayoq yozuvchi o‘z maqsadini bayon etgan.

“Yuz yildan beri tersotaliklarning g‘ururi va faxri bo‘lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli uylar qarshisida yuzdagi chipqondek qishloqqa ko‘rimsizlik va keksalik bag‘ishlab turgan, noma’lum va mudhish sinoatlarga to‘la qadim qo‘rg‘onni eslatuvchi Bayna momoning uyini xuddi unutishga va yo‘q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi: temir tirnoqli buldozerlar uyning devorlarini qulatar ekanlar, uy bilan qo‘shib, o‘zlarining ham nimalarinidir buzib, vayron qilishayotgandek, tersotaliklar bir chekkada jimgina kuzatib turishar va naq ellik yilcha taqdirning beshafqat o‘yiniga qarshi kurasha-kurasha dunyodan yolg‘iz va izsiz o‘tish azobini ko‘tarib kelgan, hayoti o‘zlariga hamon tushuniqsiz va mavhum tuyuladigan Bayna momoni eslagan ayollar ko‘zlariga yosh olib, bolalarini bag‘irlariga bosgancha, olis va g‘amgin xotiralarga berilib, mung‘aygan alfozda o‘tirardilar”[1]. Ilk jumlani o‘qir ekanmiz, beixtiyor ko‘z o‘ngimizga qadimiy bir uy buzilishi tufayli qishloqning

1 Назар Эшонқул, Сайланма I. “Академнашр”. 2022. 331-б.

muhim bir qismidan judo bo‘lib huvillab qolayotgani keladi. “…Bayna momoning uyini xuddi unutishga va yo‘q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi…” jumlasiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, bir uyning buzilishi katta bir qishloq uchun deyarli ahamiyatga ega emas aslida, lekin bu yerda oddiygina bir uy emas, shu qishloq kishilarining ellik yillik xotiralari “unutishga”, “yo‘q qilishga” mahkum etilmoqda go‘yo.

Bu voqea shunchaki bir uyning buzilishi emasligini atrofdagi kuzatib turguvchilar holatida ham ko‘rishimiz mumkin: “…temir tirnoqli buldozerlar uyning devorlarini qulatar ekanlar, uy bilan qo‘shib, o‘zlarining ham nimalarinidir buzib, vayron qilishayotgandek, tersotaliklar bir chekkada jimgina kuzatib turishar…”, “…ayollar ko‘zlariga yosh olib, bolalarini bag‘irlariga bosgancha, olis va g‘amgin xotiralarga berilib, mung‘aygan alfozda o‘tirardilar”. Qishloq aholisi qadrli bir narsasidan ayrilayotganlarini ich-ichlaridan his qilyapti, ammo aynan nimalaridan judo bo‘layotganlarini anglab yetganlaricha yo‘q.

Barpo etilganiga bir asrdan oshgan ushbu uyning poydevorini Rayim polvonning otasi Shukur oqsoqol tiklagan, undan keyin Rayim polvon qurilishni davom ettirgan edi. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ushbu hovli endi Rayim polvonning o‘g‘liga meros qolishi, undan yana kelgusi avlodlarga o‘tishi lozim edi, ammo Rayim polvonga qo‘shib o‘g‘lini ham o‘ldirishdi, an’ana qirqildi.

Bir paytlar Tersotaning ko‘rki va g‘ururi bo‘lib turgan bu uy yangi qurilayotgan uylarning oldida oldingi viqori va qudratini yo‘qotib, tashlandiq bir maskanga aylanib qolgan edi, xuddiki zamon zayli bilan unut bo‘lib borayotgan milliy qadriyatlar kabi. Bu uyda yakka-yu yolg‘iz shu eski qadriyatlarga sodiq qolgandek Bayna momo yashar edi. O‘sha mudhish voqea sodir bo‘lgan kuni Bayna momo qishloqdoshlaridan umid qilib derazalariga ilhaq bo‘lib boqar, lekin atrofdagi hech kimdan sado chiqmasdi. Polvonni zimdan ko‘rolmay yurgan Zamon otboqar avval Rayim polvonni, keyin o‘ch olmasin deb o‘g‘lini o‘ldirtirdi. Shunda ham biror qishloqdoshi yurak yutib ularga yordam qo‘lini cho‘zmadi. Shu-shu Bayna momo qishloqdoshlaridan nafratlanar, ular bilan aloqani butkul uzgandi. Uyidagi erkak kishi qiladigan ishlarni ham, ayol kishi bajaradigan yumushlarni ham yolg‘iz o‘zi uddasidan chiqar, na qarindoshlaridan, na bir qishloqdoshlaridan yordam so‘rardi.

Bayna momo yolg‘iz, xotiralarga ko‘milib yashar, har kecha yostig‘i ho‘l bo‘lib ketguncha yig‘lab chiqardi. Eri va o‘g‘lidan qolgan xotira bo‘lmish ularning yaktaklarini har oyning oxirida qayta yuvib butun qishloqqa ko‘rinadigan joyga xuddi “bu uyning erkagi va oriyati o‘lmagan” deb ta’kidlagandek ilib qo‘yardi. Shu kunlarning birida shaharlik qizlarning “ – Agar o‘g‘lingiz bo‘lganida men sizga jon-jon deb kelin bo‘lardim”, – degan gaplari yonib turgan olovga yog‘ quygandek bo‘ldi.

Kampirning nafrati yillar davomida kamayish o‘rniga ortib borar, o‘sha mudhish kundagi xotiralari hech ham unutilmas, uni qasd olishga undardi. Xuddi o‘ljasini zimdan poylab yurgan yirtqichdek Bayna momo ham to‘y tashvishida yo‘lga chiqqan Zamon otboqarni joniga vahshiylarcha qasd qildi, buni kampir qilganini faqatgina uning o‘limidan keyin sandig‘idan topilgan Zamon otboqarning jasadida yetishmayotgan o‘nta barmoq isbotladi. Tog‘dek zabardast erkakni qarib mushtdekkina bo‘lib qolgan kampir burda-burda qilib tashlay olishiga yolg‘iz uning nafrat to‘la xotiralari kuch bergandi. Bu ishdan mamnun bo‘lgan kampir to‘y bo‘lishi kerak bo‘lgan uyda aza bo‘layotganini tomosha qilib qandaydir taskin topgandek ko‘rinardi. Go‘yo qasos olish uchun yashab yurgandek o‘zi ham ko‘p o‘tmay jonini topshirdi.

Bu hikoyada bir ayolning judolik azobi emas, balki butun bir jamiyatning katta bir yo‘qotishi tasvirlangan. Bayna momo eri va o‘g‘lidan ayrilgan bo‘lsa, xalq o‘z erkini, or-nomusini, qadriyatlarini boy bergan. Hikoyadagi eski uy – xalqning qadimiy qadriyatlari, unda yashovchilar esa – shu qadriyatlarning bir parchasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Gapimizning isboti sifatida hikoyadagi ismlar bejizga tanlanmaganini aytsak bo‘ladi: Rayim – rahim qiluvchi, marhamatli, mehribon, Shukur – shukur qiluvchi, Bayna – erkin, ozod, hur degan ma’nolarni anglatsa, bu qo‘rg‘onning ashaddiy dushmani Zamon otboqarning ismi o‘z nomi bilan zamonaviylik, eski qadriyatlarni yo‘q qilib “zamonning egasi” bo‘lib olgan kishi.

Darhaqiqat, yuqorida sanab o‘tilgan azal-azaldan xalqimizning ong-u shuuriga singib ketgan qadriyatlar zamon zayli bilan kishilarimizni tark etib, yo‘qolib borayotgandek, aniqrog‘i tersotaliklar kabi biz ham ularni saqlab qola olmayapmiz.

Hikoya so‘ngida na qo‘rg‘on qoldi, na uning egalari, na uning dushmani. Go‘yo yozuvchi bu bilan tanlovni o‘zimizga havola qilgandek.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Назар Эшонқул, Сайланма I. “Академнашр”. 2022. 331-б.
2. Komil Hamroyev, “Hikoya kompozitsiyasi” monografiya, – Toshkent, 2020.
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Reminissensiya#cite_ref-1

Rayxon MUXTOROVA,
Toshkent Gumanitar fanlar universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
muxtorovarayhon63@gmail.com

ISAJON SULTON IJODIDA MIF VA AFSONA UNSURLARINING IFODALANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada yozuvchi Isajon Sulton ijodida mif va afsona unsurlarining zamonaviy o‘zbek adabiyotida yangi ruhda badiiy talqinlar orqali ifodalanishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *mif, afsona, mifologiya, folklor va zamonaviy o‘zbek adabiyoti.*

Аннотация: в данной статье рассматривается выражение элементов мифов и легенд в произведениях писателя Исаджона Султана посредством художественной интерпретации в новом духе в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: *миф, легенда, мифология, фольклор и современная узбекская литература.*

Annotation:this article discusses the re-expression of myth and legend elements in the work of the writer Isajon Sultan through artistic interpretations in a new spirit in modern Uzbek literature.

Key words: *myth, legend, mythology, folklore and modern Uzbek literature.*

Kirish. Mifologiya bu muayyan bir xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil ravishda tartibga solingan tizimidir. Mifologiya insoniyat ma’naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. Mifologiyaning asosini qadimgi insonlarning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, dehqonchilik, narsa va hodisalarning paydo bo‘lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi. O‘zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligida *“mif”* terminiga arabcha *“asotir”* atamasi bilan ham murojaat qilinadi. Mahmud Qoshg‘ariyning *Devonu lug‘otit turk* asarida *“sav”*, ya’ni *“otalar so‘zini eslash”* ma’nosini beradigan atama sifatida mif va afsona tushunchalarini ifodalash uchun qo‘llangan. Ammo butun dunyo olimlari eng qadimgi hikoyalarni “mif” deb atashgani uchun, o‘zbek folklorshunosligida ham aynan shu atamani qo‘llash ma’qul topilgan. Zamonaviy o‘zbek nasrida folklor munosabati adabiyot va folklor o‘rtasidagi bog‘liqlik, ularning o‘zaro munosabatlari jahonda keng tadqiq etilgan, shuningdek o‘zbek adabiyotshunosligida ham bu munosabatlar o‘rganilib kelinmoqda. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar ikki guruhga bo‘linadi: mumtoz adabiyot va folklor munosabatlari, hamda zamonaviy adabiyot va folklor munosabatlari. Isajon Sulton ijodiy an’analari muallif “men”i doirasida G‘arb va Sharq adabiy merosi negizida shakllanadi. Ularning asarlarida Rumiy va Navoiy ijodidan kelib chiqadigan ruhiy-estetik ta’sirlar yozuvchilar ong ostida saqlanib kelgan badiiy tajribaning yuzaga chiqishida muhim manba vazifasini bajaradi. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida esa G‘arb ekzistensial falsafasining ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi. G.Orziqulova[1]ning “Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida badiiy asar tili masalasi” nomli maqolasiga ko‘ra, I. Sultonning “Boqiy darbadar” romani orqali ifodalangan g‘oyaviy mazmun ham yozuvchining badiiy mahorati, estetik dunyosi va individual uslubini belgilab beradi.

Afsona janri shakllanishi jarayonida qadimgi miflarning asosiy syujetlari va mohiyatini o‘z tarkibiga singdirgan holda yuzaga kelgan. Boshqacha qilib aytganda esa, afsona janri xalq ongida avvaldan mavjud bo‘lgan va jonli ijrochilik an’anasida muayyan strukturaga ega bo‘lgan miflarning syujet qurilishi, ifoda usuli hamda hayotiy-ma’naviy vazifalarini mujassamlashtirgan holda shakllangan. Shu bilan birga, u mif ijodkorligi va ijrochilik an’analarini inkor etish asosida vujudga kelgan mustaqil epik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Afsona janri qadimgi mifning bevosita takrori yoki nusxasi emas, balki yangicha epik tafakkur mahsuli hisoblanadi. Voqelikni izohlash, tushuntirish va talqin etishning yangi usuli sifatida afsona ma’lum ma’noda mifologik dunyoqarashning inkori natijasida yuzaga kelgan. Shu bois mifologik syujetlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri afsonaga aylanmagan, balki afsona mifologik tasavvurni to‘liq inkor etgan holda uning ayrim unsurlarini o‘ziga singdirib borgan.

Folklorshunos olim B.Sarimsoqov[2] o‘rta asr miflarining muhim belgilaridan biri sifatida ularning doimo afsona shaklida, ya’ni estetik kod orqali yashab kelgani va tarqalganini ta’kidlaydi. Ushbu holat mifologiya tarixiy-folkloriy jarayonining taraqqiyoti davomida mifning ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatidagi xususiyatlari aynan afsona janrining epik shakli orqali namoyon bo‘lganligini tasdiqlaydi.

M. Rizoyeva[3] *“O‘zbek xalq mifologik afsonalari: o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi va obrazlar tizimi”* nomli

1 Orziqulova, G. (2021). Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida badiiy asar tili masalasi. Scientific Progress, 2(5), 446–452.

2 Sarimsoqov B. Epik janrlar tipologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981.

3 Rizoyeva M. A.O‘zbek xalq mifologik afsonalari: o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi va obrazlar tizimi (PhD diss.).— Toshkent, 2020.

tadqiqot ishida keltirilishicha, afsona janrining shakllanishi va taraqqiy etishida mifologik semantik asosning uzoq davom etganini ta'kidlagan folklorshunos olim M.Juraev shuningdek, xalq afsonalarining yuzaga kelishiga sharoit yaratgan manbalar hamda ularning bosqichma-bosqich taraqqiyoti "*hayotiy voqelik → mif → afsona*" tarzida ketma-ketlikda bo'lganini ko'rsatadi. Afsona janri ilk paytlarda mif ham arxaik janr namunasi sifatida yoki hech bo'lmasa "qoldiq janr" sifatida davom etgan, chunki mifologiya arsenalidagi mifologik tasavvurlar tizimiga mansub obrazlar, syujet va motivlarning epik tafakkur qatlamlariga singib borishi va singib ketishi uchun ancha vaqt talab qilingan. Bu bosqichda "yerda hayotning paydo bo'lishi", olamning uch qismga bo'lingani, g'ayrioddiy mavjudotlar va xudolar haqidagi nisbatlar afsonaning o'ziga xos janr xususiyatlarini saqlab qolgan.

Ijtimoiy voqelik talablariga javob bera boshlagan va qadimgi odamlarning tafakkurini boyitishga xizmat qilgan mifiy syujetlar asta-sekin yangi bosqichga ko'tarilib, afsona janri sifatida mustahkam shakllangan. Afsona janri epik janr namunasi sifatida o'z vazifasini hamon mifdan oladi, ya'ni bu janr bevosita mif bilan bog'liq. Mif qadimgi insonning olam haqidagi umumiy tushunchalarini ifodalaganligi sababli, uning asosiy funksiyasi kishilarga ma'lum axborotni yetkazish, voqelik yoki hodisaning sabablarini izohlashdan iborat bo'lgan.

Isajon Sulton ijodida mifologik unsurlar badiiy tuzilishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Shoir asarlarida miflardagi arxaik obrazlar va qadimiy e'tiqodlar, ularning burchakli ramzlari chuqur semantik qatlam yaratadi. Bu ramzlar orqali shoir inson tabiatining tub savollarini, vaqt hamda borliq sirlarini ifodalashga intilgan. Shu bilan birga, miflar orqali xalq ongining qadimiy qatlamlari, e'tiqod tajribalari she'rga simbollashtirilgan tarzda kiradi.Ikkinchidan, afsona elementlari Isajon Sulton ijodida yangicha badiiy tafakkur bilan vositalangan. Abdug'afur Rasulov ta'kidlashicha[4], Isajon Sulton Boqiy darbadar obrazini o'ziga xos "o'zbekona qarash" asosida talqin etadi. Roman qahramonlariga berilgan ayrim nomlar, tasvirlar va muhit asarning aynan o'zbek adabiy makonida yaratilganini yaqqol ko'rsatib turadi. Shu jihatdan "o'zbekona qarash" iborasi romanning badiiy tabiatiga to'liq mos keladi.

Afsonalar va asotirlar janri – bu nafaqat xalq og'zaki ijodining an'anaviy shakli, balki shoir tomonidan falsafiy mazmunni yetkazish vositasiga aylangan. Maqolada ko'rsatiladiki, afsona tasvirlarida yozuvchi uni zamonaviy estetik talablariga moslashtirib, metaforalar, allegoriyalar orqali insonning ichki dunyosi va axloqiy qiyinchiliklarini ochib beradi. Uchinchidan, tahlillarga ko'ra, mif va afsona janrlari bir-birini mustahkamlab, badiiy-poetik makonni boyitadi. Agar mifologik unsurlar struktura va semantik qatlamni shakllantirsa, afsona elementlari – badiiy tafakkur va obrazli ifodaning keng tushunchasini ta'minlaydi. Bu ikki janrning uyg'unligi shoir ijodida estetik uyg'unlik hamda chuqur falsafiy mazmunini yuzaga keltiradi. Shu jumladan, tahlil shuni ko'rsatadiki, Isajon Sulton asarlarida yanada yangicha pafosning yuzaga kelishi aniq seziladi: u mif va afsona elementlarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirib, an'anaviy badiiy bosqichlardan chiqib, yangi poetik strategiyani shakllantirgan. Bu strategiya orqali shoir o'quvchi ongida qadimiy e'tiqod va zamonaviy axloqiy muammolar, insoniy qadriyatlar haqidagi idrokni uyg'otadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton ijodining mif va afsona unsurlariga boy ekanligini, ularning badiiy konstruksiyani chuqur mazmun bilan boyitishini va she'riyat strukturasida milliy-universal obrazli tafakkur integratsiyasini ta'minlashini aniq ko'rsatadi. Bu unsurlar shoirning badiiy uslubi va falsafiy qarashlarini shakllantirgan markaziy elementlar sifatida o'zaro murakkab va uzviy bog'langan. Filologiya fanlari doktorlari, professorlar M.Jo'rayev va Sh.Shomusarov[5]larning ta'kidlashiga ko'ra, mif qadimgi insonning e'tiqodlari, tasavvurlari, diniy qarashlari va ilk ijodiy izlanishlarining so'z vositasida ifodalangan ko'rinishlaridan biridir deya atashdi. Shunday ekan mif ibtidoiy insonning ma'naviy olamida muayyan ehtiyojlar, ya'ni o'z dunyoqarashini bayon etish zarurati tufayli yuzaga kelgan. Voqelikni badiiy idrok etish an'anasining ibtidosi sifatida qadim zamonlarda shakllangan mifologik tasavvurlar tizimi folklordagi epik janrlarning syujet silsilasi va obrazlar tarkibining vujudga kelishiga asos bo'lgan. Miflar ko'pincha xalq eposi va qadimiy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lsa, afsonalar va asotirlar janri inson hissiyotlari, axloqiy qadriyatlari va falsafiy mazmunini chuqur ifodalaydi. Shuning uchun tahlilda afsonalar va asotirlar yuqori foiz ko'rsatkichiga ega bo'lishi shubhasiz. Natijalardan kelib chiqadiki, Isajon Sulton ijodida afsonalar va asotirlar janri dominant nuqta hisoblanadi. Bu esa shoirning ijodiy maydonini shakllantirgan asosiy estetika va xalq madaniyatiga oid tendensiyalarni aks ettiradi.

4 Rasulov, A. Akslar falsafasi. In Isajon Sulton nasri badiiyati (pp. 33–36). –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

5 Jo'rayev, M., & Shomusarov, Sh.Mifologiya. – Toshkent: Akademnashr, 2005.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orziqulova G. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanida badiiy asar tili masalasi. *Scientific Progress*, 2(5).2021. 446–452.

2. Sarimsoqov B.*Epik janrlar tipologiyasi*. –Toshkent: Fan, 1981.

3.Rizoyeva M. A. *O'zbek xalq mifologik afsonalari: o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi va obrazlar tizimi* (PhD diss.). –Toshkent, 2020.

4. Rasulov A.Akslar falsafasi. In *Isajon Sulton nasri badiiyati* (pp. 33–36). –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

5. Jo'rayev M., & Shomusarov, Sh.*Mifologiya*. –Toshkent: Akademnashr, 2005.

Dilbar AVLAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Til va adabiyot kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

INTELLEKTUAL ROMANLARDA QAHRAMON TAFAKKURINING BADIIY KATEGORIYA SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada intellektual roman janrining o‘ziga xos xususiyatlari va unda qahramon tafakkurining badiiy kategoriya sifatida namoyon bo‘lish masalalari tahlil qilinadi. Muallif an’anaviy syujet unsurlaridan ko‘ra qahramonning intellektual refleksiyasi, falsafiy mushohadalari va g‘oyalar to‘qnashuvi asar strukturasini belgilovchi asosiy omil ekanligini asoslab beradi. Maqolada tafakkur jarayonining badiiy matndagi o‘rni jahon adabiyoti namunalari misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *intellektual roman, badiiy kategoriya, qahramon tafakkuri, refleksiya, falsafiy konsepsiya, intellektual konflikt, psixologizm.*

Аннотация: в данной статье анализируются особенности жанра интеллектуального романа и проявление мышления героя как художественной категории. Автор обосновывает, что интеллектуальная рефлексия, философские размышления и столкновение идей являются основными факторами, определяющими структуру произведения, вытесняя традиционные сюжетные элементы. В статье на примерах мировой литературы освещается роль мыслительного процесса в художественном тексте.

Ключевые слова: *интеллектуальный роман, художественная категория, мышление героя, рефлексия, философская концепция, интеллектуальный конфликт, психологизм.*

Annotation: this article analyzes the specific characteristics of the intellectual novel genre and the manifestation of the protagonist’s thinking as an artistic category. The author demonstrates that intellectual reflection, philosophical contemplation, and the clash of ideas are the primary factors defining the structure of the work, rather than traditional plot elements. The role of the thinking process in literary texts is highlighted through examples from world literature.

Key words: *intellectual novel, artistic category, protagonist›s thinking, reflection, philosophical concept, intellectual conflict, psychologism.*

Intellektual romanda qahramonning tafakkuri shunchaki syujetni to‘ldiruvchi vosita emas, balki asarning markaziy badiiy kategoriyasi hisoblanadi. Bu janrda voqealar tashqi dunyoda emas, balki qahramonning ongida sodir bo‘ladi. Intellektual romanda tafakkur shunchaki qahramonning ruhiy holati emas, balki asarning butun strukturaviy yaxlitligini ta’minlovchi markaziy badiiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. An’anaviy epik asarlarda syujet chizig‘i tashqi voqelik, qahramonlarning harakati va sarguzashtlari asosiga qurilsa, intellektual romanda bu vazifani qahramonning ichki mushohada jarayoni o‘z zimmasiga oladi. Ya’ni, “fikrning tug‘ilishi va rivojlanishi” asarning asosiy voqeasiga aylanadi.

Tafakkur kategoriya sifatida namoyon bo‘lganda, u asardagi barcha badiiy unsurlarni o‘z atrofiga birlashtiradi. Birinchidan, u xarakter yaratuvchi bosh mezondir: biz qahramonni uning tashqi qiyofasi yoki ijtimoiy kelib chiqishi orqali emas, balki dunyoni anglash darajasi, falsafiy qarashlari va o‘z-o‘zi bilan olib boradigan intellektual bahsi orqali taniymiz. Ikkinchidan, badiiy vaqt va makon tafakkur prizmasi orqali transformatsiyaga uchraydi. Masalan, qahramonning bir lahzalik o‘yi orqali asar o‘tmish va kelajakni, turli madaniy qatlamlarni bir nuqtada birlashtirishi mumkin.

Eng muhimi, tafakkur bu yerda g‘oyalar to‘qnashuvining (intellektual konflikt) maydonidir. Qahramon ongi turli falsafiy tizimlar va axloqiy konsepsiyalar sinovdan o‘tadigan o‘ziga xos “laboratoriya” vazifasini o‘taydi. Bu jarayonda shaxsiy fikrlar umuminsoniy muammolar (erkinlik, mavjudlik, absurd) darajasiga ko‘tarilib, badiiy matnning estetik mohiyatini belgilaydi. Shunday qilib, intellektual romanda tafakkur — borliqni badiiy idrok etishning eng oliy va hal qiluvchi vositasi hisoblanadi. Bunday romanlarda intellektual konflikt shunchaki syujet elementi emas, balki asarning mohiyatini belgilovchi markaziy badiiy vosita vazifasini o‘taydi. Bu janrda asosiy to‘qnashuv shaxslar o‘rtasidagi jismoniy kurash yoki tashqi to‘siqlar emas, balki tubdan farq qiluvchi g‘oyalar, dunyoqarashlar va murakkab falsafiy tizimlar o‘rtasidagi duellarda namoyon bo‘ladi. Qahramonning o‘zligi uning qilmishlarida emas, balki uzluksiz davom etadigan mushohada yuritish jarayoni va ongidagi kechinmalarida ochib beriladi. Intellektual konfliktda asosiy to‘qnashuv shaxslar o‘rtasida emas, balki g‘oyalar dunyoqarashlar va falsafiy tizimlar, o‘rtasida kechadi. Qahramonning o‘zligi uning jismoniy harakatlarida emas, balki mushohada yuritish jarayonida namoyon bo‘ladi. Intellektual romanda an’anaviy “yaxshi va yomon” yoki “ishqiy sarguzasht” kabi tashqi konfliktlar ikkinchi darajaga tushadi. Asosiy to‘qnashuv — personajlarning ongi va dunyoqarashlari o‘rtasida kechadi. Qahramonlar shunchaki shaxslar emas, balki muayyan falsafiy oqimlar yoki ijtimoiy-axloqiy konsepsiyalarning “Tirik tashuvchilari” hisoblanadi. Tafakkur jarayoni intellektual romanning “voqeabandligini” tashkil qiladi. Masalan, Fyodor Dostoyevskiyning qahramonlari har bir harakatidan oldin yoki keyin o‘z ongidagi axloqiy va diniy fikrlash jarayonida o‘sha ishning mohiyatini tekshirib ko‘radilar. Bu yerda konflikt qahramonning jamiyat

bilan to‘qnashuvidan ko‘ra ko‘proq uning o‘z-o‘zi bilan bahsi ko‘rinishini oladi. Qahramonning ongi turli mafkuralar sinovdan o‘tadigan maydonga aylanadi. Ushbu janrning o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchi qahramonni uning jismoniy sifatlari orqali emas, balki qanday savollarni o‘rtaga qo‘yishi va ularga qanday mantiqiy yechim izlashi orqali taniydi. Bu jarayonda refleksiya (o‘zini tahlil qilish) bosh mezonga aylanadi. Tomas Manning “Sehrli tog‘“ asaridagi Settembrini va Nafta o‘rtasidagi muloqotlar shunchaki suhbat emas, balki G‘arb madaniyatining ikki xil — ratsional va irratsional qutblari o‘rtasidagi ulkan intellektual kurashini qahramonning ongida kechayotgan o‘y hayollari fikr mushohadalari orqali namoyon qiladi.

Albert Kamyuning “Begona” asarini intellektual roman tafakkurning badiiy kategoriya sifatida namoyon bo‘lishini olsak; Mazkur asarda asosiy mohiyat — inson mavjudligining “absurd” (mantiqsizlik) ekanligi — qahramon Mersoning tashqi harakatlarida emas, balki uning voqelikni qanday idrok etishi va bu haqidagi mushohadalarida ochiladi. Asar qahramoni o‘z onasining o‘limiga ham befarq bo‘ladi go‘yoki bu dunyo undagi voqea-hodisalar barcha-barchasi unga begonadek. Merso onasining o‘limidan so‘ng qo‘shnisining o‘limida ayblanib sudlanadi va o‘limga hukm qilinadi. Asar ikki qismga bo‘linadi Mersoning qotillikdan oldingi va keyingi hayoti ko‘rinishida yoritiladi. Mersoning ongi asarning bosh ustuniga aylangan. U jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy qoliplarni (masalan, onasining o‘limiga “kerakli darajada” qayg‘urish) rad etadi va dunyoga begona nigoh bilan qaraydi. Ushbu asarda tafakkur shunday darajaga ko‘tarilganki, agar asardan Mersoning o‘z-o‘zi bilan olib boradigan ichki bahslari va dunyo mantiqsizligi haqidagi xulosalari olib tashlansa, asar o‘zining badiiy qiymatini butunlay yo‘qotadi. Chunki Mersoning onasini dafn qilishi yoki tasodifan odam o‘ldirishi shunchaki voqea, xolos. Bu voqealarga ma’no beradigan narsa — qahramonning shu voqealarga nisbatan bildirgan intellektual munosabatidir. Aynan shu munosabat orqali asarning bosh g‘oyasi — insonning bu begona dunyoda yolg‘izligi va o‘z haqiqatiga sodiqligi yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, “Begona”da tafakkur shunchaki psixologik holat emas, balki asarning arxitektonikasini belgilovchi, barcha syujet chiziqlarini o‘zida birlashtiruvchi markaziy kategoriyadir. Mersoning fikrlash tarzisiz asar parchalanib ketadi, chunki undagi har bir detal aynan shu “absurd tafakkur”ni isbotlashga xizmat qiladi. Intellektual romanning o‘ziga xosligi shundaki, uning tub mohiyati (asosiy g‘oyasi) tashqi syujet harakatlarida emas, balki aynan tafakkur jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu janrda asarning bosh g‘oyasi qahramonning xulosalari, shubhasi va intellektual izlanishlari orqali o‘quvchiga yetib boradi. Agar an’anaviy asarda g‘oya qahramonning qilmishidan (masalan, qahramonlik ko‘rsatishi yoki xiyonat qilishi) kelib chiqsa, intellektual romanda g‘oya uning ongidagi inqilobdan tug‘iladi.

Tafakkurning badiiy kategoriya darajasiga ko‘tarilishi — bu uning asarni ushlab turuvchi “skelet”ga aylanishidir. Bu shuni anglatadiki, asardan qahramonning mushohadalarini, ichki monologlarini va falsafiy bahslarini olib tashlasangiz, asarning o‘zi parchalanib ketadi. Chunki bu yerda voqealar shunchaki fon, qahramonning fikrlari esa — asarning “tirik tanasi”dir. Masalan, agar intellektual romandan qahramonning borliq, hayot va o‘lim haqidagi o‘y-fikrlarini olib tashlasak, asar o‘zining badiiy qiymatini butunlay yo‘qotadi. U shunchaki quruq va mantiqsiz harakatlar yig‘indisiga aylanib qoladi. Shuning uchun ham tafakkur bu yerda shunchaki element emas, balki asarning borligini ta’minlovchi, unga mazmun va estetik ruh bag‘ishlovchi markaziy ustun (kategoriya) vazifasini o‘taydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, intellektual romanda qahramonning o‘ylashi — bu uning yashash usuli va asarning mavjudlik shartidir. Shu tariqa, intellektual romanda qahramon tafakkuri — bu borliqni anglash va shaxsiyatni shakllantirishning asosiy badiiy kategoriyasi sifatida xizmat qiladi. Qahramon o‘zining falsafiy izlanishlari orqali voqelikni qayta quradi va kitobxonni ham shu intellektual jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Intellektual romanda qahramon tafakkuri shunchaki personajning ichki olamini yorituvchi vosita emas, balki asarning butun badiiy borligini ushlab turuvchi markaziy ustun — fundamental kategoriya hisoblanadi. Bu janrda voqealar tashqi dunyodan qahramonning ongi va mushohadasida ko‘chadi, natijada an’anaviy syujet o‘rnini intellektual dinamika egallaydi. Albert Kamyuning “Begona” asari misolida ko‘ringanidek, qahramonning dunyoni mantiqsiz (absurd) deb idrok etishi asarning ma’no o‘zagini tashkil qiladi va aynan shu tafakkur jarayoni matnning barcha qismlarini yagona maqsad yo‘lida birlashtiradi. Demak, intellektual romanda tafakkur shunchaki yashash usuli emas, balki asar mohiyatini ochib beruvchi, uni san’at asari darajasiga ko‘taruvchi bosh mezon va borliqni anglashning yagona badiiy yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hotamov N. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
3. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tafakkur va zamon. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
4. Quronov D. Adabiy jarayon va badiiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Belinskiy V. G. Adabiyot haqida maqolalar. – Moskva: Nauka, 1983.
6. Bakhtin M. M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva: Iskusstvo, 1979.
7. Lotman Yu. M. Struktura xudojestvennogo teksta. – Moskva: Iskusstvo, 1970.
8. Freud Z. The Interpretation of Dreams. – London: Penguin Books, 2003.

Sobir MANSUROV,
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi

DILAFGOR SHAXSIYATI VA YASHAGAN DAVRIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada piskentlik shoir Abdulboriy Dilafgor hayoti va ijodiga oid mavjud manbalar tahlil qilinadi. Shoir haqidagi ma’lumotlarning kamligi va ayrim manbalarda qarama-qarshiliklar mavjudligi ko‘rsatib beriladi. “Tazkirayi Qayyumiy”, “Toshkent shoirlari”, “Asrlar nidosi” hamda “Gulshani Dilafgor” asarlaridagi ma’lumotlar asosida Dilafgorning adabiy muhiti va zamondoshlari bilan aloqalari yoritiladi. Shuningdek, shoirning vafoti va dafn etilgan joyi haqidagi ma’lumotlar umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *Dilafgor, Abdulboriy, Piskent, tazkira, “Gulshani Dilafgor”, Toshkent adabiy muhiti, mumtoz adabiyot.*

Аннотация: в статье рассматриваются основные источники и исследования о жизни и творчестве поэта Абдулбория Дилафгора. Отмечается недостаточность и противоречивость биографических сведений, что затрудняет научное изучение его наследия. На основе данных из «Тазкираи Кайюмий», «Ташкентские поэты», «Асрлар нидоси» и «Гулшани Дилафгор» раскрывается литературная среда поэта и его связи с современниками. Обобщаются сведения о последних годах жизни и месте захоронения Дилафгора.

Ключевые слова: *Дилафгор, Абдулборий, Пискент, тазкира, «Гулшани Дилафгор», ташкентская литературная среда, классическая литература.*

Annotation: this article analyzes available sources on the life and literary heritage of Abdulboriy Dilafgor, a poet from Piskent. It highlights the limited and inconsistent biographical data found in existing studies. Based on “Tazkirayi Qayyumiy”, “Tashkent Poets”, “Asrlar nidosi”, and “Gulshani Dilafgor”, the paper discusses the poet’s literary environment and connections with his contemporaries. The study also summarizes information about his death and burial place.

Key words: *Dilafgor, Abdulboriy, Piskent, tazkira, “Gulshani Dilafgor”, Tashkent literary circle, classical literature.*

Dilafgor hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar u qadar ko‘p emas. Mavjud manbalar ham u qadar jiddiy tadqiq etilgani yo‘q. Shoir biografiyasi, adabiy davrasi, turli munosabatlar bilan merosiga doir juda oz ma’lumotlar ayrim tadqiqotlarda uchraydi. U haqidagi ma’lumotlar turlicha, xususan, shoir tavalludi sanasi haqida ham har xilliklar kuzatiladi. Dilafgor hayoti va ijodiy merosiga oid ma’lumotlarda izchillik yo‘qligi sababli, ular asosida shoir ilmiy biografiyasi, adabiy merosining hajmi, mavzu ko‘lami va badiiyati yuzasidan to‘la tasavvur hosil qilish imkoni bo‘lmagan. Dilafgor shaxsiyati va ijodiga doir ilk ma’lumotlar Po‘latjon Qayumiyning “Tazkirayi Qayyumiy” asarida uchraydi. Jumladan, mazkur tazkirada shoir haqida: “Bu kishi Toshkent shoirlaridan bo‘lib, Piskand qasabasidandur. Nomi Mulla Abdulboriy bo‘lib, nima kasbda ekani bilinmaydi. Andijon shahridan turib Vataniga xat yozganidan Farg‘ona vodiysiga kelib yurgani, savdogar bo‘lgani ehtimol tutiladur. 1914-yilda qirq sakkiz betli devonchasi Toshkentda o‘z xarajoti ila toshbosmada bosilib chiqdi[1]”, – deyilib, uning “Salomnoma” turkumidagi lirik asaridan bir band keltiriladi. Shoir biografiyasi haqida “Asrlar nidosi” kitobida shunday ma’lumot berilgan: “Abdulboriy Dilafgor XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning birinchi yarmida Toshkentga yaqin Piskent shahrida tug‘ilib, yashab, o‘z davrining maktab va madrasasida tahsil olib, jo‘shqin iste’dodi bilan zamondosh muxlislarning ehtiromiga sazovor bo‘lgan shoirlardandir[2]. Shuningdek, to‘plamda Dilafgorning yoshligi, tahsili va merosi yuzasidan ham ayrim ma’lumotlar berib o‘tiladi:

Dilafgor, xususan, Andijonda yashab, madrasada o‘qigan vaqtida Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil va Fuzuliylarning she’riyatidan bahra olgan. Umrining yetuk qismini ilm-u ma’rifat tarqatish yo‘lida, ya’ni kitob magazinida mudirlik vazifasini ado etishda sarf qiladi[3].

Po‘latjon Domulla Qayyumiy tazkirasida Dilafgor ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lganligi bilan birga shoirning kasb-kori, asl ismi kabilar haqida boshqa manbalardan farqli ma’lumotlar mavjud. Dilafgorning o‘zi tomonidan nashr qilingan “Gulshani Dilafgor” kitobining birinchi sahifasida “Mulla Abdulboriy” deb qayd qilingan. Aynan shu kitobning so‘ngida esa “Kitobfurush mullo Bo‘riboy Shermuhammad o‘g‘li” deb yozilgan va muallif o‘zini shunday tanishtirgan.

Dilafgor hayoti va ijodi to‘g‘risida ancha batafsilroq ma’lumotlar Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘li Toshqinning “Toshkent shoirlari” tazkirasida uchraydi. Tazkirada ijodkor haqida quyidagi ma’lumotga duch kelamiz: “Shoir Dilafgor

1 Пўлотжон Домулло Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. 2-жилд. – Тошкент, 1998. – Б. 379.

2 Муродий Т. Асрлар нидоси. – Б. 162.

3 Муродий Т. Асрлар нидоси.– Б. 162.

(Toshkent-piskentlik)” Bo‘ri Sher hoji o‘g‘li – Dilafgor 1882 nchi yilda Toshkent oblast, Piskent rayon, Piskent qishlog‘ida o‘rta dehqon oilasida tug‘ildi.[4]

Shoirning otasi Shermuhammad hoji Fayziboy hoji o‘g‘li dehqon bo‘lgan. Onalari Bunisa otin nihoyatda ilmli ayol bo‘lib, u kishidan taniqli olima Muzayyana Alaviya, piskentlik Hamroh otin, Tursun otin, Huri otinlar tahsil olishgan. Ijodkorning uch o‘g‘li va ikki qizi bo‘lgan. Katta o‘g‘illari Jo‘raning Abbos va Salomat ismli ikki farzandlari bo‘lgan. Quddus va Yunus ismli o‘g‘illari Ikkinchi jahon urushiga ketishgan, qaytib kelishmagan, ya’ni halok bo‘lishgan. Quddusning o‘g‘li Sobir Said qishlog‘ida yashab o‘tgan. Katta qizlari Sharifa Toshkent shahrida olamdan o‘tgan. Ikkinchi qizlari Latifa ham Toshkentda yashab o‘tganlar. Mulla Abdulboriyning ikki ukasi bo‘lgan. Katta ukasi Mirzaahmad ham Ikkinchi jahon urushiga ketgan va halok bo‘lgan. (1943-yil). Uning Rustam va Elnora ismli farzandlari bo‘lib, qizi hozir ham Toshkent shahrida istiqomat qiladi. Ukasi Bekmuhammadning ikki qizi va bir o‘g‘li bor. Dilafgorning Dono va Ulug‘ ismli singillari ham bo‘lgan. Bundan tashqari, shoirning Oynisa, Muharram va Tuhfaniso ismli singillari ham bo‘lgan.

Dilafgor shaxsiyati, yashagan davri va muhit yuzasidan tasavvur hosil qilishda uning jiyani Adham Mamatqulov tomonidan bildirilgan ma’lumotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, A.Mamatqulov “Gulshani Dilafgor” asarida zamondosh shoirlar haqidagi ayrim ma’lumotlarni taqdim qilgan.

Masalan, “Az jonibi Dilafgor qasida bajonibi Xislat eshon” sarlavha ostida o‘zbek mumtoz adabiyotining so‘nggi namoyandalaridan biri shoir va tarjimon Xislat – Haybatullaxo‘ja Orifxo‘ja o‘g‘liga (1880–1945) bag‘ishlab yozgan o‘n olti baytdan iborat she’riy maktubida ham o‘zi bilan hammaslak bo‘lgan bir qator Toshkent adabiy muhiti ijodkorlarining nomlarini qayd qilib o‘tgan. Chunonchi quyidagi baytlarda:

Xislato, majmu’i yor-u oshnolarni so‘rang,
Ko‘z tanish, xurdu kalon – ahli salolarni so‘rang.
Barchadin qizg‘a qarib ahbobimiz Mullo Kamiy,
Bormular eson-omon, xush bovafolarni so‘rang, – desa, yana bir bandda o‘sha davrning taniqli qo‘shiqchilari nomlari ham keltirilgan:

Shohjalil-u Shohbarotga aytingiz bizdin duo,
To‘ychixon otashnafas, bulbulnavolarni so‘rang.

She’r matnida kotib Abdulhamid nomi bilan birga shoir, xattot va tarjimon Sirojiddin Maxdum Mirzohidoxund o‘g‘li Sidqiy Xondayliqiy (1884–1934)ning nomi qayd etilgani Dilafgor adabiy davrasi haqida ham muayyan xulosalar beradi. Kotib Abdulhamid Dilafgorning “Gulshani Dilafgor”ini ko‘chirgan bo‘lib, uning nomi ushbu she’rga bejiz kiritilmagan:

Kotib Abdulhamid birlan Siroj Maxdum degan,
Husnixat avsofida mashqi bajolarni so‘rang.

Keyingi baytda yana bir taniqli toshkentlik shoir Miskin – Mullo Qo‘shoq G‘ulomxalil Toshmuhammad o‘g‘li (1880–1937)ga bo‘lgan munosabatini bunday bildiradi:

Ul Balandmasjid tegida lafkador Mullo Qo‘shoq,
Erdilar bizga muhib, jonfidolarni so‘rang.

Yuqorida qayd qilinganidek, sovet hukumatining o‘rnatilishi bilan oldin istiqlol va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan taniqli bo‘lgan kishilar ta’qibga olina boshlagan. Shu bois ularning ko‘pi siyosiy faollikdan chekinishga majbur bo‘lganlar. Jumladan, Dilafgor faoliyatining dastlabki davrlarida Kamiy, Xislat va boshqa ijodkorlar bilan suhbati hamda yozishmalari bo‘lganidan xabardor bo‘la olamiz. Shoirning sovet hukumati o‘rnatilgandan keyingi faoliyatiga oid ma’lumotlar yetarli darajada emas.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ma’lumotlardan Dilafgor hayoti va faoliyati qizg‘in kechgani borasida muayyan tasavvurlarga kelish mumkin. Biroq uning sovetlar hukumati o‘rnatilgandan keyingi davrdagi faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar unchalik yetarli emas. Bo‘ri Sher hoji o‘g‘li – Dilafgor 1949 nchi yilda Piskent tumanida vafot etgan va qabri mazkur tuman hududidagi “Sarimazor” qabristonida joylashgani aniqlangan.

4 Дилафгор. Гулшани Дилафгор. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – Б. 3-4.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пўлотжон Домулло Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. 2-жилд. – Тошкент, 1998. – Б. 379.
2. Муродий Т. Асрлар нидоси. – Б. 162.
3.Дилафгор. Гулшани Дилафгор. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – Б. 3-4.
4. Маматқулов А. Болалик кунларимда. – Тошкент, 2012. –Б. 9-11.
5. Маматқулов А. Пискентнома. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.- Б.17.
6. Мўминжон Муҳаммаджон ўғли. Тошкент шоирлари. – Б. 402-405.

Berdibek YUSUPOV,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti o‘qituvchisi
berdibekyusupov@mail.ru

ABAY QO‘NONBOYEV HAYOTI VA IJODINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiy ta’lim jarayonida Abay Qo‘nonboyev hayoti va ijodini o‘qitishda o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik, pedagogik-psixologik tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’lim, kompetensiya, tayanch kompetentlik, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, shaxs, ta’lim-tarbiya integratsiyasi, kompetentlik, intellektual qobiliyat, texnologiya.*

Annotation: the article covers a methodological, pedagogical and psychological analysis of the development of students’ socio-cultural competence in teaching the life and work of Abay Kunanbayev in the process of literary education in general secondary schools.

Key words: *literary education, competence, basic competence, socio-cultural competence, personality, educational integration, competence, intellectual ability, technology.*

Аннотация: в статье представлен методический, педагогический и психологический анализ развития социокультурной компетентности учащихся при преподавании жизни и творчества Абая Кунанбаева в процессе литературного образования в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: *литературное образование, компетентность, базовая компетентность, социокультурная компетентность, личность, образовательная интеграция, компетентность, интеллектуальные способности, технология.*

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda innovatsiyalardan unumli foydalanish o‘quvchilarda faol hayotiy ko‘nikmalarni, jamoaga mas’ullikni, ahillikni, birdamlik, vatanparvalikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Qozoq adabiyoti mumtoz merosini o‘rganishdagi asosiy kamchilik shundaki, o‘quvchilar ijodkorlar haqidagi ma’umotlarni badiiy tarjimalar asosida tasavvur hosil qiladilar. O‘quvchilar muallifni tashvishga solgan fikr va tuyg‘ularni his qilishlari uchun darslarni qanday o‘tkazish kerak? Shoirlarni zamonaviy o‘quvchilarga qanday yaqinlashtirish mumkin? Tajriba-sinov jarayonida o‘tkazilgan eksperimental mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga shunday savollar berilgan. Ushbu muammolarni hal qilish, birinchi navbatda, o‘quv materialini yangilashni talab qildi. Bu jihatlar 8-sinfda Abay ijodini o‘rganish misolida tahlil qilindi. Masalan:

O‘lan — so‘zning poshshosi, so‘z sarasi,
Qiyindan qiyiltirar er donosi,
Tilga yengil, yurakka iliq tegib,
Tep-tekis, silliq kelsin aylanasi.
Saralanmay bulg‘ansa so‘z orasi,
Bu — oqinning bilimsiz-bechorasi.
Ham oqin, ham tinglovchi ko‘pi nodon,
So‘z tanimas bul yurtning bir porasi.

Suhbat quyidagi masalalar yuzasidan olib borildi:

Bu she’rda qanday umumiylik bor va uni nimadan ajratib turadi? Shoirning xulosasiga qo‘shilasizmi? Muallif bu she’rda qanday hayotiy kuzatishlarga asoslagan? Shoir she’rda qanday falsafiy umumlashmalar qiladi? Asarga qanday kayfiyat singdirilgan? Shu kabi his-tuyg‘ularni, kayfiyatlarni boshdan kechirganmisiz?

Tahlilning eng samarali usuli, tajribalar ko‘rsatganidek, she’rlarga o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan savollar berishdir. Bu usul ularga asar muammolarini tushunish, matnni chuqurroq o‘qib chiqish, she’r mazmunini ochish imkonini beradi. Kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, bu o‘quvchilarga badiiy idrok etish uchun matn ustida bajarilgan mustaqil, puxta o‘ylangan ishlardan o‘z-o‘zini qoniqtirish, dunyoni obrazli ko‘rishga imkon yaratadi.

Turkum darslarda o‘quvchilar “Turkiy xalqlar adabiyotini nima birlashtiradi, ularning o‘xshashligi nimada?” savoli ustida fikr yuritishga yo‘naltirildi. Masalan:

1. Abay va Maxtumquli ijodining g‘oyaviy o‘xshashligi nimada?
2. Abayning va Maxtumqulining asarlarini nimaga asoslanib qiyoslash mumkin?
3. Maxtumquli va Abay ijodidan sizga yoqqan satrlarni ayting.
4. Xususiy tarixiy va umuminsoniy tushunchalar siz uchun tanishmi? Agar shunday bo‘lsa, Maxtumquli va Abay she’riyatidagi konkret tarixiy va umuminsoniy elementlarni eslang.

O‘quvchilar quyidagi mavzularda insho yozishlari mumkin:

1. “Abay ta’limoti va Maxtumqulining axloq kodeksi.
2. Abay uchun she’riyat nima?
3. Maxtumquli va qozoq klassiklari ijodining muhim xususiyatlari.

Maktabda adabiyotni o‘rganishning asosiy vazifalaridan biri jahon adabiy jarayoni haqidagi tushunchani shakllantirishdir. Qozoq adabiyoti bu tushunchalarning shakllanishiga sharoit yaratadi, chunki u yagona jahon adabiy jarayonida rivojlanayotgan adabiyot turlaridan biri bo‘lib, ayni paytda o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

O‘qituvchilarning zamonaviy ijodiy izlanishlarida biz mavzu yuzasidan muammolarni birlashtirish, taqqoslash, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni yonma-yon qo‘yishga urinishlarni

ko‘ramiz. Bunga qoraqalpoq maktablarining 10-sinf “Adabiyot” darslarida Berdaq va Abay ijodidan materiallar o‘rganilgani misol bo‘la oladi. Ushbu kitobdagi materiallardan Yuqorichirchiq tumanidagi 8-sonli maktabning eksperimental 10-sinfida o‘tkazilgan darslarda foydalanilgan. Darsda Berdaq va Abay she’riyati haqida qiziqarli ma’lumot berilgan bo‘lib, u adabiyotga, she’riyatga qiziqqan, she’r yozgan va o‘qishga tayyorlanayotgan o‘quvchining konspektiga asos bo‘ldi. Uning ushbu darslikda berilgan materialni puxta egallashi, bilimlarini sinfdoshlariga qiziqarli shaklda bayon qilishiga sabab bo‘ldi. Xususan, qoraqalpoq va qozoq sheriyatining xalq og‘zaki ijodiga yaqinligi, ikki xalq dardining hamohangligi, turmush tarzi, urf-odatlarining o‘xshashligi to‘g‘risida xulosaga kelishiga va mazkur xulosalarini

Rus metodisti N.Sobolevning qiyoslash o‘quv tahlilida samara berishi uchun quyidagi shartlarga asoslanishni qayd etadi:

a) aniq maqsadga qaratilganligi;

b) muhim va turg‘un belgilarga assoslanishni;

d) matniqiy izchillikka amal qilinishi;

e) jarayonda o‘xshash va farqli jihatlarga izoh berilishi[1].

Turkiy xalqlar adabiyoti vakillari ijodini qiyosiy o‘rganish har bir milliy adabiyotning milliy xarakteri bilan birga boshqa qardosh xalqlar adabiyoti bilan mushtarak xususiyatlarga egaligi xususida muayyan xulosaga kelishga yordam beradi. Berdaq va Abay ijodini qiyosiy o‘rganish buning yorqin dalilidir. Bu borada professor Q.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: “O‘quv tahlili kechimida amalga oshiriladigan qiyoslash, bir tomondan, solishtirilayotgan adabiy hodisalarning hayotiy-estetik mohiyatini teranroq anglashga, boshqa tomondan, ulardagi o‘xshashlik va o‘zgachalikning sababini anglashga qaratilgandagina o‘quv tahlili jarayonida o‘quvchilarning tafakkur va tuyg‘ulari o‘sishiga xizmat qiladi”[2].

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib brogan izlanishlar davomida ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning 8-sinfi “Adabiyot” darsligi bo‘yicha Abay ijodining o‘rganilishiga alohida e’tibor qaratdik. Buyuk shoirning hayoti va ijodining o‘rganilishiga bag‘ishlangan dars o‘qituvchining M.Avezov qalamiga mansub “Abay yo‘li” romani syujeti epizodlariga asoslanib, quyidagi savol-topshiriqlar misolida adibning millat faxri, jamoat arbobi sifatidagi ijodiy qiyofasi to‘g‘risida tasavvur berishdan boshlandi.

1. Abayni 20 yoshida zamondoshlari orasida nima mashhur qildi?

2. Abayning prinsipialligi katta jasorat talab qilganligini asoslang.

3. Abay she’riyatini oziqlantirgan manbalarni ayting.

O‘quvchilar oxirgi savolga darslik maqolasi asosida o‘qituvchi yordamida javob berishlari kerak. Agar xalq ijodiyoti, Sharq mumtoz she’riyati, qozoq tili (va u orqali jahon madaniyati) haqida so‘z yuritilsa, o‘qituvchi Abay she’riyatining muhim xususiyatini belgilab bergan yana bir manbaga, ya’ni milliyligi bilan hayot qarama-qarshiliklari originallikka ahamiyat qaratadi.

Bugungi shiddatli davr mustaqil tafakkurli zamonaviy yoshlarni tarbiyalashni taqozo etar ekan, ilg‘or pedagogik texnologiyalar vositasida buyuk allomalarimizning ijtimoiy muhit va tarbiyani o‘zgartirish orqali har qanday xarakterni tarkib toptirish mumkinligi haqidagi fikrlari o‘rinlidir.

Ko‘rinadiki, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim oluvchilarning aqliy rivoji, imkoniyatlari darajasida psixologik-pedagogik jihatdan sog‘lom muhit va qulay sharoit yaratish, ularning fikr mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro munosabatlarni qaror toptirish kabi masalalarni nazarda tutadi.

So‘nggi yillarda adabiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosi yuzasidan Q.Yo‘ldoshev, S.Matchonov, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov, Q.Yusupov kabi metodist olimlarning qator izlanishlari e’lon qilindi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasi zamirida tabiat, jamiyat va madaniyat omillari mavjud bo‘lib, pedagog va o‘quvchi, o‘quvchi va o‘quvchilarning muloqoti jarayonidagi tenglik tamoyillariga asoslanish “olam va odamni kuzatishga, ularni o‘rganishga, kuzatganlariga tayangan holda mulohaza yuritish, taqqoslash, baholash, xulosalar chiqarishga o‘z ixtiyori bilan kirishish”ga yo‘naltiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchi shaxsida ongning shakllanib borishi, his-tuyg‘ularining rivojlanishi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi kabi o‘zgarishlar kuzatiladi. Tarbiyaning muvaffaqiyatli kechishi uning maqsadi, shakllari, metodlari, vositalari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalashi ehtiyojiga egaligi bilan bog‘liq.

1 Соболев Н.А. Методика сравнительного анализа художественных произведений в школе. Учеб. пособие для студентов и учителей-словесников. – Смоленск, 1976. – С. 16. – 163.

2 Yo‘ldosh Q. Qiyoslash – tahlil samaradorligini oshirish usuli // Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. – Toshkent, 2020. 31-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000. 3-b.

2. Yo‘ldosh Q. Qiyoslash – tahlil samaradorligini oshirish usuli // Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. – Toshkent, 2020. 31-b.

3. Зиёмуҳаммадов Б. Комиликка элтувчи китоб. – Тошкетн: ТУРОН-ИҚБОЛ, 2006. – 195–202-б.

4. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. – 37-б.

5. Соболев Н.А. Методика сравнительного анализа художественных произведений в школе. Учеб. пособие для студентов и учителей-словесников. – Смоленск, 1976. – С. 16. – 163.

Fazliddin SADINOV,
SamDChTI o‘qituvchisi

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida frazeologik birliklarning o‘rni va badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. O‘zbek tilining boy frazeologik qatlami tasniflanib, ularning obrazlilik, ta’sirchanlik va falsafiy mazmunni ochishdagi roli ochib berilgan, bu esa shoirning yuksak lingvistik mahoratidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Saddi Iskandariy, frazeologizm, o‘z frazeologizmlar, o‘zlashma frazeologizmlar, frazeologik birlik, badiiy tasvir, semantika, doston tili.*

Аннотация: в данной статье проанализированы место и художественные особенности фразеологических единиц в поэме Алишер Навои «Садди Искандарий». Классифицирован богатый фразеологический слой узбекского языка, раскрыта их роль в создании образности, выразительности и в передаче философского содержания, что свидетельствует о высоком уровне лингвистического мастерства поэта.

Ключевые слова: *Алишер Навои, «Садди Искандарий», фразеологизм, исконные фразеологизмы, заимствованные фразеологизмы, фразеологическая единица, художественное изображение, семантика, язык поэмы.*

Annotation: this article analyzes the role and artistic features of phraseological units in Saddi Iskandariy by Alisher Navoi. The rich phraseological layer of the Uzbek language is classified, and its role in conveying imagery, expressiveness, and philosophical meaning is revealed, which demonstrates the poet’s high level of linguistic mastery.

Key words: *Alisher Navoi, Saddi Iskandariy, phraseologism, native phraseological units, borrowed phraseological units, phraseological unit, artistic expression, semantics, language of the poem.*

Ma’lumki, frazeologizmlar yoki frazeologik birlik (FB)lar ifoda planiga ko‘ra birikma yoki gapga teng ko‘chma ma’noli til birliklaridir. FBlar erkin birikmadan o‘z grammatik qurilishi bilan farqlanmasa ham, grammatik qurilishining mohiyatiga ko‘ra farqli xususiyatlarga egadir. Masalan, *U qizga ko‘z tikdi* gapida uchta lug‘aviy birlik mavjud: *u, qizga, ko‘z tikmoq.* Birinchi va ikkinchi birliklar so‘z (leksema), uchinchisi (ko‘z tikmoq) esa frazeologizmdir. Bu FB tarkibida qatnashgan so‘zlar (ko‘z, tikmoq) yaxlit turg‘un birikma vujudga keltirib, ko‘chma ma’noli iborani vujudga keltirgan [5, 8]. Frazeologizmlar ham xuddi so‘zlar singari o‘z qatlam va o‘zlashma qatlam sifatida tasnif qilinadi. Prof. Sh.Rahmatullayevning fikriga ko‘ra, “O‘z frazema (frazeologizm) asosida o‘zbek turmushidagi voqelik va shunga suyanuvchi obraz yotadi: *“tarvuz(i) qo‘ltig‘(i)dan tushdi”; “do‘ppi(si) yarimta”; “u quloq(i)dan kirib, bu quloq(i)dan chiqib ketmoq”* kabilar” [7, 180]. Prof. E.Begmatov tilining leksik qatlamlari haqidagi monografiyasida “O‘zbek tilining o‘z qatlami 1) tub turkiy so‘zlardan; 2) tub turkiy so‘zlardan yasalgan o‘zbekcha so‘zlardan; 3) chet til elementi negizida o‘zbek tilining o‘zida, o‘zbekcha affikslar qo‘shib yasalgan so‘zlardan; 4) o‘zbekcha so‘zlarga chet tillardan o‘zlashgan qo‘shimchalar qo‘shish orqali hosil qilingan o‘zbekcha so‘zlardan; 5) tub turkiy so‘zlarni qo‘shish orqali yasalgan qo‘shma so‘zlardan; 6) tub turkiy so‘z va o‘zlashgan so‘zni qo‘shish usulida yasalgan qo‘shma so‘zlardan; 7) ikki o‘zlashma so‘zni qo‘shish orqali o‘zbek tilida yasalgan qo‘shma so‘zlardan iboratdir”, – degan xulosaviy fikrni bayon etadi hamda yuqorida keltirilgan har bir guruh o‘z qatlamga oid so‘zlarni birma-bir tahlildan o‘tkazadi[1]. Biz ham ana shu fikrdan kelib chiqib, tub turkiy so‘zlarning o‘zaro munosabati asosida shakllangan frazeologizmlarni o‘z qatlamga mansub iboralar sifatida o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik. Prof. E.Begmatov fikricha, tub turkiy so‘zlar doirasiga esa, birinchi navbatda, odam va hayvonlar organizmi, uning muchalarini bildiruvchi so‘zlar kiradi: *bosh, bel, burun, engak, burun, ko‘z, o‘pka, yurak, til, tish* kabilar [2, 66]. Bunday lug‘aviy birliklar tilshunoslikda somatizmlar deb yuritiladi hamda shunday komponentlar asosida shakllangan *ko‘z oldiga keltirmoq, ko‘z urishtirmoq, bosh egmoq, boshini ikkita qilmoq, til tegizmoq, tildan qolmoq, ko‘z yummoq* kabi frazeologizmlar somatik frazeologizmlardir[2]. O‘zbek tilidagi somatik frazeologizmlar A.Isayevning nomzodlik dissertatsiyasida qisman o‘rganilgan[3]. Mazkur ishda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “bosh” va “ko‘z” so‘zlari asosida shakllangan somatik frazeologizmlar keng tahlil qilinib, ularning tatarcha, o‘zbekcha va ozarbayjoncha variantlari ham o‘zaro qiyoslangan. Lekin A.Isayev somatik frazeologizmlar doirasini juda tor doirada o‘rganadi. Olimning ishida hayvon tana a’zolari nomlari asosida shakllangan frazeologizmlar (*dumini tutqizmaslik; terisiga somon tiqmoq; tuyaga yantoq kerak bo‘lsa bo‘ynini cho‘zadi; tuyogini shiqillatmoq; dumi xurjunda; shoxi sindi; dumini likillatmoq* kabilar)ni somatik frazeologizmlar sifatida inobatga olinmagan. Shuningdek, bu ishda *“jon”, “ko‘ngil”* so‘zlari somatik leksika doirasiga kiritilmaydi [A.Isaev, O‘sha avtoreferat, 8]. Sh.Usmonovaning mulohazasiga ko‘ra, “somatik frazeologizmlar keng tushunilishi kerak. Agar hayvon tana a’zolarining nomlari kishilarning xatti-harakatlarini ifodalaydigan iboralari tashkil toptirsa, u holda bunday iboralari ham somatik frazeologizmlar tarkibiga kiritish lozim... Shu bilan birga *“yurak”* so‘zining sinonimlari bo‘lgan *“ko‘ngil”, “dil”, “qalb”* so‘zlari iboralari tashkil

1 Бегматов э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 57.

2 Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. НДА. – Тошкент, 1998. – 22 б.

3 Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка. АКД. – Ташкент, 1977. – 24 с.

toptirishda faol ishtirok etadi. Tarkibida mazkur so‘zlar kelgan iboralari ham somatik frazeologizmlar hisoblash kerak” [Sh. Usmonova, O‘sha avtoreferat, 7-8].

A.Isayev Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari, S.E.Malovning “Памятники древнетюркской письменности” (M., 1951) va “Древнетюркский словарь” (DTS, 1969) asosida qadimgi turkiy somatik frazeologizmlar soni 249 ta ekanligini aniqlagan, shundan 63 ta somatik ibora u yoki bu o‘zgarishlar bilan turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilining frazeologik tizimida saqlanib qolganligini ta’kidlaydi[4]. Biz ham ana shu fikrlarga asoslanib, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan somatik frazeologizmlarni o‘z umumturkiy qatlamga oid iboralar sifatida tadqiq qilishga intilamiz.

“Saddi Iskandariy” dostonida ***“bosh”*** komponentli ***“boshiga ish tushmoq”, “boshiga qadam qo‘ymoq”, “boshini quyi aylamoq”, “boshidin ayoq”*** singari o‘z qatlamga mansub umumturkiy iboralar qo‘llangan. Shundan ***“boshiga ish tushmoq”*** iborasi uch komponentli bo‘lib, “g‘am-alamga yo‘liqmoq, mashaqqat chekmoq” ma’nolarini bildiradi:

Navoiy, so‘z ayturda farzona bo‘l,
CHu ishi boshingga tushti mardona bo‘l (S.I., 246 a8).

“Boshiga qadam qo‘ymoq” umumturkiy iborasi ham uch komponentli bo‘lib, “o‘ldirish uchun qasd qilmoq” ma’nosini bildiradi. Shunisi e’tiborliki, bu ibora xuddi shunday ma’noni ifodalash uchun hozir qo‘llanilmaydi, iboraning bu ma’nosi arxaiklashgan:

Vagar qatl uchun kelmishang qoshima,
Kesay deb qadam qo‘ymishang boshima (S.I., 264 a13).

“Boshini quyi egmoq” umumturkiy iborasi ham uch komponentli bo‘lib, ***“bosh egmoq, uyatga qo‘ymoq”*** ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi:

Binafsha boshin andin aylab quyi,
Ki ostiga aning kirib mo‘l suyi (S.I., 297 b9).

Shunisi e’tiborliki, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham ***“boshini egmoq”, “bosh egmoq”, “boshini quyi egmoq”*** somatik iboralari faol qo‘llanadi [O‘TFL, 49]. Xuddi shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ***“boshdan-oyoq” // “boshidan-oyoq”*** somatik iborasi ***“bus-butun, to‘lasincha”*** ma’nolarida qo‘llaniladi [O‘TFL, 42]. Biz o‘rganayotgan “Saddi Iskandariy” dostonida ham bu umumturkiy somatik ibora ***“boshidin ayoq”*** tarzdagi arxaik shaklda “to‘lasincha, yoppasiga, butun vujudi bilan” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan:

Boshidin ayoq ishvayu ho‘bluq,
Ayoqdin boshi nozu mahbubluq (S.I., 293 a13).

Agar dostondan keltirilgan baytga diqqat qilinsa, shoir ***“boshidin ayoq”*** somatik iborasining komponent tarkibini almashtirib, baytning ikkinchi misrasida takror qo‘llagan, bu esa tasvir jozibardorligi, obrazligigini oshirishga vosita bo‘lgan.

Shunisi muhimki, “Saddi Iskandariy” dostonida ayrim “bosh” komponentli umumturkiy somatik iboralar garchi shakl jihatdan hozirgi tilimizga yaqin bo‘lsa-da, boshqacha ma’noda qo‘llanadi. Masalan, yuzaki qaraganda ***“boshini o‘ramoq”*** birikmasi oddiy, erkin birikmadek ko‘rinadi. Bu “ot + fe’l” tuzilishiga ega bo‘lgan to‘ldiruvchili birikma “Saddi Iskandariy” dostonida ***“boshini aylantirmoq”*** ma’nosida qo‘llangan:

Qilay tigi burron so‘zum dosidin,
O‘ray boshin ul tig olmosidin (S.I., 149).

Hozirgi adabiy tilimizda ***“bo‘yin tovlamoq // bo‘yin tovlamaslik”*** umumturkiy somatik iborasi ***“amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishni bajarishdan bosh tortmoq”*** ma’nosini bildiradi [O‘TFL, 56]. “Saddi Iskandariy” dostonida esa bu ibora ***“bo‘yin to‘lgamoq // bo‘yin to‘lgamaslik”*** shakllarida qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, “Saddi Iskandariy” dostonini o‘rganish adabiyot yo‘nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘z va o‘zlashma frazeologizmlarning o‘zaro mutanosib qo‘llanilishi dostonning badiiy yuksakligini ta’minlagan va Navoiyning frazeologik boylikdan foydalanish mahoratini namoyish etgan. Bu dostonni o‘qigan insonning fikrlashi, dunyoqarashi anchaga yukasaladi. “Saddi Iskandariy” dostonidagi frazeologizmlar asar badiiyligini oshirish, mazmunni boyitish va Navoiyning yuksak til san’atkorligini namoyon etishda muhim o‘rin tutadi.

4 Исаев А. Древнетюркские соматические фразеологизмы // Труды СамГУ. Новая серия, выпуск № 277. Вопросы фразеологии УП. – Самарканд, 1976. – С. 212-220.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 832 б.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 57.
3. Исаев А. Древнетюркские соматические фразеологизмы // Труды СамГУ. Новая серия, выпуск № 277. Вопросы фразеологии УП. – Самарканд, 1976. – С. 212-220.
4. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка. АКД. – Ташкент, 1977. – 24 с.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг бази масалалари (фразеологик бирликларда полисемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия ва омонимлик) – Тошкент: Фан, 1966. – 262 б.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992. – 382 б.
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 399 б.
8. Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. НДА. – Тошкент, 1998. – 22 б.

Xurshidabonu HASANOVA,
Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi
kh.hasanova@mail.ru

LINGVOMADANIY YONDASHUVDA URSULA K. LE GUIN IJODIDA FANTAZIYA VA FANTASTIKA JANRLARI TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada Ursula K. Le Guin ijodida fantaziya va fantastika janrlarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchi asarlarida aks etgan milliy va universal konseptlar, til vositalari orqali ifodalangan madaniy kodlar hamda janrlararo chegaralar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyat, fantaziya, fantastika, diskurs, konsept, madaniy kod, Earthsea, janr.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурные особенности жанров фэнтези и научной фантастики в творчестве Ursula K. Le Guin. В исследовании рассматриваются национальные и универсальные концепты, отражённые в произведениях писательницы, культурные коды, выраженные с помощью языковых средств, а также межжанровые границы.

Ключевые слова: *лингвокультура, фэнтези, фантастика, дискурс, концепт, культурный код, Earthsea, жанр.*

Annotation: *this article analyzes the linguocultural features of fantasy and science fiction genres in the works of Ursula K. Le Guin. The study examines national and universal concepts reflected in the author’s works, cultural codes expressed through linguistic means, as well as intergenre boundaries.*

Key words: *linguoculture, fantasy, science fiction, discourse, concept, cultural code, Earthsea, genre.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotida lingvomadaniy yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab, ko‘p qatlamli va interfaol munosabatni o‘rganishning muhim ilmiy yo‘nalishi sifatida shakllandi. Bunday yondashuv tilni nafaqat muloqot vositasi, balki milliy ong, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tajribaning in’ikosi sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan insonning olamni idrok etishi, madaniy stereotiplari, konseptual qobig‘i lisoniy birliklar orqali namoyon bo‘ladi.

Badiiy adabiyot lingvomadaniy tadqiqotlar uchun eng samarali empirik manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi, bunda til va madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlik obrazlar, ramzlar va diskursiv tuzilmalar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, fantastik va ilmiy-fantastik janrlar muallifning madaniy qarashlari, falsafiy tushunchalari va ijtimoiy pozitsiyasini real voqelikdan tashqarida yaratilgan badiiy olamlar orqali aks ettirish imkonini beradi. Shu sababli mazkur janrlar lingvomadaniy tahlil uchun alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Ursula K. Le Guinning ijodi aynan shu jihatdan e’tiborga loyiq, chunki u fantastika va ilmiy fantastika janrlarining uyg‘unligini namoyish etadi. Yozuvchi yaratgan badiiy olamlarda – xususan, Yer dengizi sikli va boshqa asarlarda madaniy kodlar, mifologik qatlamlar, ijtimoiy-falsafiy tushunchalar til birliklari orqali ifodalanadi. Le Guinning asarlarida til nafaqat voqelikni tasvirlash vositasi, balki uni qayta shakllantiruvchi va yangi ma’no qatlamlarini hosil qiluvchi semiotik tizim vazifasini ham bajaradi.

Bundan tashqari, muallif asarlarida “tabiat va inson uyg‘unligi”, “muvozanat”, “o‘ziga xoslik”, “ijtimoiy tenglik” kabi turli madaniy tushunchalar onomastik birliklar, ramziy lug‘at, metaforik iboralar va diskursiv strategiyalar orqali lingvomadaniy nuqtai nazardan talqin qilinadi. Bu esa fantastika va ilmiy-fantastik janrlarning nafaqat badiiy-estetik ahamiyatini, balki ularning kognitiv va madaniy ahamiyatini ham ochib beradi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy maqsadi Ursula K.Le Guin ijodidagi fantastika va ilmiy-fantastik janrlarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning o‘zaro aloqadorligi va farqli jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Bunday yondashuv badiiy matnda mujassamlashgan ma’noning madaniy qatlamlarini chuqurroq anglash va ushbu janrlarning lingvomadaniy imkoniyatlarini ochib berish imkonini beradi.

Asosiy qism. Lingvokulturologiya zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo‘nalishi bo‘lib, til birliklarida mujassamlashgan madaniy ma’nolar, qadriyatlar tizimi va tushunchaviy tuzilmalarni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki milliy ong, ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aks ettirishidir. Shuning uchun til birligi – u leksik, frazeologik yoki diskursiv element bo‘lishidan qat’i nazar, ma’lum bir madaniy yukni lingvomadaniy tahlilning asosiy obyektiga aylantiradi[1]. Lingvomadaniy yondashuvning nazariy asoslari kognitiv tilshunoslik, pragmatika va diskurs tahlili bilan uzviy bog‘liq. Xususan, «konsept» tushunchasi ushbu fanda markaziy o‘rinni egallaydi, u inson ongida shakllangan va til orqali ifodalangan madaniy bilimlar majmuini ifodalaydi. Shu jihatdan badiiy matn tushunchalar tizimi sifatida talqin etilib, unda aks etgan madaniy ma’nolar lisoniy vositalar orqali ochib beriladi.

Badiiy adabiyot lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi, chunki unda til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir obrazli, ramziy va konnotativ shakllarda namoyon bo‘ladi. Muallifning individual dunyoqarashidan tashqari, har bir badiiy matn muayyan milliy-madaniy makonning in’ikosidir. Shu sababli adabiy diskursni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi va konseptual modellarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Ursula K.Le Guin asarlarida til aynan shunday ko‘p qatlamli sistema sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif tomonidan yaratilgan fantastik olamlar til orqali modellashtirilgan bo‘lib, ular o‘ziga xos lingvomadaniy makonni tashkil etadi[2]. Le Guin ijodida til nafaqat kommunikativ vosita, balki madaniy model, ya’ni voqelikni anglash va qayta tiklash mexanizmi vazifasini ham bajaradi.

Muallif tomonidan yaratilgan Yer dengizlari dunyosi o‘ziga xos lingvomadaniy tizim sifatida alohida e’tiborga loyiq. Bu tizimda onomastik birliklar (kishi, joy va predmet nomlari), magik til hodisasi, mifologik obrazlar markaziy o‘rinni egallaydi. Yer dengizi konsepsiyasida “haqiqiy nom” g‘oyasi tilning ontologik va pragmatik kuchini ifodalaydi; nomlash harakati nafaqat identifikatsiya vositasi, balki borliqni belgilash va unga ta’sir qilish usuli sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, Yer dengizlari dunyosida til va tabiat uyg‘unligi tushunchasi ham muhim lingvomadaniy ma’no kasb etadi. Inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat, kosmik tartib, axloqiy qadriyatlar magik til elementlari orqali ifodalanadi. Bu tilning nafaqat semantik, balki aksiologik va kognitiv funksiyalarini ham ta’kidlaydi. Shunday qilib, lingvomadaniy yondashuv Ursula K.Le Guin asarlarini tahlil qilish uchun samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi[3]. Bunday yondashuv muallif asarlarida aks etgan madaniy tushunchalar, ramziy tizimlar va til vositalarining o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Ursula K.Le Guin ijodida fantastika janri lingvomadaniy mazmunning eng boy qatlamlaridan birini tashkil etadi. Bu janrda muallif, asosan, mifologik, arxaik va etnomadaniy tushunchalar asosida adabiy olam yaratadi. Fantaziya janri voqelikdan uzoqlashish orqali muallifga insoniyatning qadimgi dunyoqarashini, uning tabiatga munosabatini, metafizik qarashlarini ifodalash imkonini beradi. Xususan, Yer dengizi turkumida bir qator lingvomadaniy ahamiyatga molik konseptlar tizimli ravishda namoyon bo‘ladi. Avvalo, “haqiqiy nom” tushunchasi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, unda nomlash harakati ontologik kuchga ega hodisa sifatida talqin etiladi. Boshqacha aytganda, narsa yoki shaxsning haqiqiy nomini bilish uni boshqarish imkonini beradi. Bunda tilning nafaqat nominativ, balki pragmatik va sakral funksiyalari ham namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, tabiat bilan uyg‘unlik konsepti fantastika janrining markaziy lingvomadaniy komponentlaridan biridir. “Yer dengizi” olamida inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi salbiy oqibatlarga olib keladiki, bu ekologik va aksiologik qarashlarning adabiy ifodasidir. Til birliklari orqali ushbu muvozanat g‘oyasi ramziy va majoziy shakllarda ifodalanadi.

Uchinchidan, qadimgi donishmandlik namunasi tajriba, bilim va axloqiy qadriyatlarning uzluksizligini aks ettiradi. Mazkur modelda ustoz-shogird munosabatlari, magiya va bilimni uzatish lingvomadaniy ahamiyatga ega diskursiv tuzilmalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, fantastika janrida til birliklari ramziy xarakterga ega bo‘lib, u orqali inson, tabiat va koinot uyg‘unligi tushunchasi ifodalanadi. Madaniy kodlar ko‘pincha mifologik obrazlar, arxaik tushunchalar va metaforik tizimlar orqali ifodalanadi, bu esa fantastika janrining lingvomadaniy teranligini ta’minlaydi.

Ursula K.Le Guin ijodida ilmiy-fantastik janr ijtimoiy va falsafiy muammolarni lingvomadaniy jihatdan yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu janrda yozuvchi inson taraqqiyoti, jamiyat tuzilishi va o‘zligi masalalarini muqobil dunyolar orqali modellashtiradi[4]. Xususan, “Zulmatning chap qo‘li” lingvomadaniy tahlil uchun muhim manba bo‘lib, unda gender tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Ishda inson tabiatining ijtimoiy va biologik jihatlari gender identiklik o‘zgaruvchanligi tushunchasi orqali qayta talqin etilgan. Bu jarayonda gender stereotiplar, ijtimoiy rollar, kommunikativ strategiyalar lisoniy birliklar orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, ijtimoiy identifikatsiya masalasi muhim lingvomadaniy komponent sifatida yuzaga chiqadi. Personajlarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni, jamiyatdagi o‘rni, boshqa madaniyat vakillari bilan munosabatlari diskursiv nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Bu esa, o‘z navbatida, tilning ijtimoiy o‘zlikni shakllantirishdagi rolini ochib beradi. Madaniyatlararo muloqot tushunchasi esa ilmiy fantastika janridagi umuminsoniy qadriyatlarni aniqlash imkonini beradi. Turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot jarayonida lisoniy vositalar orqali tushunmovchiliklar, semantik farqlar, pragmatik strategiyalar yuzaga keladi[5]. Bu holat lingvomadaniy tahlil uchun muhim empirik material bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, ilmiy-fantastik janrda til ko‘proq analitik va konseptual xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarni modellashtirish, falsafiy g‘oyalarni ifodalash, umuminsoniy madaniy qadriyatlarni yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Ursula K.Le Guin ijodida fantastika va ilmiy fantastika janrlari o‘zaro uyg‘unlashib ketgan. Fantastika janri mifologik va madaniy qadriyatlarni ifodalash uchun ishlatilsa, ilmiy fantastika janri ijtimoiy va falsafiy tushunchalarni o‘rganishga xizmat qiladi. Har ikkala janr ham madaniy ma’nolarni lisoniy vositalar orqali yetkazishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Bu esa muallif asarlarining lingvomadaniy jihatdan boy va serqatlam ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Le Guin U. K. *A Wizard of Earthsea*. – Berkeley: Parnassus Press, 1968. – 205 p.
2. Le Guin U. K. *The Left Hand of Darkness*. – New York: Ace Books, 1969. – 304 p.
3. Cadden M. *Ursula K. Le Guin Beyond Genre*. – London: Routledge, 2005. – 176 p.
4. Cummins E. *Understanding Ursula K. Le Guin*. – Columbia: University of South Carolina Press, 1990. – 192 p.
5. Hasanova X. B. Linguocultural comparison of the fantasy genre... – 2022.

Muxayyo VAFOYEVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va ma'daniyati instituti dotsenti, f.f.n.
Kamola ABDUQAHHOROVA,
I kurs magistranti

"DIL" KOMPONENTLI FRAZEMALARNING SEMANTIK STRUKTURASI

Annotatsiya: ushbu maqolada "dil" komponentli frazemalarning semantik strukturasi hamda badiiy matndagi uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan.Insonning ichki ruhiy dunyosi, xarakteri, his-tuyg'ulari va psixologik holati bilan bog'liq bo'lgan bu frazemalar bir necha ma'no guruhlariga bo'lib o'rganildi.

Kalit so'zlar: *frazema, frazeologizm, semantik struktura, uslubiy bo'yoq, emotsionallik, ijobiy baho, salbiy baho, badiiy uslub.*

Аннотация: в данной статье анализируются семантическая структура и стилистические особенности фразеологизмов с компонентом "душа" в художественном тексте. Данные фразеологические единицы, связанные с внутренним духовным миром, характером, чувствами и психологическим состоянием человека, были изучены путем разделения на несколько смысловых групп.

Ключевые слова: *фразема, фразеологизм, семантическая структура, стилистическая окраска, эмоциональность, положительная оценка, отрицательная оценка, художественный стиль.*

Annotation: this article analyzes the semantic structure and stylistic features of phraseological units containing the component soul within literary texts. These idioms, which are closely related to a person's inner spiritual world, character, emotions, and psychological state, are studied by classifying them into several semantic groups.

Key words: *phraseme, phraseological unit, semantic structure, stylistic coloring, emotionality, positive evaluation, negative evaluation, literary style.*

Dil – ko'p ma'noli leksema bo'lib, o'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan. Bu leksema ham lug'aviy, ham ko'chma ma'nolarda qo'llanadi. Dil o'z ma'nosida biologik organ (dil urishi, dil o'ynog'i kabi), ko'chma ma'noda esa "kishining ichki ruhiy dunyosi, ichki his-tuyg'ularining markazi, ramzi; ko'ngil, qalb [5:849-850].

"Dil" leksemasining keltirilgan ko'chma ma'nolari insonning ichki ruhiy dunyosi, his-tuyg'ulari va psixologik holati bilan chambarchas bog'liq semantik birlik ekanligini ko'rsatadi. Ushbu semantik xususiyat leksemaning frazeologik birliklar tarkibida faol qo'llanishiga asos bo'ladi. Chunki frazeologizmlar aksariyat hollarda insonning ruhiy kechinmalari, emotsional holati va ichki munosabatlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi.

"Dil" komponentli frazemalarda ushbu leksema asosiy semantik markaz – tayanch vazifasini bajarib, insonning quvonch, tushkunlik, umid, xafalik, samimiyat kabi turli xil emotsional va psixologik holatlarini ifodalaydi. Bunday frazeologik birliklarning ma'nosi ularning tarkibidagi komponentlarning to'g'ridan-to'g'ri lug'aviy ma'nosiga emas, balki umumlashgan ko'chma ma'nosiga asoslanadi. "Dil" komponentli frazemalarning semantik xususiyatlari inson ruhiyati, emotsional holati va kommunikativ-pragmatik vazifalarini ifodalash xususiyatiga ega. Shu nuqtayi nazardan "dil" komponentli frazemalarning semantik strukturasini quyidagicha tasniflash mumkin:

Sevgi, mehr-muhabbat ifodalovchi frazemalar: dil berdi, dil bog'lamoq, dil ovlamoq, dil(i) ketdi.

Badiiy uslubga xoslangan "dil berdi" iborasining "sevmoq, ko'ngil qo'ymoq, ruhan bog'lanmoq" kabi ma'nolari insonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini boshqa bir shaxsga bag'ishlashini, ya'ni muhabbat tuyg'usini ifodalab keladi:

Zulayho kim? – Shoh kanizi Yusufga *dil berganmidi*?!

Layli-chi? – U Majnun ila do'lanalar terganmidi?! (M.Yusuf)

Berilgan misoldagi "dil bergan[midi?!]" frazemasi tuyg'ularning samimiyligi sabab javob talab qilmaydigan, tinglovchini mulohaza, mushohada qilishga chorlaydigan uslubiy vosita vazifasini bajarib kelgan.

"Dil(i) ketdi" frazemasi "yoqtirib qolmoq" yoki "biror shaxs, narsa-buyum, hodisaga nisbatan iliqlik his qilmoq" kabi yaxlit ma'nolarni o'zida jamlaydi: Galani aylanib yurdim. Bir bo'zga ko'zim tushdi. Shuni ushladim. Tishlarini ko'rdim. Yoshi yettida bo'lsa-da, hali oziqli tishi chiqmabdi. Aslida, besh yoshida chiqadi. Demak, endi chiqmaydi. Oziq tishsiz ot xosiyatli ot bo'ladi! Birodarlar, shu bo'zga *dil ketdi!* (T.Murod) Mazkur parchada ifodalangan "dil ketdi" iborasi narsaga, ya'ni hayvonga nisbatan qo'llangan bo'lib, kontekstdan anglashilgan "yoqtirib qolmoq" ma'nosini bildirib kelgan. Tog'ay Murod bu iborani tanlagani bejiz emas. Yozuvchining sodda gaplardan unumli foydalanishi,

o‘ynoqi jumlalarni mahorat bilan ishlatishini hisobga olsak, “dil(i) ketdi” iborasi yozuvchi uslubi uchun aynan mos kelgan.

Quyida berilgan dialogda esa “dil(i) ketdi” iborasi shaxsga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, yigitning qizga “maftun, oshiq bo‘lishi” ma’nosini anglatadi:

Qayinsinglimiz olamda yakka-yu yagona emish!

– Yo‘g‘-e? – dedim.

– Ha! – dedi.

– Chiningni ayt? – dedim.

– Chinim! – dedi.

Birodarlar, *dil ketgan emish, dil!* Ahay-ahay!

– Ay, Odina chavandoz, unda, qo‘lni ber, o‘zim sovchi bo‘laman! – dedim. (T.Murod)

Metafora usulida ma’nosi ko‘chgan “dil(i) ketdi” frazemasining berilgan misolda o‘zgacha ohangda, xalqona va jonli nutq uslubida takrorlanishi (*dil ketgan emish, dil!*) hamda undovlar (*“Ahay-ahay!”*) bilan birga kelishi matnga samimiylik va milliy ruh bag‘ishlaydi, bu holatning ehtiros va hayajon bilan aytilayotgani kuchli hissiyotni, qahramonlar o‘rtasidagi do‘stona yaqinlikni ta’kidlashga xizmat qilgan.

Ichki xotirjamlik, quvonch, mamnunlik, halovat ifodalovchi frazemalar: dili taskin topdi, dili yorishdi, dilni yoritmoq, bahri-dili ochildi, dildan dard tarqamoq.

Ruhiy osoyishta holatga erishilgan psixologik jarayonni ifodalovchi “dili taskin topdi” iborasi badiiy uslubga xoslangan bo‘lib, frazemaning “taskin” komponentidagi ma’no tasavvufiy sukunat hisoblanadi hamda “qalbning ruhiy bezovtalikdan xalos bo‘lishi, tinchlanishi” kabi semantik strukturani ifodalaydi:

Fuzuliy Karbalo dashtin
Quyundek kezdi Qays birlan,
Dili hech *topmadi taskin*
Davrning boda, bangidan. (E. Vohidov)

Ohangdorlikni va mantiqiy urg‘uni kuchaytirish maqsadida iborada so‘z tartibi o‘zgarishi kuzatiladi. Frazemaning fe’l komponentidagi -ma, “hech” bo‘lishsizlik olmoshi inkorni yanada kuchaytirib, matnda ekspressiv vazifa bajarib kelgan. Iboraning grammatik jihatdan bo‘lishsiz formada qo‘llanilishi tufayli uning semantik strukturasi aks ma’noni ifodalashga bo‘ysundirilgan.

“Ko‘nglidagi g‘ashlik tarqadi” semantik strukturali “dili yorishdi” fe’l frazemasi, asosan, shaxslarning ijobiy ruhiy holatini, hissiy kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi:

– Ha, keladilar. Biz qidirishni to‘xtatmaymiz. Agar rasmiy to‘xtatilsa, biz norasmiy, o‘zimizning kuchimiz bilan haqiqatni topishga harakat qilamiz.

– Rahmat, – Zuhraning biroz *dili yorishgandek* bo‘ldi. “Militsionerlarning ichida ham yaxshi odamlar bor”, degan fikr xayolidan o‘tdi. (O‘. Umarbekov)

Keltirilgan misolda umidvorlik hissidan shaxsning ruhiyati yaxshilana boshlaganini ko‘rish mumkin. Grammatik jihatdan gapga teng strukturali “dili yorishdi” frazemasining “dilni yoritmoq” so‘z birikmasiga teng tuzilishli varianti ham mavjud bo‘lib, u yuqorida keltirilgan ma’nolarning tashqi ta’sir natijasida yuzaga kelganligini ifodalaydi. Stilistik bo‘yoqdorlik kuchli bo‘lgan ushbu ibora ham shaxslarga nisbatan qo‘llanadi, ammo tashqi ta’sir etuvchi, frazema semasida ifodalanayotgan holatni voqelantiruvchi vosita shaxs, narsa-buyum, ma’lum hodisa bo‘lishi mumkin: *Har hayitda, har payshanba kelib, sham yoqaman. Nuri dilingizni yoritadi.* (O‘.Umarbekov)

Keltirilgan misolda dilni yorituvchi vosita “sham nuri” hisoblanadi, ya’ni kishi dilining yorishishiga narsa – sham nuri sabab qilib ko‘rsatilgan.

Adabiy tilda “bahrini ochmoq” frazemasi mavjud bo‘lib, uning semantik strukturasi “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da “kayfiyatini yaxshilamoq” [4:57], “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ko‘nglini ochmoq, ruhini yengil, kayfini chog‘ qilmoq” [5-I:244) tarzida izohlanadi. Bu frazemaning bahri dil(i)ni ochmoq – bahri dil(i) ochildi; dili ochildi variantlari mavjud: Sen mo‘jizasiz ham baxtli eding. Yer yuzidagi millionlarcha odamlardek osoyishta hayot kechirarding. Har haftaning so‘ngida o‘rtoqlaring bilan choyxonalarga, istirohat bog‘lariga borarding. U yerdan kayfiyating ko‘tarilib *bahri-diling ochilib* qaytarding. (Nazar Eshonqul); Qanaqasizlar, qizim, kishi undan-bundan gapirishsa, chigili yoziladi, *dili ochiladi*. (H.Nu’mon)

“Bahri-dili ochilmoq” varianti ijobiy ottenkali frazema bo‘lib, badiiy uslubda faol qo‘llanadi. Bunga “dil” komponentining inson psixologiyasi, emotsiyalari markazi ekanligi va ushbu leksema bilan shakllantirilgan frazemalarning tinglovchiga ta’siri nisbatan kengroq bo‘lishini sabab qilib ko‘rsatish mumkin: So‘nggi kunlarda Gavharning *bahri-dili ochilib* yurganini ko‘rgan Zamira buning sababchisi Mahkam ekanini bilar, shunday yaxshi qizni shunchalik baxtiyor qilgan yigit qanaqa bo‘lar ekan deb, Mahkamni o‘zi ham qiziqib kuzatardi. (P.Qodirov)

Xafa, ozor, tashvish, tushkunlik semantik strukturali frazemalar: dili xun, dili siyoh [bo‘ldi], dili g‘ash bo‘ldi, bag‘ri-dili ezildi, dilini ezmoq, dili og‘ridi, dilini xira qilmoq, dili achishdi, bag‘ri-dili kuydi.

Predikativ sintagmaga teng qurilishli “dili siyoh bo‘ldi” frazemasi “xafa bo‘lmoq” [4:134] semantik stukturasiga ega bo‘lib, shaxsning emotsional holatini ifodalaydi: Sevinchga yordam beraylik desang, iloji boricha kasal bo‘lma, qo‘lingdan kelgancha uzoq yasha! Allohning ishlari ekan, aralasholmaymiz, – o‘zining ham *dili siyoh bo‘ldi* Po‘lat otaning. (U.Hamdam)

Frazema komponent tarkibidagi “siyoh” so‘zining ma’nosi metafora usulida ko‘chgan bo‘lib, shaxsning qalbida g‘am-tashvish, qayg‘u to‘lib-toshganini kuchli emotsionallikda ifodalab keladi.

Badiiy uslubga xoslangan “dili g‘ash bo‘ldi” fe’l frazemasi shaxsning ruhiy holatini ifodalab, “biroz tashvish qilmoq”, “notinch, bezovta bo‘lmoq” [4:288] ma’nosini anglatadi:

Yorni oftob deding, Erkin,
Kuymagin hijronida,
Oftob goh berkinur,
Bundan *diling g‘ash bo‘lmasin.* (E.Vohidov)

Shoir Erkin Vohidov bu iborani “Uch balodan saqlasin” she’ri maqta’sida o‘z o‘ziga murojaat tarzida qo‘llanilishi asarning poetik ta’sir kuchi oshirishga xizmat qilgan, shu bilan bir qatorda grammatik jihatdan bo‘lishsiz fe’l formasi frazemaga taskin berish, ovutish kabi pragmatik ma’nolarni ifodalashga bo‘ysundirilgan.

Badiiy matnlarda “dili g‘ash bo‘ldi” frazemasining fe’l komponenti qisqarib “dili g‘ash” shaklini hosil qiladi. Frazemaning bu tarzda qo‘llanishi “ularning turg‘unlik holatiga ta’sir etmaydi, qisqargan, elliptik formada ham iboraning ma’nosi, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi o‘zgarishsiz qoladi” [2:139]

– Hech xafa bo‘ladigan joyingiz yo‘q ekan, Umida opa. Avvalo, uni siz o‘ldiribsizmi? Qasosli dunyo qaytadi. Xo‘sh... u yashab yuraversa-yu, siz shundoq qaytib kelganingizda ko‘nglingiz battar notinch bo‘lardi.

– To‘g‘ri aytasiz, Azimjon. Lekin o‘sha yerdan qaytganimdan beri, bir nopok narsani bosib olgan odamday *dilim g‘ash.* (A.Muxtor)

Berilgan parchadagi Azimjon va Umida opa o‘rtasidagi muloqotda ham shaxsning psixologik holati, vijdon azobi “dili g‘ash” iborasi orqali matnga muvofiqlashadi. Bu frazema qahramonning ichki iztiroblarini ochib berishga xizmat qilgan. Matnda suhbatdoshning diqqatini asosiy nuqtaga qaratish uchun qo‘llangan ritorik so‘roq “Avvalo, uni siz o‘ldiribsizmi?”, xalqona “qaytar dunyo” tushunchasiga asoslangan, metafora usulida ma’no ko‘chgan “Qasosli dunyo qaytadi” jumlasi, “Xo‘sh...”, “Umida opa”, “Azimjon” kabi to‘xtam va murojaatlar, “bir nopok narsani bosib olgan odamday” okkazional o‘xshatishli birikma, “ko‘ngli notinch”, “dili g‘ash” iboralarining qo‘llanilishi nutqning ta’sirchanligini ta’minlash bilan birga, qahramonning ichki iztiroblarini ochishga xizmat qilgan.

“Bag‘ri dili ezildi” frazemasi “azoblanmoq, ruhan qiynalmoq, o‘rtanmoq” kabi ma’nolarni o‘zida jamlaydi. Bu frazemaning intensivlik darajasi yuqoriligi, ta’sir doirasi kengligi sababli asosan badiiy uslubda keng qo‘llanadi:

Garchi zug‘um qilganlarni yoqtirmadim,
She’r yozdim-u bo‘lak ishni qotirmadim.
Tilim turib o‘z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam *eziladi bag‘ri dilim*,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim. (M. Yusuf)

Keltirilgan she’riy parchada “bag‘ri dili ezilmoq” frazemasi poeziya, qofiya talabi bilan inversiyaga uchrashi kuzatiladi.

Adabiy tildagi “yuragini ezmoq” frazemasining ko‘ngl(i)ni ezmoq, yurak-bag‘r(i)ni ezmoq, bag‘r(i)ni ezmoq kabi variantlari mavjud bo‘lib, “ruhan azoblanmoq” [4:572] ma’nosini ifodalaydi.Bu frazemaning “dilini ezmoq” varianti esa mavjud lingvistik lug‘atlarda qayd etilmagan. “Dilini ezmoq” frazemasida badiiy-emotsionallik kuchli ifodalangan bo‘lib, uning semantik strukturasida “ruhiy azob, qayg‘u, bosim natijasida qalbni siqib qo‘yish, ezish” kabi ma’nolar yetakchilik qiladi:

U jon bilan *ketsa dildan*,
Sukut qolsa yurakda,
Odamzodning Ruhi bilan
Yashayberar falakda.
Bu - shoirning *dilin ezgan*
Istibdodning dardidir. (E. Vohidov)

Keltirilgan she’riy parchada “dildan ketmoq” frazemasi matn bilan bog‘liq holda ichki tuyg‘uning yo‘qolishi, ruhiy bog‘liqlikning uzilishi, ishonchning so‘nishini anglatadi. Har ikkala “dildan ketmoq” hamda “dilini ezmoq” frazemalari orqali matnda inson ruhiyati, ichki kechinmalar va istibdodning salbiy ta’siri kuchli emotsionallik bilan ochib berilganini ko‘rish mumkin.

“Ranjimoq” ma’nosini anglatuvchi “dili og‘ridi” frazemasi adabiy tildagi “ko‘ngli og‘ridi” [4:296] iborasining varianti hisoblanadi. Bu frazema, asosan, shaxslarga nisbatan qo‘llanadi: Ertalab Mahkam uni noxush ahvolda ko‘rib, yana murosalari kelishmaganini sezdi, lekin *dili og‘rimasin* deb hech narsa so‘ramadi va kengash to‘g‘risida gap ochdi. (P.Qodirov) Keltirlgan misolda “dili og‘ridi” frazemasi matnning ta’sirchanligini oshirish, personaj xarakterini ochish, uning ruhiy jarohatiga tegmaslik uchun qo‘llanilgani kuzatiladi.

“Dili og‘ridi” frazemasi “ranjimoq” ma’nosida, “ko‘ngli og‘ridi” frazemasining varianti hisoblanadi [4:296]. Bu frazema, asosan, shaxslarning emotsional holatiga nisbatan qo‘llanadi: Ertalab Mahkam uni noxush ahvolda ko‘rib, yana murosalari kelishmaganini sezdi, lekin *dili og‘rimasin* deb hech narsa so‘ramadi va kengash to‘g‘risida gap ochdi. (P.Qodirov)

Badiiy uslubga xoslangan “dil(i)ni xira qilmoq” frazeologizmi nutqda emotsional-ekspressivlikni kuchaytirib, qahramonning ichki ruhiy holati, his-tuyg‘ulari, kechinmalarini obrazli tasvirlashga xizmat qiladi. Ibora tarkibida “dil” komponenti insonning ichki psixologik holatining markazi hisoblansa, “xira qilmoq” fe’l komponenti “ravshanlikni yo‘qotmoq, xiralashtirmoq” ma’nosidan metaforik yo‘l bilan ko‘chgan. Bu frazema matn bilan bog‘liq holda insonning kayfiyatini buzmoq [Bu mahal darvoza oldiga taksi mashinasidan bir xotin, bir erkak tushib, to‘g‘ri hovliga kirib kelishdi. Bular ikkalasi ham o‘rta yoshdagi, kelishgan, soqol-mo‘ylovini hozirgina qirdirgan, doim iljayibroq turadigan, odamning *dilini xira qiladigan* darajada shirin-chuchmal aftli bir kishi edi. (A.Muxtor)]; ko‘nglini og‘ritmoq, xafa qilmoq [Jalil Abdulhamidning kundan kun so‘lib borayotganini ko‘rib, Asadbekka bildirmay, Muhiddin otani olib keldi. “Hozir oshnamning yonida suyanadigan bir odam bo‘lishi kerak. Mening tilim yomon, suyanaman, deganida bir gap aytvorib, *dilini* battar *xira qilaman*”, deb qo‘ydi. Otaning

kelishi Asadbek uchun ayni muddao bo‘ldi. (T.Malik)]; ichki ruhiy bezovtalik, tashvishlantirmoq [Afruzaning] Bu jilmayish Manzuraning ko‘nglini iliq nur bilan yoritdi. Xayrlashish uchun o‘rnidan qo‘zg‘aldi-yu, *dilini xira qilib turgan* yana bir savolga oydinlik kiritishni istadi. (T.Malik)] kabi ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

So‘zlashuv va kitobiy uslublarda keng qo‘llanuvchi “yuragi achidi-ichi achidi-joni achidi” frazeologik sinonimlari ko‘p ma’noli bo‘lib, “ayab kuyinmoq 1, achinib kuyinmoq 2” [4:226] kabi ma’no strukturasiga ega. Mazkur sinonimik qatordagi “yuragi achidi” frazemasining “dili achidi”, “ko‘ngli achidi” kabi variantlari ham badiiy nutqda keng qo‘llanishi kuzatildi, ammo bu variantlar o‘zbek tilidagi mavjud lingvistik lug‘atlarda qayd etilmagan: Begona joylarda, begona odamlar orasida birdan lop etib yodga tushadi, *dil jizillab achishadi,* negadir Murod amakini ko‘rging, bag‘ringga bosging keladi. (M.M.Do‘st) Keltirilgan parchada personaj-ning psixologik holatini ifodalashda “dil achishdi” iborasidan foydalanilgan.Frazema “ich-ichidan achinib kuyinish, mehr va iztirob aralash hissiy kechinmani boshdan kechirish” ma’nosida qo‘llangan. Frazema komponentlari orasiga “jizillab” ravishdoshining kiritilishi “leksik o‘zgarish tufayli ekspressivlikning kuchayishi” [2:96]ga sabab bo‘lgan.Frazema semasiga qo‘shimcha stilistik ma’no qo‘shilib, ruhan azoblanish ma’nosi yuqori ekspressivlik bilan ifodalangan.

“Bag‘ri-dili kuydi” frazemasi “alam”, “hasrat”, “dardni chuqur his qilmoq”, “judolikka giriftor bo‘lib qiynalmoq” ma’nolarini ifodalaydi. Badiiy uslubga xoslangan mazkur frazema matnda kuchli ekspressivlik va obrazlilikni ta’minlaydi:

Bag‘ri-dilim kuydiradi yolg‘onlari,
Yonlariga chorlar mohi tobonlari.
Bo‘lsam agar men bitta qurbonlari,
Yuragimni yo‘lbarslarga yediraman. (M.Yusuf)

Shaxs xarakter-xususiyatini ifodalovchi frazemalar: dili oq, dili pok, dili toza, dili beg‘ubor, dil(i) boshqa, til(i) boshqa, dilida cho‘g‘i bor.

“Ko‘nglida kiri yo‘q, oqko‘ngil, sofdil” [5-I: 850) insonlarga nisbatan “dili oq” frazemasi qo‘llanadi: U ayolning *dili oq* edi, hatto o‘ziga ozor berganlarga ham yomonlik tilamasdi. (N.Eshonqul)

“Dili oq” frazemasining kitobiy uslubga xoslangan “dili pok”, “dili toza” sinonimlari mavjud bo‘lib, shaxsning ijobiy axloqiy sifatini tavsiflash uchun xizmat qiladi: Sen uyquga to‘ymagansan,
Tajang, g‘azabnok.
Men shodonman, ko‘nglim ravshan,
Jism-u *dilim pok*. (E.Vohidov)

Poetik ohangga ega bo‘lgan “dili pok” frazemasi “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilmagan.Badiiy uslubga xoslangan, intensivlik darajasi kuchli bo‘lgan bu frazema, poeziyada, asosan, inversiya holatida qo‘llanadi:

Ishq yo‘lin firdavs yo‘li deb anglagil,
Pok diling, Erkin, bu yo‘lda bosh bo‘lur. (E.Vohidov)

O‘zbek tilida so‘zlashuv va kitobiy uslubda keng qo‘llanuvchi emotiv-baholovchi “dili toza” frazemasi qalbi sof, samimiy, niyati yomonliklardan xoli insonlarga nisbatan ishlatiladi. U adabiy tilda mavjud “ko‘ngli toza”, “yuragi toza” frazemalarining varianti hisoblanadi: Bilib bo‘lmaydi, do‘xtir sezmagan narsani ko‘ngil sezadi. Lekin *tili zahar bo‘lsa ham dili toza*, yaxshi odam. Domlalar orasida faqat shuni yoqtiraman. (T.Malik)

Keltirilgan misolda metafora usulida ma’nosi ko‘chgan “tili zahar”, “dili toza” frazemalari personajning nutqiy tavsifi uchun xizmat qiladi. Bir personaj nutqida stilistik jihatdan asosli yonma-yon qo‘llanilgan bu frazemalar kontekstda bir-biriga zid ma’noni ifodalashga bo‘ysundirilgan. “Tili zahar” frazemasi insonning nutqi achchiqligini, ko‘ngilni og‘ritadigan, ruhiyatiga yetkazadigan salbiy ta’sirni ifodalasa, “tili shirin” “yomon niyati yo‘q, samimiy, beg‘ubor insonlarga nisbatan qo‘llanadigan ijobiy bo‘yoqdor, insonning ichki dunyosi – qalbiga yuqori baho beradigan ibora sanaladi.

Shaxs ijobiy sifatlarini ifodalovchi “dilida cho‘g‘i bor”, “dili beg‘ubor” frazemalari asosan badiiy uslubda qo‘llanishi bilan xarakterlanadi.Shuningdek, bu frazemalar mavjud lingvistik lug‘atlarda qayd qilinib izohlanmagan. “Dilida cho‘g‘i bor” iborasi “g‘ayratli”, “shijoatli” kabi ma’nolarni o‘zida jamlaydi:

– Sog‘inamiz.Bolalar-ku ko‘nikib ketishyapti. Ammo biz keksalar... o‘sha ko‘kalamzor qishloqlarimizga achinamiz, uka. Qochib ketganlar ham ko‘p bo‘ldi, nimasini aytasiz! – Qochib ketish mardlik emas. Biroq o‘shalarning ham *dilida cho‘g‘i bor* ekan, bu ahvolga ko‘nikib qo‘ya qolmabdi. (A.Muxtor)

Qalbida hech qanday yomon niyati yo‘q, samimiy, g‘uborsiz, pokiza qalb egalariga nisbatan “dili beg‘ubor” frazemasi qo‘llaniladi.Kitobiy-poetik uslubga xoslangan bu ibora semasida ijobiylik ottenkasi mavjud:

Birinchi sentabr, birinchi nahor,
Birinchi qo‘ng‘iroq, birinchi ta’lim.
Osmoning beg‘ubor, *diling beg‘ubor,*
Baxtli kun dunyoga kelgan asalim. (Erkin Vohidov)

Ushbu she’riy parchada bu ibora maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘yayotgan bolakayga nisbatan mehr va erkalash hissini uyg‘otish uchun qo‘llanilgani kuzatiladi. Bu yerda “dili beg‘ubor”lik – bola ichki dunyosidagi poklik, bolalik ma’sumligi, hayotning murakkabliklari va salbiy illatlaridan hali uzoq ekanligi anglashiladi.

Psixologik holat va ichki kechinma bildiruvchi frazemalar: dilga solmoq, dilga tugmoq, dilidan o‘tkazmoq, diliga joylamoq, dili sezdi.

Xalqimiz o‘rtasida biron bir narsa (ko‘pincha ro‘mol(cha) ni tugun qilib bog‘lash orqali “esdan chiqarmaslik” odati mavjud. Harakatning obrazli ifodasi bo‘lib kelgan “dil(i) ga tugmoq” frazemasi ham, nazarimizda, ana shu odat

bilan bevosita bog‘lanadi. Metafora usulida ma’nosi ko‘chgan, badiiy bo‘yoqdor “dil(i)ga tugmoq” frazemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ko‘ngilda, ichda, yurakda saqlamoq, ichga solmoq” [5:851] ma’nosida izohlanadi, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da “o‘rni kelganda aytishni mo‘ljallab qo‘ymoq” [4:293] deb ta’riflanadi: Teshaboy aka Fotimani unga o‘xshatgan edi. O‘qitib, oliy ma’lumotli qilib, o‘zining eng zarur odamiga aylantirishni, uni birinchi ko‘rganidayoq *diliga tugib qo‘ygan edi.* (O‘.Umarbekov) Keltirilgan misolda “diliga tugmoq” iborasi shaxsning ichki niyatini ifodalashga xizmat qilgan. Bu frazema “shaxsiy fikr, maqsad yoki qarorni qalbida saqlab, ich-ichida qat’iy belgilab olish” ma’nosini ifodalashga bo‘ysundirilgan.

Predikativ sintagmaga teng tuzilishli “dili sezdi” frazemasi biror voqea yoki holatni oldindan ichki sezgi bilan his qilish, yuragi bilan anglash ma’nosini bildiradi. Bunda insonning ichki sezgiga tayanishi, ichki sezgi (instinkt) orqali kutilayotgan voqeadan xabardor bo‘lish ma’nosi nazarda tutiladi:

– *Dilim sezgan edi!* Ko‘rishmasligimiz kerak edi bugun... Kunim bitganini sezib turibman.

– Nafasni sovuq qilmang.

– Sizni kelmang deganimda jon bor. Avval eshiting, Sobirjon. (O‘.Umarbekov*)*

Berilgan parchada “dili sezdi” iborasi suhbatdoshining e’tiborini o‘ziga qaratish va uni kutilayotgan xavfdan ogohlantirish uchun qo‘llangani anglashiladi.

Samimiylik va ichki ruhiy holatni ifodalovchi frazemalar: jon-dil, jon-u dil, jon-dili bilan, jon-dildan.

“Jon-dil[i] bilan” iborasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “astoydil, astoydil berilib” [5-II:676] deya izohlanadi: Endi Zamiraning ranjitganidan qat’i nazar, Ochil uni bir ko‘rishni istaydi. *Jon-dili bilan istaydi.* Agar Zamira ham to‘rtliklarni kim yozganini bilgan bo‘lsa, agar odamlar maqtayotganini eshitgan bo‘lsa, yuzidan, ko‘z qarashidan sezadi. (P.Qodirov) Keltirilgan misoldagi iboraning semantik strukturasida shaxsning ichki kechinmalari va kuchli ichki istak, kuchli xohish semalari mavjud. Frazema tarkibida “jon” va “dil” komponentlarining juftlanib qo‘llanilishi, har ikkala gapda “istaydi” fe’l leksemasining takrori shunchaki xohishni emas, balki ortiq darajada xohlamoq, butun borlig‘i bilan astoydil intilishni ifodalaydi. Matnda bu ma’noni yanada ta’kidlash maqsadida frazema alohida mustaqil gap shaklida keltirilgan.

“Jon-dil[i] bilan” frazemasining “jon-u dil[i] bilan” varianti ham mavjud. Har ikkala frazema o‘rtasida semantik jihatdan farqlanish mavjud emas: Shuning uchun hozir Zamirani ko‘rishni *jon-u dili bilan* istasa ham, uning oldiga borishi mumkinligini bilsa ham aksini qilardi, muhabbatini irodasiga bo‘ysundirishga urinib, o‘zi bilan o‘zi tinmay olishardi. (P.Qodirov)

“Jon-dildan” frazsemasining “yaxshi ko‘rmoq” iborasi bilan birga qo‘llanilishi biror kishi, narsa yoki hodisani “butun vujudi, qalbi bilan samimiy va chin dildan sevmoq” ma’nosini anglatadi: – Menda savol yo‘q deb o‘ylaysanmi? Lekin bilamanki, agar *jon-dilingdan yaxshi ko‘rgan* bir ishing bo‘lmasa, o‘zingdan, o‘z hayotingdan kattaroq, sening quvonchlaringdan, g‘am-kulfatlaringdan yuksakroq bir niyating bo‘lmasa, yashashingdan ma’no yo‘q. Bunday niyat yo‘lida yengilish ham qat’iyatingni oshiradi, xolos... (A.Muxtor) Keltirilgan parchada ibora orqali insonning chuqur va samimiy mehr-muhabbati ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda “dil” komponentli frazeologizmlar, asosan, badiiy uslubga xoslanishi bilan ajralib turadi.Bu frazemalar badiiy uslubda keng qo‘llanib, shaxsning ichki kechinmalarini, hissiy holatini va ruhiy iztiroblarini obrazli ifodalash imkoniyatini kengaytiruvchi muhim til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, nasr va nazmda bunday birliklar nutqning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshiradi hamda obrazning psixologik holatini, xarakter-xususiyatini ochishda, personaj nutqiy tavsifini berishda muhim rol o‘ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, “dil” komponentli frazeologizmlar o‘zbek tilining nafaqat frazeologik boyligini, balki millatning kognitiv olami, lisoniy manzarasini ko‘rsatuvchi muhim lug‘aviy birlik sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: “Муҳаррир” нашриёти, 2013.300-б.

2.Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. Монография. – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2016.200-б.

3.Karimov S. Nutq madaniyati va mutolaa san’ati. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU. 2020.190-б.

4. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [O‘TFL] 2022. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. 636-bet.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati [O‘TIL]. 6 jildli. Mas’ul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.964-bet.

Parizod KO‘CHIMOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYADA AKSIOLOGIK KONSEPTOSFERANING LINGVISTIK EVOLYUTSIYASI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida aksiologik konseptosferaning shakllanishi, o‘zgarishi va rivojlanish istiqbollarini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Globalizatsiya sharoitida turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot jarayonida qadriyatlar, konseptlar va ularni ifodalovchi til birliklarining dinamik evolyutsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda konseptosferaning milliy-ma’naviy xususiyatlari, ularning turli madaniyatlararo kontekstlarda qayta talqin qilinishi hamda semantik-pragmatik transformatsiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *qadriyat, konsept, uslubiy apparat, konsept tahlil, nominativ maydon, madaniyatlararo kommunikatsiya, aksiologiya, konseptosfera, qadriyatlar tizimi, kognitiv lingvistika, madaniy konseptlar.*

Аннотация: в статье анализируются формирование, изменение и перспективы развития аксиологической концептосферы в процессе межкультурной коммуникации с лингвистических позиций. В условиях глобализации динамическая эволюция ценностей, концептов и языковых единиц, их выражающих, в процессе общения представителей разных культур приобретает большое значение. В исследовании анализируются национально-духовные особенности концептосферы, их переосмысление в различных межкультурных контекстах и семантико-прагматическая трансформация.

Ключевые слова: *ценность, концепт, методологический аппарат, концептный анализ, номинативное поле. Межкультурная коммуникация, аксиология, концептосфера, система ценностей, когнитивная лингвистика, культурные концепты.*

Annotation: this article analyzes the formation, change and development prospects of the axiological conceptosphere in the process of intercultural communication from a linguistic point of view. In the context of globalization, the dynamic evolution of values, concepts and the language units that express them in the process of communication between representatives of different cultures is of great importance. The study analyzes the national-spiritual characteristics of the conceptosphere, their reinterpretation in various intercultural contexts, and their semantic-pragmatic transformation.

Key words: *value, concept, methodological apparatus, concept analysis, nominative field. intercultural communication, axiology, conceptosphere, value system, cognitive linguistics, cultural concepts.*

Til va madaniyatning ko‘plab shakllarida (masalan, til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda tilning dunyoqarash bilan aloqasi) o‘zaro ta’siri haqidagi muammo qadim zamonlardan to hozirgi kungacha turli fanlar tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lgan. Til va madaniyatning o‘zaro ta’siri falsafa, antropologiya, psixologiya, kulturologiya hamda tilshunoslikning ko‘plab sohalari (shu jumladan, psixolingvistika, neyrolingvistika, germenevtika, etnolingvistika, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik) prizmasi orqali tahlil qilinadi. Ushbu o‘zaro ta’sirni o‘rganishda ko‘plab sohalarning ishtiroki ushbu mavzuning muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu masalaning o‘ziga xos qiyinchiliklari, ayniqsa o‘rganish oson bo‘lmagan kognitiv tuzilmalarni tahlil qilishda ko‘rinadi.

Tilshunoslikning hozirgi holati insonning kognitiv jarayonlari, kundalik intuitiv bilimlari va odamlarning til hamda madaniyatga bo‘lgan nuqtayi nazari bilan bog‘liq masalalarga tobora ortib borayotgan qiziqishni aks ettiradi. Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik konseptualizatsiya va turli xil tasvirlash usullari orqali kognitiv asosga ega. Bu o‘zaro ta’sir, umuman, inson idrokini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv tilshunoslikka bag‘ishlangan keyingi nashrlarda E.Pederson va J.Nyutslar tilshunoslarni konseptualizatsiya hamda verbal nutq o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq o‘rganishga chaqirib, uning idrok va konseptualizatsiyani tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatini ta’kidladilar [1]. Bu shuni ko‘rsatadiki, til va madaniyatning o‘zaro ta’sirining kognitiv jihatlari ham mahalliy, ham xalqaro tilshunoslikka tegishli masalalardandir.

Ma’lumki, til va madaniyatlarning taqqoslanishi ularning o‘ziga xosligini aniqroq ta’kidlaydi [2]. Konseptosferani tashkil etish va uning rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash nazariy hamda tipologik asosga tayanadi. Ushbu yondashuv o‘rganilayotgan voqelikning murakkab tuzilishini aks ettiruvchi ko‘p qirrali modellarni yaratishga imkon beradi. Bu modellar ko‘p o‘lchovli xususiyatlarni ham geometrik nuqtayi nazardan, ham ma’no jihatidan tahlil qiladi. Bunda geometrik tushuncha semantik makonni tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [3].

Rossiyalik olim D.S.Lixachev ta’rifiga ko‘ra, “tilning konseptosferasi xalqning butun madaniyatining timsoli”dir [4]. Bu ta’rif konseptosferaning madaniy identifikatsiya funksiyasini ko‘rsatadi. Tilshunoslik konseptologiyasining asosiy maqsadi – konseptosferani milliy intellektual boylikning katalogi sifatida ko‘rib chiqish va konseptlar tipologiyasini yaratishdir.

Kognitiv tipologiya til belgisining uchta semantik o‘lchovini ajratadi: denotativ, signifikativ va emotiv o‘lchovlar. Bu tipologiya konseptlarning idrok-kognitiv-affektiv tabiatini hisobga oladi [5]. Hissiy tasvirlarga asoslangan denotativ ma’nolar va konseptlar moddiy dunyoning aniq, “ko‘rinadigan” hodisalarini aks ettirishga qaratilgan; signifikativ ma’nolar mavhum fikrlash haqiqatlarini aks ettiruvchi semantik tasvirlarga asoslangan; konnotativ ma’nolar ular keltirib chiqaradigan baholash hukmlari, his-tuyg‘ular va modal-ixtiyoriy reaksiyalar bilan bog‘liq.

Aksiologik va motivatsion tipologiyalar mos ravishda lingvokulturologiyaning falsafa (xususan, falsafiy aksiologiya) va psixologiya (motivatsiya nazariyasi) bilan tutashgan joyida paydo bo‘ladi.

I.Kantning fikriga ko‘ra uchta “idrokning tarkibiy qismlari” bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarning asosiy uchligi uchta asosiy insoniy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Kognitiv soha (haqiqat/yolg‘on).
2. Axloqiy soha (yaxshi/yomon).
3. Estetik soha (go‘zal/xunuk) [6].

Zamonaviy aksiologik tadqiqotlarda bu tasnif kengaytirilgan va ijtimoiy, diniy qadriyatlar ham qo‘shilgan. Jumladan [7]:

1. Vital qadriyatlar (hayot, salomatlik, xavfsizlik).
2. Ijtimoiy qadriyatlar (oila, do‘stlik, hurmat).
3. Siyosiy qadriyatlar (erkinlik, adolat, demokratiya).
4. Axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, halollik, rahm-shafqat).
5. Diniy qadriyatlar (iymon, ma’naviyat, muqaddaslik).
6. Estetik qadriyatlar (go‘zallik, garmoniya, san’at).

Zamonaviy dunyoda aksiologik konseptlar nafaqat bir madaniyat doirasida rivojlanib qolmaydi, balki turli xil madaniy kontekstlarda o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon globallashuv sharoitida ayniqsa jadallashib, milliy qadriyat tizimlarining gibridlashuviga olib kelmoqda. Masalan, “erkinlik”, “adolat”, “baxt” kabi universal qadriyat konseptlari har bir madaniyatda o‘ziga xos rang-barang kasb etadi, lekin ayni paytda umumiy insoniy qiymatlarni ham aks ettiradi. Bu holat aksiologik konseptosferaning dinamik xususiyatini ko‘rsatadi va uning doimiy rivojlanish holatida ekanligini tasdiqlaydi.

Madaniy aloqada konseptual metaforalar muhim rol o‘ynaydi. Dj.Lakoff va M.Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi bo‘yicha, qadriyat konseptlari ko‘pincha metaforik tarzda ifodalanadi va bir madaniyatdan ikkinchisiga o‘tkaziladi [8].

Konseptual metaforalar orqali qadriyatlarning uzatilishi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Har bir madaniyat o‘zining metaforik tizimiga ega bo‘lib, qadriyat konseptlarini ifoda etishda o‘ziga xos usullardan foydalanadi. Masalan, Sharq madaniyatlarida “do‘stlik” konsepti ko‘pincha “daraxt” yoki “bino” metaforalari orqali ifodalanadi, bu esa mustahkamlik va barqarorlik g‘oyalarini anglatadi. G‘arb madaniyatida esa bu konsept ko‘proq “shartnoma” yoki “investitsiya” metaforalari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zaro manfaat va natija olish g‘oyalarini aks ettiradi. Bunday farqlar madaniyatlararo muloqotda noto‘g‘ri tushunishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda aksiologik konseptlarning tadqiqiga keng e’tibor berilmoqda. Aksiologik konseptlar strukturasi bir necha qatlamdan iborat murakkab tuzilmalarga ega. Eng yuqori qatlamda konseptning yadro qismi joylashib, u eng asosiy va barqaror ma’nolarni o‘z ichiga oladi. O‘rta qatlamda konseptning faol bo‘lgan komponentlari mavjud bo‘lib, ular kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin. Eng pastki qatlamda esa konseptning passiv komponentlari joylashib, ular faqat maxsus sharoitlarda faollashadi. Bunday qatlamli tuzilma aksiologik konseptlarning dinamik xususiyatini tushuntiradi va ularning turli madaniy kontekstlarda qanday o‘zgarishga uchrashini ko‘rsatadi.

Aksiologik konseptlarning psixolingvistik tadqiqotlari bu sohaning istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Assotsiativ eksperimentlar orqali turli madaniyat vakillari ongida qadriyat konseptlarining strukturasi va mazmuni tahlil qilinyapti. Bu tadqiqotlar etnik guruhlar o‘rtasidagi muloqotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yordam beradi. Psixolingvistik yondashuv qadriyat konseptlarining individual va ijtimoiy ongdagi funksiyalarini tushunishga imkon beradi.

Qadriyat konseptlari individual ongda turli xil assotsiativ maydonlar hosil qiladi. Bu maydonlar madaniy tajriba, shaxsiy hayot tarixi va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Masalan, “oila” konsepti o‘zbek madaniyatida “issiqlik”, “birlik”, “himoya” kabi ijobiy assotsiatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa madaniyatlarda bu konsept “majburiyat”, “cheklash” yoki “bog‘liqlik” kabi assotsiatsiyalar uyg‘otishi mumkin. Bu farqlar madaniyatlararo muloqotda e’tiborga olinishi zarur.

T.A. van Dijk [9] tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv-diskursiv tahlili sohasida aksiologik komponent chuqur o‘rganilmoqda. O‘zbek diskurs tadqiqotlarida ham bu yo‘nalish rivojlanmoqda. Turli xil diskurs turlarida (siyosiy, diniy, badiiy, ilmiy) qadriyat konseptlarining namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinmoqda. Diskurs tahlili yordamida qadriyat konseptlarining ijtimoiy-madaniy kontekstdagi rol va funksiyalarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Diskurs darajasida qadriyat konseptlari turli xil til vositalari orqali ifodalanadi. Leksik darajada maxsus so‘z va iboralar, sintaktik darajada ma’lum konstruksiyalar, stilistik darajada esa turli xil badiiy vositalar qadriyat konseptlarini anglatish uchun ishlatiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “mehmon” konsepti diskursda nafaqat “mehmon” so‘zi orqali, balki “aziz”, “hurmatli”, “qadrdon” kabi sifatlar, “mehmondorchilik qilish”, “dasturxon yozish” kabi birliklar orqali ham ifodalanadi.

Aksiologik konseptosferaning rivojlanishiga ijtimoiy-madaniy omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Oldingi fasldlarda ta’kidlab o‘tilganidek, globallashuv jarayonida qadriyat tizimlarining o‘zaro ta’siri kuchayib, yangi gibrid shakllar paydo bo‘lmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlarning saqlanishi va yangi qadriyatlarning qabul qilinishi o‘rtasida muvozanat topish muhim masala hisoblanadi. Yoshlar orasida qadriyat birliklarining o‘zgarishi ayniqsa tez kechmoqda. Bu holat ta’lim va tarbiya jarayonlarida hisobga olinishi zarur bo‘lgan muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy o‘zgarishlar qadriyat konseptlarining semantik strukturasiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, yangi ma’no komponentlarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida qadriyat konseptlarining iyerarxiyasi ham o‘zgaradi. Ba’zi konseptlar o‘z ahamiyatini yo‘qotib, boshqalari esa yanada muhim bo‘lib qoladi. Masalan, zamonaviy jamiyatda “individual muvaffaqiyat” konsepti “jamoaviy manfaat” konseptidan ustun bo‘lib qolmoqda. Bu o‘zgarish madaniyatlararo muloqot strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shuningdek, “ekologik ong”, “ijtimoiy javobgarlik” kabi yangi qadriyat konseptlari paydo bo‘lib, ular an’anaviy qadriyat tizimi bilan integratsiya jarayonidadir.

Lingvokulturologiya sohasi aksiologik konseptosferaning rivojlanishini o‘rganishda asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Lingvokulturologik paradigmada qadriyat konseptlari madaniyat va tilning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatuvchi asosiy elementlar sifatida qaraladi. Milliy qadriyat konseptlarining zamonaviy sharoitdagi o‘zgarishlari va rivojlanish tendensiyalari o‘rganilmoqda. Lingvokulturologik yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishda yangi imkoniyatlar ochadi.

Qadriyat konseptlari til tizimining barcha darajalarida o‘z aksini topadi. Fonema darajasida ba’zi tovushlar ma’lum qadriyat ma’nolarini anglatishi mumkin (masalan, o‘zbek tilidagi “o” tovushi ko‘pincha ijobiy emotsiyalar bilan bog‘liq). Morfema darajasida ma’lum qo‘shimchalar qadriyat ma’nolarini ifodalaydi (masalan, “-jon” qo‘shimchasi mehribonlik va yaqinlik ma’nosini bildiradi). Leksik darajada qadriyat konseptlarini ifodalovchi so‘zlar katta guruh tashkil etadi. Sintaktik darajada esa ma’lum konstruksiyalar qadriyat munosabatlarini anglatish uchun ishlatiladi.

Aksiologik konseptosferaning tadqiqotlari bir qator amaliy sohalarda qo‘llanilishi mumkin. Tarjimonlik faoliyatida qadriyat konseptlarining to‘g‘ri uzatilishi muhim masala hisoblanadi. Diplomatiyada madaniyatlararo muzokaralarda qadriyat tizimlarini hisobga olish zarur. Diplomatik muloqotda qadriyat konseptlarining noto‘g‘ri tushunilishi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Har bir madaniyatning o‘ziga xos diplomatik protokoli va muloqot uslubi mavjud. “Hurmat”, “martaba”, “sharaf” kabi konseptlar turli madaniyatlarda turlicha tushuniladi va ifodalanadi. Diplomatlar bu farqlarni yaxshi bilishi va o‘z nutq hamda xatti-harakatlarida ularni hisobga olishi kerak. Shuningdek, diplomatik hujjatlarni tayyorlashda ham qadriyat konseptlarining milliy xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Tarjimonlik sohasida qadriyat konseptlarining muammosi ayniqsa murakkab. Tarjimon nafaqat tilni, balki madaniyatni ham tarjima qilishi kerak. Ba’zi qadriyat konseptlari bir tildan ikkinchisiga to‘liq tarjima qilinmaydi, chunki ular mahalliy madaniy kontekstga juda chuqur bog‘liq. Bunday hollarda tarjimon qo‘shimcha tushuntirish berishi yoki ekvivalent izohni topishi kerak. Masalan, o‘zbek tilidagi “hashar” konseptini boshqa tillarga tarjima qilishda uning nafaqat lug‘aviy ma’nosini, balki madaniy kontekstini ham uzatish zarur.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida aksiologik konseptosferaning rivojlanish istiqbollari kengdir. Bu soha nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham juda muhim bo‘lib, zamonaviy globallashuv sharoitida turli madaniyat vakillari o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar millatlararo muloqot nazariyasi va amaliyotini yanada rivojlantirishga, shuningdek, global dunyoda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Aksiologik konseptosferaning chuqur o‘rganilishi orqali biz turli madaniyatlarning boy qadriyat dunyosini yaxshiroq tushunish va ularning o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradigan universal qadriyatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pederson Eric, Nuyts Jan. Overview: On the Relationship between Language and Conceptualization. // Language and Conceptualization. Cambridge: Cambridge University Press, 1997. pp. 1-12.

2. Jackendoff R. Patterns in the Mind: Language and Human Nature. – New York: BasicBooks, 1994. – 246 p.

3. Кушнир О.Н. Эволюция русской концептосферы на рубеже XX–XXI веков: вопросы динамической лингвоконцептологии: Автореф.дисс.на соиск.учен.степ.докт.филол.наук. – Тверь, 2013. – 45 с.

4. Лихачев Д.С. Русская культура. – М.: «Искусство», 2000. – 436 с.

5. Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 134-137.

6. Кант И. Наблюдения над чувством прекрасного и возвышенного. 1764 // Кант И. Соч.: в 6 т. – М., 1964. Т. 2. С. 127-224.

7. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании. – Краснодар: Техн. ун-т КубГТУ, 2002. – С. 45-67.

8. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

9. Dijk T.A. van. Discourse and Knowledge. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 407 p. – P. 89-134.

10. Ko‘chimova P., Badiiy tarjimada jinsni tavsiflashda o‘xshatish so‘zlarining o‘rni va ko‘rinishi. – Innovative, educational, natural and social sciences, 2023. 201-206-betlar.

Gulzeynet AYNAXODJAYEVA,
Qo‘qon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
akademik A. Quatbekov nomidagi Xalqlar do‘stligi
universiteti katta o‘qituvchisi

XALQARO MUNOSABATLAR SOHASI TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola xalqaro munosabatlar olamining “parda orti” va uning lisoniy arxitekturasini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Muallif diplomatik terminologiyani shunchaki quruq so‘zlar yig‘indisi emas, balki davlatlararo muloqotning “jonli asabi”, tinchlik va urush chegarasini belgilovchi qudratli lisoniy qurol sifatida talqin etadi. Tadqiqotda lotincha iboralarning klassik vakolatidan tortib, zamonaviy “yumshoq kuch” va “gibrid urush” kabi neologizmlarning shiddatli oqimigacha bo‘lgan masofali yo‘l yoritilgan. Maqola publitsistik o‘tkirlik bilan xalqaro maydondagi har bir so‘z — bu shunchaki axborot emas, balki dunyo geosiyosiy xaritasini chizuvchi strategik marker ekanligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: *diplomatiya tili, xalqaro munosabatlar, lisoniy strategiya, siyosiy diskurs, terminologik transformatsiya, yumshoq kuch, geosiyosiy marker.*

Аннотация: эта статья посвящена анализу «закулисья» международных отношений и их лингвистической архитектуры. Автор интерпретирует дипломатическую терминологию не просто как набор сухих терминов, а как «живой нерв» межгосударственного диалога, как мощное лингвистическое оружие, определяющее границы между миром и войной. В исследовании прослежен путь от классического авторитета латинских выражений до стремительного потока современных неологизмов, таких как «мягкая сила» и «гибридная война». С публицистической остротой статья доказывает, что каждое слово на международной арене — это не просто информация, а стратегический маркер, рисующий геополитическую карту мира.

Ключевые слова: язык дипломатии, международные отношения, лингвистическая стратегия, политический дискурс, терминологическая трансформация, мягкая сила, геополитический маркер.

Annotation: this article is dedicated to analyzing the “behind the scenes” of international relations and its linguistic architecture. The author interprets diplomatic terminology not merely as a collection of dry terms but as the “living nerve” of interstate dialogue, a powerful linguistic tool that defines the boundaries between peace and war. The research traces the journey from the classical authority of Latin expressions to the rapid influx of modern neologisms such as “soft power” and “hybrid warfare.” With journalistic sharpness, the article proves that every word on the international stage is not just information but a strategic marker shaping the world’s geopolitical map.

Key words: *language of diplomacy, international relations, linguistic strategy, political discourse, terminological transformation, soft power, geopolitical marker*.

Kirish. Insoniyat tarixi — bu nafaqat urushlar va bitimlar solnomasi, balki so‘zning qudrati va lisoniy tafakkurning evolyutsiyasidir. Xalqaro munosabatlar maydoni esa bu evolyutsiyaning eng yuksak va eng nozik nuqtasi hisoblanadi. Dunyo geosiyosiy xaritasida har bir davlat o‘z o‘rnini qidirar ekan, bu jarayonda qurol-yarog‘dan ko‘ra ko‘proq so‘z, ya’ni diplomatik terminologiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Bugungi globallashuv shiddati va “axborot to‘foni” davrida xalqaro munosabatlar terminologiyasi shunchaki quruq so‘zlar yig‘indisi emas, balki davlatlararo muloqotning “jonli asabi”, milliy xavfsizlikning lisoniy qalqoni va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ko‘prikdir.

Diplomatiya tili asrlar davomida shakllangan murakkab va nafis arxitekturaga o‘xshaydi. Uning har bir g‘ishti, ya’ni har bir termini o‘ziga xos tarixiy yukka va siyosiy vaznga ega. Antik davrning bitimlaridan tortib, Vestfal tinchlik shartnomasigacha, Versal tizimidan BMT nizomigacha bo‘lgan masofada terminologik apparat takomillashib, lisoniy strategiyaning o‘zagiga aylandi. Mashhur olim **Jonsun Kristofer** ta’kidlaganidek, *“Diplomatiya bu tilni shunday ishlatish san’atiki, unda hatto jimjitlik ham ma’no kasb etadi va har bir termin ortida davlatning butun bir strategiyasi yashiringan bo‘ladi”*. Darhaqiqat, agar xalqaro munosabatlarni ulkan bir orkestrga o‘xshatadigan bo‘lsak, terminologiya bu orkestrning notalaridir; birgina noto‘g‘ri qo‘llanilgan nota, ya’ni noaniq yoki noto‘g‘ri talqin qilingan termin — butun dunyo muvozanatini buzib yuborishi mumkin.

Xalqaro munosabatlar terminologiyasining lisoniy tabiati sotsiolingvistik nuqtayi nazardan juda qiziq hodisadir. U o‘z ichiga lotin tilining klassik vakolatini (masalan, **Status-quo**, **Casus belli**), fransuz tilining aristokratik nafosatini (**Rapprochement**, **Attaché**) va bugungi kunda ingliz tilining pragmatik gegemonligini (**Soft power**, **Summit**) qamrab olgan. **Google Scholar** ma’lumotlariga ko‘ra, zamonaviy diplomatik diskursda terminlarning 80 foizdan ortig‘i ingliz tilidan kirib kelayotgan neologizmlardir. Amerikalik siyosatshunos olim **Jozef Nay** o‘zining fundamental tadqiqotlarida *“Yumshoq kuch (Soft Power) — bu shunchaki joziba emas, balki boshqalarni majburlashsiz, o‘z madaniyati va qadriyatlari orqali yo‘naltirish imkonini beruvchi lisoniy va mafkuraviy instrumentdir”* degan fikrni ilgari suradi. Bu tushuncha bugun shunchaki akademik termin emas, balki dunyoning eng qudratli davlatlari o‘z strategiyalarini belgilovchi asosiy markerga aylandi.

Asosiy qism. Nega biz terminologiyani “jonli asab” deb ataymiz? Chunki xalqaro maydondagi har bir so‘z — bu shunchaki axborot emas, balki dunyo geosiyosiy xaritasini chizuvchi, chegara chiziqlarini belgilovchi yoki ularni o‘chirib yuboruvchi strategik quroldir. **“Sovereignty” (Suverenitet)** termini klassik talqinda davlatning mutloq daxlsizligini anglatgan bo‘lsa, bugungi “inson huquqlari” va “gumanitar intervensiya” davrida ushbu terminning mazmuni o‘zgarib, lisoniy transformatsiyaga uchramoqda. **ResearchBib** va boshqa nufuzli ilmiy platformalardagi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, terminologik noaniqlik ko‘pincha xalqaro huquqiy hujjatlarning turlicha talqin qilinishiga va pirovardida geosiyosiy ziddiyatlarga olib keladi. Professor **Djoffri Berridj** o‘zining diplomatik lug‘atlarida *“Har bir diplomatik termin bu muzokaralar stolida yutilgan yoki yutqazilgan pozitsiyalarning lisoniy muhridir”* degan xulosaga keladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — xalqaro munosabatlar terminologiyasini shunchaki lug‘aviy birlik sifatida emas, balki murakkab sotsiomadaniy va siyosiy fenomen sifatida tahlil qilishdir. Biz diplomatik so‘zlarning parda ortidagi ma’nolarini, ularning qanday qilib urush va tinchlik o‘rtasidagi nozik chiziqni ushlab turishini hamda raqamli diplomatiya asrida qanday yangi lisoniy qatlamlar vujudga kelayotganini ko‘rib chiqamiz. Maqola publitsistik o‘tkirlik bilan xalqaro maydondagi terminlarning semantik ko‘lamini o‘rganish orqali, zamonaviy tilshunoslik va siyosatshunoslikning o‘zaro kesishish nuqtalarini yoritib beradi. Zero, taniqli diplomat **Dag Xammarsheld** aytganidek, *“Siyosatda so‘zlar shunchaki vosita emas, balki ular voqelikni yaratuvchi yoki uni yo‘q qiluvchi kuchdir”*. Diplomatik stol atrofida aytilgan har bir so‘zning ortida xalqlar taqdiri, millatlar kelajagi va insoniyat tinchligi yashiringan.

Xalqaro munosabatlar terminologiyasi — bu shunchaki siyosiy lug‘at boyligi emas, balki asrlar davomida davlatlararo muloqot chig‘irig‘idan o‘tgan, har bir so‘zi diplomatik “kod” vazifasini o‘taydigan murakkab lisoniy arxitekturadir. Ushbu sohada terminlar shunchaki axborot tashuvchi vosita bo‘lib qolmay, balki muayyan geosiyosiy manfaatlar va huquqiy normalarning tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Professor **L. S. Arjantseva** ta’kidlaganidek: *“Diplomatik terminologiya — bu sotsiolingvistik kooperatsiya mahsuli bo‘lib, unda har bir til o‘zining eng aniq va semantik jihatdan boy birliklarini qoldirgan”*.

Diplomatik muloqotning tarixiy qatlamlariga nazar tashlasak, lotin va fransuz tillarining o‘chmas izini ko‘ramiz. Lotin tili xalqaro huquqiy hujjatlarga semantik mustahkamlik va qat’iyat bag‘ishlagan bo‘lsa, fransuz tili XVIII asrdan boshlab diplomatiyaning “nafis filtri” vazifasini o‘tadi. Bugungi kunda ham **Persona non grata** yoki **Rapprochement** kabi terminlar qo‘llanilganda, ularning ortida shunchaki lug‘aviy ma’no emas, balki ulkan tarixiy tajriba va huquqiy oqibatlar yotadi.

1-jadval. Xalqaro munosabatlarda klassik lisoniy qatlamlar va ularning diplomatik vazni

Termin	Manba til	Diplomatik kontekstda qo‘llanilishi va ahamiyati
Persona non grata	Lotin	Davlat vakilini mamlakatdan rasman chiqarib yuborishning eng oliy diplomatik chorasi.
Casus belli	Lotin	Harbiy harakatlarni qonuniy (yoki rasmiy) boshlash uchun asos bo‘ladigan jiddiy sabab.
Attaché	Fransuz	Diplomatik missiya tarkibidagi muayyan soha (harbiy, matbuot) bo‘yicha mas’ul mutaxassis.
Rapprochement	Fransuz	Davlatlar o‘rtasidagi uzoq davom etgan sovuqchilikdan so‘ng iliqlik va yaqinlashuv jarayoni.
Ultimatum	Lotin	Muzokaralarning so‘nggi nuqtasi; bajarilishi shart bo‘lgan qat’iy va muddati belgilangan talab.

Zamonaviy davrga kelib, xalqaro munosabatlar lug‘ati “lisoniy gegemoniya” hodisasiga duch keldi. Endilikda ingliz tili nafaqat muloqot vositasi, balki yangi geosiyosiy realliklarni nomlovchi asosiy manbaga aylandi. Ayniqsa, amerikalik olim **Jozef Nay** tomonidan muomalaga kiritilgan **“Soft Power”** (Yumshoq kuch) tushunchasi zamonaviy diplomatiyaning mohiyatini butunlay o‘zgartirib yubordi. Uning fikricha: *“Yumshoq kuch — bu shunchaki joziba emas, balki boshqalarni majburlashsiz, o‘z madaniyati va qadriyatlari orqali yo‘naltirish imkonini beruvchi lisoniy va mafkuraviy instrumentdir”*. Ushbu termin ortidan kiber-diplomatiya, gibrid urushlar va “track II” kabi yangi tushunchalar qatori shakllandi.

2-jadval. Globallashuv davri: Yangi geosiyosiy neologizmlar va transformatsiyalar

Yangi termin	O‘zbekcha muqobili	Siyosiy-lisoniy tavsifi
Hybrid Warfare	*Gibrid urush*	Klassik jang bilan birga axborot, kiber va iqtisodiy hujumlar uyg‘unligi.
Cyber Diplomacy	*Kiber-diplomatiya*	Raqamli makonda milliy manfaatlarni himoya qilish va tartibga solish san’ati.
Track II Diplomacy	*Ikkinchi yo‘nalish*	Rasmiy doiralardan tashqaridagi (olimlar, faollar) norasmiy muloqot platformasi.
Status-quo	*Mavjud holat*	Siyosiy yoki hududiy nizolarda hozirgi vaziyatni o‘zgarishsiz saqlash tamoyili.

Lekin terminologiyaning eng qiziqarli va xavfli jihati uning “sementik o‘zgaruvchanligi”dadir. Akademik **A. Nurmonov** o‘rinli ta’kidlaganidek: *“Har qanday termin o‘zi mansub bo‘lgan davrning ijtimoiy-siyosiy ruhini tashiydi”*. Masalan, bugun **“Suverenitet”** yoki **“Demokratiya”** so‘zlari turli geosiyosiy qutblarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Professor **N. Mahmudov** ta’biri bilan aytganda, xalqaro terminlarning milliy tilda o‘z muqobiliga ega bo‘lishi milliy diplomatiyaning mustaqillik darajasini ko‘rsatadi.

Xalqaro maydondagi terminlar nafaqat muloqotni tartibga soladi, balki ba’zan manipulyatsiya quroliga ham aylanadi. Siyosatshunoslar buni “lisoniy niqoblash” deb atashadi; masalan, agressiv harakatlar o‘rniga “tinchlikka majburlash” yoki “gumanitar yordam” kabi silliq terminlar qo‘llanilishi orqali xalqaro jamoatchilik fikri boshqariladi. Professor **I. Qo‘chqortoyev** fikricha: *“Terminlar — bu shunchaki so‘z emas, balki diplomatik “kod”lar bo‘lib, ularning noto‘g‘ri ochilishi xalqaro miqyosdagi tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin”*.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xalqaro munosabatlar terminologiyasi tirik va dinamik organizmdir. U nafaqat o‘zgarayotgan dunyo tartibotini aks ettiradi, balki o‘zining sementik qudrati bilan ushbu tartibotni shakllantiradi ham. Har bir diplomatik stol atrofida aytilgan so‘z ortida xalqlar taqdiri yotganini inobatga olsak, terminologiyaning aniqligi tinchlikning eng birinchi kafolati ekanligi ayon bo‘ladi.

Xulosa. Xalqaro munosabatlar terminologiyasini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, bu tizim shunchaki so‘zlar majmuasi emas, balki global tinchlik va xavfsizlikni belgilovchi strategik lisoniy quroldir. Lotin va fransuz tillarining klassik merosidan boshlangan diplomatik muloqot bugungi kunda ingliz tilining pragmatik gegemonligi ostida yangi neologizmlar bilan boyimoqda. **Jozef Nay** kabi olimlar ilgari surgan **“Soft Power”** (Yumshoq kuch) kabi terminlar bugungi kunda lisoniy birlikdan ko‘ra ko‘proq mafkuraviy va geosiyosiy markerga aylandi. Akademik **A. Nurmonov** ta’kidlaganidek, har bir termin muayyan davrning siyosiy ruhini tashiydi. Shu sababli, diplomatik terminlarning sementik aniqligi va ularning to‘g‘ri talqin qilinishi davlatlararo tushunmovchiliklarning oldini olishda hamda barqaror dunyo tartibotini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nye, J. S. (2004). *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. PublicAffairs (Google Scholar).
2.Berridge, G. R., & Lloyd, L. (2012). *The Palgrave Macmillan Dictionary of Diplomacy*. Palgrave Macmillan.
3.Jönsson, C., & Hall, M. (2005). *Essence of Diplomacy*. Palgrave Macmillan.
4.Nurmonov, A. (2002). *O‘zbek tilshunosligi tarixi*. — Toshkent: O‘zbekiston.
5.Mahmudov, N. (2012). *Til*. — Toshkent: Toshkent islom universiteti.
6.Arjantseva, L. S. (2015). *Diplomatik terminologiyaning sotsiolingvistik tahlili*. (ResearchBib tizimidagi materiallar asosida).
7.Qo‘chortoyev, I. (1992). *Tilshunoslikka kirish*. — Toshkent: O‘qituvchi.
8.International Relations Theory: *Digital Archives and Terminological Bases*. ResearchBib (2023).
9.Veb-manba: Google Scholar ilmiy nashrlar bazasi (Xalqaro munosabatlar bo‘limi).

Shahnoza ISLOMOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

XALQARO TERMINELEMENTLAR BILAN YASALGAN AGRAR SOHA TERMINLARI

Annotatsiya: agrar sohaning ilm-fan yutuqlari bilan integratsiyalashuvi soha terminologiyasi xalqaro terminlar bilan boyib qolmay, shu terminlar asosida o‘zbekcha yasovchilar bilan yangi terminlar yasalishi faollashgan. Turli sohalarda qo‘llanuvchi o‘zlashma terminlar va ular tarkibidagi xalqaro terminelementlar lug‘atlarimizdan mustahkam joy olmoqda. Yunon va lotin tillari elementlaridan tarkib topgan bunday terminlar keyingi davrlarda xalqaro nufuzga ega bo‘lgan ba’zi zamonaviy yevropa tillaridan ham o‘zlashmoqda.

Kalit so‘zlar: *terminelementlar, o‘zlashma so‘zlar, agrar soha, tillari, avia-, avto-, agro-, geo-, gidro-*

Аннотация: интеграция аграрной отрасли с достижениями науки не только обогащает её терминологию международными терминами, но и способствует образованию новых узбекских терминов на основе этих элементов. Заимствованные термины, используемые в различных сферах, а также международные терминоэлементы, входящие в состав этих терминов, прочно закрепляются в словарях. Такие термины, образованные на основе элементов греческого и латинского языков, в последнее время также заимствуются из современных европейских языков, широко используемых в международной практике.

Ключевые слова: *терминоэлементы, заимствованные слова, аграрная отрасль, языки, avia-, auto-, agro-, geo-, hydro-*

Annotation: the integration of the agrarian sector with scientific advancements has not only enriched its terminology with international terms, but has also intensified the creation of new Uzbek terms based on these elements. Borrowed terms used across various fields, along with the international term elements they contain, are becoming firmly established in our dictionaries. Such terms, composed of Greek and Latin elements, are, in recent times, also being borrowed from some modern European languages that have gained international prominence.

Key words: *term elements, borrowed words, agrarian sector, languages, avia-, auto-, agro-, geo-, hydro-*

Kirish.

Turli sohalarda qo‘llanuvchi o‘zlashma terminlar va ular tarkibidagi xalqaro terminelementlar lug‘atlarimizdan mustahkam joy olmoqda. Yunon va lotin tillari elementlaridan tarkib topgan bunday terminlar keyingi davrlarda xalqaro nufuzga ega bo‘lgan ba’zi zamonaviy yevropa tillaridan ham o‘zlashmoqda. Xalqaro terminelementlarning aksariyati fanning rivojlanishi jarayonida ilm ahllari, ayrim olimlar tomonidan qadimiy yunon va lotin tillarining so‘z va elementlarini o‘zaro biriktirish orqali hosil qilingan. Xalqaro miqyosda qo‘llanuvchi ana shunday minglab so‘z va terminlar muayyan til tomonidan o‘zlashtirilar ekan, har doim ham keng ommaga, ba’zan hatto mutaxassislarga ham tushunarli bo‘lavermaydi [1]

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Agrar sohaning ilm-fan yutuqlari bilan integratsiyalashuvi soha terminologiyasi xalqaro terminlar bilan boyib qolmay, shu terminlar asosida o‘zbekcha yasovchilar bilan yangi terminlar yasalishi faollashdi. Shu bilan birga xalqaro terminelementlar o‘zbekcha asoslarga qo‘shilib, yangi tushunchalarni ifodalovchi qishloq xo‘jaligi terminlari yasay boshladi va bu jarayon yanada faollashib borayotganligini soha terminologiyasida kuzatamiz.

Agro [yun. agros – dala; qishloq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, ”agronomiya”, “dehqonchilik” ma’nolarini ifodalaydi. *Agrotexnika. Agrobiologiya.* (QXAIL, 8). *Agronomik* – agronomiyaga oid, agronomiyaga bog‘liq bo‘lgan agronomik tadbirlar. *Agronom* – agronomiya mutaxassisi. Bosh agronom. *...qishloq xo‘jaligi boshqarmasida Barakayev degan agronom bor. Oyoq-qo‘li chaqqon.* (S.Siyoyev, «Otliq ayol».) (QXAIL, 10).

2023-yilda nashr etilgan “Qishloq xo‘jaligiga oid atamalarning izohli lug‘ati” (8-11-bet)da 40 dan ortiq *agro-* xalqaro terminelementi bilan yasalgan terminlarni uchratish mumkin. Masalan, *agrokimyo, agroiqlim, agrotarmoq, agromajmua, agroklaster, agrologistika, agromelioratsiya, agrosanoat, agrochiqindi, agrotexnika* va b.

Muhokama va natijalar.

Xalqaro terminelementlarning asosiy qismi *avto-, agro-, aero-, bio-, makro-, mikro-, ultra-* singari genetik jihatdan mustaqil so‘zlarni qisqartirishdan hosil qilingan termin yasovchilar bo‘lsa, *-log, -logiya, -bus, -fob, -skop, -izm* kabi o‘z semantikasiga ega bo‘lgan

1 Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мираҳмедова З., Саиднўъмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: “Donishmand ziyosi”, 2020. – Б.3.

faol termin yasovchi morfemalardir. Birorta fan sohasi yo‘qki, bunday morfemalar bilan termin yasalmagan bo‘lsin[2]. Jumladan, qishloq xo‘jaligi terminologiyasi ham bundan mustasno emas. Gibrid terminlar qishloq xo‘jaligi terminologiyasi tizimida fan-texnikaning rivojlanishi so‘nggi yilllarda yuzaga chiqqani bilan xarakterlanadi. XX asrning o‘rtalarida o‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti negizida voqelangan gibrid qo‘shma terminlar hozirgi paytda deyarli barcha terminologik sistemalarda, jumladan qishloq xo‘jaligi sohasida ham faolligi bilan ajralib turadi. *Avia-, avto-, agro-, geo-, gidro-, giper-, infra-, mikro-, makro-, moto-, radio-, tele-, ultra-, foto-* va h.k. terminelementlar ishtirokida yasalgan qo‘shma terminlar sanoat, ilm-fan va texnika, harb ishi va boshqa sohalarga doir tushunchalarni ifodalaydi: *aviapurkagich, avtosanoat, avtoyo‘l, agrosanoat, agroqoidalar, geoiqlim, gidromarkaz, gipertovush, infratuzilma, mikrokredit, mikroto‘lqin, makroiqtisodiyot, makromatn, motopoyga, radiourush, radioportlatgich, teleboshqarish, ultratovush, fotohujjat, fotoma’lumot* va h.k. Keltirilgan faktik misollar o‘zbekcha gibrid terminlarning aynan ruscha terminlardan nusxa olish asosida voqelanganidan dalolat bermoqda. Baynalmilal elementlar ishtirokida bunday terminlarni yasash jarayonida gibrib terminning baynalmilal komponenti saqlanib, ikkinchi, ya’ni ruscha komponenti o‘zbekchalashtiriladi[3]. Xalqaro terminelementlar bilan yasalgan qishloq xo‘jaligi terminlariga murojaat qilamiz:

Agrobiznes – bozor iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va uning mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, sotish, saqlash, taqsimlash bilan bog‘liq sohasi. *Agrofirma* – mahsulot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash va sotish, xizmat ko‘rsatish tizimidagi korxonalami yagona boshqaruv asosida birlashtirgan agrosanoat korxonasi (QXAIL, 8).

anti-: antimodda, *antibiotiklar*, *antigenlar* va h.k.;

Antigenlar – organizm uchun yot moddalar, qon, limfa va to‘qimalarda o‘ziga xos globulinlar hosil qiladi.

geo-: geokimyo, geoiqlim va h.k.;

Geo (yun. ge – yer) – o‘zlashma baynalminal so‘zlar tarkibida kelib, Yerga aloqadorlik ma’nosini ifodalaydi, masalan, *geografiya, geologiya*.

Geobotanika (geo. + botanika) – o‘simliklar turkumlarining Yer yuzida muhit bilan bog‘liq holda joylashishini va taqsimlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan. *Geobotanika nomi bilan yuritiluvchi soha yer qa’rining sir-asroridan kishilarni voqif etib turadi.* (Gazetadan). (QXAIL, 137).

gidro-: gidroinshoot, gidroko‘targich, gidrokuchaytirgich, va h.k.;

Gidro **(***yun. hydor* – suv, suyuqlik, namlik) – baynalminal o‘zlashma so‘zlar tarkibida kelib, suvga, suv havzalariga, namlik va vodorodga aloqadorlikni bildiradi, masalan, *gidrologiya, gidrobiologiya, gidridlar*.

Gidroinshoot (gidro.. + inshoot) gidrotexnik inshoot**).** Gigant kanalning murakkab sharoitlarda qurilganligi gidroinshoot quruvchilarining ommaviy qahramonligidan ham dalolat beradi. (Gazetadan).

Gidromexanizatsiya (gidro.. + mexanizatsiya) – Yer qazish va kon ishlarini suv oqimi energiyasi hisobiga bajarish usuli.

giper-: gipertekislik, gipero‘lchov, giperchiziq, giperloyiha va h.k.;

infra-: infratovushlar, infraqizil, infratizim, infratuzilma va h.k.;

Infratuzilma – ishlab chiqarish va tovar muomalasiga xizmat qiluvchi va inson (jamiyat) hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan me’yoriy sharoitni ta’minlashga xizmat qiladigan turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmui. *O‘z navbatida, bankning infratuzilmasi ham jadal rivojlanib bormoqda.* (Gazetadan). Ijtimoiy-maishiy infratuzilma aholiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar - maorif, sog‘liqni saqlash, maishiy xizmat va b. (QXAIL, 161).

Xulosa.

Qishloq xo‘jaligining ilm-fan yutuqlari bilan integratsiyalashuvi soha terminologiyasi xalqaro terminlar bilan boyib qolmay, shu terminlar asosida o‘zbekcha yasovchilar bilan yangi terminlar yasalishi faollashgan. *Avia-, avto-, agro-, geo-, gidro-, giper-, infra-, mikro-, makro-, moto-, radio-, tele-, ultra-, foto-* kabi xalqaro terminelementlar o‘zbekcha asoslarga qo‘shilib, yangi tushunchalarni ifodalovchi qishloq xo‘jaligi terminlari yasay boshlagan va bu jarayon yanada faollashib borayotganligini soha terminologiyasida kuzatamiz: *aviapurkagich, agrosanoat, agroqoidalar, geoiqlim, gidromarkaz, infratuzilma, mikroto‘lqin, makroiqtisodiyot, fotohujjat, fotoma’lumot* va h.k Xalqaro terminelementlar bilan ko‘plab agrar soha terminlari yasalganligini kuzatamiz.

2 Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мираҳмедова З., Саиднўъмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: “Donishmand ziyosi”, 2020. – Б.10.

3 Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 86-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.

2. Дадабоев Ҳ.А. Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси. Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент. 2016. – 108 б.

3. Усмонов О., Дониёров Р. Интернационал сўзлар луғати. – Тошкент: Фан, 1966. – 234 б.

4. Qishloq xo‘jaligiga oid atamalaming izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. 560-b.

Dilrabo SATTAROVA,
Samarqand Davlat Chet tillar instituti assistant o‘qituvchisi
Gmail: sattarovadilrabo25@gmail.com

SIYOSIY LIDERLARNING XALQARO IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TIL VOSITALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada siyosiy liderlarning xalqaro imidjini shakllantirishda til vositalarining o‘rni lingvopragmatik va kritik diskurs tahlili asosida o‘rganildi. Tadqiqotda siyosiy nutqlarda qo‘llaniladigan metafora, ijobiy baholash, framing va evfemistik ifodalar tahlil qilindi. Olingan natijalar ushbu til vositalarining siyosiy imidjni shakllantirish va xalqaro auditoriyaga ta’sir ko‘rsatishda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, imidj, metafora, framing, evfemizm, lingvopragmatika, xalqaro kommunikatsiya, siyosiy lider, ijobiy baholash, diskurs tahlili.*

Annotation: this article examines the role of language tools in shaping the international image of political leaders based on linguistic pragmatics and critical discourse analysis. The study analyzes the use of metaphor, positive evaluation, framing, and euphemistic expressions in political speeches. The results indicate that these linguistic strategies play a crucial role in constructing political image and influencing international audiences effectively.

Key words: *political discourse, image, metaphor, framing, euphemism, linguistic pragmatics, international communication, political leader, positive evaluation, discourse analysis.*

Аннотация: в данной статье исследуется роль языковых средств в формировании международного имиджа политических лидеров на основе лингвопрагматики и критического дискурс-анализа. В работе анализируются метафоры, положительная оценка, фрейминг и эвфемистические выражения в политических речах. Полученные результаты показывают, что данные языковые стратегии играют важную роль в формировании политического имиджа и воздействии на международную аудиторию.

Ключевые слова: политический дискурс, имидж, метафора, фрейминг, *эвфемизм,* лингвопрагматика, *международная коммуникация, политический лидер, положительная оценка, дискурс-анализ*.

Kirish. Zamonaviy global siyosiy maydonda davlat rahbarlari va siyosiy liderlarning xalqaro imidji nafaqat ularning ichki siyosiy faoliyati, balki tashqi kommunikativ strategiyalari orqali ham shakllanadi. Bu jarayonda til vositalari muhim vosita sifatida xizmat qiladi, chunki siyosiy nutq xalqaro jamoatchilik fikrini shakllantirish, diplomatik munosabatlarni mustahkamlash hamda siyosiy legitimlikni kuchaytirishda asosiy kommunikativ instrument hisoblanadi.

So‘nggi yillarda siyosiy lingvistika va diskurs tahlili sohalarida olib borilgan tadqiqotlar tilning siyosiy imidj shakllantirishdagi rolini chuqurroq yoritib bermoqda. Xususan, Chilton siyosiy nutqni “hokimiyatni legitimlashtirish va ijtimoiy ongni boshqarish vositasi” sifatida talqin qiladi[1]. Fairclough esa kritik diskurs tahlili doirasida tilning mafkuraviy yuklanganligini va siyosiy maqsadlar yo‘lida ongli ravishda ishlatilishini ta’kidlaydi[2]. Shuningdek, Wodak siyosiy liderlar nutqida metafora, evfemizm va framing kabi til strategiyalarining xalqaro imidjni shakllantirishdagi ahamiyatini alohida qayd etadi[3].

MDH davlatlari kontekstida ham siyosiy liderlar nutqi va ularning xalqaro imidji o‘rtasidagi bog‘liqlik tobora dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Rossiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston siyosiy kommunikatsiya amaliyotida liderlar nutqi ko‘pincha xalqaro maydonda mamlakat imidjini shakllantirish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, siyosiy liderlar imidjini shakllantirishda qo‘llaniladigan til vositalari tizimli va eksperimental yondashuv asosida yetarlicha o‘rganilmagan.

Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad siyosiy liderlarning xalqaro imidjini shakllantirishda til vositalarining rolini lingvopragmatik va diskursiv jihatdan tahlil qilish hamda ularning kommunikativ strategiyalarini

1 Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London: Routledge, 2004. 240 p.
2 Fairclough N. Language and Power. – 3rd ed. – London:Routledge, 2015.320 p. DOI: https://doi.org/10.4324/9781315838250
3 Wodak R. The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2011. 304 p. DOI: https://doi.org/10.1057/9780230319035

ilmiy asosda yoritishdan iboratdir. Tadqiqot siyosiy nutqlarda qo‘llaniladigan asosiy til strategiyalari – metafora, ijobiy baholash, framing va evfemistik ifodalar orqali lider imidjining qanday shakllanishini aniqlashga qaratilgan.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot siyosiy liderlarning xalqaro imidjini shakllantirishda til vositalarining rolini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, lingvopragmatik va kritik diskurs tahlili yondashuvlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni sifat (qualitative) yondashuviga tayangan holda, qisman miqdoriy elementlar bilan boyitilgan aralash metod (mixed-method) sifatida tashkil etildi.

Tadqiqot materiallari sifatida xalqaro siyosiy maydonda faol bo‘lgan bir qator davlat rahbarlarining rasmiy nutqlari, xalqaro sammitlardagi chiqishlari, BMT (United Nations) minbaridagi bayonotlari hamda media intervyulari tanlab olindi.

Korpus materiallari 2018–2025-yillar oralig‘idagi siyosiy nutqlardan shakllantirildi. Tanlash jarayonida maqsadli tanlov (purposive sampling) usulidan foydalanilib, xalqaro auditoriyaga yo‘naltirilgan va keng rezonansga ega nutqlar asos qilib olindi.

Tahlil jarayonida Norman Fairclough tomonidan ishlab chiqilgan uch bosqichli kritik diskurs tahlili modeli qo‘llanildi: matn tahlili, diskursiv amaliyot tahlili va ijtimoiy amaliyot tahlili[4]. Ushbu model siyosiy nutqlarda til birliklarining qanday ideologik yuklama bilan ishlatilishini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, Teun A. van Dijkning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi ham hisobga olinib, siyosiy liderlar nutqidagi “biz-ular” (in-group/out-group) qarama-qarshiligi tahlil qilindi[5].

4 Fairclough N. Language and Power. – 3rd ed. – London: Routledge, 2015.320 p. DOI: https://doi.org/10.4324/9781315838250

5 van Dijk T. A. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008. 320 p. DOI: https://doi.org/10.1057/9780230584867

Lingvistik tahlil jarayonida metafora, evfemizm, ijobiy baholash birliklari (positive evaluation), framing strategiyalari hamda modallik vositalari alohida kodlash (coding) asosida ajratib olindi. Har bir til vositasining uchrash chastotasi va funksional yuklamasi kontekstual tahlil orqali o‘rganildi. Miqdoriy jihatdan esa ushbu birliklarning nisbiy chastotasi hisoblab chiqilib, siyosiy imidj shakllanishidagi ustuvor strategiyalar aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda kontent tahlil (content analysis) usuli ham qo‘llanilib, siyosiy nutqlarda takrorlanadigan asosiy semantik maydonlar va kommunikativ strategiyalar tizimlashtirildi. Olingan natijalar sifat jihatdan interpretativ tahlil asosida sharhlandi hamda mavjud siyosiy lingvistika nazariyalari bilan qiyoslandi.

Umuman olganda, ushbu metodologik yondashuv siyosiy liderlar nutqida qo‘llaniladigan til vositalarining xalqaro imidj shakllanishidagi funksional rolini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida siyosiy liderlarning xalqaro imidjini shakllantirishda qo‘llaniladigan til vositalari tizimli ravishda tahlil qilindi va ularning kommunikativ funksiyalari aniqlashtirildi. Korpus materiallari asosida o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, siyosiy nutqlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan strategiyalar metafora, ijobiy baholash birliklari, framing va evfemistik ifodalar hisoblanadi. Ushbu vositalar siyosiy liderlarning xalqaro auditoriya oldidagi obrazini ijobiy shakllantirish va legitimlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Statistik kodlash natijalariga ko‘ra, tahlil qilingan nutqlarda metaforik ifodalar 34%, ijobiy baholash birliklari 28%, framing strategiyalari 22% va evfemizmlar 16% ulushni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar siyosiy diskursda metafora va baholovchi til birliklarining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Quyida tahlil natijalari jadval ko‘rinishida berilgan:

Jadval 1. Siyosiy nutqlarda til vositalarining qo‘llanish chastotasi

Til vositasi turi	Uchrash foizi (%)
Metafora	34
Ijobiy baholash	28
Framing	22
Evfemizm	16

Manba: *muallif tomonidan korpus tahlili asosida ishlab chiqilgan*

Jadvaldan ko‘rinadiki, metafora siyosiy liderlar nutqida eng asosiy strategik vosita bo‘lib, u murakkab siyosiy jarayonlarni oddiy va emotsional tushunarli obrazlar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “global hamkorlik

ko‘prigi”, “tinchlik yo‘li” yoki “barqarorlik qalqoni” kabi metaforalar xalqaro auditoriyada ijobiy assotsiatsiyalarni shakllantiradi.

Ijobiy baholash birliklari esa siyosiy liderlarning o‘z mamlakati yoki xalqaro hamkorlikka nisbatan ishonchli va optimistik obraz yaratishida muhim rol o‘ynaydi. Tahlil qilingan nutqlarda “mustahkam hamkorlik”, “strategik sheriklik” kabi birikmalar tez-tez uchraydi va bu diplomatik munosabatlarni ijobiy ramkada taqdim etishga xizmat qiladi.

Framing strategiyalari orqali esa siyosiy voqeliklar ma’lum ideologik nuqtai nazardan talqin qilinadi. Bu jarayonda “global xavfsizlik”, “barqaror rivojlanish” kabi konseptlar orqali auditoriya fikri muayyan yo‘nalishga yo‘naltiriladi. Evfemistik ifodalar esa siyosiy keskinlikni yumshatish va diplomatik nutqni neytrallashtirish vazifasini bajaradi.

Muhokama jarayonida olingan natijalar Chilton[6], Fairclough[7] va Wodak tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan solishtirildi[8]. Natijalar ushbu olimlarning siyosiy nutqning ideologik va manipulyativ funksiyalariga oid fikrlarini tasdiqladi. Xususan, til vositalarining ongli ravishda tanlanishi siyosiy imidjni shakllantirishda asosiy strategik instrument ekanligi yana bir bor isbotlandi.

Shu bilan birga, tahlil shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy siyosiy diskursda vizual va raqamli kommunikatsiya vositalarining kuchayishi til strategiyalarining yanada murakkablashuviga olib kelmoqda. Bu esa siyosiy lingvistika sohasida multimodal diskurs tahliliga ehtiyoj ortib borayotganini anglatadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot siyosiy liderlarning xalqaro imidjini shakllantirishda til vositalarining o‘rni va funksional xususiyatlarini lingvopragmatik hamda kritik diskurs tahlili asosida yoritib berdi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, siyosiy nutq nafaqat axborot uzatish vositasi, balki xalqaro maydonda siyosiy obrazni shakllantirish va boshqarishning muhim instrumenti hisoblanadi. Ayniqsa, metafora, ijobiy baholash birliklari, framing va evfemistik ifodalar siyosiy liderlar imidjining ijobiy konstruksiyasida yetakchi rol o‘ynaydi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni tasdiqlaydiki, metaforik ifodalar murakkab siyosiy jarayonlarni soddalashtirish va emotsional qabulni kuchaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ijobiy baholash birliklari esa ishonchli va barqaror siyosiy obraz yaratishga yordam beradi. Framing strategiyalari orqali esa siyosiy voqeliklar muayyan ideologik nuqtayi nazardan talqin qilinib, auditoriya idroki boshqariladi. Evfemistik ifodalar esa diplomatik nutqning yumshoqligini ta’minlab, siyosiy keskinlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari siyosiy lingvistika va diskurs tahlili doirasida til vositalarining strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu xulosalar siyosiy kommunikatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunish va xalqaro imidjni shakllantirish mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

6 Chilton P., Schäffner C. Politics as Text and Talk: Analytic Approaches to Political Discourse. – Amsterdam: John Benjamins, 2002. 320 p. DOI: https://doi.org/10.1075/dapsac.4

7 Fairclough N. Language and Power. – 3rd ed. – London: Routledge, 2015.320 p. DOI: https://doi.org/10.4324/9781315838250

8 Wodak R. The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2011. 304 p. DOI: https://doi.org/10.1057/9780230319035

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Chilton P. *Analysing Political Discourse: Theory and Practice*. – London: Routledge, 2004. 240 p.

2.Fairclough N. *Language and Power*. – 3rd ed. – London: Routledge, 2015. 320 p. DOI: https://doi.org/10.4324/9781315838250

3.van Dijk T. A. *Discourse and Power*. – New York: Palgrave Macmillan, 2008. 320 p. DOI: https://doi.org/10.1057/9780230584867

4.Wodak R. *The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual*. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2011. 304 p. DOI: https://doi.org/10.1057/9780230319035

5.Charteris-Black J. *Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor*. – London: Palgrave Macmillan, 2014. 256 p. DOI: https://doi.org/10.1057/9781137375283

6.Chilton P., Schäffner C. *Politics as Text and Talk: Analytic Approaches to Political Discourse*. – Amsterdam: John Benjamins, 2002. 320 p. DOI: https://doi.org/10.1075/dapsac.4

Nilufar MAKHAMADALIEVA,
EMU universiteti
katta o‘qituvchisi

SIYOSIY DISKURSDA TOLERANTLIK KOMMUNIKATIV KATEGORIYASINING ZIDDIYATLI VAZIYATLARDA QO‘LLANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada siyosiy diskursda tolerantlik kommunikativ kategoriya sifatida tahlil qilinadi hamda uning ziddiyatli vaziyatlarda qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi.Tadqiqot doirasida siyosiy nutqda tolerantlikning konfliktni yumshatish, muloqotni qo‘llab-quvvatlash va ijobiy imij yaratish kabi funksiyalari aniqlanadi. Shuningdek, tolerantlikning strategik va ayrim hollarda manipulyativ vosita sifatida qo‘llanishi ham ko‘rsatib beriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tolerantlik siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, tolerantlik, kommunikativ kategoriya, ziddiyatli vaziyat, pragmatika, nutq strategiyalari, manipulyatsiya.*

Annotation: this article examines tolerance as a communicative category in political discourse and analyzes its application in conflict situations. The study identifies key functions of tolerance in political speech, including conflict mitigation, dialogue support, and the formation of a positive image. It also demonstrates that tolerance can serve as a strategic and, in some cases, manipulative tool. The findings suggest that tolerance is an important factor in enhancing the effectiveness of political communication.

Key words: *political discourse, tolerance, communicative category, conflict situation, pragmatics, speech strategies, manipulation.*

Аннотация: в данной статье рассматривается толерантность как коммуникативная категория в политическом дискурсе и анализируются особенности её применения в конфликтных ситуациях. В ходе исследования выявлены функции толерантности в политической речи, включая смягчение конфликтов, поддержание диалога и формирование позитивного имиджа. Также показано, что толерантность может выступать как стратегический и в отдельных случаях манипулятивный инструмент. Результаты исследования подтверждают, что толерантность является важным фактором повышения эффективности политической коммуникации.

Ключевые слова: *политический дискурс, толерантность, коммуникативная категория, конфликтная ситуация, прагматика, речевые стратегии, манипуляция.*

Kirish. Zamonaviy siyosiy kommunikatsiya sharoitida diskurs faqat axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi.Ayniqsa, ziddiyatli vaziyatlarda siyosiy nutqning xarakteri jamiyatdagi keskinlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Shu nuqtayi nazardan, tolerantlik tushunchasi siyosiy diskursda muhim kommunikativ kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Tolerantlik siyosiy nutqda qarama-qarshi fikrlarni inkor etmasdan, balki ularni muvozanatli tarzda ifodalash, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va konstruktiv muloqotni ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, global siyosiy jarayonlarda konfliktlar soni ortib borayotgan bir paytda, tolerant kommunikatsiya strategiyalarini o‘rganish zarurati kuchaymoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi siyosiy diskursda tolerantlikning kommunikativ kategoriya sifatidagi o‘rni va uning ziddiyatli vaziyatlarda qo‘llanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot siyosiy diskursda tolerantlikning kommunikativ kategoriya sifatidagi xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda bir nechta zamonaviy lingvistik va kommunikativ metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi natijalarni yanada ishonchli va ilmiy asoslangan qilishga xizmat qildi.

Avvalo, **diskurs tahlili** asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu metod yordamida siyosiy nutqlarda tolerantlik qanday til vositalari orqali ifodalanishi, uning kontekstual xususiyatlari hamda kommunikativ vazifalari aniqlab berildi. Diskurs tahlili siyosiy bayonotlarning yashirin ma’nolarini ochishga, nutq strategiyalarini aniqlashga va muallifning kommunikativ niyatini tushunishga imkon berdi.

Shuningdek, tadqiqotda **qiyosiy tahlil** metodidan ham keng foydalanildi.Bu metod orqali turli siyosiy kontekstlar, jumladan, xalqaro va milliy darajadagi siyosiy nutqlarda tolerantlikning ifodalanish usullari o‘zaro solishtirildi. Natijada tolerantlik strategiyalarining umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning qo‘llanish doirasi kengroq yoritildi.

Bundan tashqari, **pragmatik tahlil** metodiga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu yondashuv orqali nutqning kommunikativ maqsadi, auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari hamda nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganildi. Pragmatik tahlil tolerantlikning nafaqat til birliklari orqali, balki kommunikativ strategiya sifatida qanday ishlashini tushunishga yordam berdi.

Tadqiqotning yana bir muhim qismi sifatida **kontent tahlili** qo‘llanildi. Bu metod siyosiy chiqishlar va rasmiy bayonotlarda tolerantlik indikatorlarini tizimli ravishda aniqlash va ularni tasniflash imkonini berdi. Kontent tahlili orqali ma’lum birliklar, takrorlanuvchi ifodalar va semantik naqshlar ajratib olindi, bu esa umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga zamin yaratdi.

Tadqiqot materiali sifatida siyosiy yetakchilarning chiqishlari, rasmiy bayonotlar hamda ommaviy kommunikatsiya vositalarida e’lon qilingan matnlar tanlab olindi. Ushbu materiallar turli ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgani sababli, tolerantlikning real kommunikativ muhitdagi qo‘llanishini tahlil qilish imkonini berdi.

Natijada qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar majmuasi siyosiy diskursda tolerantlikning ko‘p qirrali va murakkab tabiati haqida chuqur ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, siyosiy diskursda tolerantlik muhim kommunikativ kategoriya sifatida namoyon bo‘lib, u turli funksiyalarni bajaradi va ziddiyatli vaziyatlarda nutq strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, tolerantlik siyosiy nutqda, avvalo, konfliktlarni yumshatish vositasi sifatida faol qo‘llaniladi.Siyosatchilar keskin qarama-qarshi fikrlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash o‘rniga, ko‘pincha diplomatik va neytral ifodalardan foydalanadi, bu esa kommunikativ keskinlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tolerantlik dialogni qo‘llab-quvvatlash funksiyasini ham bajaradi. Qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi muloqot uzilib qolmasligi uchun siyosiy nutqda muvozanatli va ehtiyotkor til birliklari qo‘llanadi. Bu esa kelishuvga erishish imkoniyatlarini oshiradi hamda kommunikativ jarayonning davomiyligini ta’minlaydi.

Tahlil natijalari yana shuni ko‘rsatdiki, tolerant nutq siyosiy yetakchining ijobiy imijini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday nutq uslubi auditoriyada ishonch uyg‘otadi, siyosatchining ochiq va murosaga tayyor shaxs sifatida qabul qilinishiga yordam beradi. Natijada, tolerantlik siyosiy kommunikatsiyada reputatsion resurs sifatida ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida tolerantlikning faqat ijobiy kommunikativ vosita emasligi ham aniqlandi. Ayrim holatlarda u manipulyativ strategiya sifatida qo‘llanib, siyosiy manfaatlarni yashirish yoki real pozitsiyani yumshatib ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Bunday vaziyatlarda tolerantlik yuzaki xarakter kasb etib, asl kommunikativ niyatni niqoblash funksiyasini bajaradi.

Umuman olganda, olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, tolerantlik siyosiy diskursda ko‘p qirrali va kontekstga bog‘liq hodisa bo‘lib, u turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. U nafaqat konfliktlarni boshqarish vositasi, balki siyosiy strategiyaning muhim elementi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Olingan natijalar siyosiy diskurs nazariyasi doirasida muhim ahamiyatga ega. Tolerantlikni faqat axloqiy kategoriya sifatida emas, balki strategik kommunikativ vosita sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Ziddiyatli vaziyatlarda tolerantlik quyidagi strategiyalar orqali namoyon bo‘ladi:

- evfemizatsiya (keskin fikrlarni yumshatish);
- inklyuziv leksika qo‘llash (“biz”, “hamkorlik”);
- neytral va diplomatik ifodalar;
- qarama-qarshi fikrni qisman tan olish.

Shu bilan birga, haddan tashqari tolerantlik ba’zan kommunikativ noaniqlikka olib kelishi mumkin.Bu esa auditoriya tomonidan nutqning samimiyligiga shubha bilan qarashga sabab bo‘ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tolerantlik siyosiy diskursda muhim kommunikativ kategoriya bo‘lib, ayniqsa ziddiyatli vaziyatlarda barqaror muloqotni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

U nafaqat konfliktlarni yumshatadi, balki siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, tolerantlikning strategik va ba’zan manipulyativ xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

Kelgusidagi tadqiqotlar siyosiy diskursda tolerantlikning madaniyatlararo xususiyatlarini hamda uning raqamli kommunikatsiya muhitidagi namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganishga yo‘naltirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruth Wodak R., Michael Meyer M. Methods of Critical Discourse Analysis. – London: Sage Publications, 2009. – 200 p.
2. Paul Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London: Routledge, 2004. – 226 p.

Shaxnoza HAMZAQULOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail address shsayitqulova98@gmail.com

IRONIYANI TUSHUNISH: PRAGMATIKA, SIYOSAT VA IJTIMOIY TARMOQLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ironiya pragmatik va ritorik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Unda siyosiy nutq va ijtimoiy tarmoqlarda ironiyaning qo‘llanilishi, uning kontekstga bog‘liqligi hamda auditoriya tomonidan qayta talqin qilinishi misollar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *ironiya, pragmatika, siyosiy diskurs, ijtimoiy tarmoqlar, kontekst, talqin, ritorika, kommunikatsiya, ijtimoiy media, nutq strategiyasi.*

Аннотация: в данной статье ирония рассматривается как прагматическое и риторическое явление. Особое внимание уделяется ее использованию в политическом дискурсе и социальных сетях, а также роли контекста и интерпретации аудиторией на основе конкретных примеров.

Ключевые слова: *ирония, прагматика, политический дискурс, социальные сети, контекст, интерпретация, риторика, коммуникация, социальные медиа, речевая стратегия.*

Annotation: this article examines irony as a pragmatic and rhetorical phenomenon. It focuses on its use in political discourse and social media, highlighting the importance of context and audience interpretation, supported by relevant examples demonstrating how meanings are reshaped in digital communication

Key words: *irony, pragmatics, political discourse, social media, context, interpretation, rhetoric, communication, digital discourse, speech strategy*

Kirish.

Ironiya uzoq vaqtdan beri insoniy muloqotning muhim xususiyati sifatida tan olingan. U odatda ritorik vosita sifatida ta’riflanadi, unda mo‘ljallangan ma’no so‘zlarning so‘zma-so‘z ma’nosiga zid keladi [1; 45–46-b.]. Fikrlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etish o‘rniga, notiqlar ko‘pincha munosabatlarni bilvosita yetkazish uchun ironiyaga tayanadilar, bu esa hazil yoki tanqidni go‘zal tarzda ifoda etishga imkon beradi. Zamonaviy muloqotda, ayniqsa raqamli muhitda ironiya tobora ko‘proq e’tiborga sazovor bo‘lib bormoqda. Twitter (hozirgi X), Facebook va Instagram kabi ijtimoiy tarmoq platformalari foydalanuvchilar siyosiy voqealar, ijtimoiy masalalar va global o‘zgarishlar haqida fikr bildirish uchun tez-tez ironiya mavjud bo‘lgan istehzoli iboralardan foydalanadi. Bunday sharoitlarda ironiyalar nafaqat ma’ruzachilar tomonidan yaratiladi, balki auditoriya tomonidan qayta talqin qilinadi.

Metodologiya

Men Grisning (1989) suhbat implikaturasi nazariyasi va Levinsonning (1983) kontekstual pragmatikasiga asoslangan sifatli pragmatik yondashuvdan foydalandim. Ushbu maqolada keltirilgan barcha misollar ironiyaning funksiyalarini namoyish etish uchun siyosiy nutqlar, ommaviy bayonotlar va ijtimoiy tarmoq kontentidan (memlar, repostlar va sarlavhalar) tanlangan. Tahlil uchta asosiy yo‘nalishga qaratilgan: (1) suhbat maksimlarini buzish va implikaturani chiqarish; (2) umumiy bilim va kontekstning ma’no qurishdagi roli; va (3) raqamli muhitda qayta talqin qilish jarayonlari. Ushbu usul ironiyaning ham ritorik strategiya, ham jamoaviy ijtimoiy amaliyot sifatida qanday ishlashini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Maqolada Twitter, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlardagi bayonotlar va postlar va veb-saytlardan olingan turli kontekstlardan foydalaniladi va tahlil qilinadi.

Pragmatika va tilshunoslikda ironiyaning qo‘llanilishi.

Lingvistik nuqtayi nazardan, istehzo pragmatika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kontekstda ma’no qanday shakllanishini o‘rganadi. So‘zma-so‘z tildan farqli o‘laroq,

ironiya mavjud iboralar tinglovchilardan so‘zlarning yuzaki ma’nosidan tashqariga chiqishni talab qiladi. Grice (1989) buni o‘zining suhbat implikaturasi nazariyasi orqali tushuntiradi va ironiya ma’ruzachilar suhbat normalarini, xususan, rostgo‘ylikni talab qiladigan sifatlarni qasddan buzganda yuzaga keladi deb ta’kidlaydi [3; 34–35-b.]. Masalan, agar kimdir kuchli bo‘ron paytida “Qanday ajoyib kun” desa, tinglovchi darhol bayonot va haqiqat o‘rtasidagi qarama-qarshilikni anglaydi. Bu buzilish tinglovchini mo‘ljallangan ma’noni – ob-havo aslida yoqimsiz ekanligini xulosa qilishga undaydi.

Yuqorida keltirilgan misolni tahlil qilgandan so‘ng, ironiya nafaqat qarama-qarshi, balki tinglovchilarni birgalikda ma’no yaratishga faol jalb qiladi. Pragmatik xulosa chiqarish jarayoni kommunikativ aloqalarni mustahkamlaydi, shu bilan birga ishonchli inkor etishga imkon beradi, bu ayniqsa sezgir kontekstlarda qimmatlidir [7; 12–15-b.]. Levinson (1983) ironiyani tushunish umumiy bilim va talqin qilish qobiliyatiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [5; 120-b.]. Kimdir avtohalokatga sabab bo‘lganidan keyin aytilgan “U ajoyib haydovchi” degan gapni ko‘rib chiqing. Kontekstsiz bu gap maqtovga o‘xshaydi; ammo, kontekstda u tanqid vazifasini bajaradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ironiyani tinglovchilarning so‘zlar va voqelik o‘rtasidagi nomuvofiqlikni tan olish qobiliyatiga qarab tushunish mumkin. Ular og‘zaki, vaziyatli va dramatik bo‘lganlarga ko‘ra har xil va murakkab bo‘lishi mumkin.

Siyosiy nutqdagi ironiya.

Siyosiy ironiya nuqtayi nazaridan, u strategik ritorik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu ma’ruzachilarga tanqidni bilvosita ifoda etish imkonini beradi, bu ularning bayonotlarini kamroq qarama-qarshilikli qiladi, shu bilan birga ishonarli qiladi. Bu bilvositalik ma’lum darajada himoya ham berishi mumkin, chunki ma’ruzachi e’tiroz bildirilgan taqdirda salbiy niyatni rad etishi mumkin. Masalan, siyosatchi: “Mening raqibim ajoyib izchillikni ko‘rsatdi – doimiy ravishda noto‘g‘ri qarorlar qabul qildi”, deyishi mumkin. Bu bayonot maqtov sifatida boshlanganga o‘xshaydi, lekin oxir-oqibat tanqidni keltirib chiqaradi. Ironik tuzilma uning ritorik ta’sirini va esda qolarliligini oshiradi. Yana bir misol: “Biz bunday shaffof rahbariyat ostida yashashimizdan baxtiyormiz”, deyiladi hukumat maxfiylik uchun keng tanqid qilinadigan kontekstda.

Siyosiy nutqdagi ironiya mafkuraviy va baholash xususiyatini qabul qiladi, lingvistik konstruksiyalar bo‘ylab kuch dinamikasini ochib beradi [7; 8–19-b.], zamonaviy hayotimizdagi siyosiy ironiya esa ko‘pincha “do‘st-doe” muxolifatiga tayanadi, jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun buzg‘unchilik yoki uyg‘unlashtirish kabi taktikalar yordamida [8; 45-47-b]. Bu strategiyalar nafaqat raqiblarni qoralaydi, balki tarafdorlar orasida guruh o‘ziga xosligini mustahkamlaydi, ironik gaplar qutblangan muhitda kuchli vositaga aylantiradi. Biroq, agar bunday bayonotlar omma oldida, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilsa, ularni boshqa yo‘llar bilan qayta talqin qilish mumkin, bu esa ma’ruzachining asl niyatini boshqa yo‘nalishlarga olib boradi.

Ijtimoiy tarmoq va Ironiyaning paydo bo‘lishi

Ijtimoiy tarmoqning paydo bo‘lishi ironik muloqotning tabiatini o‘zgartirdi. Internetning barcha platformalari xabarlarni tezkor almashish, qayta joylashtirish va qayta talqin qilish imkonini beradi, ularni asl kontekstidan olib tashlaydi. Ushbu tushunmovchilik natijasida boshqa maqsadda ishlatilgan istehzo yanada dinamik, ammo noaniqroq bo‘lib, auditoriyani ataylab chalkashtirib yuboradi. Ironik sarlavhalar va xeshteglar bu sohada keng tarqalgan misol bo‘lishi mumkin. Biror kishi veb-saytda yoki ijtimoiy tarmoqda tartibsiz vaziyat tasviri bilan “Hammasi narsa nazorat ostida” sarlavhasini joylashtirishi mumkin. Ironiya tasvir va matn o‘rtasidagi kuchli qarama-qarshilik bilan yaratilishi mumkin, bu esa auditoriyani mo‘ljallangan ma’noni tushunishga undaydi. Yana bir aniq misol – bu “bu yaxshi” degan memlar, ya’ni yonayotgan xonada xotirjam o‘tirgan odamni ko‘rsatishi mumkin, ya’ni haqiqatan ham muammoli vaziyatlarga izoh berish.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilar suhbatning umumiy talqinlari orqali bog‘lanadigan “muhitga bog‘liqlik”ni osonlashtiradi [6; 56–57-b.]. Bugungi raqamli dunyoda ironiya ishtirok vositasi sifatida qo‘llaniladi: auditoriya siyosiy bayonotlarni faol ravishda qayta talqin qiladi va ularni ijtimoiy sharhlar uchun vositalarga aylantiradi. Misol tariqasida, Golda Meirga tegishli bo‘lgan “Falastinliklar degan narsa yo‘q edi” degan gaplar ko‘pincha ironiya bilan qayta joylashtirilib, o‘sha millatning o‘ziga xosligini inkor etish deb qabul qilingan siyosatni tanqid qiladi. Qayta talqin qilish jarayoni ironiyaning ma’ruzachi tomonidan boshqariladigan ma’no yaratishdan auditoriya tomonidan boshqariladigan ma’no yaratishga o‘tishini ta’kidlaydi [9; 554–564-b.].

Onlayn ironiyani talqin qilishdagi qiyinchiliklar

Onlayn muloqotdagi u keng qo‘llanilishiga qaramay, jiddiy qiyinchiliklarni ko‘rsatadi [2; 45–47-b.]. Ijtimoiy

tarmoqlardagi auditoriya xilma-xil va umumiy bilimga ega bo‘lib, bu tushunmovchilik ehtimolini oshiradi. Masalan, suhbat qaroridan keyin yozilgan “Ajoyib ish, hukumat!” posti o‘quvchining nuqtayi nazariga ko‘ra turlicha talqin qilinishi mumkin. Ba’zi odamlar bu bayonotni chinakam maqtov sifatida qabul qilishlari mumkin, boshqalari esa uni tanqid deb bilishadi. Bu noaniqlik katta chalkashliklarga yoki hatto ba’zan mojarolarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda ovoz ohangi va yuz ifodalari kabi og‘zaki bo‘lmagan ishoralarning yo‘qligi ironiyani aniqlashni ancha qiyinlashtirishi mumkin. Natijada, posterlar ko‘pincha asosiy niyatni istehzo bilan ko‘rsatish uchun emoji, tinish belgilari yoki xeshteglar kabi qo‘shimcha belgilarga tayanadilar.

Noto‘g‘ri talqin qilish xavfi ijtimoiy tarmoqlardagi auditoriya orasida paydo bo‘lishi mumkin, chunki pragmatik xulosa umumiy asosga bog‘liq [10; 20–25-b.].

Ironiya qayta talqin va ijtimoiy sharh sifatida

Zamonaviy muloqotda ironiya moddiy ma’ruzachilar o‘rnatilgan vosita sifatida, balki auditoriya tomonidan qo‘llaniladigan resurs sifatida ham mumkin [2; 45–47-b.]. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari ko‘pincha mavjud bo‘lgan xabarlarni qayta talqin qilib, ularni tanqid va sharhlar uchun foydalanishadi. Misol boshqaruv, siyosiy shiorlar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlarda odamlar o‘ziga xos qarama-qarshiliklarni fosh qilish uchun ironiya bilan qayta tiklash. Taraqqiyotni targ‘ib qiluvchi shior asl xabarni buzadigan kontrastni kelib chiqishi mumkin. Bu amaliyot ironiya qanday qilib qarshilik va tanqid shakli bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi va shu ma’noda, ishlab chiqarish jarayoniga aylandi. Ma’no endi faqat ma’ruzachi tomonidan boshqarilmaydi, balki talqinni kuzatishda ishtirok etayotgan auditoriya faol qatnashadi. Bu kompyuter platformalar nutq shaklini yanada interaktiv va ishtirokchilar kengroq tarzda qatnashishini aks ettiradi.

Bunday qayta talqin ironiyaning siyosiy munozarada demokratik kuch sifatida rivojlanayotgan rolini namoyish etadi va auditoriyasini bu sohada faolroq bo‘lishga undaydi. Mavjud gaplarni qurolga aylantirish mumkin bo‘lgan moddiy rivoyatlarga qarshi chiqishlari va jamoaviy tanqidni qo‘llab-quvvatlashlari, passiv iauditoriyani faol siyosiy ishtirokka qo‘shishlari mumkin [7; 18–20- b.].

Xulosa. Ironiya – bu kundalik muloqotda ham, nutqda ham muhim rol o‘ynaydigan tilning murakkabroq va ko‘p qirrali shaklidir. Siyosiy muloqotda ironiya bilvosita tanqid va ishontirishga imkon beradigan kuchli ritorik strategiya sifatida qo‘llaniladi. Hozirgiu kunda nternet olamida undan foydalanish kengaydi, chunki ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarga platformalarni dinamik tarzda qayta talqin qilish va qayta ishlash imkonini berdi. Oxir-oqibat, ironiya endi individual ma’ruzachilarning niyatlari bilan cheklanib qolmaydi. U jamoaviy va rivojlanayotgan hodisaga aylandi, turli auditoriyalarning o‘zaro ta’sirini shakllantirdi. Ushbu jarayonni pragmatik tahlil orqali tushunish zamonaviy kommunikatsiyalarni, ayniqsa siyosat va ijtimoiy tarmoq kontekstida tahlil qilish uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abrams, M. H., & Harpham, G. G. (2015). A glossary of literary terms (11th ed.). Cengage Learning.
2. Baker, M. (2018). In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). Routledge.
3. Farías, D. I. H., et al. (2016). Irony detection in Twitter: The role of affective content. ACM Transactions on Internet Technology, 16(3), Article 19.
4. Gornostaeva, A. A. (2018). Irony in political communication: Discursive practice, strategy, and tactics. CyberLeninka.
5. Gornostaeva, A. A. (2024). The “friend–foe” opposition in modern ironic political discourse. Professional Discourse & Communication.
6. Grice, H. P. (1989). Studies in the way of words. Harvard University Press.
7. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
8. Qaiwer, S. N. (2020). A study of irony in political discourse. OSF Preprints / ResearchGate.
9. Yanti, Y. (2018). Pragmatic study of irony in the political cartoons of Donald Trump. The Journal of Social Sciences Research, (Special Issue 2), 554–564.
10. Zappavigna, M. (2012). Discourse of Twitter and social media: How we use language to create affiliation on the web. Continuum.

Dilafruz OTAMURODOVA,
O‘ZDJTU fransuz tili amaliy fanlar kafedrasi kata o‘qituvchisi

BADIIY DIALOGNING STILISTIK VAZIFALARI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy dialogning stilistik funksiyalari va uning nutqiy-kommunikativ xususiyatlari kompleks lingvopoetik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Xususan, dialogning xarakter yaratish, syujetni rivojlantirish, emotsional-ekspressiv mazmunni kuchaytirish hamda muallif pozitsiyasini implitsit ifodalashdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida badiiy matn tarkibidagi dialogik birliklarning semantik, pragmatik va stilistik qatlamlari o‘zaro integratsiyada ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy dialog, stilistik funksiya, lingvopoetika, nutqiy ifoda, emotsional-ekspressivlik, kommunikativ strategiya, pragmatika, badiiy matn, obraz yaratish, muallif pozitsiyasi.*

Аннотация: в данной статье на основе комплексного лингвопоэтического подхода анализируются стилистические функции художественного диалога и его коммуникативные особенности. Обосновывается роль диалога в создании образов, развитии сюжета, усилении эмоционально-экспрессивного содержания и имплицитном выражении авторской позиции. В ходе исследования семантические, прагматические и стилистические уровни диалогических единиц рассматриваются во взаимосвязи.

Ключевые слова: *художественный диалог, стилистическая функция, лингвопоэтика, речевое выражение, эмоциональная экспрессивность, коммуникативная стратегия, прагматика, художественный текст, создание образа, авторская позиция.*

Annotation: this article analyzes the stylistic functions and communicative features of artistic dialogue through a complex linguopoetic approach. It substantiates the role of dialogue in character construction, plot development, enhancement of emotional-expressive content, and implicit representation of the author’s position. The study examines semantic, pragmatic, and stylistic layers of dialogic units within literary texts in an integrated framework.

Key words: *artistic dialogue, stylistic function, linguopoetics, speech expression, emotional expressiveness, communicative strategy, pragmatics, literary text, character construction, authorial position.*

Kirish.Zamonaviy filologik tadqiqotlarda badiiy matnning ichki strukturasi va uning estetik-kommunikativ imkoniyatlarini tahlil qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, badiiy dialog hodisasi nafaqat til birliklarining oddiy almashinuvi, balki murakkab pragmatik va stilistik tizim sifatida namoyon bo‘lib, matnning semantik chuqurligi hamda badiiy ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Dialogik nutq shakli orqali muallif real kommunikativ vaziyatni modellashtiradi, qahramonlarning psixologik portretini ochib beradi va asar mazmunining ko‘p qatlamli talqiniga zamin yaratadi.

Badiiy dialogning stilistik xususiyatlarini o‘rganish lingvopoetika, pragmatika va diskurs tahlili kesishgan nuqtada amalga oshiriladi. Chunki dialog matnda nafaqat axborot uzatish vositasi, balki muallifning estetik niyatini implitsit tarzda ifodalovchi, o‘quvchi bilan yashirin kommunikatsiyani yuzaga keltiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, dialogning funksional yuklamasi obraz yaratish, syujet dinamikasini ta’minlash, konfliktni kuchaytirish hamda emotsional-ekspressiv rang-baranglikni shakllantirish kabi ko‘plab vazifalarni qamrab oladi.

Hozirgi ilmiy tadqiqotlarda badiiy dialog ko‘pincha umumiy nutq tizimi doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, uning individual stilistik parametrlarini chuqur va tizimli tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, dialogik birliklarning leksik-semantik tanlovi, sintaktik qurilishi, intonatsion modellari hamda kontekstual shartlanganligi kabi omillar uning badiiy-estetik qiymatini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur tadqiqotda badiiy dialogning stilistik funksiyalari va uning nutqiy xususiyatlarini kompleks yondashuv asosida o‘rganish maqsad qilib qo‘yiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, badiiy dialogni ko‘p qirrali lingvistik hodisa sifatida tahlil qilish orqali nafaqat badiiy matnni anglash darajasi chuqurlashadi, balki zamonaviy adabiy jarayonda muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarning o‘ziga xos mexanizmlari ham aniqlanadi. Mazkur ishning ilmiy yangiligi dialogning stilistik va pragmatik qatlamlarini o‘zaro integratsiyada ko‘rib chiqish, uning funksional-semantik imkoniyatlarini tizimli ravishda yoritishga qaratilganidadir.

Metodologiya.Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy lingvopoetika, pragmalingvistika va diskurs tahlili yo‘nalishlarining integrativ yondashuvi tashkil etadi. Badiiy dialogni ko‘p qatlamli lingvistik hodisa sifatida o‘rganish zarurati uni faqat sintaktik yoki leksik darajada emas, balki semantik, pragmatik va stilistik birliklar tizimida kompleks tahlil qilishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot jarayonida badiiy matn tarkibidagi dialogik strukturalar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kommunikativ birliklar majmuasi sifatida talqin qilinadi [1; 126].

Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy metodlardan biri – lingvopoetik tahlil bo‘lib, u orqali dialogning estetik funksiyasi, obraz yaratishdagi roli va muallif pozitsiyasini implitsit ifodalash mexanizmlari aniqlanadi. Ushbu metod badiiy matnning ichki semantik strukturasini ochib berishga xizmat qiladi va dialogik nutqning emotsional-ekspressiv potensialini baholash imkonini beradi [2; 89]. Shuningdek, pragmatik tahlil metodi asosida dialog ishtirokchilarining nutqiy niyatlari, kommunikativ strategiyalari hamda kontekstual shartlanganligi o‘rganiladi. Bu esa badiiy dialogning real kommunikativ jarayonlarga qanchalik yaqin model sifatida qurilganini aniqlashga yordam beradi.

Diskursiv yondashuv doirasida esa dialog matnning dinamik komponenti sifatida ko‘rib chiqilib, uning syujet rivojiga ta’siri, konfliktni shakllantirishdagi o‘rni hamda matn ichidagi semantik bog‘lanishlarni mustahkamlashdagi funksiyasi tahlil etiladi. Bu jarayonda dialogik birliklarning kontekstual variativligi va ularning ma’no hosil qilishdagi roli alohida e’tiborga olinadi [3; 132]. Bundan tashqari, qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli adabiy asarlardagi dialoglarning stilistik xususiyatlari solishtirilib, ularning umumiy va individual jihatlari aniqlanadi.

Tadqiqotda induktiv va deduktiv yondashuvlar uyg‘unligi ham muhim metodologik prinsip sifatida qo‘llanildi. Induktiv yo‘l bilan aniq badiiy matnlar tahlili asosida umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, deduktiv yondashuv orqali mavjud nazariy qarashlar asosida dialogning funksional modellari aniqlashtirildi. Statistik kuzatuv elementlari ham qo‘llanib, dialogik birliklarning chastotasi va ularning funksional yuklamasi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi [4; 201].

Shunday qilib, tanlangan metodlar tizimi badiiy dialogni ko‘p qirrali lingvistik va estetik hodisa sifatida chuqur tahlil qilish, uning stilistik funksiyalari hamda nutqiy xususiyatlarini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Tadqiqot jarayonida badiiy dialogning stilistik va kommunikativ xususiyatlari kompleks tahlil qilinib, uning badiiy matn strukturasi hamda mazmuniy qatlamlarini shakllantirishdagi muhim o‘rni aniqlandi. Avvalo, dialogik birliklarning leksik-semantik tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, badiiy dialogda qo‘llaniladigan til vositalari nafaqat informativ funksiyani bajaradi, balki obrazlarning individual nutqiy portretini yaratishda asosiy determinant sifatida xizmat qiladi. Xususan, so‘z tanlovi, frazeologik birliklar va konnotativ ma’nolarning uyg‘unligi qahramonlarning ijtimoiy-madaniy maqomi hamda psixologik holatini ifodalashda muhim omil bo‘lib chiqdi.

Sintaktik qurilmalar tahlili natijasida dialogik nutqning strukturaviy xilma-xilligi aniqlanib, qisqa, ellipsisga asoslangan gaplar, takroriy konstruksiyalar va parataktik bog‘lanishlar badiiy dialogning tabiiylik va realistiklik darajasini oshirishi ilmiy asosda dalillandi. Bunday sintaktik modellar dialogning dinamikligini ta’minlab, nutq jarayonining spontan xarakterini aks ettiradi hamda o‘quvchida ishonchlilik effektini yuzaga keltiradi [5; 112].

Pragmatik tahlil natijalari dialogning kommunikativ strategiyalar tizimi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Dialog ishtirokchilari tomonidan qo‘llaniladigan nutq aktlari – savol, buyruq, iltimos, inkor va implitsit ifoda shakllari – o‘zaro munosabatlarning murakkab iyerarxiyasini aks ettiradi. Ayniqsa, implikatura va presuppozitsiya kabi pragmatik kategoriyalar orqali muallif yashirin ma’nolarni shakllantirib, o‘quvchini faol interpretatsiya jarayoniga jalb etadi. Bu holat badiiy

dialogning faqat yuzaki kommunikatsiya vositasi emas, balki chuqur semantik qatlamlarni hosil qiluvchi mexanizm ekanligini tasdiqlaydi.

Diskursiv yondashuv asosida olib borilgan tahlillar dialogning syujet rivojidagi funksional rolini yanada aniqlashtirdi. Aniqlanishicha, dialog matn ichidagi konfliktni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarning to‘qnashuvi orqali dramatik keskinlikni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, dialogik segmentlar orasidagi semantik kohezion vositalar matnning yaxlitligini ta’minlab, uning kompozitsion barqarorligini mustahkamlaydi [6; 141].

Lingvopoetik tahlil natijalari esa dialogning estetik funksiyasini ochib berishga xizmat qildi. Badiiy dialog orqali yaratilgan emotsional-ekspressiv fon o‘quvchiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, matnning estetik qimmatini oshiradi. Intonatsion vositalarning yozma shakldagi ifodasi, pauza va urg‘u elementlarining stilizatsiyasi dialogik nutqni yanada jonli va ta’sirchan qiladi. Natijada dialog badiiy matnning nafaqat mazmuniy, balki estetik tizimida ham markaziy komponent sifatida namoyon bo‘ladi [7; 203].

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar badiiy dialogning ko‘p funksiyali lingvistik birlik ekanligini, uning stilistik, pragmatik va diskursiv xususiyatlari o‘zaro uzviy bog‘langan holda faoliyat yuritishini k o‘rsatdi. Ushbu natijalar badiiy matnni chuqur anglash hamda uning ichki strukturasini ilmiy asosda talqin qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari badiiy dialogning badiiy matn tarkibidagi markaziy struktur-kommunikativ komponent sifatidagi maqomini nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi. Aniqlanishicha, dialogik nutq nafaqat informativ uzatish vositasi, balki murakkab lingvistik-estetik tizim sifatida faoliyat yuritib, obrazlar tizimini shakllantirish, syujet dinamikasini ta’minlash, konfliktogen vaziyatlarni intensifikatsiyalash hamda muallifning implitsit estetik-intensional strategiyasini ifodalashda muhim funksional yuklamaga ega. Shu jihatdan, badiiy dialog matnning ichki semantik koherensiyasi va kompozitsion yaxlitligini ta’minlovchi determinativ mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahliliy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, dialogning funksional samaradorligi uning ko‘p darajali lingvistik tashkil topganligi bilan belgilanadi. Xususan, leksik-semantik tanlovning aniqligi, sintaktik modellarning variativligi, pragmatik yo‘naltirilganlik hamda diskursiv kontekst bilan uzviy integratsiya dialogik nutqning ta’sirchanligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, implikativ ma’no qatlamlarining mavjudligi o‘quvchini faol kognitiv va interpretativ jarayonga jalb etib, badiiy matnning ko‘p qatlamli semantik strukturasini idrok etish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, dialogning polifonik xususiyati turli nutq subyektlari o‘rtasidagi ideologik, psixologik va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni adekvat ifodalashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, badiiy dialogning stilistik va funksional parametrlarini tizimli tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikda yangi konseptual yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda dialogik nutqning kognitiv-pragmatik mexanizmlarini, uning madaniy va diskursiv transformatsiyalarini chuqurlashtirilgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq b o‘lib, bu badiiy matn tahlilining nazariy va amaliy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov A. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 126 b.
2. Ashurova D. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2019. 89- bet.
3. Bekmurodov H. Diskurs tahlili nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020.132-bet.
4. Bozorov O. Til va statistik tahlil metodlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 201 b.
5. Y o‘ldoshev Q. Sintaksis va nutq madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014. – 112 b.
6. Jo‘rayev N. Badiiy matn va diskurs. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. 14-bet.
7. Karimov B. Lingvopoetika asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2019. 203-bet.

Xurshida SAIDOVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti.
Buxoro davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi.
e-mail: x.f.saidova@buxdu.uz

O‘ZBEK BADIIY MATNIDA YANGI DAVR LEKSEMALARINING STILISTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek badiiy matnida yangi davr leksemalarining stilistik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mustaqillikdan keyingi davrda tilga kirib kelgan yangi ot leksemalarining badiiy nutqda qo‘llanishi, ularning ekspressivlik, obrazlilik va individuallashtirishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, yangi leksik qatlamning lingvopoetik xususiyatlari misollar orqali tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *yangi davr leksikasi, badiiy matn, stilistika, lingvopoetika, o‘zlashma so‘zlar, ekspressivlik, obrazlilik.*

Аннотация: в данной статье анализируются стилистические возможности лексем нового века в узбекских литературных текстах. Научно исследуется использование новых именных лексем, вошедших в язык в постколониальный период, в литературной речи, их роль в выразительности, образности и индивидуализации. Также на примерах анализируются лингвопоэтические свойства нового лексического слоя.

Ключевые слова*: лексика нового века, литературный текст, стилистика, лингвопоэтика, заимствованные слова, выразительность, образность.*

Annotation: this article analyzes the stylistic possibilities of new-era lexemes in Uzbek literary texts. The use of new noun lexemes that entered the language in the post-independence period in literary speech, their role in expressiveness, imagery and individualization are scientifically examined. The linguopoetic properties of the new lexical layer are also analyzed through examples.

Key words: *new-era lexicon, literary text, stylistics, linguopoetics, loanwords, expressiveness, imagery.*

Kirish. Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq hodisa bo‘lib, undagi o‘zgarishlar, avvalo, leksik qatlamda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek tilida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar natijasida yangi leksik birliklar, xususan, yangi davr ot leksemalari faol shakllandi.

Mazkur leksemalar nafaqat kundalik nutqda, balki badiiy matnda ham keng qo‘llanib, tilning stilistik imkoniyatlarini boyitmoqda. Badiiy matn esa til birliklarining estetik vazifasini eng yuqori darajada namoyon qiluvchi soha hisoblanadi. Shu bois yangi davr leksemalarining badiiy matndagi stilistik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Yangi davr leksemalari, asosan, quyidagi manbalar asosida shakllanadi: ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar; iqtisodiy munosabatlar; texnologik taraqqiyot; ijtimoiy qatlam va zamonaviy kasblar natijasida. Ushbu leksemalar badiiy matnga kirib kelib, undagi voqelikni zamonaviy ruhda aks ettirishga xizmat qiladi. O‘zbek badiiy matnida yangi davr leksemalari (neologizmlar, o‘zlashma so‘zlar va transformatsiyaga uchragan birliklar) nafaqat axborot berish, balki asarning estetik qiymatini oshirish, qahramon portretini yaratish va davr ruhini aks ettirishda muhim stilistik vosita hisoblanadi.

Metod va metodologiya. Yangi leksemalar badiiy matnda davr ruhini aks ettiradi. Zamonaviy davr lug‘aviy birliklari kitobxonni voqealar sodir bo‘layotgan zamon va makonga “sho‘ng‘itish” vazifasini bajaradi. Ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid birliklar: *prezident portali, innovatsiya, klaster, drayver, ochiqlik siyosati.* Axborot texnologiyalariga oid birliklar: *skrinshot, trend, kontent, virtual olam.* Shuningdek, matnda stilistik vazifani ham bajaradi. Muallif zamonaviy hayotni tasvirlash uchun aynan shu qatlam so‘zlaridan foydalanadi.

Yangi birliklarning asarda qo‘llanilishi qahramon nutqini individuallashtirish kabi vazifani ham o‘zida aks ettiradi. Yozuvchi mahoratona qo‘llangan yangi leksemalar orqali asarda qahramonning dunyoqarashi, yoshi, kasbi va ijtimoiy kelib chiqishini ochib beradi. Masalan, zamonaviy davr yoshlar nutqi: *layk bosmoq, bloger, vayn.* Rasmiy-idoraviy nutq esa: *monitoring, integratsiya* kabi. Bu kabi neologik leksemalar qahramon obrazini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali personajning kasbi, dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei ifodalanadi. Masalan: *U o‘zini mashhur bloger deb hisoblardi.* Bu misolda *bloger* leksemasi obrazning zamonaviyligini va ma’lum bir ijtimoiy guruhga mansubligini bildiradi. Yangi leksemalar ba’zan ijobiy yoki salbiy baho berish vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. Masalan: *U o‘zini katta biznesmen deb ko‘rsatsa-da, aslida oddiy savdogar edi.* Bu yerda biznesmen so‘zi kinoya va istehzo ohangida qo‘llangan. Badiiy matnda qo‘llanuvchi yangi leksemalar qahramon nutqini aks ettiradi. Har bir qahramonning nutqi o‘ziga xos bo‘lishi kerak. Yangi leksemalar bu individuallikni ta’minlaydi. Masalan, yoshlar nutqida faol birliklar: *kontent, trend, akkaunt*; ishbilarmonlar, tadbirkorlar nutqida: *investor, loyiha, marketing* kabilar orqali ularning yoshi, kasbiga oid leksemalar ishlatiladi..

Yangi birliklar ko‘pincha badiiy matnda tilda mavjud so‘zlarga qaraganda kuchli emotsionallikka egadir. Mualliflar ulardan ma’lum maqsadda yoki piching kabi ma’nolarni

ifodalashda foydalanadilar. Yangi davr leksemalarining muhim qismi o‘zlashma so‘zlardan iborat bo‘ladi. Badiiy matnda ular quyidagi vazifalarni bajaradi: zamonaviy muhitni yaratadi; global jarayonlarni aks ettiradi; nutqqa yangicha ohang beradi. Yangi davr leksemalari badiiy matnda lingvopoetik vosita sifatida: *obrazlilikni kuchaytiradi; matnga zamonaviy rang beradi; muallif uslubini shakllantiradi*. Shuningdek, ular an’anaviy va zamonaviy qatlam o‘rtasida kontrast hosil qilib, badiiy ta’sirchanlikni ham oshiradi.

O‘zbek badiiy matnida yangi davr leksemalar, avvalo, janr xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Nasrda yangi leksemalar faol qo‘llanadi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: *nasrda hayotiy voqelik realistik tasvirlanadi; zamonaviy muhit (internet, diplomatiya, texnologiya, biznes) keng aks etadi; dialog va ichki nutqda jonli til elementlari ustun bo‘ladi.* Shu bois nasriy asarlarda *internet, marketing, kredit, biznes, bloger, telefon, online* kabi leksemalar tabiiy ravishda qo‘llanadi va matnning hayotiyligini oshiradi. She’riyatda yangi leksemalar nisbatan kamroq uchraydi. Biroq ular muayyan stilistik maqsadlarda ishlatiladi. Birinchidan, zamonaviylikni ko‘rsatish; Ikkinchidan, kontrast yaratish. Masalan, she’riy matnlarda internet, telefon, onlayn kabi birliklar orqali zamonaviy jamiyatga tanqidiy munosabat bildiriladi. Shu o‘rinda xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “internet” haqidagi she’rini kuzatamiz.

Internet, aynan nomingdan sening,
Gapga lim-lim to‘la jomingdan sening.
Bugun bu dunyoning egasi sensan,
Poyonsiz olamning erkasi sensan.

Yer yuzini aylading ishg‘ol,
Bir ishing yaxshiyu, birisi ishkal.
Sen so‘nmay, so‘limay yoz-qish yashaysan,
Qit’adan qit’aga mish-mish tashaysan

Neologik leksemalarning badiiy asarlarda qo‘llanilishi uning mavzuviy turlariga bog‘liqdir. Masalan, *tender, investitsiya* kabi iqtisodiy leksemalar xalqaro diplomatik munosabatlarni ifodalashda foydalanilsa, *bloger, onlayn* kabi mediaga oid leksemalar shaxsning internet dunyosi, ommaviy axborot vositalariga munosabatini ifodalashda, *smuzi, siti, lavashxona* kabi maishiy hayot bilan bog‘liq leksemalarda rivojlangan shahar hayotini, insonning turmush tarzini tasvirlashda ijodkorlar tomonidan mohirona qo‘llaniladi.

She’riyatda yangi leksik qatlam, ya’ni neologizmlar va zamonaviy o‘zlashmalar, ayniqsa, hozirgi davr ruhini ifodalashda muhim o‘rin tutadi, chunki ular orqali muallif zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarni, texnologik taraqqiyot va inson ongidagi o‘zgarishlarni badiiy tasvirlaydi. Masalan, “internet” kabi so‘zlarning she’riy matnda qo‘llanishi virtual olam va real hayot o‘rtasidagi munosabatni poetik shaklda ifodalashga xizmat qiladi hamda matnga zamonaviylik ruhini olib kiradi.

Muhokama. Shu o‘rinda aytish joizki, badiiy asarlarda yangi davr leksemalarining qo‘llanilishi eski so‘zlarning to‘liq yo‘qolishiga sabab bo‘lmaydi. Til tizimi qatlamli xarakterga ega bo‘lib, unda yangi birliklar paydo bo‘lishi eski leksik birliklarning iste’moldan chiqishiga emas, balki ularning funksional va stilistik mavqeining o‘zgarishiga olib keladi. Shu bois zamonaviy o‘zbek nasrida yangi leksemalar faol qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, eski so‘zlar badiiy va tarixiy qatlamda saqlanib qoladi.

Xulosa shundaki, o‘zbek badiiy matnida yangi davr leksemalari shunchaki “yangi so‘zlar” emas, balki yozuvchi qo‘lidagi o‘tkir stilistik quroldir. Ular orqali matnning ekspressivligi ortadi va tilning zamon bilan hamnafas rivojlanayotgani ko‘rinadi. O‘zbek badiiy matnida yangi davr leksemalari mustaqillikning ilk bosqichida, asosan yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan bo‘lsa, hozirgi davrda esa badiiy matnning estetik va stilistik boyligini oshiruvchi muhim vositaga aylangan. Yangi davr ot leksemalari o‘zbek badiiy matnining muhim tarkibiy qismi sifatida tilning stilistik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Ular orqali zamonaviy voqelik aks ettiriladi, qahramon obrazlari chuqurroq ochiladi, ekspressivlik va baholash kuchayadi, badiiy nutqning individualligi ta’minlanadi.

Umuman olganda, she’riy asarlarda leksik qatlamlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi badiiy matnning ko‘p qatlamli semantik tuzilishini shakllantiradi, muallif uslubini individuallashtiradi hamda o‘quvchida kuchli estetik ta’sir uyg‘otadi, shu sababli leksik birliklar she’riyatning lingvopoetik tizimida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asadov T.H. Matn tilshunosligi. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2023.
2. O‘rinboyev B., Qo‘ng‘urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – T.: O‘qituvchi, 1990.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va lingvopoetik tahlil asoslari. – T., 2007.
4. Shomahmudova Sh. Zamonaviy o‘zbek tilida neologizmlar. – T., 2019.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T., 1992.
5. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: “Fan va texnologiya”, 2010.
6. Saidova X. F. The formal characteristics of socio-political-economic simple lexemesoftheindependence period (in the noun category).
7. Saidova Kh.F. On the Development of Socio-Political Vocabulary of The Uzbek Language in the Following Years.
9. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: “Ўқитувчи”, 1965.
10. Xo‘jayev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarning izohli lug‘ati. – T.: “Sard”,2001.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. – Тошкент, 2006-2008 у.
12.https://www.ziyonet.uz

Feruza ABDUJALILOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

ADABIY TIL VA SHEVALAR O‘RTASIDAGI O‘ZIGA XOS TAFOVUTLARNING FONETIK, LEKSIK VA GRAMMATIK ME’YORLAR ASOSIDA TARTIBGA SOLINISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiy tilning rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni tadqiq etilgan. Shuningdek, milliy tilning me’yorlashgan shakli hamda hududiy dialektlarning o‘zaro aloqasi, hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishida turli hududiy shevalarning, xususan, janubiy va markaziy lahjalarning ta’siri qiyosiy tahlillar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiy til, sheva, lahja, badiiy adabiyot tili, milliy til, til me’yorlari, fonetik xususiyatlar, nutq madaniyati, kommunakativ vaziyat.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются этапы развития литературного языка в татье изучается место узбекского языка в современном обществе. На основе сравнительного анализа также освещается взаимосвязь между стандартизированной формой национального языка и региональными диалектами, а также влияние различных региональных диалектов, в частности южных и центральных, на формирование современного узбекского литературного языка.

Ключевые слова: *литературный язык, диалект, язык художественной литературы, национальный язык, языковые нормы, фонетические особенности, речевая культура, коммуникативная ситуация.*

Annotation: this article explores the stages of development of the literary language and its role in modern society. Likewise, the standardized form of the national language and the interrelationship of regional dialects are illuminated based on comparative analysis.

Key words: *Literary language, sub-dialect, language offiction, national language, language norms, phonetic features, speech culture, communicative situation.*

Adabiy til – jamiyatning barcha a’zolari uchun umumiy bo‘lgan, tartibga solingan va me’yorlashtirilgan til shakli. U jamiyatning turli sohalarida, xususan, ta’lim, fan, davlat boshqaruvi va ommaviy axborot vositalarida asosiy aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi.O‘zbek adabiy tilining rivojlanish tarixiga nazar tashlansa, qadimgi turkiy adabiy til: 6-10-asrlar mobaynida amalda bo‘lgan til bo‘lib, bu tilda qadimgi turkiy yozma yodgorliklari yaratilgan. Eski turkiy adabiy til 11–13-asrlar davomida shakllangan. Ushbu davrda “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq”, “O‘g‘uznoma”, “Muhabbatnoma”, “Qissai Rabg‘uziy” kabi buyuk adabiy asarlar yaratilgan. Eski o‘zbek adabiy tili 14-18-asrlar mobaynida shakllanib, boyib, takomillashgan adabiy tildir. Bu tilda Lutfiy, Sakkokiy, Durbek, Atoiy, Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Gulhaniy, Abulg‘ozi Bahodirxon, Turdi kabi buyuk shoir va yozuvchilar o‘z asarlarini yaratdilar.

Sheva (forscha–”usul”, “harakat tarzi”) tilning muayyan bir hududga xos bo‘lgan eng kichik birligi hisoblanadi. U o‘zining tovushlar tizimi, grammatik qurilishi hamda so‘z boyligi bilan boshqa hududiy nutq shakllaridan ajralib turadi. Odatda, bir yoki bir necha yaqin aholi punktlari (masalan, qishloqlar) aholisi o‘zaro muloqotda aynan shu vositadan foydalanishadi.Har bir sheva o‘ziga xos lisoniy tizimga ega bo‘lib, u so‘z yasalishi va talaffuz xususiyatlari bilan boshqa turdosh tizimlardan farqlanadi.

O‘zbek milliy tili tarkibida uchta lahja bor:

1.Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).

2.Qipchoq lahjasi (janubiy-g‘arbiy guruh).

3.O‘g‘uz lahjasi (shimoliy-g‘arbiy guruh).

O‘zbek tilidagi Marg‘ilon shevasi qarluq lahjasiga, mang‘it yoki saroy shevalari esa qipchoq lahjasiga mansub kichik hududiy ko‘rinishlar sanaladi. Bir necha o‘xshash shevalarning o‘zaro birlashishi natijasida esa yirikroq til birligi — lahja shakllanadi. Adabiy til xalq og‘zaki nutqi va shevalari - umumxalq tiliga tayanadi, lekin undan farqli ravishda qat’iy me’yorlar asosida shakllanadi.Misol uchun, hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishida turli hududiy shevalarning, xususan, janubiy va markaziy lahjalarning ta’siri kuzatiladi. Jahon tajribasiga nazar tashlansa, ko‘plab tillarda ham adabiy til shevalar negizida shakllanganini ko‘rish mumkin. Jumladan, italyan adabiy tili tarixan Toskana shevasi asosida rivojlangan.Ispan tili esa Kastiliya viloyati lahjasidan tashkil topgan. Adabiy tilning ikki ko‘rinishi mavjud: yozma adabiy til va og‘zaki adabiy til.Yozma adabiy tilda, asosan, imlo qoidalari va uslubiy barqarorlik birinchi o‘rinda turadi.Og‘zaki adabil til orfoepiya va nutq madaniyatiga tayanadi. Bu ikki ko‘rinish bilan badiiy adabiyot tilini ayni bir deb bo‘lmaydi. Badiiy

asar tili adabiy til me’yorlariga bo‘ysunsa-da, o‘zida ko‘plab xususiy va norasmiy jihatlarni mujassamlashtiradi. Adabiy til va milliy til o‘rtasida ham farq mavjud. Milliy til shu tilning egasi bo‘lgan xalq millat bo‘lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasi o‘taydi, ammo har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi. Muayyan tartib-qoidalar va mezonlar asosida yuzaga keladigan adabiy til me’yorlari darsliklar, ilmiy hamda badiiy asarlar orqali shakllanadi. Ushbu me’yorlar radio, televideniye, matbuot kabi ommaviy axborot vositalari, kino san’ati va ta’lim muassasalari yordamida jamiyat hayotiga tatbiq etiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, adabiy til hamda jonli so‘zlashuv nutqi (shevalar) o‘rtasidagi o‘ziga xos tafovutlar har doim saqlanib qoladi. Hatto erkin tuyulgan og‘zaki nutqning o‘zi ham o‘z navbatida muayyan fonetik, leksik va grammatik me’yorlar asosida tartibga solinishi bilan ajralib turadi. Adabiy til me’yorlari hamda davr kuchi bir xil bo‘lmaydi: har davrning o‘z adabiy til me’yorlari bo‘ladi. Masalan, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek tili, yangi o‘zbek tili va hozirgi zamon o‘zbek tilining o‘ziga xos adabiy ma’nolari bor. Adabiy tilning fonetik xususiyatlari deganda, so‘zlarning imlo qoidalariga mos ravishda, sheva unsurlaridan xoli va tushunarli tarzda talaffuz qilinishi tushuniladi. Bu me’yorlar nutq madaniyatining poydevori hisoblanadi. Adabiy tildagi asosiy fonetik xususiyatlar:

1.Unlilarning barqarorligi: Adabiy tilda 6 ta asosiy unli fonema (a, o, i, u, o‘, e) mavjud. Shevalarda uchraydigan unlilarning cho‘zilishi yoki qisqarishi (“tooor” yoki “bordi-daaa”) adabiy tilda cheklanadi. Har bir unli o‘z o‘rnida aniq talaffuz etiladi.

2.Undoshlarning tushib qolmasligi: So‘z oxiridagi ketma-ket kelgan undoshlarni to‘liq talaffuz qilish adabiy tilning muhim talabidir.

Xato: “do‘s” (do‘st), ”go‘sh” (go‘sht), “manfaasiz” (manfaatsiz).

To‘g‘ri (Adabiy): do‘st, go‘sht, manfaatsiz.

3.So‘z oxiridagi “ng” tovushi: shevalarda “ng” o‘rniga ko‘pincha “n” ishlatiladi. Adabiy tilda esa burun tovushi (“ng”) saqlanishi shart.

Xato: “aytin”, “bo‘lin” (buyruq ma’nosida).

To‘g‘ri (Adabiy): ayting, bo‘ling.

4.Urg‘uning o‘rni: o‘zbek adabiy tilida urg‘u asosan so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yish (masalan, “bitik”so‘zida birinchi bo‘g‘inga urg‘u berish) adabiy talaffuz me’yorini buzadi.

5.Diksiya va ohang (Intonatsiya): fikrni ifodalashda ovoz past-balandligi va pauzalarning o‘rni katta. Adabiy tilda har bir tovush (ayniqsa, q, g‘, h, x kabi qiyin tovushlar) bir-biriga qorishib ketmasdan, tiniq chiqishi kerak.

6.Qo‘shimchalar talaffuzi: kelishik va shaxs-son qo‘shimchalari sheva ta’siriga tushmasligi kerak.

Xato: “ishga ketvoman”, “kelvoti”.

To‘g‘ri (adabiy): ishga ketyapman, kelyapti…

Ushbu fonetik me’yorlar nutqning estetik go‘zalligini va tinglovchi tomonidan bir xil tushunilishini ta’minlaydi. Rasmiy kommunikativ vaziyatda juda tez yoki haddan tashqari sekin gapirish adabiy til me’yoriga to‘g‘ri kelmaydi. O‘rtacha maromdagi nutq fonetik jihatdan eng maqbul hisoblanadi.Nutq madaniyati – bu shunchaki chiroyli gapirish emas, balki til imkoniyatlaridan vaziyatga qarab o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish san’atidir. Bu jarayonda adabiy til poydevor vazifasini o‘taydi. Adabiy til milliy tilning eng saralangan, sayqallangan va ma’lum bir qoliplarga (me’yorlarga) solingan shaklidir. Agar tilni ulkan bir ummon deb tasavvur qilsak, adabiy til uning eng toza va tiniq qismidir. Nutq madaniyati esa ana shu tiniqlikni saqlashga xizmat qiladi. Inson o‘z nutqida adabiy til qoidalariga: a) so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish (orfoepiya); b)imlo qoidalariga rioya qilish (orfografiya); va v)gaplarni mantiqan to‘g‘ri tuzishga amal qilsagina, uning nutqi madaniy hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy til va shevalar til tizimining o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi muhim tarkibiy qismlaridir. Shevalar tilning tarixiy ildizlarini saqlab qolish bilan birga, uning lug‘aviy va uslubiy boyishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan ular adabiy til rivojining tabiiy manbai hisoblanadi.Biroq adabiy tilning asosiy vazifasi — jamiyat a’zolari o‘rtasida yagona, tushunarli va me’yorlashgan aloqa vositasini ta’minlashdan iborat. Shu sababli sheva unsurlarining me’yoridan ortiq va noo‘rin qo‘llanishi nutqning aniqligi hamda ravonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Demak, zamonaviy til taraqqiyotida adabiy til va shevalar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning uyg‘un holda rivojlanishi til madaniyatining yuksalishiga, jamiyatda samarali muloqotning ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: “0‘zbekiston”, 2003.
2.H. Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 2013.(Fonetika bo‘limi) darsligi.
3. Mirtojiyev M. “O‘zbek tili fonetikasi” – Toshkent: Fan, 2013.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. ”Hozirgi o‘zbek adabiy tili” –Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2000-2005
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tillar_oilasi
7. https://www.wikiwand.com/uz/Tillar_tasnifi

Feruzjon SHARIPOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti №1 kafedrasi,
PhD, Ingliz tili o‘qitish metodikasi

DISSOTSATSIYA VA IMPLITSIT MA’NO: PRAGMATIK TAHLIL

Annotatsiya: mazkur maqolada dissotsiatsiya hodisasi va implitsit ma’noning diskursdagi pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dissotsiatsiya nutq segmentlarining asosiy sintaktik yoki semantik tuzilmadan nisbiy ajralishi, mustaqil kommunikativ vazifa bajarishi sifatida izohlanadi. Implitsit ma’no esa bevosita aytilmagan, biroq kontekst, intonatsiya, nutq vaziyati, umumiy bilim va pragmatik belgilar orqali anglashiladigan yashirin mazmun sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *dissotsiatsiya, implitsit ma’no, pragmatika, diskurs, yashirin ma’no, kontekst, nutq strategiyasi, kommunikativ niyat.*

Annotation: this article describes the phenomenon of dissociation and implicit meaning from a pragmatic perspective. Dissociation is understood as the relative separation of speech segments from the main syntactic or semantic structure, allowing them to perform independent communicative functions within discourse. Implicit meaning, in turn, refers to information that is not directly expressed but inferred through context, intonation, communicative situation, and shared background knowledge.

Key words: *dissociation, implicit meaning, pragmatics, discourse.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются явления диссоциации и имплицитного значения с прагматической точки зрения. Диссоциация понимается как относительное отделение речевых сегментов от основной синтаксической или семантической структуры высказывания, при котором они выполняют самостоятельные коммуникативные функции. Имплицитное значение трактуется как скрытый смысл, не выраженный напрямую, но выводимый из контекста, интонации, коммуникативной ситуации и общего фонового знания участников общения.

Ключевые слова: *диссоциация, имплицитное значение, прагматика.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda nutq faqat grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy, psixologik, madaniy va pragmatik omillar bilan bog‘liq murakkab kommunikativ jarayon sifatida o‘rganiladi. Shu nuqtayi nazardan, diskursda ifodalangan ma’no har doim ham ochiq va bevosita shaklda namoyon bo‘lavermaydi. Ko‘pincha so‘zlovchi o‘z fikrining ma’lum qismini yashirin tarzda beradi, tinglovchi esa bu ma’noni kontekst, vaziyat, intonatsiya, oldingi bilim va nutqiy tajriba asosida anglaydi. Ana shu jarayonda implitsit ma’no va dissotsiatsiya hodisasi muhim o‘rin egallaydi.

Dissotsiatsiya nutq segmentlarining asosiy sintaktik yoki semantik oqimdan ajralib, alohida kommunikativ vazifa bajarishi bilan bog‘liq hodisadir. Bunday segmentlar ba’zan izoh, ba’zan baho, ba’zan kinoya, ba’zan esa yashirin tanqid yoki ehtiyotkor munosabatni ifodalaydi. Masalan, *Bu qaror, ochig‘ini aytganda, kutilmagan bo‘ldi* gapida *ochig‘ini aytganda* segmenti asosiy axborotdan ajralgan holda so‘zlovchining munosabatini bildiradi. Gapning asosiy mazmuni qarorning kutilmaganligi bo‘lsa, dissotsiatsiyalangan segment ushbu fikrga subyektiv baho beradi.

Implitsit ma’no esa bevosita aytilmagan, ammo nutq vaziyatida anglashiladigan mazmundir. Masalan, *Xonada biroz sovuq ekan* jumlasi oddiy kuzatish bo‘lishi mumkin, lekin muayyan vaziyatda u *derazani yoping* yoki *isitkichni yoqing* degan yashirin iltimosni anglatishi mumkin. Demak, implitsit ma’no nutqning tashqi shaklidan emas, balki kommunikativ vaziyat va ishtirokchilarning umumiy bilimidan kelib chiqadi.

Dissotsiatsiya va implitsit ma’no o‘zaro chambarchas bog‘liq. Chunki ajratilgan nutq segmentlari ko‘pincha bevosita emas, balki bilvosita ma’no yaratadi. Ular gapning ochiq mazmuniga qo‘shimcha pragmatik qatlam qo‘shadi. Bu qatlam orqali so‘zlovchi o‘z pozitsiyasini yumshatadi, baholaydi, kinoya qiladi, mas’uliyatni kamaytiradi yoki tinglovchini ma’lum xulosaga yo‘naltiradi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi diskurs tahlilida yashirin ma’no, pragmatik strategiya va nutq segmentlarining mustaqil vazifasini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarjima, madaniyatlararo muloqot, siyosiy nutq, ilmiy matn va kundalik suhbatlarda implitsit ma’noni to‘g‘ri anglash kommunikativ muvaffaqiyatning asosiy shartlaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Dissotsiatsiya va implitsit ma’no masalasi pragmatika, diskurs tahlili, matn lingvistikasi va semantika doirasida shakllangan nazariy qarashlar asosida izohlanadi. Pragmatika til birliklarining faqat lug‘aviy yoki grammatik ma’nosini emas, balki ularning nutqiy vaziyatdagi qo‘llanishini o‘rganadi. Shu jihatdan implitsit ma’no pragmatikaning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Graysning implikatura nazariyasi bu borada muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning fikricha, muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi hamkorlik tamoyiliga tayanadi. So‘zlovchi ayrim ma’lumotlarni ochiq aytmasa ham, tinglovchi ularni kontekst asosida xulosa qiladi [1]. Masalan, *U juda band odam* jumlasi muayyan vaziyatda *u siz bilan uchrasha olmaydi* degan implitsit ma’noni bildirishi mumkin. Bu yerda yashirin ma’no gapning grammatik tuzilishida emas, balki nutqiy vaziyatda shakllanadi.

Levinson pragmatik ma’noni kontekst va xulosa chiqarish mexanizmlari bilan bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, til birliklari nutqda ko‘pincha ortiqcha ma’no yuklaydi, ya’ni so‘zlovchi aytganidan ko‘proq narsani nazarda tutadi [4]. Bu holat dissotsiatsiyalangan segmentlarda yanada aniq ko‘rinadi. Masalan, *Agar adashmasam, bu masala ilgari ham ko‘tarilgan edi* gapida *agar adashmasam* segmenti asosiy fikrdan ajralgan bo‘lib, ehtiyotkorlik, mas’uliyatni yumshatish va bahsni keskinlashtirmaslik strategiyasini bildiradi. Diskurs tahlilida Shiffrinning diskurs markerlari haqidagi qarashlari alohida o‘rin tutadi. U *well, so, but, because, however* kabi birliklar nutq oqimini tashkil etish, segmentlar orasidagi munosabatni belgilash va tinglovchini ma’lum talqinga yo‘naltirishini ko‘rsatadi [5]. O‘zbek tilida ham *demak, xullas, aytmoqchi, lekin, ammo, to‘g‘risi* kabi birliklar nutq segmentlarini ajratadi va ularga qo‘shimcha pragmatik ma’no beradi.

Matn lingvistikasida Halliday va Hasan kohezion vositalar orqali matnning bog‘liqligini tushuntiradi [6]. Biroq dissotsiatsiya shuni ko‘rsatadiki, matndagi ajralgan segmentlar ham umumiy yaxlitlikka xizmat qilishi mumkin. Ya’ni segmentning formal ajralishi matnning mazmuniy uzilishiga olib kelmaydi. Aksincha, u izoh, ta’kid, kontrast yoki baholash vazifasini bajaradi. Van Deyk diskursni ijtimoiy-kognitiv hodisa sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, diskursda ma’no faqat til birliklari orqali emas, balki ishtirokchilarning bilimlari, ijtimoiy tajribasi va ideologik qarashlari orqali ham shakllanadi [7]. Bu yondashuv implitsit ma’no tahlili uchun muhimdir, chunki yashirin ma’no ko‘pincha umumiy madaniy bilimlarga tayanadi.

Muhokama va tahlil. Dissotsiatsiya va implitsit ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlik nutqning ko‘p qatlamli tabiatini ochib beradi. Har qanday nutq birligi faqat grammatik shakl yoki lug‘aviy ma’no orqali emas, balki nutqiy vaziyatdagi vazifasi orqali ham baholanadi. Shu sababli dissotsiatsiyalangan segmentlar ko‘pincha gapning asosiy mazmunidan tashqarida turgandek ko‘rinsa-da, aslida eng muhim pragmatik axborotni tashiydi. Masalan, *Bu ish, menimcha, biroz shoshilinch bajarilgan* gapida asosiy axborot ishning shoshilinch bajarilganidir. Biroq *menimcha* segmenti bu fikrni yumshatadi, uni qat’iy hukm emas, shaxsiy baho sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda implitsit ma’no shundan iboratki, so‘zlovchi tanqid qilmoqda, lekin uni ochiq va keskin shaklda emas, ehtiyotkorlik bilan ifodalamoqda.

Dissotsiatsiyalangan segmentlar ko‘pincha baholash vazifasini bajaradi. Masalan, *U, ajablanarlisi shundaki, majlisga vaqtida keldi* gapida *ajablanarlisi shundaki* segmenti hodisaga baho beradi. Bevosita aytilmagan implitsit ma’no esa shuki, bu odam odatda majlisga kechikib keladi. Demak, dissotsiatsiyalangan segment orqali avvalgi tajriba va yashirin munosabat ifodalanadi. Kinoya va yashirin tanqid ham dissotsiatsiya orqali kuchayadi. Masalan, *Albatta, siz har doimgidek juda “aniq” tushuntirdingiz* jumlasida tashqi shakl maqtovga o‘xshaydi. Ammo kontekstda u kinoya bo‘lishi mumkin. Bu yerda *albatta* segmenti va *har doimgidek* birikmasi yashirin tanqidni kuchaytiradi. Implitsit ma’no: tushuntirish aslida aniq bo‘lmagan. Ilmiy nutqda dissotsiatsiyalangan segmentlar mulohazani ehtiyotkor va asosli ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, *Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari bosqichma-bosqich shakllanadi* gapida *tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki* segmenti ilmiy ehtiyotkorlikni bildiradi. Implitsit ma’no: muallif xulosani subyektiv emas, tadqiqot dalillariga tayangan holda bermoqda.

Kundalik suhbatda esa implitsit ma’no ko‘pincha iltimos, norozilik yoki maslahat shaklida yashirin ifodalanadi. Masalan, *Bu yerda havo dim bo‘lib ketdi* jumlasi ochiq shaklda faqat holatni bildiradi. Ammo vaziyatga qarab u *derazani oching* degan yashirin iltimosni anglatadi.

Shunday qilib, dissotsiatsiyalangan segmentlar nutqdagi qo‘shimcha pragmatik qatlamni yaratadi. Ular orqali so‘zlovchi o‘z fikrini yumshatadi, kuchaytiradi, yashiradi, ta’kidlaydi yoki boshqa yo‘nalishga buradi. Implitsit ma’no esa ushbu segmentlarning kontekstual talqini orqali yuzaga chiqadi. O‘zbek va ingliz tillarida dissotsiatsiya va implitsit ma’no o‘xshash pragmatik vazifalarni bajarsa-da, ularning ifodalanish vositalari ayrim jihatdan farqlanadi. Har ikki tilda ham ajratilgan segmentlar baholash, ehtiyotkorlik, kinoya, mavzu almashinuvi va yashirin munosabatni ifodalashga xizmat qiladi.

Ingliz tilida dissotsiatsiya ko‘pincha *frankly speaking, to be honest, I think, however, actually, well, by the way* kabi diskurs birliklari orqali yuzaga keladi. O‘zbek tilida esa bunga *ochig‘ini aytganda, to‘g‘risi, menimcha, biroq, aslida, aytmoqchi, xullas* kabi birliklar mos keladi.

Masalan:

To be honest, your answer was not very clear.

Ochig‘ini aytganda, javobingiz unchalik tushunarli bo‘lmadi.

Har ikki gapda ham *to be honest* va *ochig‘ini aytganda* segmentlari asosiy fikrdan ajralgan. Ular tanqidni yumshatadi, lekin ayni paytda so‘zlovchining samimiy pozitsiyasini bildiradi. Implitsit ma’no: so‘zlovchi javobdan qoniqmagan.

Yana bir misol:

Well, I expected a better result.

Xo‘sh, men bundan yaxshiroq natija kutgandim.

Bu yerda *well* va *xo‘sh* segmentlari suhbatdagi noqulaylik, hafsalasi pir bo‘lish yoki ehtiyotkor tanqidni bildirishi mumkin. Gapda ochiq aytilmagan ma’no shuki, mavjud natija yetarli emas.

Ingliz tilida *I think* birikmasi ko‘pincha fikrni yumshatish uchun ishlatiladi:

I think this decision needs more discussion.

O‘zbek tilida bunga *menimcha* mos keladi:

Menimcha, bu qaror yana muhokama qilinishi kerak.

Har ikki holatda ham so‘zlovchi tanqidiy pozitsiyani qat’iy buyruq yoki hukm shaklida emas, shaxsiy mulohaza sifatida beradi. Bu pragmatik ehtiyotkorlikni kuchaytiradi.

Farqli jihat shundaki, o‘zbek tilida implitsit ma’no ko‘pincha intonatsiya, hurmat shakllari va yumshatuvchi birliklar orqali ifodalanadi.

Masalan:

Shu ishni bugun tugatsak yaxshi bo‘lardi.

Bu gap bevosita taklifga o‘xshaydi, ammo kontekstda u iltimos yoki topshiriq bo‘lishi mumkin.

Ingliz tilida esa shunga o‘xshash ma’no modal fe’llar orqali beriladi:

It would be good if we finished this work today.

Demak, ingliz tilida modal konstruksiyalar, o‘zbek tilida esa shart mayli, hurmat shakllari va yumshatuvchi iboralar implitsit ma’no yaratishda faol qatnashadi. O‘zbek va ingliz tillarida dissotsiatsiya kommunikativ strategiya sifatida o‘xshash vazifa bajaradi. Biroq har bir tilning grammatik, madaniy va pragmatik xususiyatlari yashirin ma’noning ifodalanish shakliga ta’sir qiladi.

Xulosa. Dissotsiatsiya va implitsit ma’no diskursning chuqur pragmatik qatlamini tashkil etuvchi muhim hodisalardir. Dissotsiatsiya nutq segmentlarining asosiy gap tuzilmasidan nisbiy ajralishi orqali yuzaga keladi, implitsit ma’no esa ushbu segmentlar, kontekst, intonatsiya va kommunikativ vaziyat asosida anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.

2. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 168 p.

3. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

4. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.

Diyora MAMANAZAROVA,
O‘zDJTU, Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi
diyoramamanazarova0@gmail.com

FUTBOL SHARHLARIDA DISKURS MARKERLARINING TARJIMADAGI FUNKSIONAL TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada futbol sharhlarida qo‘llaniladigan diskurs markerlarining lingvistik-pragmatik xususiyatlari va ularning tarjimadagi funksional transformatsiyasi tahlil qilinadi.Tadqiqot ingliz tilidagi futbol kommentariyalari asosida olib borilib, diskurs markerlarining o‘zbek tiliga tarjima strategiyalari aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarjimada asosan omission, funksional ekvivalentlik va pragmatik moslashtirish strategiyalari qo‘llaniladi.Diskurs markerlarining protsedural tabiati ularning tarjimada transformatsiyasini muqarrar qiladi hamda noto‘g‘ri uzatilishi tarjimaning pragmatik adekvatligi, xususan tabiiylik va kommunikativ samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *diskurs markerlari, futbol kommentariyasi, sport diskursi, tarjima strategiyalari, pragmatik adekvatlik, lingvopragmatika, funksional transformatsiya, ekvivalentlik, omission (tushirib qoldirish), pragmatik moslashtirish*

Annotation: this article analyzes the linguistic and pragmatic features of discourse markers in football commentary and their functional transformations in translation. The study is based on English football commentaries and identifies the main strategies used in translating discourse markers into Uzbek. The findings indicate that omission, functional equivalence, and pragmatic adaptation are the most commonly applied strategies. Due to the procedural nature of discourse markers, their transformation in translation is inevitable, and their inadequate rendering may negatively affect the pragmatic adequacy of the translation, particularly in terms of naturalness and communicative effectiveness.

Key words: *discourse markers, football commentary, sports discourse, translation strategies, pragmatic equivalence, pragmatics, functional transformation, equivalence, omission, pragmatic adaptation*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистические и прагматические особенности дискурсивных маркеров в футбольных комментариях и их функциональные трансформации в процессе перевода. Исследование основано на английских футбольных комментариях, в рамках которого выявлены основные стратегии перевода дискурсивных маркеров на узбекский язык. Результаты показывают, что наиболее распространёнными стратегиями являются опущение, функциональная эквивалентность и прагматическая адаптация. Процедурный характер дискурсивных маркеров обусловливает неизбежность их трансформации в переводе, а их некорректная передача может негативно повлиять на прагматическую адекватность перевода, в частности на его естественность и коммуникативную эффективность.

Ключевые слова: *дискурсивные маркеры, футбольный комментарий, спортивный дискурс, переводческие стратегии, прагматическая эквивалентность, прагматика, функциональная трансформация, эквивалентность, опущение, прагматическая адаптация*

Kirish. So‘nggi yillarda diskurs lingvistikasi va pragmatika doirasida sport diskursi, xususan futbol kommentariyasi muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Futbol sharhlari real vaqt rejimida yuzaga keladigan, spontanlik, dinamiklik va emotsionallik bilan xarakterlanuvchi murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, unda til birliklarining pragmatik imkoniyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi (Humpolík, 2014; Meier-Vieracker, 2021). Ushbu diskursda diskurs markerlari nutq izchilligini ta’minlash, kommunikativ jarayonni tashkil etish va auditoriya bilan interaktiv aloqani qo‘llab-quvvatlashda muhim lingvopragmatik vosita sifatida xizmat qiladi (Schiffrin, 1987; Fraser, 1990). Ular shuningdek, emotsional-ekspressiv fonni shakllantirib, tinglovchi idrokini yo‘naltiradi (Oghogho, 2016; Ajiasa et al., 2024).

Biroq tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan diskurs markerlari muammoli birliklar hisoblanadi, chunki ular asosan protsedural (pragmatik) ma’no ifodalaydi (Aijmer & Foolen, 2006; Crible et al., 2019). Shu sababli ularni tarjima qilishda formal moslikdan ko‘ra funksional-pragmatik adekvatlikni ta’minlash muhimdir. Amaliyotda esa ular ko‘pincha qisqartiriladi yoki moslashtiriladi, bu esa tarjima sifatiga ta’sir qilishi mumkin. Mazkur maqolaning maqsadi futbol sharhlarida diskurs markerlarining lingvistik-pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada funksional transformatsiyasini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Diskurs markerlari zamonaviy lingvistika va pragmatika doirasida muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib, nutqning strukturaviy va kommunikativ tashkil etilishida asosiy vosita sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda ular “pragmatik markerlar” sifatida ham talqin qilinadi (Fraser, 1990). Schiffrin (1987) ularni diskurs izchilligini ta’minlovchi birliklar sifatida izohlab, ularning asosan pragmatik (protsedural) funksiyaga ega ekanligini ta’kidlaydi. Fraser (1990; 2009) esa diskurs markerlarini kommunikativ aktlar o‘rtasidagi mantiqiy va pragmatik munosabatlarni ifodalovchi vositalar sifatida tavsiflaydi. Lingvistik jihatdan ular grammatik jihatdan mustaqil bo‘lmagan, qisqa va ko‘pincha reduksiyalangan shaklda namoyon bo‘lib, sintaktik tuzilmaning majburiy qismi bo‘lmasa-da, nutq izchilligini ta’minlaydi hamda asosan og‘zaki, spontan diskursda yuqori chastotada qo‘llanadi. Futbol kommentariyasida esa diskurs markerlari alohida ahamiyat kasb etib, nafaqat nutqni tashkil etish, balki auditoriya bilan interaktiv aloqani ta’minlash va emotsional fonni kuchaytirish vazifasini bajaradi (Oghogho, 2016; Ajiasa et al., 2024). Futbol sharhlarida diskurs markerlarining asosiy funksiyalari quyidagicha tizimlashtirilishi mumkin:

1. Diskursni tashkil etish (organizational function). Ushbu markerlar nutqning ketma-ketligini va mantiqiy rivojlanishini ta’minlaydi:

and now, so, well, then. Masalan, *“And now he passes the ball…”* konstruktsiyasi voqea rivojini ko‘rsatadi va auditoriyani keyingi epizodga tayyorlaydi.

2. E’tiborni jalb qilish (interactional/attention function) Bu turdagi markerlar tinglovchini faol qabulga undaydi: *look, listen, you see*. Bunday birliklar kommunikativ interaktivlikni kuchaytiradi va sharhlovchi bilan auditoriya o‘rtasida “jonli aloqa” effektini yaratadi.

3. Emotsional-ekspressiv funksiya (affective function). Futbol sharhlarining eng muhim xususiyatlaridan biri emotsionallik bo‘lib, diskurs markerlari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi: *oh, wow, ah*. Ular voqealarning dramatikligini oshiradi va nutqni ekspressiv qiladi.

4. Pragmatik yo‘naltirish (procedural function). Diskurs markerlari tinglovchiga axborotni qanday talqin qilish kerakligini ko‘rsatib, izohlash, xulosa chiqarish yoki mavzu almashuvini signal qiladi (*well, so*) (Aijmer & Foolen, 2006).

Futbol kommentariyasi sport diskursining o‘ziga xos turi bo‘lib, spontanlik, tezkorlik va emotsionallik bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar diskurs markerlarining faol qo‘llanishini taqozo etadi. Tadqiqotlar ularning nafaqat lingvistik bog‘lovchi, balki kommunikativ jarayonni boshqaruvchi pragmatik vosita ekanligini ko‘rsatadi (Meier, 2019; Salameh Jiménez, 2025). Futbol sharhlarida diskurs markerlari yuqori chastotada qo‘llanib, nutqning uzluksizligini va voqealar ketma-ketligini ta’minlaydi. Xususan, *and, so, now, then* kabi birliklar real vaqt tasvirini strukturaviy jihatdan tashkil etadi (Meier-Vieracker, 2021). Ular, shuningdek, qisqa va fragmentar sintaktik strukturalar bilan uyg‘unlashib, nutq segmentlari o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’minlaydi: *“And now he passes the ball…” “So, a quick counterattack…”* Bundan tashqari, diskurs markerlari auditoriyaga yo‘naltirilgan bo‘lib, *look, you see, listen* kabi birliklar tinglovchini jalb qiladi (Oghogho, 2016). Emotsional-ekspressiv markerlar (*oh, wow, ah*) esa voqealarning dramatikligini oshiradi: *“Oh, what a goal!” “Ah, that was close!”* (Balteiro, 2018). Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan diskurs markerlari murakkab birliklar hisoblanadi, chunki ular asosan pragmatik-protsedural ma’no ifodalaydi (Fraser, 1990; Aijmer & Foolen, 2006). Shu sababli ularni tarjima qilishda formal moslikdan ko‘ra funksional-pragmatik adekvatlik muhimdir. Futbol kommentariyasining tezkor tabiati tufayli tarjimada diskurs markerlari ko‘pincha transformatsiyaga uchraydi (Crible et al., 2019; Callies & Levin, 2019). Mazkur transformatsiyalarni quyidagi asosiy strategiyalar asosida tizimlashtirish mumkin:

Qisqartirish yoki tushirib qoldirish (omission). Diskurs markerlarini tarjimada tushirib qoldirish eng ko‘p uchraydigan strategiyalardan biridir. Bu, avvalo, ularning semantik yuklamasi past, ammo pragmatik yuklamasi yuqori bo‘lishi bilan izohlanadi. Tarjimon ko‘pincha asosiy axborotni saqlab qolish maqsadida bunday birliklarni chiqarib tashlaydi: *“And now he shoots”* → “U zarba berdi”. Bunday transformatsiya natijasida nutq ixchamlashadi, biroq ayrim hollarda diskursning tabiiyligi va emotsional ohangi susayishi mumkin.

Funksional ekvivalent bilan almashtirish (equivalence). Ba’zi hollarda diskurs markerlari maqsad tilida mavjud bo‘lgan pragmatik jihatdan mos birliklar bilan almashtiriladi. Bu strategiya kommunikativ effektni maksimal darajada saqlash imkonini beradi: *“Oh!”* → “Voy!”. Mazkur holatda semantik moslikdan ko‘ra emotsional va pragmatik ekvivalentlik ustuvor hisoblanadi.

Parafraz yoki eksplikatsiya (paraphrase / explicitation). Diskurs markerining funksiyasi ba’zan kengaytirilgan shaklda ifodalanadi, ya’ni uning yashirin pragmatik ma’nosi ochiq tarzda beriladi: *“Well, that was unexpected”* → “Bu kutilmagan holat bo‘ldi”. Bu strategiya ayniqsa yozma tarjimada yoki auditoriya uchun aniqlik muhim bo‘lgan holatlarda qo‘llanadi. Natijada pragmatik ma’no saqlanadi, biroq nutqning spontanligi qisman yo‘qolishi mumkin.

Pragmatik moslashtirish (adaptation). Diskurs markerlari maqsad auditoriyasining lingvokulturologik xususiyatlariga mos ravishda qayta shakllantiriladi: *“You*

see…” → “Ko‘rib turibsiz…”. Bu strategiya ayniqsa sport sharhlarida muhim bo‘lib, auditoriya bilan interaktiv aloqani saqlashga xizmat qiladi.

Diskurs markerlarining tarjimada formal shaklda to‘liq saqlanishi kam uchraydi, chunki ular asosan kontekstga bog‘liq pragmatik birliklar bo‘lib, turli tillarda funksional ifodalanish usullari farqlanadi (Crible et al., 2019). Shu sababli ular tarjima jarayonida ko‘pincha transformatsiyaga uchraydi va bu jarayon tarjimonning pragmatik kompetensiyasiga bevosita bog‘liqdir. Tarjimashunoslikda pragmatik adekvatlik matnning nafaqat semantik mazmunini, balki uning kommunikativ ta’siri va funksional yo‘nalishini ham saqlab qolishni anglatadi (Emery, 2004; Scarpa, 2019). Diskurs markerlarining noto‘g‘ri yoki yetarli darajada uzatilmasligi ushbu adekvatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatib, nutqning tabiiyligi, emotsional-ekspressivligi va kommunikativ samaradorligini pasaytiradi (Aijmer & Foolen, 2006). Xususan, ularning tushirib qoldirilishi nutqni sun’iylashtiradi, emotsional markerlarning yo‘qolishi esa matnning dramatik ta’sirini kamaytiradi. Bundan tashqari, diskurs markerlari auditoriya bilan interaktiv aloqani ta’minlovchi vosita bo‘lgani sababli, ularning noadekvat tarjimasi kommunikativ samaradorlikni susaytiradi (Ruuskanen, 1996).

Xulosa. Mazkur tadqiqot futbol sharhlarida diskurs markerlarining lingvistik-pragmatik xususiyatlari va ularning tarjimadagi funksional transformatsiyasini tahlil qildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, diskurs markerlari sport kommentariyasida nutq izchilligini ta’minlash, emotsionallikni kuchaytirish va auditoriya bilan kommunikativ aloqani qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Tarjima jarayonida ular ko‘pincha omission, ekvivalentlik, parafraz va pragmatik moslashtirish orqali ifodalanadi. Biroq bunday transformatsiyalar ayrim hollarda tarjimaning pragmatik adekvatligiga, xususan nutqning tabiiyligi va ekspressivligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois futbol sharhlarini tarjima qilishda asosiy e’tibor funksional-pragmatik adekvatlikni ta’minlashga qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schiffrin D. *Discourse Markers*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 364 p.
2. Fraser B. An approach to discourse markers // *Journal of Pragmatics*. – 1990. – Vol. 14, No. 3. – P. 383–395.
3. Fraser B. An account of discourse markers // *International Review of Pragmatics*. – 2009. – Vol. 1. – P. 293–320.
4. Aijmer K., Foolen A. Pragmatic markers in translation // *Pragmatic markers in contrast*. – Amsterdam: Elsevier, 2006. – P. 25–45.
5. Crible L., Abuczki Á., Burkšaitienė N., Furkó B. Functions and translations of discourse markers in multilingual contexts // *Journal of Pragmatics*. – 2019.
6. Emery P. G. Translation, equivalence and fidelity: A pragmatic approach // *Babel*. – 2004. – Vol. 50, No. 2. https://www.jbe-platform.com/content/journals/10.1075/babel.50.2.05eme
7. Scarpa F. Pragmatic aspects of translation // *The Routledge Handbook of Translation and Pragmatics*. – London: Routledge, 2019.
8. Ruuskanen D. D. K. Pragmatic factors in translation // *Language Sciences*. – 1996.–Vol.18,No.3- 4
9. Humpolík R. *Language of football commentators: An analysis of live English football commentary*. – Brno: Masaryk University, 2014. https://is.muni.cz/th/383176/ff_b/Bachelor_s_thesis.pdf
10. Meier S. Formulaic language and text routines in football commentary // *Corpus approaches to the language of sport*. – 2019. https://www.researchgate.net/profile/Simon-Meier
11. Meier-Vieracker S. Football commentary as a dynamic discourse. – 2021. https://osf.io/download/9g4zw
12. Oghogho J. A. An analysis of discourse markers in football commentaries // *Scholars Bulletin*. – 2016. https://www.saudijournals.com/media/articles/SB_210554-563.pdf
13. Ajiasa M. P., Haryanti R. P., Yuliasri I. A comparative analysis of English discourse markers in football commentary // *English Education Journal*. – 2024. https://journal.unnes.ac.id/journals/eej/article/download/11760/1873
14. Balteiro I. Pragmatic markers in football discourse // *Journal of Pragmatics*. – 2018. https://www.academia.edu/download/100487160
15. Salameh Jiménez S. Discourse markers in sports announcer talk // *Languages*. – 2025. – Vol. 10, No. 7. https://www.mdpi.com/2226-471X/10/7/172

Sevara USANOVA,
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali
“Xorijiy tillar” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA METAFORANING BADIIY ASARLARDA LINGVOSTILISTIK O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va koreys tillarida metafora hodisasining lingvostilistik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Metaforaning badiiy matndagi o‘rni, uning obrazlilik va ekspressivlikni ta’minlashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, ikki til materiallari asosida metafora va metonimiya hodisalarining o‘xshash va farqli jihatlari misollar orqali asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida metaforaning har ikki tilda ma’no ko‘chishining muhim vositasi ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *metafora, metonimiya, lingvostilistika, qiyosiy tahlil, o‘zbek tili, koreys tili, badiiy matn, ma’no ko‘chishi*

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ лингвостилистических особенностей метафоры в узбекском и корейском языках. Освещается роль метафоры в художественном тексте, её значение в создании образности и экспрессивности. На основе языковых материалов двух языков выявляются сходства и различия метафоры и метонимии. В результате исследования установлено, что метафора является важным средством переноса значения в обоих языках.

Ключевые слова: *метафора, метонимия, лингвостилистика, сравнительный анализ, узбекский язык, корейский язык, художественный текст, перенос значения*

Annotation: this article provides a comparative analysis of the linguostylistic features of metaphor in the Uzbek and Korean languages. The role of metaphor in literary texts and its function in creating imagery and expressiveness are discussed. Based on linguistic materials from both languages, similarities and differences between metaphor and metonymy are identified and explained with examples. The study concludes that metaphor serves as an essential means of semantic transfer in both languages.

Key words: *metaphor, metonymy, linguostylistics, comparative analysis, Uzbek language, Korean language, literary text, semantic shift*

Kirish. Chet tillarni o‘rganish hamda o‘rgatishga berilgan bunday katta e’tibor ingliz tili va boshqa til sohalarida yangidan-yangi tadqiqotlarni ochilishiga sabab bo‘lmoqda. Ma’lumki, kishilar o‘rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi, fikrni boshqalarga yetkazuvchi qurol bu tildir. Shu bilan birga tilda milliy madaniyatning o‘ziga xos oynasi bo‘lgan, uni saqlovchi, avloddan avlodga yetkazuvchi birliklar bo‘lgan frazeologik birliklarni o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. U yoki bu xalq yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tizimi, og‘zaki adabiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani, urf-odati aynan iboralar orqali avloddan avlodga yetkazib beriladi. Frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo‘lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ijtimoiy hayotning barcha jabhalari tub burilish yasaydigan voqealar yuz bergani singari ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi, ayniqsa, tilshunoslik faniga munosabat tubdan o‘zgargani bugungi kunda barcha mutaxassislar tomonidan qiziqish bilan qayd qilinib kelinmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Koreya mamlakatlarining hamkorlik munosabatlari kengayib, endilikda nafaqat siyosiy balki ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va boshqa sohalarda ham faoliyat olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda ikki davlat o‘rtasidagi madaniy munosabatlar o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarildi. Oxirgi 10 yil ichida, O‘zbekistonda koreys tilini o‘rganuvchilar soni sezilarli darajada o‘sib, 2004-yilda 1853 kishini tashkil etgani quvonarli holdir. Hozirgi kunda koreys tili jahonning 130 ta davlatida o‘rganilib, O‘zbekiston bu borada o‘quvchilar soni jihatidan 35-o‘rinda turadi. Bu dunyo miqyosida yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida ikki mamlakat iqtisodiy, madaniy munosabatlarga o‘z ta’sirini

o‘tkazmay qolmaydi. Munosabatlarda mavjud bo‘lgan samimiylik va ochiqlik har bir xalqning muloqot xulqida namoyon bo‘ladi. Har bir xalqning muloqot xulqi insonning ruhiyati, millati, yashash joyi, ma’naviyati,e’tiqodi, urf-odati, yoshi, jinsi, kasb-hunari va ijtimoiy o‘rniga muvofiq bir-biridan farq qiladi. Bunday farqni hisobga olgan holda munosabatlarga zarar yetkazmaslik uchun har ikkala xalqning o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi deb o‘ylaymiz. Albatta muloqot xulqini to‘g‘ri tarzda namoyon qilish uchun ushbu tilning qonun qoidalarini (grammatikasi) o‘rganish juda muhim sanaladi. Koreys tili o‘zining murakkab tuzilishga ega ekanligi bilan boshqa tillardan farq qiladi. Bular tildagi bog‘lovchi so‘zlarning ko‘pligida hamda ularning ma’no va shakl jihatidan bir-biriga o‘xshash ekanligida namoyon bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, koreys tiliga xos bo‘lgan etimologik jihatlar hamda ushbu tilni o‘rganish jaroyonida namoyon bo‘ladigan tilning nozik va farqli jihatlari ayniqsa o‘zga til egalari uchun murakkab sanaladi.

Ilmiy yangiligi. Qiyoslanayotgan har ikki til materiallariga asoslanib, metaforaga xos xususiyatlarni tekshirish jarayonida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

– metafora hodisasi til muammosi sifatida talqin etildi;

– koreys va o‘zbek tillari lug‘at boyligining ijtimoiy-tarixiy asoslari aniqlandi;

– har ikki til materiallari asosida ma’no ko‘chishini yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar dalillandi;

– koreys va o‘zbek tilda metafora hodisasiga xos xususiyatlar tavsiflandi;

Tadqiqot metodlari: Chet tilini o‘qitishda asosan 4 ta metod bo‘lib, ular quyidagilar: tarjima metodi, to‘g‘ri metodi, aralash metodi, qiyosiy metodi

Ushbu kurs ishini yozish davomida eng ko‘p qiyosiy metoddan foydalanildi. Shuningdek koreys tili grammatikasini o‘zbek tili bilan qiyoslagan holda o‘rganib chiqildi. Qiyosiy metod ko‘pchilik tomonidan keng ravishda foydalaniladigan metod sanaladi. Tarjima metodi esa samarali metodlardan bo‘lib, ayniqsa chet tillarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Chunki biror bir chet tili o‘z ona tiliga tarjima qilingan holda o‘rganiladi.

Badiiy nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda lingvostilistik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo‘lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev “sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarning maxsus qo‘llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so‘roq” kabi uslubiy figuralar “fikrning o‘ta ta’sirchan ifodalanishi”ga xizmat qilishini ta’kidlaydi. “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko‘rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: “anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so‘roq kabilar” Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo‘lgan deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi. Umumlashtiradigan bo‘lsak quyidagi holat yuzaga chiqadi: 1.Sintaktik parallelizm. 2.Emotsional gap. 3.Ritorik so‘roq gap. 4.Inversiya. 5.Ellipsis. 6.Gradatsiya. 7.Antiteza. 8.Farqlash. 9.O‘xshatish. Biz bulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

O‘xshatish deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalash”ga aytiladi. O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o‘xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to‘rt unsur nazarda tutiladi, ya’ni: 1) o‘xshatish subyekti; 2) o‘xshatish etaloni; 3) o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari. Masalan: **Alisher tulkiday ayyor bola.** Bunda: Alisher – o‘xshatish subyekti; tulki – o‘xshatish etaloni; ayyor – o‘xshatish asosi; -day – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Munavvara Yoqubbekova o‘zbek xalq qo‘shiqlari lingvopoetikasiga bag‘ishlangan monografiyasida o‘xshatishning yana bir unsuri “o‘xshatish maqsadi” ham mavjudligini ta’kidlagan. O‘xshatish etaloni o‘xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog‘ini belgilaydi. O‘xshatish etaloni qanchalik original bo‘lsa, o‘xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli bo‘ladi. Badiiy matndagi o‘xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an’anaviy va xususiy-muallif o‘xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo‘ladi. An’anaviy o‘xshatishlar og‘zaki nutqda ko‘p ishlatiladigan, shu sababdan ta’sirchanligini yo‘qotgan o‘xshatishlardir. Masalan: **tulkiday ayyor, toshday qattiq, yuzlari oydek, ko‘zlari charosdek, qo‘yday yuvosh, otning qashqasiday** ma’lum kabilar. Aslida ko‘p takrorlanishi tufayli “siyqasi chiqqan” deb baholanadigan bunday qurilmalarni tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog‘liq.

O‘zbek va koreys tillarida metaforaning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rib chiqamiz. Koreys tilida ma’no ko‘chish hodisalari alohida metafora, sinekdoxa, metonimiya holatida berilmagan, lekin, o‘zbek tilidagi metaforaga keltirilgan ta’rifga asoslanib quyidagi ma’no ko‘chishi sodir bo‘lgan misolimizni o‘zbek tilidagi metafora bilan o‘xshash desak xato bo‘lmaydi: 큰 마음(kata qalb),

작은 마음 (kichik qalb), 긴 마음 (uzun qalb), 짧은 마음 (tor qalb) kabi misollar koreys tilida judayam ko‘p. Bunda urg‘u qalb (마음)ga berilayapti . his- tuyg‘ular orqali sezib bo‘lmaydigan qalb (마음, 속)ni to‘g‘ridan – to‘g‘ri ko‘z orqali ko‘rib bo‘lmaydi, quloq orqali eshitib bo‘lmaydi, burun orqali hidlab bo‘lmaydi, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaganligi sababli uni hayolan shaklga keltiramiz. Lekin yashayotgan odamlarda ko‘ngil bor, ko‘ngli borligi sababli ular yashayapti. Ustiga ustak ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmas **katta qalb, kichik qalb, uzun qalb ,tor qalb** kabi qalbning shakllari biroz g‘alati ko‘rinadi. Holbuki bulardan foydalansak ifodalayotgan fikr ham aniq va londa tushuniladi.

마음씨가 곱다거나 거칠다	Qalbi go‘zal yoki qalbi qo‘pol (tarbiya kormagan)
마음의 문을 활짝 열었다	Ko‘ngil eshiklari keng ochiq(ko‘nglida kiri yo‘q insonlarga nisbatan ishlatiladi)
마음의 문을 꼭 닫다	Ko‘ngil eshiklari mahkam yopilgan (hech kimga ishonmaydigan insonlarga nisbatan)
그 사람 참 시원하다	Bu odam juda samimiydir.
그 분은 마음씨가 따뜻하다	Bu kishi mehribon qalb egasidir.
그녀는 마음이 눈처럼 희다	Bu qizning ko‘ngli qordek oppoqdir.
저 사람은 아주 곧은 마음이다	Ana u dam judayam to‘g‘ri qalb sohibidir.
저 사람은 아름답긴 하지만 가시가 있다	Ana u odam juda chiroyli lekin tikonlari bor.
속이 검다	Ichi qora, ya’ni qalbi yomon fikrlarga to‘la odamlarga nisbatan
마음이 든다	Ko‘ngliga yoqmoq, yoqtirmoq ma’nosida
마음이 두다	Ko‘ngil qo‘ymoq (qiziqmoq)

XX asr Amerikalik Jeykobson metafora va metonimiyaning mohiyatini ochishda katta hissa qo‘shgan olimdir. Uni haqiqiy tanqidga qo‘llagan holda, adabiyot uslubi ham metafora yoki metonimiyaga moyil ekanligi aniqlandi. VIII-asrdan XIX-asr gacha bo‘lgan romantik san’atda metafora xarakteri kuchli bo‘lgan. XIX-asr o‘rtalaridan boshlab realizm san’ati kuchli metonimik xarakterga ega bo‘ladi, asr oxiridagi adabiy tendensiya bo‘lgan ramziy ma’noda metafora xarakteri kuchli hisoblangan. Bundan tashqari, adabiy janrda she’riyat metafora, romanlar metonimik, pyesalar metafora, filmlar metafora. Jerar Jyunet, Semyuel Levin va Jon Seol kabi nazariyotchilar metonimiyani metaforaning bo‘linmasi deb hisoblashadi, ammo bu ikkala shakl o‘rtasida farq bor. Agar metafora o‘xshashlikka asoslansa, metonimiya qo‘shnilikka asoslangan. Metafora bilan taqqoslaganda metonimiya insonning katta empirik asosiga egadir. Ko‘pincha metafora kuchli mavhum hissiyotlarga ega bo‘ladi, metonimlar esa kuchli aniq va sezgir tuyg‘ularga egadir. Metafora barcha hodisalarni bir joyga to‘plash orqali o‘ziga xoslikka og‘irlik beradi, metonimiya esa odamlarni har qanday aniq hodisalarga singdiradi.

Metafora – bu maxfiy ifoda, ya’ni asl g‘oyani ochish uchun yordamchi g‘oya yordamida ochishdir. O‘xshatishlardan foydalanishda ogohlantirish shundan iboratki, ular vakillik xususiyatlarining o‘xshashligi bilan birlashtirilishi kerak. Agar vakilning atributlari bir-biriga to‘g‘ri kelmasa, jumla noqulay bo‘ladi. Boshqa tomondan, metafora ichki o‘xshashliklariga qarab ishlatilishi kerak. Masalan, **“kunim kundalikka o‘xshaydi” - “**일기장 같은 나의 하루**” –** bu taqlid yordamidagi ifoda hisoblanadi. Kundalikning asosiy atributi mening kunimning atributi bilan kamroq bog‘liq, shuning uchun bu nimani anglatishi noma’lum. Buni “**Mening kunim kundalik” – “**나의 하루는 일기장**” –** deb metafora shaklida ifodalash yaxshiroqdir. **Metonimiya** – boshqacha aytganda uyg‘otadigan metafora. Metonimiya – so‘z o‘rniga sizni eslatadigan boshqa so‘zni ishlatish metaforasi, masalan, **“AQSh Prezidenti” (**미국 대통령) o‘rniga **“Oq uy” (**백악관**).**

Badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda ko‘chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o‘xshatish, chog‘ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini hammamizga ma’lum. So‘z ma’nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya. Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usul sifatida badiiy uslubning, nutq badiiyatining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yordamchi so‘zlar ham vazifa ma’nosi keskin o‘zgarib, ko‘chma ma’no hosil qilishi mumkin. **Misol: „agar“ni „magar“ga kuyov qilsalar, tug‘ilgay bir o‘g‘il, oti „koshki“**

(G‘. Gulom). Bu gapda barcha so‘zlar yordamchi so‘zlar bo‘lib, hammasi ko‘chma ma’noda kelgan. Aytilganlaridan shunday xulosa qilish mumkin: so‘zning ma’nosi nutqda o‘z va ko‘chma ma’nolarida (metaforik) ma’nolari yuzaga keladi va so‘zning muayyan qurshovidagi muayyan ma’nosi sifatida voqelashadi. Koreys tilida ham affiksatsiya usuli bilan ma’no ko‘chish hodisasi uchraydi. 끊다 - **kesmoq, uzmoq**. Uzun qilib bo‘g‘langan narsani alohida-alohida qilib bo‘lakka ajratmoq, masalan: 실을 끊다 – ipni kesmoq, 테이프를 끊다 – lentani kesmoq, 고무줄을 끊다 – rezina arqonni kesmoq.

Aloqani uzmoq, masalan: 교제를 끊다 – munosabatni uzmoq, 발길을 끊다 – oyoq uzmoq, 소식을 끊다 – xabarni uzmoq, 연락을 끊다 – xabarlashishni to‘xtatmoq.

Qilayotgan ishini to‘xtatmoq: 송금을 끊다 – bankdan pul jo‘natishni to‘xtatmoq, 밥 줄을 끊다, 지원을 끊다 – yordamni to‘xtatmoq.

Taminotni uzib qo‘ymoq, masalan: 전기를 끊다 – elektr tokini uzmoq, 수도를 끊다 – suvni uzmoq, 신문을 끊다 – gazeta tarqatishni to‘xtatmoq. 우유를 끊다 – sutni to‘xtatmoq.

Chipta kabilarni sotib olmoq yoki nashr qilmoq, masalan: 기차표를 끊다 - poezd chiptasini sotib olmoq, 어음을 끊다 – veksel qarz hujjatlarini uzmoq.

Yuqoridagi misolimiz o‘zbek tilidagi metaforaga misol bo‘lib, endigi keltiradigan misolimiz esa, metonimiya bilan teng bo‘la oladi desak xato bo‘lmaydi: 두다**.** Ma’lum joyga qo‘ymoq, masalan: 연필을 책상 위에 두다. Qalam stol ustiga qo‘ymoq, 숙제를 집에 두고 왔다. Uy ishini uyda qoldirib kelibman.

Qandaydir vaziyat yoki holatga qo‘ymoq, masalan: 승리를 눈앞에 두다 - g‘alabani ko‘zlamoq, 음식을 따뜻한 곳에 두지 마라 – ovqatni issiq joyga qo‘yma.

Vazifa yoki organ, tashkilot kabilarni tuzmoq, masalan: 세계 각지에 지사를 두다 – dunyoning hamma joyida shirkat tuzmoq.

Qiymat yoki baho kabilarning oshishi, masalan: 경제 문제에 초점을 두다 – iqtisodiy muommolarni o‘rtaga qo‘yish.

Odamlarni ajratish yoki tayinlamoq, masalan: 비서를 두다 – kotib tayinlamoq, 1남 2녀를 두다 – bir o‘g‘il ikki qizga ajratmoq.

Xulosa. Har qanday tilni o‘rganishda uning kelib chiqishi va shakllanishi bilan o‘rganish ahamiyati beqiyos. Bizga ma’lumki har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular bir biridan tubdan farq qiladi. Tillarning nafaqat xususiyatlarini balki ularning qo‘llanilish doirasini ham o‘rganish muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida ma’no ko‘chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi guruhlarga ajratib o‘rganiladi. O‘zbek tilida metaforik so‘zlar ko‘chma ma’no yoki yasama ma’no hisobiga sof holatda tarkib topishi ham mumkin. Ular ham hosil bo‘lgan, ham yasama ma’nolardan aralash holatda ham tarkib topaveradi. Metaforik so‘zlarning vujudga kelishida ko‘chma ma’nolar asosiy o‘rinda turadi. Metafora ikki tushuncha orasidagi oddiy almashtirishlar yoki kamchiliklar emas, balki taqqoslashlarga qaraganda kuchli yaqin munosabatlarni namoyish etadi va shu bilan o‘zaro ta’sir nazariyasi deb ataladigan ikki tushunchaning o‘zaro ta’siri tufayli ma’no o‘zgarishi sodir bo‘ladi degan fikr ham mavjud. Boshqacha qilib aytganda, metafora orqali dastlab tutilgan g‘oyalar bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qiladi, natijada yangi tushunchasi oldingisidan farq qiladi. Koreys tili adabiyotlarida ham ma’no ko‘chish hodisasi omonimiyadan farqli ravishda keltirib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. *Badiiy matnning lingvistik tahlili*. – Toshkent, 2010.
2. Yoqubbekova M. *O‘zbek xalq qo‘shiqlari lingvopoetikasi*. – Toshkent, 2005.
3. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent, 2012.
4. Mahmudov N. *Til va nutq madaniyati*. – Toshkent, 2011.
5. Jakobson R. *Linguistics and Poetics*. – Moscow, 1987.
6. Levin S. *Metaphor and Thought*. – Cambridge, 1993.
7. Genette G. *Figures of Literary Discourse*. – New York, 1982.
8. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago, 1980.
9. Kim S. *Korean Grammar in Use*. – Seoul, 2015.
10. Lee I., Ramsey S. *The Korean Language*. – New York, 2000.
11. Choi J. *Korean Semantics and Pragmatics*. – Seoul, 2014.
12. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. – Cambridge, 2003.

Feruza AXMADOVA,
Oriental universiteti ingliz tili o‘qituvchisi
Orcid: https://orcid.org/0009-0005-1222-2772/
DOI:
E-mail: feruzaaxmadova7@gmail.com/

INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARIDA “JASORAT” KONSEPTINING VERBALIZATSIYASI: QIYOSIY-LINGVOSEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz, rus va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida “jasorat” konseptining verbalizatsiyasi qiyosiy-lingvosemantik va lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ushbu konseptning inson tafakkuri va milliy madaniyatdagi muhim o‘rni bilan izohlanadi. Maqolada “jasorat” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik tarkibi va ularning qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi. Har uchala tilda ushbu konseptning ifodalanishida umumiylik va farqlar aniqlanadi. Tahlil natijasida frazeologizmlar orqali milliy mentalitet va qadriyatlar tizimi aks etishi asoslab beriladi. Shuningdek, konseptning lingvomadaniy xususiyatlari va ularning til orqali namoyon bo‘lish shakllari yoritiladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik va frazeologiya sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *jasorat, frazeologiya, lingvomadaniyat, konsept, verbalizatsiya, qiyosiy tahlil, lingvosemantika.*

Аннотация: в данной статье анализируется вербализация концепта «мужество» во фразеологических единицах английского, русского и узбекского языков на основе сравнительно-лингвосемантического и лингвокультурологического подходов. Актуальность исследования обусловлена значимостью данного концепта в человеческом мышлении и национальной культуре. В статье рассматриваются семантические особенности фразеологических единиц, выражающих концепт «мужество», а также их функционирование в языке. Выявляются сходства и различия в репрезентации данного концепта в трех языках. Результаты анализа показывают, что фразеологизмы отражают национальный менталитет и систему ценностей. Кроме того, раскрываются лингвокультурологические особенности концепта и формы его языковой репрезентации. Полученные результаты имеют важное значение для сравнительного языкознания и фразеологии.

Ключевые слова: *мужество, фразеология, лингвокультура, концепт, вербализация, сравнительный анализ, лингвосемантика.*

Annotation: this article analyzes the verbalization of the concept of “courage” in the phraseological units of the English, Russian, and Uzbek languages based on comparative linguosemantic and linguocultural approaches. The relevance of the study is determined by the importance of this concept in human cognition and national culture. The paper examines the semantic features of phraseological units expressing the concept of “courage” and their functional use in language. Similarities and differences in the representation of this concept across the three languages are identified. The results demonstrate that phraseological units reflect national mentality and value systems. In addition, the linguocultural characteristics of the concept and the forms of its linguistic representation are revealed. The findings are significant for further research in comparative linguistics and phraseology.

Key words: *courage, phraseology, linguoculture, concept, verbalization, comparative analysis, linguosemantics.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tilning eng barqaror va madaniy jihatdan boy qatlamlaridan biri sifatida alohida ilmiy e’tiborga ega. Ayniqsa, ular orqali muayyan konseptlarning ifodalanishi xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, “jasorat” konsepti insoniy fazilat sifatida turli tillarda keng ifodalanib, frazeologik birliklar

orqali o‘ziga xos lingvistik va madaniy talqinga ega bo‘ladi.

Kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar konseptlarni til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘lovchi unsur sifatida talqin etadi. Jumladan, George Lakoff konseptlarning metaforik tafakkur asosida shakllanishini ta’kidlab, ularning til birliklarida aks etishini izohlaydi [2]. Shuningdek, Anna Wierzbicka konseptlarni universal va milliy semantik birliklar sifatida ko‘rib chiqib, ularning turli tillarda ifodalanishini qiyosiy tahlil qilish muhimligini ta’kidlaydi [1]. Rus tilshunosligida esa Yuri Stepanov konseptlarni madaniy konstantalar sifatida talqin etib, ularning milliy ongdagi o‘rnini yoritadi [3].

Tadqiqotning maqsadi — ingliz, rus va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida “jasorat” konseptining verbalizatsiyasini lingvosemantik va lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: “jasorat” konseptining nazariy asoslarini aniqlash; tanlangan tillarda ushbu konseptni ifodalovchi frazeologik birliklarni aniqlash; ularning semantik va funksional xususiyatlarini tahlil qilish hamda lingvomadaniy jihatdan o‘xshash va farqli tomonlarini yoritish.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda ingliz, rus va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida “jasorat” konseptining verbalizatsiyasini o‘rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlash uchun bir nechta o‘zaro bog‘liq metodlardan foydalanildi.

Avvalo, **qiyosiy-tahliliy metod** asosiy metod sifatida qo‘llanilib, uch tilga mansub frazeologik birliklarda “jasorat” konseptining ifodalanishidagi umumiylik va farqlar aniqlab berildi. Ushbu metod turli tillardagi til birliklarini tizimli ravishda solishtirish va ularning semantik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

Shuningdek, **lingvosemantik tahlil metodi** orqali “jasorat” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning ma’no tuzilishi, semantik maydoni hamda konnotativ xususiyatlari o‘rganildi. Bu metod yordamida frazeologizmlarning ichki mazmuni va ularning obrazli ifodalanish mexanizmi tahlil qilindi.

Tadqiqotda **lingvomadaniy yondashuv** muhim o‘rin egallab, u orqali frazeologik birliklar ortida yotgan milliy mentalitet, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlar tizimi tahlil qilindi. Ushbu yondashuv “jasorat” konseptining har bir tilda o‘ziga xos talqinini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, **frazeologik tahlil metodi** qo‘llanilib, tanlangan tillardagi iboralar strukturasi, tarkibi va funksional xususiyatlari o‘rganildi. Mazkur metod orqali frazeologizmlarning barqarorligi, obrazliligi va stilistik xususiyatlari aniqlashtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida ingliz, rus va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida “jasorat” konseptining ifodalanishiga oid muhim ilmiy xulosalar aniqlandi. Olingan natijalar ushbu konseptning uchala tilda ham umumiy semantik asosga ega ekanligini, ya’ni jasoratning qo‘rquvni yengish, xavfga qarshi turish va qat’iyat bilan harakat qilish kabi ma’nolar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi [4].

Lingvosemantik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi frazeologik birliklarda “jasorat” ko‘proq tashabbuskorlik va faol harakat orqali ifodalanadi (masalan, *to take the bull by the horns*), rus tilida esa ushbu konsept qarshilikni yengish va qat’iyat bilan oldinga intilish mazmunida namoyon bo‘ladi (*идти напролом*). O‘zbek tilida esa “jasorat” mardlik, dadillik va xavfga qo‘rqmasdan kirishish bilan bog‘liq holda ifodalanadi (*ko‘zini yummay kirishmoq*)[7].

Frazeologik birliklarning struktur-semantik tahlili shuni ko‘rsatdiki, “jasorat” konsepti ko‘pincha obrazli ifodalar orqali, ya’ni hayvonlar, harakat, kurash va sinov kabi metaforik modellarga asoslanib ifodalanadi. Bu esa konseptlarning inson tafakkurida metaforik xarakterga ega ekanligi haqidagi nazariy qarashlarni tasdiqlaydi [6].

Lingvomadaniy tahlil natijalari uchala tilda ham frazeologizmlar orqali milliy mentalitet va qadriyatlar tizimi aks etishini ko‘rsatdi. Jumladan, ingliz tilida individual jasorat va shaxsiy qaror qabul qilishga urg‘u berilsa, rus tilida kurash va qat’iyat, o‘zbek tilida esa mardlik va axloqiy jasorat tushunchalari ustunlik qiladi [5].

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, “jasorat” konsepti barcha tillarda ijobiy baholanuvchi universal qadriyat sifatida namoyon bo‘lib[8], uning frazeologik ifodasi tilning milliy-madaniy xususiyatlarini yaqqol aks ettiradi. Shu asosda mazkur konsept frazeologik tizimda muhim lingvomadaniy birlik sifatida shakllanganligi ilmiy jihatdan asoslandi [9].

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz, rus va o‘zbek tillari frazeologik tizimida “jasorat”

konseptining ifodalanishi nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan uyg‘un holda, konseptlarning universal va milliy xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Xususan, konseptlarning umumiy semantik yadrosi mavjudligi haqidagi qarashlar tadqiqot natijalari bilan mos keladi [1].

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, “jasorat” konseptining frazeologik birliklarda ifodalanishi ko‘pincha metaforik modellarga asoslanishi aniqlanadi. Bu esa konseptlarning inson tafakkurida obrazli va assotsiativ tarzda shakllanishi haqidagi ilmiy nazariyalarni tasdiqlaydi [2], [6]. Jumladan, hayvonlar, kurash va harakat bilan bog‘liq obrazlar orqali jasorat ifodalanishi barcha tillarda uchraydi, biroq ularning qo‘llanishi va semantik urg‘usi turlicha.

Rus tilshunosligida konseptlar madaniy konstantalar sifatida talqin qilinadi va ular milliy ongning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [3]. Tadqiqot natijalari ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlab, rus tilida “jasorat” konsepti ko‘proq kurash, qarshilik va qat’iyat bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbek tilida esa bu konsept axloqiy mardlik va ijtimoiy qadriyat sifatida talqin qilinib, xalqning tarixiy va madaniy tajribasi bilan uzviy bog‘langan.

Shuningdek, frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish natijasida ularning milliy mentalitet va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi vosita ekanligi yana bir bor tasdiqlandi [5], [7]. Ingliz tilida individual jasorat va shaxsiy tashabbus ustuvor bo‘lsa, rus tilida jamoaviylik va qarshilik motivlari, o‘zbek tilida esa axloqiy barkamollik va mardlik tushunchalari yetakchi o‘rin egallaydi.

Shu tariqa, muhokama natijalari “jasorat” konseptining frazeologik birliklar orqali ifodalanishi har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini chuqur aks ettirishini ko‘rsatadi. Bu esa qiyosiy tilshunoslikda lingvomadaniy yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz, rus va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida “jasorat” konsepti umumiy semantik asosga ega bo‘lsa-da, uning ifodalanishida milliy-madaniy xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari ushbu konseptning frazeologik tizimda obrazli va barqaror birliklar orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Shuningdek, “jasorat” konsepti har bir til va madaniyatda o‘ziga xos semantik va lingvomadaniy mazmun kasb etadi. Olingan natijalar qiyosiy tilshunoslik, frazeologiya va lingvomadaniyatshunoslik sohalarida keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Wierzbicka A. *Semantics: Primes and Universals*. – Oxford: Oxford University Press, 1996. 500 p.
2.Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 256 p.
3.Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 1997. 824 с.
4.Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: синонимические средства языка. – М.: Наука, 1995. 472 с.
5.Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. 284 с.
6.Kövecses Z. *Metaphor and Culture: Universality and Variation*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. 314 p.
7.Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. 288 с.
8.Mieder W. *Proverbs: A Handbook*. – Westport: Greenwood Press, 2004. 305 p.
9.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1992. 368-b.

Marguba QODIROVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Jahon tillari va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA HURMAT IFODALOVCHI VOSITALAR TARJIMASIDA ADEKVATLIK VA EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida hurmat ma’nosini ifodalovchi lingvistik vositalarning tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik masalalari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi turli til sathlarida (leksik, grammatik, pragmatik va diskursiv) ifodalangan hurmat vositalarining tarjima jarayonida qay darajada mos (adekvat) va teng (ekvivalent) berilishini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: *hurmat kategoriyasi, adekvatlik, ekvivalentlik, tarjima, pragmatika, funksional ekvivalentlik, qiyosiy-tipologiya.*

Annotation: this article examines the issues of adequacy and equivalence in the translation of linguistic means expressing respect in Uzbek and English, based on a comparative-typological approach. The main objective of the study is to determine the extent to which respect expressions, realized at different linguistic levels (lexical, grammatical, pragmatic, and discursive), are rendered adequately and equivalently in the translation process.

Key words: *respect category, adequacy, equivalence, translation, pragmatics, functional equivalence, comparative typology.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы адекватности и эквивалентности при переводе лингвистических средств, выражающих значение уважения в узбекском и английском языках, на основе сравнительно-типологического подхода. Основной целью исследования является определение степени адекватной и эквивалентной передачи средств выражения уважения, реализуемых на различных языковых уровнях (лексическом, грамматическом, прагматическом и дискурсивном), в процессе перевода.

Ключевые слова: *категория уважения, адекватность, эквивалентность, перевод, прагматика, функциональная эквивалентность, сравнительно-типологический подход*

Hurmat insoniy muloqotning muhim komponenti bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va kommunikativ vaziyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Tilshunoslikda hurmat odatda, xushmuomalalik kategoriyasi doirasida o‘rganiladi, biroq uning darajalanish xususiyati va chegaralari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan.

Mazkur maqolada hurmat gradatsion pragmatik kategoriya sifatida qaraladi. Ya’ni, u qat’iy chegaralarga ega bo‘lmagan, balki ijtimoiy va kommunikativ omillarga bog‘liq holda turli darajalarda namoyon bo‘ladigan hodisadir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — o‘zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalovchi vositalarning darajalanishini tahlil qilish hamda ularning tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik muammolarini aniqlashdir.

Zamonaviy tarjima nazariyasida adekvatlik va ekvivalentlik kategoriyalari markaziy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, til birliklari orqali ifodalanuvchi ijtimoiy-madaniy kategoriyalar, jumladan hurmat ifodasi tarjimasida ushbu tushunchalar alohida murakkablik kasb etadi. O‘zbek va ingliz tillari tipologik jihatdan farqli tizimlarga mansub bo‘lgani sababli, hurmat ifodalovchi vositalarning shakllanishi va qo‘llanilishi ham sezilarli tafovutlarga ega.

O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi ko‘proq morfologik va leksik vositalar orqali ifodalansa, ingliz tilida u asosan, sintaktik va pragmatik vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Shu bois, ushbu vositalarning tarjimasida nafaqat lingvistik, balki madaniy va kommunikativ omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolada hurmat ifodalovchi vositalarni tarjima qilishda adekvatlik va ekvivalentlik muammolari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Tarjima nazariyasida ekvivalentlik tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Xususan, dinamik ekvivalentlik nazariyasida tarjima natijasining qabul qiluvchi auditoriyaga ta’siri muhim deb qaraladi, funksional yondashuv esa matnning kommunikativ vazifasini ustuvor deb biladi. Pragmatika doirasida esa nutqiy niyat va kontekst asosiy omil sifatida e’tirof etiladi.

Hurmat tilshunoslikda gradatsion pragmatik kategoriya sifatida qaralishi lozim. O‘zbek va ingliz tillarida uning

ifodalanish vositalari sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli tarjimada to‘liq ekvivalentlikka erishish qiyin bo‘lib, asosiy e’tibor adekvatlikka qaratiladi.

Hurmat kategoriyasini o‘rganishda pragmatika va xushmuomalalik nazariyalari muhim o‘rin tutadi. Xususan, Erving Goffman tomonidan ilgari surilgan “face” tushunchasi, shuningdek Penelope Brown va Stephen C. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasi hurmatni ijtimoiy masofa va mavqe bilan bog‘liq holda tushuntiradi.

Shuningdek, Geoffrey Leech xushmuomalalik prinsiplarini belgilab, nutqiy muomala me’yorlarini izohlaydi. Tarjimashunoslikda esa Eugene Nida tomonidan ilgari surilgan funksional ekvivalentlik nazariyasi hurmat ifodalarini tarjima qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida funksional ekvivalentlik, pragmatik adaptatsiya va kompensatsiya kabi tarjima strategiyalarining samaradorligi ochib berildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, hurmat ifodalovchi vositalarni tarjima qilishda to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalentlik ko‘p hollarda yetarli emas, balki adekvatlik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Hurmat kategoriyasi masalasi tilshunoslikda alohida tadqiq etilgan bo‘lib, unda ijtimoiy masofa, maqom va kommunikativ vaziyat muhim determinantlar sifatida qaraladi. Biroq hurmat ifodalovchi vositalarning aynan tarjima jarayonidagi transformatsiyasi yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- qiyosiy-tipologik tahlil;
- komponent tahlil;
- pragmatik tahlil;
- tarjima transformatsiyalarini aniqlash usuli

Tahlil materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi badiiy va publitsistik matnlardan olingan misollar qo‘llanildi.

1. Hurmat ifodalovchi vositalarning lingvistik xususiyatlari

O‘zbek tilida hurmat quyidagi vositalar orqali ifodalanadi:

- morfologik: *-lar, -ingiz*
- leksik: *ustoz, domla, otaxon*
- pragmatik: iltimos shakllari

Ingliz tilida esa:

- leksik: *sir, madam*
- sintaktik: *Would you…, Could you…*
- pragmatik: indirektlik va yumshatish strategiyalari

2. Ekvivalentlik muammolari: hurmat ifodalarini tarjima qilishda to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalentlar ko‘pincha mavjud emas.

Misol:

- *Siz keldingizmi?*
- *Did you come?*

Bu yerda grammatik hurmat yo‘qoladi, chunki ingliz tilida “siz” kategoriyasi mavjud emas.

3. Adekvatlikka erishish strategiyalari

a) Funksional ekvivalentlik

- *Iltimos, o‘tiring → Please, have a seat*

b) Pragmatik adaptatsiya

- *Assalomu alaykum → Hello*

c) Kompensatsiya

- morfologik hurmat → modal fe’llar orqali beriladi

d) Transformatsiya

- grammatik → sintaktik o‘zgarish

4. Tarjima jarayonida pragmatik omilning ustuvorligi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

- hurmat ifodasi tarjimasida pragmatik moslik eng muhim omildir
- ekvivalentlik ko‘pincha yetarli emas
- adekvatlik kommunikativ muvaffaqiyatni ta’minlaydi

Natijalar va muhokama

Tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Hurmat vositalari tarjimasida lingvistik darajalar o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi
2. Ekvivalentlik ko‘proq formal darajada namoyon bo‘ladi
3. Adekvatlik esa kommunikativ va madaniy moslikni ta’minlaydi
4. Eng samarali strategiya – funksional va pragmatik yondashuv integratsiyasi

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalovchi vositalar tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik muammolari murakkab lingvistik hodisa hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ushbu vositalarni tarjima qilishda to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalentlikdan ko‘ra, adekvatlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayonida funksional ekvivalentlik, pragmatik adaptatsiya va kompensatsiya strategiyalaridan kompleks foydalanish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, P., Levinson, S. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Use*. – Cambridge.
2. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*. – London.
3. Goffman, E. (1967). *Interaction Ritual*. – New York.
4. Nida, E. (1964). *Toward a Science of Translating*.
5. G‘ulomov A. O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi.
6. Sodiqova Sh. Hurmat kategoriyasining lingvistik talqini.

Dilafruz BURANOVA,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
d.buranova5@gmail.com

TIBBIYOT FANLARI UCHUN INGLIZ TILI: O‘QUV JARAYONINI TASHKIL QILISHNING NAZARIY VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: tibbiyot sohasi uchun malakali, raqobatbardosh va xalqaro mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashda ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o‘qitish ustuvor ahamiyat kasb etuvchi vazifalardan hisoblanadi. Mazkur maqolada tibbiyot yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish jarayonini tashkil etishning nazariy va didaktik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonini tizimli rejalashtirish, maqsad va vazifalarni aniqlash, o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish, muddat va darajalarni belgilash, innovatsion texnologiyalar hamda metodik ta’minotdan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o‘qitish nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantirish, balki kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, xalqaro metodologik standartlarga mos ta’lim strategiyasini belgilash va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan til ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *tibbiy ingliz tili, kasbiy ingliz tili, o‘quv jarayoni, didaktik xususiyatlar, tizimli yondashuv, baholash mezonlari, innovatsion ta’lim, tibbiyot talabalari.*

Аннотация: в подготовке квалифицированных, конкурентоспособных кадров для медицинской сферы, соответствующих требованиям международного рынка труда, обучение английскому языку в профессиональных целях считается одной из задач, имеющих приоритетное значение. В данной статье освещаются теоретические и дидактические особенности организации процесса обучения английскому языку в медицинском направлении. Также анализируются вопросы системного планирования процесса овладения английским языком, определения целей и задач, поэтапной организации учебной деятельности, установления сроков и уровней, эффективного использования инновационных технологий и методического обеспечения. В исследовании обучение английскому языку студентов-медиков трактуется не только как средство формирования лингвистических знаний, но и как средство развития профессиональной компетенции, определения образовательной стратегии, соответствующей международным методологическим стандартам, и развития языковых навыков, ориентированных на практическую деятельность.

Ключевые слова: *медицинский английский язык, профессионально ориентированный английский язык, учебный процесс, дидактические особенности, системный подход, критерии оценивания, инновационное обучение, студенты-медики.*

Annotation: in the training of qualified and competitive personnel for the medical field who meet the requirements of the international labor market, teaching English for professional purposes is considered one of the tasks of priority importance. This article highlights the theoretical and didactic features of organizing the process of teaching English in the medical field. It also analyzes the issues of systematic planning of the English language acquisition process, defining goals and objectives, organizing educational activities step by step, determining time frames and levels, and effectively using innovative technologies and methodological support. In the study, teaching English to medical students is interpreted not only as a means of forming linguistic knowledge, but also as a means of developing professional competence, defining an educational strategy in accordance with international methodological standards, and developing language skills oriented toward practical activity.

Key words: *medical English, professional English, educational process, didactic features, systematic approach, assessment criteria, innovative education, medical students.*

Turli mutaxassislik yo‘nalishlari, jumladan, tibbiyot sohasi uchun malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ta’minlashda xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirish masalasi tizimli yondashuvni taqozo etadi. Bu borada so‘nggi yillardagi qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlarda maqsad va vazifalar belgilab berilganki, ularga amal qilingan ravishda keng faoliyat olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy

yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish vazifalari belgilangan. Qarorda belgilanganidek, OTMlarida bugungi kunda *mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitishni tashkil qilish, bunda ingliz tilida dars bera oluvchi pedagog xodimlarni maqsadli tayyorlash* asosiy vazifalar qatoridan o‘rin olgan. Shuningdek, ularning rivojlangan xorijiy davlatlarda malaka oshirishi masalasi ham dolzarb vazifalardan etib belgilanganligi ingliz tillarni o‘zlashtirishi masalalarining yanada takomillashuvini talab etadi. Qarorda, shu bilan birga, “iqtidorli yosh pedagoglar va doktorantlarni yetakchi xorijiy ta’lim muassasalariga tajriba orttirishga yuborish, ular uchun maxsus stipendiyalar ta’sis etish, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari va talabalarining xalqaro tajriba almashinuvlarini tashkil etish orqali ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirish”; “2017-2018-o‘quv yilidan boshlab har bir oliy ta’lim muassasasida barcha kurslarda kamida 2 ta guruhda mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish, ingliz tilida dars o‘tadigan professor-o‘qituvchilarni maqsadli tayyorlash, ularning xorijda tegishli tayyorgarlikdan o‘tishini tashkil etish, shuningdek, o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, mashg‘ulotlarni rivojlangan davlatlar oliy ta’lim muassasalarida bugungi kunda foydalanilayotgan zamonaviy o‘quv adabiyotlari asosida o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish”; “istiqbolli ilmiy-pedagogik kadrlarni, birinchi navbatda, muhandislik-texnika va arxitektura ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining rivojlangan davlatlar, xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniyada 2-3 oylik kurslarda o‘zaro hamkorlik bo‘yicha tuzilgan shartnomalar, homiylik va xalqaro tashkilotlar grantlari mablag‘lari hisobidan, shuningdek, mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilimlarni egallashga yo‘naltirilgan malaka oshirishlarini tashkil etish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga yetakchi xorijiy mutaxassislarni muntazam ravishda jalb etish” vazifalari alohida ta’kidlangan [1].

Nofilologik yo‘nalishdagi professional OTMlarida pedagog xodimlar uchun B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatning talab etilishi, xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish maqsadida qo‘shimcha ustama haqi, rag‘batlantirishlarning joriy qilinishi kabi chora-tadbirlar xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirib, mazkur yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish uchun xizmat qilmoqda [2]. Shu asosda mutaxassislarning tibbiyot sohasidagi ma’lumotlar, so‘nggi ishlanmalar va yutuqlardan xabardor bo‘lishi, xorijlik hamkasblari bilan muloqotda, dunyoning yetakchi OTMlari bilan akademik mobillik va malaka oshirish faoliyatida dunyoqarashini kengaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Shu asosda bugungi kunda barcha tibbiyot OTMlarida bakalavriat yo‘nalishidagi fakultetlarda mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitish tashkil etilgan. Mazkur faoliyatga salohiyatli, ingliz tilini bilish bo‘yicha kamida B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassislik kafedralarining pedagog xodimlari jalb etilgan. Bunda tegishli ta’lim resurslarini yaratish, pedagoglarning ingliz tilidagi bilim va ko‘nikmalarini muntazam takomillashtirish mazkur jarayonning muhim jihatlarini belgilaydi.

Tibbiyot oliy ta’limida ingliz tilini o‘qitishda ona tili bo‘lmaganlar tomonidan ingliz tilini o‘rganishda ma’lum farqlar mavjud bo‘lib, o‘rganuvchilar o‘zining ustida ishlashiga ham ta’sir darajasi turlicha ekanligi kuzatiladi [7: 25–28]. Mazkur faoliyatni monitoring qilish, uni takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘lamini belgilash talabi kundan kunga oshib bormoqda. Bunda asosiy vazifa – talaba mutaxassislik fanini ingliz tilidagi mashg‘ulotlar va ma’ruzalar davomida o‘zlashtirishining sifat darajasini ta’minlashdan iborat, chunki ona tilida tushunishi oson bo‘lgan vazifalar ko‘lamini xorijiy tilda o‘zlashtirish o‘ziga xos qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy. Bunda iloji boricha fanlararo integratsiyalashgan yondashuvni, shu jumladan, lingvistik va professional yo‘naltirilgan tayyorgarlikni ta’minlash talabi kuchayadi.

Har qanday faoliyatni boshlashdan oldin dastlabki va asosiy maqsadlar, ularni boshqarish rejasi tuziladi hamda realizatsiya qilish muddatlari belgilanadi. Tibbiyot OTMlarida mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitish faoliyatini amalga oshirish metodologiyasini aniqlashda ushbu jarayonning uyushqoqligini ta’minlash, ichki va tashqi shart-sharoitlarning o‘zgaruvchanligini hisobga olish lozim, deb hisoblaymiz. Mazkur mezonlar joriy va strategik rejalarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha asosiy qadamlardan hisoblanadi. Bunda ingliz tilida mutaxassislik fanlari bo‘yicha mashg‘ulot olib boruvchi pedagog kadrlarning tibbiyotga oid ESP bo‘yicha bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish birlamchi vazifalar qatoriga kiradi.

Tibbiyot OTMlaridagi mutaxassis kadrlarning ingliz tilini tibbiyot sohasi uchun mukammal o‘zlashtirishida EGP bo‘yicha bilimlarning mavjudligi bilan bir qatorda, ESP bo‘yicha til mutaxassislarining sa’y-harakatlarini bu borada jalb qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunda mutaxassislikka oid ilg‘or til ko‘nikmalari, grammatika, lug‘at, talaffuz va boshqa umumiy tillarni o‘zlashtirish kompetensiyalarini birlashtirish lozim. Amaliyotchi shifokorlar, hamshiralarning kundalik amaliyotida ingliz tilidan foydalanish tajribasi bilan o‘rtoqlashish, tibbiyot amaliyotiga oid vaziyatlar kabi interfaol uslublar orqali ularning ingliz tili bo‘yicha salohiyatini muntazam oshirib

borish ayni muddao. Shu sababdan, aksariyat tibbiyot OTMlari til kafedralarida mutaxassislik kafedralari pedagog xodimlarining ESP bo‘yicha malakasini oshirish bo‘yicha maxsus muntazam o‘quvlar tashkil qilinsa-da, ularning yanada takomillashuvi va bugungi kun standart va talablariga javob berishi masalasi doimiy yangilanishni talab qiladi.

Amaliy faoliyatni boshlashda nazariy asoslarni maqsadli shakllantirish muhim bo‘lib, bunda R.L. Oksfordning “tilni o‘rganish strategiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ingliz tilini mukammal o‘zlashtirish darajasini oshiradi, bunda, birinchi navbatda, nazariy asos yaratish, so‘ngra ingliz tilidan mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun olib boriladigan tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish zarur” [8: 124–132] mazmunidagi fikridan kelib chiqish o‘rinli. Ingliz tilini mutaxassislikda o‘qitishning asosiy mohiyati – kasbiy yo‘nalish sohasidagi bilimlarini zamon talablariga moslashgan holda ta’minlashdan iboratdir [9: 56–62]. Tibbiyot soha mutaxassislarining ingliz tilini mukammal o‘zlashtirishi borasidagi uslub va vositalar, interfaol texnikalar kundan-kunga takomillashib, rivojlanib borayotgani, turli darajadagilar uchun moslashuvchanligi ushbu faoliyatni yanada kamolga yetkazadi [4: 45-46]. Shu asosda tibbiyot uchun kadrlarning ingliz tilini mukammal o‘zlashtirish bo‘yicha jarayonini aniq rejalashtirish, maqsad va vazifalar ko‘lamini belgilash muhim bo‘lib, bu borada dastlab quyidagi bosqichlarni belgilash mumkin:

1. Maqsad. Ingliz tilini va mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishning mohiyatini anglash bilan birga, bunda qanday manfaatlarning ko‘zlanishini aniqlash. Mutaxassislik bo‘yicha ingliz tilida dunyo metodologik standartlariga muvofiq ravishda o‘qitish strategiyasini aniqlash.
2. Sabab. Ingliz tilini kasbiy jihatdan o‘zlashtirish nima uchun amalga oshirilishi zarur ekanligini anglash. Jahon mehnat bozori uchun yetuk kadrlar tayyorlash siyosati mohiyatini tushunish.
3. Faoliyat. Ingliz tilini o‘qitishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, uslubiy ta’minotni muvofiqlashtirish, tajriba orttirish.
4. Muddat. Mashg‘ulotlar vaqtini, darajalarni aniqlash vositasida belgilash. Ma’lum vaqt oralig‘ida natijaviylikka erishishning nisbiyligi va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘ra bilish.
5. O‘quv jarayonini mukammallashtirish. Muntazam va bosqichma-bosqich o‘quvlarni tashkillashtirish va amalga oshirish. Texnik ta’minot va innovatsion faollikni ta’minlash. Davomat, berilgan bilimni samarali o‘zlashtirish, baholash va natija.
6. Baholash. Ingliz tilini o‘zlashtirishning yakuniy bosqichlari. Samara va natijaviylik. Baholash mezonlari va real natija. Til bo‘yicha savodxonlik darajasini optimal baholash.

Ingliz tilini o‘zlashtirish o‘quv-uslubiy va ilmiy faoliyatning ma’lum yo‘nalishlarida belgilanib, faoliyat mazmuni quyidagi shakllarda ifoda topadi, deb hisoblaymiz: faoliyat rejasi va dasturlarni ishlab chiqish; amalga oshirish; muntazam nazorat va monitoringni ta’minlash.

Tibbiyot mutaxassisligini ingliz tilida o‘qitishda ma’lum talablar mavjud bo‘lib, bizningcha, ular quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

– terminologiya va frazeologiyani ingliz tilida o‘zlashtirish: fiziologiya, patfiziologiya, anatomiya, mikrobiologiya, farmakologiya, gistologiya kabi nazariy fanlar, shuningdek, sohaga oid mutaxassislik fanlari – kardiologiya, xirurgiya, nevrologiya, onkologiya, ginekologiya, otorinolaringologiya va boshqalar bo‘yicha atamalarni mukammal egallash;

– amaliy ko‘nikmalar bo‘yicha ingliz tilidagi bilimlarni egallash;

– ilmiy-tadqiqot faoliyati yo‘nalishiga e’tibor: ilmiy ma’lumotlar olish va ular bilan ishlash, ilmiy maqolalarni o‘qish, yozish va tahlil qilishga alohida e’tibor qaratish;

– xalqaro hamkorlik: xalqaro dasturlar, stajirovkalar, konferensiyalar kabi tadbirlarda qatnashishda ingliz tilini takomillashtirish bo‘yicha imkoniyatlarni kengaytirish.

Bugungi kunda mamlakat tibbiyot OTMlarida bakalavriat yo‘nalishidagi talabalarning ingliz tilidan olgan bilimlari bazasi ularning ta’limning keyingi bosqichlari – magistratura, ordinatura, shuningdek, oliy ta’limdan keyingi institut – tayanch doktorantura, aspirantura va mustaqil izlanuvchilik shakllari uchun ham muhim asos sifatida xizmat qiladi. Tegishli ixtisoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borish, mutaxassislikni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishni nazarda tutuvchi doktorantura, mustaqil izlanuvchilik, stajyor-tadqiqotchilik kabi izlanuvchilik shakllarining barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o‘zlashtirish normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda tartibga solingan. Bunda mutaxassislarning ilmiy va xorijiy grantlarda qatnashish uchun imkoniyatlarini rivojlantirish, mutaxassislik bo‘yicha xorijiy darsliklar, adabiyotlarni qo‘llash va o‘quv dasturlarini takomillashtirish ko‘zda tutiladi [3].

Ma’lum bir metodologiyani aniqlashda fanni o‘qitish metodikasining didaktika va pedagogika bilan aloqasiga e’tibor qaratish o‘rinlidir. Shunda o‘qitilayotgan fan bo‘yicha aniq bilimlar tizimi mazkur mutaxassislik bo‘yicha sohaviy birliklar, o‘ziga xos usullar asosida kognitiv-pragmatik aspektda shakllanadi [6]. O‘quv jarayoni didaktikaning obyekti va predmetini tushunishga muvofiq amalga oshirilar ekan, pedagogik va psixologik nazariyalarning qator tendensiyalari va turli ko‘rinishlari sifatida didaktik tushunchalar namoyon bo‘ladi. Bunda didaktikaning an’anaviy konsepsiyasida yetakchi o‘rinni bevosita o‘qitish jarayoni va pedagog faoliyati egallaydi [5: 335-336]. Bizning fikrimizcha, tibbiyot oliy ta’limida

mazkur jarayonning samaradorligi qator omillarga bog‘liq bo‘lib, muntazam asosdagi bosqichlar o‘rtasidagi uzviylik va o‘zaro bog‘liqlik ingliz tili ta’limining natijalariga ta’sir qiluvchi didaktik sabablar va omillarni doimiy ravishda kuzatib borish muhimligini belgilab beradi. Bunda ingliz tili ta’limini sohaviy-amaliy kontekstagi didaktik me’yorlar bilan kognitiv-pragmatik aspektda tizimli muvofiqlashtirish ayni muddao.

Bunda ingliz tilini o‘qitishning quyidagi bosqichlarini belgilash mumkin:

1. Dastlabki bosqich:

- Tayyorgarlik darajasini baholash: o‘rganuvchilarning tilni bilish darajasini aniqlash uchun diagnostik test o‘tkazish.
- Tibbiy terminologiya asoslari: kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan asosiy atama va iboralarni kiritish.
- Muloqot qobiliyatlari: dialoglar, rolli o‘yinlar va amaliy topshiriqlar orqali asosiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

2. O‘rta bosqich:

- Tilni chuqur o‘zlashtirish: murakkab tibbiy terminologiya va maxsus matnlarni o‘rganish.
- Amaliy qo‘llanma: tibbiy hisobotlarni yozish va klinik suhbatlar o‘tkazish kabi amaliy vazifalarni joriy etish.
- Fanlararo yondashuv: ingliz tilini o‘rganishni tibbiyot mutaxassislik fanlari bilan birlashtirish.

3. Kengaytirilgan bosqich:

- Ilmiy faoliyat: ingliz tilida ilmiy maqolalar yozish va nashr etishga tayyorgarlik.
- Xalqaro hamkorlik: xalqaro konferensiyalar, qo‘shma dasturlar va amaliyotlarda ishtirok etish.
- Klinik simulyatsiyalar: murakkab klinik vaziyatlar va rolli o‘yinlarni ingliz tilida o‘tkazish.

Har bir bosqich uchun ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ta’limning uslubiy ta’minoti, yo‘nalishlarini belgilash hamda o‘qitishning mazmuni va ta’lim natijalarini monitoring qilish orqali faoliyat strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Shular asosida, xulosa qilish mumkinki, tibbiy ingliz tili ta’limi didaktikaning obyekti va predmetini tushunishga muvofiq amalga oshirilar ekan, ta’limni diskursiv-iyerarxik izchillikda tashkil etish maqsadga muvofiq. Tibbiyot OTMlarida bakalavriat yo‘nalishidagi talabalarning ingliz tilidan olgan bilimlari bazasi ularning ta’limning keyingi bosqichlari – magistratura, ordinatura, shuningdek, oliy ta’limdan keyingi institut – tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilik shakllari uchun ham muhim asos sifatida xizmat qiladi. Bunda ingliz tilini o‘qitish borasidagi nazariy va didaktik xususiyatlar mazmuni mazkur bosqichlar o‘rtasida uzviylikni ta’minlash, shu asosda ta’limni ma’lum kognitiv-pragmatik aspektda tizimli muvofiqlashtirish, interfaol usullarga asoslangan uslubiy vositalar, ma’lum konstruksiyalar va qoidalar tizimidagi soha va amaliyotga oid tamoyillarni aks ettirishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi VMQ-606-son “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-yanvardagi VMQ-19-son “Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror.

4. Иванов В.В. Семантические особенности медицинских терминов (на материале немецкого языка): Дисс. … канд. филол. наук. – Москва., 1996. – С. 45–56.

5. Каменских А.В., Каменских Д.В. Сравнительный анализ трех основных дидактических концепций в образовательном процессе // Молодой ученый. 2021. – № 18(360). – С. 335-336.

6. Краевский В.В., Хуторской А.В. Основы обучения. Дидактика и методика. – Москва: Издательский центр «Академия», 2007. – 352 с.; Крупченко А. Профессиональная лингводидактика // Высшее образование в России. – 2006. – № 5. – С. 158–160; Хуторской А.В. Дидактика. – Санкт-Петербург: Питер, 2017. 720 с.

7. Liu Y., Su L. Different motivations of Chinese students learning Japanese and English in Japan // Open Journal of Modern Linguistics. 2016. – № 6. – pp. 25–28.

8. Oxford R.L. Language learning strategies in a nutshell: Update and ESL suggestions // J.C. Richards, W.A. Renandya (Eds.), Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice (pp. 124–132). – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.

9. Peacock M. Pre-service ESL teachers’ beliefs about second language learning: a longitudinal study // System. – 2001. – № 29(2). – pp. 177–195; Narkuzieva Z.K. Differences and similarities between English for specificpurposes (ESP) and English for general purposes (EGP) teachers // British View. 2022. – № 7(4). – pp. 56–62.

Zulfiya AXMEDOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: zulfiya_guseynovna@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-8355-172X

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA BLENDED LEARNING MODELINING SAMARADORLIGINI EKSPERIMENTAL TADQIQ ETISH

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda Blended Learning modelining samaradorligi eksperimental tadqiq etildi. Tadqiqotda nazorat va eksperimental guruhlar ishtirokida pre-test va post-test natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar Blended Learning modeli o‘quvchilarning til kompetensiyalarini, motivatsiyasini va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Statistik tahlil natijalari ham ushbu yondashuvning an’anaviy o‘qitishga nisbatan samaraliroq ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy raqamli ta’lim sharoitida Blended Learning modelini keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: *Blended Learning, ingliz tili o‘qitish, eksperimental tadqiqot, raqamli ta’lim, ta’lim samaradorligi, til kompetensiyasi, LMS platforma, pedagogik texnologiyalar, motivatsiya, mustaqil o‘rganish*.

Аннотация: в данной статье экспериментально исследована эффективность модели смешанного обучения при обучении английскому языку. В исследовании проведен сравнительный анализ результатов пре-тестирования и пост-тестирования с участием контрольной и экспериментальной групп. Полученные результаты показали, что модель Blended Learning значительно повышает языковые компетенции, мотивацию и навыки самостоятельного обучения учащихся. Результаты статистического анализа также подтвердили, что этот подход более эффективен, чем традиционное обучение. Результаты исследования обосновывают необходимость широкого внедрения модели Blended Learning в условиях современного цифрового образования.

Ключевые слова: *Blended Learning, преподавание английского языка, экспериментальное исследование, цифровое образование, эффективность образования, языковая компетенция, LMS-платформа, педагогические технологии, мотивация, самостоятельное обучение.*

Annotation: this article provides an experimental study of the effectiveness of the Blended Learning model in English language teaching. The study conducted a comparative analysis of pre-test and post-test results involving the control and experimental groups. The results obtained showed that the Blended Learning model significantly improves students’ language competencies, motivation, and independent learning skills. The results of the statistical analysis also confirmed that this approach is more effective than traditional teaching. The research results substantiate the need for the widespread implementation of the Blended Learning model within the context of modern digital education.

Keywords: *Blended Learning, English language teaching, experimental research, digital education, educational effectiveness, language competence, LMS platform, pedagogical technologies, motivation, independent study.*

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur’atlar bilan rivojlanib, an’anaviy o‘qitish modellari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyalashib bormoqda. Xususan, ingliz tilini o‘qitishda Blended Learning (aralash ta’lim) modeli ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishda muhim didaktik vosita sifatida e’tirof etilmoqda.

Blended Learning konsepsiyasi dastlab C. R. Graham tomonidan “an’anaviy yuzma-yuz o‘qitish va onlayn ta’limning maqsadli integratsiyasi” sifatida ta’riflangan bo‘lib, u ta’lim jarayonida moslashuvchanlik, interaktivlik va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi[1].

Keyingi tadqiqotlarda Bonk va Graham ushbu modelning asosiy afzalliklari sifatida o‘quvchilarning motivatsiyasi oshishi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi hamda ta’lim jarayonining individuallashtirilishini ta’kidlaydilar[2]. Shuningdek, Hrastinski Blended Learningni “raqamli va an’anaviy pedagogik muhitlarning sinergiyasi”

1 Graham C. R. Blended Learning Systems: Definition, Current Trends, and Future Directions // Bonk C. J., Graham C. R. (eds.) The Handbook of Blended Learning. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006. P. 3–21.
2 Bonk C. J., Graham C. R. (eds.). The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2012. 600 p.

sifatida talqin qilib, uning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi rolini alohida qayd etadi[3].

MDH davlatlari, jumladan, O‘zbekiston, Rossiya va Qozog‘iston ta’lim tizimlarida ham so‘nggi o‘n yillikda Blended Learning modeliga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Pandemiya davrida masofaviy ta’limga majburiy o‘tish ushbu modelning dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Rossiya Federatsiyasida olib borilgan tadqiqotlar Blended Learning asosida tashkil etilgan ingliz tili darslarida o‘quvchilarning til kompetensiyalari an’anaviy ta’limga nisbatan sezilarli darajada yuqori natija ko‘rsatganini tasdiqlaydi[4]. Qozog‘istonda esa Sadykov tomonidan o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari ushbu model o‘quvchilarning tinglab tushunish va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatgan[5].

O‘zbekistonda ham ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va Blended Learning yondashuvlarini joriy etish bo‘yicha bir qator ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Blended Learning modelining ingliz tilini o‘qitishdagi samaradorligi eksperimental asosda yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Aksariyat ishlar nazariy yondashuvlar yoki umumiy metodik tavsiyalar bilan cheklangan bo‘lib, empirik ma’lumotlarga asoslangan kompleks tahlillar yetishmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, global ta’lim tendensiyalari raqamli va an’anaviy o‘qitish shakllarining integratsiyasini talab qilmoqda; ikkinchidan, ingliz tili xalqaro kommunikatsiya vositasi sifatida uning samarali o‘qitish metodikalarini ishlab chiqish zaruriyatini kuchaytirmoqda; uchinchidan, MDH mamlakatlarida Blended Learning modelining amaliy samaradorligini aniqlovchi eksperimental tadqiqotlar yetarli emas.

Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad ingliz tilini o‘qitishda Blended Learning modelining samaradorligini eksperimental tadqiq etish, ya’ni ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining o‘quvchilarning til kompetensiyalariga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslashdan iboratdir. Tadqiqot davomida nazorat va eksperimental guruhlar natijalari qiyosiy tahlil qilinadi hamda Blended Learning modelining afzallik va cheklovlari aniqlanadi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari ingliz tili o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishga, ta’lim jarayonini optimallashtirishga hamda raqamli pedagogika sharoitida samarali o‘qitish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot ingliz tilini o‘qitishda Blended Learning modelining samaradorligini aniqlashga qaratilgan eksperimental yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental modelga tayangan bo‘lib, unda nazorat va eksperimental guruhlar ishtirokida ta’lim jarayonining natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayoni pedagogik eksperiment, kuzatuv, test sinovlari hamda statistik tahlil usullarining kompleks qo‘llanilishiga asoslandi.

Tajriba o‘tkazish jarayonida tanlangan ishtirokchilar oliy ta’lim muassasasining ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bo‘lib, ular tasodifiy tanlash (random sampling) usuli orqali ikki guruhga ajratildi: eksperimental guruh Blended Learning modeli asosida, nazorat guruhi esa an’anaviy (face-to-face) o‘qitish metodikasi asosida ta’lim oldi. Har ikkala guruhga bir xil o‘quv dasturi, mavzular va o‘quv maqsadlari taqdim etildi, farq faqat ta’limni tashkil etish shaklida bo‘ldi.

Blended Learning modeli asosida tashkil etilgan o‘qitish jarayonida LMS (Learning Management System) platformalari, onlayn resurslar, interaktiv topshiriqlar, video-ma’ruzalar hamda sinfdagi yuzma-yuz mashg‘ulotlar integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Ushbu yondashuvda o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, raqamli platformalarda topshiriqlarni bajarishi hamda auditoriya mashg‘ulotlarida kommunikativ faoliyatga jalb etilishi asosiy e’tiborda bo‘ldi.

Tadqiqotning empirik ma’lumotlarini yig‘ishda diagnostik (pre-test) va yakuniy (post-test) test sinovlaridan foydalanildi. Testlar o‘quvchilarning grammatik kompetensiyasi, leksik bilimlari, tinglab tushunish va yozma nutq ko‘nikmalarini baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning ishonchliligi va validligi oldindan ekspert baholash orqali tekshirildi. Bundan tashqari, o‘quv jarayonida kuzatuv metodi ham qo‘llanilib, talabalar faolligi, motivatsiya darajasi va darsdagi ishtiroki tizimli ravishda qayd etib borildi.

Olingan natijalarni tahlil qilishda matematik-statistik usullar, xususan, o‘rtacha qiymatlar (mean), foiz ko‘rsatkichlari hamda t-test (Student kriteriyasi)dan foydalanildi. Ushbu yondashuv eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash va ularning statistik ahamiyatini baholash imkonini berdi. Statistik hisob-kitoblar SPSS dasturi va Excel dasturiy vositalari yordamida amalga oshirildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida sifat (qualitative) yondashuv elementlari ham qo‘llanildi. O‘quvchilarning Blended Learning modeliga nisbatan munosabati, ularning motivatsion o‘zgarishlari va o‘quv jarayoniga bo‘lgan qarashlari anketa so‘rovnomalari va yarim tuzilmali intervyular orqali o‘rganildi. Bu esa olingan natijalarni

3 Hrastinski S. What Do We Mean by Blended Learning? // TechTrends. 2019. – Vol. 63(5). – P. 564–569. DOI: https://doi.org/10.1007/s11528-019-00375-5

4 Polat E. S. Modern Educational Technologies in Foreign Language Teaching. – Moscow: Prosveshchenie, 2021. 240 p.

5 Sadykov N. K. The Effectiveness of Blended Learning in Developing Language Skills // Journal of Educational Research and Practice. 2022. – Vol. 15(2). P. 45–53.

yanada chuqurroq talqin qilish imkonini berdi. Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar miqdoriy va sifat usullarining integratsiyasiga asoslanib, Blended Learning modelining ingliz tilini o‘qitishdagi samaradorligini kompleks baholashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida olingan empirik natijalar Blended Learning modelining ingliz tilini o‘qitishdagi samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Eksperimental va nazorat guruhlarining pre-test va post-test natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Eksperimental guruhda 32 nafar, nazorat guruhida esa 30 nafar talaba ishtirok etdi. Dastlabki (pre-test) natijalar ikki guruh o‘rtasida sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi: eksperimental guruhning o‘rtacha ko‘rsatkichi 58,4%, nazorat guruhida esa 57,9% ni tashkil etdi. Bu esa guruhlarning boshlang‘ich bilim darajasi deyarli teng ekanligini tasdiqlaydi.

Tajriba yakunida o‘tkazilgan post-test natijalari esa sezilarli o‘zgarishni ko‘rsatdi. Eksperimental guruhning o‘rtacha natijasi 82,3% ga yetgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 68,1% ni tashkil etdi. Ushbu farq Blended Learning modelining ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini yaqqol namoyon etadi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, t-test qiymati $p < 0.05$ darajada ahamiyatli farq mavjudligini tasdiqladi, bu esa natijalarning tasodifiy emas, balki metodik yondashuv bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda eksperimental va nazorat guruhlarining pre-test va post-test natijalari keltirilgan:

Jadval 1. Eksperimental va nazorat guruhlarining test natijalari

Guruh	Pre-test (%)	Post-test (%)	O‘sish darajasi (%)
Eksperimental	58.4	82.3	+23.9
Nazorat	57.9	68.1	+10.2

Manba: *muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Jadvaldan ko‘rinadiki, eksperimental guruhda o‘sish darajasi nazorat guruhiga nisbatan deyarli ikki barobar yuqori bo‘lgan. Bu Blended Learning modelining o‘quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta’sirga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Quyidagi diagramma esa natijalarning vizual taqqoslanishini ifodalaydi:

Diagramma 1. Guruhlar bo‘yicha pre-test va post-test natijalarining qiyosiy diagrammasi



Manba: *muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Diagrammada eksperimental guruhning post-test ko‘rsatkichlari keskin oshganligi, nazorat guruhida esa o‘sish nisbatan past darajada qolganligi yaqqol ko‘rinadi. Bu holat Blended Learning modelining o‘quv jarayonida faollik, mustaqil o‘rganish va raqamli resurslardan foydalanish orqali bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishini anglatadi.

Muhokama jarayonida olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar bilan solishtirildi. Graham[6] va Bonk & Graham[7] tomonidan ilgari surilgan fikrlarga muvofiq, Blended Learning modeli o‘quvchilarning motivatsiyasi va mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshiradi. Tadqiqot natijalari ham ushbu xulosani tasdiqladi, chunki eksperimental guruh talabalarida darslarga qiziqish va faollik darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Shuningdek, Hrastinski ta’kidlaganidek, raqamli va an’anaviy ta’limning integratsiyasi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi[8]. Tadqiqot davomida talabalar onlayn platformalarda ko‘proq mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishdi, bu esa ularning yozma va tinglab tushunish ko‘nikmalarining yaxshilanishiga olib keldi.

Biroq, tadqiqot jarayonida ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Xususan, internet infratuzilmasining barqaror emasligi, ayrim talabalar uchun raqamli platformalardan foydalanishdagi texnik qiyinchiliklar Blended Learning modelining to‘liq samaradorligini biroz chekladi. Shunga qaramay, umumiy natijalar ushbu modelning an’anaviy o‘qitishga nisbatan ancha samarali ekanligini isbotladi.

Qisqa qilib aytganda, statistik tahlil, jadval va diagramma natijalari Blended Learning modelining ingliz tilini o‘qitish jarayonida sezilarli pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa mazkur yondashuvni ta’lim tizimiga keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitishda Blended Learning modelining samaradorligini eksperimental jihatdan asoslab berdi. Olingan empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli va an’anaviy ta’lim shakllarining integratsiyasi o‘quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy natija beradi. Eksperimental guruhning post-test ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘lgani ushbu yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqladi. Shuningdek, Blended Learning modeli talabalar motivatsiyasini oshirishi, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishi hamda ta’lim jarayonida faol ishtirokni kuchaytirishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar bilan ham uyg‘unlikda ekanligi qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim texnik va tashkiliy cheklovlar mavjud bo‘lsa-da, ular umumiy natijalarning ishonchliligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmadi. Umuman olganda, Blended Learning modeli zamonaviy ta’lim sharoitida, xususan ingliz tilini o‘qitishda samarali pedagogik yondashuv sifatida e’tirof etiladi. Ushbu modelni ta’lim jarayoniga keng joriy etish o‘quv sifatini oshirishga va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

6 Graham C. R. Blended Learning Systems: Definition, Current Trends, and Future Directions // Bonk C. J., Graham C. R. (eds.) The Handbook of Blended Learning. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006. P. 3–21.

7 Bonk C. J., Graham C. R. (eds.). The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2012. 600 p.

8 Hrastinski S. What Do We Mean by Blended Learning? // *TechTrends*. 2019. – Vol. 63(5). P. 564–569. DOI: https://doi.org/10.1007/s11528-019-00375-5

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bonk C. J., Graham C. R. (eds.). *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs*. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2012. 600 p.

2.Graham C. R. Blended Learning Systems: Definition, Current Trends, and Future Directions // Bonk C. J., Graham C. R. (eds.) *The Handbook of Blended Learning*. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006. P. 3–21.

3.Hrastinski S. What Do We Mean by Blended Learning? // *TechTrends*. 2019. – Vol. 63(5). P. 564–569. DOI: https://doi.org/10.1007/s11528-019-00375-5

4.Polat E. S. *Modern Educational Technologies in Foreign Language Teaching*. – Moscow: Prosveshchenie, 2021.240 p.

5.Sadykov N. K. The Effectiveness of Blended Learning in Developing Language Skills // *Journal of Educational Research and Practice*. 2022. – Vol. 15(2). P. 45–53.

6.Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*. 2005. – Vol. 2(1). P. 3–10.

7.Warschauer M., Healey D. Computers and Language Learning: An Overview // *Language Teaching*. 1998. – Vol. 31(2). P. 57–71. DOI: https://doi.org/10.1017/S0261444800013156

Sitora NISHANOVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti
mustaqil izlanuvchisi

BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ TILI VARIANTLARIDA MUROJAAT SHAKLINING HUKMRONLIK VA SUBORDINATSIYA DARAJASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Britaniya va Amerika ingliz tili variantlarida murojaat shakllarining qo‘llanilishi, ularning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari hamda hukmronlik va subordinatsiya (bo‘ysunuv) darajalarini ifodalashdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida murojaat birliklarining nutq jarayonida ijtimoiy masofa, maqom va kommunikativ vaziyatga bog‘liq holda qanday o‘zgarishi aniqlanadi. Shuningdek, Britaniya ingliz tilida an’anaviy va rasmiy murojaat shakllari ko‘proq saqlanib qolganligi, Amerika ingliz tilida esa demokratik va tenglikka asoslangan murojaat uslublari ustunligi ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikda pragmatika va sotsiolingvistika yo‘nalishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *murojaat shakllari, Britaniya ingliz tili, Amerika ingliz tili, hukmronlik, subordinatsiya, sotsiolingvistika, pragmatika, ijtimoiy maqom, kommunikativ vaziyat, lingvomadaniyat*

Аннотация: в данной статье рассматриваются особенности употребления форм обращения в британском и американском вариантах английского языка, а также их роль в выражении степени доминирования и субординации. В ходе исследования анализируются социолингвистические аспекты обращения, включая влияние социального статуса, дистанции и коммуникативной ситуации на выбор языковых средств. Установлено, что в британском английском языке в большей степени сохраняются традиционные и формальные формы обращения, тогда как в американском английском преобладают более демократичные и неформальные модели общения. Результаты исследования представляют интерес для прагматики и социолингвистики.

Ключевые слова: *формы обращения, британский английский, американский английский, доминирование, субординация, социолингвистика, прагматика, социальный статус, коммуникативная ситуация, лингвокультура*

Annotation: this article examines the use of forms of address in British and American varieties of English, focusing on their role in expressing dominance and subordination. The study analyzes sociolinguistic factors such as social status, interpersonal distance, and communicative context that influence the choice of address forms. The findings reveal that British English tends to preserve more formal and traditional address forms, whereas American English demonstrates a preference for more democratic and egalitarian patterns of communication. The results contribute to the fields of pragmatics and sociolinguistics by highlighting cross-cultural differences in language use.

Key words: *forms of address, British English, American English, dominance, subordination, sociolinguistics, pragmatics, social status, communicative context, linguoculture*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda nutq jarayonida qo‘llaniladigan murojaat shakllari nafaqat grammatik yoki leksik birlik sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muhim pragmatik vosita sifatida ham talqin etiladi. Xususan, murojaat birliklari orqali kommunikativ ishtirokchilar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa, maqom, hurmat darajasi hamda hukmronlik va subordinatsiya munosabatlari aniq ifodalanadi. Shu jihatdan, ingliz tilining turli hududiy variantlarida, xususan Britaniya va Amerika ingliz tilida murojaat shakllarining qo‘llanilishi o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarni namoyon etadi.

Ilmiy adabiyotlarda murojaat shakllari ko‘pincha nutq aktlari nazariyasi, politeness (odob) strategiyalari hamda diskurs tahlili doirasida o‘rganiladi. Bu borada murojaat birliklari kommunikativ niyatni amalga oshirish, suhbatdoshga nisbatan munosabatni belgilash hamda ijtimoiy rollarni namoyon etishda muhim vosita sifatida qaraladi. Ayniqsa, ***Brown va Levinson*** tomonidan ilgari surilgan odob nazariyasiga ko‘ra, murojaat shakllari ***“yuz” (face)*** tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular orqali nutq ishtirokchilari o‘zaro hurmat va ijtimoiy muvozanatni saqlashga intiladilar. Shu nuqtayi nazardan, murojaat shakllarini tahlil qilish ijtimoiy iyerarxiya va til birliklari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Britaniya ingliz tilida tarixiy jihatdan shakllangan ***iyerarxik*** jamiyat modeli ta’sirida rasmiy va an’anaviy murojaat shakllari keng qo‘llanilishi kuzatiladi. Bunda ***“sir”, “madam”,*** familiya asosidagi murojaatlar yoki unvonlarni qo‘llash orqali suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa va maqom farqi aniq ifodalanadi. Amerika ingliz tilida esa, aksincha, demokratik qadriyatlar ustuvorligi sababli norasmiy va tenglikka asoslangan murojaat shakllari kengroq tarqalgan bo‘lib, bu holat kommunikativ jarayonda ijtimoiy masofaning qisqarishiga olib keladi. Natijada, murojaat birliklari ikki til variantida hukmronlik va subordinatsiya darajasini turlicha ifodalovchi lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, murojaat shakllarining tanlanishi ko‘plab omillarga, jumladan, yosh, jins, kasb, madaniy muhit, kommunikativ vaziyat va nutq maqsadiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Bu esa ularni kompleks sotsiolingvistik hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Murojaat birliklari nafaqat nutq etiketi elementi, balki ijtimoiy identifikatsiya va guruhga mansublikni ifodalovchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u Britaniya va Amerika ingliz tilida murojaat shakllarining qo‘llanilishi orqali hukmronlik va subordinatsiya darajalarining qanday ifodalanishini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari tilshunoslikning pragmatika va sotsiolingvistika yo‘nalishlarini boyitish bilan birga, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mazkur ish turli madaniyatlararo muloqotda yuzaga keladigan nutqiy xatoliklarning oldini olish va samarali kommunikatsiyani ta’minlashga xizmat qiladi.

Britaniya ingliz tilida murojaat shakllari an’anaviylik va rasmiylik bilan ajralib turadi. Bu holat jamiyatda tarixiy jihatdan shakllangan iyerarxik tizim bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, ***“Mr.”, “Mrs.”, “Sir”, “Madam”*** kabi rasmiy murojaat birliklari keng qo‘llanilib, ular orqali suhbatdoshga nisbatan hurmat va ijtimoiy masofa ifodalanadi. Ayniqsa, familiya asosida murojaat ***qilish (masalan, “Mr. Smith”)*** Britaniya ingliz tilida keng tarqalgan bo‘lib, bu shakl rasmiy munosabatlarda subordinatsiya darajasini aniq belgilaydi. Bundan tashqari, kasbiy unvonlar ***(“Doctor”, “Professor”)*** orqali murojaat qilish ham hukmronlik munosabatlarini ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi.

Amerika ingliz tilida esa murojaat shakllari ko‘proq norasmiylik va tenglikka asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa jamiyatda demokratik qadriyatlarning ustuvorligi bilan izohlanadi. Masalan, hatto rasmiy vaziyatlarda ham ism bilan murojaat qilish ***(“John”, “Emily”)*** keng tarqalgan bo‘lib, bu kommunikativ jarayonda ijtimoiy masofaning qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga, ***“sir”*** yoki ***“ma’am”*** kabi murojaat shakllari mavjud bo‘lsa-da, ular Britaniya ingliz tilidagiga nisbatan kamroq qo‘llaniladi va ko‘proq xizmat ko‘rsatish sohalarida uchraydi. Bu esa Amerika ingliz tilida subordinatsiya darajasi nisbatan pastroq ifodalanishini ko‘rsatadi.

Pragmatik nuqtayi nazardan qaraganda, murojaat shakllari ***“politeness strategies”*** (odob strategiyalari) bilan uzviy bog‘liqdir. Ijobiy odob strategiyalari ***(positive politeness)*** suhbatdoshga yaqinlik va birdamlikni ifodalashga qaratilgan bo‘lsa, salbiy odob strategiyalari ***(negative politeness)*** ijtimoiy masofani saqlash va suhbatdoshning shaxsiy hududiga hurmat bilan yondashishni nazarda tutadi. Britaniya ingliz tilida ko‘proq salbiy odob strategiyalari ustunlik qilsa, Amerika ingliz tilida ijobiy odob strategiyalari kengroq qo‘llaniladi. Bu esa murojaat shakllarining tanlanishida ham o‘z aksini topadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Britaniya va Amerika ingliz tilida murojaat shakllari turli ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillar ta’sirida shakllanadi va ular orqali hukmronlik hamda subordinatsiya munosabatlari turlicha ifodalanadi. Bu esa mazkur hodisaning murakkab va ko‘p qirrali ekanligini hamda uni chuqur ilmiy yondashuv asosida o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotda Britaniya va Amerika ingliz tilida murojaat shakllarining qo‘llanilishi hamda ular orqali ifodalanadigan hukmronlik va subordinatsiya munosabatlarini o‘rganish uchun kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy metod asosiy o‘rin egallab, u orqali ikki til varianti o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Ushbu metod yordamida murojaat shakllarining strukturaviy va funksional xususiyatlari chuqur tahlil qilindi.

Shuningdek, sotsiolingvistik metoddan foydalanilib, murojaat shakllarining ijtimoiy omillar — yosh, jins, kasb, maqom va kommunikativ vaziyat bilan bog‘liqligi o‘rganildi. ***Diskurs tahlili metodi*** asosida esa turli kommunikativ vaziyatlarda murojaat birliklarining qo‘llanilishi va ularning pragmatik yuklamasi aniqlab berildi. Bu jarayonda real nutq namunalariga tayangan holda murojaat shakllarining funksional xususiyatlari ochib berildi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Britaniya va Amerika ingliz tilida murojaat shakllari nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi hukmronlik va subordinatsiya darajasi aniq ifodalanadi hamda kommunikativ strategiyalar amalga oshiriladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Britaniya ingliz tilida murojaat shakllari ko‘proq rasmiylik, an’anaviylik va iyerarxiyaga asoslangan bo‘lib, ular orqali ijtimoiy masofa va maqom farqi aniq ifodalanadi. Amerika ingliz tilida esa murojaat shakllari demokratik va tenglikka asoslangan bo‘lib, kommunikativ yaqinlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa ikki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qadriyatlaridagi farqlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. – London: Longman, 1999.
2. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. Coulmas F. Sociolinguistics: The Study of Speakers’ Choices. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
4. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
5. Cutting J. Pragmatics and Discourse. – London: Routledge, 2002.
6. Fasold R. The Sociolinguistics of Society. – Oxford: Blackwell, 1984.
7. Gumperz J. Discourse Strategies. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982.
8. Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. – London: Longman, 2013.
9. Hudson R. Sociolinguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
10. Hymes D. Foundations in Sociolinguistics. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1974.
11. Lakoff R. Language and Woman’s Place. – New York: Harper & Row, 1975.
12. Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.
13. Tannen D. Gender and Discourse. – Oxford: Oxford University Press, 1994.
14. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. – London: Penguin, 2000.

Mamlakat TOSHEVA,
Toshkent davlat tibbiyot instituti
Termiz filiali o‘qituvchisi



INGLIZ NASRIDA OILA KONSEPTI
(Jeyn Ostin asarlari misolida)

Annotatsiya: maqolada Jeyn Ostinning hayoti va ijodiy faoliyati keng yoritiladi. Yozuvchining ingliz romanchiligiga qo‘shgan hissasi, asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy va axloqiy g‘oyalar, ayniqsa, ayollar taqdiriga bo‘lgan e’tibori tahlil qilinadi. Shuningdek, uning asarlarida jamiyatdagi tabaqalanish, nikoh masalasi va insoniy munosabatlarning nozik jihatlari badiiy mahorat bilan ifodalangani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Jeyn Ostin, adabiyot, romanchilik, ijod, asarlar, andisha, g‘urur, ayollar taqdiri, jamiyat, nikoh*

Annotation: this article explores the life and creative work of Jane Austen. It analyzes her contribution to English literature and the novel genre, focusing on the social and moral ideas presented in her works. Particular attention is given to her portrayal of women’s fate, social class, marriage, and human relationships, highlighting her unique literary style and critical perspective on society.

Key words: *Jane Austen, literature, novel, творчество (creative work), works, pride, prejudice, women’s fate, society, marriage*

Аннотация: в статье рассматриваются жизнь и творческая деятельность Jane Austen. Анализируется её вклад в английскую литературу и развитие романа, а также идеи, отражённые в её произведениях. Особое внимание уделяется изображению женской судьбы, социального неравенства, брака и человеческих взаимоотношений.

Ключевые слова: *Джейн Остин, литература, роман, творчество, произведения, гордость, предубеждение, женская судьба, общество, брак*

Jahon adabiyoti nasrida oila konsepti insoniyatning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy hayotini aks ettiruvchi muhim badiiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng asosiy bo‘g‘ini sifatida nafaqat ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida, balki shaxs kamolotida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli jahon nasrida oila masalasi turli davr va adabiy yo‘nalishlar kesimida keng va chuqur yoritilgan.

Oila konsepti badiiy adabiyotda ko‘pincha ijtimoiy tizimning modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchilar oilaviy munosabatlar orqali jamiyatdagi muammolarni, qadriyatlar inqirozini yoki aksincha, an’anaviy qadriyatlarning mustahkamligini ko‘rsatishga intiladilar. Masalan, Lev Tolstoyning “Anna Karenina” romanida oila ikki xil model — barqaror va inqirozga yuz tutgan oila ko‘rinishida tasvirlanadi. Asarda Levin va Kiti oilasi an’anaviy qadriyatlarga asoslangan mustahkam birlik sifatida ko‘rsatilsa, Anna va Karenin o‘rtasidagi munosabatlar esa ijtimoiy bosim va shaxsiy erkinlik o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi.

XIX asr realizm adabiyotida oila konsepti yanada chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi. Bu davr yozuvchilari oilani jamiyatdagi tabaqalanish, iqtisodiy tengsizlik va axloqiy muammolarni ochib beruvchi vosita sifatida tasvirlaydilar. Charls Dikkens asarlarida oila ko‘pincha mehr-muhabbat va insoniylik maskani sifatida talqin etiladi. Uning “Oliver Twist” romanida yetim bola taqdiri orqali oilasizlik muammosi va uning jamiyatdagi salbiy oqibatlari yoritiladi.

Ingliz adabiyotida oila konsepti, ayniqsa, Jeyn Ostin ijodida markaziy o‘rin egallaydi. Uning “Andisha va g‘urur” asarida oila nikoh, ijtimoiy mavqe va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Bennetlar oilasi misolida yozuvchi ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ularning kelajagi ko‘p jihatdan oilaviy tanlovlarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

XX asr adabiyotida oila konsepti yanada murakkablashib, psixologik va ekzistensial mazmun kasb eta boshlaydi. Bu davr yozuvchilari oila ichidagi begonalashuv, avlodlar o‘rtasidagi ziddiyat va individualizm muammolariga e’tibor qaratadilar. Masalan, Frans Kafkaning asarlarida oila a’zolari o‘rtasidagi sovuqlik va manfaatparastlik keskin badiiy shaklda ifodalanadi. Gregor Zamza obrazi orqali insonning oila doirasida ham begonalashuvi mumkinligi ko‘rsatib beriladi.

Amerika adabiyotida ham oila konsepti muhim o‘rin tutadi. William Faulkner asarlarida oila tarixiy xotira va ijtimoiy inqirozning timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning romanlarida avlodlar o‘rtasidagi uzviylik, an’analar va ularning yemirilishi muammolari chuqur tahlil qilinadi.

Sharq adabiyotida esa oila ko‘proq an’ana, hurmat va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Masalan, o‘zbek adabiyotida oilaviy munosabatlar, ota-ona va farzand o‘rtasidagi aloqalar muhim mavzulardan

biri hisoblanadi. Bu jihat jahon adabiyotidagi umumiy tendensiyalar bilan uyg‘unlashadi.

Zamonaviy nasrda oila konsepti globalizatsiya, urbanizatsiya va madaniy o‘zgarishlar ta’sirida yangi talqinlarga ega bo‘lmoqda. Endilikda yozuvchilar an’anaviy oila modelidan tashqari muqobil oilaviy shakllarni, shuningdek, shaxs erkinligi va oilaviy majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ham tadqiq etmoqdalar.

Jahon adabiyoti nasrida oila konsepti ko‘p qirrali va murakkab hodisa bo‘lib, u turli davr va madaniyatlarda o‘ziga xos talqinlarga ega. Oila badiiy adabiyotda nafaqat ijtimoiy institut, balki inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlari va hayotiy tanlovlarini aks ettiruvchi muhim estetik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Jane Austen jahon romanchiligi tarixida o‘ziga xos o‘rin egallagan adibadir. U 1775-yil 16-dekabrda Angliyaning ziyoli oilalaridan birida tug‘ilgan. Oilaviy muhitning ma’rifatparvarligi, ota-onasining bilimga chanqoqligi va kitobsevarligi yozuvchining shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, otasining boy kutubxonasi Jeynning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirgan.

Jeyn Ostin juda yoshligidan ijod qilishni boshlagan bo‘lib, 14 yoshidayoq ilk badiiy tajribalarini yozgan. Uning dastlabki asarlari ko‘proq satirik ruhda bo‘lib, jamiyatdagi kamchiliklarni kulgi orqali ochib berishga qaratilgan edi. Bu jihat keyinchalik uning yetuk asarlarida ham saqlanib qoladi va yozuvchining uslubiy belgilaridan biriga aylanadi.

Yozuvchining ijodida asosiy e’tibor inson shaxsiyati va uning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan. Ayniqsa, ayollar taqdiri, ularning jamiyatdagi mavqeyi va ijtimoiy imkoniyatlari masalasi uning asarlarida markaziy o‘rin tutadi. XVIII–XIX asr Angliyasida ayollarning iqtisodiy mustaqilligi cheklangan bo‘lib, ularning kelajagi ko‘pincha muvaffaqiyatli nikoh bilan belgilanardi. Jeyn Ostin aynan shu ijtimoiy haqiqatni badiiy jihatdan chuqur ochib beradi.

Adibaning eng mashhur asari — “Andisha va g‘urur” romani hisoblanadi. Ushbu asarda sevgi va nikoh masalasi nafaqat romantik, balki ijtimoiy muammo sifatida ham talqin etiladi. Elizabet Bennet va janob Darsi obrazlari orqali insoniy g‘urur, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlar tanqid qilinadi. Roman qahramonlarining ichki dunyosi, ularning ruhiy kechinmalari chuqur psixologik tasvir orqali ochib berilgan.

Bundan tashqari, “Sezgi va tuyg‘u” romanida aql va hissiyot o‘rtasidagi ziddiyat, insonning qaror qabul qilish jarayonidagi ichki kurashlari tasvirlanadi. Asarda ikki opa-singil — Elinor va Marianne obrazlari orqali hayotga turlicha yondashuvlar solishtiriladi. Emma romanida esa insonning boshqalar hayotiga aralashuvi, o‘zini haddan tashqari ishonchli tutishining oqibatlari badiiy ifodalanadi.

Jeyn Ostinning badiiy uslubi o‘z davri uchun yangilik bo‘lgan realizmga yaqinligi bilan ajralib turadi. U romantizmga xos ortiqcha hissiylikdan qochib, hayotni tabiiy va haqqoniy tasvirlashga intiladi. Yozuvchi voqealarni oddiy, ravon til bilan bayon etadi, biroq mazmun jihatidan nihoyatda chuqur g‘oyalarni ilgari suradi. Ayniqsa, uning asarlarida kinoya, yumor va nozik istehzo muhim o‘rin tutadi.

Yozuvchining yana bir muhim jihati — uning qahramonlar psixologiyasini chuqur ochib bera olishidadir. Har bir obraz o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, ular orqali jamiyatning turli qatlamlari ifodalanadi. Shu sababli kitobxon asarni o‘qish jarayonida qahramonlar bilan birga yashaydi, ularning his-tuyg‘ularini his qiladi.

Jeyn Ostinning zamondoshlari ham uning iste’dodini yuqori baholaganlar. Jumladan, mashhur yozuvchi Volter Skott uning asarlaridagi realizm va badiiy mahoratni alohida e’tirof etgan. Bu esa yozuvchining o‘z davridayoq tan olingan ijodkor bo‘lganini ko‘rsatadi.

Adibaning asarlarida Angliya jamiyatining ijtimoiy hayoti keng tasvirlangan. U orqali o‘sha davrning odob-axloq me’yorlari, ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari, oilaviy munosabatlar va insoniy qadriyatlar haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shu jihatdan uning asarlari nafaqat badiiy, balki tarixiy ahamiyatga ham ega.

Jeyn Ostin asarlarining bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi uning ijodining umrboqiyligini ko‘rsatadi. Uning romanlari ko‘plab tillarga tarjima qilingan, turli madaniyat vakillari tomonidan sevib o‘qilmoqda. Shuningdek, asarlari asosida ko‘plab filmlar va seriallar yaratilgan bo‘lib, ular ham katta muvaffaqiyat qozongan.

Jeyn Ostin ingliz adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan, realizm yo‘nalishining rivojiga katta hissa qo‘shgan buyuk adibadir. Uning asarlari orqali insoniy munosabatlar, jamiyat muammolari va ayollar taqdiri chuqur badiiy tahlil etilgan. Shu sababli uning ijodi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda va kelajak avlodlar uchun muhim adabiy meros bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ostin J. Andisha va G‘urur. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2020
2. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б . 112
3. Пардаева З. Ўзбек романи поэтикаси. – Т.: Мерос, 2003. – Б . 104
4. Сатторова Г. Миллий характер ва бадиий талқин. – Тошкент: Фан, 2007. – Б 118.

Nuritdin ABDULLAYEV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti“Tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

INGLIZ TILIDAGI IDIOMATIK IFODALAR VA ULARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI

Annotatsiya: ushbu maqola ingliz tilidagi idiomatik ifodalar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasining lingvistik, semantik va madaniy o‘ziga xosliklarini tahlil qiladi. Idiomatik ifodalar tilning o‘ziga xos qismi bo‘lib, ular faqat grammatik tuzilmalar va so‘zlar orqali ifodalangan ma’nolarga to‘liq bog‘lanmaydi. Ko‘pincha ular figurativ ma’no va tilga xos bo‘lgan kontekstga asoslanadi. Maqola, tarjima jarayonida idiomatik ifodalarning semantik o‘zgarishlarini, kontekstual tafovutlarni va madaniy farqlarni hisobga olish zaruratini yoritadi. Tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomatik ifodalar o‘rtasidagi semantik, sintaktik va madaniy farqlarni ko‘rsatib, tarjimadagi ekvivalentlik masalalarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *idiomatik ifodalar, tarjima, semantik ekvivalentlik, figurativ ma’no, tilshunoslik, madaniy tafovutlar, kross-kultural tarjima, stilistika, semantika*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистические, семантические и культурные особенности идиоматических выражений в английском языке и их перевода на узбекский язык. Идиоматические выражения являются специфической частью языка и не полностью связаны со значениями, выраженными только грамматическими структурами и словами. Часто они основаны на переносном значении и контексте, характерном для языка. В статье освещается необходимость учета семантических изменений идиоматических выражений, контекстуальных различий и культурных различий в процессе перевода. Исследование показывает семантические, синтаксические и культурные различия между идиоматическими выражениями в английском и узбекском языках и раскрывает вопросы эквивалентности в переводе.

Ключевые слова: *идиоматические выражения, перевод, семантическая эквивалентность, образное значение, лингвистика, культурные различия, кросс-культурный перевод, стилистика, семантика*

Annotation: this article analyzes idiomatic expressions in English and the linguistic, semantic, and cultural features of their translation into Uzbek. Idiomatic expressions are a specific part of language, and they are not fully connected to the meanings expressed only by grammatical structures and words. Often they are based on figurative meaning and the context inherent in the language. The article highlights the need to take into account the semantic changes of idiomatic expressions, contextual differences, and cultural differences in the translation process. The study shows the semantic, syntactic, and cultural differences between idiomatic expressions in English and Uzbek, revealing the issues of equivalence in translation.

Keywords: *idiomatic expressions, translation, semantic equivalence, figurative meaning, linguistics, cultural differences, cross-cultural translation, stylistics, semantics*

Ingliz tilidagi idiomatik ifodalar tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat grammatik jihatdan, balki semantik va madaniy jihatdan ham murakkab strukturalarga ega. Idiomatik ifodalar asosan, figurativ ma’no anglatib, tilning boshqa qismlaridan farq qiladi. Tarjimada esa, bu ifodalar o‘zbek tiliga qanday moslashtirilishi va tarjima qilinishi ko‘p hollarda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida idiomatik ifodalar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish va ular orasidagi ekvivalentlik masalasini yoritish ushbu maqolaning asosiy maqsadidir. Tarjimonlar ko‘pincha ingliz tilidagi idiomatik ifodalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda to‘g‘ri ekvivalentni topish uchun madaniy va kontekstual o‘zgarishlarni hisobga olishlari kerak.

Ingliz tilidagi idiomatik ifodalar tili o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Mona Bakerning *In Other Words* (1992) nomli asarida idiomatik ifodalar tarjimasi semantik o‘zgarishlarni talab qilishi va ularni tarjimashunoslikda to‘g‘ri ekvivalentlarni topishda ko‘p holatlarda murakkabliklar tug‘dirishi haqida gapiriladi. Baker o‘z asarida idiomatik ifodalar ko‘pincha bevosita tarjimaga ega bo‘lmasligini va ba’zan ularni o‘zbek tiliga moslashtirishda yangi iboralar yaratish zarurligini ta’kidlaydi.

Baxtiyorov (2012) o‘zbek tilidagi idiomatik ifodalarni tahlil qilganida, ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomatik ifodalar o‘rtasidagi semantik farqlarni ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, ba’zi ingliz tilidagi idiomalar o‘zbek tilida bevosita tarjima qilinmaydi va ular o‘zbek tilidagi mos iboralar bilan almashtirilishi kerak. Masalan, ingliz tilidagi “spill the beans” (sirni ochish) iborasi o‘zbek tilida o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan “sirni fosh etmoq” deb tarjima qilinadi.

Xudoyberganova (2018) tarjimada ekvivalentlikni va madaniyatning rolini ko‘rsatib, ingliz tilidagi idiomatik ifodalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda madaniy kontekstning ahamiyatini ta’kidlaydi. U shuningdek, tarjima jarayonida madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlar, asosan, idiomatik ifodalar orqali qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi. Madaniy kontekstni hisobga olish, idiomatik ifodalarni tarjima qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki tilning o‘ziga xos xususiyatlari va madaniy kodlari o‘zbek tilidagi ekvivalentlarni topish uchun muhim omillardan biridir.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomatik ifodalarni o‘rganish, faqat tilshunoslik sohasidagi bilimlarni kengaytiribgina qolmay, balki tarjima qilish metodologiyasini ham takomillashtiradi. Newmark (1988) o‘zining *A Textbook of Translation* asarida, tarjimashunoslikda idiomatik ifodalarning o‘ziga xos o‘rni haqida so‘z yuritadi. U idiomatik ifodalar tarjimasi murakkab va

nozik jarayon ekanligini ta’kidlaydi va bunday ifodalarni to‘g‘ri tarzda tarjima qilishda ekvivalentlikka e’tibor berishni zarur deb hisoblaydi.

Solishtirish metodologiyasini qo‘llagan holda, Baxtiyorov (2012) ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomatik ifodalarni solishtirishda semantik farqlarni tahlil qiladi. Unga ko‘ra, ba’zi ingliz idiomalariga o‘zbek tilida bevosita ekvivalentlar mavjud emas va ularning tarjimasi kontekstual yondashuvni talab qiladi.

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomatik ifodalar va ularning tarjimasi solishtirilib, tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida korpus tahlili va solishtirish metodlari qo‘llaniladi. Korpus tahlili asosida ingliz tilidagi idiomatik ifodalar o‘zbek tilidagi tarjimalari bilan solishtiriladi. Bu metod yordamida ingliz tilidagi idiomatik ifodalarning semantik va sintaktik o‘zgarishlarini tahlil qilish, shuningdek, tarjimadagi muvaffaqiyatli ekvivalentlikni aniqlash mumkin.

Solishtirish metodologiyasida ingliz va o‘zbek tillarining idiomatik ifodalari o‘rtasidagi semantik, morfologik va sintaktik farqlarni solishtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Tarjimaning muvaffaqiyatini aniqlashda, ba’zan bevosita ekvivalentni topish qiyin bo‘lganligi sababli tarjimonda o‘zbek tiliga mos keluvchi yangi iboralar va stilistik o‘zgarishlar kiritilishi mumkin.

Shuningdek, madaniy kontekstual tahlil ham muhim o‘rin tutadi. Ingliz va o‘zbek tillari orasidagi madaniy tafovutlar, idiomatik ifodaning to‘g‘ri tarjimasi uchun zarur bo‘lgan muhim omillardan biridir. Tarjimada ba’zi idiomatik ifodalarni madaniy moslashtirish zarurati tufayli bunday ifodalar nafaqat til, balki madaniyat orqali ham aks etadi. Shu sababli, tarjimada madaniy tafovutlar va kontekstual o‘zgarishlarni hisobga olish muhimdir.

Quyidagi misollar yuqorida ta’kidlangan metodlar yordamida tahlil qilinadi:

1. “Break the ice”. Metod: **semantik tahlil** va **kontekstual tahlil**.

Inglizcha ibora “Break the ice” o‘zbek tiliga “Tanishtirishni boshlash” yoki “Boshqa odamlar bilan iliq munosabatlar o‘rnatish” tarzida tarjima qilinadi. Bu iboradagi figurativ ma’no va kontekstual o‘zgarishlarni tushunish semantik tahlilni talab qiladi.

Tarjima jarayonida ingliz tilidagi idiomaning ma’nosi o‘zbek tilidagi yangi ibora orqali aks ettiriladi.

Misol: “He told a joke to break the ice.” **Tarjima**: “U tanishish uchun hazil qildi.”

2. “Spill the beans”. Metod: **Solishtirish metodologiyasi** va **kultural tahlil**.

Ushbu ibora o‘zbek tiliga “Sirni fosh etmoq” deb tarjima qilinadi. Tarjimaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ingliz tilidagi idiomani o‘zbek tilidagi madaniy kontekstga moslashtirish zarur. Madaniy tafovutlar va til o‘rganishning ekvivalentligi solishtirish metodologiyasining asosiy yondashuvlaridan biridir.

Misol: “She spilled the beans about the surprise party.”

Tarjima: “U kutilgan bayram haqida sirni ochib qo‘ydi.”

3. “Hit the nail on the head”. Metod: **Semantik tahlil** va **kontekstual tahlil**.

Bu ibora ingliz tilida to‘g‘ri gapirish yoki muammoning asl sababini aniq topish ma’nosida ishlatiladi va o‘zbek tilida “To‘g‘ri aytmoq” yoki “Muammoni aniq ko‘rsatmoq” tarzida tarjima qilinadi. Bu tarjimalar o‘zbek tilining sintaktik tuzilishi va figurativ ma’nosi bilan mos keladi.

Misol: “John hit the nail on the head when he explained the issue.”

Tarjima: “Jon muammoni tushuntirganda, to‘g‘ri aytdi.”

4. “Burn the midnight oil”

Metod: **Solishtirish metodologiyasi** va **semantik tahlil**.

Ingliz tilidagi “Burn the midnight oil” iborasi o‘zbek tilida “Tungi ishlash” tarzida ifodalanadi. Bu ibora nafaqat grammatik, balki madaniy farqlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Tarjimada semantik ekvivalentlik va figurativ ma’no o‘rganiladi.

Misol: “I had to burn the midnight oil to finish the report.”

Tarjima: “Hisobotni tugatish uchun tun bo‘yi ishlashim kerak edi.”

Ingliz tilidagi idiomatik ifodalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda yuqorida sanab o‘tilgan metodlar, tarjima jarayonida tilshunosning yondashuvini aniqlashda, semantik o‘zgarishlarni, madaniy tafovutlarni va kontekstual o‘zgarishlarni hisobga olishda yordam beradi. Solishtirish metodologiyasi, ayniqsa, til o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatishda muhimdir. Korpus tahlili esa, har bir ifodaning real kontekstdagi ishlatilishini o‘rganishga imkon beradi. Shuningdek, semantik tahlil metodlari yordamida idiomatik ifodaning asl ma’nosi va figurativ ma’nosi o‘rtasidagi farqni aniqlash mumkin, bu esa tarjimaning aniqligi va ekvivalentligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tarjimonning asosiy maqsadi — nafaqat grammatik to‘g‘rilikni, balki ifodaning to‘g‘ri semantik va madaniy o‘zgarmasligini ta’minlashdir. Boshqacha qilib aytganda, tarjimachi bu metodlar yordamida, har bir ifodaning konteksti va ma’no qatlamlarini chuqur tahlil qilgan holda, aniq va madaniy jihatdan to‘g‘ri tarjimani amalga oshirishi lozim.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomatik ifodalar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni tahlil qilish, tilshunoslikda, tarjimachilikda va madaniy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida ingliz tilidagi idiomatik ifodalarning bevosita tarjimasi ko‘pincha semantik va madaniy o‘zgarishlarni talab qiladi. Madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda, tarjimonlar ba’zan ekvivalentni topish o‘rniga, moslashtirish yoki figurativ tarjima usullarini qo‘llashadi. Tarjimada muvaffaqiyatli ekvivalentlikni ta’minlash uchun faqat til bilimlari emas, balki madaniy bilimlar ham zarurdir. Shuningdek, tarjimadan olinadigan natija nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki madaniy va kontekstual jihatdan ham o‘rinli bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. –Routledge.

2.Baxtiyorov, R. (2012). *Ingliz tilidagi idiomatik ifodalar*. –Toshkent: O‘qituvchi.

3.Alisherova, S. (2015). *O‘zbek va ingliz tillaridagi idiomatik ifodalar o‘rtasidagi madaniy tafovutlar*. –Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

4.Xudoyberganova, N. (2018). Tarjima va madaniy ekvivalentlik. *Tilshunoslik jurnali*, 12(3), 34–42.

K.A. IKROMOVA,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Marjonabonu SADRIDDINOVA,
23-61 guruh Professional ta’lim (Oziq-ovqat texnologiyasi)
yo‘nalishi talabasi

TA’LIM JARAYONIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY-SHAXSIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning **kasbiy-shaxsiy sifatlarini** shakllantirish borasida fikrlar berilgan bo‘lib, hayotimizga kirib kelayotgan yangi so‘z va iboralar haqida analiz qilinadi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, hard skills, soft skills, interaktiv, integratsiya.*

Аннотация: в статье представлены идеи о формировании профессиональных и личностных качеств будущих специалистов в образовательном процессе, а также проанализированы новые слова и выражения, входящие в нашу жизнь.

Ключевые слова: *компетентность, жесткие навыки, мягкие навыки, интерактивность, интерактивный, интеграция.*

Annotation: this article presents ideas on developing the professional and personal qualities of future specialists in the educational process, and also analyzes new words and expressions entering our lives.

Key words: *competence, hard skills, soft skills, interactivity, interactive, integration.*

Ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning **kasbiy-shaxsiy sifatlarini** shakllantirish — shunchaki bilim berish emas, balki zamon talablariga mos, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalash demakdir.

Quyida ushbu jarayonga zamonaviy yondashuvlar va kelgusidagi rejalar bo‘yicha qisqacha tahlil keltirilgan:

1. Zamonaviy yondashuvlar. Bugungi kunda ta’limda asosiy e’tibor quyidagi metodikalarga qaratilmoqda:

Kompetensiyaviy yondashuv: talabaga faqat nazariy bilim emas, balki uni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini (Soft va Hard skills) singdirish.

Hard skills deganda (qattiq ko‘nikmalar) —ya’ni ma’lum bir kasb uchun zarur bo‘lgan, o‘rganish va sertifikatlar orqali tasdiqlanadigan texnik bilimlar tushuniladi (masalan, dasturlash, chet tili). **Soft skills** (yumshoq ko‘nikmalar) — insonning shaxsiy sifatlari, ya’ni jamoada ishlash, muloqot va vaqtni boshqarish kabi ijtimoiy-psixologik qobiliyatlardir.

Quyida ularning batafsil tavsifi keltirilgan:

1. **Hard Skills (Qattiq ko‘nikmalar).** Bular o‘qish, kurslar yoki tajriba davomida o‘rganiladigan aniq texnik mahoratlardir. Ular osongina o‘lchanadi va baholanadi.

- **Misollar:** dasturlash tillarini bilish, buxgalteriya hisobi, chet tillarini bilish, haydovchilik, dizayn dasturlarida ishlash (Photoshop, AutoCAD).
- **Xususiyati:** diplom yoki sertifikat bilan tasdiqlanadi.

2. Soft Skills (Yumshoq ko‘nikmalar). Bular shaxsning xarakteri va odamlar bilan munosabatiga bog‘liq bo‘lgan, kasb tanlamaydigan universal qobiliyatlardir. Buni baholash qiyinroq.

- **Misollar:** muloqot qobiliyati (kommunikabelnost), jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash, vaqtni boshqarish (time management), stressga chidamlilik, yetakchilik (leadership).
- **Xususiyati:** hayotiy tajriba davomida shakllanadi.

Keyingisi **yo‘naltirilgan ta’lim, ya’ni:**

Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim (Student-centered): har bir talabaning individual qobiliyati, motivatsiyasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish. “Student-centered” iborasi o‘zbek tilida ta’lim kontekstida **“talabaga yo‘naltirilgan”**, **“o‘quvchiga yo‘naltirilgan”** yoki **“ta’lim oluvchiga yo‘naltirilgan”** deb tarjima qilinadi. Bu ta’lim tizimida asosiy e’tibor o‘qituvchiga emas, balki talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari va faol ishtirokiga qaratilgan yondashuvni anglatadi.

Asosiy ma’nosi:

- **Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim** — ta’lim jarayonida o‘quvchining mustaqil fikrlashi va faolligini qo‘llab-quvvatlovchi metod.
- **O‘quvchiga markazlashgan yondashuv** — ta’lim oluvchining shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan tizim.

Bu yondashuvda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘nalish beruvchi (fasilitator) rolini o‘ynaydi.

Keyingisi **Interaktiv va muammoli ta’lim.** Ushbu **ta’lim, ya’ni:**

Interaktiv va muammoli ta’lim: Case-study, loyihaviy o‘qitish (PBL) va keyslar orqali talabada mas’uliyat, qaror qabul qilish va jamoada ishlash sifatlarini shakllantirish. Bu metodning nomi inglizcha “case-study” so‘zlaridan olingan. Bunda “case” – yashik, quti, gilof, jild, “study” – o‘rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug‘ullanish, o‘quv fani, saboq olish, o‘qish ma’nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan “case – true life”, ya’ni “keys – haqiqiy hayot” iborasiga ko‘ra keys – real hayotning “bir parchasidir”. Shunga ko‘ra, bu metodni “amaliy holatlarni o‘qitish metodi” deb ham ataladi.

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi: masofaviy ta’lim va raqamli platformalar orqali o‘z-o‘zini boshqarish hamda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar nafaqat kundalik faoliyatimizda, balki ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarishda, soliq tizimida, sog‘liqni saqlash tizimida, ta’limda, bank va moliya sohasida hamda Davlat boshqaruvida ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga joriy qilish va mavjud axborot tizimlarni modernizatsiya qilishda mutaxassislarni jalb qilish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash muhim hisoblanadi. **Sun’iy intellekt va big data** ko‘makka kelmoqda. Artificial intelligence, ya’ni, sun’iy aql – informatikaning alohida sohasi bo‘lib, kompyuter yoki mashinaning inson ongidagi imkoniyatlarga taqlid qilishi, sodda qilib aytganda, sun’iy aql kompyuterlarni odam kabi o‘ylash va yechim topishga yo‘naltirilgan texnologiya hisoblanadi. Big Data – salmoqli ma’lumot atamasi kuniga 100 gigabaytdan ko‘p ma’lumot tushadigan oqimlarga nisbatan qo‘llanib kelingan. Keyinchalik ma’lumotlarning keskin ko‘payishi oqibatida bu tushuncha yanada keng qamrov kasb eta boshladi. Ushbu atama odatda, terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasidagi katta hajmdagi ma’lumotlarga nisbatan qo‘llaniladi.

2. Shakllantirilishi **lozim bo‘lgan asosiy sifatlar**

Zamonaviy mutaxassis uchun quyidagi sifatlar ustuvor hisoblanadi:

A) Kreativlik va kreativ fikrlash: muammolarga nostandart yechim topish. Kreativlik – inglizcha “creative” (ijodiy, yaratuvchi) so‘zidan olingan bo‘lib, ijodkorlik, yangicha yondashuv va odatiy bo‘lmagan g‘oyalarni yaratish qobiliyatini anglatadi. Bu shunchaki san’at emas, balki muammolarni noyob usullar bilan hal qilish, bir xillikdan qochish va yangi tajribalarni bog‘lash qobiliyatidir.

- Kreativlikning asosiy ma’nolari va xususiyatlari:
- **Ijodkorlik va yaratuvchanlik:** yangi, o‘ziga xos va foydali narsalarni o‘ylab topish.
- **Noyob yondashuv:** standart bo‘lmagan, qoliplardan tashqarida fikrlash (divergent tafakkur).
- **Muammolarni yechish:** qiyin vaziyatlarda kreativ yechimlar topish.
- **Tajribalarni bog‘lash:** Stiv Jobs ta’riflaganidek, turli xil tajriba va bilimlarni birlashtirib, yangi g‘oya hosil qilish kabi ma’nolarni anglatadi.

B) Emotsional intellekt (EQ): o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish.

- **Moslashuvchanlik (Adaptability):** tez o‘zgaruvchan mehnat bozoriga va yangi texnologiyalarga tez ko‘nikish.
- **Etika va mas’uliyat:** kasbiy etika qoidalariga rioya qilish va natija uchun javobgarlikni his etish.

Emotsional intellekt (EQ) – bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, shuningdek, boshqalarning emotsiyalarini to‘g‘ri tushunish va ularga mos munosabat bildirish qobiliyatidir. U shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni samarali qurish, stressni boshqarish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

- **Emotsional intellektning asosiy tarkibiy qismlari:**
- **O‘zini anglash:** o‘z his-tuyg‘ulari va ularning sabablarini tushunish.
- **O‘zini boshqarish:** emotsiyalarni nazorat qilish va ijobiy tomonga yo‘naltirish.
- **Empatiya:** boshqalarning hissiyotlarini his qilish va tushunish.
- **Ijtimoiy ko‘nikmalar:** munosabatlarni boshqarish va samarali muloqot qilish.

Yuqori EQga ega odamlar vaziyatni yaxshiroq tahlil qiladi va muloqotda muvaffaqiyatga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nafisa Yusupova “Musiqa savodi, metodikasi va ritmikasi” – Toshkent, 2017-yil.

2.Utanov U.Q., Qosimova O.X. “Xalq ta’limi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish”; // “Pedagogik innovatsiyalar va yuqori samaradorlikka yetaklovchi ta’limiy g‘oyalar” respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi to‘plami. – Termiz, 2020-yil.

3. Mannopov S., Karimov A., Qurbonova B., & Dilobar, J. (2022, February). In Archive of Conferences (pp. 49 – 52).

4.Mannopov S., Karimov A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February).
In Archive of Conferences (pp. 49 – 52).

Abbos XABIBULLOYEV,
axabibulloyev17@gmail.com
Termiz davlat pedagogika instituti

TALABALARNI PEDAGOGIK LOYIHALASHTIRISHGA O‘RGATISH METODLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalarning pedagogik loyihalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodlar tahlil qilinadi. Pedagogik loyihalashtirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, u talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada loyiha metodi, interfaol usullar, muammoli o‘qitish, hamkorlikda o‘rganish kabi samarali metodlar yoritilgan. Shuningdek, talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etish, refleksiya va baholash jarayonlari orqali pedagogik loyihalashtirishga o‘rgatishning samarali yo‘llari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik loyihalashtirish, ta’lim jarayoni, loyiha metodi, kasbiy kompetensiya, kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv, o‘qitish metodlari, talaba faoliyati, refleksiya, metodik tayyorgarlik, interfaol usullar, ta’lim texnologiyalari.*

Annotation: this article analyzes methods aimed at developing students’ pedagogical design skills. Pedagogical design is considered an essential component of the modern educational process, contributing to the development of independent thinking, creativity, and professional competencies of students. The article highlights effective methods such as project-based learning, interactive approaches, problem-based learning, and collaborative learning. It also substantiates effective ways of teaching pedagogical design through organizing practical activities, reflection, and assessment processes.

Key words: *pedagogical design, educational process, project-based method, professional competence, creative thinking, innovative approach, teaching methods, student activity, reflection, methodological training, interactive methods, educational technologies.*

Аннотация: в данной статье анализируются методы, направленные на формирование и развитие у студентов навыков педагогического проектирования. Педагогическое проектирование рассматривается как важный компонент современного образовательного процесса, способствующий развитию самостоятельного мышления, креативности и профессиональных компетенций студентов. В статье освещаются эффективные методы, такие как метод проектов, интерактивные подходы, проблемное обучение и обучение в сотрудничестве. Также обосновываются эффективные пути обучения педагогическому проектированию через организацию практической деятельности, рефлексию и оценивание.

Ключевые слова: *педагогическое проектирование, образовательный процесс, метод проектов, профессиональная компетентность, креативное мышление, инновационный подход, методы обучения, деятельность студентов, рефлексия, методическая подготовка, интерактивные методы, образовательные технологии.*

Zamonaviy globallashuv sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ta’lim sifatiga bo‘lgan ehtiyojning oshishi pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonini samarali tashkil etuvchi, uni loyihalovchi, boshqaruvchi va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi mutaxassis sifatida shakllanishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, talabalarni pedagogik loyihalashtirishga o‘rgatish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Pedagogik loyihalashtirish — bu ta’lim jarayonini oldindan ilmiy asosda rejalashtirish, uning maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va kutilayotgan natijalarini tizimli ravishda ishlab chiqish jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchidan yuqori darajadagi ***analitik fikrlash, tizimli yondashuv, kreativlik va reflektiv ko‘nikmalarni*** talab etadi. Pedagogik loyihalashtirishning asosiy bosqichlariga muammoni aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, ta’lim mazmunini tanlash, metod va vositalarni aniqlash, jarayonni amalga oshirish hamda natijalarni baholash va tahlil qilish kiradi. Ushbu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular pedagogik faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi.

Talabalarni pedagogik loyihalashtirishga o‘rgatish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u turli metodlar va yondashuvlardan foydalanishni talab etadi. Eng samarali metodlardan biri — loyiha metodi hisoblanadi. Loyiha metodi talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga, real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu metod orqali talabalar dars loyihalarini ishlab chiqadilar, o‘quv jarayonini modellashtiradilar va natijalarni tahlil qiladilar. Natijada ularning kasbiy kompetensiyalari shakllanadi.

Bundan tashqari, *interfaol metodlar* pedagogik loyihalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Interfaol metodlar talabalarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. “Aqliy hujum”, “Debat”, “Klaster”, “Keys-stadi”, “Rol o‘ynash” kabi usullar orqali talabalar mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va kreativ yechimlar ishlab chiqishni o‘rganadilar. Bu metodlar o‘qitish samaradorligini oshiradi va bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Muammoli o‘qitish metodi ham pedagogik loyihalashtirishga o‘rgatishda samarali vositalardan biridir. Bu metodda talabalar oldiga muayyan pedagogik muammo qo‘yiladi va ular ushbu muammoni mustaqil ravishda hal etishga harakat qiladilar. Bu jarayon talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, ularni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Muammoli vaziyatlar orqali o‘qitish real pedagogik faoliyatga yaqinlashtirilgan bo‘lib, u talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Hamkorlikda o‘rganish metodi talabalarni pedagogik loyihalashtirishga o‘rgatishda yana bir muhim yondashuv hisoblanadi. Ushbu metod talabalarni kichik guruhlarda ishlashga, fikr almashishga va jamoaviy qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Guruhli ish jarayonida talabalar bir-biridan o‘rganadilar, o‘z bilimlarini boyitadilar va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida samarali hamkorlik qilishlariga yordam beradi.

Pedagogik loyihalashtirish jarayonida refleksiya alohida ahamiyatga ega. Refleksiya — bu talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi hamda o‘z ustida ishlashi jarayonidir. Refleksiya orqali talabalar o‘z xatolarini tushunadilar, tajriba orttiradilar va kelgusi faoliyatlarini takomillashtiradilar. Bu jarayon pedagogik mahoratning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham pedagogik loyihalashtirishni o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida talabalar dars loyihalarini yaratish, taqdimotlar tayyorlash, elektron resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Pedagogik loyihalashtirish jarayonida refleksiya alohida ahamiyat kasb etadi. Refleksiya — bu talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, u shaxsiy va kasbiy o‘sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, refleksiv yondashuv ta’lim oluvchining ongli o‘rganish jarayonini shakllantiradi va uning mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi [1]. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham pedagogik loyihalashtirishni samarali tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini interaktiv va moslashuvchan shaklda tashkil etish, ta’lim oluvchilarning faolligini oshirish hamda bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga erishish mumkinligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [2]. Shuningdek, pedagogik loyihalashtirishni o‘rgatishda amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va mustaqil ishlarning ahamiyati katta bo‘lib, ular nazariy bilimlarni real pedagogik faoliyat bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Amaliy faoliyat orqali shakllangan ko‘nikmalar esa pedagogik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi [3]. Shuningdek, pedagogik loyihalashtirishni o‘rgatishda amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, seminarlar va mustaqil ishlarning o‘rni beqiyosdir. Talabalar real dars ishlanmalarini ishlab chiqish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar. Amaliy faoliyat orqali ular o‘z bilimlarini sinab ko‘radilar va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradilar.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni pedagogik loyihalashtirishga o‘rgatish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Turli metod va yondashuvlardan kompleks foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularni mustaqil va kreativ fikrlaydigan mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish va jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. How We Think. – New York: D.C. Heath & Co., 1910. – 224 p.
2. Bates T. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: BCcampus, 2015. – 528 p.
3. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
4. OECD. *The Future of Education and Skills 2030*. – Paris, 2018.
5. Ministry of Higher Education of Uzbekistan. *Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi*. – Toshkent, 2020.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent, 2012.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent, 2014.
8. Yo‘ldoshev J., Xasanboyeva O. *Pedagogika nazariyasi*. – Toshkent, 2016.

Oybek ISMAILOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti,
“Anesteziologiya reanimatologiya va tez tibbiy yordam”
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

DAVOLASH ISHI YO‘NALISHI TALABALARINI KLINIK JARAYONLARGA TAYYORLASH METODIKASINING MAZMUNI

Annotatsiya: mazkur maqolada davolash ishi yo‘nalishi talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlash metodikasining mazmuni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda klinik tayyorgarlikni tashkil etishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, tarkibiy bloklari hamda o‘qitish shakl va metodlari aniqlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *klinik tayyorgarlik, metodika mazmuni, tibbiy ta’lim, klinik kompetensiya, klinik fikrlash.*

Annotation: this article analyzes the content of the methodology for preparing students of the General Medicine program for clinical processes from a scientific and pedagogical perspective. The objectives, tasks, principles, structural components, as well as forms and methods of organizing clinical training are clarified.

Key words: *clinical training, methodological content, medical education, clinical competence, clinical thinking.*

Аннотация: в данной статье анализируется содержание методики подготовки студентов программы «Общая медицина» к клиническим процессам с научно-педагогической точки зрения. Уточняются цели, задачи, принципы, структурные компоненты, а также формы и методы организации клинической подготовки.

Ключевые слова: *клиническая подготовка, методическое содержание, медицинское образование, клиническая компетентность, клиническое мышление.*

Kirish. Zamonaviy tibbiy ta’limda nazariy bilimlar hajmining ortib borishi bilan bir qatorda, ularni real klinik faoliyatga samarali tatbiq etish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalarning fan bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishi har doim ham ularning klinik vazifalarni mustaqil va ishonchli bajarishga tayyorligini ta’minlamaydi. Shu sababli tibbiy ta’limda o‘qitish jarayonini klinik faoliyat mantiqiga moslashtirish, o‘quv jarayonini real kasbiy vazifalar bilan uyg‘unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

EPA texnologiyasi asosida bo‘lajak shifokorlarni klinik jarayonlarga tayyorlashni rivojlantirish metodikasi zamonaviy tibbiy ta’limda faoliyatga yo‘naltirilgan, natijaga asoslangan va bosqichma-bosqich tashkil etiladigan o‘qitish tizimini ifodalaydi. Mazkur metodika talabaning nazariy bilimlarini real klinik vazifalar bilan integratsiyalash orqali klinik tayyorlik darajasini izchil rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, an’anaviy fan-mavzu markazli yondashuvdan tubdan farq qiladi.

Ushbu metodikaning mazmuniy asosini klinik faoliyatga xos bo‘lgan muhim kasbiy vazifalarni aniqlash va ularni EPA shaklida tizimlashtirish tashkil etadi. Anesteziologiya va reanimatologiya fanida bunday vazifalar bemorni operatsiya oldi baholash, anesteziya rejasini tuzish, monitoringni olib borish, shoshilinch reanimatsion choralarni boshlash va klinik holatni dinamik kuzatish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Har bir vazifa alohida EPA sifatida belgilanib, talabaning ushbu faoliyatni bajarishga tayyorlik darajasi bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

Metodikaning mazmuni baholash jarayonini ham o‘z ichiga oladi. EPA texnologiyasida baholash talabaning bilimini tekshirish bilan cheklanmay, uning klinik vazifani bajarish jarayonini kuzatish va tahlil qilishga asoslanadi. Baholash natijalari talabaning keyingi rivojlanish bosqichini belgilash uchun xizmat qiladi va o‘qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanadi. Shuningdek, metodika doirasida reflektiv faoliyatga alohida e’tibor qaratiladi. Talaba bajarilgan klinik vazifalarni tahlil qilib, qabul qilingan qarorlarning asoslanganligini va ularning klinik natijalarini baholaydi. Bu jarayon talabaning klinik fikrlashini chuqurlashtirib, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kasbiy tafakkurni shakllantiradi.

EPA texnologiyasi asosida bo‘lajak shifokorlarning klinik jarayonlarga tayyorlash metodikasi global tibbiy ta’lim tizimida universal texnologiyalardan biri sifatida e’tirof etilib, u klinik tayyorgarlikni kompetensiyaga emas, balki real kasbiy faoliyatni bajarishga tayyorlik darajasi orqali baholash imkonini beradi. Mazkur metodika turli mamlakatlar va ta’lim tizimlarida qo‘llash uchun moslashuvchan bo‘lib, o‘quv jarayonini mahalliy

klinik sharoitlar va mutaxassislik xususiyatlariga mos holda tashkil etishga zamin yaratadi. Ushbu metodika global tibbiy ta'limda nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, talabaning klinik faoliyatga bosqichma-bosqich kirib borishini pedagogik jihatdan ta'minlaydi. EPA texnologiyasi asosida o'qitish jarayonida o'quv natijalari aniq klinik vazifalar bilan ifodalanib, talabaning tayyorlik darajasi vaqt omiliga emas, balki real klinik ishonch darajasiga bog'liq holda aniqlanadi. Bu yondashuv global miqyosda tibbiy ta'lim sifatini standartlashtirishga xizmat qiladi. Demak, bugungi ilmiy-texnologik taraqqiyot davrida EPA texnologiyasi nafaqat xalqaro akkreditatsiya mezonlariga javob beruvchi ta'lim texnologiyasi, balki bo'lajak shifokorlarning klinik jarayonlarga tayyorlashni rivojlantirishning ilmiy-metodik platformasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Metodik tizimning asosiy maqsadi – bo'lajak shifokorlarning klinik jarayonlarga tayyorlik darajasini izchil va tizimli ravishda rivojlantirish, ularni real klinik vaziyatlarda mustaqil va mas'uliyatli faoliyat yuritishga tayyorlash hamda nazariy bilimlarni amaliy klinik vazifalar bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Ushbu maqsad EPA texnologiyasi asosida klinik faoliyatni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, klinik fikrlashni chuqurlashtirish va professional qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Metodik tizim doirasida talabaning individual tayyorgarlik darajasi hisobga olinib, o'qitish jarayoni moslashuvchan tarzda tashkil etiladi. Talaba dastlab klinik vazifalarni kuzatish va tushunish bosqichidan o'tib, keyinchalik nazorat ostida bajarish va mustaqil faoliyatga o'tish darajasiga yetadi. Bu esa o'qitish jarayonining pedagogik xavfsizligini va samaradorligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, metodik tizimning asosiy maqsadi talabalarda klinik mas'uliyat, kasbiy ong va uzluksiz o'rganishga tayyorlikni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu bo'lajak shifokorning kelgusidagi kasbiy faoliyatida barqaror va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishiga mustahkam zamin yaratadi. EPA metodikasi, shuningdek, o'qitish jarayonini tizimli rejalashtirish, klinik faoliyatni pedagogik jihatdan maqsadli tashkil etish va ta'lim natijalarini aniq mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Ushbu metodika doirasida klinik vazifalar o'quv jarayonining markaziy elementi sifatida qaralib, talabaning bilim va ko'nikmalari real klinik faoliyat kontekstida shakllantiriladi.

Bundan tashqari, EPA metodikasi ta'lim jarayonida uzluksiz tahlil va fikr-mulohazani ta'minlab, talabaning o'z kasbiy rivojlanishini ongli ravishda rejalashtirishiga imkon yaratadi. Natijada mazkur metodika bo'lajak shifokorlarning klinik jarayonlarga tayyorlash samaradorligini oshiruvchi, zamonaviy va ilmiy asoslangan pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Amaliy jihatdan bu metodika o'qituvchining ham faol rolini o'zgartiradi, ya'ni u an'anaviy tarzda tayyor bilimlarni yetkazuvchi shaxs sifatida emas, balki klinik o'quv jarayonini tashkil etuvchi, talabaning klinik faoliyatini kuzatuvchi va yo'naltiruvchi mentor sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi talabaning klinik vazifalarni bajarish jarayonini bevosita kuzatib, uning tayyorlik darajasini baholaydi hamda keyingi rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim pedagogik qarorlar qabul qiladi.

Mazkur metodika doirasida o'qituvchi klinik vaziyatlarni didaktik resursga aylantirib, har bir amaliy mashg'ulotni maqsadli o'quv jarayoni sifatida rejalashtiradi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi talabaning xatolarini faqat ko'rsatish emas, balki ularni tahlil qilishga yo'naltirish, muammoli vaziyatlarni tushuntirish va klinik fikrlashni rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga, EPA metodikasi o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik va klinik kompetensiyani talab etadi. O'qituvchi talabaning klinik faoliyatini baholashda obyektivlikni saqlashi, konstruktiv fikr-mulohaza berishi va talabaning mustaqil faoliyatga o'tish vaqtini to'g'ri belgilashi lozim. Natijada o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik munosabatlar mazmunan boyib, ta'lim jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Bu metodikaning mohiyati shundaki, o'qitish jarayonida talabaning o'zlashtirishi lozim bo'lgan nazariy bilimlar alohida maqsad sifatida emas, balki aniq klinik vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan funksional vosita sifatida qaraladi. O'quv mazmuni real klinik faoliyatga xos jarayonlar asosida tuziladi va har bir mashg'ulot talabaning klinik tayyorligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodikada o'qitish jarayoni klinik vazifalarni ketma-ket va tizimli o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Talaba klinik faoliyatni dastlab kuzatish va tushunish orqali egallaydi, keyinchalik esa nazorat ostida bajarish va mustaqil bajarish bosqichlariga o'tadi. Bu yondashuv pedagogik jihatdan izchil rivojlanishni ta'minlab, talabaning klinik mas'uliyatni ongli qabul qilishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, ushbu metodikaning mohiyati baholash va o‘qitish jarayonining uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Talabaning klinik vazifalarni bajarish jarayoni doimiy kuzatilib, tahlil qilinadi va konstruktiv fikr-mulohazalar orqali takomillashtiriladi. Natijada o‘qitish jarayoni faqat bilim berishga emas, balki bo‘lajak shifokorning klinik yetukligini shakllantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik tizimga aylanadi. Metodik tizimning markazida talabaning real klinik faoliyatga tayyorlik darajasi turadi, ya’ni uning aniq klinik vazifalarni qaysi bosqichda, qanday sharoitda va qanchalik mustaqil bajara olishi asosiy pedagogik mezon sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvda ta’lim jarayoni o‘qitilayotgan fan mazmunidan emas, balki bo‘lajak shifokorning klinik amaliyotda bajarishi lozim bo‘lgan kasbiy faoliyatidan kelib chiqib tashkil etiladi.

Shu bois metodik tizim talabaning bilim, ko‘nikma va tajribasini alohida-alohida emas, balki ularning klinik vazifalarni bajarish jarayonidagi integratsiyasi orqali rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Talabaning har bir o‘quv faoliyati uning klinik tayyorligini oshirishga xizmat qilishi, o‘qitish mazmuni esa ushbu tayyorlik darajasini bosqichma-bosqich kengaytirishga moslashtirilishi ko‘zda tutiladi.

Natijada metodik tizimning markazida talabaning faol, ongli va mas’uliyatli klinik subyekt sifatida shakllanishi turib, bu EPA texnologiyasi asosida klinik jarayonlarga tayyorlashning asosiy pedagogik mohiyatini belgilab beradi.

Birinchidan, faoliyatga yo‘naltirilganlik prinsipi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu prinsipga ko‘ra, o‘qitish jarayoni nazariy bilimlarni uzatishga emas, balki real klinik faoliyatda bajariladigan aniq kasbiy vazifalarni o‘zlashtirishga qaratiladi. Talabaning o‘quv faoliyati klinik jarayonlar mantiqiga mos holda tashkil etilib, bilimlar amaliy vazifalarni bajarish jarayonida shakllantiriladi. Ikkinchidan, bosqichma-bosqichlik va izchillik prinsipi EPA texnologiyasining metodik asosini tashkil etadi. Talaba klinik vazifalarni dastlab kuzatish, keyinchalik nazorat ostida bajarish va so‘ngra mustaqil bajarish bosqichlaridan o‘tadi. Bu yondashuv klinik tayyorgarlikni xavfsiz va barqaror tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, individuallashtirish prinsipi muhim ahamiyatga ega. EPA texnologiyasida talabalar bir xil vaqt oralig‘ida emas, balki o‘z bilim darajasi va klinik tayyorgarlik sur’atiga mos holda rivojlanadi. Bu esa o‘qitish jarayonini moslashuvchan tashkil etish va har bir talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olish imkonini beradi. To‘rtinchidan, kuzatuvga asoslangan baholash va doimiy fikr-mulohaza prinsipi yetakchi o‘rin tutadi. Talabaning klinik vazifalarni bajarish jarayoni bevosita kuzatilib, uning faoliyati aniq mezonlar asosida baholanadi. Konstruktiv fikr-mulohaza talabaning keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Beshinchidan, klinik kontekstual o‘rganish prinsipi EPA texnologiyasining muhim metodik jihatlaridan biridir. Klinik bilim va ko‘nikmalar auditoriya sharoitida emas, balki real yoki realga yaqin klinik vaziyatlarda o‘zlashtiriladi. Bu holat talabaning klinik muhitga moslashuvini tezlashtiradi va o‘rganilgan bilimlarning barqarorligini oshiradi. Oltinchidan, mas’uliyatni ongli qabul qilish va professional yetuklikni shakllantirish prinsipi alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba klinik vazifalarni bajarish jarayonida o‘z qarorlari va harakatlarining oqibatlarini anglab yetadi, bu esa kasbiy mas’uliyat va mustaqil faoliyatga tayyorlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Union Européenne des Médecins Spécialistes. Competency-Based Medical Education and Entrustable Professional Activities: Policy Paper. – Brussels: UEMS, 2024. – 41 p.

2. Cook D.A., West C.P. Conducting systematic reviews in medical education: a stepwise approach // Medical Education. 2012. – 46(10). – P. 943–952.

3. Issenberg S.B., McGaghie W.C., Petrusa E.R., Gordon D.L., Scalese R.J. Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning // Medical Teacher. 2005. – 27(1). – P. 10–28.

4. Society for Simulation in Healthcare. Simulation-Based Education Standards: Best Practice Guidelines. – Chicago, IL: SSH, 2016. – 64 p.

5. General Medical Council. Generic Professional Capabilities Framework. – London: GMC, 2017. – 22 p.

Marxabo ERKINOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
erkinovamarhabo8@gmail.com

O'ZBEK ERKAKLARIGA XOS BAHO BILDIRUVCHI BIRLIKLARNING GENDER XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu matnda gender tilshunosligining dolzarb masalalari – muloqot jarayonida erkaklar va ayollar nutqining o'ziga xos lisoniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Maqolada erkaklar nutqiga xos bo'lgan strukturaviy, semantik va stilistik tafovutlar tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqdagi emotsionallik darajasi hamda g'ayriaxloqiy birliklarning (so'kish, haqorat, qarg'ish) jinsga xoslanishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *gender tilshunosligi, nutqiy taktika, erkaklar nutqi, ayollar nutqi, baho munosabati, g'ayriaxloqiy leksika, emotsionallik*.

Annotation: this article explores current issues in gender linguistics, highlighting the specific linguistic and socio-psychological characteristics of male and female speech within the communication process. The paper analyzes the structural, semantic, and stylistic differences inherent in male speech. Furthermore, it reveals the degree of emotionality in discourse and examines the gender-specific distribution of non-ethical linguistic units, including swearing, insults, and curses.

Keywords: *gender linguistics, speech tactics, male speech, female speech, evaluative attitude, non-ethical lexis, emotionality.*

Аннотация: в данной статье освещаются актуальные вопросы гендерной лингвистики — специфические лингвистические и социально-психологические особенности мужской и женской речи в процессе коммуникации. Анализируются структурные, семантические и стилистические различия, характерные для речи мужчин. Также рассматриваются степень эмоциональности речи и гендерная специфика употребления неэтичных лексических единиц (бранных слов, оскорблений и проклятий).

Ключевые слова: *гендерная лингвистика, речевая тактика, мужская речь, женская речь, оценочное отношение, неэтичная лексика, эмоциональность.*

Jamiyatda o'zaro muloqot jarayonida belgilangan rolning bir xil tarzda muntazam davom etishi ayol yoki erkakning nutqiga, uning xulqiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ularning fikr ifodalashda qanday nutqiy taktikani qo'llashlari, qanday til birliklari vositasida o'z kommunikativ maqsadlariga erishishiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi tilga oid o'zgarishlar ham leksika darajasida, ham gap tuzilishi darajasida namoyon bo'lishi mumkin. Ko'plab tillarda jinslarga xos ijtimoiy xulq-harakatlarga o'xshab, jinsga xos so'zlar va iboralar (idiomalar) ham mavjud. Shu bois, kimdir qarama-qarshi jinsga xos ifodalarni ishlatsa, jamiyat tomonidan bu ko'pincha ma'qullanmaydi [1, 6344].

Erkak va ayol nutqining muayyan farqlarga ega ekanligi ko'rinib turishi dunyoning barcha tillari uchun xosdir. Ayrim tillarda bu omil ochiq namoyon bo'lsa, boshqa tillarda uning lingvistik asoslarini ko'rsatib berish oson emas [2, 87].

Bu holat, ayniqsa, erkaklar va ayollar murojaatida yaqqol ko'rinib turadi. Erkaklar nutqida ayollar murojaatida uchramaydigan quyidagicha tafovutlar bor:1) erkaklar nutqida qo'llanadigan gaplar ayollarnikiga nisbatan qisqaroq bo'ladi; 2) grammatik xatolar ko'p uchraydi; 3) erkaklar nutqida asosan, ot va sifatlar ko'proq, fe'l va yuklamalar kam qo'llaniladi: 4) erkaklar nutqida ratsional baholar ijtimoiy baholarga nisbatan ustunligi seziladi. Ijtimoiy baho juda kam uchraydi. Erkaklar nutqida emotsional-ekspressiv baholar ham kam qo'llaniladi. Ular ko'proq estetik bahoni ajratib, o'zini o'rab turgan obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning axloqiy tomoniga e'tibor qaratadi; 5) erkaklar ayollarga nisbatan dunyoni va voqea-hodisalarni rang-barang tavsiflar, tasvirlar, bo'yoqlar va belgilar bilan ta'rif etadi; 6) erkaklar va ayollar tomonidan yozilgan matnlarning sintaktik tuzilishi erkaklarning teng bog'lanishli yuzaga kelgan aloqani emas, ko'proq tobe bog'lanishlarni qo'llashini ko'rsatadi; 7) erkaklar nutqida undov va so'roq

gaplar kam qo‘llaniladi; 8) to‘liqsiz gaplar va elliptik qurilmalar ham kam qo‘llaniladi; 9) erkaklar yozma nutqida teskari so‘z tartibi ham o‘ziga xosdir.

Erkaklar va ayollar nutqida uchraydigan murojaat shakllari semantikasi turli xil. Ular nutqida qo‘llaniluvchi so‘zlar ham ijobiy, ham salbiy bo‘yoqda bo‘lishi mumkin. Erkaklar nutqida asosan, qo‘pol, so‘kish, dag‘al so‘zlar bilan murojaat ifoda etiladi. Ayollar nutqida kuchli emotsiyaga berilish, his-tuyg‘u va kechinmalar orqali ifodalash, qarg‘ish so‘zlar qo‘llash kabi holatlarga ko‘p duch kelinadi. Badiiy asarlarda g‘ayriaxloqiy so‘zlar salbiy qahramonlarning nutqini individuallash, ularga xos salbiy tomonlarni yanada bo‘rttirish uchun qo‘llaniladi. Ba’zan ijobiy qahramonlar nutqida ham bunday so‘zlar ishlatilishi mumkin. Bunday vaqtda ular shu personajning o‘ta hayajonlanganligi yoki g‘azablanganligi, o‘zini tuta olmasligi oqibatini haqqoniy aks ettirish uchun foydalaniladi. Ularning badiiy matnda tutgan o‘rni haqida tilshunos E.Qilichev shunday fikrlaydi: “…g‘ayriaxloqiy so‘zlarning turlari, ma’nosi va ularning badiiy adabiyotdagi o‘rni hamda vazifasini o‘rganish uslubshunoslikda muhim ahamiyatga ega. G‘ayriaxloqiy so‘zlar o‘z xarakteriga ko‘ra so‘kish, haqorat va qarg‘ish so‘zlariga bo‘linadi. Ikkinchidan, ular erkaklar va ayollar nutqiga xosligi bilan ham farqlanib qo‘llaniladi.

Quyida erkaklar nutqida uchrovchi murojaat shakllarini ko‘rib chiqamiz. *(Izohtalab so‘zlar ma’nosi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kitobi asosida)*

Bachchag‘ar: so‘k. 1. Taqimga bosib oldi, otini chu deb bachchag‘ar ko‘sa yuraverdi. (“Ravshan”)2. Yengil koyish, norozilikni ifodalaydi: Jilla qursa, oq soqolimni hurmat qilmadi-ya, bachchag‘ar. (“Yoshlik”) Bachchag‘ar so‘zi faqatgina erkaklar nutqida uchrovchi so‘z hisoblanib, kuchli salbiy munosabat bilan birga, nisbatan ijobiy xarakterdagi nutqiy murojaatda ham ishlatiladi.

Enag‘ar so‘k. Nafrat, g‘azab, qattiq koyishni ifodalaydi. Uning yana onag‘ar, ukag‘ar kabi juda qo‘pol ko‘rinishlari mavjud. Bu so‘z ko‘proq katta yoshli erkaklar nutqida uchraydi.

– He, enag‘ar , – deb iljayib turdi O‘sar. – Jallod ekan... Kim shu gapga ishonadi? (Sh.Xolmirzayev)

Padar la’nati so‘k. Otasi la’natlangan, la’natining o‘g‘li; umuman, qarg‘ash, haqorat ifodasi. Bu so‘z odatda, noqobil farzandlarga nisbatan qattiq va qo‘pol tarzda qo‘llaniladi. Ba’zida otalarning o‘z o‘g‘illariga nisbatan shunday so‘z bilan tanbeh berganlari quloqqa chalinib qoladi. – *O‘h, **padar la’nat**! – deb yubordi tunqotar. Ustig‘a tog‘ ag‘darilg‘an maxdum boshini yana quyiroqqa solib, ho‘ngir-ho‘ngir yig‘ladi. (A. Qodiriy*)

Ablah (a.tentak, beaql, nodon). 1. Xulq-atvori tuban, yaramas axloqli. 2. Shu belgi-xususiyatga asoslangan haqoratni bildiradi. Bu so‘z erkaklar nutqida razil kimsalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Yordamchisi bir yonboshida “Uch oyoq”, og‘zi ochilib qolgan sumkadan ko‘rinib turgan kassetalarga bosh qo‘yib, apparatni quchoqlagancha xurrak otib uxlayapti. ... – **Ablah**! – dedi Mirvali. (Said Ahmad)

Sotqin nafr. O‘z vijdonini sotib, qarshi tomonga o‘tgan; sotilgan, xoin. Sotqin so‘zi, ayniqsa, murojaatlarda kuchli nafrat, hazar qilish tuyg‘usi bilan ifodalanadi. E, **ablah, sotqin**! – deb o‘shqirdi Sodiq akam menga va suratni mayda-mayda qilib yirtdi-da, oyog‘i ostiga olib toptab, keyin eshikni qattiq yopib chiqib ketdi. (O‘. Hoshimov. Dunyoning ishlari).

Oqpadar, **oq qilish** – ota-ona tomonidan o‘z bolasini farzandlikdan ma’naviy mahrum etish. O‘g‘il yoki qiz juda qattiq gunoh (vatanga xoinlik, qotillik, buzuqlik va boshqalar), nojo‘ya xatti-harakat bilan ota-onaga nomus keltiradigan ish qilsa, ota-ona bunday farzanddan voz kechgan va o‘z qarorini ko‘pchilik oldida ochiqdan ochiq e’lon qilgan.

*Onang qandoq xotin edi! Qandoq xotin edi! Nomard! Ona qabrga qo‘yilayotganda ko‘rib turib yoniga borolmagan, **oqpadar**!*

Erkaklar nutqida shunday birliklar ham borki, semasi ijobiy baho munosabati aks ettirilgan *birodar, og‘ayni, xo‘jayin, oshna, xotin aka, nachalnik, o‘g‘iltoy* kabi birliklar bo‘lib, ular so‘zlovchiga nisbatan hurmat-ehtirom, erkalash kabi baho munosabatiga ega. Masalan:

Birodar asli tug‘ishgan aka-uka (brat) ma’nosini anglatib, keyinchalik barcha erkak kishiga murojaatda ham ishlatila boshlagan.

Birodarlar, ana endi Elbek baxshi Asqar tog‘ining boshida o‘tiribdi. (U.Azim) Erkaklar nutqida *o‘g‘il+toy, o‘g‘iltoy* birligining o‘g‘lim deya murojaat qilinishiga nisbatan erkalash-kichraytirish ma’nosini yuzaga keltiradi. Ijobiy baho munosabatini namoyon qiladi. Ushbu birlik faqat erkaklar nutqigagina xosdir.

Ha, endi, buvingnikiga ko‘chib ketadigan bo‘lsak, uyni tashlab ketamizmi, orqalab opketamiz-da, *o‘g‘iltoy! (Sh. Boshbekov)*

Matnda insonni tashqi ko‘rinishi orqali jinsda farqlovchi bir qator nutqiy birliklar, formulalar mavjud bo‘lishi mumkin. Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan gender stereotiplar tizimiga qahramonning nutqi, ismi, laqabi

yoki shaxsini ifodalovchi belgilar kiradi. Ammo matnni o‘rganayotganda bevosita ismini o‘qimasdan yoki bilmasdan ham qahramonning ayol yoki erkak ekanligini anglatuvchi tashqi belgilar mavjud. Bunday tashqi belgilarga yuz tuzilishi, ifodasi, qad-qomat, tana a’zolari tuzilishi, ovoz va kiyim-kechak, shuningdek, boshqa omillarni kiritish mumkin.

Erkaklarga xos yuz ifodasi, tana a’zolari ifodasi, xarakter ifodasi, xatti-harakat ifodasi kabilarni aks ettiruvchi gender stereotiplar mavjud.

Tashqi ko‘rinishni tasvirlashda ham ijobiy va salbiy baho munosabati namoyon bo‘ladi. Erkaklarning yuz a’zolari qismi ifodasini ijobiy baho munosabatini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *burgut ko‘z, qirg‘iy ko‘z, lochin ko‘z, o‘tkir nigohli, qoshlari qalin, jingalak sochli, ingichka mo‘ylov* kabilar. Masalan:

Qoshlari qalin, ko‘zlari ko‘kish, qirra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma mo‘ylovi o‘ziga juda yarashgan durkun gavdali Sherxonning qarashlarida burgutni eslatadigan bir ifoda bor.(P.Qodirov)

Burni katta, cho‘tir yuzi, burgut burun, tirtiq, yonoqlari bo‘rtib chiqqan, labi do‘ddaygan, shop mo‘ylovi, cho‘qqisoqol, qo‘ng‘iz mo‘ylov kabilar erkaklarning yuz a’zolari qismi ifodasining salbiy baho munosabatini aks ettiruvchi gender stereotiplariga misol bo‘ladi.

Erkaklarning tana a’zolari qismiga nisbatan ijobiy baho bo‘yoqdorligi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: zabardast, *alpqomat, alp kelbat, gavdali, beli baquvvat, xushsurat, polvon, pahlavon, azamat, kelishgan, yelkalari keng, baquvvat qo‘llar, bilaklari baquvvat* kabilar. Masalan:

Yoshingiz o‘n sakkizda, **alpqomat** yigitsiz. (P. Qodirov)

U aslida juda ko‘rkam va polvon yigit bo‘lib, qop-qora, chaqmoq mo‘ylobi o‘ziga juda ham yarashib turardi. (Mirmuhsin).

Erkaklarning tana a’zolari qismiga nisbatan salbiy baho bo‘yoqdorligi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *tepakal, hamma yog‘i yung, bahaybat devday, barzangi, fildek, buqaday* kabilar.

Rejalar barbod bo‘lganidan alamzada bir holatda yurganimda, hujramga Salim so‘poq kirib keldi. Yonida qora chopon kiygan turqi sovuq bir **barzangi**. (A.Muxtor).

Erkaklarning xarakteri ijobiy baho ifodasi orqali aks ettiriluvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *halim, mard, jasur, botir, gapiga javob beradigan, musulmonsheva, chapdast, abjir, dovyurak, shijoatli, oriyatli, shovvoz, azamat* kabilar. Masalan:

Akbarali oriyatli odam! (S. Ahmad).

Tilov buva Yaxshiboyev tegirmoga tushganda ham butun chiqqan, chapdast odam. (T. To‘la)

Erkaklarning xarakteri salbiy baho ifodasi orqali aks ettiriluvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *badjahlroq, cho‘rtkesar*, *mishiqi, xotinchalish, lapashang, shalviragan, landavur, bo‘shang, xotinboz, maishatparast, aroqxo‘r, banginamo, so‘tak, hezalak* va boshqlar. Masalan:

U g‘oyat **badjahl**, ko‘rimsizgina, xunuk, uzun mo‘ylovli, ko‘zlari ola-kula, tishlari so‘yloq, **banginamo** kishi. (Oybek)

Erkaklarga xos xatti-harakatlarning salbiy baho ifodasini namoyon etuvchi gender stereotiplarga quyidagilar kiradi: *mushtlashmoq, lo‘ttibozlik qilmoq, ishkal chiqarmoq, kazzoblik qilmoq, do‘pposlamoq, irg‘ib turmoq, mushtlashmoq, qitmirlik qilmoq, yotqizib-turgazmoq, ko‘z qismoq, aysh-ishrat qilmoq, kayf-safo qilmoq, maishat qilmoq, jag‘ini ezmoq, abjag‘ini chiqarmoq*, *yoqalashish* kabilar. Masalan: Iliko ham Kozlovning yonini olgan edi. ... Bir **ishkal chiqardimi** deyman. Sen ish-pish buyurmovdingmi? (Tohir Malik)

Nutqiy muloqotda gender omili nafaqat til birliklarini tanlashda, balki fikrni ifodalash taktikalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Erkaklar nutqi o‘zining ratsionalligi, strukturaviy qisqaligi bilan ayollar nutqidan tubdan farq qiladi. Shuningdek, g‘ayriaxloqiy leksikaning erkaklar nutqiga xoslanishi, badiiy matnlarda qahramonlar tabiatini individual tarzda yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, tildagi gender tafovutlar jamiyat tomonidan yuklangan ijtimoiy rollar va inson psixologiyasining o‘zaro dialektik birligi mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cihan Hüseyin Mohammed, Ahmed Mohammed Casim. Dil ve Cinsiyet AyAyrılık ve Eksiklik Kuramı İncelemesi// International Social Sciences Studies Journal.Vol.9/Issue 110. 2023. P. 6344

2. Пирматова М. Ундовлар ва гендер дифференцияси// Ўзбек тили ва адабиёти. № 3 – Тошкент. 2013. Б.87

3. Qambarov G‘. Baho lisoniy va mantiqiy kategoriya sifatida. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – Andijon. 1995

4. Qo‘ng‘urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – T.: Fan, 1980.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent. 2021.

Zilola NIYAZOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek adabiyoti (10.00.02) ixtisosligi 3-kurs tayanch doktoranti
zilolaniyazova83@gmail.com
ORCID: 0009-0004-5750-5453

NODIR NORMATOV ESSELARIDA TASVIRIY SAN’AT: ASSOTSIATIV -SEMANTIK VA ESTETIK YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu maqolada Nodir Normatov esselari misolida tasviriy san’atni badiiy-falsafiy va assotsiativ-semantik talqin qilish masalasi tahlil etiladi. Muallifning Ro‘zi Choriyev, O‘rol Tansiqboyev va Shamsro‘y Hasanova ijodiga bag‘ishlangan esselari asosida san’atni idrok etishning o‘ziga xos modeli ochib beriladi. Shuningdek, muallif ijodida biografiyaning badiiy ma’noga aylanishi, ijod jarayonining ichki dinamikasi, rang va obrazning assotsiativ funksiyasi hamda inson ichki dunyosining tasviriy san’atdagi ifodasi yoritiladi. Maqolada esse janrining badiiy-publitsistik xususiyatlari hamda uning zamonaviy adabiyotdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Normatovning san’atshunoslik va adabiy tafakkur kesishgan nuqtada turgan mutafakkir ijodkor ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *esse, tasviriy san’at, badiiy tahlil, assotsiativ talqin, ruhiy olam, estetik idrok, rang semantikasi, portret janri, milliy san’at, ijod psixologiyasi, interpretatsiya, badiiy tafakkur.*

Аннотация: в данной статье анализируются вопросы художественно-философской и ассоциативно-семантической интерпретации изобразительного искусства на примере эссе Нодира Норматова. На основе эссе автора, посвящённых творчеству Рози Чориева, Урала Тансыкбаева и Шамсроя Хасановой, раскрывается особая модель восприятия искусства. Также рассматриваются превращение биографии в художественный смысл, внутренняя динамика творческого процесса, ассоциативная функция цвета и образа, а также отражение внутреннего мира человека в изобразительном искусстве. В статье исследуются художественно-публицистические особенности жанра эссе и его место в современной литературе. Обосновывается, что Норматов является мыслителем на стыке искусствоведения и литературного мышления.

Ключевые слова: эссе, изобразительное искусство, художественный анализ, ассоциативная интерпретация, духовный мир, эстетическое восприятие, семантика цвета, жанр портрета, национальное искусство, психология творчества, интерпретация, художественное мышление.

Annotation: this article analyzes the issues of artistic-philosophical and associative-semantic interpretation of fine arts based on the essays of Nodir Normatov. On the basis of the author’s essays dedicated to the creative works of Rozi Choriyev, O‘rol Tansiqboyev, and Shamsro‘y Hasanova, a specific model of artistic perception is revealed. In addition, the study highlights the transformation of biography into artistic meaning, the internal dynamics of the creative process, the associative function of color and image, as well as the representation of the human inner world in fine arts. The article also examines the artistic-publicistic features of the essay genre and its role in contemporary literature. It substantiates Normatov as a thinker-writer at the intersection of art criticism and literary thought.

Keywords: *essay, fine arts, artistic analysis, associative interpretation, spiritual world, aesthetic perception, color semantics, portrait genre, national art, psychology of creativity, interpretation, artistic thinking.*

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda esse janri badiiy va ilmiy tafakkur kesishgan nuqtada shakllanuvchi murakkab janr sifatida e’tirof etiladi. Esse (fr. *essai* — tajriba, sinab ko‘rish) muallifning muayyan voqea-hodisa yoki masala yuzasidan shaxsiy, falsafiy va badiiy mulohazalarini ifodalovchi nasriy shakldir. Ushbu janrning o‘ziga xosligi shundaki, unda ilmiy tahlil, badiiy tasvir va publitsistik ruh uyg‘unlashadi. O‘zbek adabiy-tanqidiy tafakkurida Nodir Normatov ana shunday sintezni mukammal namoyon eta olgan ijodkorlardan biridir. U tasviriy san’atni oddiy tavsifiy shaklda emas, balki chuqur badiiy-falsafiy va assotsiativ-semantik tizim sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, Ro‘zi Choriyev, O‘rol Tansiqboyev va Shamsro‘y Hasanova ijodiga bag‘ishlangan esselarida san’atni idrok etishning

o‘ziga xos modeli yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning maqsadi — Nodir Normatov esselari misolida tasviriy san’atning badiiy-falsafiy va assotsiativ talqinini tahlil qilish, shu orqali muallifning san’atni anglash modeli va ijodiy konsepsiyasini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism. Nodir Normatov o‘zbek adabiy-tanqidiy tafakkurida tasviriy san’atni anglashning o‘ziga xos usuli bilan ajralib turadigan san’atshunos sifatida namoyon bo‘ladi. Nodir Normatov tasviriy san’atning ichki mohiyatini ilg‘ay oladigan va rassom asarlaridagi muallif ruhiy olamini his qila oladigan, badiiy tafakkur bilan yondashadigan adiblardan biridir. U nafaqat XX asr o‘zbek tasviriy san’atining yirik namoyandasi, O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining akademigi Ro‘zi Choriyev ijodi haqida “Ro‘zi Choriyevning so‘nggi vasiyati” nomli roman-esse yaratdi, balki O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati O‘rol Tansiqboyev, o‘zbek xotin-qizlaridan yetishib chiqqan birinchi musavvira Shamsro‘y Hasanova kabi rassomlar ijodini ham chuqur va teran mushohada qila olgan muallifdir. Shu jihatdan uning esselaridagi tasviriy san’atni oddiy tavsif sifatida emas, balki uni biz murakkab ma’no va ichki bog‘lanishlar tizimi sifatida talqin etishimizni taqozo etadi. Umuman, esse (fr. essai – tajriba, sinab ko‘rish) – muallifning u yoki bu masala (muayyan voqea-hodisa, hayotiy holat va sh.k.) bo‘yicha shaxsiy mulohazalari bayon qilinuvchi nasriy asar; adabiy janr [1:378] hisoblanadi. Hozirgi adabiyotda ommalashib borayotgan esse janri, bir tomondan, badiiy-publitsistik xarakterda ekanligi, ikkinchi tomondan, hajm e’tibori bilan turlicha ko‘rinishlarga egaligi (kichik hikoya shaklidan to katta romangacha) bilan xarakterlanadi.[2:246] Essening assotsiativ-semantik va estetik jihatdan talqin qilinishi matndagi tushunchalararo mantiqiy bog‘liqlikni kengaytirib, uning mazmuniy ko‘lamini (semantikasini) boyitishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv Jon Lokk, Spinoza, Berkli falsafalarida chuqur yoritiladi.

Jon Lokk g‘oyalar assotsiatsiyasi tushunchasini birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan faylasuflardan biridir. Lokkning ta’kidlashicha: “Insonning bilish jarayoni tashqi dunyo bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqador bo‘lib, u sezgi organlari orqali boshlanadi. Bizning sezgilarimiz sezgi bilan qabul qilinadigan ayrim narsalarga yo‘naltirilgan holda, ongimizga turli xil narsalar haqidagi tasavvurlarni olib kirishini”, har qanday bilish jarayoni insonning hissiy tajribasiga tayanishini ta’kidlaydi. [5:258] Rassom uchun asosiy sezgi organi ko‘zdir. U tabiatdagi ranglarni, yorug‘likni va soyani sezgi orqali qabul qiladi. Normatov o‘z asarlarida Borliqni shunchaki nusxalamaydi, balki Lokk aytganidek, tashqi dunyodan olgan “tasavvurlari”ni (obrazlarini) matoga tushiradi. Uning suratlari – bu tashqi dunyoning hissiy tajriba süzgichidan o‘tgan ko‘rinishidir. Spinoza bu jarayonning mohiyatini aniq ifoda etib, assotsiatsiya qonunini shakllantirgan: “Agar inson tanasi bir paytning o‘zida ikki yoki undan ortiq narsaning ta’siriga duch kelsa, keyinchalik ularning faqat bittasini tasavvur qilganida ham, ruh darhol qolganlarini ham esga oladi”. [6:423] Nodir Normatovning esselaridagi idrok kuchi Spinoza assotsiatsiyasining amaliy ko‘rinishidir. U rassomlar asarlarini shunday chuqur tahlil qiladiki, go‘yo u kartinadagi bir narsa orqali ijodkorning qolgan barcha narsalarini – ruhini, dardi va maqsadini bir zumda topib oladi. Uning esselari – bu ranglar tilidan ruh tiliga tarjima qilingan assotsiativ tahlillar to‘plamidir. Berkli falsafasida barcha narsa sezgilar kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. Mavjud bo‘lish – bu sezilish demakdir, ya’ni borliq faqat inson idrokida mavjud. Demak, assotsiatsiya ongda g‘oyalar o‘rtasida yuzaga keladigan tabiiy bog‘lanish emas, balki inson idrokida shakllanuvchi ruhiy va psixologik aloqadir. [7:140] Binobarin, subyektiv tajribani badiiy shakl bilan uyg‘unlashtirish orqali essening intellektual chuqurligini va o‘quvchiga ko‘rsatadigan estetik-ruhiy ta’sir kuchini ta’minlaydi.

Nodir Normatovning Ro‘zi Choriyev ijodiga bag‘ishlangan “Mangu lahzalar” essesi chuqur badiiy-tahliliy asar sifatida namoyon bo‘ladi.[9:2] Muallifning asosiy mahorati rassom ijodini faktlar orqali emas, balki hayot, ruhiyat va badiiy tafakkur birligida ko‘ra olishidadir. Nodir Normatov Ro‘zi Choriyevning portretlari yoki manzaralarini tahlil qilar ekan, ranglar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tabiiy qonuniyat emas, balki rassomning ichki ruhiy holati mahsuli deb tushuntiradi. Masalan, asardagi quyoshli ranglar va inson nigohidagi o‘tli chaqnash — bu rassomning ruhiyatida birikkan subyektiv tajribadir. Normatov ushbu ruhiy aloqani ilg‘ay olgani uchun ham esseda o‘quvchiga o‘sha estetik-ruhiy ta’sirni yetkazib bera oladi.Avvalo, Normatov tahlilni to‘g‘ridan to‘g‘ri asardan emas, balki san’atning falsafiy mohiyatidan boshlaydi. Ro‘zi Choriyevning “san’at – yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashga ta’sir etuvchi kuch” ekanligi haqidagi fikrini keltirish orqali u rassom ijodini keng ijtimoiy-axloqiy kontekstga olib kiradi. Atoqli rassom, akademik Rahim Ahmedov yozganidek: “Ro‘zi Choriyev izlanishlari ko‘lami keng. Rassomning turli janrlardagi asarlarining kompozitsion yechimi rang-barang, texnikasi va uslubi turlicha bo‘lishiga qaramay, ularni birdan tanib olish mumkin”. Bu esa muallifning san’atni tor doirada emas, balki global ma’naviy kategoriya

sifatida anglashini ko‘rsatadi. Normatov mahoratining ikkinchi muhim jihati biografiyani badiiy ma’noga aylantira olishidir. U Choriyevning yetimlik, qiyinchilik va izlanishlar bilan to‘la hayotini ijodiy xarakter shakllanishining asosi sifatida talqin qiladi. Assotsiativ jihatdan bu holatni hayot – tajriba – ijod zanjirida aniq ko‘rsatib beradi. Muallif rassomning ijodiy jarayonini ochishda o‘ta nozik kuzatuvchanlikni namoyon etadi. Masalan, “San’atshunos” portretining yaratilish jarayonini tasvirlar ekan, u bir vaqtning o‘zida tashqi harakat, ya’ni rasm chizish va undan ichki holatga – asabiylik, shoshqaloqlikka o‘tiladi. Natijada jonli portret o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi. Bu esa Normatovning ijod jarayonini ichidan ko‘ra olish mahoratidan dalolat beradi. Uning yana bir kuchli jihati tasviriy san’atni so‘z orqali jonlantirishidadir. Masalan, bog‘lar nafas olyapti, yoz qo‘shig‘i aytilyapti kabi ifodalar orqali u manzarani statik holatdan chiqarib, dinamik, tirik obrazga aylantiradi. Bu yerda Normatov nafaqat tahlilchi, balki badiiy tafakkur egasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, u rassom asarlaridagi eng muhim jihat bo‘lgan inson ichki dunyosini ilg‘aydi. Masalan, vrach portretida fonnindoskop orqali emas, balki qalb ko‘zi orqali insonni anglash g‘oyasini chiqaradi. Bu detalni ilg‘ash Normatovning chuqur estetik sezgirligini ko‘rsatadi. Adib rassom asarlarini faqat vizual jihatdan emas, balki ruhiy, axloqiy va falsafiy qatlamlarda bir vaqtning o‘zida tahlil qiladi. Masalan, Botir Zokirov portretida musavvir bu obrazni yaratish uchun yillar davomida kuzatishlar olib borgani va psixologiyani ochib berishda ustalik bilan foydalangani qayd etilgan. Yoqub Mahmudov portretida shifokorning ichki dunyosi, urush yillari muhri bo‘lgan ajinlari va eng xarakterli holati – bemor ko‘rayotgan paytdagi o‘tkir nigohi tahlil etilgan. “Surxondaryo odamlari turkumi”. Bu turkumga kiruvchi To‘ra Quvvatov va Ulash To‘rayeva portretlarida insonlarning matonatli qiyofasi va betakror olami aks etgani aytiladi. “Qahramon ona” portreti (1981) asarida surxon ayolining qiyofasi saratonga xos yorqin bo‘yoqlarda, uning dadil nigohi va irodasi orqali namoyon etilgan. “Otamning do‘sti” portreti (1970) surxondaryolik qariya qiyofasi, milliy liboslari va ruhiy olami ranglarning ziddiyati hamda uyg‘unligi asosida tahlil qilingan. “Qumqo‘rg‘on olmalari”da yosh qizlarning tabiat va go‘zallikka intilishi, shuningdek, Afrosiyob va Varaxsha devoriy suratlariga xos mahobatli (monumental) uslub talqini kuzatiladi. “Namangan. Bog‘larda yoz” asarida tabiat manzarasi orqali inson qalbidagi yaratuvchanlik hissi va hayot qo‘shig‘i tasvirlangani bayon etilgan. “Sho‘rchida to‘y” asarida real obrazlar yo‘qligini qayd etib, asosiy urg‘uni rang va kayfiyatga qaratadi. Ushbu esse orqali Nodir Normatov san’atni falsafiy va ijtimoiy kontekstda ko‘ra olishini anglash mumkin. Ijodkor biografiyani badiiy ma’noga aylantira oladi. Ijod jarayonini ichidan his qilib tasvirlay oladi. Rang va obrazni so‘z orqali jonlantiradi. Eng muhimi, rassom asarlaridagi ruhiy mohiyatni ilg‘ay oladi. Islomjon Yakubov roman-esse haqida so‘z yuritib: Har bir asarning tabiati turlicha bo‘lsa-da, uning qimmati muallif mahoratining darajasi bilan belgilanadi. Bu fikr Ro‘zi Choriyevning inson va musavvir sifatidagi umrbayonini davr intilishlari, musavvirning xayolot olami, fikr qamrovi, badiiy ijod psixologiyasi va real hayot bilan uzviylikda idrok etib, poetik ifodaga ko‘chirgan Nodir Normatovga ham to‘la daxldordir” deya ta’kidlab o‘tadi. [8:572] Nodir Normatov Ro‘zi Choriyevning ekspressiv holatlarni ilg‘ashga, unga yanada jo‘shqinlik xislatlarini qo‘shishga ko‘proq intilishini aytib o‘tadi. Darhaqiqat, Nodir Normatovni oddiy san’atshunos emas, balki tasviriy san’atni his eta oladigan va uni badiiy-falsafiy darajada talqin qila oladigan mutafakkir muallif sifatida namoyon etadi.

Nodir Normatovning O‘rol Tansiqboyev haqidagi essesini oddiy biografik yoki tasviriy matn emas, badiiy-tafakkuriy, estetik va psixologik tahlilni birlashtirgan murakkab interpretatsiya sifatida tushunishimiz joizdir. [10:3] Bu yerda Normatovning asosiy mahorat nuqtasi rassom ijodini tasvir sifatida emas, balki ruhiy-ontologik tajriba sifatida o‘qishida namoyon bo‘ladi. Normatovda san’atni qabul qilish modeli sezilarli: u tashqi ko‘rinishdan ichki mohiyatga qarab harakat qiladi. Masalan, u dastlab O‘rol Tansiqboyevni tashqi qiyofasi orqali qabul qila olmaydi. Bu estetik dissonans holati. Lekin vaqt o‘tishi bilan u rassomni asarlari orqali anglash bosqichiga o‘tadi. Bu yerda Normatov san’atshunoslikdagi germenevtik yondashuvga yaqin keladi: ijodkorni uning asarlari orqali qayta kashf etadi. Manzarani emotsional-energetik maydon sifatida talqin qilishni “Issiqko‘l oqshomi” misolida manzaraning fiziologik va psixologik ta’sirini ko‘rsatadi. Issiqda azoblangan inson kartinani ko‘rib yengillik his qiladi. Manzara tasviri reallikni aks ettirishdan chiqib, inson holatiga ta’sir qiluvchi psixoestetik mexanizmga aylanadi. Normatov ta’kidlaydiki, O‘rol Tansiqboyev xayolotga emas, real kuzatishga tayanadi. “Toqqa yo‘l” kartinasining yaratilish tarixi orqali u bir nazariy fikrni ilgari suradi: san’atda haqiqiylik bevosita his qilingan hayot tajribasidan tug‘iladi. Normatov realizmni etik pozitsiya sifatida ko‘radi. Adib Tansiqboyev ijodida rangni formadan ustun qo‘yadi. Ayniqsa, 30-yillardagi dekorativ uslub tahlilida u rangni simvolik va umumlashtiruvchi kategoriya sifatida ko‘radi.

Bu yerda u Aleksandr Volkov va Usta Mo‘min kabi rassomlar bilan bir qatorda milliy uslub izlanishlarini madaniy o‘zlikni izlash jarayoni sifatida talqin qiladi. Muhim nuqtalardan biri tabiat va inson birligi g‘oyasi. Normatovda O‘rol Tansiqboyev tabiatni tasvirlamaydi. U tabiatda yashaydi. Uning tog‘larga bo‘lgan munosabati oddiy qiziqish emas, balki ekzistensial bog‘liqlikdir. Rassom hatto giyohlarning nomini bilishi orqali tabiat bilan organik birlik holatiga kirgan. Bu holat Normatov tomonidan ijodning asosiy sharti sifatida ko‘rsatiladi. Vaqt va uslub evolyutsiyasini tushunishga qodir Nodir Normatov juda nozik bir nuqtani ko‘taradi: nega rassom umri oxirida ilk asarlariga qaytadi? Bu savol orqali u ijodni davriy jarayon sifatida talqin qiladi. Ilk dekorativ uslubga qaytishni tajriba orqali soddalikka qaytish sifatida baholaydi. Nihoyat, Normatovning eng katta mahoratlaridan biri – tasviriy san’atni qo‘shiq metaforasi orqali anglatishi. U manzarani ko‘rish emas, eshitish mumkinligini aytadi. Nodir Normatov rassom haqida yozmaydi, balki rassom tafakkurini qayta yaratadi.

Nodir Normatovning Shamsro‘y Hasanova haqidagi essesi badiiy-tafakkuriy tahlil, psixologik va estetik talqin uyg‘unlashgan murakkab matndir. [11:3] Unda muallif nafaqat rassom shaxsini, balki uning ichki dunyosi, ijodiy metodi va milliy san’atdagi o‘rnini chuqur ochib beradi. Normatov talqinida Shamsro‘y Hasanova fenomeni ijtimoiy-madaniy kontekstda yoritiladi. U birinchi o‘zbek musavvirasi sifatida taqdim etilib, gender va madaniy to‘siqlarni yengib o‘tgan ijodkor sifatida konseptual ma’no kasb etadi. XX asr boshlarida ayolning rassom bo‘lishi g‘ayritabiiy hol sifatida ta’kidlanishi orqali muallif uning shaxsiy jasoratini estetik qimmat darajasiga ko‘taradi. Normatovning assotsiativ-simvolik tahlil usuli. U Shamsro‘y ijodini to‘g‘ridan to‘g‘ri tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki uni she’r, rang va ruhiyat orqali ochadi. Masalan, esse boshidagi she’riy parcha ranglar to‘lqin, sehr, yorug‘lik obrazlari orqali, ijod esa qalb titrog‘i, umr daftari sifatida talqin qilinadi. Muallif uning asarlarida sharq miniatyurasi, yevropa realizmi, hatto impressionizm elementlari uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Normatov bu uyg‘unlikni ichki estetik ehtiyoj natijasi deb tushuntiradi. Ya’ni rassom uslub tanlamaydi – uslub uning tafakkuridan kelib chiqadi. Normatov, ayniqsa Zebunniso, Nodira, Uvaysiy obrazlari orqali Shamsro‘yning asosiy ijodiy prinsipini ochadi. Tashqi qiyofa orqali ichki dramatizmni berishini ta’kidlaydi. Masalan: Zebunniso – shijoat va hayajon, Nodira – fojeaviy go‘zallik, Uvaysiy – iroda va matonat timsoli. Rang, kompozitsiya va ishoralar (qo‘l harakati, nigoh) semiotik belgilar tizimiga aylanadi. Demak, Normatov rassom asarlarini o‘qiladigan matn sifatida talqin qiladi. U Shamsro‘y ijodini Sharq she’riyati (Navoiy, Zebunniso), tarixiy manbalar, madaniy xotira bilan bog‘laydi. Esseda qizil va qora ranglar alohida falsafiy ma’no yuklashini yoritib beradi. Adibning o‘ziga xos badiiy-ilmiy uslubi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Nodir Normatov faktlar, xotiralar, she’r, tahlilni birlashtiradi. Natijada ilmiy, badiiy, falsafiy mazmun kasb etgan ijod namunasi yaraladi. Shu bilan birga, Normatovning o‘zi ham shunchaki tadqiqotchi emas, balki rassomni his qila oladigan mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Nodir Normatov san’atni idrok etishda tashqi shakldan ichki mohiyatga qarab harakat qiladi, rang, obraz va kompozitsiyani ma’no tashuvchi belgilar tizimi sifatida o‘qiydi. Biografik materialni badiiy-falsafiy mazmunga aylantirish, ijod jarayonini ichidan his qilib tasvirlash hamda tasviriy san’atni so‘z orqali jonlantirish uning asosiy uslubiy xususiyatlaridir. Ayniqsa, Normatov ijodida assotsiativ tafakkur ustuvor bo‘lib, u rassom asarlarini madaniy xotira, she’riyat va tarixiy manbalar bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Shu jihatdan uning esselari san’atshunoslik, adabiyot va falsafa kesishgan nuqtada vujudga kelgan murakkab interpretatsiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013.
2.Dilmurod Quronov Adabiyot nazariyasi asoslari /darslik/. – Toshkent: “Innovatsiya- Ziyo”, 2020, 310 - b.
3. Nodir Normatov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. –T.: San’at, 2017.
4. Normatov N. Ro‘zi Choriyevning so‘nggi vasiyati. – T.: San’at, 2008.
5. Локк Дж. Избранные философские произведения в 2-х т. Т. I. – М., 1960.
6. Спиноза. Этика / Спиноза. Избранные произведения в 2-х т. Т. I. – М., 1957.
7. Беркли Дж. Сочинения. – М., 1978.
8. Yaqubov Islomjon. Roman - esseda yozuvchi ijodiy konsepsiyasi. Ilm vaqti ilmiy jurnali. Volume:4 Issue:2 ISNN: 2992-8850. 572-b.
9. Nodir Normatov. Mangu lahzalar. kh-davron.uz/kutubxona
10.Nodir Normatov.O‘rol og‘a saboqlari. kh-davron.uz/kutubxona
11. Nodir Normatov. Shamsro‘yning qalb tug‘yonlari. kh-davron.uz/kutubxona

Gavharoy MO‘MINOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti



BADIIY OBRAZ VA MILLIY TAFAKKUR

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy tafakkurning badiiy obrazning shakllanish jarayonidagi ahamiyati o‘zbek she’riyati misolida tahlil qilinadi. Milliy tafakkur xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va estetik dunyoqarashini mujassamlashtiruvchi omil sifatida qaralib, uning badiiy tafakkur orqali obrazga aylanish mexanizmi yoritiladi. Tadqiqot markazida turgan badiiy obraz kategoriyasi milliy ongning qayta modifikatsiyalanishi bilan yuzaga chiqadi. Shuningdek, ijodkor tafakkuri milliy ongning individual poetik modeliga aylanishi jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada estetik ideal badiiy obrazning eng yuqori ifoda shakli sifatida talqin etilib, zamonaviy o‘zbek she’riyatida idealning transformatsiyasi masalasi yoritiladi. Xulosa sifatida, badiiy obraz milliy tafakkur orqali oziqlanib, ijodkor tafakkuri orqali estetik ideal darajasiga ko‘tarilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *milliy tafakkur, badiiy obraz, ijodkor tafakkuri, milliy ong, estetik dunyoqarash, estetik ideal*

Аннотация: в данной статье анализируется значение национального мышления в процессе формирования художественного образа на материале узбекской поэзии. Национальное мышление рассматривается как фактор, аккумулирующий историческую память народа, его культурный опыт и эстетическое мировоззрение, а также раскрывается механизм его превращения в художественный образ посредством художественного мышления. Категория художественного образа, находящаяся в центре исследования, проявляется в результате повторной модификации национального сознания. Также анализируется процесс превращения творческого мышления в индивидуальную поэтическую модель национального сознания. В статье эстетический идеал трактуется как высшая форма выражения художественного образа, и освещается проблема трансформации идеала в современной узбекской поэзии. В заключение обосновывается, что художественный образ, питаясь национальным мышлением, через творческое сознание автора поднимается до уровня эстетического идеала.

Ключевые слова: *национальное мышление, художественный образ, творческое мышление, национальное сознание, эстетическое мировоззрение, эстетический идеал*

Annotation: this article analyzes the significance of national mentality in the process of forming the artistic image, using examples from Uzbek poetry. National mentality is considered as a factor that embodies a people’s historical memory, cultural experience, and aesthetic worldview, and the mechanism through which it is transformed into an artistic image by means of artistic thinking is examined. The category of the artistic image, which lies at the center of the study, emerges through the re-modification of national consciousness. The article also explores the process by which the creative mentality is transformed into an individual poetic model of national consciousness. The aesthetic ideal is interpreted as the highest form of expression of the artistic image, and the issue of the transformation of the ideal in modern Uzbek poetry is discussed. In conclusion, it is substantiated that the artistic image is nourished by national mentality and elevated to the level of an aesthetic ideal through the creative consciousness of the poet.

Key words: *national thinking, artistic image, creative thinking, national consciousness, aesthetic worldview, aesthetic ideal*

Kirish. Badiiy adabiyot inson tafakkurining eng nozik va murakkab qatlamlarini aks ettiruvchi estetik hodisa bo‘lib, u milliy ong, tarixiy xotira va madaniy tajriba bilan uzviy bog‘liqdir. Har bir xalqning badiiy tafakkuri o‘ziga xos dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va ruhiy tajribaga tayangan holda shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda “badiiy tafakkur”, “ijodiy tafakkur”, “ilmiy tafakkur”, “ilmiy-texnikaviy tafakkur”, “mantiqiy tafakkur”, “milliy tafakkur”, “mifologik tafakkur”, “obrazli tafakkur”, “epik tafakkur”, “falsafiy tafakkur” kabi atamalarni

o‘qiymiz. Atamalarda tafakkurga aniqlovchi bo‘lib kelayotgan so‘zlar uning turlarini bildiradi. Bizningcha, ularni ilmiy tafakkur va badiiy tafakkur, deb ikkiga ajratish maqsadga muvofiqdir”[1]. Agar tafakkurni ilmiy va badiiyga ajratadigan bo‘lsak milliy tafakkur badiiy tafakkur tomoniga o‘tadi. Shu bois badiiy obraz ham umuminsonga xos estetik qonuniyatlarga bo‘ysungan holda, ayni paytda muayyan millatning tarixiy taqdiri, mentaliteti va ma’naviy ehtiyojlari bilan belgilangan individual shakl kasb etadi. Badiiy obraz nafaqat voqelikning badiiy in’ikosi, balki milliy tafakkurning ramziy ifodasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Bugungi adabiyotshunoslikda badiiy obrazni faqat individual ijod mahsuli sifatida emas, balki milliy madaniyatning semiotik va estetik modeli sifatida o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Chunki obraz orqali xalqning tarixiy o‘zligini anglash, mentaliteti, ijtimoiy va ma’naviy muammolari, idealga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham milliy tafakkur kontekstida badiiy obrazning shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish adabiy jarayonni chuqurroq anglash, milliy adabiyotning badiiy tafakkur evolyutsiyasini yoritish uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin shaklda ifodalangan aksidir. Albatta, bu aksda borliqning ko‘plab tanish izlarini topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o‘zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir”[2] – deb ta’rif beriladi “Adabiyotshunoslikka kirish” qo‘llanmasida badiiy obrazga, bu ta’rif orqali uning mohiyatan keng tushuncha ekanligini anglash mumkin. Uning ijodkor tomonidan yaratilish jarayonida milliy tafakkur tajassumini, she’riyat misolida tahlil qilishga harakat qilamiz. “Milliy tuyg‘ular ham din singari eski davrlarga borib taqaladi. Mushtarak til, din va madaniyatlarning, umumiy sevinch, bayram, xatar va motamlarning boshlanishidan e’tiboran milliy tuyg‘ularning tabiiy ro‘yobi haqiqatdir”[3] va milliy tuyg‘ular shu millat kishisining qalbida jo bo‘ladi. Ijodkorlarda esa bu tuyg‘u bo‘lib qolmay, moddiylashtiriladi: rassom rasmlarida, haykaltarosh haykallarida, adib asarlarida. She’riyatimiz bo‘stonida milliy tuyg‘ular aks etgan turli obrazlar xilma-xilligiga guvoh bo‘lamiz. She’riyatimizning yirik siymolaridan Cho‘lpon she’riyati u yaratgan badiiy obrazlarning shakllanishi va betakror estetik qiymat topishi, uning millat qalbi, uning azaliy qadriyatlari, madaniyati, dunyoqarashi, dardlari, quvonchlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Millat boshidan kechirayotgan og‘ir kunlar manzarasi, uning boshqa xalqlardek baxtli hayot kechirishga bo‘lgan umid ijtimoiy-siyosiy ahvolning badiiy tasvirida shoir turli obrazlarni yangi ma’nolar qatlami bilan qayta yaratadi: sharq, shimol, qora bulut, qish, binafsha, kishan, kuz va boshqalar. U sharq qizi misolida butun millat ayollari qalbidan o‘tkazayotgan og‘riqlarni qalamga olib shunday yozadi:

Faqat, men bir o‘zim, Sharqning bir qizi,
Bahor kelganini ko‘rmay qolamen,
Uzun, qora qishning ketmasdan izi
Uning “do‘sti” kuzni kutib olamen[4].

Cho‘lpon she’rlarida qora bulut yov, dushman kelishini tasvirlashda faol qo‘llanilsa, qish xalq boshidan kechirayotgan azob-uqubatlar yohud dushmanlarning zulmlari kabi ramziy ma’nolarni ifodalaydi. She’rda ifodalangan qishning qora rangda tasvirlanishi zulmning haddan oshganini, og‘ir turmush tarzining yanada og‘irlashganiga ishora qilinmoqda. Turkiy xalqlarning yangilanish, yosharish, go‘zallik ideali hisoblangan bahorga tashnalik, uni kelajakka umid sifatida ko‘rish she’rda o‘z ifodasini topgan.

Shunday kuyunchaklik bilan yozilgan she’rlardan biri A. Oripovning “Singlimga” she’ri deb aytish mumkin. U o‘z she’rida mehnatkash dalasevar xalqning qadoq qo‘llariga akalarcha g‘amxo‘rlik bilan shunday murojaat qiladi:

Rangin singilginam o‘zlayman seni,
Kuzgi payhonlarday ma’yus o‘sding sen,
Tabiat bermadi bilagingga kuch,
O‘zingday odamga qalliq tushding sen
Na sog‘liq, na yordan yolchimading hech.

Paxta siyosatining og‘ir yuki nozik yelkalarini bukkan, dardmand qilgan singilga, butun millat singillari taqdiridan bezovta akaning nidosidir bu. Bu obrazlar orqali millatning ruhiy holati va taqdiri umumlashtirilib ifoda qilinadi. A. Oripov obrazlari ko‘pincha ramziy-falsafiy ma’no tashiydi. Shoir milliy obrazlari umuminsoniy muammolarni yoritishi bilan katta ahamiyatga ega, bu uning she’riyatida milliy tafakkurning tor doirada qolmay, falsafiy va ijtimoiy mazmun bilan boyishini ta’minlaydi. A. Oripov

1 Mullaxo‘jayeva R. 80-yillar o ‘zbek she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi va Shavkat Rahmon ijodi: fil.fan.nomz. ...dis. – Toshkent, 2020. 101-b.
2 Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.:Fan, 2007.64-Б.
3 Зиё Кўкалп. Туркчилик асослари. – Т., 1994. 56-Б.
4 Cho‘lpon. Oydan-da go‘zal... She’rlar.; Andijon nashriyoti, 1997. – B. 80.

xalqimizning milliy qiyofasini chizib, uning dardi, muammolarini o‘zniki qilib yashagan xalqchil shoir. Shu bois obrazlar individual kechinmalardan ko‘ra milliy umumlashma xususiyatiga ega. Millatning buguni tasviri Shavkat Rahmon poetik olamida ham o‘ziga xos bayonga ega. U “Avtobusdagi o‘ylar” she’rida lirik qahramon – kuzatuvchi, yo‘lovchining ichki iztiroblar bilan ichki va tashqi olamni kuzatayotgani, paxta quliga aylantirilgan xalqni erkinlikka olib chiqish ishtiyoqini namoyon qiladi.

Paxtazor boshlanar,
kirza etikli,
yuzlarin quyoshlar yalagan qizlar
ming bora egilib,
ming bor yalinib,
har mitti g‘o‘zani uyg‘otib sizlab.
Bir zum bosh ko‘tarib,
erga o‘xshagan
qo‘llarin silkitib nenidir so‘ylar,
go‘yoki qo‘llarmas,
qo‘llar shaklida
rostlanib havoda titraydi o‘ylar.

Milliy tafakkur badiiy obrazning mazmuniy va shakliy qirralarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. U xalqning olamni idrok etish usuli, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari, ideal va orzu-umidlari, tarixiy xotirasi orqali shakllanib, badiiy ijodda obrazlar tizimida mujassamlashadi. Shu ma’noda, obraz ijodkor shaxsining subyektiv tasavvuri bilan milliy ongning obyektiv tajribasi tutashgan nuqtada vujudga keladi. Aynan shu uyg‘unlik badiiy obrazni milliy ruhga ega, tanib bo‘ladigan va estetik jihatdan ta’sirchan hodisaga aylantiradi. Shavkat Rahmonning yuqorida keltirilgan she’rida aynan shu uyg‘unlik ostida yaratilgan qizlar obrazida butun boshli millat qizlarining badiiy portreti chiziladi. Xalqimiz kelinlari turmush o‘rtog‘ini oilasiga hurmat yuzasidan eng kichigini sizlagan kabi bu qizlar *mitti go‘zani* sizlab murojaat qiladi, kuch-quvvatini, umrini paxta dalalariga bag‘ishlayotgan qizlarning kechinmalari, o‘ylari *havoda titraydi*.

Gegelning “Estetika” asarida bu termin ancha keng talqin qilingan bo‘lib, “Biz poetik tafakkurni obrazli tasavvur qilamiz. Obrazni estetik reallik, badiiy me’yor, g’oya, umumiylik, originallik hamda mazmun va shaklning dialektik birligi sifatida tushunamiz”[5] , deb yozadi. Bundan ko ‘rinadiki, obraz keng tushuncha, u o‘zida milliy tafakkurning estetik ifodasini ta’minlash vazifasini ham o‘taydi. Yuqoridagi she’rlar misolida badiiy obraz orqali chizilgan o‘zbek xotin-qizlari portreti, milliy tafakkurdan oziqlangan ijodkor tafakkurining badiiy ifodasi o‘laroq, xalqimizning ma’naviy qiyofasi, azaliy qadriyatlari, o‘y-qarashlari jami sifatida she’rxonlar yuragidan joy olib kelmoqda. Lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, orzu-intilishlari, millatdoshlari uchun fidokorligi uning qanchalik milliy tafakkurdan to‘yingan tafakkur egasi ekanligini ko‘rsatmoqda.

Badiiy obraz asosini shakllantirishda badiiy tafakkur asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy tafakkurning ajralmas qismlaridan bo‘lgan milliy tafakkur esa millatning ma’naviy qiyofasini obrazga ko‘chirishda, milliy ildizga ega bo‘lgan holda, umuminsoniy mazmun kasb etishda muhim o‘rin kasb etadi. O‘zbek she’riyatining zabardast vakillari ijodiy merosida millatga xos his-tuyg‘ular, axloqiy me’yorlar, milliy shuur bilan boyigan badiiy obrazlar xilma-xilligi ko‘plab uchraydi. Bunday obrazlar o‘quvchiga vatanni sevish, tarixiy ildizini anglash, qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini, estetik didini shakllantirishga yordam beradi.

5 Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике / Введение в литературоведение. Хрестоматия. Сост. Николаев П.А., Эсалнек А.Я. – М.: Высшая школа, 2006.– С. 8.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho‘lpon. Oydan-da go‘zal... She’rlar.; Andijon nashriyoti, 1997.80-bet.
2. Shavkat Rahmon. Zulfiqor ruh. – Toshkent. “Anorbooks”, 2023. 512-b.
3. Hamdamov Ulug‘bek. Badiiy tafakkur tadriji. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. 91-b.
4. Mullaxo‘jayeva R. 80-yillar o ‘zbek she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi va Shavkat Rahmon ijodi: fil.fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2020. 101-b.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 480-b.
6. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
7. Зиё Кўкалп. Туркчилик асослари. – Т., 1994.
8. Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике / Введение в литературоведение. Хрестоматия. Сост. Николаев П.А., Эсалнек А.Я.— М.: Высшая школа, 2006. С. 8.
9. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.—T.:Fan, 2007.64.

Norjongul RAXIMOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti,
Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi
raximovanorjongul@gmail.com

ALLOH TEONIMINING SEMANTIK VA ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada “Alloh” teonimining tarixiy shakllanishi, semantik taraqqiyoti hamda etimologik ildizlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu atamaning qadimgi manbalarda qo‘llanishi, uning johiliya davri va islom davridagi ma’no o‘zgarishlari yoritiladi. Shuningdek, “Alloh” teonimining ivrit tilidagi “eloh” shakli bilan bog‘liqligi va arab tilida “al-ilah” ko‘rinishida shakllanish jarayoni izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *Alloh, teonim, iloh, eloh, etimologiya, semantika, islom, monoteizm, politeizm, lingvistik tahlil.*

Annotation: this article analyzes the historical formation, semantic development, and etymological roots of the theonym “Allah.” The study examines the usage of this term in ancient sources and highlights its semantic changes during the pre-Islamic (Jahiliyyah) and Islamic periods.

Key words: *Allah, theonym, ilah, eloh, etymology, semantics, Islam, monotheism, polytheism, linguistic analysis.*

Аннотация: в данной статье анализируются историческое становление, семантическое развитие и этимологические корни теонима “Аллах”. В исследовании рассматривается употребление этого термина в древних источниках и освещаются его смысловые изменения в доисламский (джахилийя) и исламский периоды.

Ключевые слова: *Аллах, теоним, илах, элох, этимология, семантика, ислам, монотеизм, политеизм, лингвистический анализ.*

Kirish. Til tarkibidagi birliklar orasida teonimlar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ular orqali insoniyatning qadimiy diniy tasavvurlari, e’tiqodiy qarashlari hamda jamiyatning madaniy o‘ziga xosligi aks etadi. Ya’ni, ilohiy nomlar nafaqat diniy matnlarning muhim qismi, balki xalqning tarixiy xotirasi va dunyoqarashini ifodalovchi muhim til birliklari hisoblanadi. Mazkur nomlar o‘zida ko‘p qatlamli ma’no tizimini mujassam etib, ularning har birida muayyan davrning diniy-falsafiy qarashlari, mifologik tasavvurlari hamda ijtimoiy ong darajasi aks etadi. Shu jihatdan teonimlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki tarix, madaniyatshunoslik va dinshunoslik sohalari uchun ham muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Ularning semantik tuzilishi va etimologik ildizlarini tahlil qilish orqali til taraqqiyotining qadimgi bosqichlari, shuningdek, turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy va lingvistik aloqalar haqida muhim xulosalarga kelish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid ilmiy manbalar, xususan A. Xasanov, J. Omonturdiyev va boshqa tadqiqotchilar ishlari asosida “Alloh” teonimining kelib chiqishi va qo‘llanishi tahlil qilindi. Ushbu manbalar diniy va lingvistik jihatdan muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, etimologik va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot induktiv yondashuv asosida olib borildi hamda manbalararo solishtirish orqali xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Barcha dinlarda, ayniqsa, islom dinida insonning salmog‘i dinga, Allohga e’tiqodi bilan belgilanadi. Islom ta’limotiga ko‘ra, Alloh taolo – yuksak fazilatlar sohibi [4:81].

Allohning to‘qson to‘qqiz ismi (“al-Asma al-Xusna” yoki “Ismi A’zam”) va ming bir sifati bitta tushunchani, ya’ni olamlar Kashshofini – Yaratuvchisini atash, uning mohiyatini anglash uchun xizmat qiladi. Biroq mana shu yagona tushuncha bilan bog‘liq paydo bo‘lgan yuzlab atamalarning diniy, dunyoviy asoslari hali tadqiq qilinmagan. Shu munosabat bilan quyida, avvalo, Alloh leksemasining lug‘aviy-istilohiy, ma’naviy-ma’rifiy, tarixiy-tadrijiy, etimologik, talaffuzi va imloviy xususiyatlariga doir qisqa to‘xtalamiz. Inson ongi, tafakkuri, Allohni anglash jihatidan, asosiy ravishda bir nechta bosqichni bosib o‘tgan.

Bu bosqichlar diniy-tasavvufiy qarashdan mustasno, xudosizlik (ateizm), ko‘pxudolilik (politeizm), ikkixudolilik va birxudolilik (monoteizm) ni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich – odamning “maxluq”lik, ongsizlik, fikriy ojizlik davri; ikkinchi bosqich – ong va tafakkur shakllana boshlagan, xudolar haqidagi tasavvur, paydo bo‘lgan, tabiat ilohiylashtirilgan (fetishizm) davr; uchinchi bosqich – har bir qabila o‘z xudosiga ega bo‘lgan (“o‘z xudosini kashf etgan”), va ayni zamonda yanada kuchliroq xudolar (ilohlar) ga ishonilgan (mushrikiylik), ya’ni ko‘pxudolik bilan birxudolik o‘rtasidagi o‘tkinchi davr; to‘rtinchi bosqich – butun olamni yaratgan azaliy va abadiy mavjud – barhayot bo‘lgan Allohni e’tirof etish davri. O‘rta Osiyoga islom dini kirib kelishi munosabati bilan, o‘zbek tiliga arab tilidan bir qator teonimlar kirib keldi. *Alloh, Rab* kabi uzual teonimlar arab tilidan o‘zlashdi. Bularning o‘zlashishida diniy adabiyotlar va islomiy rituallar asosiy rol o‘ynadi [3:41].

O‘zbek tilshunosligida Alloh atamasi, evolyutsiyasi haqidagi ma’lumotni ayrim ishlardagina uchratamiz, xolos. Axadjon Xasanovning “Makka va Madina tarixi” nomli kitobi ana shunday qimmatli manbadir. Unda muallif Alloh so‘zi va tushunchasi arablarda qachon paydo bo‘lgan degan savolga: “Alloh so‘zi ilohiy kuch, butun mavjudotni yaratgan Xudoning nomi sifatida shubhasiz, faqat islom dinida qaror topganligini, hatto Muhammad payg‘ambar o‘z diniy faoliyatining maxfiy holda kechgan dastlabki 3-4 yilida Alloh so‘zi o‘rniga Rob, Parvardigor, Ega so‘zini ishlatganligini, keyinroq bu so‘z Qur’on matnida o‘z ifodasini topganligini to‘g‘ri uqtirgan [6: 74]. Chunki ilk islomda Johiliya arablari yoki mushrikiylar Iloh, Rob (ayni zamonda ko‘pxudolilik istilohlari) so‘zlariga ko‘nikib qolganliklaridan, Alloh atamasini birdaniga qabul qilolmasdilar. Buning ustiga “Qur’on”ning nozil bo‘lgan ilk suralarida, ko‘proq Allohning Rob, Iloh, Rahmon, Rahim kabi ism va sifatlari aks eta boshlagan edi: Butun mavjudotni yaratgan Robbingiz nomi bilan o‘qing! Insonni laxta qondan yaratgan Robbingiz nomi bilan o‘qing. Qalamni, xat savodni yaratgan, bilmaganni bildiradigan Robbingiz nomi bilan o‘qing! (“Iqro surasi, 1-, 2-, 3- oyatlar mazmuni”) kabi. Darhaqiqat, “Alloh” so‘zi Musnad (janubiy arab) yozuvi matnlarida ham uchramaydi. Iroq tarixchisi Javdod Ali ham “Alloh” islom arafasida tavhid g‘oyasiga e’tiqod qilgan arablar xudosining nomidir deydi. Ilah va Allah so‘zlari o‘zakdoshligi, ko‘p vaqt parallel qo‘llanilganligidan qat’iy nazar tarixan ikki xil tushunchani, aniqrog‘i, Ilah, asosan, ko‘pxudolik, Alloh yakkaxudolik (tavhid g‘oyasi) bilan bog‘liq shakllangan istilohlardir.

Shuni ta’kidlash kerakki, Alloh so‘zi yakka Xudo atamasi sifatida birdaniga paydo bo‘lmagan. Chunki u deyarli barcha johiliya shoirlarining asarlari matnida uchraydi. Ba’zi sharqshunoslar Johiliya shoirlari uchun “Alloh” muayyan sanam bilan bog‘liq bo‘lmagan umumlashma ismni anglatgan deydilar. Darhaqiqat, shoir faqat o‘z qabilasining sanamini tilga olsa, maqtasa, boshqa qabilalar uchun u ma’qul bo‘lmas edi. A.Xasanov ham sharqshunoslarning fikrlariga asoslanib, dastlab, Alloh so‘zi ma’no jihatidan Ilah va Robb so‘zlaridan farq qilmaganligi, keyinchalik “Alloh” umumlashma ma’nosini yo‘qotib, islomdagi maxsus ma’nosini kasb qilgani, u (Alloh) aslida Makkadagi sanamlardan birining ismi yoki Makka ahdining, ya’ni Quraysh qabilasining Xudosi bo‘lganligini va keyinchalik ana shu Xudo Makka ahliga qaratilgan oyatlar orqali tasdiqlangandan keyin ham mushriklar bu nomdan o‘z xudolarining umumiy nomi sifatida foydalanaverganlar. Mana shundan qochish – qutulish maqsadida Payg‘ambarimiz (s.a.v.) Alloh nomini qo‘llashda yanada aniqlik kiritish va sof islomiy iboralar ishlatishga harakat qilganlar [6:75].

Endi Alloh atamasining semantik-grammatik tadriji haqida to‘xtalaylik. Alloh so‘zining boshlang‘ich asosi yahudcha (ivrit tili) – elohdir. Eloh qadimgi butparast yahudlarning sanami (ma’budi, xudosi) nomi bo‘lib (ko‘pligi elohim), bu keyinchalik johiliya arablari, jumladan, shoirlari tilida iloh (ilah); ko‘pligi aliha, muannasda ilahat bo‘lib, bora-bora arab tili qonuniyatiga ko‘ra -al aniqlik artikli bilan shakllangan: al-Ilah; so‘ngra Alloh shakllarini olgan. Arab tili va talaffuzi talablariga ko‘ra -al dagi lam o‘qilmaydi, ilah dagi alif qisqarib, lam ikkilangan – tashdidlangan. Anglashiladiki, al-ilah so‘ziga qo‘shilib, Alloh so‘zini shakllantirgan; so‘ngra Alloh so‘zi o‘zining yagona Xudo nomi ekanligi tasdig‘ini Qur’ondan olgan. [2:219].

Alloh teonimi arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan leksik birlik hisoblanib, o‘zbek tilidagi eng muhim teonim hisoblanadi. J.Omonturdiyevning “Ma’rifiy-irfoniy istilohlar lug‘ati”da Alloh teonimining izohi quyidagicha berilgan: barcha mavjudot borliqni yaratgan, azaliy va abadiy barhayot, ibtido va intihosiz, hamma narsani bilguvchi, ko‘ruvchi, eshituvchi,

hamma narsaga qodir, mutakallim, hech narsaga o‘xshamas kabi subutiy sifatlarga ega bo‘lgan oliy Zot. “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da *Alloh* – ilohiy kuch, xudo. Islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch, xudo. “Islom ensiklopediyasi”da *Alloh* – Tangri, Ma’budi bar haq, Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida *Alloh* – xudo, tangri deb izohlanadi. Sh.Rahmatullayev muallifligida nashr etilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da Alloh so‘zining izohi berilmagan. Aliybeg Rustamiyning ““Bismilloh”ning ma’nosi” kitobida Alloh so‘ziga taalluqli bir qancha ma’lumotlarni keltiradi. Uning ma’lumotiga ko‘ra, arab tilshunoslarining bobokaloni Sibavayhiy *“Alloh”* so‘zining ikki qavli mavjud ekanini ta’kidlaydi. “Alloh” so‘zining asli “al-iloh” bo‘lib, al va iloh so‘zlari qo‘shilganda “i”ni tushishi natijasida, “Alloh” hosil bo‘lgan. Uning fikricha, “Alloh” so‘zining negizi “loh” bo‘lib, uning o‘zagi “burkanmoq” ma’nosidagi “layh” so‘zidir. “Layh”ga “al” qo‘shilgan natijada “Alloh” hosil bo‘lgan.

O‘zbek tilida Alloh so‘zining talaffuzi (Xudo nomi sifatida) va yozilishi haqida munozara mavjudligini nazarda tutib ta’kidlash kerakki, millatidan qat’i nazar, har bir musulmonning, xususan, duo, va’z, qiroat, azon kabi rasmiy-diniy nutqlarda Ismi Oliyni (Alloh nomini) “Olloh” yoki “Alloh” tarzida talaffuz qilishi to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki arab tilida o‘zbekchadagi “o” tovushi yo‘q. Alloh so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi “a” o‘zbekcha adabiy normadagi “a”ga teng emas, u cho‘ziq “a”ga yoki “o”ga yaqin, ammo aynan “o” emas. Yoki o‘zbek tilida “odam” so‘zining birinchi bo‘g‘inidagi “o” keng, cho‘ziq bo‘lib, arab yozuvida ham alifi mamduda bilan ifodalanadi. Arab tilida “odam” so‘zidagi “o” cho‘ziq “a” bilan talaffuz etiladi (adam yoki aadam kabi).

Alloh so‘zining tajvidi quyidagicha: birinchi bo‘g‘inidagi “a” – qisqa, ikkinchi bo‘g‘inidagi “a” – cho‘ziq, urg‘uli, oxirgi tovush aniq talaffuz qilinadi (Alloh tarzida). Agar “Allah” so‘zi tajvidsiz o‘qilsa, o‘zbek tilidagi “Alla” yoki Alla Pugachyova nomi kabi eshitilishi mumkin. Shuningdek, ba’zilar “Alloh taolo” atamasini “Allo tollo”, “Ollo tollo”, “Ollo tolo”, “Ollo tola”, “Allo tolo” kabi shakllarda qo‘llab ham gunoh, ham kulgiga sabab bo‘ladilar. Yuqoridagi bayonlardan “iloh” politeistik yoki genoteistik, “Alloh” esa monoteistik g‘oyalarning hosilasi degan xulosaga kelinmaydi, albatta. Iloh atamasi arab va boshqa musulmon millatlari tillarida ham Alloh ma’nosida, uning sinonimi sifatida ishlatilgan. Xususan, bugun ham, o‘tmishda ham -a, -o, -i, -yo kabi kuchaytiruvchi yuklamalar bilan shakllanib iltijo, murojaat vazifasida qo‘llangan iloha, illo, ilohi, iloyo kabi undalmalar o‘zbek tilidagi “ey Alloh”, “yo Alloh”, “ey Allohim” kabi iltijo va murojaat vositalari bilan hamohangdir.

Xulosa. Umuman olganda, maqolada “Alloh” teonimining tarixiy-lisoniy shakllanish jarayoni, uning semantik taraqqiyoti hamda etimologik ildizlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu atama qadimgi semit tillari tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy jarayonlar davomida ma’no va funksional jihatdan sezilarli o‘zgarishlarga uchragan. “Alloh” so‘zi johiliya davri diniy tasavvurlari va islomiy monoteistik qarashlar kontekstida shakllanib, asta-sekin yagona Xudo tushunchasini ifodalovchi maxsus teonim darajasiga ko‘tarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дыбо А.В., Тенишев Э.Р. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Пратюркский язык-основа. Картина мира пратюркского этноса по данным языка. – М.: Наука, 2006. – 768 с.

2. Омонтурдиев Ж. Маърифий-ирфоний истилоҳлар изоҳли луғати. – Тошкент, 2014. 256-б.

3. Sharafutdinova N. O‘zbek tilida teonimlar va ularning lingvopoetik tahlili: Filol. fan. bo‘yicha fals. doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Farg‘ona, 2024. 24-b.

4. Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент: Усмон Носир медиа нашриёти, 2021.122-б.

5. Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1997.

6. Хасанов А. Макка ва Мадина тарихи. – Тошкент: Меҳнат, 1992. 79-б.

Robiyaxon AKBARALIYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili ixtisosligi 1-bosqich doktoranti,
akbaraliyevarobiyaxon@gmail.com

INTERNET MULOQOTIDA O‘ZBEK MILLIY QADRIYATLARINING IFODALANISH SHAKLLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada internet muloqoti sharoitida o‘zbek milliy qadriyatlarining ifodalanish mexanizmlari, ularning transformatsiyasi va zamonaviy raqamli madaniyat bilan o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda sotsiolingvistik, diskursiv va madaniy yondashuvlar asosida onlayn muloqotdagi milliylik elementlari — til, muomala etiketi, ramzlar va kontent orqali ifodalanish shakllari o‘rganiladi. Shuningdek, globalizatsiya va raqamli muhit ta’sirida yuzaga kelayotgan muammolar va istiqbollar ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli madaniyat, internet muloqoti, milliy qadriyatlar, sotsiolingvistika, diskurs, identifikatsiya, globalizatsiya.*

Аннотатция: в данной статье анализируются механизмы выражения узбекских национальных ценностей в условиях интернет-коммуникации, их трансформация и взаимодействие с современной цифровой культурой. В исследовании на основе социолингвистического, дискурсивного и культурологического подходов рассматриваются формы проявления элементов национальной идентичности в онлайн-общении — через язык, коммуникативный этикет, символы и контент. Также освещаются проблемы и перспективы, возникающие под влиянием глобализации и цифровой среды.

Ключевые слова: *цифровая культура, интернет-коммуникация, национальные ценности, социолингвистика, дискурс, идентификация, глобализация.*

Annotation: this article analyzes the mechanisms of expressing Uzbek national values in the context of internet communication, their transformation, and their interaction with modern digital culture. The study examines the forms of representation of elements of national identity in online communication—through language, communicative etiquette, symbols, and content—based on sociolinguistic, discursive, and cultural approaches. It also highlights the challenges and prospects arising under the influence of globalization and the digital environment.

Key words: *digital culture, internet communication, national values, sociolinguistics, discourse, identification, globalization.*

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanib, insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirdi. Internet muloqoti nafaqat axborot almashish vositasi, balki madaniy identifikatsiya va qadriyatlarni namoyon etish maydoniga ham aylandi. O‘zbek jamiyatida milliy qadriyatlar: til, urf-odat, an’ana va axloqiy me’yorlar tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda ular raqamli muhitda yangi ko‘rinish kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, internet muloqotida milliy qadriyatlarning ifodalanish shakllarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism.

Mazkur tadqiqot bir nechta nazariy yondashuvlarga tayanadi. Birinchidan, sotsiolingvistik yondashuv til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. Ma’lumki, til jamiyat a’zolari uchun xizmat qiladi. Sotsiolingvistika sohasi tilning ijtimoiy hayot bilan bevosita aloqada ekanini tadqiq etish bilan shug‘ullanuvchi soha hisoblanib, ushbu fan internet tilini milliy an’ana va urf-odatlarni ifodalashning zamonaviy usuli sifatida ko‘radi. Ikkinchidan, diskurs tahlil internet matnlarida yashiringan ijtimoiy va madaniy ma’nolarni aniqlash imkonini beradi. Uchinchidan, raqamli antropologiya va madaniy globalizatsiya nazariyalari orqali internet makonida milliylik va global oqimlarning kesishuvi tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvlar milliy qadriyatlarning nafaqat saqlanishi, balki transformatsiyasini ham tushuntirishga xizmat qiladi.

Internet muloqotida o‘zbek milliy qadriyatlari, avvalo, til orqali ifodalanadi. Xususan, hurmat kategoriyasi (“siz”lash, muloyim muomala shakllari) onlayn diskursda faol qo‘llanadi. Bu holat o‘zbek jamiyatiga xos iyerarxik munosabatlarning raqamli muhitda ham saqlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kod-almashinuvi (o‘zbek, rus va ingliz tillarining aralash qo‘llanilishi) yangi lingvistik hodisa sifatida yuzaga chiqmoqda. Bu esa milliy til me’yorlarining transformatsiyasiga olib kelmoqda.

Kod almashtirish – ikki yoki undan ortiq tilni biladigan shaxsning muloqot jarayonida tillararo almashishi bo‘lib, u lingvistik innovatsiya sifatida ham, til me’yorlardan chekinish sifatida ham baholanadi. O‘zbekistonda bilingval va tringval muhitda yashovchi shaxslar nutqida o‘zbek, ingliz tillari ko‘p uchraydi. Bu fenomen nafaqat til kompetensiyasini, balki ijtimoiy identitet va madaniy kontekstni ham aks ettiradi.

Kod almashtirish gaplar orasida til almashtirish, gap ichida qisqa qo‘shimcha til iboralaridan foydalanish va boshqa shu kabi turlarga bo‘linadi. Insonlar kommunikativ qulaylik, ijtimoiy maqom sababli kod almashtiradilar. Kod almashtirishning lingvistik ahamiyati quyidagicha: bilingval shaxslarning til kompetensiyasini namoyon qiladi, madaniy va ijtimoiy kontekstni aks ettiradi, sotsiopragmatik tadqiqotlar uchun material vazifasini bajaradi.

O‘zbek yoshlari nutqida kod almashtirish tilning barcha sathlarida ko‘zga tashlanmoqda.

Leksik. (bitta so‘zni boshqa tildagi so‘zga almashtirish) “Bugun *deadline* bor”.

Morfologik (chet so‘zga o‘zbekcha qo‘shimcha qo‘shish) “Likelar soni ko‘payibdi”.

Sintaktik. (gap bo‘laklaridan birining boshqa tilda kelishi) “Honestly aytsam, umuman yoqmadi”.

Pragmatik. (kayfiyat yoki munosabat ifodasi) “Wow, juda zo‘r bo‘pti!”

Bu kabi aralashuvning bir qancha ijtimoiy sabablari mavjud. Jumladan, yoshlar inglizcha yoki ruscha so‘zlarni zamonaviylik belgisi sifatida qabul qiladi *(“challenge qildim”, “motivatsiya bo‘ldi”)*, internet tarmog‘ining rivoji sababli yaratilayotgan kontentlarning 70 foizdan ortig‘i ingliz va rus tillarida bo‘lishi yoshlarda tabiiy taqlidni kuchaytiradi, ilmiy terminlarning katta qismi o‘zbekcha muqobili bilan mustahkamlanmagan hamda yoshlarda qisqa va qulay so‘zlarni tanlashga bo‘lgan qiziqish avj olgan. Albatta, bu kabi holatlarning barchasining negizida texnika taraqqiyoti yotadi.

Kod almashinish aslida mutlaq salbiy hodisa emas. Uning natijasida ko‘ptillilik kompetensiyasi rivojlanadi, tillararo axborot integratsiyasi yuzaga keladi, tilning moslashuvchanligi ortadi, zamonaviy leksika paydo bo‘ladi.

Ammo tan olish joizki, kod almashish jarayonining yoshlar nutqida haddan ortiq ko‘payib ketishi jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi. Avvalo, til me’yorlari buziladi, rasmiy nutqda nojo‘yalik yuzaga keladi. Shuningdek, so‘z boyligi qisqarib, avlodlararo tafovut kuchayishi ehtimoli ham mavjud. Shunday ekan kod almashtirishning chegarasini belgilab olish lozim. Buning uchun esa o‘zbek terminologiyasini yanada boyitish, tilshunoslik fanining amaliy qismiga e’tiborni kuchaytirish, OAV uchun bugungi kun talablariga mos me’yoriy qo‘llanmalar yaratish, sun’iy intellekt asosidagi o‘zbekcha grammatik tekshiruv vositalarini kengaytirish zarur.

Shuningdek, internet platformalari milliy an’analarni vizual va matnli shaklda keng targ‘ib etish imkonini bermoqda. Navro‘z bayrami, diniy marosimlar, to‘y an’analari bilan bog‘liq kontentlar milliy identifikatsiyaning muhim komponentiga aylanmoqda. Bu jarayonni “raqamli folklorizatsiya” fenomeni sifatida talqin qilish mumkin, ya’ni an’anaviy madaniyat elementlarining internetda qayta ishlab chiqilishi va ommalashuvi kabilar. Onlayn muloqotda oila institutiga oid qadriyatlar ham keng ifodalanadi. Ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi, oilaviy birlik haqidagi postlar va izohlar milliy mentalitetning asosiy komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat internetni nafaqat kommunikativ, balki tarbiyaviy makon sifatida ham ko‘rsatadi. Milliy ramzlar internetda vizual belgilar tarzida ham keng qo‘llanmoqda. Memlar va qisqa videolar orqali bu belgilar yangi kontekstda talqin qilinadi. Natijada milliylik zamonaviy kommunikativ kodlarga moslashadi.

Raqamli muhitda milliy o‘ziga xoslik ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot shaklida namoyon bo‘ladi. Muloqot – maqsadli faoliyat va bu harakat doirasida bajariladigan har bir harakat ham o‘z maqsadiga ega. Muloqotning ilk bosqichi salomlashishdan boshlanadi. O‘zbek mentalitetida , avvalo, “Salomlashish odobi”ga alohida urg‘u beriladi. Virtual muloqotda salomlashishning o‘z nutqiy vaziyatga, holatga, ijtimoiy mavqega, yoshga, jinsga, kayfiyatga, maqsadga, manfaatga ko‘ra turlicha ifodalanishi mumkin. Bu haqida B. A. Isroilovaning “Ijtimoiy omillarning tilga ta’siri” doktorlik dissertatsiyasi orqali atroflicha ma’lumotga ega bo‘lish mumkin: “Tilga ta’sir qiluvchi omillar, birinchi navbatda, tilning leksik tizimida namoyon bo‘ladi. Virtual bo‘shliqda asosiy qurol boshqa vositalar bo‘lsa ham birinchi o‘ringa til chiqadi, o‘zaro ta’sir natijasida esa nutq shakllanadi”.[1]

Nutqiy jarayonning yuzaga kelishida til egasi ishtirok etgani sababli individual xususiyatlar raqamli muloqotda ham muhim omil sanaladi. Tilning vazifasi aloqa-aralashuv vositasi sifatida quruq axborotni uzatishdan iborat bo‘lmasdan, butun kommunikativ aktni o‘z ichiga oladi. Ya’ni so‘zlovchining muloqot maqsadi, uzatilayotgan axborotning sifati va adresat tomonidan qabul qilib olinishi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, muloqot amalga oshgan holat[2] lisoniy shaxs voqelanishida alohida ahamiyatga ega.

Internet tarmog‘idan o‘rin olgan kontentlardagi milliy an’analarning ifodalanish shakllari bir nechta muammoli vaziyatlarni ham vujudga keltiradi. Xususan, til me’yorlarining buzilishi, ortiqcha soddalashuv, global madaniyat ta’sirida milliylikning zaiflashuvi, muloqot etikasi pasayishi kabi holatlar vujudga kelish ehtimoli yuqori. Bu holatlar milliy qadriyatlarning raqamli muhitda muvozanatli rivojlanishini ta’minlash zaruratini ko‘rsatadi.

Xulosa.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, internet muloqoti o‘zbek milliy qadriyatlarini nafaqat aks ettiradi, balki ularni qayta shakllantiradi. Raqamli muhit milliylikni global kontekstga olib chiqib, yangi identifikatsiya shakllarini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, bu jarayon an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasida dinamik muvozanatni talab qiladi. Internet muloqoti o‘zbek milliy qadriyatlarining ifodalanishida muhim ijtimoiy-madaniy maydon sifatida shakllandi. Til, an’ana, oilaviy qadriyatlar va milliy ramzlar orqali milliylik raqamli muhitda faol namoyon bo‘lmoqda. Biroq globalizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari ushbu qadriyatlarning mazmuni va shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishda ongli raqamli siyosat va madaniy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

1 Isroilova B. A. Ijtimoiy omillarning tilga ta’siri (Virtual muloqot tahlili asosida). PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon, 2024.

2 Saidxonov M. Ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Tamaddun, 2022.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isroilova B. A. Ijtimoiy omillarning tilga ta’siri (Virtual muloqot tahlili asosida). PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2024.
2. Odilov Y. Tilning ijtimoiy tabiati// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2024.
3. Saidxonov M. Ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Tamaddun, 2022.
4. Xalilova R. Virtual tizimda nutqiy diskursning sotsiomadaniy va pragmatik xususiyatlar// Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – 2021.

Perdebay JUMAMURATOV,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi
1-bosqich tayanch doktoranti

BOSHLANG'ICH SINFLARNING O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini darslarda badiiy matn ustida ishlash orqali oshirish, o'quvchilarning notanish so'zlarni izohlash, syujet voqealari o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishlarini tahlil va talqin qilishdan iborat adabiy savodxonligiga erishish ta'limiy muammosi yoritilgan.

Аннотация: в данной статье рассматривается образовательная проблема формирования читательской грамотности у учащихся начальных классов через работу с художественным текстом на уроках, а также развитие навыков объяснения незнакомых слов, анализа и интерпретации причинно-следственных связей между событиями сюжета для достижения литературной грамотности.

Annotation: this article discusses the educational issue of developing reading literacy in primary school students through working with literary texts in lessons. It also focuses on improving students' ability to explain unfamiliar words and to analyze and interpret cause-and-effect relationships between events in a сюжет, aiming to achieve literary literacy.

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini didaktik talablar asosida tashkil etish uchun har bir turdagi darslarning tuzilishini to'g'ri belgilash muhimdir. Darslarning tuzilishi moslashuvchan bo'lishi o'qituvchi oldida turgan pedagogik muammolarni hal qilishga ijodiy yondashishga zamin yaratadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi uchun didaktik maqsad va vazifalar oldindan belgilanadi. Ushbu maqsad va vazifalarning mohiyati va ketma-ketligi ma'lum bir turdagi darslarga oid ta'lim jarayonining mantiqiy izchilligiga bog'liq.

Darslar tuzilishida quyidagi elementlar ajratiladi: tashqi konstantalar (dars bosqichlari) va ichki o'zgaruvchanlik (metodlar va tamoyillar).

Asosiy didaktik maqsadga muvofiq har bir dars turi o'ziga xos makrostrukturaga ega bo'lib, o'quv materialining mazmuniga, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarligiga, o'quv jihozlarining holatiga qarab qisman o'zgarishi mumkin.

Har bir turdagi darsning mikrosxemasi o'zaro bog'liq bo'lgan pedagogik maqsadlarning oqilona ketma-ketligini ta'minlaydigan usullar, metodlar va o'quv vositalari majmuasini o'z ichiga oladi. Ular birgalikda, bilimlarni assimilyatsiya qilish sifatiga ta'sir qiladi. Darslarni rejalashtirishda o'qituvchi darsning didaktik maqsadi va vazifalaridan, o'quvchilarning bilim darajasi, o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasidan kelib chiqadi.

Darslar tarkibi mohiyatan quyidagi masalalar doirasida belgilanishi mumkin:

1. Darsning mavzusi, maqsadi, vazifalari o'quv faoliyati motivatsiyasi bilan bog'liqligi.2. Asosiy faktlar, hodisalarni takrorlash va tahlil qilish. 3. Tushunchalarni umumlashtirish, tizimlashtirish va o'zlashtirish orqali amaliy vazifalarni bajarish. 4. Bilimlarni o'zlashtirish asosida tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilish.

Shu jarayonda ilgari olingan bilimlarni mustahkamlash, yangilarini o'zlashtirish, umumlashtirish, tizimlashtirish, ko'nikma-malakalarni egallash, ularni nostandart vaziyatlarda amalda qo'llash va h.k. Bunday kombinatsiyalar juda ko'p bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda ko'p hollarda asosiy didaktik maqsadlar bitta ta'lim jarayoniga birlashadi. Masalan, ertakni o'qish orqali o'quvchilar xulq-atvorining ma'lum me'yorlari to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar, o'qish qobiliyatlarini yaxshilaydilar va oldingi darslarda olgan bilimlarini umumlashtiradilar.

Ta'lim jarayonida oqilona tanlov va kombinatsiyalarsiz qo'llaniladigan usullar tegishli natijani bermaydi. O'qituvchi darsda qanday ishlarni amalga oshirishi, o'quvchilar esa muayyan o'quv vaziyatlarda qanday harakatlar qilishlari, berilgan vazifalarni qanday hal qilish yo'llarini bilishlari, aniq tasavvur qilishlari maqsadga muvofiqdir.

O'qitish usulini tanlash o'qituvchining metodik tajribasi, ko'nikma-malakalariga bog'liq. Har doim va hamma joyda ishlatilishi mumkin bo'lgan universal maqbul usul yo'qligi sababli, har bir o'qituvchi o'qitish usulini mutsaqil ravishda o'zi tanlaydi va faoliyatida qo'llaydi. O'qituvchi o'quv predmetini yaxshi bilsa va o'quv jarayonining

pedagogik-psixologik qonunlariga amal qilsagina ta’lim samaradorligini ta’minlay oladi.

Ta’lim usullari tasnifining ko‘p o‘lchovliligi zamonaviy didaktika muammolaridan biridir. Eng oddiy tasnif o‘qitish usullarini o‘qituvchining ish uslublariga (aytib berish, tushuntirish) va o‘quvchilar faoliyati uslublariga (o‘quv materialini tushunish, eslab qolish, mustahkamlash) ajratadi.

Ba’zan ayrim mavzuni o‘rganish har xil turdagi darslarga ajratishda qiyinchilik tug‘diradi. Yangi materiallarni o‘zlashtirish mavjud bilimlarni qo‘llash, umumlashtirish va tizimlashtirish bilan birlashadi. Agar dars rejalashtirilgan bo‘lsa, dars turlari va ularning tarkibiy elementlarini aniq belgilash ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga, ba’zi bir bosqichlar umumlashtirilgan dars tarkibidan chiqib ketishi, boshqalari birlashtirilishi yoki takomillashtirilishi mumkin.

Inson hayotida aqliy faoliyatning ulushi doimiy ravishda oshib borishi bolalarni muntazam ravishda aqliy mehnatga odatlantirish, uyda o‘qitish zarurligini keltirib chiqaradi. Uyga beriladigan vazifalar hajmi, murakkabligi ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Tadqiqotchilar amaliy tajribaga asoslanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining uy vazifasini bajarishi uchun vaqt me’yorlarini aniqlaganlar. Ushbu me’yor quyidagicha: 1-sinfda – 1 soatgacha; ikkinchisida – 1,5 soatgacha; 3-4-sinflarda 2 soatgacha. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘qitish usullari va o‘quvchilarning o‘qish usullari bir-biriga bog‘liqdir, chunki pedagogik o‘quv maqsadlarining amalga oshirilishini ta’minlaydigan omillar o‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsadga muvofiq o‘zaro aloqalari tizimi bilan bog‘liq. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning didaktik usullari – bu o‘qitish, tarbiyalash va nutq o‘stirishga xizmat qiladi.

Ta’lim metodlarining quyidagi umumiy pedagogik funksiyalari ajratiladi: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

Muhimi o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil ravishda egallash, boyitish, chuqurlashtirish va hayotda ijodiy tatbiq etishga qodir bo‘lgan o‘qimishli yoshlarning uyg‘un rivojlanishiga maqbul yordam berishdir. Uning ijrosi o‘quv materialining mazmuni, o‘qitish maqsadi, ta’lim darajasini hisobga olgan holda o‘qitishning metodlari va uslublarini, ularning didaktik tuzilmalari va vositalarini maqbul tanlash bilan maqsadga muvofiq o‘qitish sharoitida muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan darsliklarning tuzilishi, metodik ta’minoti va o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

Darsliklarning tarbiyaviy vazifasi undagi materiallar va ma’lumotlarning ta’sirchanligi tufayli amalga oshiriladi. U o‘quvchilarni nafaqat bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, balki ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga ham ta’sir ko‘rsatadi: o‘qish, o‘rganish, fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, ta’kidlash, rejalashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish motivatsiyasini rivojlantirish imkonini beradi. Bundan o‘qitish usullari, shakllari va vositalari o‘zaro bog‘liq degan xulosaga kelish mumkin. Darhaqiqat, metodlar shakllarda amalga oshiriladi: ta’lim shakllari esa o‘quv jarayonini loyihalash sifatida ta’lim usullari ijrosini ta’minlaydi.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan izlanishlar aynan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishda o‘qituvchi zimmasiga katta mas’uliyat yuklanishini dalillashga imkon berdi. Aynan boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga qiziqishini oshirish, ta’lim olishga ishtiyoq bilan yondashishlari uchun darslarni qanday tashkil qilish kerak degan savol soha mutaxassislari va amaliyotchi o‘qituvchilar oldida hamisha ko‘ndalang turadi.

An’anaviy pedagogika darsliklarida didaktika ta’lim va tarbiya nazariyasi sifatida belgilanadi, bu shubhasiz to‘g‘ri, ammo ayni paytda, yetarli darajada to‘liq ham emas.

Birinchidan, ta’lim va tarbiya tizimida bir emas, balki bir necha asosli va samarali nazariyalar mavjud (rivojlanish, muammoli, modulli, tabaqalashtirilgan, kompyuter va boshqa turdagi mashg‘ulotlar turlari va nazariyalari).

Didaktikaning ilmiy-pedagogik asoslari psixologiya, fiziologiya, ta’lim nazariyasi, aloqa sotsiologiyasi, maktab gigiyenasi, o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi, ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va boshqalar bilan ifodalanadi.

Didaktika ikkita funksiyaga ega: bilim berish (nazariy) va amalda qo‘llash (o‘qitish).

Didaktikaning fan sifatida o‘ziga xos predmeti va o‘rganish obyekti mavjud bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va hayotiy tajribalari bilan bog‘liq ko‘p qirrali faoliyatni talab etadi.

Ta’lim – bu o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, dunyoqarashi, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq jarayon va ta’lim natijasidir.

O‘qitish – bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning maqsadga muvofiq amalga oshirilishi jarayonidir. O‘qitish tamoyillari o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydigan eng muhim didaktik talablardir.

Ta’lim mazmuni esa o‘quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lgan bilim, qobiliyat va ko‘nikmalar tizimi majmuidan iboratdir.

O‘quv jarayonida o‘qitish faoliyati va o‘quv faoliyati mushtarak xususiyatga ega. Ikki asosiy faoliyatning bunday munosabati ta’lim jarayoni faoliyatining muhim shartidir. Belgilangan o‘quv vazifasi va o‘quvchilarning

bilim faoliyati ta’limning protsessual jihatdan o‘z-o‘zining harakatlanishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonining bilish qonuniyatlariga bog‘liqligi o‘quv maqsadi ijrosi mohiyatini ifodalaydi.

Idrok qilish aks etuvchi faoliyat sifatida atrofdagi olamni inson ongida turli darajadagi adekvatlik bilan ko‘paytirishi mumkin. Bu inson tanasining har qanday ta’sirga manba xususiyatlariga mos keladigan selektiv reaksiya bilan javob berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bunday aks etuvchi faoliyatda qarama-qarshi ikkita jarayon mavjud: interiorizatsiya jarayoni (tashqi ijtimoiy faoliyat tuzilmalarini o‘zlashtirish natijasida inson ruhiyati ichki tuzilmalarining shakllanishi) va eksteriorizatsiya jarayoni (insonning tashqi ijtimoiy faoliyatiga oid psixologik tuzilmalar).

Bu ikki jarayon insonning bilish faoliyati asosini tashkil etadi. O‘quv jarayonining mohiyati bilish jarayonining umumiy yo‘nalishidan kelib chiqadigan va tashqi olamning inson bilish faoliyatida aks etishi bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Didaktika o‘qitishni o‘zaro bog‘liq elementlar (komponentlar) to‘plamini o‘z ichiga olgan murakkab yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqadi. O‘quv jarayoni murakkab tizim bo‘lib, faoliyat ko‘rsatayotgan tarkibiy qismlarining cheksiz xilma-xilligi, munosabatlari va aloqalari bilan ifodalanadi. Ushbu tizim tarkibiga axborot komponentlari, o‘qitish vositalari, tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

O‘quv jarayonining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Maqsadli tarkibiy qism (darsning maqsad va vazifalari).

2. Rag‘batlantiruvchi – motivatsion komponent (qiziqish, o‘rganish motivlari).

3. Ta’lim mazmuni (o‘quv dasturi, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar).

4. Operatsion-faoliyat komponenti (o‘qitishni tashkil etish usullari, vositalari va shakllari).

O‘quv faoliyati – bu o‘quv-bilish vazifalarini hal qilishga qaratilgan o‘quvchilarning faol, konstruktiv va ijodiy faoliyati sifatida ta’lim maqsadi va vazifalari (ta’lim, tarbiya, rivojlantirish), o‘quv materialining mazmuni va ta’lim faoliyati motivlarini tashkil etadi. Shu jarayonda jamiyatning ta’limga nisbatan doimiy ravishda ortayotgan talabi bilan mavjud o‘qitish amaliyoti o‘rtasida muvozanatning buzilishi o‘z aksini topadi.

Ma’lumki, har qanday fan o‘z mazmuniga ko‘ra o‘ziga xos qonun va qonuniyatlarga ega. Didaktikada aniq shakllangan qonunlar mavjud emas, shuning uchun o‘quv jarayoni ko‘p funksiyali jarayon (tarbiyalash, ta’lim, taraqqiyot) ekanligini hisobga olib, didaktika boshqa fanlarning qonunlariga asoslanadi. Ko‘pgina didaktik asarlarda o‘rganish qonuni bilimlarni assimilyatsiya qilish qonuni yoki shaxsiy rivojlantirish qonuni va boshqalar bilan almashtiriladi.

Darhaqiqat, agar biz o‘quv jarayonini bilimlarni assimilyatsiya qilish jarayoni deb hisoblasak, unda didaktika qonuni psixologiyani nazarda tutadigan bilimlarni o‘zlashtirish qonuniga tushiriladi. Agar o‘qitishni o‘quv jarayonining mohiyatini aks ettiradigan o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak, u holda o‘rganish qonunlari sotsiologiya fani murojaat qiladigan ijtimoiy qonunlar bilan almashtiriladi.

Agar biz o‘quv jarayonini o‘qituvchi tomonidan uyushtirilgan va boshqariladigan jarayon deb hisoblasak, unda didaktik qonun nazorat qonuni bilan, ya’ni kibernetika qonuni bilan almashtiriladi.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, didaktikada o‘qitish qonunlari u bilan bog‘liq bo‘lgan fan qonunlari bilan o‘zaro bog‘liqdir.

O‘quv jarayoniga xos qonuniyatlar Y.K.Babanskiy, M.A.Danilov, B.I.Korotyayev, M.N.Skatkin kabi rus olimlari, R.Haydarov, X.Ibragimov, R.Safarova, A.Musurmonova, B.Xodjayev, U.Xodjamqulov kabi o‘zbek olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

O‘quv jarayonini samarali rejalashtirish va boshqarish qonunlari va qonuniyatlari o‘qitish tamoyillari va ularning amaliy pedagogik faoliyati qoidalarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qitish tamoyillari – bu o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish uchun barcha harakatlarning pedagogik asosliligini belgilaydigan asosiy didaktik shartlar. Didaktik prinsiplar ta’lim mazmunini shakllantirishga va o‘quv jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan umumiy talablarni – ham umuman, ham uning individual aloqalarida aks ettiradi. Didaktik prinsiplarning tuzilishi o‘qitish qonuniyatlarining tuzilishi bilan belgilanadi. Ta’lim jarayonida didaktik tamoyillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Odatda, ma’lum bir darsda bir yoki bir nechta prinsiplar ustun bo‘lishi mumkin, qolganlari esa bir-birini to‘ldirishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda rivojlantiruvchi ta’lim prinsipiga amal qilish fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning har tomonlama va uyg‘un rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Negaki ta’lim shakllari va vositalariga tizimli tarzda yondashilsagina o‘quvchilar taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, tahlil qilish, sintez qilish usullarini o‘zlashtiradilar. Maktab o‘quvchilarini ilgari surilgan nuqtai nazar asosida haqiqatni isbotlashga, tezislarni bahslashishga, asosiy g‘oyani ta’kidlashga, muhim va

ikkinchi darajali belgilarni ajratishga, faktik materiallarni tahlil qilish orqali xulosalar chiqarishga o‘rgatish muhimdir.

O‘qitish to‘g‘rida to‘g‘ri yoki bilvosita o‘quvchilarning real dunyoni idrok etish tuyg‘ulariga asoslangan bo‘lishi kerak. Ta’lim jarayonida bu bog‘liqlik kuzatish prinsipini amalga oshirish orqali amalga oshiriladi (ta’lim idrokining barcha bosqichlarida vizual vositalardan foydalanish). Shu bilan birga, o‘rganishni faqat hissiyotlar bilan bog‘lash mumkin emas, balki hissiy va oqilona, aniq va mavhum, empirik va nazariy jihatdan maqbul o‘zaro bog‘liqlik va birlikni ta’minlash muhimdir.

Ta’limning qulayligi prinsipi o‘qitishning mazmuni va usullari bolalarning yosh xususiyatlari va ularning umumiy rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashni nazarda tutadi.

Tizimlilik va izchillik prinsipi yangi bilimlar ilgari o‘rganilganlarga asoslanib, o‘z navbatida, keyingi bilimlarni o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladigan tarzda qat’iy mantiqiy ketma-ketlikda ta’limni qurish zarurligini aks ettiradi. Ushbu tamoyil o‘rganilayotgan obyektlar va hodisalarni barcha aloqalari va bog‘liqliklari bilan ajralmas shaklda aks ettiradigan tizimdagi bilimlarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

Ilmiylik prinsipi ilm-fanning zamonaviy rivojlanish darajasi va bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan ilmiy ishonchli bilimlarni ta’lim mazmuniga kiritishni talab qiladi.

Ta’lim jarayonida yangi ilmiy g‘oyalar bilan tanishish ta’lim va hayot o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikka hissa qo‘shadi, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi, har qanday fanni o‘rganishga ijodiy yondashishni rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, amaliy muammolarni hal qilish o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham mohirlikni talab qiladi.

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab va ko‘p qirralidir. Nazariy masalalarni o‘rganish paytida amaliy vazifalarni amalga oshirish, bilimlarni chuqurlashtirishga, o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyatini va ular o‘rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Bunday holda amaliyot ta’limning harakatlantiruvchi kuchidir. Nazariy materiallarni o‘zlashtirishga asoslangan amaliy topshiriqlarni bajarish o‘quvchilarda haqiqatga ishonch hosil qiladi va nazariy bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatini shakllantiradi.

O‘quvchilarning ta’limdagi mustaqilligi va faolligi prinsipi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va ularni amalda qo‘llash jarayonida o‘quvchilar tomonidan bilim mustaqilligi va ijodiy faoliyatning namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratishdir.

O‘quvchilarning mustaqil bilim faoliyati reproduktiv (bajaruvchi) yoki izlanuvchan (ijodiy) bo‘lishi mumkin.

Ta’lim jarayonini optimallashtirish prinsipi, bir qator variantlardan, ushbu sharoitda maktab o‘quvchilarini o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini hal qilishning maksimal samaradorligini ta’minlaydigan variantni tanlashni talab qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda jamiyatning barcha ta’lim muassasalari faoliyatining umumiy yo‘nalishini va pedagogik ta’lim xususiyatlarini belgilaydigan global maqsad insonning idealiga oid jamiyat g‘oyasiga mos keladi, jamiyatning insonlar oldiga qo‘ygan talablarini ifoda etadi.

Ta’lim-tarbiyaning umumiy maqsadlari jamiyat tomonidan ilgari suriladi va davlat xarajatlarida (ta’lim standarti) aks ettiriladi. Keyinchalik alohida fanlarga mo‘ljallangan dasturlar, darsliklar, o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanmalarda, o‘quvchilar uchun didaktik materiallarda konkretlashtiriladi.

Ta’lim maqsadi o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligi ostida qanday ta’lim natijasiga erishishi, qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi va ularni qay darajada (reproduktik, ijodiy) tatbiq etishi, o‘quvchilarga qanday talablar qo‘yilishini belgilaydi. Ko‘rinadiki, o‘quv jarayonida ta’lim-tarbiya va rivojlanish vazifalari ajralmas birlikda hal etiladi. Ularni o‘quvchilarni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning umumiy vazifasi birlashtiradi.

Shaxsning har tomonlama rivojlanishi uning ma’naviy va jismoniy kuchi, ijodiy qobiliyatlari va individual salohiyatining o‘sishi, insonning fuqaro sifatida, axloqiy va madaniy shaxs sifatida shakllanishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матчанов С. ва бошқалар. Бошланғич синфларда она тили ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2026. 610 - бет.
2. Юсупова Г. Ўқув саводлиги. 1-класс учун сабоқлик. – Тошкент: Новда, 2025.
3. Равшанов Р. Бошланғич таълим методикаси назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 2019.

Nilufar YUSUPOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Ilmiy rahbar: Kamola MURADKASIMOVA
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsenti

INTENSIV O‘QISH KO‘NIKMASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada intensiv o‘qish ko‘nikmasining nazariy va metodologik asoslari ilmiy jihatdan keng tahlil qilinadi. Intensiv o‘qish — bu o‘quvchi yoki talabaning matnni chuqur va to‘liq tushunishga yo‘naltirilgan o‘qish turi bo‘lib, u xorijiy til ta’limida markaziy ahamiyat kasb etadi. Maqolada intensiv o‘qishning tushunchasi, tarixiy shakllanishi, ekstensiv o‘qishdan farqi, asosiy didaktik tamoyillari, o‘qish strategiyalari, metakognitiv yondashuvlar hamda sinfda amaliy tatbiqi masalalari atroflicha ko‘rib chiqiladi. Tahlil xorijiy olimlarning fundamental asarlariga asoslanadi. Maqola natijasida intensiv o‘qishni o‘qitishda samarali strategiyalar va metodologik tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *intensiv o‘qish, o‘qish ko‘nikmalari, xorijiy til, metodologiya, matn tahlili, o‘qish strategiyalari, metakognitsiya, til ta’limi.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы навыка интенсивного чтения. Интенсивное чтение — это вид чтения, направленный на глубокое и полное понимание текста, что имеет важное значение в обучении иностранному языку. В статье анализируются понятие интенсивного чтения, история его становления, его отличие от экстенсивного чтения, основные дидактические принципы, стратегии чтения, метакогнитивные подходы, а также практическое применение в учебном процессе. Анализ основывается на фундаментальных трудах зарубежных учёных. По результатам исследования сформулированы эффективные стратегии и методологические рекомендации.

Ключевые слова: *интенсивное чтение, навыки чтения, иностранный язык, методология, анализ текста, стратегии чтения, метакогниция, обучение языку.*

Annotation: this article provides a comprehensive scientific analysis of the theoretical and methodological foundations of intensive reading as a language skill. Intensive reading is a mode of reading directed at deep and thorough textual comprehension, occupying a central role in foreign language education. The article addresses the concept of intensive reading, its historical development, its distinction from extensive reading, core didactic principles, reading strategies, metacognitive approaches, and practical classroom application. The analysis draws on fundamental scholarly works. The article concludes with effective strategies and methodological recommendations for teaching intensive reading.

Key words: *intensive reading, reading skills, foreign language, methodology, text analysis, reading strategies, metacognition, language teaching.*

Zamonaviy tilshunoslik va til ta’limi metodikasida o‘qish ko‘nikmasi asosiy til faoliyat turlaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. O‘qish — bu shunchaki yozilgan belgilarni ko‘z bilan idrok etish emas, balki murakkab kognitiv, lingvistik va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning birligi hisoblanadi. [5, 47-b.] O‘qish orqali o‘quvchi nafaqat ma’lumot oladi, balki til tizimini, lug‘aviy boylikni va matn tuzilishini mustaqil ravishda o‘zlashtiradi.

Xorijiy til ta’limida o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Globallashuv jarayonida xalqaro tillarni o‘rganuvchilar soni ortib borgani sari o‘qish ko‘nikmasini o‘qitishning ilmiy asoslarini mustahkamlash zaruriyati ham kuchaymoqda. [8, 68-b.] Akademik va kasbiy sohalarda muvaffaqiyat uchun xorijiy tilda matnlarni chuqur tushunish, tahlil qilish va baholash ko‘nikmasi ustuvor hisoblanadi.

O‘qish turlarini tasniflaganda metodistlar an’anaviy ravishda ikki asosiy kategoriyani ajratadilar: intensiv va ekstensiv o‘qish. Bu yondashuvlar bir-birini to‘ldiruvchi bo‘lib, ularning har biri muayyan ta’limiy maqsadlarga xizmat qiladi. [1, 38-b.] Ammo ta’lim amaliyotida intensiv o‘qishning nazariy asoslariga yetarlicha e’tibor berilmaydigan hollar ko‘p uchraydi.

Ushbu maqolaning maqsadi — intensiv o‘qish ko‘nikmasining nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mohiyatini ochib berish va o‘qitishda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: intensiv o‘qish tushunchasini tahlil qilish; ekstensiv o‘qishdan farqini aniqlash; metodologik tamoyillarni bayon etish; o‘qish strategiyalarini tasniflash; amaliy tavsiyalar berish.

Intensiv o‘qishning tarixiy shakllanishi va ta’rifi

“Intensiv o‘qish” atamasi til ta’limi metodikasida uzoq tarixga ega. XX asrning o‘rtalarida audio-lingval metod hukmron bo‘lgan davrda o‘qishga asosan mexanik mashqlar bajarish sifatida qaralgan. [6, 54-b.] Biroq 1970–80-yillardan boshlab kognitiv psixologiya va kommunikativ metodikaning rivojlanishi bilan o‘qishga

yondashuv tubdan o‘zgara boshladi: o‘qish passiv jarayondan faol, maqsadga yo‘naltirilgan jarayonga aylandi.

Christine Nuttall (1996) intensiv o‘qishni matn ustida o‘qituvchi yetakchiligida yoki o‘quvchini matn bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotga majbur qiladigan topshiriqlar orqali ishlash sifatida ta’riflaydi. [1, 38-b.] Maqsad — matnning nafaqat nima deyishini, balki qanday deyishini ham tushunish. “Qanday” savoli “nima” kabi muhim, chunki intensiv dars, avvalo, o‘quvchida boshqa matnlarda ham qo‘llash mumkin bo‘lgan strategiyalarni shakllantiradi.

William Grabe (2009) intensiv o‘qishni ikkinchi til kontekstida bir nechta o‘lchamda ko‘rib chiqadi: lingvistik, kognitiv, metakognitiv va motivatsion. [7, 22-b.] Uning fikricha, o‘qish — bu bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan bir nechta jarayon yig‘indisi bo‘lib, ularni alohida o‘rgatish sun’iy va samarasiz. Bu nuqtayi nazar intensiv o‘qish metodologiyasida integrallashgan yondashuvning zarurligini asoslaydi. Zamonaviy adabiyotlarda intensiv o‘qish tushunchasi matnni batafsil tahlil qilish (close reading), tanqidiy o‘qish (critical reading) va akademik maqsadlar uchun o‘qish (reading for academic purposes) kabi shakllarga ega. [9, 14-b.] Ularning barchasi matn bilan faol, ongli va maqsadli munosabatda bo‘lishni talab qiladi, bu esa intensiv o‘qishning universal didaktik ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

2. Intensiv va ekstensiv o‘qishning qiyosiy tahlili

Intensiv o‘qishni to‘liq tushunish uchun uni ekstensiv o‘qish bilan qiyosiy tahlil qilish zarur. Nuttall (1996) ta’kidlashicha, aksariyat o‘qish ko‘nikmalari qisqa matnlarni batafsil o‘rganish orqali rivojlanadi, biroq boshqa ko‘nikmalar uzoqroq matnlar bilan ishlashni talab etadi. [1, 38-b.] Ikki yondashuv bir-birini to‘ldiruvchi bo‘lib, barchasi zarur yondashuvlar sifatida tavsiflanadi.

Intensiv o‘qish quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: qisqa matnlar bilan chuqur ishlash; o‘qituvchi faol rahbarlik qilishi; maqsad — matn mohiyati, tuzilishi va tilini mukammal tushunish; sinf muhitida amalga oshirilishi. Ekstensiv o‘qish esa uzun matnlar yoki kitoblarni umumiy tushunish maqsadida o‘qish; o‘quvchi mustaqilligi; o‘qish tezligi va hajmini oshirish bilan ajralib turadi. [10, 5-b.] Richard Day va Julian Bamford (1998) ekstensiv o‘qishni intensiv o‘qish bilan uyg‘unlashtirgan o‘quv dasturlari ancha samarali natijalar berishini empirik ma’lumotlar asosida ko‘rsatadilar. [10, 7-b.] Ular intensiv o‘qishni “tilni tahlil qilish vositasi”, ekstensiv o‘qishni esa “tilni egallash muhiti” sifatida ta’riflaydilar. Bu metafora ikkala yondashuvning o‘ziga xos rolini aniq ifodalaydi.

Shunday qilib, intensiv va ekstensiv o‘qish raqib emas, to‘ldiruvchi yondashuvlardir. Samarali til ta’limi dasturida ikkalasi ham o‘z o‘rnini topishi kerak: intensiv o‘qish til va matn bilan chuqur ishlash salohiyatini rivojlantirsa, ekstensiv o‘qish bu ko‘nikmalarni keng amaliyotda mustahkamlaydi. [5, 202-b.]

3. Intensiv o‘qishning asosiy metodologik tamoyillari

Intensiv o‘qishni o‘qitishda bir qator asosiy metodologik tamoyillarga rioya qilish tavsiya etiladi. Ushbu tamoyillar turli mualliflarning ishlari asosida quyidagicha tartiblanadi:

a) Matnni faol o‘rganish tamoyili. Nuttall (1996) ta’kidlashicha, ko‘plab o‘quvchilar o‘qishni passiv axborot qabul qilish jarayoni sifatida qabul qilishadi. [1, 45-b.] Intensiv o‘qish esa o‘quvchidan matnni “so‘roq qilishni” talab etadi: “Muallif bu bilan nimani nazarda tutyapti?”, “Bu so‘z kontekstda qanday ma’no kasb etmoqda?” Ushbu faollik o‘quvchini matn bilan haqiqiy muloqotga kirishishga undaydi va tushunish sifatini oshiradi.

b) Strategiyaga yo‘naltirilganlik tamoyili. O‘qituvchining vazifasi talabani muayyan matn bilan ishlashga emas, balki istalgan matnga tatbiq etish mumkin bo‘lgan strategiyalarga o‘rgatishdir. [1, 38-b.] Anderson (1999) ham ta’kidlashicha, o‘qish strategiyalarini ongli o‘rgatish o‘quvchining mustaqilligini va moslashuvchanligini oshiradi. [11, 68-b.]

c) Scaffolding va ZPD tamoyili. Lev Vygotskiy (1978) tomonidan ishlab chiqilgan “yaqin rivojlanish zonasi” (ZPD) konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchi o‘qituvchi yordamida hozir mustaqil bajara olmaydigan vazifani bajara oladi. [4, 86-b.] Intensiv o‘qishda scaffolding — o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlashini asta-sekin kamaytira borib, o‘quvchi mustaqilligini oshirish — markaziy metodologik amaliyot hisoblanadi.

d) Qo‘llab-quvvatlovchi dars muhiti tamoyili. Nuttall (1996) ta’kidlashicha, o‘quvchilar tushunmayotganini ochiqchasiga tan olishga tayyor bo‘lishi kerak. [1, 46-b.] Krashen (1985) ning affektiv filtr gipotezasiga ko‘ra, o‘quvchidagi xavotir va stress tilni o‘zlashtirishni sezilarli darajada qiyinlashtiradi. [2, 45-b.] Shu sababli xavfsiz, baholashsiz muhit yaratish intensiv o‘qish darslarining zaruriy sharti hisoblanadi.

e) Ko‘p o‘qish va xilma-xillik tamoyili. Grabe (2009) ning kuzatuvlariga ko‘ra, o‘qish ko‘nikmasi faqat ko‘p va turli-tuman matnlar bilan ishlash orqali o‘sadi. [7, 88-b.] Xilma-xil matn turlari (badiiy, ilmiy, publitsistik) o‘quvchida kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradi, bu esa intensiv o‘qishning uzoq muddatli ta’limiy maqsadlaridan biridir.

4. Aldersonning ikkinchi tilda o‘qishni tashxislash nazariyasi

J. Charles Alderson va hamualliflar (2015) o‘qish jarayonini ko‘p o‘lchamli model asosida tahlil qiladilar. [3, 18-b.] Ularning tashxis (diagnostic) yondashuvi intensiv o‘qish metodologiyasiga muhim hissa qo‘shadi: u o‘qituvchiga o‘quvchining qayerda va nima sababdan qiynalyotganini aniq aniqlash imkonini beradi.

Alderson va mualliflar o‘qish jarayonini quyidagi omillar doirasida tahlil qiladilar: (1) til kompetensiyasi — lug‘at, grammatika, matn tuzilishiga oid bilimlar; (2) kognitiv jarayonlar — ma’lumotni qayta ishlash, ishchi xotira, e’tibor; (3) metakognitiv omillar — o‘quvchining o‘z o‘qish jarayonini nazorat qilishi; (4) fon bilimlari — mavzu bo‘yicha oldindan mavjud sxemalar; (5) affektiv omillar — motivatsiya va xavotir. [3, 45-b.]

Alderson va mualliflar ikkinchi tilda til kompetensiyasining yetishmasligi o‘qish jarayonidan kelib chiqadigan qiyinchiliklardan ko‘ra kuchliroq ta’sir

ko‘rsatishini empirik jihatdan isbotlaydilar. [3, 62-b.] Bu kuzatuv intensiv o‘qish darslarida til birliklariga matn kontekstida e’tibor qaratishning zarurligini asoslaydi.

Intensiv o‘qishni sinfda samarali amalga oshirish matnni to‘g‘ri tanlash, darsni rejalashtirish, mos topshiriqlar va o‘quvchilarni jarayonga faol jalb etishga bog‘liq. Zamonaviy metodikada uch bosqichli model keng qo‘llaniladi. [5, 196-b.]

O‘qishdan oldingi bosqich (pre-reading). Bu bosqichda o‘quvchilarda matn mavzusiga oid oldingi bilimlar faollashtiriladi, zarur lug‘at tanishtiriladi va o‘qish maqsadi belgilanadi. [8, 201-b.] Anderson va Pearson (1984) ning sxema nazariyasiga ko‘ra, oldindan mavjud bilim tuzilmalari matnni tushunishni sezilarli darajada osonlashtiradi. [15, 259-b.]

O‘qish jarayoni bosqichi (while-reading). O‘quvchilar matn bilan faol muloqotda bo‘ladilar: muhim ma’umotlarni belgilaydilar, izohlar yozadilar, taxminlar qiladilar, savollar tuzadilar. [11, 92-b.] Nuttall (1996) o‘qituvchilarni “Do you understand?” savolini berib, javobga ishonib qolmaslikdan ogohlantiradi; tushunishni tekshirish uchun muqobil usullardan foydalanish tavsiya etiladi. [1, 46-b.]

O‘qishdan keyingi bosqich (post-reading). O‘quvchilar matn bo‘yicha muhokama olib boradilar, xulosa chiqaradilar, muallifning pozitsiyasini baholaydilar. [9, 98-b.] Schnorr (2011) ta’kidlashicha, o‘quvchilar doimo o‘z fikrlarini va matnning ularda qoldirgan taassurotlarini bayon qilish uchun taklif etilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishi lozim. [13, 37-b.]

Intensiv o‘qish — xorijiy til ta’limida o‘quvchilarning til va matn bilan to‘laqonli munosabatini ta’minlaydigan asosiy metodologik yondashuvlardan biridir. Ushbu maqolada tahlil qilingan nazariy asoslar shuni ko‘rsatadiki, intensiv o‘qish shunchaki matnni o‘qib chiqish emas, balki o‘quvchida kelajakda mustaqil qo‘llana oladigan strategiyalarni shakllantiruvchi uzoq muddatli ta’limiy jarayondir. [1, 38-b.] [7, 22-b.]

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, intensiv o‘qish matnni chuqur tushunishga va uning shakllantirilish usulini anglashga yo‘naltirilgan. [1, 38-b.] Ikkinchidan, intensiv va ekstensiv o‘qish raqib emas, to‘ldiruvchi yondashuvlar bo‘lib, ikkalasi ham samarali til ta’limi uchun zarur. [10, 7-b.] Uchinchidan, matn hujum strategiyalari integrallashgan tarzda o‘rgatilishi lozim. [11, 68-b.] To‘rtinchidan, Aldersonning ko‘p o‘lchamli tashxis modeli o‘qituvchiga differensial yondashuv qo‘llash imkonini beradi. [3, 45-b.] Beshinchidan, raqamli muhit intensiv o‘qish metodologiyasini yangi ko‘nikmalar bilan boyitishni taqozo etmoqda. [16, 459-b.]

Ushbu tadqiqot natijalaridan til o‘qituvchilari, metodistlar va ta’lim dasturlarini ishlab chiquvchilar foydalanishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar intensiv o‘qishni o‘qitishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning rolini, shuningdek, o‘zbek tili ta’limidagi o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nuttall C. Teaching Reading Skills in a Foreign Language. New edition. — Oxford: Heinemann, 1996. — 282 p.
2. Krashen S. The Input Hypothesis: Issues and Implications. — New York: Longman, 1985. — 120 p.
3. Alderson J.C., Haapakangas E-L., Huhta A., Nieminen L., Ullakonoja R. The Diagnosis of Reading in a Second or Foreign Language. — New York; London: Routledge, 2015. — 276 p.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
5. Hedge T. Teaching and Learning in the Language Classroom. — Oxford: Oxford University Press, 2000. — 452 p.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 270 p.
7. Grabe W. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009. — 466 p.
8. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 4th ed. — Harlow: Pearson Longman, 2007. — 448 p.
9. McCarthy M. Discourse Analysis for Language Teachers. — Cambridge: Cambridge University Press, 1991. — 230 p.
10. Day R., Bamford J. Extensive Reading in the Second Language Classroom. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 216 p.
11. Anderson N.J. Exploring Second Language Reading: Issues and Strategies. — Boston: Heinle & Heinle, 1999. — 180 p.
12. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 477 p.
13. Schnorr R.F. Intensive Reading Instruction for Learners with Developmental Disabilities // The Reading Teacher. — 2011. — Vol. 65, Issue 1. — P. 35–45.
14. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring // American Psychologist. — 1979. — Vol. 34, № 10. — P. 906–911.
15. Anderson R.C., Pearson P.D. A Schema-Theoretic View of Basic Processes in Reading Comprehension // Handbook of Reading Research. — New York: Longman, 1984. — P. 255–291.
16. Coiro J. Reading Comprehension on the Internet // The Reading Teacher. — 2003. — Vol. 56, № 5. — P. 458–464.

Nilufar USMANOVA,
O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
lotosazizova771@gmail.com
Ilmiy rahbar: Kamola MURADKASIMOVA,
O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti pedagogika fanlari doktori, dotsent
kmuradkasimova@yahoo.com

INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA TRANSFORMATIV TA’LIM YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH

Bu yerdagi savollar muhokama qilinayotgan predmet yoki materialga taalluqli savollardir. Gap faqat muhim narsalar yoki o‘quvchilardan so‘ralishi kerak bo‘lgan materialning asosiy g‘oyasida bo‘ladi. O‘qituvchi savollarni tayyorlagandan so‘ng, keyingi bosqichda o‘qituvchi bu savollarni o‘quvchilarga beradi. Savollar berish to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘quvchilarga yo‘naltirilishi mumkin, bu savollarga javob olishi uchun o‘qituvchi yana savollar berishi va so‘ramoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni kutishi mumkin.

O‘qituvchi savolga darhol javob olishga harakat qilmasligi kerak, o‘ylash uchun bir necha daqiqa vaqt berishi kerak. Bu boshqa o‘quvchilarning fikrlashini rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, unga javob berish imkoniyatini beradi. So‘ngra o‘qituvchi zarur bo‘lsa, javobni aniqlashtiradi.

Agar o‘quvchilar noto‘g‘ri javob berishsa yoki javob bera olmasalar, o‘qituvchi to‘g‘ri javobni topish uchun o‘quvchiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi kerak. O‘qituvchi bu yo‘l-yo‘riqni berishi mumkin bo‘lgan uchta usul mavjud, xususan: birinchidan, o‘quvchi savolni tushunishi uchun o‘qituvchi savolni yana bir bor sodda va osonroq ifoda bilan beradi. Ikkinchidan, o‘qituvchi yana bir oddiyroq savol beradi, uning javobi o‘quvchilarni dastlabki savollarga javob topishga yo‘naltirish uchun ishlatilishi mumkin. Uchinchidan, savol bilan bog‘liq avvalgi tushuntirishlarni takrorlaydi[6].

O‘qitishda savol-javob metodi o‘quvchilarning faolligini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki bu o‘quvchilar keng fikrlashga va o‘quvchilarga materialni eslatishga harakat qilishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan so‘ragandan so‘ng, o‘quvchilar navbatma-navbat o‘qituvchidan so‘rashadi. Ta’limda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan yetkazilgan barcha materialni to‘liq o‘zlashtira olmaydilar, bu yerda o‘quvchilarga tushunilmagan materialni so‘rash imkoniyati beriladi. Va boshqa o‘quvchilarga ham savol bergan o‘quvchilarning savollariga javob berish yoki rad etish imkoniyati beriladi, shuning uchun bu o‘quvchilarning yutuqlarini yaxshilash va o‘quvchilarga o‘rganishda faol qilish imkonini beradi, o‘quvchilar odatda, passiv bo‘lib qoladilar.

Savol-javob usuli o‘quvchilarning tayyorgarligi va o‘zlashtirishini baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, kontentni ko‘rib chiqish va/yoki umumlashtirish kabilarga yechim bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni chuqurroq va tanqidiy fikrlashga undash, munozaralarni rag‘batlantirish, o‘quvchilarni mustaqil ravishda ma’lumot izlashga undash kabi vazifalarni ham bajaradi.

5 H. Darmadi, Pengembangan Model dan Metode Pembelajaran dalam Dinamika Belajar – Siswa, Seleman: CV BUDI UTAMA, 2017.

6 Mandaniyati R. The Application of Question and Answer Method to Improve the Ability of Students Achievement. 2020; https://www.academia.edu/116555500.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Akkocaoğlu Çayır, N. İlkokul İçin Uygulama Örnekleriyle Öğretmenler İçin Çocuklarla Felsefe (P4C) Rehberi. Ankara: Pegem Akademi. 2021.https://doi.org/10.14527/9786257676472

2.Çiçek, H. Felsefeyle Çocuk Çocukla Felsefe. // Çocuk ve Medeniyet. 2017. 2(4), 51-60.https://izlik.org/JA26AP29SH

3.H. Darmadi, Pengembangan Model dan Metode Pembelajaran dalam Dinamika Belajar Siswa, Seleman: CV BUDI UTAMA, 2017.

4.Kızıltan, Ö. Felsefe Öğretimi Sorunları ve Yeni Yaklaşımlar.// Eğitim Öğretim Araştırmaları Dergisi. 2012. 1(4), 334 – 342 - b.

5.Mandaniyati R. The Application of Question and Answer Method to Improve the Ability of Students Achievement. 2020; https://www.academia.edu/116555500.

6.Taşdelen. V. Felsefenin Gülümseyen Yüzü Çocuklar. Türk Dili. 107(756). 2014. S. 562–568. https://tdk.gov.tr/wp content/uploads/2015/01/562

Jo‘raqul CHORIYEV,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti v.b.
choriyev63@mail.ru

MULTIMADANIY TALABA GURUHLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI BAHOLASH VA QO‘LLAB -QUVVATLASHNING NAZARIY AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada multimadaniy talaba guruhlarida kommunikativ kompetensiyani baholash va qo‘llab-quvvatlashning nazariy-amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy komponentlari, mezonlari hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar yoritiladi. Multimadaniy auditoriyada talabalar o‘rtasidagi samarali muloqot til bilish darajasi bilangina emas, balki madaniyatlararo sezgirlik, o‘zaro hurmat, tinglash madaniyati va hamkorlikka tayyorlik bilan ham belgilanadi. Maqolada kuzatuv, refleksiv topshiriqlar, kommunikativ vaziyatlar, loyiha ishlari va interfaol metodlar asosida kompetensiyani baholash hamda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tavsiflanadi. Natijada bunday yondashuv talabalarning akademik muloqotga kirishish faolligini oshirishi, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishi va ta’lim samaradorligini ta’minlashi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *multimadaniy guruh, kommunikativ kompetensiya, baholash, qo‘llab-quvvatlash, madaniyatlararo muloqot, oliy ta’lim, interfaol metodlar*.

Аннотация: в статье анализируются теоретические и практические основы оценки и поддержки коммуникативной компетенции в мультикультурных студенческих группах. Раскрываются сущность коммуникативной компетенции, её структурные компоненты, критерии оценки и педагогические условия развития в поликультурной образовательной среде. Подчёркивается, что успешное взаимодействие студентов определяется не только уровнем владения языком, но и межкультурной чувствительностью, уважением к иной позиции, умением слушать и готовностью к сотрудничеству. В работе рассматриваются такие средства оценки и поддержки, как наблюдение, рефлексивные задания, коммуникативные ситуации, проектная деятельность и интерактивные методы обучения. Обосновывается вывод о том, что системная работа в данном направлении способствует развитию культуры академического общения, повышению социальной адаптации студентов и росту эффективности образовательного процесса в вузе.

Ключевые слова: *мультикультурная группа, коммуникативная компетенция, оценка, поддержка, межкультурная коммуникация, высшее образование, интерактивные методы.*

Annotation: this article analyzes the theoretical and practical foundations for assessing and supporting communicative competence in multicultural student groups. The study explains the essence of communicative competence, its structural components, assessment criteria, and the pedagogical conditions necessary for its development in a multicultural educational environment. It is emphasized that successful student interaction depends not only on language proficiency but also on intercultural sensitivity, respect for different perspectives, listening skills, and readiness for cooperation. The article considers such tools as observation, reflective tasks, communicative situations, project-based activities, and interactive teaching methods. It is concluded that a systematic approach to assessing and supporting communicative competence contributes to the development of academic communication culture, strengthens students’ social adaptation, and improves the effectiveness of the educational process in higher education.

Key words: *multicultural group, communicative competence, assessment, support, intercultural communication, higher education, interactive methods*.

Kirish. Bugungi oliy ta’lim makonida auditoriya tobora ko‘proq til, madaniyat, kommunikativ odat va qadriyatlar jihatidan rang-baranglashib bormoqda. Bunday sharoitda talabaning muvaffaqiyati faqat predmet bilimiga emas, balki turli madaniy kodlar bilan to‘qnash kelganda o‘z nutqini moslashtira olishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Usmonova va Rixsiyeva “til bilishning o‘zi kommunikatsiya ishtirokchilari bir-birini tushunishlari uchun yetarli bo‘lmaydi” [1, c. 3], deb bejiz ta’kidlamaydi. Demak, multimadaniy talaba guruhlarida kommunikativ kompetensiyani baholash ham, qo‘llab-quvvatlash ham tilni bilish darajasidan kengroq maydonda ko‘rilishi lozim.

Kommunikativ kompetensiya mazmuni ham aynan shu kenglikni talab qiladi. Olloqova “kommunikativ kompetensiya”ni “ijtimoiy vaziyatlarda ... o‘zaro muloqotga kirisha olishni” hamda “hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini” qamrab oluvchi hodisa sifatida sharhlaydi [2, c. 183]. Shundan kelib chiqib, ushbu mavzuda asosiy ilmiy savol quyidagicha qo‘yiladi: multimadaniy talaba guruhlarida kommunikativ kompetensiyani qanday mezonlar asosida baholash va uni qanday didaktik mexanizmlar orqali izchil qo‘llab-quvvatlash mumkin?

Asosiy qism. Kommunikativ kompetensiyani tushuntirishda bir yoqlama yondashuv yetarli emas.

Olloqova I. L. Bim tasnifiga tayangan holda uni “lingvistik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy, kompensatsiya” tarkiblarida ko‘rsatadi [2, c. 183]. Bu yondashuv til birliklari, nutq faoliyati, madaniy moslashuv va kommunikativ bo‘shliqlarni to‘ldirish strategiyalarini bir butun tizimda ko‘rishga imkon beradi. Mazkur ikki nuqtai nazarni birlashtirganda, multimadaniy guruhdagi kommunikativ kompetensiya bilim, nutqiy amaliyot, xulqiy moslashuv, empatiya va vaziyatga mos strategiya tanlashni qamrab oluvchi integrativ sifat ekanligi ayon bo‘ladi.

Nazariy jihatdan eng katta xato kommunikativ kompetensiyani faqat grammatik to‘g‘rilik bilan tenglashtirishdir. Bunday qarash yozma nazoratda qulay ko‘rinishi mumkin, ammo real muloqotda yetarli emas. Bu holat multimadaniy auditoriya uchun ayniqsa xavfli, chunki bunday guruhda tushunmovchilik ko‘pincha grammatika emas, balki kommunikativ usul, ohang, ijtimoiy masofa, madaniy sezgirlik va vaziyatni noto‘g‘ri talqin qilishdan kelib chiqadi.

Shu sababli baholash modeli ko‘p mezonli bo‘lishi kerak. TILA (Tillararo va madaniyatlararo anglash testi) rubrikasi madaniyatlararo-kommunikativ kompetensiyani “noaniqlikka bag‘rikenglik”, “xulq-atvor moslashuvchanligi”, “kommunikativ sezgirlik”, “bilimlarni kashf etish”, “boshqa madaniyatlarga hurmat” va “hamdardlik” kabi mezonlar orqali tavsiflaydi [4, 1-3-b.]. Bu mezonlar shuni ko‘rsatadiki, talaba nafaqat gapira olishi, balki noaniqlikni bardosh bilan qabul qilishi, o‘z xulqini moslashtirishi, boshqa madaniyatni tushunishga ochiq bo‘lishi va kerak bo‘lsa muloqotni izohlash strategiyalarini qo‘llashi kerak.

Multimadaniy guruhda kommunikativ kompetensiyani baholash mezonlari

1-jadval

Mezoni	Mazmuni	Baholash vositalari	Qo‘llab-quvvatlash shakllari
Lingvistik-nutqiy	gapirish, tinglash, yozish, o‘qish integratsiyasi; aniqlik va ravonlik	og‘zaki suhbat, situatsion topshiriq, mini-dialog, kuzatuv	kommunikativ mashqlar, juftlik va kichik guruh dialoglari
Ijtimoiy-madaniy	boshqa madaniyat me’yorlarini tushunish, hurmat, stereotipni jilovlash	case-study, refleksiv yozuv, qiyosiy tahlil	madaniyatlararo muhokama, qiyosiy vazifalar
Pragmatik-adaptiv	noaniqlikka chidam, strategiya tanlash, xulqni moslashtirish	rubrika, rol o‘yinlari, peer-assessment	metakommunikatsiya, aniqlashtirish strategiyalari, simulyatsiya
Hamkorlik va empatiya	jamoada ishlash, tinglash, boshqa nuqtai nazarni qabul qilish	loyiha ishlari, portfolio, o‘qituvchi kuzatuvi	aralash guruhlar, debat, konferensiya, klub faoliyati

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, baholash bir vaqtning o‘zida uch savolga javob berishi kerak: talaba nima biladi, uni muloqotda qanday qo‘llaydi va boshqalar bilan aloqada o‘zini qanday tutadi. Masalan, ravon gapirishning o‘zi yetarli emas, chunki mazmuniy to‘g‘rilik va ijtimoiy moslik ham zarur. Xuddi shuningdek, madaniyat haqida bilimning o‘zi amaliy strategiyalarsiz yetarli bo‘lmaydi. TILA rubrikasida kommunikativ xabardorlikni muammolarni anglash, tushuntirish va soddalashtirish strategiyalari bilan bog‘lash bejiz emas [4, c. 2-3]. Demak, baholash mezonlari qanchalik real kommunikativ vaziyatga yaqin bo‘lsa, natija shunchalik ishonchli bo‘ladi.

Endi qo‘llab-quvvatlashning amaliy tomoniga murojaat qilamiz. Solovyova multimadaniy kompetensiyani rivojlantirishda “turli xil o‘yinlar, keys-tahlil metodi, portfolio metodi, loyihaviy va muammoli ta’lim metodlari” samarali ekanini ko‘rsatadi [3, c. 414-415]. Bundan tashqari, u debat to‘garagi, konferensiyalar, tanlovlar va ilmiy faoliyatning ham ijobiy ta’sirini qayd etadi [3, c. 415-416]. Bu juda muhim xulosa: kommunikativ kompetensiya alohida bir darsda emas, balki o‘quv va noo‘quv faoliyat birligida shakllanadi.

Shenning kuzatishlari ham shu fikrni tasdiqlaydi. Uning tadqiqotida multimadaniy sinf talaba uchun faqat auditoriya emas, balki “yashash va mehnat qilish muhiti” sifatida ishlaydi, ya’ni do‘stlik, hamkorlik va vazifani bajarishning real maydoniga aylanadi [5, c. 122-123]. Shuning uchun qo‘llab-quvvatlash faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanmasligi, talabaning kundalik o‘zaro aloqalarini ham pedagogik jihatdan boshqarishi kerak. Aralash tarkibli loyihalar, moderatorlik asosidagi muhokamalar va refleksiv topshiriqlar shu yerda asosiy vositaga aylanadi.

Muammo, yechim va natija modeli

2-jadval

Muammo	Pedagogik yechim	Kuzatiladigan natija
Talaba grammatik jihatdan tayyor, ammo real dialogda qiynaladi	og‘zaki diagnostika, situatsion topshiriq, rol o‘yini	ravonlik, aniqlik va vaziyatga mos javob berish kuchayadi

Muammo	Pedagogik yechim	Kuzatiladigan natija
Talaba boshqa madaniy me’yorni noto‘g‘ri talqin qiladi	refleksiv topshiriq, qiyosiy tahlil, case-study	stereotip kamayadi, hurmatli muloqot shakllanadi
Guruh ichida milliy yoki til asosida ajralish yuz beradi	aralash jamoa, loyiha, debat va hamkorlik vazifalari	talabalarning o‘zaro ishonchi va jamoaviy ishlash ko‘nikmasi ortadi
Baholash faqat yozma test bilan cheklanadi	rubrika, portfolio, peer/self-assessment, o‘qituvchi kuzatuvi	kompetensiyaning dinamikasi aniqroq ko‘rinadi
Qo‘llab-quvvatlash epizodik bo‘lib qoladi	dars, klub, konferensiya va amaliy faoliyatni bog‘lash	kommunikativ rivojlanish izchil va barqaror tus oladi

2-jadvaldagi ma’lumotlar bir muhim haqiqatni ko‘rsatadi: multimadaniy guruhdagi kommunikativ qiyinchiliklar ko‘pincha “bilmaslik”dan ko‘ra “moslashtira olmaslik” bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun yechim ham ko‘proq faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Masalan, yozma test talabaning lug‘at va grammatika darajasini ko‘rsatadi, ammo uning begona kommunikativ me’yor bilan to‘qnashganda qanday qaror qabul qilishini ochib bermaydi. Rubrika, kuzatuv va portfolio esa aynan jarayonni ko‘rsatadi. Banani og‘zaki baholashda ravonlik, talaffuz, lug‘at hamda grammatik tuzilmani alohida o‘lchash zarurligini ko‘rsatadi [6, c. 126]. Bu baholashni amaliyotga yaqinlashtiradi.

Jadvaldagi ikkinchi muhim nuqta qo‘llab-quvvatlashning uzluksizligidir. Usmonova va Rixsiyeva kommunikativ xatolar “muvaffaqiyatsizlikka” va hatto jiddiy to‘qnashuvlarga olib kelishi mumkinligini yozadi [1, c. 3]. Shu bois qo‘llab-quvvatlash faqat konflikt yuzaga kelganda emas, balki oldindan profilaktik tarzda tashkil qilinishi kerak. Solovyova tavsiya qilgan debat, case, loyiha, portfolio va ilmiy faoliyat shakllari aynan shunday profilaktik ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular talabaning kommunikativ tajribasini kengaytiradi [3, c. 414-416].

Mazkur tahlil asosida konseptual natija shuki, multimadaniy talaba guruhida kommunikativ kompetensiyani baholash va qo‘llab-quvvatlash bitta usul bilan emas, balki integral model bilan amalga oshirilgandagina samarali bo‘ladi. Bu modelda mezonli baholash, refleksiya, og‘zaki faoliyat, qiyosiy madaniy tahlil va jamoaviy ish bir-birini to‘ldiradi. Aks holda baholash formal, qo‘llab-quvvatlash esa epizodik bo‘lib qoladi.

Xulosa. Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlil shuni ko‘rsatadiki, multimadaniy talaba guruhlarida kommunikativ kompetensiya tor ma’nodagi til ko‘nikmasi emas. U nutqiy faoliyat, madaniyatlararo sezgirlik, xulqiy moslashuv, empatiya va jamoaviy hamkorlikni o‘z ichiga oluvchi kompleks sifatdir. Shu bois uni baholash ham ko‘p qatlamli bo‘lishi kerak. “Til bilishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi” [1, c. 3] degan fikr aynan shu xulosaning markazida turadi.

Tadqiqotning asosiy nazariy natijasi shundaki, kommunikativ kompetensiyani baholash mezonlari lingvistik to‘g‘rilik bilan cheklanmasdan, ijtimoiy-madaniy moslik, strategik moslashuv va empatik hamkorlikni ham qamrab olishi lozim. Asosiy amaliy natija esa shundaki, qo‘llab-quvvatlash uchun debat, rol o‘yini, case-study, portfolio, loyiha va refleksiv vazifalar uyg‘un qo‘llansa, multimadaniy guruhning o‘zi rivojlantiruvchi pedagogik makonga aylanadi. Solovyova ta’kidlagan “metodlar va ish shakli”ning samaradorligi ham, Shen qayd etgan multimadaniy sinfning rivojlantiruvchi roli ham shu fikrni mustahkamlaydi [3, c. 414-416; 5, c. 122-123].

Amaliy tavsiya sifatida shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida multimadaniy guruhlar uchun baholash tizimi uch ustunga tayansa maqsadga muvofiq bo‘ladi: og‘zaki vaziyatli diagnostika, rubrika asosidagi ko‘p mezonli kuzatuv va portfolio orqali dinamik monitoring. Qo‘llab-quvvatlash esa dars bilan cheklanmay, klub, konferensiya, ilmiy va loyiha faoliyatiga ulanib ketishi kerak. Ana shunda kommunikativ kompetensiya baholanadigan obyekt emas, rivojlantiriladigan va mustahkamlanadigan amaliy sifatga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonova Sh., Rixsiyeva G. *Madaniyatlararo muloqot*. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017.

2. Olloqova O‘. M. Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchining muloqot madaniyatini rivojlantirish omili // *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar*. 2023. № 8. 182–186-b.

3. Solovyeva S. V. Mezhkulturnaya kompetentnost’ studentov mezhdunarodnogo profilya kak predposylka k uspeshnoy professional’noy samorealizatsii // *Vyshéyshaya shkola*. 2025. № 4. S. 412–417.

4. *Assessing Intercultural Communicative Competence (ICC): Assessment Rubric*. TILA Project, 2015.

5. Shen L. *Developing Intercultural Communicative Competence of Home Students in a Multicultural Class in a University in Eastern China*. Doctoral thesis, 2022.

6. Banani S. A. Assessing the Communicative Competence of Advanced EFL Students at the Faculty of Education in Hodeidah University // *Arab World English Journal*. 2015. Vol. 6. No. 1. P. 123–131.

Dilshodbek DAVRONOV,
BuxDPI Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dilshodbek.gmail.com

ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MEDIATA’LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Ona tili darslarida integratsiyalashgan mediata’limning dars jarayonida ifodalanishi, bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy talablar axborot sohasi bilan chambarchas bog‘langanligi ma’lum bir o‘quv faniga integratsiyalashgan mediata’limning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish usullari to‘g‘risida atroflicha yondashish ilmiy jihatdan izohlab berilgan.

Kalit so‘zlar: *mediata’lim, onglilik va faollik prinsipi, multimediali elektron axborot resurslari, analiz-sintez, taqqoslash, aniqlash.*

Аннотация: в данной статье научно объясняется представление интегрированного медиаобразования в учебном процессе на уроках родного языка, а также способы определения целей и задач интегрированного медиаобразования по конкретному предмету, учитывая, что в современной глобализационной среде социальные потребности тесно связаны с информационной сферой.

Ключевые слова: *медиаобразование, принцип осознанности и активности, мультимедийные электронные информационные ресурсы, анализ и синтез, сравнение, уточнение.*

Annotation: this article scientifically explains the representation of integrated media education in the teaching process in native language lessons, the ways to determine the goals and objectives of integrated media education in a particular subject, given that in today’s globalization environment, social demands are closely linked to the information sphere.

Key words: *media education, the principle of awareness and activity, multimedia electronic information resources, analysis and synthesis, comparison, clarification.*

Kirish. Jahonda axborot makonining zararli ta’sirlaridan yosh avlodning ongini himoyalash va ularni intellektual jihatdan rivojlantirishda mediata’lim imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Avstraliya, Kanada, AQSh kabi bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mediata’lim yoshlarga real hayot va mediamatn o‘rtasidagi farq, medianing hayotdagi roli, axborotning tub mohiyatini anglash, medianing siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari va uning tilini o‘rgatishda alohida fan sifatida o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan. Mamlakatimizda ta’limga qaratilgan islohotlar natijasida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va axborot almashinish tizimlarini rivojlantirish, o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalari hamda dasturiy-pedagogik vositalarni integratsiya qilish, o‘quv-metodik ta’minotni yaxshilash bo‘yicha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu islohotlarni o‘qish savodxonligi o‘quv jarayoniga tatbiq etishda ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, ba’zi dolzarb muammolar ham paydo bo‘lmoqda. Bu muammolarga misol qilib, hozirgi paytda respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qish fanidan dars mashg‘ulotlari olib borayotgan o‘qituvchilarning ko‘pchiligida amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish zarurligi, o‘qish darsligida sohadagi eng so‘nggi kashfiyotlar haqida ma’lumotlarning kamligi, o‘qishdan kerakli ko‘rgazmali qurollarning yetishmasligini aytib o‘tishimiz mumkin. Bu muammolarni hal qilishda mediata’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida ona tili darslarini tashkil etishning nazariy asoslarini rivojlantirish bo‘yicha Sh.Egamberdiyev, I.Sattarov,B. Ahmedov, M. Mamadazimov, S. Nuritdinov, B.Mahmudov, S.Ilyasov, Ch.Sherdanov, Y.Po‘lotova, A.Husenovalar izlanishlar olib borgan. Ta’limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari A. Abduqodirov, B. Abdullayeva, M. Allambergenova, U. Begimqulov, I. Bilolov, M. Djorayev, X. Mahmudova, M.A. Mirzayeva, B. Sattarova, G. Umarova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida tabiiy fanlarni mediata’lim va innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish muammolari A. Jurin, L.Beloozerov, M.L.Varlakova, N.V. Dmitriyeva, O.M. Sevostyanova, N. Gomulina, N. Yemes, Y. Ikrennikova, Y. Yarmak, N. Sokolovalarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Xorijda o‘qish metodikasi sohasida D.A. Myuller, E. Brogt, S.J. Sleyter, M.K. Venger, X.J. Li, V.M. Shlingman, I. Xayer, K.I. Vilyamson, Sh. Gillett, Z.E. Bak, V.R. Aleksandr, D.J. Stork, A. Favia, P. Russo, A.R. Olmsted, T.S. Spak, D.A. Lyudovich, R.R. Lyudvig, X.M. Rodriges, F. Torrang kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ona tili darslarini tashkil etish muammolari bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy matn ustida ishlashda mediata’lim vositalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmagan. O‘qishni innovatsion yondashuv asosida o‘qitishda mediata’limdan vosita sifatida foydalangan holda, o‘quvchilarning badiiy matn haqidagi tasavvurlarini, ularning mediasavod-xonligi, mustaqil ishlash qobiliyalarini rivojlantirish bo‘yicha ham yetarlicha tadqiqotlar olib borilmaganligi aniqlandi. Yuqorida ko‘rsatilgan muammolarning aniqlanishi, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy matn ustida ishlashda mediata’lim vositalaridan foydalanish haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, ularni mediata’lim imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalangan holda o‘qish darslarida badiiy matn ustida ishlashga o‘rgatish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Tahlil va natijalar. Yosh avlodning ma’naviy kamolotida qadimdan nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berib kelingan. Xususan, Unsurul-Maoliy Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” nomli asarida farzandiga qarata shunday deydi: “... Ey farzand, so‘zning yuzin va orqasin bilg‘il va ularga rioya qilg‘il, har ne so‘z desang yuzi bila degil, to suxango‘y bo‘lg‘aysan. Agar so‘z aytib, so‘zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o‘xsharsankim, unga to‘ti derlar, ul doim so‘zlar, ammo so‘zning ma’nosin bilmas. So‘zni bag‘oyat ulug‘ bilg‘il, so‘z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdir. Qay bir so‘zniki bilsang, joyini o‘tkazmay aytkil, vaqtni zoe qilmagil, yo‘q ersa donishga sitam qilg‘on bo‘lg‘aysan. Har so‘z desang, rost degil va bema’nilikni da’vo qilguvchi bo‘lmag‘il”.





Texnologiyani qo‘llash bosqichlari:

1-bosqich. Ifodali o‘qish metodi yordamida nutq o‘stirish.

1. Matnni ifodali o‘qing.

Ona yer

Ibrohim Rahim

Maktabdan o‘z uyiga kelguncha Anvarjon duch kelgan jami narsalarni sinchiklab kuzatib keldi. So‘ng ayasiga murojaat qildi.

– Ayajon, ho, ayajon!

– Labbay, qo‘zichog‘im!

– Yer shuncha narsani bitta o‘zi ko‘taradimi?

– Bitta o‘zi ko‘taradi.

– Uylar... odamlar... tramvaylar... hammasini yer ko‘tarib turibdi. Beli og‘rimaydimi?

– Og‘rimaydi.

– Charchamaydimi?

– Charchamaydi. Bundan tashqari, yer meva-cheva beradi. Yeydigan nonimiz ham mana shu yerda bitadi. Shuning uchun biz uni ona yer deymiz.

Anvarjon ayasining shu gapidan keyin yerga yanada mehri ortganday, unga

mehribon boqadigan, yerni aziz deb biladigan, jahli chiqqanda yerni depsimaydigan bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Har tomonlama barkamol, erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari oldidagi ushbu vazifani to‘laqonli bajarish ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning bog‘lanishli nutqini talab darajasida o‘stirish bilan chambarchas bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Akromova G.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari: Ped.fan. nomz. ... diss. – T., 2007. 158 - b.

2.Babay*eva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi (tevarak-atrofni o‘rganish misolida)* – T.: Fan va texnologiya, 2009. 128 - b.

3.Djuray*ev R., Raximov B., Xolmatov Sh. Yangi pedagogik tex*nologiyalar. – T.: Fan, 2005. 66 - b.

4.Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. – T., 2001. 265 - b.

5.Mamatova G.A. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – TDPU. 2020. 49 - b.

6.Matchonov S., G‘ulomova X. Nutq madaniyati // Boshlang‘ich ta’lim j. – T., 2000. №1. 8–10-b.

Barno ABDURAHMONOVA,
Qo‘qon davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
Pedagogika fanlari nomzodi

NODIRA IJODINI O‘RGANISHDA O‘QUVCHILARNING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada 8-sinf adabiyot darslarida Nodira hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, matnni tahlil qilishi, badiiy vositalarni aniqlashi hamda obrazlar tizimini tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, maqolada Nodira g‘azallarini o‘qitishda “Tushun va bajar”, “Tushunchalar tahlili”, “Klaster”, “Tarmoqlar” hamda “Sindikat” kabi metodlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *interfaol metodlar, g‘azal tahlili, badiiy san’atlar, obrazlar tizimi, matn ustida ishlash, tarixiy manbalar, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы развития компетенции работы с информацией у учащихся в процессе изучения жизни и творчества Надиры на уроках литературы в 8-м классе. Автор освещает пути формирования у школьников навыков самостоятельного мышления, литературных текстов, дополнительных научных материалов и интерактивных методов обучения. В статье также раскрывается значение таких методов, как «Пойми и выполни», «Анализ понятий», «Кластер», «Сети» и «Синдикат» при изучении газелей Надиры.

Ключевые слова: *интерактивные методы, анализ газели, художественные средства, система образов, работа с текстом, исторические источники, эффективность обучения.*

Annotation: this article analyzes the development of students’ information-handling competence in the process of teaching the life and works of Nodira in 8th-grade literature classes. The author highlights effective ways of forming learners’ independent thinking, additional scholarly materials, and interactive teaching methods. The paper also reveals the significance of such methods as “Understand and Perform,” “Concept Analysis” “Cluster” “Networks” and “Syndicate” in teaching Nodira’s ghazals.

Key words: *interactive methods, ghazal analysis, poetic devices, system of images, text analysis, historical sources, teaching effectiveness.*

8-sinfda Mohlaroyim Nodira shaxsi va ijodi borasidagi ma’lumotlar o‘quvchilar uchun yangilik hisoblanadi. O‘qituvchi ana shu yangilikni o‘quvchilarga yetkazishda Nodira ijodi bilan bog‘liq tarixiy materiallarga murojaat qilishi, axborot manbalaridan foydalanishi darsning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Ulardagi 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligidan olgan “Qo‘qon xonligi tarixi” mavzusidagi “Oltin beshik” voqeasi bilan bog‘liq ma’lumotlarga tayanilishi Mohlaroyim temuriylar avlodidan bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur xonadonidan bo‘lganligini yana bir bor yodga olish imkonini beradi. Shoira bu haqda quyidagi baytida:

Siyodat xonadoni, shoxi Bobur nasli poki men,
Xudoyo, rahmat ayla, barcha ajdodi izomimni[1],

– deb o‘zining Bobur avlodidan ekanligini aytib faxrlanadi.

Ma’lumki, “Oltin beshik”[2] voqeasi Bobur shaxsi bilan bog‘liq bo‘lib, Qo‘qon xonligining shajarasi aynan undan boshlanishi ko‘plab olimlar tomonidan e’tirof etilgan.

O‘qituvchining o‘quvchilarga adabiyotshunos olima Mahbuba Qodirovaning “She’riyat va

1S. Eshonqulova. Tarixiy shaxs siymosi va badiiyat. – T.: Mumtoz so‘z nashriyoti 2013.
2 S. Eshonqulova. Tarixiy shaxs siymosi va badiiyat. – T.: Mumtoz so‘z nashriyoti 2013.

muhabbat malikasi” kitobini o‘qib kelishni topshiriq qilib berishi darslikda berilgan g‘azal matnidagi ifodalarni ular tomonidan oson o‘zlashtirish imkonini beradi.

Dastlab, adabiyot darsligida berilgan Nodiraning “Vasl uyin obod qildim...” g‘azali o‘qituvchi tomonidan maromiga yetkazib aruz vazni talablariga rioya qilgan holda ifodali o‘qib beriladi. So‘ngra o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘zi tomonidan berilgan qo‘shimcha topshiriqni, ya’ni adabiyotshunos olima Mahbuba Qodirovaning “She’riyat va muhabbat malikasi” kitobidagi Nodira hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy ma’lumotlar hamda xalq tomonidan yaratilgan Mohlaroyim va Umarxon bilan bog‘liq rivoyatlarni qay darajada o‘qib kelganliklarini tekshirib ko‘rish maqsadida Nodiraning “alfiroq” radifli g‘azalini ekran orqali ko‘rsatib, ifodali o‘qib beradi hamda g‘azal matnida radif bo‘lib kelgan “alfiroq” so‘ziga izoh beriladi. Bunda o‘qituvchining yordami kerak bo‘ladi. O‘qituvchi izohida “alfiroq” jumlasi arab tilidan olingan bo‘lib, “xayrlashish, xayr” degan ma’nolarni bildirishi, g‘azal matnida undov so‘z vazifasini bajarayotganligi aytib o‘tiladi. Mazkur g‘azal Umarxon vafoti munosabati bilan yozilganligi eslatiladi. So‘ngra boshqa so‘zlar izohi ham beriladi. Hijron – ayriliq, besaru somon – holi parishon bo‘lmoq, barqi vidoyi – ayriliq uchquni kabi. Ikkinchi topshiriq sifatida “Tushun va bajar” usuliga ko‘ra g‘azaldagi qofiyadosh so‘zlarni jadval tuzib, yozib chiqish vazifa qilib beriladi. Unga ko‘ra, qofiya vazifasini bajargan so‘zlarning qaysi tilga mansubligi ham o‘qituvchi yordamida aniqlanadi. Keyin o‘quvchilarni uch guruhga bo‘lib, ularga topshiriqlar beriladi. 1-guruhga g‘azaldagi so‘z va iboralar lug‘atini tuzish, g‘azaldagi badiiy san’atlarni aniqlash, 2-guruhga esa topshiriq sifatida “Tushun va bajar” usuliga ko‘ra “Alfiroq” radifli g‘azalidagi qofiyadosh so‘zlarning jadvalini tuzish vazifa qilib beriladi. Unga ko‘ra qofiya vazifasini bajargan so‘zlarning qaysi tilga mansubligini ham o‘quvchilar aniqlashlari zarurligi aytiladi. Bu vazifa o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida bajariladi. 3-guruhga har ikki g‘azaldagi obrazlarni “Tarmoqlar” usuli orqali aks ettirish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilardan belgilangan vaqt ichida berilgan topshiriqni to‘g‘ri va aniq bajarishlari talab etiladi.

O‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan “Sindikat” (yunoncha so‘z bo‘lib, birgalikda harakat qilish) texnologiyasi o‘quvchilarga mavzuni mustaqil o‘rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish asosida fikrini bayon qilish imkonini beradi. Har bir guruh berilgan topshiriq bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi. Jumladan, 1-guruh “Vasl uyin obod qildim...” g‘azalidagi so‘zlar lug‘atini aniqlashda “Tushunchalar tahlili” usulidan foydalanishi mumkin. Mazkur usul o‘quvchilar olgan nazariy bilimlarni bir tizimga keltirishni talab qiladi.

№	Tushuncha	Tahlili
1	Hijron	Ayriliq
2	Vayron	Vayron, xarob
3	Pinhon	Yashirin
4	Yolg‘on	Yolg‘on
5	Giribon	Yoqa
6	Shayx San’on	Porso sanamiga oshiq bo‘lgan shayx
7	Marjon	Marjon
8	Xurshidi tobon	Quyosh tobon (Umarxon)
9	Sulaymon	Payg‘ambar
10	Guliston	Gulzor (osuda hayot)

1-guruh o‘quvchilaridan biri esa g‘azaldagi badiiy san’atlarni jadval ko‘rinishida quyidagi tarzda ko‘rsatib beradi. Bunda tilshunoslikning leksikologiya bo‘limidan olgan bilimlarga tayanib, zid ma’noli so‘zlarni g‘azal matnidan ajratib oladilar.

Vasl – hijron	Obod – vayron	Oshkor – pinhon
Visol – ayriliq	Subh – tong	Dev – chumoli
Zohid		
Shayx San’on		
Sulaymon		

G‘azalning 5- baytida:

Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma’zur tut
Yor ko‘yida na bo‘ldi Shayx San’on oqibat.

misrasidagi Shayx San’on timsoli tarso qiziga oshiq bo‘lib qolgan Shayx obrazi bo‘lib, talmeh san’atini vujudga keltirganligi aytib o‘tiladi. Xuddi shunga o‘xshash ishora 8-baytda ham qo‘llanilganligini o‘quvchilardan biri o‘qib beradi.

Garchi bor edi musaxxar devlar farmonida
Poymol xayli mo‘r o‘ldi Sulaymon oqibat

Bu baytda Sulaymon payg‘ambarga ishora borligini, bu payg‘ambar haqidagi ma’lumotni 6-sinfda “Sulaymon va qarinchqa” hikoyati orqali o‘qiganligini eslash g‘azaldagi talmeh san’atini oson topishiga ko‘mak beradi. Biroq Shayx San’on timsoli o‘quvchilarga yangilik bo‘lgani uchun o‘qituvchi izohi kerak bo‘ladi. Muallimning izohidan so‘ng bolalar talmeh ham o‘xshatishning bir ko‘rinishi ekanligini anglab yetadilar.

Ikkinchi guruh o‘quvchilari topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin.

Qofiyadosh so‘z	Qofiyaning tuzilishiga ko‘ra turi	Qofiyaga olingan so‘z qaysi tildan olingan
Jonon	sodda	
Hijron	sodda	Arabcha so‘z
Vayron	sodda	
Besaru somon	birikmali	Forscha so‘z
Xurshidi tobon	birikmali	Forscha so‘z
O‘rtadi jon	birikmali	Forscha so‘z
Diydagiryon	birikmali	Forscha so‘z
Ahvolim parishon	birikmali	Forscha so‘z

G‘azaldagi “jonon”, “xurshidi tobon”, “nozanin”, “mahliqo” iboralari o‘z ma’nosida ishlatilmagan. Bu yerda shoira Umarxonni nazarda tutganligi aytiladi.

Uchinchi guruh tomonidan g‘azalda ifoda etilgan timsollarni “Klaster” usulida aniqlashlari vazifa qilib beriladi. G‘azalda qo‘llanilgan obrazlarni jadvalga to‘ldirish talab etiladi. Guruh o‘z javobini taqdimot qilib beradi. Dastlab adabiyot darsligidan o‘qigan Nodiraning “Vasl uyin obod qildim…” g‘azalidagi obrazlar tizimi asosida “Klaster” yaratadilar.



Xuddi shunday usulni shoiraning “Alfiroq” radifli g‘azali misolida mustaqil yaratadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Qodirova. She’riyat va muhabbat malikasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
2. S. Eshonqulova. Tarixiy shaxs siymosi va badiiyat. – T.: “Mumtoz so‘z” nashriyoti 2013.
3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik majmuasi. – T., 2014.
4. D.Ro‘ziyeva va b. Interfaol metodlar: Mohiyati va qo‘llanilishi. – T., 2014.

Nigora MIRZOYEVA,
SamDPI o‘qituvchisi
n_mirzoyeva@gmail.ru

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’RIFIY QARASHLARI ASOSIDA PEDAGOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tafakkurini rivojlantirishda jadid ma’rifatparvarlik harakati yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik merosidan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Muallif Behbudiy ilgari surgan dunyoviy va diniy fanlar uyg‘unligi, xotin-qizlar ta’limi, milliy qadriyatlar va yangi usul maktablari kabi g‘oyalarni zamonaviy ta’lim paradigmalari bilan qiyosiy tahlil qilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy tafakkurni shakllantirishning metodologik tamoyillari (tarixiylik, milliylik va universallik uyg‘unligi, aksiologik, refleksiv, faoliyatga yo‘naltirilganlik, integrativlik va innovatsionlik) tizimlashtirib berilgan. Maqola oliy pedagogik ta’lim mazmunini milliy meros asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik tafakkur, ma’rifiy qarashlar, ta’lim tamoyillari, milliy qadriyatlar, innovatsion ta’lim, aksiologik yondashuv, refleksivlik.*

Hozirgi kunda pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, pedagogik muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu jarayonda milliy pedagogik merosni chuqur o‘rganish va uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jadid ma’rifatparvarlarining ta’limga oid qarashlari bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifiy qarashlari asosida pedagogik tafakkurni rivojlantirishning mazmuni va tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslash pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalani o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish, ularning kasbiy tafakkurini boyitish hamda milliy pedagogik meros asosida innovatsion ta’lim yondashuvlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z zamonasining ilg‘or ma’rifatparvarlaridan biri sifatida ta’limni millat istiqbolining asosi deb bilgan. Uning pedagogik qarashlari nafaqat maktab va o‘qituvchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, balki ijtimoiy ong, ilm-fan va milliy taraqqiyot masalalarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvni namoyon etadi. Behbudiy fikricha, ta’lim inson tafakkurini shakllantiruvchi va jamiyatni uyg‘otuvchi kuchdir. Uning ta’limga oid g‘oyalari bir nechta muhim tamoyillar orqali ifodalanadi:

1. Dunyoviy va diniy fanlar uyg‘unligiga asoslangan ta’lim tizimi. Behbudiy maktab tizimini isloh qilishda ta’limni faqat diniy ma’lumotlar bilan cheklab qo‘yish xatoligini tanqid qilgan. U yangi maktablarda matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar kabi dunyoviy bilimlarning o‘qitilishini targ‘ib qilgan. Bunday yondashuv orqali shaxsni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, uning tafakkurini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida ilgari surilgan. Uning fikricha, ilg‘or tafakkurli, ilmli avlodgina jamiyatni jaholatdan olib chiqishga qodir bo‘ladi.

2. Ta’limning ma’naviy-tarbiyaviy funksiyasi. Behbudiy ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsiy va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli tarbiya vositasi sifatida ham ko‘rgan. U o‘qituvchining jamiyatdagi rolini juda yuqori baholagan: pedagog nafaqat o‘quvchiga axborot yetkazuvchi, balki milliy g‘urur, ijtimoiy mas’uliyat, erkin fikrlash va vatanparvarlik ruhini singdiruvchi yetakchi shaxs bo‘lishi lozim. Bugungi pedagogik amaliyotda bu qarashlar hozirgi ta’limiy maqsadlar bilan uyg‘unlashadi, ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida o‘z aksini topmoqda.

3. Ayollarni ta’limga jalb qilishning zarurligi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida eng dolzarb va murakkab bo‘lgan masalalardan biri – ayollarni o‘qitish masalasiga jiddiy yondashgan. U ayollarni ta’lim jarayoniga jalb etish orqali jamiyatning umumiy saviya va madaniyat darajasini oshirish mumkin, deb hisoblagan. Behbudiy ayollarni ilmli, ma’rifatli etib tarbiyalash jamiyatda sog‘lom oila, sog‘lom avlod, va nihoyat, sog‘lom millat shakllanishining asosi ekanini chuqur anglagan. Bu qarashlar hozirgi inklyuziv va gender tenglikka asoslangan ta’lim siyosatlari bilan uyg‘unlikda rivojlanmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’limni faqat bilim berish vositasi emas, balki millatning uyg‘onishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy, madaniy va siyosiy kuch sifatida baholagan. Uning qarashlarida ta’lim tizimining isloh qilinishi milliy tiklanish, ma’naviy yuksalish va erkinlik sari olib boruvchi asosiy yo‘nalish sifatida talqin etiladi.

4. Ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarning singdirilishi. Behbudiy yosh avlodni milliy an’analar, qadriyatlar va tarixiy o‘zlik asosida tarbiyalashni zarur deb hisoblagan. U o‘qituvchilar zimmasiga nafaqat ilm berish, balki o‘quvchilarga milliy o‘zlikni anglash, ona tilini qadrlash, tarixni bilish va ajdodlar merosini hurmat qilish kabi mas’uliyatlarni yuklagan. Bu yondashuv, bugungi kunda ta’limda kompetensiyaviy yondashuv va madaniy identitetni shakllantirish kabi konsepsiyalar bilan uyg‘unlashadi.

5. Ta’lim orqali mustamlakachilikka qarshi kurash. Behbudiy mustamlaka tazyiqiga qarshi kurashda kuch ishlatishga emas, balki aql, tafakkur va ma’rifatga asoslangan yo‘lni tanlagan. Uning fikricha, mustaqillikni ta’minlash va erkinlik ruhini shakllantirishning eng samarali yo‘li – bu ta’lim orqali xalq ongini uyg‘otishdir. U o‘qituvchilarni bu yo‘lda xalqni uyg‘otuvchi, o‘zlikni anglatuvchi, ijtimoiy adolat g‘oyalarini singdiruvchi shaxslar sifatida ko‘rgan. Ushbu yondashuv hozirgi milliy o‘zlik va istiqlol mafkurasining pedagogik asoslaridan biridir.

6. Yangi pedagogik metodlarni joriy qilish chaqirig‘i. Mahmudxo‘ja Behbudiy an’anaviy madrasaviy ta’limning cheklanganligini tushunar edi va shu sababli yangicha pedagogik usullarning joriy etilishini faol targ‘ib qilgan. U ilmiy asoslangan, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan va zamonaviy fan yutuqlariga tayanadigan ta’lim jarayonini yaratishni maqsad qilgan. Behbudiy nafaqat yangi usullarni taklif qilgan, balki ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ham o‘z tajribasini taqdim etgan. Bu tamoyillar hozirgi zamonaviy ta’limda – AKT vositalaridan foydalanish, STEAM yondashuvi, interfaol metodlar kabi yo‘nalishlarda o‘z aksini topmoqda.

Behbudiy o‘z davri uchun ilg‘or pedagogik konsepsiyani ilgari surgan bo‘lib, bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. U ilgari surgan tamoyillar – milliy qadriyatlarga tayanish, erkinlik g‘oyalarini singdirish va innovatsion ta’lim uslublarini joriy etish – hozirgi O‘zbekiston ta’lim tizimining asosiy strategik yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari Mahmudxo‘ja Behbudiy ilgari surgan ta’lim konsepsiyasi – zamonaviylik, ma’naviylik va tenglik prinsiplariga asoslangan bo‘lib, bugungi pedagogik qarashlar bilan hamohanglikda o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning qarashlari hozirgi ta’lim siyosati va metodologiyasida samarali foydalanilishi mumkin bo‘lgan boy nazariy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifiy qarashlari asosida pedagogik tafakkurni rivojlantirish jarayoni muayyan metodologik tamoyillar tizimiga tayanadi. Ushbu tamoyillar pedagogik tafakkurning kognitiv, aksiologik, refleksiv va faoliyatga yo‘naltirilgan komponentlarini tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarixiylik va vorisiylik tamoyili. Pedagogik tafakkurni rivojlantirish jarayonida jadid pedagogik merosi va zamonaviy pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ta’minlanadi. Behbudiy ma’rifiy qarashlari pedagogika tarixining muhim bosqichi sifatida talqin qilinadi va ular zamonaviy ta’lim paradigmalari bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Milliylik va universallik uyg‘unligi tamoyili. Pedagogik tafakkur rivoji milliy pedagogik qadriyatlar hamda global ta’lim kompetensiyalari sintezi asosida tashkil etiladi. Behbudiy qarashlaridagi milliy ma’rifatparvarlik g‘oyalari zamonaviy ta’limning universal tamoyillari bilan uyg‘unlashtiriladi.

Aksiologik yo‘naltirilganlik tamoyili. Pedagogik tafakkur rivojida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar muhim metodologik asos sifatida qaraladi. Behbudiy qarashlarida ta’limning maqsadi shaxsning ma’naviy kamolotini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgani sababli pedagogik tafakkur rivoji ham qadriyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Faoliyatga yo‘naltirilganlik tamoyili. Pedagogik tafakkur nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmay, ularni pedagogik faoliyat jarayonida qo‘llash orqali shakllanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar, pedagogik modellashtirish va amaliy topshiriqlar muhim o‘rin egallaydi.

Refleksivlik tamoyili. Pedagogik tafakkur rivoji o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati bilan bog‘liq. Refleksiv faoliyat pedagogik qarorlar samaradorligini aniqlash va kasbiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Tanqidiy va analitik fikrlash tamoyili. Pedagogik tafakkur rivojida pedagogik hodisalarni tanqidiy tahlil qilish, muqobil pedagogik yondashuvlarni baholash va asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyil pedagogik tafakkurning analitik xarakterini kuchaytiradi.

Integrativlik tamoyili. Pedagogik tafakkur rivoji pedagogika, pedagogik psixologiya, ta’lim falsafasi va pedagogika tarixi kabi fanlar integratsiyasi asosida amalga oshiriladi. Behbudiy ma’rifiy qarashlari mazkur fanlararo yondashuv orqali chuqurroq anglanadi.

Innovatsionlik tamoyili. Pedagogik tafakkur rivoji zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari va innovatsion metodlardan foydalanish orqali ta’minlanadi. Bu tamoyil jadid ma’rifiy g‘oyalarini zamonaviy ta’lim muhiti bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 464-б. (Мақоладаги миллий истиқлол ғояси ва таълим стратегияси йўналишлари учун)

2.Беҳбудий Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Б.Қосимов. – Тошкент: “Маънавият”, 2006. 280-б. (Беҳбудийнинг маориф ва мактаб ислоҳотига оид қарашлари манбаси)

3.Алиев А. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1994. 64-б. (Жадид маърифатпарварининг ижтимоий-педагогик фаолияти таҳлили учун)

4.Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Тошкент: “Маънавият”, 2002. 400-б. (Жадидчилик маориф тизими ва янги усул мактаблари тадқиқи)

5.Долимов У. Кичик баҳслар ва катта ишлар (Жадид матбуоти ва мактаблари тарихидан). – Тошкент: “Фан”, 2007. 180-б. (Анъанавий ва замонавий таълим усуллари қиёси учун)

6.Pedagogika tarixi. Олий ўқув юртлари учун дарслик / К.Ҳошимов, С.Нишонова ва б. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2005. 304-б. (Тарихийлик ва ворисийлик тамойили асоси сифатида)

7.Мавлонова Р., Тўраева О., Холиқбердиев К. Педагогика. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2010. 512-б. (Бўлажак ўқитувчилар касбий тафаккури ва педагогик моделлаштириш масалалари учун)

8.Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика назарияси. Дарслик. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2008. 288-б. (Таълимнинг мазмуни, тамойиллари ва аксиологик йўналишлари таҳлили)

9.Муслимов Н.А. Касбий шаклланишнинг назарий-методологик асослари / Монография. – Тошкент: “Фан”, 2007. 186-б. (Педагогларнинг рефлексив ва фаолиятга йўналтирилган тафаккурини ривожлантириш учун)

PSIXOLOGIYA

Dilnoza ABDIMO‘MINOVA,
Qarshi davlat universiteti
Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti
magistranti

O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA AYOL OBRAZINING PSIXOANALITIK TALQINI

Annotatsiya:maqolada “Tushda kechgan umrlar” asaridagi ayol obrazlari Freydning psixoanalitik nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Unda qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki konfliktlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, psixoanaliz, Freyd nazariyasi, ichki konflikt, ruhiy kechinma, badiiy tahlil, “Tushda kechgan umrlar”.*

Аннотация:в статье женские образы произведения «Tushda kechgan umrlar» анализируются на основе психоаналитической теории Фрейда. Рассматриваются духовные переживания героев, внутренние конфликты и в художественной интерпретации.

Ключевые слова: *женский образ, психоанализ, теория Фрейда, внутренний конфликт, духовные переживания, художественный анализ, «Tushda kechgan umrlar».*

Annotation:the article analyzes female characters in the work “Tushda kechgan umrlar” based on Freud’s psychoanalytic theory. It highlights psychological experiences of the characters, inner conflicts, and in artistic interpretation.

Key words: *female image, psychoanalysis, Freud’s theory, inner conflict, psychological experience, literary analysis, “Tushda kechgan umrlar”*

Badiiy adabiyotda inson ruhiyati, jamiyat hayoti va ma’naviy qadriyatlarni aks ettirishda ayol obrazi alohida estetik hamda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslikda ayol obrazini tadqiq etish masalasi nafaqat qahramon xarakterini tahlil qilish, balki muallifning badiiy-estetik konsepsiyasi, davr ruhiyati hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni yoritishda muhim ilmiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. Chunki ayol timsoli orqali insonning ruhiy olami, ma’naviy kechinmalari, oilaviy va ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qadriyatlari hamda hayotiy ziddiyatlari badiiy talqin etiladi.

Jahon va o‘zbek adabiyotida yaratilgan ko‘plab asarlarda ayol obrazi turli xil badiiy-estetik tamoyillar asosida tasvirlangan bo‘lib, unda ayolning jamiyatdagi o‘rni, ichki ruhiyati, orzu-intilishlari, fojiaviy taqdiri va ma’naviy jasorati yetakchi o‘rin egallaydi. Ayniqsa, zamonaviy adabiyotshunoslikda ayol obrazlarini psixologik, sotsiologik hamda psixoanalitik yondashuvlar asosida tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv ayol qahramon ruhiyatidagi ichki konfliktlar, ong va ong osti jarayonlari, ruhiy iztiroblar hamda individual xarakter xususiyatlarini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi.

O‘zbek nasrchiligida ham ayol obrazlari o‘zining badiiy mukammalligi va psixologik teranligi bilan ajralib turadi. Xususan, O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod, Abdulla Qodiriy singari adiblar asarlarida ayol timsoli orqali milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, insoniy sadoqat va ruhiy kechinmalar ta’sirchan ifodalangan. Bu obrazlar vositasida yozuvchilar inson qalbining murakkab jihatlarini ochishga, jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy muammolarni badiiy talqin etishga erishganlar. Shu jihatdan ayol obrazlarini ilmiy-estetik asosda o‘rganish adabiyotshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi ilmiy-nazariy qarashlar tadqiqotning metodologik asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalarni yanada chuqurroq yoritishda psixoanalitik yondashuv alohida ilmiy qiymatga ega bo‘lib, inson ruhiyati va ong osti jarayonlarini tadqiq etishda Zigmund Freyd nazariyasi muhim metodlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, badiiy asarlardagi ayol obrazlarini psixoanalitik asosda o‘rganish qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalari va konfliktlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tush motivi bilan bog‘liq ruhiy holatlar Freyd ta’limoti asosida yanada teran talqin qilinadi. Endilikda “Tushda kechgan umrlar” asaridagi ayol obrazlari Freyd nazariyasi asosida qiyosiy tahlil qilinadi.Freyd o‘z nazariyasida fe’l-atvorning shakllanishi va uning patalogiyasida boalalik davri kechinmalarini asos qilib qo‘ygani bejiz emas edi. Insonning ulg‘ayishi, ma’naviy kamol topishi va normal hayot kechirishida uning bolalik xotiralari, qanday, qayerda va qay holatda o‘sgani muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mavzuni davom ettirib, asardagi Shaxnoza obraziga to‘xtaladigan bo‘lsak, asarda Shaxnoza bostirilgan istaklar timsoli sifatida gavdalanadi. Freyd nazariyasiga ko‘ra, inson ruhiyati uch qatlamdan iborat:

Id – mayl doirasi, xohish, istak;
Ego (Men) – muvozanat, onglilik
Superego – jamiyat va axloq bosimi

Shaxnoza obrazi bir qaraganda, sodda, sabrli, sokin, ko‘p gapirmaydigan ayol sifatida gavdalanadi. Ammo psixoanalitik nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, uning xarakteridagi bu holatlar ruhiy osoyishtalik emas, balki bostirilgan ichki bo‘ronning natijasidir. Nazariyaga ko‘ra Id va Superego o‘rtasida tinimsiz va keskin qarama-qarshiliklar uzoq davom etsa, u nevrologik holatni yuzaga chiqaradi. Shaxnoza obrazida yana shu holatning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Undagi “Id” qatlam sevishni, sevilishni, ayol sifatida qadrlanishni va e’zozlanishni, ayol bo‘lib yashashni istaydi. Bu istaklar qandaydir axloqsizlik yoki noto‘g‘ri qarashlar emas, balki inson tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy hodisalardir. Ammo insonning normal, tinch hayotini urush sharoiti “nomaqbul” holatga keltiradi. Masalan, asarda shunday o‘rinlar ham borki, Shaxnoza ich-ichidan mehr, iliq munosabat kutadi, lekin bu ehtiyojni ovoz chiqarib aytolmaydi. Chunki u biladiki, u yashayotgan jamiyatda bu “ ortiqcha talab” , “nomunosib istak” . Bunga “Id” ning mavjudligi lekin ochiq ifodalanmasligi deb baho berishimiz mumkin. Hayotning bu tarzda davom etishi, uning ruhiyatidagi mavhumlik ong qatlamlarini yemiradi. Shaxnoza yorqin va faol bo‘lsa-da, ideal qahramon emas. U urushning ayol qalbida qoldirgan qorong‘i izi qurbonidir. Eng og‘ir travma bu – hayot davom etayotgandek, lekin, aslida, to‘xtab qolgan bo‘lishi. Shaxnozada ham shunday u yashayapti, lekin hayotini yashamayapti. O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” romanida Shaxnoza obrazi orqali urush sharoitida bostirilgan ayollik ehtiyojlari, kuchaygan ijtimoiy Superego va muvozanatsiz Ego natijasida yuzaga kelgan nevrologik ruhiy holatni ifodalaydi. U individual qahramondan ko‘ra, kollektiv ayol fojiasining psixoanalitik modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Shulardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, Shaxnoza obrazi individual xarakterdan ko‘ra, urush davrida shakllangan ayol ruhiyatining umumlashgan pasixoanalitik tipidir. Muallif obrazni individuallashtirishdan ko‘ra, ijtimoiy va ruhiy holatni umumlashtirishga intiladi, natijada Shaxnoza urush ayollari fojiasining badiiy timsoliga aylanadi. Shaxnoza obrazini Yung nazariyasi asosida talqin qilganda, unda “Soya” arxetipi faol ekanligi kuzatiladi. Ya’ni, bostirilgan istaklar va amalga oshmagan ehtiyojlar ong ostida to‘planib, ichki ziddiyatni kuchaytiradi. Shu bois Shaxnoza obrazi individual xarakter bo‘lish bilan birga, urush davridagi ayol nevrozining tipologik modelini ham ifodalaydi.

Qurbonoy xola obrazi esa Shaxnozadan farqli ravishda ruhiy muvozanatni saqlab qolgan ayol tipini namoyon etadi. Uning psixik strukturasi Id, Ego va Superego o‘rtasidagi nisbiy uyg‘unlik bilan xarakterlanadi.Id qatlamida onalik instinkti yetakchi o‘rin egallaydi. Bu instinkt destruktiv emas, balki himoyalovchi va saqlovchi xarakterga ega. Superego esa diniy e’tiqod, sabr, taqdirga tan berish kabi qadriyatlar asosida shakllangan. Muhim jihati shundaki, bu Superego jazolovchi emas, balki barqarorlashtiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi.Qurbonoy xola ruhiyatida sublimatsiya jarayoni kuzatiladi. Ya’ni, ichki og‘riq va yo‘qotish hissi vayronkor shaklga o‘tmay, ma’naviy kuchga aylantiriladi. Bu esa Ego barqarorligini ta’minlaydi. Yung nazariyasiga ko‘ra, Qurbonoy xola “Buyuk Ona” arxetipiga yaqinlashadi. U individual ayol emas, balki kollektiv sabr va bardoshlilik timsolidir. Shu bois mazkur obraz tip darajasiga ko‘tariladi.

Shaxnoza va Qurbonoy xola obrazlari romanda ayol ruhiyatining ikki xil psixologik reaksiyasini ifodalaydi:Shaxnoza — repressiya va ichki konflikt modeli; Qurbonoy xola — sublimatsiya va ma’naviy barqarorlik modeli.

Birinchisida Superego bosimi kuchli va jazolovchi xarakterga ega bo‘lsa, ikkinchisida Superego tasalli beruvchi kuchga aylangan. Shaxnozada nevrotik parchalanish kuzatilsa, Qurbonoy xolada ruhiy integratsiya mavjud.

Demak, muallif urush sharoitida ayol ruhiyati bir xil emasligini, balki individual psixik strukturaga bog‘liq holda turlicha shakllanishini ko‘rsatadi.

Qisqa qilib aytganda, Shaxnoza va Qurbonoy xola obrazlari psixoanalitik jihatdan qarama-qarshi, biroq bir-birini to‘ldiruvchi ruhiy modellardir. Shaxnoza obrazi urush sharoitida bostirilgan ayollik ehtiyojlari va ichki nevrotik konfliktni ifodalasa, Qurbonoy xola obrazi sublimatsiya va arxetipik onalik orqali ruhiy barqarorlikni namoyon etadi. Shu tariqa, muallif ayol psixologiyasini individual emas, balki tipologik darajada badiiy umumlashtiradi hamda tarixiy fojianing inson ruhiyatidagi aksini chuqur ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘ZME Birinchi jild. –Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-yil
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Muharrir, 2011
3. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. – T.: Fan, 1983.
4. O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” asari. Global books 2021
5. M.Qo‘chqorova “Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari” –T.: Muharrir, 2011

Шохиста СУЛТАНОВА,
профессор кафедры филологии образовательного университета Ренессанс, Ташкент, Шайхантахурский район, улица Курилиш, 19, Республика
Д.А.ПУЛАТОВА,
преподаватель кафедры современного русского языка Узбекского государственного университета мировых языков (г. Ташкент, Узбекистан)

ДВОЙНОЕ ПОСЛАНИЕ В СЕМЕЙНОЙ КОММУНИКАЦИИ КАК ОТРАЖЕНИЕ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ СПЕЦИФИКИ ЛИЧНОСТИ

(на примере фильма «Прибытие» / *Arrival*, реж. Дени Вильнёв).

Аннотация: в статье анализируется феномен двойного послания в семейной коммуникации на материале фильма «Прибытие». Исследование опирается на лингвопрагматический и когнитивный подходы, теорию коммуникации и гипотезу лингвистической относительности. Рассматриваются асимметрия знания, роль метаязыка и различия в восприятии времени. Показано, что двойное послание возникает из-за расхождения явного и скрытого смыслов, а также этнокультурных и когнитивных различий. Отсутствие метаязыковой рефлексии приводит к коммуникативным сбоям, однако возможно их экзистенциальное переосмысление и принятие опыта.

Ключевые слова: *двойное послание, семейная коммуникация, метаязык, лингвистическая относительность, этнокультурные особенности личности, прагматика коммуникации, когнитивные модели, интерпретация смысла, дискурс, фильм «Прибытие».*

Annotatsiya: maqolada oilaviy kommunikatsiyada ikkiyoqlama xabar fenomeni Denis Villeneuve rejissyorligidagi “Arrival” filmi materiali asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot lingvopragmatik va kognitiv yondashuvlar, kommunikatsiya nazariyasi hamda lingvistik nisbiylik gipotezasiga tayangan holda olib boriladi. Bilimlar assimetriyasi, metatilning roli va vaqtni idrok etishdagi farqlar ko‘rib chiqiladi. Ikkiyoqlama xabar ochiq va yashirin ma’nolar nomutanosibligi, shuningdek, etnomadaniy va kognitiv farqlar natijasida yuzaga kelishi ko‘rsatiladi. Metatil refleksiyasining yetishmasligi kommunikativ buzilishlarga olib keladi, biroq uni ekzistensial qayta talqin qilish va tajribani qabul qilish imkoniyati mavjud.

Kalit so‘zlar: *ikkiyoqlama xabar, oilaviy kommunikatsiya, metatil, lingvistik nisbiylik, shaxsning etnomadaniy xususiyatlari, kommunikatsiya pragmatikasi, kognitiv modellar, ma’noni talqin qilish, diskurs, “Arrival” filmi.*

Annotation: the article examines the phenomenon of the double bind in family communication based on the film *Arrival*. The study draws on linguopragmatic and cognitive approaches, communication theory, and the hypothesis of linguistic relativity. It addresses knowledge asymmetry, the role of metalanguage, and differences in temporal perception. The paper shows that the double bind arises from a discrepancy between explicit and implicit meanings, as well as from ethnocultural and cognitive differences. The lack of metalinguistic reflection leads to communicative breakdowns; however, the possibility of existential reinterpretation and acceptance of experience is demonstrated.

Key words: *double bind, family communication, metalanguage, linguistic relativity, ethnocultural features of personality, pragmatics of communication, cognitive models, meaning interpretation, discourse, Arrival.*

В современном гуманитарном знании семейная коммуникация рассматривается как сложная прагматическая система, в которой взаимодействуют вербальные, невербальные и метаязыковые уровни. Особую значимость в этом контексте приобретает феномен двойного послания, проявляющийся в ситуации расхождения между эксплицитным и имплицитным содержанием высказывания. В художественном дискурсе данный феномен получает яркое воплощение в фильме «Прибытие», где межличностная коммуникация оказывается тесно связанной с когнитивными и этнокультурными особенностями персонажей.

Концепция двойного послания, разработанная Грегори Бейтсон, предполагает наличие коммуникативной ситуации, в которой субъект получает противоречивые сигналы на разных уровнях взаимодействия [1, с.275]. В семейной коммуникации это противоречие зачастую не осознаётся участниками, однако проявляется в эмоциональном напряжении и нарушении взаимопонимания.

В фильме данная модель реализуется в отношениях Луизы Бэнкс и Иэна Доннелли. На уровне эксплицитной коммуникации их взаимодействие характеризуется гармонией: они демонстрируют взаимное уважение, интеллектуальную близость и эмоциональную

вовлечённость. Однако имплицитный уровень их общения оказывается существенно осложнённым асимметрией знания. Луиза, овладев языком гептаподов, приобретает способность воспринимать время как нелинейную структуру, в которой прошлое, настоящее и будущее сосуществуют одновременно. Это приводит к формированию новой когнитивной модели, отличной от привычной линейной логики восприятия [2, с.223].

В результате возникает специфическая форма двойного послания: на вербальном уровне Луиза транслирует любовь и принятие, тогда как на когнитивном уровне её действия уже обусловлены знанием будущей трагедии. Это знание остаётся невербализованным, что создаёт коммуникативный разрыв между партнёрами. Двойное послание в данном случае формируется не через прямое противоречие слов и жестов, а через расхождение когнитивных картин мира.

Особый интерес представляет анализ данного феномена в контексте этнокультурных особенностей личности. В широком понимании этнокультура включает не только национальные традиции, но и способы концептуализации реальности, закреплённые в языке и мышлении [3, с.135]. Освоение языка гептаподов фактически вводит Луизу в иную «культурную» систему, где время воспринимается как целостность, а не как последовательность событий.

Иэн, напротив, остаётся носителем линейной когнитивной модели, характерной для западной рационалистической традиции.

Его реакция на раскрытие истины – *“You knew everything, and you still chose to have her”«Ты знала всё наперёд, и всё же сделала этот выбор.»* – отражает именно эту модель: знание будущего интерпретируется как основание для рационального выбора, направленного на избегание страдания.

Особое значение имеет эпизод, в котором Луиза «вспоминает» разговор с китайским генералом, произносящим фразу: “In war, there are no winners, only widows.” («В войне нет победителей – есть только вдовы»). Эта сцена разрушает привычное представление о временной последовательности событий и демонстрирует, что для Луизы прошлое и будущее оказываются взаимопроникающими. В результате её коммуникация приобретает дополнительное измерение: она одновременно существует в разных временных плоскостях, тогда как её собеседники — нет.

Финальная реплика Луизы – “Despite knowing the journey and where it leads, I embrace it” («Даже зная, каким будет этот путь и куда он приведёт, я принимаю его») – позволяет увидеть трансформацию двойного послания. Если в отношениях с Иэном оно проявляется как источник конфликта и непонимания, то здесь противоречие между знанием и переживанием переосмысливается и становится основой экзистенциального принятия.

Таким образом, конфликт между персонажами можно рассматривать как столкновение двух этнокультурных парадигм: линейной (каузальной) и нелинейной (холистической).

Данное столкновение усиливается отсутствием метаязыковой рефлексии. Луиза не переводит свой опыт в категории, доступные Иэну, не осуществляет метакоммуникацию, которая могла бы снять или смягчить противоречие. В терминах прагматики это означает нарушение кооперативного принципа и недостаточность интерпретативных стратегий [4, с.45].

Следствием становится коммуникативный сбой, приводящий к разрыву отношений. При этом важно подчеркнуть, что данный сбой обусловлен не отсутствием чувств, а несовпадением способов их осмысления и выражения.

Вместе с тем фильм предлагает и более сложную интерпретацию двойного послания. В финале позиция Луизы демонстрирует возможность его экзистенциального преодоления: знание трагического исхода не отменяет ценности переживания, а, напротив, усиливает его значимость. Двойное послание трансформируется из деструктивного коммуникативного механизма в форму философского принятия, в которой противоречие между знанием и переживанием становится источником глубинного человеческого опыта.

В заключение следует отметить, что анализ фильма «Прибытие» позволяет рассматривать двойное послание не только как коммуникативный феномен, но и как проявление этнокультурных особенностей личности. Различия в когнитивных моделях, закреплённых в языке, оказываются решающим фактором в интерпретации смыслов и построении межличностных отношений.

Тем самым подтверждается, что успешная семейная коммуникация требует не только совпадения эмоциональных установок, но и наличия развитого метаязыка, позволяющего осмысливать и согласовывать различные картины мира.

Список литературы

1. Грегори Бейтсон. Экология разума. – М.: Смысл, 2000. – 476 с.
2. Эдвард Сепир. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – 656 с.
3. Бенджамин Ли Уорф. Язык, мысль и реальность. – М.: Прогресс, 1960. – 256 с.
4. Наталья Фатеева. Интертекст в мире текстов. – М.: КомКнига, 2007. – 280 с.
5. Михаил Гаспаров. Записи и выписки. – М.: НЛО, 2001. – 416 с.
6. Герберт Пол Грайс. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 16. – М.: Прогресс, 1985. – С. 217–237.

KICHIK TADQIQOT

Rushana SUBHONOVA,
BuxDU 1-bosqich magistranti
Sultanovarechel@gmail.com

LUTFIY LIRIKASIGA XOS BADIIY TASVIR VOSITALARI VA ULARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Lutfiy lirikasi tarkibida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari hamda ularning leksik xususiyatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir g‘azallarida uchraydigan metafora, tashbeh, istiora, tazod kabi poetik vositalarning funksional-uslubiy ahamiyati ochib beriladi. Ayniqsa, Lutfiy she’riyatida so‘z tanlash, leksik birliklarning semantik nozikliklari, ularning obraz yaratishdagi o‘rni va milliy-madaniy konnotatsiyalari alohida e’tiborga olinadi

Kalit so‘zlar: *badiiy tasvir vositalari, metafora, tashbeh, istiora, tazod, lingvopoetika, leksik xususiyatlar, semantika, poetik til, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik, badiiy mahorat.*

Annotation: this article analyzes the means of artistic imagery used in the lyrics of Lutfi on a scientific-theoretical basis, as well as their lexical features. The study reveals the functional-stylistic significance of poetic devices found in the poet’s gazals, such as metaphor, epithet, personification, and antithesis. Special attention is paid to word choice, the nuances of the semantics of lexical units, their role in creating images, and national-cultural connotations in Lutfi’s poetry.

Key words: *means of artistic imagery, metaphor, epithet, personification, antithesis, linguopoetics, lexical features, semantics, poetic language, imagery, emotional expressiveness, artistic mastery.*

Аннотация: в данной статье на научно-теоретической основе анализируются средства художественной образности, используемые в лирике Лутфия, а также их лексические особенности. В исследовании раскрывается функционально-стилистическая значимость поэтических средств, встречающихся в газелях поэта, таких как метафора, эпитет, олицетворение, антитеза. Особое внимание уделяется выбору слов, тонкостям семантики лексических единиц, их роли в создании образов и национально-культурным коннотациям в поэзии Лутфия.

Ключевые слова: *средства художественной образности, метафора, эпитет, олицетворение, антитеза, лингвопоэтика, лексические особенности, семантика, поэтический язык, образность, эмоциональная экспрессивность, художественное мастерство.*

Lutfiy o‘zbek mumtoz adabiyotining muhim vakillaridan biri bo‘lib, uning ijodi tilshunoslik, xususan leksikologiya nuqtayi nazaridan katta ilmiy ahamiyatga ega. Shoir g‘azallari o‘zining sodda, ravon va chuqur ma’noli uslubi bilan ajralib turadi. Shoir ijodi, ayniqsa, ishqiy lirika orqali inson ruhiyati, kechinmalari va ichki iztiroblarini badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalashi bilan ahamiyatlidir.

Lutfiy ijodi o‘ziga xos va serqirra, shuning uchun uni ijodiga qiziquvchilar ko‘pchilik tashkil etadi. Lutfiy haqida Zaki Validi, Ko‘pruluzoda va xususan, bizga zamondosh bo‘lib yashagan turk olimlari bir qator muhim tadqiqotlarni yaratdilar. Shoir devoni yuzasidan qator tadqiqotlar yaratilgan. Bu haqdagi ilk nazariy qarashlar o‘zbek adabiyotshunosligida ko‘pgina olimlar tomonidan yoritib berilgan. Lutfiy merosi va ayniqsa uning devonini o‘rganish hamda uni muxlislarga tortiq qilishda A. Fitrat, O. Sharafiddinov, H. Zarif, X. Rasulov, E. Fozilov, S. Erkinov, E. Ahmadxo‘jayev, B. Valixo‘jayevlar munosib hissa qo‘shdilar. “Mavlono Lutfiy”, “Turkiy nazmning sehrgari” kitoblari, Lutfiy asarlari qo‘lyozmalarining katalogi (E. Ahmadxo‘jayev), shoirning “Sensan sevarim” nomli g‘azallar to‘plami, “Lutfiyning voqeaband va yakpora g‘azallari xususida” maqolasi, “Malik ul-kalom mavlono Lutfiy” qo‘llanmasi, shoir g‘azallari, ruboiy, tuyuq va fardlari jamlangan “Devon” va boshqa bir qator adabiyotlarda shoir ijodiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Lutfiy g‘azalnavis sifatida Sharq adabiyotida barqarorlashgan adabiy-estetik an’analar bilan xalq og‘zaki ijodiyoti tajriba tamoyili va usullarini nihoyatda mohirlik bilan muvofiqlashtirgan. Shu boisdan ham uning g‘azallarida milliy his-tuyg‘ular nurlanib, insoniy dard, armon, qayg‘u va shodlik tasviri takrorsiz bir ta’sirchanlik kasb etgan. Lutfiy g‘azallarida, ruboiy, tuyuq, qit’a, fard va boshqa janrlardagi she’rlarida ham nafosat hissi shakllangan, did va saviyasi baland kishilarning – zukko va hayotsevar xalq vakillarining fikr-u tuyg‘ularini devonidagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning kasb-u holini tasvirlashdan iborat bo‘lsa-da, shoir deyarli har bir she’rida mavzuga yangicha yondashib, betakror ohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o‘xshamaydigan badiiy san’atlarni qo‘llaydi. Lutfiy devonida tashbeh, talmeh, tazod, iyhom, xususan, irsoli

masal san’ati namoyon bo‘lgan. Lutfiy ruboiy, tuyuq, qit’alarini ham san’at namunasi maqomiga ko‘tara olgan.

Yuqorida aytganimizdek, Mavlono Lutfiy g‘azallarida badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan. Xususan, shoirning “Halqa-halqa zulfkim” deb boshlanuvchi g‘azalida badiiy tasvir vositalari juda ko‘p o‘rinlarda foydalangan.

Halqa-halqa zulfkim, ul mohi tobonindadur,
Ching‘a boqsam, doldek xurshid aning yonindadur.

Ushbu baytda yorning zulfi halqa- sirtmoqqa o‘xshatilgan, yorning o‘zi esa qayta nomlash orqali oyga o‘xshatilgan bu ikki o‘xshatish yuzaga chiqarishda *istiora, takrir* badiiy san’atlaridan unumli foydalanilgan. Ushbu g‘azalning ikkinchi misrasida “ *Chinga boqsam*” degan birikmani ikki xil tushunish mumkin. 1-si Xitoy tomonga qarasam, 2-si esa chindan qarasam, yaxshilab qarasam, degan ma’no anglashiladi. Bu usul badiiy adabiyotda *iyhom ya`ni “shubhaga solish”* ma’noni ifodalaydi. “*doldek xurshid*” ushbu birikmada ham *tashbeh*, ham *mubolag‘a*, ham *tajnis* badiiy san’atlaridan foydalanilgan.

G‘olibokim, Yusuf Misriy tushunda ko‘rmadi,
Ul halovatlarki, la’li shakkar afshonindadur.

Ushbu baytda Yusuf payg‘ambarni tilga olish orqali o‘z holatini Yusufga qiyoslayotgani, shohlikka erishib ham halovat topmaganini ta’kidlamoqda. Badiiy tahlilda mashhur shaxslarni keltirish *talmeh* san’atini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, shoir ushbu g‘azalida yuqoridagi badiiy tasvir vositalari bilan birga *ta’did, litota, tazod* badiiy vositalardan foydalangan. Ushbu g‘azalda Lutfiyning so‘z qo‘llash mahoratiga, so‘zlarning semantik xususiyatlarining ahamiyati qanchalar yuqori ekanligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Zarratek tor og‘izdin qaydin topilsun bizga kom?
Kim, kalom ahli aql derlarki: «Yo‘q sonindadur».

Ushbu baytni tahlilga tortganda, yorning og‘zi haddan tashqari kichikligi guvohi bo‘lamiz, ushbu *“Zarratek tor og‘izdin”* birikmasida *litota* badiiy tasvir vositasidan qo‘llanilgan. Bilamizki, litota badiiy san’ati mubolag‘a badiiy san’atining aksi, ya’ni *mubolag‘a* – “*bo‘rttirish*” bo‘lsa, *litota* esa haddan tashqari “*kichraytirish*” va ushbu tasvir vositasini qo‘llash orqali shoir yorning og‘zi ko‘rinmayapti, undan so‘z qanday chiqsin, bu usul badiiy adabiyotda *tajohil-u orif* - “*bilib bilmaslikka olish*”, ya’ni oshiq buni bilsa ham yana so‘rayapti. Bu baytdan ko‘rinib turibdiki, shoir so‘z qo‘llash mahorati tahsinga loyiq va bu so‘zlar turli tillarda berilishiga qaramay, o‘z o‘rnida, soda va tushunarli usulda bayon qilingan. Shuningdek, shoirning g‘azallarida turkiy so‘zlardan tashqari, arabiy va fors-tojikcha so‘zlardan ham foydalangan.

Masalan:

Turkiycha:oraz, dudog‘,ol, ochun

Arabcha: mus’haf, dol, oyat, zulumot, hijron, yo, husn, la’l, musulmon, jamol, bahr

Fors-tojikcha: kalom, kom, shakkar, afshon, paymon, sho‘x, shang, devona, kon, dilrabo, halovat, yuz, pinhon, fitna, zulf,sheva kabi so‘zlardan foydalangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Lutfiy ijodida fors-tojikcha so‘zlar salmog‘i qolgan tillardagi so‘zlarda ortiq ekanligi ayon bo‘ladi. Shoir lirikasida mohirlik, so‘zlarni o‘rinli qo‘llay olish, turli tillardagi so‘zlardan foydalanish orqali so‘zni badiiy jozibasini oshirishda va uning badiiy so‘zlarni qo‘llashdagi estetik ta’siri nihoyatda kuchli ekanligida namoyon bo‘ladi

Lutfiy lirikasi o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak namunalaridan biri sifatida badiiy tasvir vositalarining rang-barangligi va leksik boyligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shoir ijodida metafora, tashbeh, istiora, tazod, talmeh va mubolag‘a kabi poetik vositalar nafaqat estetik bezak vazifasini bajaradi, balki chuqur ma’no ifodalash, obraz yaratish va o‘quvchi hissiyotiga ta’sir etishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu vositalarning qo‘llanishi Lutfiy she’riyatining obrazliligi va emotsional-ekspressiv kuchini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, Lutfiy lirikasi leksik jihatdan ham nihoyatda boy va rang-barangdir. Unda umumxalq tiliga xos sodda va ravon birliklar bilan bir qatorda arxaik so‘zlar hamda fors-tojik unsurlarining uyg‘un qo‘llanishi kuzatiladi. Bu esa shoir tilining nafaqat tarixiy, balki madaniy qatlamlarini ham namoyon etadi. Leksik birliklarning nozik semantik jihatlari badiiy tasvir vositalari bilan uyg‘unlashib, she’riy matnda o‘ziga xos poetik tizimni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Lutfiy lirikasi tilida badiiy tasvir vositalari va leksik tanlov o‘zaro chambarchas bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Aynan shu uyg‘unlik shoir ijodining badiiy mukammalligini ta’minlab, uning asarlarini o‘zbek adabiy merosining bebaho durdonalaridan biriga aylantiradi. Mazkur mavzuni lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganish esa kelgusida mumtoz adabiyot tilini yanada chuqurroq anglash va tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfiy. Sensan sevarim. – T., 1987-yil
2. X.Zarif. Lutfiy va Navoiy. Kitobda: Ulug‘ o‘zbek shoiri. – T., 1948
3. Yo’ldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.dokt...dis. – Toshkent, 2009.
4. Yo’ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Qurbonova M. va Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: “Universitet”, 2014.
6. Asadov T. Matn tilshunosligi. – Buxoro: “Ipak yo‘li”, 2025.

Ruxsora LUQMONOVA,
TOSHDO‘TAU 2-kurs magistranti
luqmonovaruxsora@gmail.com

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA OTA OBRAZINING SHOIR RUHIYATI BILAN UYG‘UN IFODASI (“YARIM ASR DEVONI” KITOBI ASOSIDA)

Annotatsiya: maqolada Sirojiddin Sayyidning “Yarim asr devoni” asaridan olingan ota obrazi, ota kechinmalari qalamga olingan she’rlar tahlilga tortilgan. Ota obrazini yaratishda shoir badiiy detallardan, ramziy obrazlardan unumli foydalanadi. Otasining kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini anglashga, uning dardini o‘ziki qilishga urinadi shoir.

Kalit so‘zlar: *ota, Sirojiddin Sayyid, “Yarim asr devoni”, To‘polondaryo, chopon detail*

Аннотация: в статье анализируется образ отца из стихотворения Сироджиддина Сайида «Ярим аср дивани» и стихотворений, отражающих переживания отца. При создании образа отца поэт эффективно использует художественные детали и символические образы. Поэт пытается понять переживания и душевные муки своего отца, сделать его боль своей собственной.

Ключевые слова: *отец, Сироджиддин Сайид, «Ярим аср дивани», Тополондарьо*, деталь плаща

Annotation: the article analyzes the image of the father from Sirojiddin Sayyid’s “Yarim asr divani” and poems that capture the father’s experiences. In creating the image of the father, the poet effectively uses artistic details and symbolic images. The poet tries to understand the experiences and mental anguish of his father, to make his pain his own.

Key words: *father, Sirojiddin Sayyid, “Yarim asr divani”, Topolondaryo, detail of a cloak*

Ota va ona obrazi qaysi davrda bo‘lmasin, o‘z ahamiyatini, dolzarbligini yo‘qotmaydigan mavzulardan biridir. Shoir ijodida ota obrazi ham o‘ziga xos tarzda gavdalantirilgan.Urush qatnashchisi bo‘lgan otasini o‘y-xayollar girdobida, nimadandir doim bezovta holda tasvirlar ekan, shoir otasining hissiyotlarini tushunishga, sharhlashga urinadi. O‘zining ham ota-onasining ham ichki dunyosini yuksak badiiylik bilan aks ettiradi. Shoirning “Olis chinqiriqdan uyg‘ondim nogoh...”deb nomlangan she’rida otasining vafot etganini eshitgan farzand ruhiyatini ifoda etadi.

Olis chinqiriqdan uyg‘ondim nogoh,
Qaradim: tegramda biror odam yo‘q.
“Uvv-uvv” yig‘i keldi Surxondaryodan:
“Otam yo‘q, akajon, endi otam yo‘q!”

Olis chinqiriqdan uyg‘onish faqat ko‘ngil sezgisi bilan bo‘ladi. Inson yaqinlariga bir nima bo‘lganini o‘ziga ma’lum bo‘lgan hislar-la sezadi. Bu vaqtda esa inson o‘zini yolg‘iz sezadi. Dardini tinglaydigan odam izlaydi. Otasining vafot topmish xabarini olgach, o‘zini ilk bor g‘aflatda qolgandek his etadi:

G‘aflatda qolgandim ilk bor umrimda,
Endi kechalari uyqu kelmaydi.
Endi to‘polonsiz oqar To‘polon,
Otamni o‘ylayman u-ku kelmaydi.
Biroq tunlarimning tubi-tubida
Cho‘kkan ko‘zlardayin bedor unlar bor.

Otasidan ayrilgach, butun dunyo huvillab qolgandek, har yer tinchib qolgandek his etadi. Hatto To‘polondaryo ham. Otasining yodi ila tunlarini bedor kechiradi.Otasi qaytib kelmasligini aqlan his etsa-da, qalbi tan olishni istamaydi. Insonning o‘zigagina tegishli tunlari bor.O‘zi bilan o‘zi suhbat quradigan, o‘z hislari bilan yolg‘iz qoladigan tunlari bo‘ladi.Lirik qahramon ham taqdir ishiga bosh egarkan, ammo o‘sha tunlarning tub-tubida otasining xotirasi bilan bog‘liq hislar hali-hamon lirik qahramon ruhini tark etmaydi.

Ota, bu dunyoda har so‘z sotildi.
Begona sotildi ham do‘st sotildi.
Yaxshilik istabon o‘tgan umringiz
Choponday eskirdi, to‘zdi, sitildi.

Dardni otaga aytish, u bilan dardlashish kam uchraydi. Dardkash deganda birinchi yodimizga keladigani ona obrazi. Faqatgina eng oliy dardlargina otaga aytilishi mumkin. Lirik qahramon holatini kuzatadigan bo‘lsak, dunyodagi biror so‘zning qadri qolmagani, so‘z deyishga loyiq bo‘lgan barcha tushunchalarning qadri yo‘qolganidan, do‘stdan ham, begonadan ham yaxshilik ko‘rmagan, dardlasha oladigan insonlari yo‘q ekanligidan kuyunayotgan insonni ko‘rishimiz mumkin.

Chopon detali ushbu she’rda umrining boshqalar uchun bor-budini bergan, ammo qadr ko‘rmagan, shuncha mashaqqatiga yarasha qadr topmagan inson hayotini ifodalab kelgan, deyish mumkin. Chunki yaxshi insondan hamma o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga urinadi. Yetarlicha foydalanib bo‘lgach esa eski chopondek bir chetga uloqtiradi.

Qanday o‘g‘il bo‘ldim sizga, qanday jigar,
Mendan avval bahor sizdan olgay xabar.
Maysa bo‘lib ko‘karib ham, ota, yana,
Menga taskin bermoqdasiz bu tong sahar.

She’rda tong chog‘i ota qabrini ziyorat qilayotgan farzand kechirayotgan his-tuyg‘ularning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Birinchi misradagi savol javob kutish uchun emas, balki ichki kurash, o‘z-o‘zini tahlil etish va pushaymonlikni ifodalash uchun xizmat qiladi. O‘tmishni sog‘inish, o‘tib ketgan ishlar uchun afsuslanish insoniyatga xos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi.Vaqtida ko‘rsatilmagan mehr, vaqtiga amalga oshirilmagan ishlar fursat boy berilgach, nishtar bo‘lib inson qalbiga sanchiladi. She’rda otasidan ko‘pda xabar ololmagan, o‘z hislarini ifoda etolmagan farzand obrazini ko‘rishimiz mumkin. “Qanday o‘g‘il bo‘ldim sizga, qanday jigar” misrasidan anglashiladiki, farzand o‘zini so‘roqqa tutadi, taftish qilishga urinadi. Shoirning “mendan avval bahor sizdan olgay xabar” misrasi orqali bahor ota ziyoratiga o‘g‘ildan oldin “yetib kelgani”, qabrni gulu maysalar bilan bezaganini ifoda etadi. Keyingi misrada esa bu maysalar, aslida, otasining o‘zi, farzandining qalbiga taskin, orom berish uchun bo‘y ko‘rsatganiga ishonadi lirik qahramon.

She’rda bahor go‘zallik, yangilanish barobarida har nening o‘tkinchi ekanligiga ishora bo‘lib kelgan bo‘lsa, maysa tiriklik, qayta tug‘ilish, sinovlar qarshisidagi bardosh kabi ramziylikni tashiydi.Ota va farzand ruhining birlashuv zamoni sifatida tong saharning tanlanishida ham ramziylik bor: tong chog‘i kunning eng musaffo qismi hisoblanadi. Shu sababdan ham bu diydor onlariga guvoh bo‘lishga tonggina munosib, tongina haqli.Shoir o‘limni intiho emas, balki boshqa bir ko‘rinishdagi boshlanish, ya’ni ibtido sifatida ko‘radi.

Shoirning “Ota, men haqimda gapirib bering…” deb nomlanuvchi she’rida ham ota va o‘g‘ilning biroz falsafiy, biroz mistik munosabatlari, asosan, o‘g‘ilning kechinmalari qalamga olinadi.Otaning munosabati sezilmaydi.Ammo ota va farzand o‘rtasidagi mustahkam ishonchga asoslangan aloqalar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ota, men haqimda gapirib bering
Meni so‘rab kelganlarga, yo‘qlaganlarga.
Hech kimga bildirmay xonamga kiring,
O‘zim chizib ketgan o‘z suratimga,
Ota, men haqimda gapirib bering.

Yuqoridagi she’rda o‘lim yoki lirik qahramonning zamonu makonga aloqasi ochiq aytilmaydi. Ammo “men haqimda gapirib bering”, “so‘rab kelganlarga, yo‘qlaganlarga” kabi satrlar lirik obrazning voqea sodir bo‘layotgan vaqt va zamondan tashqarida ekanligini anglatadi.Voqealarga to‘g‘ridan to‘g‘ri aralasha olmaydi (balki, xohlamaydi), otasidan iltimos qiladi. Xo‘sh nega aynan otadan? Chunki ota deganda hissiyotlarga ko‘pda o‘rin bermaydigan, tuyg‘u bilan emas, aql bilan qaror beradigan inson gavdalanadi. Bu mas’uliyatni otasiga yuklashi shundandir, balki. Inson o‘z suratini o‘zi chizishini esa o‘zligini anglashga urinishi sifatida baholash mumkin. Surat lirik qahramonning o‘zi yashab o‘tgan umri, qilgan ishlarining ramzi hisoblanadi. Surat ma’lum bir vaqtning, kayfiyatning qotib qolgan, turg‘un shaklidir. Bundan kelib chiqadiki, lirik qahramon bu dunyoga oid emas yoki foniy dunyoni tark etgach, nimalar bo‘lishini tasavvurida jonlantirishga urinmoqda. O‘yga toldiradigan yana bir jihat – lirik qahramon otasining surat joylashgan xonaga hech kimga bildirmasdan, yolg‘iz kirishini istaydi va o‘zi tomonidan chizilgan suratga o‘zi haqida gapirib berishini so‘raydi. Xona – shaxsiylik, shoirning ichki olamining ramzi hisoblanib, unga faqat ota kirishi mumkin. Hech kimga bildirmasdan kirishini so‘rash esa o‘z kechinmalarini, hislarini barchadan himoya qilish istagi natijasidir. Zero, ota himoyachidir. She’rda o‘zini anglashga, topishga urinayotgan o‘g‘ilning kechinmalari aks etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ruhim xaritasi”. She’rlar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984-yil.
2. “Ko‘ngil sohili”. To‘rtliklar. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004-yil.
3. “So‘z yo‘li”. Ikki jildlik tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2008-yil.
4. “Mening to‘rtliklarim”, “Мои четверостишия”. O‘zbek va rus tilida. “Mashhur-press” nashriyoti, 2019-yil.
5. https://kh-davron.uz
6. https://tafakkur.net

Saida ISOQJONOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti
saida.isoqjonova@gmail.com

O‘TKIR HOSHIMOVNING “JINTEPA” HIKOYASIDA TABIAT TASVIRINING BADIIY-PSIXOLOGIK FUNKSIYASI VA INSON RUHIYATI UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘tkir Hoshimov asarlarida tabiat tasviri va inson ruhiyati o‘rtasidagi badiiy-psixologik uyg‘unlik masalasi tahlil qilindi. Xususan, “Jintepa” hikoyasi misolida peyzaj unsurlarining qahramon ichki kechinmalarini ifodalashdagi o‘rni va badiiy-estetik funksiyasi yoritildi. Tadqiqot maqsadi peyzaj vositasida qahramon ruhiyati ifodalanishini tahlil qilish, tabiat tasviri va inson ichki kechinmalari o‘rtasidagi uyg‘unlik ochib berishdan iborat. Mazkur tadqiqotda peyzajning badiiy funksiyalari va yozuvchining psixologik tahlil mahorati ilmiy asoslab berildi.

Kalit so‘zlar*: O‘tkir Hoshimov, peyzaj, badiiy tasvir, bolalar ruhiyati, ramziylik, psixologizm.*

Annotation: the article highlights the artistic and aesthetic function of the image of nature through Utkir Hoshimov’s story “Jintepa.” The expression of the hero’s psyche through landscape was analyzed. The harmony between the image of nature and the inner experiences of man was revealed. In this study, the artistic functions of the landscape and the writer’s skill in psychological analysis were scientifically substantiated.

Key words: *Utkir Hoshimov, landscape, artistic image, children’s psyche, symbolism, psychologism.*

Аннотация: в статье освещена художественно-эстетическая функция изображения природы через рассказ Уткира Хашимова «Жинтепа.» Проанализировано выражение психики героя посредством пейзажа. Выявлена гармония между изображением природы и внутренними переживаниями человека. В данном исследовании научно обоснованы художественные функции пейзажа и мастерство психологического анализа писателя.

Ключевые слова: *Уткир Хошимов, пейзаж, художественный образ, детская психика, символизм, психологизм*

Kirish.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy matnda tabiat tasvirining funksional imkoniyatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, inson ruhiyati hayotiy va realistik tasvir orqali ochib berilishini, tabiat tasviri esa bu jarayonda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi [4]. Peyzajning nafaqat dekorativ unsur, balki semantik va psixologik yuklama tashuvchi komponent sifatidagi talqini ilmiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, O‘tkir Hoshimov ijodida inson ruhiyati va tashqi muhit o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik yetakchi badiiy prinsip sifatida namoyon bo‘ladi. “Jintepa” hikoyasi bu jihatdan muallifning psixologik realizmga xos yondashuvini yaqqol ifoda etuvchi asarlardan biridir. Asar bu jihatdan alohida ilmiy tahlilni talab qiladi, chunki unda tabiat voqealar rivojiga faol ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi – hikoyada peyzajning badiiy va psixologik funksiyalarini aniqlash hamda uning matndagi semantik yukini, inson ruhiyatiga ta’sirini ochib berishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: hikoyada tabiat tasvirining qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash, peyzaj orqali berilgan ruhiy holatlarni tahlil qilish, tabiat va inson o‘rtasidagi badiiy parallelizmni ochib berish.

Asosiy qism.

Peyzajning badiiy-estetik funksiyasi – “Jintepa” hikoyasida tabiat tasviri an’anaviy fon vazifasidan chiqib, mustaqil badiiy komponentga aylanadi. Peyzaj voqealar rivojiga faol ta’sir ko‘rsatadi va asarning umumiy emotsional fonini belgilaydi. Muallif tabiat orqali dramatik keskinlikni kuchaytiradi, qahramonning ichki kechinmalarini tashqi muhit bilan uyg‘unlashtiradi. Shu jihatdan peyzaj badiiy ekspressivlik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, hikoya boshida tabiat osoyishta tasvirlanadi: “Havo musaffo. Oyoq ostida qo‘qigullar, bo‘takko‘zlar ochilib yotibdi”. Bu tasvir voqeaning boshlang‘ich muvozanatini ifodalaydi. Keyinchalik esa keskin o‘zgarish yuz beradi: “Qop-qora bulutlar boshimiz ustidan shiddat bilan suzib o‘tardi”. Mazkur o‘zgarish voqealar dramatizmini kuchaytiradi va syujet rivojida burilish nuqtasini hosil qiladi.

Peyzaj va psixologizm uyg‘unligi – hikoyada tabiat tasviri psixologik parallelizm asosida qurilgan. Qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishlar tabiatdagi holatlar bilan mutanosib tarzda ifodalanadi. Hikoyada tabiat tasviri qahramonlarning ichki kechinmalari bilan chambarchas bog‘langan. Xususan, momaqaldiroq sahnasida bolalar qo‘rquvi kuchayadi: “Chaqmoq yarq etdi-yu, momaqaldiroq

gumburladi”. Bu yerda tashqi tabiat hodisasi ichki psixologik holatni ifodalaydi. Natijada peyzaj psixologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyada bolalar ongidagi qo‘rquv va xayolot muhim o‘rin tutadi. Chunki bolalar ongida mifologik tasavvur “Jintepa haqida vahimali gaplarni eshitaverib...” mavjud. Natijada tabiiy hodisa g‘ayritabiiy tarzda talqin qilinadi: “Sochingdan olov chiqib ketdi”. Bu holat bolalar tafakkurining xususiyatini – real voqeani xayoliy shaklda qabul qilishini ko‘rsatadi.

Dramatizm va kulminatsiya – asarning kulminatsion nuqtasi chaqmoq tushgan sahna. Bu yerda: tabiat kuchi maksimal darajada namoyon bo‘ladi, qahramonlarning qo‘rquvi cho‘qqiga chiqadi “Adhamning sochlari tikka-tikka bo‘lib ketgan...”. Ammo yakunda voqea real izoh topadi: “Hech qayerimiz yonmagan” [2]. Bu yechim realizm tamoyiliga mos keladi.

Realizm va ilmiy asos – hikoyadagi “sochning tikka turishi” hodisasi ilmiy jihatdan statik elektr bilan izohlanadi. Bu esa muallifning realizmga sodiqligini ko‘rsatadi. Ya’ni qo‘rquv hissi subyektiv bo‘lsa-da, hodisaning o‘zi obyektivdir.

Badiiy asarni kontekstual tahlil qilishda unga turli jihatlardan yondashish mumkinki, shu asosda bir qator tahlil metodlari haqida gapirish mumkin bo`ladi. Masalan, Biografik metod – badiiy asarni muallifining hayot yo‘li kontekstida o‘rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o‘rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko‘ra, biografik metod asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Biografik metod kabi muallifga yo‘naltirilgan psixologik, psixoanalitik tahlil metodlarida bu bog‘liqlik yanada kuchli. Zero, psixoanalitik tahlil amalga oshirish uchun tadqiqotchiga yozuvchining bolalik chog‘lari, oilasi, o‘qish va mehnat faoliyati kechgan muhit xullas, hayotiga oid aniq faktik materiallar, hatto bir qarashda arzimas mayda-chuydadek ko‘rinuvchi tafsilotlargacha kerak bo‘ladi [5: 462, 463]. Demak, bu asarni biografik hikoya deb atashimiz mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘tkir Hoshimov “Jintepa” hikoyasida tabiat tasvirini inson ruhiyatini ochib beruvchi muhim poetik mexanizm sifatida qo‘llaydi. Bu yondashuv o‘zbek nasrida psixologik realizmning rivojlanganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, asarda tabiat va inson o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik falsafiy mazmun kasb etadi. Hikoyada peyzaj quyidagi funksiyalarni bajaradi: syujetni harakatga keltiradi, qahramon ruhiyatini ochadi, dramatik keskinlikni kuchaytiradi, ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Bu esa peyzajni oddiy tasvir emas, balki murakkab badiiy tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xulosa.

O‘tkir Hoshimovning “Jintepa” hikoyasi o‘zbek nasrida peyzajning badiiy-estetik va psixologik imkoniyatlarini yorqin namoyon etuvchi asarlardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur hikoyada tabiat tasviri oddiy dekorativ unsur sifatida emas, balki ko‘p qatlamli semantik yuklamaga ega bo‘lgan muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. U voqea rivojini belgilaydi, qahramon ruhiyatini ochadi va dramatik ta’sirni kuchaytiradi. O‘tkir Hoshimov tabiat tasvirida soddalik va chuqurlikni uyg‘unlashtira olgan ijodkorlardan biridir. Uning uslubiga xos jihatlar: sodda, ammo ma’nodor tasvir, ruhiy holat bilan uyg‘un peyzaj, hayotiylik va tabiiylik. Bu jihatlar “Jintepa” hikoyasini o‘ziga xos badiiy asarga aylantiradi. Shu jihatdan asar o‘zbek nasrida peyzaj poetikasining yorqin namunasi hisoblanadi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda peyzaj va psixologizm masalasini yanada kengroq badiiy materiallar asosida o‘rganish tavsiya etiladi. Xususan, O‘zbek va jahon adiblari ijodi misolida qiyosiy o‘rganish, shuningdek, turli janrlarda (roman, qissa) ushbu hodisaning namoyon bo‘lish xususiyatlarini kengroq tahlil qilish, turli davr va yozuvchilar ijodida tabiat tasviri va inson ruhiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqotni metodologik jihatdan boyitish maqsadida zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari: psixologik, semantik va intertekstual tahlil usullarini qo‘llash, badiiy matnlarda peyzaj elementlarini aniqlash va tasniflashning raqamli (korpus va kompyuter lingvistikasi asosidagi) metodlarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotlarning yangi bosqichini boshlab berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. 320-b.
2. Hoshimov O‘. Jintepa (hikoya) // Saylanma. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi: filologlar uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2011. 88-b.
4. Karimov N. O‘zbek adabiyotida hikoyanavislik an’analari. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademik nashr, 2018. 480-b.

Marjona TOG‘AY,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Folklorshunoslik va dialektologiya yo‘nalishi 1-kurs magistranti
Marjonatogay@gamil.com

NORMUROD NORQOBILOV ASARLARIDA FONETIK DIALEKTIZMLARNING QO‘LLANILISHI
(“Qoraquyun” romani misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Normurod Norqobilov ijodida dialektal birliklarning badiiy matndagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot materiali sifatida yozuvchining “Qoraquyun” romani tanlanib, undagi fonetik dialektizmlar misollar orqali tasniflandi, ularning badiiy funksiyasi (obraz nutqini individuallashtirish, muhitni lokallashtirish, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish) tahlil qilindi. Maqolada muallif nutqi va personajlar dialogidagi sheva unsurlarini ajratish mezonlari taklif etilib, dialektizmlarning realizm va xalqona ohang yaratishdagi roli asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: *dialektizm, badiiy nutq, xalq tili, adabiy til, fonetik dialektizm, obraz nutqi, lokallik.*

Annotation: *t*his paper examines the use of dialectal units in the prose of Uzbek writer Normurod Norqobilov. Using the novel “Qoraquyun” as the main source, we identify and classify phonetic discuss their stylistic functions: character speech individualization, spatial and social localization, and the enhancement of emotional-expressive meaning. The study also proposes practical criteria for distinguishing dialectal forms in narrative passages versus dialogic speech.

Key words: *dialectism, literary speech, folk language, phonetic dialectism, character speech, localization.*

Аннотация: в статье рассматривается использование диалектных единиц в прозе узбекского писателя Нормурода Норкобилова. На материале романа «Қорақуюн» выявляются и классифицируются фонетически анализируются их художественные функции: индивидуализация речи персонажей, локализация среды, усиление эмоционально-экспрессивного эффекта. Предлагаются практические критерии разграничения диалектных форм в авторской речи и диалогах.

Ключевые слова: диалектизм, художественная речь, народный язык, фонетический диалектизм, *речь персонажа, локализация.*

Badiiy adabiyot tilining hayotiyligi ko‘p jihatdan xalq tili bilan uzviy aloqadorligiga bog‘liq. Yozuvchi personajning “ovozini” tabiiy eshittirish uchun mahalliy so‘z va shakllardan foydalanadi; shu tariqa asar muhitini (makon, ijtimoiy qatlam, urf-odat) real tasvirlashga erishadi. Normurod Norqobilov asarlarida ham xalqona ohang kuchli bo‘lib, u ayniqsa dialoglarda yaqqol seziladi. Muallifning badiiy tasvirida dialektal birliklar matnni shunchaki “bezak” uchun emas, balki obraz xarakteri, ruhiyati va muhit bilan munosabatini ochish uchun xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, grammatik, va leksik xususiyatlarning aks etishi dialetizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham leksik dialektizm, fonetik dialektizm, morfologik dialektizm kabi turlariga ega bo‘ladi.[1]

Dialektizm grekcha so‘z bo‘lib, shevaga xos so‘z demakdir. Bunday so‘zlar fonetik va semantik jihatdan adabiy tildagi so‘zlardan keskin farq qiladi va badiiy matnda ko‘proq qahramonlar xarakterini ochib berish maqsadida qo‘llanadi. [2]

Fonetik dialektizmlar ko‘proq og‘zaki nutqning tabiiyligini beradi: tovushlarning tushishi, qisqarishi, almashishi yoki qavatlanishi orqali “so‘zlashuv tempi” seziladi. Fonetik dialektizm — adabiy til birligining talaffuz va tovush tarkibida mahalliy variantda namoyon bo‘lishidir.[3]

Dialektizmlarning turli ko‘rinishlari badiiy asarlar tilida tez-tez uchrab turadi. Tadqiqotchilarning fikricha, atoqli o‘zbek yozuvchilari A.Muxtor, M.M.Do‘st, Sh.Xolmirzayev, Tog‘ay Murod va boshqalar o‘z asarlarida xalqning jonli so‘zlashuv nutqiga – dialektizmlarga tez-tez murojaat qilib turadilar. Shu o‘rinda Normurod Norqobilovning “Qoraquyun” asari bo‘yicha fonetik dialektizmlarning qo‘llanish xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz.

Normurod Norqobilov Qashqadaryo vohasidan bo‘lganligi uchun, asarlarida ham shu hudud elementlari sezilib turadi. O‘zbek tili Yuqori Qashqadaryo shevalarini tadqiq etgan olim Bolta Jo‘rayev vohadagi o‘zbek shevalarini quyidagicha tasnif qiladi:

1.O‘zbek tilining qipchoq lahjasiga xos shevalar (Yuqori Qashqadaryo qipchoq shevalari).

2.O‘zbek tilining qarluq – chigil – uyg‘ur lahjasiga xos shevalar (Shahar tipidagi shevalar)

3.Oraliq shevalar.

Bolta Jo‘rayev Qashqadaryo shevalarining hammasi ham til xususiyatlari jihatidan butun territoriya bo‘yicha bir xil deb bo‘lmasligini va ayrim shevalarida singarmonizm

1 Ashirbayev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021.98-b.
2 Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 16-b.
3 Reshetov, V. V. (1966). O‘zbek shevalarining klassifikatsiyasi. O‘zbek tili va adabiyoti, №1 5–11-b.

hodisasi juda kuchli ekanini ta'kidlaydi. Tovush o'zgarishi va fonetik hodisalarning Normurod Norqobilov asarlarida ham uchrashini, yozuvchining bu bilan Qashqadaryo vohasi koloritini ochib berolganini ko'rishimiz mumkin.

1."Bo'libdi – "Bo'pti"(O, qavm yuzi qora bo'pti . "Qoraquyun",13-bet)

Ushbu so'z tarkibida bir nechta fonetik jarayonlar mavjud. Ma'lumot uchun shuni aytishimiz mumkinki, Bolta Jo'rayev o'zining "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari" kitobida, Turon qishlog'ining shevasida oxiri [l] bilan tugagan bo'lmoq, kelmoq, qolmoq, olmoq, solmoq, fe'llari o'tgan zamon hikoya fe'li formasida bo'pti, kepti, qopti, sopti tarzida ishlatilishini aytadi [4]. Ushbu so'zda "l" undoshi va "-ib" ravishdosh qo'shimchasining "-i" unlisi tushib qolishi eliziya hodisasini yuzaga keltirgan. Undan tashqari, so'z tarkibida assimilyatsiya (moslashish) hodisasi bor, ya'ni yonma-yon kelgan undoshlar bir-biriga ta'sir qilish jarayoni --- b~p, d~t holatida kuzatiladi.

2. "Bunday qilib" – "Buytib" (Buytiblar qiynamagin buni deymanda Qalaybek. "Qoraquyun", 22-bet)

Ushbu so'zda reduksiya (qisqarish) holati kuzatilmoqda. Ya'ni 2 so'z tez talaffuzda qisqaradi: *bunday ~bu(y)*, o'rtadagi -nday qismi tushib qoladi. Keyingi o'rinda so'zi assimilyatsiya hodisasini yuzaga keltirmoqda, ya'ni: qilib ~ qip . Bu yerda b ~ p jarangsizlashuvi -- buy qip. Shuningdek, qilib so'zida -i unlisi tushib qoladi va bu eliziya hodisasini yuzaga keltirmoqda. Bunday qilib – Buy qilib – Buy qip – Buytib

3. *"Qilib qo'yding" – " Qip qo'yding" (Nimalar qip qo'yding . "Qoraquyun", 26-bet)*

Ushbu gapda tovush tushishi eliziya hodisasi ro'y bergan, ya'ni so'zdagi -li bo'g'ini tushib qolgan. Qilib—qip. Shuningdek, assimilyatsiya hodisasini ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni so'z oxiridagi jarangli "b" tovushi jarangsiz "p" ga aylangan.

4. *"Hozir, tayyor" – "Hazr" (Hazr bo'l, g'animning zo'ri g'ordan chiqib keladi. "Qoraquyun", 9-bet)*

Quyidagi gap tarkibida kelgan "Hazr" so'zi reduksiya hodisasiga uchragan. Ya'ni "o-i" unlilari tushib, qisqa shaklga kelgan. Bu holat dialektlarda ko'p uchraydi. Hozir–hazr – hozr . Bu so'z qipchoq shevasiga yaqin fonetik dialektizm asosida qurilgan.

5. "Olib kelish" – "op kelish" (Op kelish kerak edi, – dedi Itolmas, ularni quntsizlikda ayblagan ohangda. "Qoraquyun", 192-bet)

Ushbu gapda fonetik dialektizmlar quyidagicha kuzatiladi: eliziya (tovush tushishi) – olib – ob -- op , -li bo'g'ini tushib qolgan. Oxirgi b–p almashuvi (jarangsizlanish) assimilyatsiya hodisasini yuzaga keltirgan.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, fonetik dialektizmlar matnning og'zaki tabiatini ta'minlaydi: personajning gapirish tempi, intonatsiyasi, kayfiyati va ijtimoiy mavqeyini sezdiradi. Norqobilov uslubida fonetik dialektizm aynan dramatik nuqtalarda kuchayadi: muammo, bahs yoki buyruq vaziyatida mahalliy shakl ko'proq ishlatiladi.

"Badiiy adabiyot tilini boshqa lug'aviy qatlamlar singari dialektizmlarsiz ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Dialektizmlar personaj nutqining individualligini ta'minlash jarayonida uslubiy bo'yoqdorligi jihatdan boshqa nutq vositalaridan sezilarli darajada ajralib turadi"[5]. Muallif nutqida dialektal birliklar ko'pincha "fon" vazifasida (xalqona tasvir, hikoya ohangi) xizmat qilsa, dialoglarda ular bevosita xarakter yaratish vositasiga aylanadi. Shuni aytish mumkinki, Norqobilovda dialektizmlar haddan ortiq ko'paytirib yuborilmaydi; ular aynan konflikt kuchaygan joylarda paydo bo'lib, matnning ta'sirchanligini oshiradi.

Fonetik dialektizmda grafika va talaffuz munosabati

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, "Qoraquyun" romani misolida Normurod Norqobilov badiiy nutqida dialektal birliklar izchil va vazifadosh tarzda qo'llangani ko'rinadi. Fonetik shakllar (bo'pti, bunaqa, tekkina) dialogni tabiiy, jonli qiladi, morfologik birliklar (kirinshar, eplayveramiz, bizdi) esa personajlarni "ovoz" orqali ajratib beradi: ularning muhitini, ijtimoiy qatlamini va kayfiyatini yanada aniqroq ochadi.Asarda badiiy dialektal so'zlardan voqea va dialoglarga yana kuchli emotsional ta'sir hosil qilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, "Qoraquyun" romani misolida Normurod Norqobilov badiiy nutqida dialektal birliklar izchil va vazifadosh tarzda qo'llangani ko'rinadi. Tahlil jarayonida shevalardagi rang-baranglik, shuningdek, qo'shimchalar va so'z o'zagida ro'y bergan nozik o'zgarishlarga ilmiy nuqtayi nazardan guvoh bo'ldik. Fonetik shakllar dialogni tabiiy, jonli qiladi, Asarda badiiy dialektal so'zlardan voqea va dialoglarga yana kuchli emotsional ta'sir hosil qilgan.

4 Jo'rayev Bolta. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. – Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1969. 25-b.

5 Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. – Toshkent: Akademnashr, 1983. 18-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norqobilov, N. (2016). Qoraquyun: roman. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 212 - b.
2. Ashirboyev, S. (2023). Areal lingvistika. – Toshkent: "Bookmany print" 148 - b.
3. Reshetov, V. V. (1966). O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi. O'zbek tili va adabiyoti, №1 5–11 - b.
4. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. – Toshkent: Akademnashr, 1983. 18-b.
5. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. 16-b.
6. Jo'rayev Bolta. *Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari.* — Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1969. 25-b.

Odina O‘LMASALIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti
E-mail: odina.ulmasaliyeva@gmail.com

NAZAR ESHONQUL VA ULUG‘BEK HAMDAM IJODIDA BADIIY OBRAZLAR POETIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetakchi vakillari — Nazar Eshonqul va Ulug‘bek Hamdam ijodidagi badiiy obrazlar tizimi va ularning poetik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada ikkala ijodkor asarlarida insoniy qiyofaning o‘ziga xos badiiy talqini, ramziy obrazlar, lirik qahramon, tabiat tasvirlari hamda makon-zamon obrazlarining poetik vazifasi yoritiladi. Ushbu tadqiqot zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida muhim o‘rin egallagan ushbu ijodkorlarning o‘ziga xos badiiy uslubi va obraz yaratish usullarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar*: badiiy obraz, poetika, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, zamonaviy o‘zbek adabiyoti, lirik qahramon, ramz, psixologik tasvir, qiyosiy adabiyotshunoslik.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of the system of artistic images and their poetic characteristics in the works of leading representatives of modern Uzbek literature — Nazar Eshonqul and Ulugbek Hamdam. The study examines the unique artistic interpretation of human character, symbolic images, the lyrical hero, depictions of nature, and the poetic function of space-time images in the works of both authors. The research aims to reveal the distinctive artistic style and image-creation techniques of these writers who hold an important place in modern Uzbek literary studies.

Key words: *artistic image, poetics, Nazar Eshonqul, Ulugbek Hamdam, modern Uzbek literature, lyrical hero, symbol, psychological depiction, comparative literary studies.*

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ системы художественных образов и их поэтических особенностей в произведениях ведущих представителей современной узбекской литературы — Назара Эшонкула и Улугбека Хамдама. В работе рассматривается своеобразная художественная интерпретация человеческого образа, символические образы, лирический герой, картины природы, а также поэтическая функция образов пространства и времени в творчестве обоих авторов. Исследование направлено на раскрытие самобытного художественного стиля и приёмов создания образов этих писателей, занимающих важное место в современном узбекском литературоведении.

Ключевые слова: *художественный образ, поэтика, Назар Эшонкул, Улугбек Хамдам, современная узбекская литература, лирический герой, символ, психологическое изображение, сравнительное литературоведение.*

O‘zbek adabiyotida badiiy obraz masalasi adabiyotshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yangi estetik izlanishlar bilan boyib, milliy va umuminsoniy obrazlarni yangicha talqin qilish tendensiyasi kuchaydi. Ushbu jarayonda Nazar Eshonqul va Ulug‘bek Hamdam ijodi alohida o‘rin egallaydi. Ular o‘zbek nasri va she‘riyatida yangi badiiy dunyo kashf etib, an’anaviy poetik tafakkurni zamonaviy estetik izlanishlar bilan uyg‘unlashtira oldilar.

Badiiy obraz — adabiyot ilmining markaziy kategoriyasi bo‘lib, yozuvchining voqelikni anglash va ifodalash usulini belgilaydi. Akademik B. Nazarov ta’kidlaganidek: “Badiiy adabiyotda obraz — bu faqat hayotiy hodisaning in’ikosi emas, balki muallif tomonidan ijodiy qayta yaratilgan yangi badiiy reallikdir.”[1]

Nazar Eshonqul she’riyatida lirik qahramon obrazi o‘ziga xos falsafiy va estetik yukni ko‘taradi. Uning

1 Nazarov B. Badiiy obraz nazariyasi. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2016. 45-b.

lirik qahramoni — koinot va inson munosabatlarini, vaqt va abadiyat, hayot va o‘lim, sevgi va yo‘qotish haqidagi chuqur savollarni o‘z qalbida his etuvchi shaxsdir. Bu obraz an’anaviy o‘zbek she’riyatidagi lirik qahramon tipidan farqli ravishda ko‘proq universal, umuminsoniy xususiyatga egadir. Eshonqul she’riyatida so‘z va sukut, nur va zulmat, markazlik va chekkalilik kabi antonimik juftliklar lirik qahramon ichki dunyosini ifodalashning asosiy poetik vositasiga aylanadi.

“Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida tabiat va inson munosabatlari, xalq og‘zaki ijodi bilan zamonaviy hayotning kesishgan nuqtalarida yangi badiiy obrazlar dunyosi vujudga keladi. Q. Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotlarida Eshonqul nasriy uslubini “lirizm bilan falsafiy chuqurlikning kamyob uyg‘unligi” sifatida baholaydi.[2]

Ulug‘bek Hamdam o‘zbek nasrida psixologik tahlilning yangi bosqichini ochib berdi. Uning qahramonlari — o‘z zamoni va jamiyatining murakkab ziddiyatlarida yashayotgan insonlar bo‘lib, ularning ichki olami nozik badiiy tafsilotlar orqali ochib beriladi. “Muvozanat” romanidagi Kamol obrazi bunga yaqqol misol: bu qahramonda shaxsiy erkinlik va ijtimoiy majburiyat o‘rtasidagi doimiy kurash o‘z aksini topgan. Yozuvchi qahramonlarining ruhiy holatini tasvirlashda ichki monolog, oqim-ong texnikasi va simvolik detallardan mohirona foydalanadi.

Hamdam va Eshonqul ijodini qiyosiy o‘rganish ikkala ijodkorda bir qancha umumiy poetik xususiyatlarni ochib beradi. Birinchidan, ikkala yozuvchi ham insonning ichki dunyosiga — ruhiy holatlari, iztiroblari va umidlariga katta e’tibor qaratadi. Psixologik tasvir ikkala ijodkorning asosiy badiiy metodiga aylangan. Biroq uslubiy farqlar ham ko‘zga tashlanadi: Hamdam nasri ko‘proq ijtimoiy-psixologik yo‘nalishda bo‘lsa, Eshonqul she’riyatida lirik-falsafiy poetika ustuvorlik qiladi.

Ikkala ijodkor asarlarida tabiat obrazlari insoniy ruh va taqdir bilan bevosita bog‘liq holda tasvirlanishi umumiy xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Makon-zamon obrazlari ham ikkala ijodkor asarlarida muhim o‘rin tutadi. O‘tmish va hozirgi zamon, ideal va haqiqiy makon o‘rtasidagi farq, xotira va unutilish munosabatlari ikkala yozuvchida ham doimiy poetik muammo sifatida ko‘tariladi. Umuman olganda, Eshonqul va Hamdam ijodi o‘zbek adabiyotini jahon adabiy jarayoni bilan bog‘lovchi muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi.

2 Yo‘ldoshev Q. O‘zbek adabiyoti: XX–XXI asr kesishmasida. – Samarqand: SamDU, 2019. 187-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdam, U. (2007). Muvozanat: Roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 288-b.
2. Eshonqul, N. (2005). Ko‘zgu: She‘rlar. – Toshkent: Sharq. 160-b.
3.Eshonqul, N. (2010). Shamol aytgan qo‘shiq: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: O‘zbekiston. 224-b.
4. Hamdam, U. (2013). Yolg‘izlik: Qissalar. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti. 192-b.
5. Nazarov, B. (2016). Badiiy obraz nazariyasi. –Toshkent: O‘zMU nashriyoti. 210-b.
6. Yo‘ldoshev, Q. (2019). O‘zbek adabiyoti: XX–XXI asr kesishmasida. – Samarqand: SamDU. 304-b.
7. Mirzayev, A. (2018). Zamonaviy o‘zbek nasrida psixologizm. – Toshkent: Fan. 176-b.
8. Tojiboyeva, M. (2021). Ulug‘bek Hamdam nasrida ramziy obrazlar. O‘zbek tili va adabiyoti, 2, 78–86.

Feruza HASANOVA,
Qarshi davlat universiteti
Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi magistranti

ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANIDA YOLG‘IZLIK MOTIVINING BADIIY-FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Muvoznat” romanida yolg‘izlik motivining badiiy ifodalanishi, uning psixologik, falsafiy va ijtimoiy qatlamlari tahlil qilinadi. Qahramonlarning “ichki men”i bilan bog‘liq yolg‘izlik holatlari asar syujeti kontekstida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *yolg‘izlik motivi, muvozanat, ekzistensializm, ruhiy inqiroz, ijtimoiy begonalashuv.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественное выражение мотива одиночества в романе Улугбека Хамдама «Мувознат», его психологические, философские и социальные аспекты. Одиночество, связанное с «внутренним я» персонажей, подчеркивается в контексте сюжета произведения.

Ключевые слова: *мотив одиночества, равновесие, экзистенциализм, духовный кризис, социальная отчужденность*

Annotation: this article analyzes the artistic expression of the motif of loneliness in Ulugbek Hamdam’s novel “Muvoznat”, its psychological, philosophical and social layers. The loneliness associated with the “inner self” of the characters is highlighted in the context of the plot of the work.

Key words: *loneliness motif, balance, existentialism, spiritual crisis, social alienation*

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida insonning ruhiy olami, ichki ziddiyatlari va ekzistensial iztiroblari tobora chuqurroq yoritilmoqda. Bu jihatdan Ulug‘bek Hamdam ijodi o‘zbek nasrida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning “Muvozanat”, “Yolg‘izlik”, “Isyon va itoat” kabi asarlari bunga misol bo‘la oladi. Ijodkorning “Muvozanat” romani shaxsning o‘zlikni anglash jarayoni va bu yo‘ldagi eng og‘ir nuqta yolg‘izlik markaziy o‘rinda turadi. Asardagi yolg‘izlik shunchaki odamlardan qochish, jamiyatdan uzoqlashish emas, balki qahramonning dunyo va o‘zi o‘rtasidagi muvozanatni yo‘qotishi natijasida yuzaga kelgan ruhiy holatdir.

Romanning bosh qahramoni Yusuf o‘qimishli, ziyoli inson bo‘lib, uning yolg‘izligi moddiy yetishmovchliklar yoki shaxsiy yo‘qotishlardan ko‘ra ko‘proq qadriyatlar almashinuvi davridagi begonalashuv bilan bog‘liq. Yusuf o‘zi yashayotgan muhitdagi turli illatlar, odamlar o‘rtasidagi samimiyatning yo‘qolishi va ma’naviy inqirozni ko‘rib, ruhan tanholikka chekinadi. “Nega kelib-kelib, ishlari teskarisiga ketganda? Dunyo ko‘ziga qorong‘u bo‘lganda? Nega avvalroq – saroyda yurganda emas? Atrofida xizmatkorlar girdikapalak bo‘lib, odamlar amrini kutib saf tortib turganda emas?.. Nahotki, urushlar, musibatlar va zo‘r tashvishlar odamlarni birlashtiradi, ularni bir-biriga yaqin va hamdard qiladi, degan gap rost bo‘lsa? Nahotki, muvaffaqiyat, pul, mansab... insonlikni mahv etguvchi unsurlardir? Nahotki, odamlar boyigani, uzatgan joyiga qo‘llari yetadigan bo‘lgani sayin bir-birlaridan qalban uzoqlasha boradilar va aksincha, ishlari chappasiga ketib, boshiga tashvish yo musibat tushganda dardini eshitadigan xayrixoh qidirib qoladilar!.. Demak, hayotdagi muvaffaqiyat do‘st o‘rnini bosishi mumkin ekanda. Demak, do‘st, hamdard... kishi qo‘lidan baxt qushi uchib, qayg‘uga cho‘mgandagina lozim, deya olamizmi? Agar unday bo‘lmasa, nega Said qismatida ayni holga duch kelyapmiz? Nega u saroyda ishlab yurganida Yusufga, uning suhbatiga ehtiyoj tuymagandi. Endi esa tuymoqda? Nega u omadi kelib boqqan davrida birovga ko‘ngil ochmagan odam, endi omad yuz o‘girganda yurak dardini to‘kib solgisi kelmoqda? Demak, shunday xuloa qilish mumkinmi? – Inson botinidagi birlamchi tuyg‘u bu – ehtiyoj[1] ” Yuqoridagi parchada yolg‘izlik bu tanho qolish emas, balki manfaatlar bor joyda samimiyatning yo‘qolishi va insonning faqat og‘ir kunda o‘zining ma’naviy muhtojligini tan olishdir. Bir vaqtlar bu uch yigitning do‘stligi mustahkam edi, ammo yillar o‘tib bari o‘zgardi. Said shunchaki uni eshitadigan, tushunadigan odamga muhtoj edi shu sababli ham boshiga ish tushganda Yusufni eslab yoniga keldi. Yusufning do‘stlari uchun do‘stlikdan ko‘ra manfaat va moddiyat ustunlik qiladi.

“Muvozanat” romanida yolg‘izlikni aks ettirgan obrazlardan biri Amirdir. Uning yolg‘izligi ijtimoiy va emotsional yolg‘izlik bo‘lib, u oila va jamiyatda ham qabul qilinmaydi. Atrofida insonlar bo‘lsa ham o‘zini tanho his qiladi. Ziyoli inson bo‘lgan bu odam dunyo ishlaridan, tashvishlaridan yuz o‘girib faqat ibodat bilan shug‘ullanib, faqirona kun kechiradi. U erta-yu kech ibodat qilib, og‘ir sharoatda bo‘lgan oilasini, kasalmand turmush o‘rtog‘ini va

1 Улуғбек Ҳамдам, Мувозанат. Янги аср авлоди, –Тошкент, 2024.292

farzandlarini mushkul ahvolga solib qo‘yadi. “- O‘g‘lim, - dedi marhumaning haqqiga yana bir duo qilib bo‘lingach Odil aka Amirga yuzlanib, – marosimlarni ham o‘tkazib bo‘ldik hisob. Endi u yerda bolalarning bir o‘zlari turishlari nojoiz. Senga ham “Bolalaringni o‘zing epla” deydigan gapimiz yo‘q. Faqat sog‘ay... – ovozi titrab gapirishdan bir zum tin oldi Odil aka, – nima qilib bo‘lsa ham tuzalishga harakat qil. O‘zing uchun bo‘lmasa, bolalar uchun. Hadeb jannat haqida gapirarding – mana, endi jannatga tushish uchun Xudoyim seni yana bir imtihondan o‘tkazmoqchi... Shu yetim qolgan o‘g‘il-qizlaringni bag‘ringga olib, boshini silay olsang, bas, jannat – shu, deb o‘ylayman men... Endi bolalaringga qattiq gapirma... – Odil akaning bo‘g‘ziga nimadir tiqildi, yana jim qoldi. So‘ng “shiq” etkazib burnini tortdi-da, turib hovli tomonga o‘tib ketdi...[2]” Naqshbandiya ta’limotida ham “Dil-ba yor-u, dast ba kor!” ya’ni “Bu ko‘ngil Xudoda bo‘lsin-u, qo‘l ishda” degan tasavvufiy tariqat mavjud. Islomiy nuqtayi nazardan ham qaraydigan bo‘lsak, inson o‘z oilasini qarovsiz qoldirib, faqat ibodat qilishi to‘g‘ri sanalmaydi. Oilasi va farzandlari qiynalayotgan bir vaqtda uzlatga chekinish, chilla saqlash uni Allohga yaqinlashtirmaydi aksincha uzoqlashtirib, mas’uliyatsiz bandaga aylantiradi. Aslini olganda Amirning ham aybi yo‘q bularning hammasiga jamiyatning yangi tizmga o‘tganligi va odamlarning diniy bilimlari kamligidir.Yusuf Akasi bilan ko‘p marotaba bu mavzu haqida suhbat qiladi. “Yusufning ta’biri bilan esa dinga “mukkamdan ketdim”. Xo‘sh, nega? Nahotki, bu borada Yusuf haqli? Nahotki, men oila va jamiyatda orzusiga erisholmagan, ulardan sazasi qaytgan kishi misol barcha yo‘qotganlarimni dindan topmoqchi bo‘ldim? Yusuf nima devdi? Ha-ya, u taxminan shunday degandi: “Siz boshqa yo‘llarga boshingizni suqib ko‘rdingiz, lekin qattiq zarbalarga uchrab, ulardan qochib chiqishga majbur bo‘ldingiz. Qaytib ularga yaqinlashishga esa botiningizda o‘zingiz bexabar paydo bo‘lgan qo‘rquv izn bermadi. Natijada, siz o‘sha mahalda hamma uchun ochiq, hammaning kirishi mumkin bo‘lgan yo‘lga – dini islomga bosh urdingiz. Boy berilgan orzularga sarflanishi kerak bo‘lgan kuch-g‘ayrat, ishtiyoq-ehtirosingizni endi dinga bag‘ishladingiz. Siz tabiatan kuchli bo‘lganingiz uchun ko‘pchilik kabi besh vaqt namozni ado qilish bilan kifoyalana olmadingiz, chuqur ketdingiz. Dinda chuqur ketish esa tasavvuf sahrosiga olib chiqadi. Pirsiz holda siz o‘sha sahroni kechib o‘tishga bel bog‘ladingiz va adashdingiz. Ko‘rinyaptiki, siz bu yo‘lda ham maqsadga erisholmadingiz[3]” Yuqorida keltirilgan parchada inson ruhiyati, e’tiqod, ichki iztirob va muvaffaqiyatsizlik, o‘zlikni anglash muommolari yoritib berilgan. Yusufning nutqi orqali Amirning botiniy dunyosi va uning hayotiy tanazzuli sabablari ochib berilgan.

“Muvozanat” romanida Zahro obrazining yolg‘izligi asarning nozik va fojiaviy ko‘rinishlaridan birini tashkil qiladi. U jamiyatdan uzilgan qahramon sifatida emas, aksincha oilasi, turmushi, tashqi tomondan barcha imkoniyatlari bor, hamma havas qiladigan ayol sifatida ko‘rinadi. Biroq Zahroning asl yolg‘izligi ichi dunyosida, anglanmagan qalb iztiroblarida va ro‘yobga oshmagan orzularida namoyon bo‘ladi. Zahro tashqi hayotda faol bo‘lsa ham qalban bo‘shliqni his qiladi. Uning hayotida moddiy imkoniyatlar, qulayliklar mavjud bo‘lsa-da, ruhiy taskinlik yo‘q. Bu esa uni yolg‘izligini yanada murakkablashtiradi. Muallif Zahro timsoli orqali shuni ko‘rsatadiki, inson ko‘p narsaga ega bo‘lishi mumkin, ammo atrofdagi yaqin insonlari tomonidan tushunilmasa, qalbida ma’no bo‘lmasa, u baribir yolg‘izdir. Zahroning gavjum hayotda yashasa-da, uni chin ma’noda tushunadigan inson kam. “Zaxro Yusufni jon qulog‘i bilan eshitardi. So‘zlar qatiga yashiringan iztirobni dil-dilidan his etib, shu iztirob ortidagi Yusufni teranroq anglab borayotgandek, o‘ziga yaqin odamni topib olgandek quvonardi. Bular esa unga o‘zini, o‘z qismatini eslatayotgandek bo‘lardi. Yusuf uzoq so‘yladi, Zahro ham miq etmay uzoq tingladi. Yusuf arosatdan gapirdi, Zahro uni yoqtirib eshitdi... Biroq, nihoyasida, har ikkisining ham dili ravshan tortdi. Ular bir-birlarining siymosida chinakam xayrixohlik ilg‘ab borishardi. Biri iztirobdan gapirib, boshqasi shu iztirobga quloq tutgan esa-da, ko‘zlaridan allaqanday quvonch uchqunlari sachrab chiqayotgan kabi edi.[4]” Zahroning ichki iztiroblari ko‘rinmaydi. Yusufning iztirobini tushunishi bejiz emas, chunki u ham Yusuf kabi tanhodir. “Zahro Yusufni, uning iztirobini yaxshi tushunardi. Axir, uning o‘zi ko‘nglidagi orzulariga izn bermay, muhitning kuchli oqimiga erkini topshirib yashayotganiga qancha bo‘ldi?.. Unda go‘yo hamma narsa bordek – pul, istak, kuch-quvvat... Biroq orzu sari bir qadam qo‘yishning iloji yo‘q. Ko‘rinmas arqonlar bilan chambarchas bog‘lab tashlangan kabi qimir etolmaydi.[5]” Zahroning ko‘nglidagi orzularini amalga oshirishda muhit, oilaviy tartiblar, ijtimoiy bosimlar to‘sqinlik qiladi. Uning hayoti tashqaridan qaraganda osoyishta ko‘rinsa-da, ichkarida armonlar yig‘ilib boradi. Bu yolg‘izligni kuchaytiradi, negaki insonni ba’zan odamlar emas, amalga oshmagan orzular tark etadi.

Xulosa qilib aytganda Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat” romanida yolg‘izlik motivi shaxs psixologiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Asarda Yusufning yolg‘izligi zamonaviy insonning fojiasi va ayni vaqtda uning qutilish yo‘lidir. Inson o‘z ichki olamidagi muvozanatni tiklamas ekan, tashqi dunyodagi yolg‘izlik uni ta’qib qilishda davom etadi.

2 Улуғбек Ҳамдам, Мувозанат. Янги аср авлоди, – Тошкент: 2024.255.
3 Улуғбек Ҳамдам, Мувозанат. Янги аср авлоди, – Тошкент: 2024.- Б. 226.
4 Улуғбек Ҳамдам, Мувозанат. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2024. 208- б.
5 Улуғбек Ҳамдам, Мувозанат. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2024.209- б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2024

Gulmira BOZOROVA,
BuxDU magistranti
gulmirabozorova021@gmail.com

JAVLON JOVLIYEVNING “QO‘RQMA” ROMANIDAGI MUALLIF NUTQI SINTAKTIK BIRLIKLARI LINGVOPOETIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada muallif nutqi sintaktik birliklarining nazariy jihatlari yoritilgan. Mazkur birliklarning asar tilini boyitishdagi o‘rni masalasiga ahamiyat qaratilgan. Individual sintaktik birliklar Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani asosida tahlil qilinib, o‘zaro ichki guruhlarga ajratilgan, asardan olingan misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: *sintaktik birlik, muallif nutqi sintaktik birliklari, individual o‘xshatishlar, antiteza, individual frazema, individual perefraza, sintaktik parallelizm.*

Аннотация: в данной статье освещаются теоретические аспекты синтаксических единиц авторской речи. Особое внимание уделяется роли данных единиц в обогащении языка произведения. Индивидуальные синтаксические единицы анализируются на основе романа Жавлона Жовлиева «Qo‘rqma», классифицируются на внутренние группы и подтверждаются примерами из произведения.

Ключевые слова: *синтаксическая единица, синтаксические единицы авторской речи, индивидуальные сравнения, антитеза, индивидуальная фразема, индивидуальная перифраза, синтаксический параллелизм.*

Annotation: this article examines the theoretical aspects of syntactic units in the author’s speech. Particular attention is paid to the role of these units in enriching the language of a literary work. Individual syntactic units are analyzed based on Javlon Jovliyev’s novel “Qo‘rqma”, classified into internal groups, and supported with examples from the text.

Key words: *syntactic unit, syntactic units of the author’s speech, individual comparisons, antithesis, individual phrase, individual periphrasis, syntactic parallelism.*

Bugungi kunda matn tilshunosligining rivojlanib borishi natijasida matnni turli tomondan tadqiq etish, ijodkorning matn yaratish mahoratini lingvistik tahlillar orqali baholash, ijodkor tili, uslubini o‘rganish kabi masalalarda bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi ishlar tilshunoslikda badiiy matnga turli tomondan baho berish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, yozuvchi asarlarining qiymati faqatgina original syujet va kompozitsiyaning mavjudligi bilan baholanmay, balki bunga qo‘shimcha ravishda ijodkorning qahramonlar tasvirida va voqealar rivoji bayonida til birliklarining yangi ma’no qirralaridan qay darajada ustalik bilan foydalana olganligi, kundalik hayotda qo‘llaydigan birliklarimizga yangidan jon baxsh eta olinganligi bilan ham belgilanadi. Ushbu maqolada ham asar muallifining sintaktik birliklardan o‘rinli foydalanishi, o‘zi ham yangidan yangi sintaktik birliklar yarata olganligi va bu orqali asar tilini boyitishga erishilganligi haqida so‘z boradi, misollar bilan dalillanadi.

Tilshunos Adham Abdullayev: “Ekspressivlik ifodalash nuqtayi nazaridan yondashilganda boshqa sohalarga nisbatan sintaksisning imkoniyatlari juda katta. Chunki har qanday til birligi sintaktik konstruksiyalarda jonga kiradi”[1], – deya fikr bildiradi. Matnda emotsionallikni oshiruvchi sintaktik vositalar sifatida sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarning maxsus qo‘llanilishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so‘roq kabi birliklarni sanaydi. M. Yo‘ldoshev esa “Badiiy matnning lisoniy tahlili” asarida asosiy o‘nta sintaktik hodisaga to‘xtalib o‘tadi: 1) sintaktik paralellizm; 2) emotsional gap; 3) ritorik so‘roq gap; 4) inversiya: 5) ellipsis; 6) gradatsiya; 7) sukut; 8) antiteza; 9) farqlash; 10) o‘xshatish.[2] Yuqorida sanab o‘tilgan vositalar Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanida ham o‘ziga xos o‘rin tutib, muallifning badiiy maqsadini ochib berishga xizmat qilgan.

1. **Individual o‘xshatishlar**

Individual o‘xshatishlar yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan g‘oyasini yanada ta’sirli yetkazishga, aniqlikni oshirishga xizmat qiluvchi vositadir. Bilamizki, yozuvchilar asarlarida turg‘un o‘xshatishlardan foydalanish bilan bir qatorda, o‘zlari ham yangi o‘xshatishlar yaratishadi. Albatta, bu orqali yozuvchi o‘zining tafakkur dunyosi qay darajada keng ekanligini, voqealarni boshqa bir hayot voqeligi bilan taqqoslay olish mahoratini ko‘rsatishadi. “Qo‘rqma” romanida quyidagi erkin o‘xshatish namunalarini uchratish mumkin. Bu individual o‘xshatishlar tuzilishiga ko‘ra sodda so‘z birikmasi va murakkab so‘z birikmasiga teng kelganligi uchun ularni quyidagi 2 guruhga ajratishimiz mumkin:

a) sodda so‘z birikmasi shaklidagi individual o‘xshatishlar:

Chigirtkaning oyoqlariday *qimirlab turardi sen tuqqan issiq bir tuyur go‘sht*

Bexabar eding-da, o‘qiyolmas eding qonsiz va rangsiz, ***irigan piyozday*** *yumshoq peshonamga yozilgan qarg‘ishni shu on.* Chaqaloqning nimjon tanasini tasvirlashda uning oyoqlarini chigirtkanikiga qiyoslash, peshonasini esa irigan piyozning po‘stlog‘iga mengzash orqali yozuvchi kitobxon tafakkurida o‘z qahramonining aniq tasvirini gavdalantirish barobarida,

1 Абдуллаев А. Узбек тилида експрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент, “Фан”, 1987. – Б. 5

2 Yo’ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008. 76-bet.

unga nisbatan achinish tuyg‘usini ham uyg‘ota oladi. Quyidagi misollarda ham muallifning muayyan tasvirni gavdalantirishda qo‘llagan badiiy iste’dodiga guvoh bo‘lishimiz mumkin:

*Jonga tekkan edi **qor parchalari kabi** bir xil hayot/ Men **ona ko‘zlariday** tiniq qorong‘ilikni boshqa hech qachon ko‘rmadim / Ammo ichida **qizg‘aldoq kosasiday** qo‘rquv bor edi o‘limdan/ **lo‘lining bolasiday** to‘zib uyga boraman;*

b) murakkab so‘z birikmasi shaklidagi individual o‘xshatishlar:

***Xarsang botgani kabi suvning tubiga** chorasiz og‘riqqa botib borardi. / **Yonayotgan odam cho‘g‘day uchib suvga urgan kabi o‘zini** quyosh ham botib ketdi dahshatdan qizarib, qonab. / Eskidan qolgan bir kapgir qarg‘ish badaliga havo o‘tib turar edi tomog‘imdan **qum sizgani kabi chanqagan sahroyi tanasiga.** / Malomat qildim, so‘kdim, taqdiri azalni g‘orat etdim, nolidim, yolvordim yolg‘iz Xudoga. Bari havoga uchdi, **xuddi ketar chog‘i kelinchak ota uyidan to‘kkan yoshlari chimildiqqa yetar-yetmas arigandek.** / Yomg‘ir quydi **osmonga ulangan sim arqonlarday** uzilmay. / Samarqand **o‘lim oldi xirqirayotgan go‘zal qiz**ga o‘xshaydi. **Azroil qo‘llaridan ham uyalib, o‘la olmayotgan qizga.** / Oh, **ojiza qo‘llari kabi** bugun kuchsizdir Samarqand! / Butun osmon **ont ichilgan kalomga shahodat bergandek** daxshatli hayqirardi./ Lola **nozik tilingan etga o‘xshash** kichkina og‘zi, o‘tkir qalam bilan chizilgan ingichka lablari bilan so‘roqlarimga dadil-dadil javob berardi. / Lekin **ulkan xazina tashlab ketayotgan odamday** o‘limdan qo‘rqaman./ Sen gohida baxtsizlarga havas-la qaraysan, gohida teskarisi, goh o‘z qismating yoziqlariga ko‘nib yashaysan, **beshikda yotgan bola qo‘llari bog‘liq holda uxlashga o‘rganib qolgani va yig‘lab-yig‘lab ko‘ngani kabi uyquga/ sozanda unutgan notalarga o‘xshaydi** mening hayotim. / Ularning ko‘zlari yopilmagan, ochiq, **o‘g‘lonlari mag‘lub bo‘lgan qal’a darvozalari** kabi. / Ishondi butun dunyoni aldagan tuzumga **barcha toza qalbli odam bolasi kabi**. / Tishlarimni bir-biriga qayrab, alamga botib yotaverdim. **Xuddi egasi osilgan terak bo‘yida sodiq kutayotgan** otdek. / Chars-chars yonayotgan archa shoxining totli, ta’mli tutuni **“Yor-yor” sadolariga raqsga tushgandek** tebranib osmonga bo‘ylardi/ **Qo‘zi qamovga bo‘ri tushganday** hammayoq qonga belanadi. / Betim **yog‘ tomgan suvday** to‘rlaydi, tilinganday yoriladi, / Momomning qorniga yotib, uning ko‘z yoshlarini artaman, oppoq sochlarini silayman, shu yerda mudrayman, **sag‘ir qo‘y qurigan saksovul soyasiga o‘zini urganday**.*

2. Antiteza. Antiteza hodisasida ijodkor mantiqiy va ma’no jihatdan bir-biriga zid so‘zlarni qiyoslash orqali ekspressivlikni yuzaga keltiradi. Ijodkor Javlon Jovliyev ham bu birliklardan ustalik bilan foydalanadi. Antiteza hodisasi ham shaklan 2 ga ajratilishi mumkin:

a) so‘z birikmasi shaklidagi antiteza:

*Ko‘z yoshim, baxt va omadim ul tarafda qolib, yonib ketgan-u, bizga faqat meros qolgani mudroqlik, **istalmagan tabassum.** / **Yoqimli og‘riq**, ter va paxtaning achimsiq anqishi dimoqqa ota hidi bo‘lib uriladi.*

b) gap shaklidagi antiteza:

*Umrida ilk bor yig‘ladi bobom! **Toshlar eridi, olov muzladi, yulduz pastladi, tuproq chaqmoq chaldi. / “Suv yonadi,** ammo **tarix yonmaydi.”***

Albatta, antiteza hodisasi badiiy asar tilining boyishida, qahramon ruhiy holatini yuqori darajada aks ettirishda va voqealar rivojini jadal tarzda tasvirlashda juda muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, yuqoridagi misollarda ham shu usul orqali ekspressivlik to‘la yetkazib berilgan. Bosh qahramonning bobosi umrida ilk marta yig‘lashining shu darajada kutilmagan hodisa ekanligi toshlarning erishi, olovning muzlashi, yulduzning pastlashi, tuproqning chaqmoq chalishi kabi tabiat qonunlariga zid holatlarga taqqoslash orqali o‘ta keskin tarzda tasvirlangan.

2. **Individual frazema*:***

Individual iboralar ham roman matnida bir necha o‘rinda qo‘llanilgan:

*Nega umring saharida **salom berding o‘limga**, mening malagim, go‘zalim, ma’sumam onam?! / Bu to‘yni o‘zimiz yolg‘iz qolgan kunlarda qir tepasida o‘tkazar, Lola kelin, men kuyov bo‘lib “Kelin-kuyov”, “To‘y-to‘y” o‘yinlari bilan **kunduzning chirog‘ini o‘chirardik.** / Musofirlik to‘ni, g‘ariblik kavushi – yozin-qishin kiyiladigan bo‘ldi.* Bilamizki, frazemalarning hosil bo‘lishi va til egalarining nutqida tayyor birlik sifatida faol qo‘llanilishi uchun ancha vaqt kerak bo‘ladi. Darhaqiqat, badiiy asarlarda mualliflar tomonidan yaratilayotgan individual frazemalar ham tilimizni boyitishda xizmat qilishi, kerak bo‘lsa, vaqt o‘tib tilning lug‘at boyligidan mahkam o‘rin egallashi ham tayin. Shu sababdan badiiy asarlardagi ushbu birliklarga aholida e’tibor qaratish lozim. Yuqoridagi *“Nega umring saharida salom berding o‘limga”* misolida oddiy o‘lmoq so‘zi o‘rniga o‘limga salom bermoq frazemasini qo‘llash orqali yangi evfemizm hosil qilingan. *“Kunduzning chirog‘ini o‘chirmoq”* frazemasida esa bolalarga xos o‘yinqaroqlik xususiyati sezilib turibdi va asarda bola nutqini shakllantirishda o‘ziga xos vosita bo‘lgan.

3. **Individual perefraza:**

Asarda individual tasviriy ifodalar ham alohida ahamiyat kasb etgan. Narsa, hodisalarga yangidan nom berib, muallif o‘ziga xos yozuv uslubini namoyon etgan. Jumladan, asarda quyidagi individual perefrazalarni uchratishimiz mumkin:

***Jigitning otasi** (tarix) / **Jigitning onasi** (til) / **Yetim qo‘zi** (ko‘ngil) / **Yashashning qonuniga ko‘nmaslik** (o‘lim)*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jovliyev J. Qo‘rqma. – Toshkent: “Nihol” nashriyoti, 2020. 362-b.
2. Абдуллаев А. Узбек тилида експрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент, “Фан”, 1987.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008. 119-b.

Sevinch PULATOVA,
Profi University Navoiy filiali
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) K.M.ULUG‘MURODOVA

CHO‘LPON SHE’RIYATIDA AN’ANAVIY MAVZU VA TIMSOLLARNING BADIIY TALQINI

Annotatsiya:mazkur maqolada XX asrda so‘z erkinligi va haqiqat muammolari muhim masalaga aylangan bir paytda o‘zbek adabiyotida juda ham dolzarb hisoblangan an’anaviy obraz va mavzularni yangi mavzuda tahlil qilgan ijodkor Cho‘lpon she’riyatining talqini ko‘rib chiqiladi. Xususan, maqolada shoirning an’analarni saqlagan holda ularga zamonaviy ma’no yuklagani va shu bilan birga o‘zbek she’riyatida taraqqiyotni tushunishda muhim ahamiyat kasb etilishi tahlil qilinadi. Maqolada Cho‘lpon she’riyatida ko‘p uchraydigan an’anaviy mavzular bo‘lmish ‘’Vatan va millat taqdiri’’ , ‘’Ozodlik va erkinlik g‘oyasi’’ kabilar shoir tomonidan qanday badiiy vositalar orqali ifodalangani tahlil qilinadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari Cho‘lpon she’riyatida an’anaviy mavzu va timsollar milliy ruh, erkinlik g‘oyasi va insoniy kechinmalarni ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgani, ayniqsa, yangi talqinni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etganligini yaqqol namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: *Cho‘lpon she’riyati, an’anaviy mavzular, badiiy talqin, timsol va ramzlar, milliy ruh, ozodlik g‘oyasi, lirika, badiiy obraz, poetik mahorat, o‘zbek adabiyoti, metafora va ramziylik, ma’naviy qadriyatlar.*

Annotation:this article examines the interpretation of the poetry of Abdulhamid Cho‘lpon, focusing on his analysis of traditional images and themes that were highly relevant in Uzbek literature during the twentieth century, particularly in the context of the era marked by the formation of the concepts of freedom of expression and the problem of truth. The study highlights how the poet preserved literary traditions while simultaneously endowing them with new and modern meanings, thereby contributing significantly to the understanding of development in Uzbek poetry. In particular, the article analyzes how traditional themes frequently found in Cho‘lpon’s poetry, such as the “fate of the homeland and the nation” and the “idea of freedom and liberty,” are expressed through various artistic devices. The results of the research clearly demonstrate that traditional themes and symbols in Cho‘lpon’s poetry serve as important artistic means for expressing national spirit, the idea of freedom, and human emotions, and that they play a significant role in revealing new interpretations within the poetic discourse.

Key words: *Cho‘lpon’s poetry, traditional themes, artistic interpretation, symbols and imagery, national spirit, the idea of freedom, lyric poetry, artistic image, poetic mastery, Uzbek literature, metaphor and symbolism, spiritual values.*

Аннотация:в данной статье рассматривается интерпретация поэзии художника Чолпона, который по-новому анализировал традиционные образы и темы, считавшиеся весьма актуальными в узбекской литературе в эпоху, когда проблемы свободы слова и правды стали важной темой в XX веке. В частности, анализируется способность поэта сохранять традиции и придавать им современное значение, а также их важность для понимания развития узбекской поэзии. В статье анализируются художественные средства, посредством которых поэт выражал традиционные темы, характерные для поэзии Чолпона, такие как «Судьба родины и нации», «Идея свободы и независимости». Результаты исследования ясно показывают, что традиционные темы и символы в поэзии Чолпона служили важным инструментом для выражения национального духа, идеи свободы и человеческого опыта, и были особенно важны для раскрытия новой интерпретации.

Ключевые слова: *Чолпонская поэзия, традиционные темы, художественная интерпретация, образность и символы, национальный дух, идея свободы, лирика, художественный образ, поэтическое мастерство, узбекская литература, метафора и символизм, духовные ценности.*

Cho‘lpon she’riyati o‘zbek adabiyotida juda muhim o‘rin egallaydi. Uning asar va she’rlarida an’anaviy mavzular va timsollar yangi ruhda, chuqur badiiy ma’no bilan ifodalanadi. Uning she’rlaridagi eng muhim mavzulardan biri – Vatan va milliy ozodlik. U oddiygina yozib qolmay, Vatan taqdirini xalq taqdiri bilan bog‘lab tasvirlaydi. Shoirning ko‘plab she’rlari xalqning ozod bo‘lish orzusi, zulmdan qutulish istagini o‘zida mujassamlashtiradi.

“Vatan va ozodlik’’ nafaqat jadidchi ma’rifatparvarlar davrida, balki har bir davrda xalq orasidagi munosabatlarning shakllanishida, ularning ichki his-tuyg‘ulari, orzu-istaklari va maqsadlarining qaror topishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan ushbu tushuncha ming yillar davomida chuqur ma’no anglatib, xalqimiz orzu-istaklarini o‘zida mujassamlashtirgani bilan ahamiyatlidir.

“Vatan va ozodlik’’ning ma’naviy – ma’rifiy yuksalishi badiiy adabiyotimizga borib taqaladi. Xususan, buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror’’ dostoni o‘n to‘qqizinchi maqolatida Xuroson mamlakatiga xuddi jannat bog‘lari kabi go‘zal deya ta’rif beradi. Hirot shahrini esa shu davlatning yuragi hisoblaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Navoiy mamlakatini va o‘z kindik qoni to‘kilgan shaharni o‘zgacha mehr bilan tasvirlaydi.

Jumladan, Xuroson va Hirotni shunday ta’iflaydi:

Bog‘lari har biri jannat misol,
Ravzaga har go‘shasidan go‘shmol...
Haddi shimoliysi sori ikki nahr,
Ul ikkidin xurram-u serob shahr[1].

Shuningdek, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning Vatanni sevish, uning ravnaqi uchun kurashish haqidagi vatanparvarlik g‘oyalari jadid adabiyoti namoyandalari ijodidagi vatanparvarlik g‘oyalari bilan mushtarakdir. Har narsaning qadri uni yo‘qotgandan keyin bilinadi deganlaridek, Bobur vatanidan uzoqlashgach, uning qalbida vatanga bo‘lgan mehr oshib bordi. Bora-bora bu sog‘inch ulkan bir dardga aylanadi.

Bobur bir ruboiysida Vatanga bo‘lgan sog‘inchini shunday mohirona tasvirlaydi:

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

1 Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashiyot matbaa uyi, 2006.254-bet

Professor N.Jabborov: “Uning ijod namunasi mukammal badiiyat bilan birga teran ma’noni mujassam etadi’’, deya ta’kidlaydi. Chunki undagi har bir misrada ma’no va mazmun nihoyatda kuchli[2].

Oradan bir necha asr o‘tgach yurtimizning rus istilochilari tomonidan ezilishi va ming afsuski tom manoda savod olmagan xalqimizning bunga qarshi chiqolmagani turtki bo‘lib, natijada bir qancha jadid allomalarimiz vujudga keldi. Ular badiiy ijod bilan birgalikda yurt ozodligi, farovonligi uchun kurashishdek siyosiy masalalarda ham faol bo‘ldi. Bu ular ijodining bosh g‘oyasiga aylandi. Bir so‘z bilan aytganda: “XX asr tongida millat ziyolilarining Turkiston xalqiga ma’rifat tarqatishdagi xizmatlari beqiyosdir’’.

Cho‘lpon o‘z davrining adabiy muhitidagi yetakchi an’analarga amal qilib, ijodida ma’rifatchilik g‘oyalarini targ‘ib va tashviq etishga katta e’tibor beradi. U xalq boshiga tushgan kulfatlarning bosh sababi jaholat deb biladi va jaholat hamda xurofot botqog‘idan qutulishning birdan bir omili ilmga, ma’rifatga intilish deb biladi[3]. O‘zining “Ulug‘ yo‘lda’’ nomli she’rida shunday yozadi:

Yo‘limizda cho‘llar, suvlar, dengizlar.
Bosh uchini tanib bo‘lmaslik izlar.
Shu izlarni bosib, dengizlar kechib,
Buyuk amal bilan boramiz bizlar.
Mahkam qilib bog‘lanilgan kamarlar,
-Tezroq!
-Qanot!
Qushlar yanglig‘ uchaylik.
Keng cho‘llardan, dengizlardan kechaylik,
Sharqning eski chilagini yechaylik![4]

Shoirning mazkur she’rining tub zamirida shunday ma’no mujassamki, birinchi bor o‘qigan inson ham uning mardona, ma’rifatparvar da’vatidan boxabar bo‘ladi. Ushbu misralardagi cho‘l, suv va dengiz timsollari oddiy tabiat qismlari emas, balki xalqqa zulm qilayotgan, ma’naviyatdan, chinakam go‘zal hayotdan mahrum etayotgan chor hukumatining qiynoqlari, ular tomonidan xalqqa qo‘yilayotgan cheklovlardir. Shoir esa mana shu qiyinchiliklarni yengib o‘tib, ozodlikka, ma’rifatga erishishga bo‘lgan orzu-istagi va ishonch-maqsadini go‘zal satrlar orqali ‘’Buyuk amal

2 Elbek. Kegusining quyoshi. –Toshkent: Maorif va o’qitg’uvchi nashriyoti, 2021.4-76-bet
3 Cho‘lpon. Yana oldim sozimni –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.7-bet.
4 Cho‘lpon. Ulug‘ yo‘lda. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1920.395-bet.

bilan boramiz bizlar’’, deya ta’riflaydi. Shu o‘rinda bir mulohazali fikr yuzaga keladi: shoir nega aynan qushlar kabi uchishni xohlaydi. Negaki qushlarning vatani osmoni falakdir. Ular qaysi tomonga uchishni xohlasa, butun yer yuzini o‘rab turgan osmon ular uchun yo‘l ochib beradi. Qushlarning harakatiga, qanotlarini keng yoyib uchishiga imkon beradi. Tabiiyki, ularning qanotlari qayrilmagan bo‘lsa. Ming afsuski, o‘sha davrdagi xalqning ahvoli qanoti qayrilgan qushdan farq qilmasdi.

Ko‘ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do‘stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?
Haqorat dilni og‘ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?
Tiriksan, o‘lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsen,
Kishan kiyma, bo‘yin egma,
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘ansan![5]

Shoir “Ko‘ngil’’ nomli ushbu mashhur she’rida ko‘ngilga murojaat qilib nafaqat ilojsiz qolgan ko‘ngliga, balki qiyin ahvolda qo‘lida kishandek og‘ir bir yuk bilan qolgan xalqiga murojaat qilmoqda. Parchada ma’rifatparvar ijodkorning orzu-istak va maqsadi singdirilgan da’vat yozilganki, insonlarga tirikligini, to tirik ekan harakat qila olishini, har qanday kishanni bo‘shata olishga qodir ekanligi va eng asosiysi, hur va erkin tug‘ilganini ta’kidlaydi. Umuman olganda, shoir she’riyatida timsol va ramzlar milliy istiqlol, erk va ozodlik g‘oyalarini ifodalash uchun keng qo‘llanilgan. Avvalo, qorong‘ulik, zanjir, qamoq kabi bir qator ramzlar mustamlakachilik va zulmni bildirgan. Binafsha, tong, quyosh timsollari esa, erkinlik va orzu-umidlarni anglatar edi.

Cho‘lpon ijodidagi poetik mahorat asosan quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ramziylik va metaforik tafakkur, tabiat va inson ruhiyati uyg‘unligi, musiqiylik va ritm ya’ni vazn, xalqona ifoda va milliy ruh, yangi badiiy obrazlar tizimi. Misol tariqasida yuqorida keltirilgan “Ko‘ngil’’ she’rini aynan shu sifatlar bilan tahlil qilib ko‘ramiz. Undagi asosiy g‘oya va obrazlar milliy ruh va hurriyatdir. She’rda tashxis, istiora, tazod kabi she’riy san’atlardan foydalaniladi; barmoq vaznida yozilgan, bu ritm o‘quvchini g‘aflatdan uyg‘onishga undaydi; ijodkor “Tiriksan, o‘lmagansan, sen-da odam, sen-da insonsan!’’ misrasida nafaqat lirik qahramonga, balki butun millatga qarata hayqiradi, inson qadr-qimmatini har narsadan ustun qo‘yadi.

Xulosa qilib ayta olamizki, jadidchi ma’rifatparvar she’riyatida manaviy qadriyatlar ozodlik, milliy uyg‘onish, ma’rifat, insoniy erkinlik va Sharqona go‘zallik qarashlari orqali yorqin ifodalangan. U millatni zulmatdan uyg‘onishga, o‘zlikni anglashga va erkinlik uchun kurashishga chorlagan, ijodida poklik va go‘zallikni sevish ma’naviy yuksalish sifatida talqin etilgan.

5 Cho‘lpon. Ko‘ngil. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1920.390-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2006.254-bet.
2. Elbek. Kelgusining quyoshi. –Toshkent: Maorif va o‘qitg‘uvchi nashriyoti, 2021.74—76-bet.
3. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti ,1991.7-bet.
4. Cho‘lpon. Ulug‘ yo‘lda. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1920. 395-bet.
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1920. 395-bet.
6. Cho‘lpon. Ko‘ngil. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1920.390-bet.

Dilnura ASHRAFOVA,
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali
O‘TVA yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Z.ASHUROVA,**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining
Urgut filiali dotsenti

ZULFIYA IJODIDA BAHOR TASVIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada Zulfiya ijodida milliylik mavzusi tahlil qilinadi. Unda shoira she’riyatida sharqona ayol psixologiyasi, o‘zbek xalqiga xos an’ana va qadriyatlarning badiiy talqini, shuningdek, Vatan timsoli orqali milliy g‘urur ifodasi yoritib berilgan.Maqolada Zulfiya asarlarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati ham ochib berilib, uning ijodi milliy ruhni shakllantirishda muhim manba ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *milliy estetika, milliy o‘zlik, o‘zbekona madaniyatlar, vatanparvarlik, insoniylik, sadoqat.*

Аннотация: в данной статье анализируется тема национальной самобытности в творчестве Зульфии. В ней рассматриваются особенности восточной женской психологии в поэзии поэтессы, художественное осмысление традиций и ценностей, присущих узбекскому народу, а также выражение национальной гордости через образ Родины. В статье также раскрывается значение произведений Зульфии в воспитании молодого поколения и обосновывается, что её творчество является важным источником формирования национального духа.

Ключевые слова: *национальная эстетика, национальная идентичность, узбекская культура, патриотизм, человечность, верность.*

Annotation: this article analyzes the theme of national identity in Zulfiya’s works. It examines the reflection of Eastern female psychology in her poetry, the artistic interpretation of traditions and values characteristic of the Uzbek people, as well as the expression of national pride through the image of the Motherland. The article also highlights the importance of Zulfiya’s works in educating the younger generation and substantiates that her works are an important source for shaping the national spirit.

Key words: *national aesthetics, national identity, Uzbek culture, patriotism, humaneness, devotion.*

Kirish.O‘zbek adabiyoti tarixida Zulfiya Isroilova nafaqat iste’dodli shoira, balki milliy ruh, sadoqat va ayol matonatining ramzi sifatida gavdalanadi. Uning ijodi xalqimizning asriy qadriyatlari, o‘zbekona lutf va nafosat bilan sug‘orilgan. Zulfiya she’riyati—bu shunchaki qofiyalangan satrlar emas, balki o‘zbek ayolining qalb chirog‘i, millatning ma’naviy ko‘zgusidir. Shoira o‘z ijodi orqali milliylikni umuminsoniy tuyg‘ular bilan bog‘lab, o‘lmas meros qoldirdi. Zulfiya she’rlarida sharqona ayolning ichki dunyosi barcha murakkabliklari va go‘zalligi bilan ochib beriladi. Uning qahramoni — ham sevimli yor, ham mehribon ona, ham jamiyatning faol a’zosi. Shoira ayol psixologiyasini tasvirlashda hayo va ibo pardasini saqlagan holda, uning o‘tli qalbi va mustahkam irodasini ko‘rsata oladi.

“Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduzi yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!”[1]

Ushbu satrlar o‘zbek ayolining vafodorlik borasidagi yuksak ma’naviyatini ifodalaydi. Turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjondan keyin uning xotirasiga sodiq qolib, bu sadoqatni butun bir millatning faxriga aylantira olishi chinakam o‘zbekona fazilatdir.

Zulfiya ijodida bahor va hijron mavzulari bir-birini to‘ldiruvchi falsafiy tushunchalardir. Shoira tabiatning uyg‘onishini qalbning ichki sog‘inchi bilan bo g‘laydi. Bahor — bu umid va hayotiylik ramzi. Shoira bahorni “so‘roqlab kelgan” qadrdonidek kutib oladi. Sog‘inch — bu tushkunlik emas, balki “nurli hijron”dir. Uning mashhur “Bahor keldi seni so‘roqlab” misrasida bahor va sog‘inch birlashadi. Agar bahor tashqi olamdagi ranglar jilosi bo‘lsa, sog‘inch — ichki dunyodagi ma’naviy poklanishdir. Bu ikki tuyg‘u shoira ijodida vafodorlikning ikki tomoni bo‘lib xizmat qiladi. Zulfiya she’riyatida hijron hech qachon qorong‘u zulmatga aylanmaydi, u bahor quyoshi bilan nurlangandir. Shoira tabiatning uyg‘onishini qalbining mangu sog‘inchi bilan birlashtirib, o‘zbek adabiyotida betakror lirik olam yaratgan.

“Lola” she’rida shoiraning ichki dunyosi, go‘zallikka bo‘lgan oshuftaligi va yoshlik xotiralari lola obrazi orqali ifodalanadi. She’r boshidagi “Lola, lola, butun koinot lola” misralari kuchli mubolag‘a orqali lirik qahramonning hayratini aks ettiradi. Bu yerda lola oddiy gul emas, balki

1 Zulfiya. Ko‘zlaringda bormi yulduzing: she’rlar. – Toshkent: „Zabarjad Media“, 2021. 27-bet

butun borliqni qamrab olgan go‘zallik timsoliga aylanadi. “Ko‘zim qamashadi, aqlim zavqdan lol” misralarida esa go‘zallikning inson ruhiyatiga kuchli ta’siri ko‘rsatiladi. Shoira “qizil shalola” kabi tashbehlar orqali lola rangini, jo‘shqinligini va jozibasini yanada jonlantiradi. Biroq she’rning keyingi qismida ohang o‘zgaradi: “Yoshligim ekan: bosib, yanchib o‘tganman” misralari orqali lirik qahramon o‘tgan davriga tanqidiy nazar bilan qaraydi. Bu yerda pushaymonlik, anglash va hayotiy xulosa ustuvor bo‘ladi. Yakunda esa “Endi-chi?” savoli bilan hozirgi ongli munosabat ifodalanadi, ya’ni go‘zallikni qadrlash g‘oyasi ilgari suriladi.

“Kelin tushdi” she’rida esa butunlay boshqacha ruh — milliy an’ana va jamoaviy quvonch tasvirlanadi. “Qo‘shnimiz uyiga tushmakda kelin, hovliyu ko‘chani zabt etgan karnay” misralarida to‘y manzarasi jonli va tantanavor tarzda beriladi. Karnay-surnay sadolari, qadimiy kuylar tasviri orqali xalqning boy madaniyati aks ettiriladi. “Qadim-qadimlardan kelib kuylar nay” misrasi esa an’analar davomiyligini anglatadi. Shoira nafaqat tashqi manzarani, balki ichki kechinmalarni ham ifodalaydi: “Mening dilimda ham bahor urdi qulf” misrasida to‘y quvonchi lirik qahramon qalbida ham yangilanish hissini uyg‘otadi. She’r oxirida “Boqiy qolsin juft-la sevgi visoli” kabi tilaklar orqali asar ijobiy, ezgu ruhda yakunlanadi.

Zulfiyaning “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’ri nafaqat onalik mehri, balki urushga bo‘lgan nafrat va tinchlikka bo‘lgan tashnalikning yuksak badiiy ifodasidir. Zulfiya ushbu she’rida o‘zbek ayolining ham ona, ham ota bo‘lib farzand tarbiyalashdagi matonatini va urush asoratlari keltirgan ma’naviy kemtiklikni mahorat bilan ochib bergan. Ushbu misralar shoira hayotining eng og‘ir va ayni paytda eng g‘ururli nuqtasini ko‘rsatadi:

“Ota bo‘lib soldim men yo‘lga,
Ona bo‘lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o‘g‘il o‘stirgan
Bir davlatmand boy bo‘lib qoldim.”[2]

2 Zulfiya. Kuylarim sizga. She’rlar. – Toshkent: “Badiiy adabiyot“, 1965. 157-bet

Zulfiya talqinida milliylik — bu o‘zbek onasining bardoshi va farzand tarbiyasidagi fidoiyligidir. Uning nazarida munosib o‘g‘ilni voyaga yetkazish eng oliy baxt va haqiqiy davlatmandlikdir.

Zulfiya ijodida “Mushoira” tushunchasi ham muhim o‘rin tutadi. U o‘zbekning so‘zga bo‘lgan hurmatini, san’atsevarligini va mehmondo‘stligini she’riyat tili bilan dunyoga tanitdi. She’rda shoira o‘zbekona mehmondo‘stlik va samimiyatni Hindiston tuprog‘ida namoyon etadi.

“Sharqning ham buzilmas odatlari bor,
Hindlar udumiga qilamiz amal.
Chordana quramiz mehmon va mezbon,
Kamalakrang gilam uzra bemalol.”[3]

Milliylik bu yerda nafaqat tilda, balki xatti-harakat va o‘zaro hurmatda ham namoyon bo‘ladi. Shoira she’riyatni xalqlar o‘rtasidagi eng kuchli do‘stlik vositasi deb biladi. Zulfiya uchun milliylik o‘z qobig‘iga o‘ralib qolish emas, balki o‘z milliy boyligini boshqa xalqlarga ham yetkazishdir.

“Mushoira” she’ri shoira ijodining miqyosi naqadar kengligini, u o‘zbek ayoli nomidan jahon minbarlarida turib so‘zlay olganini isbotlaydi. Bu asar o‘zbek madaniyatining xalqaro do‘stlik va hamkorlikdagi o‘rnini belgilab beruvchi muhim manbadir. Zulfiya o‘z asarlari bilan yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va insoniylik ruhida tarbiyalashda xizmat qiladigan haqiqiy ma’naviy maktab yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya ijodi — o‘zbek xalqining milliy ruhini, orzu-umidlarini va sadoqatini o‘zida mujassam etgan yuksak badiiy obidadir. Uning she’riyati vaqtlar o‘tsada, o‘zining jozibasi va tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmaydi, balki yangi avlodlar uchun ma’naviy quvvat manbai bo‘lib xizmat qilaveradi.

3 Zulfiya. Yillar sadosi: Saylanma. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. 78-bet

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya. Ko‘zlaringda bormi yulduzing: She’rlar. –Toshkent: „Zabarjad Media“, 2021.
2. Zulfiya. Kuylarim sizga. She’rlar. – Toshkent: „Badiiy adabiyot“, 1965.
3. Zulfiya. Hijron kunlarida. She’rlar. – Toshkent: Uz SSR davlat nashriyoti, 1944.
4. Zulfiya. Yillar, yillar… She’rlar. –Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.
5. Zulfiya. Yillar sadosi: Saylanma. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. 78-bet

Muhayyo SAIDOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” fakulteti 2-kurs magistranti.

“OLTIN QOBOQ” DOSTONIDA OBRAZLAR TARKIBI

Annotatsiya: ushbu maqolada Sherobod dostonchilik maktabi epik an’analarida keng tarqalgan “Oltin Qoboq” dostonining g‘oyaviy asoslari, umumo‘zbek dostonchiligida tutgan o‘rni, va obrazlar tarkibi tahlil qilingan. Doston variantlaridagi har bir obraz qiyoslanib, tahlil qilingan, bosh va yordamchi obrazlarning xalq estetik tafakkuridagi o‘rni hamda ularning ramziy – majoziy ma’nolari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *doston, baxshi, variant, syujet, motiv, obraz, badiiy mahorat, dostonchilik maktabi, kompozitsiya.*

Аннотация: в данной статье анализируются идеологические основы эпической поэмы «Олтин Кобок», широко распространенной в эпических традициях шерабадской школы эпической поэзии, её место в национальной узбекской эпической поэзии и композиция образов. Каждый образ в эпических вариантах сравнивается и анализируется, обосновывается роль главных и вспомогательных образов в народном эстетическом мышлении и их символическое и образное значение.

Ключевые слова: *эпос, бахши, вариант, сюжет, мотив, образ, художественное мастерство, эпическая школа, композиция.*

Annotation: this article analyzes the ideological foundations of the epic poem “Oltin Qoboq”, which is widespread in the epic traditions of the Sherabad school of epic poetry, its place in the national Uzbek epic poetry, and the composition of images. Each image in the epic variants is compared and analyzed, the role of the main and auxiliary images in the folk aesthetic thinking and their symbolic and figurative meanings are substantiated.

Key words: *epic, bakhshi, variant, plot, motif, image, artistic skill, epic school, composition.*

Dunyodagi ayrim xalqlarda o‘zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqea bayon etiladigan janrlar bor. Biz - o‘zbeklarda bu janr “doston” deb ataladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida doston eng yirik hajmli va keng tarqalgan janr hisoblanadi. Dostonlar xalqning badiiy shakldagi taqdirnomasi, o‘ziga xos qomusidir.

O‘zbek xalqi epik ijodida Go‘ro‘g‘li va uning asrandi o‘g‘illari, safdoshlari hayotidan hikoya etuvchi dostonlar majmuasi alohida o‘rin tutadi. “Go‘ro‘g‘li ” turkumiga kiruvchi “Oltin qoboq” dostoni ham o‘zining mavzu ko‘lami, badiiyati, poetik xususiyatlari bilan bu turkumdagi dostonlar ichida ajralib turadi.

“Oltin qoboq” dostonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, undagi obrazlarning dostonda o‘z o‘rni va ahamiyati bor. Dostonning har ikkala variantida ham deyarli bir xil obrazlar tilga olinsa-da, yordamchi obrazlarda farqli tomonlar bor.

Dostonning bosh qahramoni Go‘ro‘g‘li Gulboy baxshi Mirzayev tomonidan aytilgan variantda shunday tasvirlanadi: “Qadim o‘tgan zamonda Taka Yovmut tomonda Chambil mamlakatida xon Go‘ro‘g‘li davr – u davron surib o‘tdi. Go‘ro‘g‘li zo‘rligini keng jahonga bildirib, Oqtosh bilan Ko‘ktoshdan charqiratib jildirib, Chambil elning peshtoqiga qo‘ndirib, osmonda uchayotgan parini xotinlikka qo‘ndirib Tajang daryo suvini o‘n to‘rt kanal qazdirib, Chambil mamlakatiga qaratib ochib berdi ”.

Abdunazar Poyonov variantida ham shunga yaqin ta’rif berilgan: “Mana, o‘tgan zamonda, el – u xalqi omonda, o‘zi qibla tomonda bir mamlakat bor edi, otini Chambil der edi. Chambil mamlakatining podshosini Go‘ro‘g‘lixon der edi. Go‘ro‘g‘lixon o‘n to‘rt yoshda mamlakatga podsho bo‘ldi, Oqtosh bilan Ko‘ktoshni chorparra qilib yo‘ndirib, namoyishga bo‘lsin deb darvozaga qo‘ndirib, qirq shahardan qirq botirni keltirib Chambilda davr – u davronni surib yurar edi. Ana Eram bog‘idan, Ko‘hi Qofdan Yunus, Misqol parini olib kelib yashar edi. Lekin ikki paridan ham biror farzandi bo‘lmadi. Ana shunda Go‘ro‘g‘li Yoshi oltmishga borganda Gurjistondan Avazxonni, Vayangandan Hasanxonni farzandlikka olib kelib ikki parining yoqasidan solib, etagidan olib, qiyomatni o‘rtaga qo‘yib, shularni qiyomatli farzandim deb edi ”.

Dostonning markaziy obrazlaridan bo‘lmish Ahmad sardor Abdunazar Poyonov variantida quyidagicha ta’riflanadi: “Ahmad degan endi bir safardan kelgan edi, charchaganmi yo bo‘lmasa bir shumligi tutdimi jon boshini ko‘tarmay jota berdi. E, Go‘ro‘g‘li kelsa kelabersin, podsho bo‘lsayam, men tog‘a ul jiyan bo‘ladi.Tog‘a jiyandan ulug‘ bo‘ladi. Ha, kelsa turmay kiraveradi–da deb, yonboshni ko‘tarmay yotaberdi.” Polapon tog‘iga borib, chorvadan xabar olgani va chorvani yomonlab gapirgani ham uning fe’l – atvoridagi hasadgo‘ylik, manmanlikka ishora qiladi:

“So‘zim tingla Chambilbelning to‘rasi,
Olis ekan Polaponning orasi.
Yolg‘on ekan saratonning jalasi.
Buzulib qolibdi qo‘ylarning qo‘rasi,
Chorvadorning ahvoli tang, sultonim – ey.

Gulboy baxshi Mirzayev variantida bu obraz alohida ta’rifga ega bo‘lmasa-da, lekin o‘zining nutqida qiyofasi yaqqol ochiladi. Masalan, “...shunda Ahmad, Go‘ro‘g‘li oldima kelibdi, Chambil mamlakatini menga berib, menga topshirib ketadi, deb o‘ylagan edi.Shunda Go‘ro‘g‘liga qarab, “Ey jiyanim, necha yillab sening bilan bir yostiqqa bosh qo‘ygan Yunus va Misqol paridan borib, maslahat so‘ra debdi. Xo‘b izza

gaplar qilganidan keyin, xon Go‘ro‘g‘li shunda miskin bo‘lib tog‘asidan izza gaplar eshitib qaytibdi”.

Dostondagi Yunus va Misqol parilar ham Gulboy baxshi Mirzayev variantida “osmonda uchayotgan farishta”ga qiyoslanadi. Bundan tashqari Go‘ro‘g‘lining nutqida ularga qarata aytilgan shunday ta’rif bor:

“ Oh deganda yuragimga dorisiz,
Ko‘zimning nuri ham, qalbim qo‘risiz.
Xazinamning oltin bilan zarisiz,
Go‘ro‘g‘lining sevib olgan yorisiz.
Dev naslidan chaqqon ikki parisiz,
Yurtimni kimga topshiray, parilar – ey ”.

Abdunazar Poyonov aytgan variantida ham Yunus va Misqol parilarni o‘zining dardiga “dori” deya ataydi. Ularning itoatliligi, sermulohaza ekanligi esa o‘zlarining nutqlariga singdirilgan: “ Ey to‘ram, qolmadi bizda orom. Shuncha biz bilan o‘sgan birga yurgan bek jo‘ram, orqa sochlari buram – buram. Barisi siz uhun edi to‘ram. Endi bizdan maslahat so‘raganingiz to‘g‘ri. Agar bir o‘z pushti kamaringizdan farzand bo‘lganda hech kim nomaqul deb aytolmas edi. Avazxon, Hasanxonni podsho qilib qo‘ysangiz turkmanlar gap qiladi. Ha deganda podsholikni berib ketdi deb gap qiladi. Endi bizdan ko‘ra sizga yaqinroq Ahmad degan tog‘angiz bor nima bo‘lsa ham tog‘ada. Yaxshimi – yomonmi, do‘stmi – dushmanmi, tog‘adan ulug‘ odam yo‘q. Boring, Ahmad tog‘angizdan maslahat so‘rang. Tog‘angiz nima desa shuni qilabering ”.

Shodmon merganga Abdunazar Poyonov ta’rif berar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: “ Shodmon degani turkmandan emas, qipchoqlardan edi, o‘zi sal qo‘polroq edi. Botirlikda unga teng keladigani yo‘q edi, merganlikda ham zo‘r edi. Qushning ko‘zidan urar edi. Buning bir achchig‘i tez, asab edi. Agar bir achchig‘i kelib turkmanni oralab ketsa, yeti – sakkiz turkmanni nari – beri qilar edi. Uni turkmanlar bilar edi , hammasi qo‘rqib yurar edi…”.

Gulboy baxshi Mirzayev Shodmon merganga ta’rif berar ekan: “Shodmonning qahri kelib, ilonday zahri kelib, g‘ayrati toshib, ko‘rganning aqli shoshib borar edi. Shodmon mergan otni minib, yo‘lga ravona bo‘lib, turkmanning shul ishiga, gapiga yarasha qoboqni otmasam otimni o‘chiraman deb, Ko‘kdo‘nanning beliga minib qoboqqa ketayotgan joyi:

Qor ham yog‘ar osmondan,
El uchun kechar jondan.
Do‘mbira chert yuragimdan,
Hayiqmadi – ya hech kimdan.

Dostondagi asosiy obrazlarlardan biri Go‘ro‘g‘lining asrandi farzandi Avaz bo‘lib, bu obraziga ta’rif berar ekan, Abdunazar Poyonov shunday deydi: “Avazxon jilovini ushlab, ko‘nglini xushlab, belni mahkam boylab, qo‘liga farangni ushlab ikki – uch qadam tashlab, otni yetaklab Go‘ro‘g‘li sulton otasining oldiga keldi. Shunda otasining oldiga kelib tiz cho‘kib, norday bukilib, otasiga qarab: Ey otajon, meni farzand dedingiz, olti yoshdan olib keldingiz shuncha ulg‘aytirib o‘stirdingiz bugun menga navbatni berdingiz. Boz ustiga norday kalla G‘irotni berdingiz. Otajon endi menga bir duo ham bersangiz. Olti yoshda keb edim, sizni ota deb edim, tuz – u noningizni yeb edim, ota endi bir qo‘l ko‘tarib duo bering”,- deydi.

Gulboy baxshi Mirzayev Avaz obraziga to‘xtalar ekan, quyidagilarni Avazning tilidan aytadi:

Obod bo‘lsin Chambilbelday joyim,
Qo‘llasinda avval qodir xudoyim.
Ocharmanda bugun taqdir manglayim,
Bu yurtda bo‘lsin shodlik – u to‘yim.
So‘ylayapman tilim toyib ketmasin,
Bir so‘z bilan mendan ayb o‘tmasin.
Dushmanlarning asabiga tegmasin,
Qo‘l ko‘tarib duo bering, padarim
Otgan o‘qim sira zoye ketmasin.

Doston tarkibida Ahmad sardorning xotini obrazi bo‘lib, Gulboy baxshi Mirzayev variantida ismi berilmay qahramon tilida “ checha” deb berilgan bo‘lsa, Abdunazar Poyonov aytgan variantida u Qorasochoyim deb berilgan. Go‘ro‘g‘li Ahmad tog‘asinikiga borganda uni dastlab Qorasochoyim qarshi oladi. “...Ana Qorasochoyim yugurib eshikka chiqsa, Go‘ro‘g‘li uyning oldiga kelib qolgan. Shunda nima deyarini bilmay, tili gapga kelmay Go‘ro‘g‘liga qarayolmay poy – u patak bo‘lib turib edi”.

Xulosa qilib aytganda, “Oltin qoboq ” dostonidagi obrazlar orqali yurtni asrash, sadoqat va jasorat, shuningdek nafsni jilovlash, qanoat va boylikning o‘tkinchiligi kabi axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalar ilgari suriladi. Dostonning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlari mardlik va jasoratni ulug‘lash bo‘lib, unda qahramonlarning el – yurt tinchligi va sharafini himoya qilishdagi jasorati va sadoqati asosiy o‘rinda turadi. Dostonda adolat va insonparvarlik ulug‘lanib, u zulmga qarshi kurash, adolatli hukmdor yoki botir obrazi orqali xalq orzu – umidlarini ifodalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Axloqiy poklik ham dostonning yetakchi g‘oyalaridan bo‘lib, nafsga erk bermaslik, dunyo boyliklariga hirs qo‘ymaslik, oxiratni o‘ylash va halollik targ‘ib qilinadi. Vatanparvarlik, yurtni dushmanlardan asrash, birdamlik va hamjihatlik g‘oyalari uyg‘unlashgan holda beriladi. “Oltin qoboq ” dostonida insoniyat uchun muhim bo‘lgan ma’naviy qadriyatlar ya’ni boylikdan ko‘ra ma’naviy boylik va nomning ulug‘ligi ustun qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. –Toshkent: Fan , 2011.3-bet.
2. Sulaymonov M. O‘zbek folklori. – Namangan, 2019.58-bet.
3. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2010. 92-bet.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: “Musiqa”, 2010.
5. Ochilov N. “Zulfizar dostonining variantlari va genezisi” maqola. Til va adabiyot ta’limi.

Mohina TIRKASHEVA,
Qarshi davlat universiteti
Adabiyotshunoslik 2-kurs magistranti

FOLKLOR AN'ANALARINING JADID DRAMALARIGA TA'SIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada folklor an'analarining jadid dramaturgiyasi rivojiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan. Unda jadid dramaturglarining xalq og'zaki ijodidan foydalanish usullari, xususan maqol va matallar, xalqona til, qo'shiq hamda hajv unsurlarining dramalarda qo'llanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *folklor, jadid dramaturgiyasi, jadidchilik, xalq og'zaki ijodi, drama, teatr, maqol va matallar, milliy adabiyot, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, xalqona til, milliy teatr, ma'rifatparvarlik.*

Annotation: this article analyzes the influence of folklore traditions on the development of Jadid drama. It highlights the ways Jadid playwrights used elements of oral folk art, including proverbs, sayings, folk language, songs, and satirical motifs in their dramatic works.

Key words: *folklore, Jadid dramaturgy, Jadidism, oral folk art, drama, theater, proverbs and sayings, national literature, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudhoja Behbudiy, folk language, national theater, enlightenment.*

Аннотация: в данной статье анализируется влияние фольклорных традиций на развитие джадидской драматургии. Освещаются способы использования джадидскими драматургами элементов устного народного творчества, в частности пословиц и поговорок, народного языка, песен и сатирических мотивов в драматических произведениях.

Ключевые слова: *фольклор, джадидская драматургия, джадидизм, устное народное творчество, драма, театр, пословицы и поговорки, национальная литература, Хамза Хакимзода Ниёзи, Махмудходжа Бехбуди, народный язык, национальный театр, просветительство.*

O'zbek adabiyoti tarixida jadidchilik harakati alohida o'rin egallaydi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan bu ma'rifatparvarlik harakati xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, milliy ongni uyg'otish hamda jamiyatni yangilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Jadid adabiyotining muhim yo'nalishlaridan biri drama janri bo'lib, u xalq hayotidagi muammolarni sahna orqali yoritishda katta ahamiyat kasb etdi. Jadid dramaturglari xalq ongiga tezroq ta'sir qilish uchun asarlarida folklor an'analaridan keng foydalandilar.

Folklor xalqning asrlar davomida shakllangan og'zaki ijodi bo'lib, unda millatning urf-odatlari, qarashlari, orzu-intilishlari mujassamdir. Ertaklar, dostonlar, maqollar, matallar, lapar va qo'shiqlar xalq tafakkurining mahsuli sifatida adabiyot rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Jadid dramaturgiyasi ham aynan shu manbadan oziqlandi. Dramalarda xalqona til, maqol va matallar, kulgi unsurlari, obraz yaratishdagi folklor an'analari keng qo'llanildi. Mazkur maqolada folklor an'analarining jadid dramalariga ko'rsatgan ta'siri, dramaturglarning xalq og'zaki ijodidan foydalanish usullari hamda bu holatning milliy dramaturgiya taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Jadid adabiyoti Turkiston hududida ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar kuchaygan bir davrda vujudga keldi. O'sha paytda xalq savodsizligi, eskicha ta'lim tizimi, ayollar erkinligining cheklanishi kabi muammolar jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan edi. Jadid ziyolilari bu masalalarni matbuot, maktab va teatr orqali hal etishga harakat qildilar. Drama janri jadidlar uchun eng qulay vositalardan biri bo'ldi. Chunki sahna orqali xalq bilan bevosita muloqot qilish, muammolarni jonli tasvirlash imkoniyati mavjud edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ijodkorlar jadid dramaturgiyasining rivojiga katta hissa qo'shdilar. Jadid dramalarining asosiy xususiyatlaridan biri xalq hayotiga yaqinlikdir. Asarlarda oddiy insonlarning turmushi, orzu-intilishlari va muammolari aks ettirilgan. Bu yaqinlik esa folklor an'analari bilan chambarchas bog'liq edi. Chunki xalq og'zaki ijodi ham oddiy xalq hayotini ifodalovchi san'at turi hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodining asosiy belgilaridan biri sodda va ta'sirchan ifoda usulidir. Jadid dramaturglari ham aynan shu uslubni qo'llashga intildilar. Chunki murakkab badiiy til oddiy tomoshabin uchun tushunarsiz bo'lishi

mumkin edi. Shuning uchun dramalarda xalqona iboralar, maqollar va hikmatli so‘zlar keng ishlatildi. Masalan, Hamza dramalarida xalq qo‘shiqlari va laparlarning qo‘llanishi asarning emotsional ta’sirini oshiradi. Behbudiy asarlarida esa xalq orasida mashhur bo‘lgan pand-nasihat usuli kuchli seziladi. Bu holat tomoshabinning asarni oson qabul qilishiga yordam bergan. Shuningdek, folklor dramatik konflikt yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Xalq ertaklari va dostonlaridagi ezgulik hamda yovuzlik o‘rtasidagi kurash jadid dramalarida ham davom etdi. Ammo jadid dramaturglari bu kurashni zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan bog‘ladilar.

Jadid dramalaridagi ayrim obrazlar xalq ertaklari va dostonlaridagi qahramonlarga yaqin turadi. Masalan, zolim boy, johil domla, ayyor savdogar kabi obrazlar folklordagi salbiy qahramonlarni eslatadi. Shu bilan birga, ilmli yosh, ma’rifatparvar ustoz yoki jasur ayol obrazlari xalqning orzu-intilishlarini ifodalaydi. Folklorda qahramonlar odatda, aniq xarakterga ega bo‘ladi. Jadid dramaturgiyasida ham shu usul davom ettirildi. Ijobiy qahramonlar halol, ilmli va adolatparvar qilib tasvirlangan bo‘lsa, salbiy obrazlar jaholat va nodonlik timsoli sifatida berilgan.

Bu holat tomoshabinning qaysi obrazni qo‘llab-quvvatlashi kerakligini aniq ko‘rsatib bergan. Natijada drama nafaqat badiiy asar, balki tarbiyaviy vosita vazifasini ham bajargan. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziy jadid dramaturgiyasining yirik namoyandalaridan biridir. Uning asarlarida folklor unsurlari juda kuchli seziladi. Hamza xalq qo‘shiqlari, lapar va termalardan keng foydalangan. Ayniqsa, “Maysaraning ishi” dramasida xalq kulgisi va hajv an’analari yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarda xalq og‘zaki ijodiga xos sodda va jonli dialoglar mavjud. Qahramonlarning nutqi xalq tiliga juda yaqin bo‘lib, bu holat asarning ta’sirchanligini oshirgan. Hamza xalq san’atining teatr uchun qudratli vosita ekanligini yaxshi anglagan. Shu sababli u milliy kuy-qo‘shiqlarni dramaga singdirib, tomoshabinga yanada yaqinlashgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek dramaturgiyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning “Padarkush” dramasi jadid dramaturgiyasining ilk namunalaridan sanaladi. Ushbu asarda ham xalqona ruh kuchli seziladi.

Behbudiy xalqning kundalik hayotini tabiiy tasvirlashga intilgan. Qahramonlar nutqida maqollar va hikmatli iboralar ko‘p uchraydi. Bu esa asarning milliy ruhini kuchaytiradi. “Padarkush”da jaholat oqibatlari ko‘rsatiladi. Bu g‘oya xalq og‘zaki ijodidagi “ilmning foydasi” haqidagi qarashlar bilan uyg‘unlashadi. Demak, Behbudiy folklor an’analaridan zamonaviy ma’rifiy g‘oyalarni targ‘ib qilishda foydalangan.

Jadid dramaturgiyasining muvaffaqiyatga erishishida folklorning roli juda katta bo‘ldi. Xalq og‘zaki ijodiga tayanish teatrni xalqchil san’atga aylantirdi. Tomoshabin o‘ziga tanish bo‘lgan til, qo‘shiq va obrazlarni sahnada ko‘rib, asarni tezroq qabul qilgan. Folklor an’analari milliy teatrning shakllanishida ham muhim omil bo‘ldi. Jadid dramaturglari xalq tomoshalari, qiziqchilik va dorbozlik san’ati elementlarini teatrga olib kirganlar. Natijada o‘zbek milliy teatri rivojlandi.

Shuningdek, folklor orqali milliy qadriyatlar saqlab qolindi. Jadidlar g‘arb dramaturgiyasidan ta’sirlangan bo‘lsalar-da, xalq an’analariga suyanish orqali milliylikni yo‘qotmadilar. Folklor an’analari jadid dramaturgiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Xalq og‘zaki ijodi unsurlari dramalarning badiiy qiymatini oshirib, ularni xalq ruhiga yaqinlashtirdi. Maqol va matallar, xalqona til, qo‘shiq va hajv elementlari jadid dramalarining ta’sirchanligini kuchaytirdi. Hamza, Behbudiy va boshqa dramaturglar folklordan foydalanish orqali milliy dramaturgiyaning mustahkam asoslarini yaratdilar. Ularning asarlarida xalqning orzu-intilishlari, ma’rifatga bo‘lgan ehtiyoji va ijtimoiy muammolari o‘z ifodasini topdi. Bugungi kunda ham jadid dramaturgiyasi va folklor munosabatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu meros milliy madaniyatimiz, teatr san’atimiz va adabiyotimiz taraqqiyotining muhim bosqichini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov N. Jadid adabiyoti namunalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
2.Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
3.Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5.Rasulov A. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: Fan, 1974.
6.Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

Nigina QUDRATILLOYEVA,
O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA ONA OBRAZINING BADIIY- PSIXOLOGIK TALQINI
(JAMILA ERGASHEVA HIKOYALARI MISOLIDA)

Annotatsiya: Jamila Ergasheva asarlaridan namuna sifatida foydalanib, ushbu maqola zamonaviy o‘zbek yozuvidagi ona obrazini ham badiiy, ham psixologik nuqtayi nazardan o‘rganadi. Tadqiqot davomida ruhiy kechinmalar, ichki monologlar, hayotdagi nomuvofiqliklar bilan bog‘liq muammolar va ularning ona obrazining ijodiy ifodasi o‘rganiladi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, muallif asarlaridagi ona obrazi ham sevgi va sadoqat ramzi, ham murakkab ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarning markaziy nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda shuningdek, rasmlarning individualizatsiyasi, zamonaviy tilda psixologizmning kuchayishi va ona shaxsiyati haqida yangicha qarashlar haqida xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: *ona obrazi, zamonaviy o‘zbek nasri, badiiy psixologizm, ichki kechinma, Jamila Ergasheva, ruhiy tasvir, individual xarakter, nasriy tahlil.*

Аннотация: в данной статье на примере произведений Джамилы Эргашевой рассматривается образ матери в современной узбекской прозе с художественной и психологической точек зрения. В ходе исследования анализируются духовные переживания, внутренние монологи, жизненные противоречия и проблемы, а также их отражение в творческом воплощении образа матери. Согласно научным выводам, образ матери в произведениях автора выступает не только символом любви и преданности, но и центральным элементом сложных социальных и духовных процессов. Также в исследовании делаются выводы об индивидуализации художественных образов, усилении психологизма в современном языке и новых подходах к осмыслению личности матери.

Ключевые слова: *образ матери, современная узбекская проза, художественный психологизм, внутренние переживания, Джамила Эргашева, психологическое изображение, индивидуальный характер, прозаический анализ.*

Annotation: this article explores the image of the mother in modern Uzbek prose from both artistic and psychological perspectives, based on selected works by Jamila Ergasheva. The study analyzes emotional experiences, inner monologues, life contradictions, and related issues, as well as their creative representation in the depiction of the mother figure. According to the research findings, the image of the mother in the author’s works functions not only as a symbol of love and devotion but also as a central element reflecting complex social and spiritual processes. The study also draws conclusions about the individualization of characters, the intensification of psychologism in modern language, and new perspectives on the personality of the mother.

Key words: *mother image, modern Uzbek prose, artistic psychologism, inner experience, Jamila Ergasheva, psychological depiction, individual character, prose analysis.*

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojida inson ongini chuqur va puxta tasvirlash mavzusi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxslarning ichki hayotini ochib berish va ularning ma’naviy kechinmalarini ijodiy ifodalash, ayniqsa, nasriy shaklda muhim estetik standartga aylandi. Ushbu nuqtai nazarga ko‘ra, ona obrazi zamonaviy adabiyotda, ayniqsa muhimdir. Chunki har bir milliy adabiyotda eng hurmatga sazovor, murakkab va ko‘p o‘lchovli obrazlardan biri bu ona obrazidir.

An’anaga ko‘ra, ona sabr-toqat, sevgi, sadoqat va hayot haqidagi bilimlarning timsoli sifatida tasvirlangan. Bu jarayonning eng yaxshi illyustratsiyalari qatorida Jamila Ergashevaning hikoyalari bor. Muallifning yozma asarlarida inson ongi, xususan, ayol va ona ruhining murakkab qirralari batafsil o‘rganilgan. An’anaviy tasvirlardan voz kechib, onaning ichki dunyosiga chuqurroq kirib borish orqali muallif ma’naviy kechinmalarni jonli va organik tarzda ifodalaydi. Bu o‘quvchiga manzarani yanada yaqinroq his qilish imkonini beradi.

Jamila Ergashevaning hikoyalariga asoslanib, tadqiqot zamonaviy o‘zbek yozuvida ona obrazining ijodiy va psixologik talqinini aniqlashga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: Jamila Ergashevaning hikoyalarida ona obrazining badiiy ifodasini tahlil qilish; zamonaviy nasrda psixologizmning xususiyatlarini aniqlash; adabiyotda ona obrazining an’anaviy talqinlarini o‘rganish va muallif uslubining o‘ziga xos elementlarini aniqlash.

Ona ko‘pincha zamonaviy tilda ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog‘liq sifatida tasvirlanadi. Onaning xarakteri turli omillar, jumladan, oila dinamikasi, avlodlar farqlari va o‘zgaruvchan ijtimoiy kutganlar ta’sirida shakllanadi. Bu elementlar Jamila Ergashevaning asarlarida ham yaqqol ko‘rinib turibdi, bu yerda ona obrazi murakkab ijtimoiy va ruhiy jarayonlarning markazida mujassamlashgan.

Bundan tashqari, muallif ichki monolog, psixologik portret va ramziy elementlar kabi ijodiy texnikalardan foydalangan holda ona obrazini mohirona yaratadi.

Bu tasvirga chuqurlik beradi va o‘quvchiga uning ichki dunyosini his qilish imkonini beradi. Natijada, zamonaviy o‘zbek yozuvida ona obrazi inson ruhiyatining murakkab va ko‘p o‘lchovli ko‘zgusi ham, ma’naviy ideallarning ifodasi ham bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonni tadqiq qilish uchun muhim manba Jamila Ergashevaning ishi hisoblanadi.

B. Karimov o‘zbek nasrida psixologizm bo‘yicha tadqiqotida adabiy asardagi aqliy manzaraning vazifasi va ahamiyatini chuqur o‘rganadi. Olimning ta’kidlashicha, obrazning o‘ziga xos xususiyatlari zamonaviy matnda uning ichki kechinmalarini ochib berish orqali to‘liqroq namoyon bo‘ladi. Ona obrazi ko‘pincha ichki monologlar va ruhiy ziddiyatlar orqali tasvirlanganligi sababli, bu usul ona obrazini o‘rganish uchun ham muhim metodologik asos yaratadi.

D. Qodirova ayol obrazini talqin qilishga bag‘ishlangan asarida zamonaviy adabiyotda ayollar va onalar tasvirlarining yangi jihatlarini rivojlantirishni ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, real hayotdagi muammolar, shaxsiy keskinliklar va ijtimoiy jihatlar bilan boyitilgan obrazlar an’anaviy idealizatsiya o‘rnini bosmoqda. Bu ona obrazi yanada noziklashganidan dalolat beradi.

M. Sodiqov zamonaviy o‘zbek adabiy tendensiyalarini tahlil qilishda psixologizmning rivojlanishi va obrazlarning individualizatsiyasiga alohida e’tibor qaratadi. U zamonaviy tildagi har bir obrazning o‘ziga xos ma’naviy olami borligini va umumiy, umumlashtirilgan obrazlardan alohida shaxslarga o‘tish tobora kuchayib borayotganini ta’kidlaydi. Bu konsepsiya Jamila Ergasheva asarlarida ona obrazini o‘rganish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

N. Tursunovaning o‘zbek rivoyatlarida ayol tasvirlarini tahlil qilish milliy tafakkur va ona obrazi o‘rtasidagi yaqin bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Uning fikricha, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlar ona obrazida aks etadi. Shuning uchun uni ham psixologik, ham lingvomadaniy yondashuv yordamida tahlil qilish juda muhimdir.

Adabiy tanqid nazariyasi bo‘yicha tadqiqotida E. Xudoyberdiyev obraz va xarakterni juda batafsil o‘rganadi. Uning ta’kidlashicha, badiiy rasm voqelikni aks ettirishdan tashqari, muallifning o‘z uslubi va estetik e’tiqodlarini ham ifodalaydi. Bu usul muallif Jamila Ergasheva asarida ona obrazini qanday talqin qilishini aniqlash uchun juda muhimdir.

Bu nazariy nuqtai nazarlar Jamila Ergashevaning ertaklarida amaliy ifodalangan. Ona o‘z asarlarida an’anaviy va zamonaviy talqinlarni birlashtirgan va psixologik murakkablik va jo‘shqinlik bilan ajralib turadigan tarzda tasvirlangan.

Muallifning hikoyalari ona obrazini yetkazish uchun ichki tajribalardan foydalanadi. Bu jarayonda psixologik murakkabliklar, aqliy tasvirlar va ichki monologlar juda muhim ahamiyatga ega. Onaning ichki zavqlari va qayg‘ulari, shuningdek, uning qalbining nozik jihatlari realistik va haqiqiy tarzda ko‘rsatilgan. Bu rasmni kamroq idealizatsiya qiladi va haqiqatga ko‘proq asoslaydi.

Avvalo, muallifning hikoyalarida ona obrazini yetkazish uchun ichki kechinmalardan foydalaniladi. Uning hissiy holati, dardi, zavqi va qarama-qarshiliklarini yetkazish uchun chuqur psixologik tasvirlardan foydalaniladi. Bu o‘quvchiga obrazni yanada yorqinroq va realistik tarzda ko‘rish imkonini beradi. Ona endi sevgi va sadoqat timsoli bo‘lishdan tashqari, murakkab insoniy tajribalarga ega insondir.

Ikkinchidan, Jamila Ergasheva ona obrazini yaratishda ijtimoiy elementlarni ham hisobga oladi. Ona obraziga zamonaviy hayotning murakkabligi, oila dinamikasidagi o‘zgarishlar va avlodlar o‘rtasidagi tafovutlar katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu obrazning yanada zamonaviy va aniq tasvirlanishini kafolatlaydi.

Uchinchidan, ona obrazi muallifning ijodiy uslubi tufayli ko‘proq psixologik chuqurlikka ega. Ona ruhiyatining nozik jihatlari psixologik portretlar, ramziy elementlar va ichki monologlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu asarlarning estetik qiymatini oshiradi va ularni zamonaviy adabiyotning muhim namunalari darajasiga ko‘taradi.

Natijada, ona obrazi inson ongining murakkab tuzilishini aks ettiruvchi badiiy hodisa va ma’naviy ideallarning ifodasi sifatida qaraladi. Jamila Ergashevaning hikoyalari bu jarayonni yorqin tarzda tasvirlaydigan muhim adabiy manba hisoblanadi.

Adabiyot umuman olganda, yangi bosqichga ko‘tarildi, buni zamonaviy o‘zbek yozuvida ona obrazining ijodiy va psixologik talqini ko‘rsatmoqda. Bu jarayon davomida inson ongi tobora ko‘proq e’tiborga olinmoqda va tasvirlarning ichki dunyosini ochib berishga alohida ahamiyat berilmoqda. Natijada ona obrazi nafaqat ijtimoiy va oilaviy masalalarni, balki inson hayotining eng nozik qirralarini ham yoritadi.

Bu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar bizga ona obrazining yangi qirralarini ochishga va zamonaviy o‘zbek adabiyotini tushunishimizni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ergasheva J. Zamonaviy hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 45–78-betlar.
2.Karimov B. O‘zbek nasrida psixologizm masalalari. – Toshkent: Fan, 2020. 112–134-betlar.
3.Qodirova D. Ayol obrazi talqini va badiiylik. – Toshkent: Yangi asr, 2022. 56–89-betlar.
4.Rasulov A. Badiiy matn va psixologik tahlil. – Toshkent: Universitet, 2021. 90–120-betlar.
5.Sodiqov M. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti tendensiyalari. – Toshkent: Tafakkur, 2023. 33–67-betlar.
6.Tursunova N. O‘zbek hikoyachiligida ayol obrazlari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2020. 101–140-betlar.
7.Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2022. 210–245-betlar.
8.Yo‘ldoshev Sh. Badiiy asarda obraz va xarakter. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021. 75–98-betlar.

Sitora RASHIDOVA,
Turon universiteti magistranti

MAQOLNING LINGVISTIK TABIATI VA STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va donishmandligini o‘zida mujassamlashtirgan til birliklaridan biridir. Ular qisqa, lo‘nda va obrazli shaklda muhim hayotiy g‘oyalarni ifodalaydi. Shuningdek, maqollar til tizimida semantik jihatdan to‘liq, grammatik jihatdan mustaqil bo‘lgan birliklar sifatida qaraladi. Paremiologiya fanining shakllanishi qadimiy davrlarga borib taqaladi.

Kalit so’zlar: *paremiologiya, semantik yaxlitlik, obrazlilik va metaforik ifoda, struktur barqarorlik.*

Annotation: proverbs are among the linguistic units that embody the centuries-old life experience and wisdom of a people. They express important life ideas in a concise, laconic, and figurative form. Furthermore, proverbs are considered as semantically complete and grammatically independent units within the language system. The formation of paremiology as a field of study dates back to ancient times.

Key words: *paremiology, semantic integrity, imagery and metaphorical expression, structural stability*

Аннотация: пословицы являются одними из языковых единиц, в которых отражены многовековой жизненный опыт и мудрость народа. Они выражают важные жизненные идеи в краткой, лаконичной и образной форме. Кроме того, пословицы рассматриваются как семантически завершённые и грамматически самостоятельные единицы в системе языка. Формирование паремиологии как науки восходит к древним временам.

Ключевые слова: *паремиология, семантическая целостность, образность и метафорическое выражение, структурная устойчивость*

Tilshunoslik fanida xalq og‘zaki ijodining kichik janrlarini, xususan maqollarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi yo‘nalish *paremiologiya* deb ataladi. Paremiologiya termini yunoncha *paroimia* – “maqol, hikmatli ibora” va *logos* – “ta’limot” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, u maqollarning kelib chiqishi, tuzilishi, semantikasi hamda ularning madaniy va ijtimoiy funksiyalarini o‘rganadi[1]. Tilshunos olim *A.V. Kunin* maqollarni “xalq tajribasi va donoligining umumlashtirilgan ifodasi” deb ta’riflaydi[2].. Qadimgi Yunoniston va Rim olimlari ham maqollarni yig‘ish va ularni sharhlash bilan shug‘ullanganlar. Masalan, *Aristotel* va *Plutarx* asarlarida maqollar haqida alohida fikrlar uchraydi. Keyinchalik o‘rta asrlarda Yevropa adabiyotida maqollarni to‘plash va tasniflash ishlari keng rivojlandi. XIX–XX asrlarda paremiologiya mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu davrda maqollarni lingvistik, folkloristik va madaniy jihatdan o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Rus tilshunosligida *V.I. Dal* maqollarni tizimli ravishda to‘plagan va ularni izohlab bergan olimlardan biridir. Uning “Poslovitsy russkogo naroda” nomli asari paremiologiya sohasida muhim ilmiy manba hisoblanadi[3].

O‘zbek tilshunosligida ham maqollarni o‘rganish bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, *G‘. Salomov*, *Sh. Rahmatullayev*, *B. Yo‘ldoshev* kabi olimlar maqollarning semantik, stilistik va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etganlar. Ularning ilmiy ishlari o‘zbek paremiologiyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Bugungi kunda paremiologiya faqat folklor yoki leksikologiya doirasida emas, balki *lingvokulturologiya*, *kognitiv lingvistika*, *pragmatika* ***va*** *qiyosiy tilshunoslik* kabi yo‘nalishlar bilan ham uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda maqollar til orqali ifodalangan madaniy kod sifatida talqin qilinadi. Maqollar tilning muhim paremiologik birliklaridan biri bo‘lib, ular xalq donishmandligi va hayotiy tajribasining umumlashgan shaklini ifodalaydi. Maqol odatda qisqa, mazmunan to‘liq va didaktik xarakterga ega bo‘lgan gap shaklida ifodalanadi. Tilshunos *I.R. Galperin* maqollarni “xalqning uzoq yillik tajribasidan kelib chiqqan umumiy xulosalarni ifodalovchi barqaror nutq birliklari” deb ta’riflaydi[4].

Maqollar bir necha muhim lingvistik xususiyatlarga ega:

Birinchidan, *semantik yaxlitlik*. Maqollar ko‘pincha umumiy hayotiy qonuniyatni ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi *“Time is money”* maqoli vaqtning qadrini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa “Vaqt – oltindan qimmat” maqoli mazmun jihatdan shu fikrga yaqin hisoblanadi.

Ikkinchidan, *obrazlilik va metaforik ifoda*. Ko‘plab maqollarda metafora va boshqa stilistik vositalar qo‘llaniladi. Bu esa maqolning ta’sirchanligini oshiradi.

1 Permyakov G. L. From proverb to folk-tale. – Moscow: Nauka, 1979.
2 Kunin A. V. English-Russian phraseological dictionary. – Moscow: Russkiy Yazyk, 1984.
3 Dal V. I. Poslovitsy russkogo naroda. – Moscow: Eksmo, 2000
4 Galperin I. R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977.

Masalan, ingliz tilidagi *“Don’t count your chickens before they hatch”* maqoli kelajakdagi natijaga oldindan ishonib ketmaslik kerakligini bildiradi.

Uchinchidan, *struktur barqarorlik*. Maqollar odatda grammatik jihatdan barqaror shaklda qo‘llanadi va ularning tuzilishi kam o‘zgaradi. Shu sababli ular til tizimida tayyor nutq birliklari sifatida ishlatiladi.

Tilshunoslikda maqollar ko‘pincha *frazeologik birliklar* bilan ham bog‘lab o‘rganiladi. Biroq maqollar frazeologik birliklardan farqli ravishda mustaqil gap shaklida bo‘ladi va didaktik mazmunni ifodalaydi. Maqollar semantik jihatdan turli guruhlarga bo‘linadi. Masalan:

1) axloqiy-tarbiyaviy mazmundagi maqollar;
2) mehnat va turmush bilan bog‘liq maqollar;
3) hayotiy tajribani ifodalovchi maqollar;
4) ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi maqollar.

Bunday tasnif maqollarni tipologik jihatdan o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Maqollarni tipologik o‘rganish tilshunoslikda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Tipologik tahlil turli tillarda uchraydigan maqollarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Maqollarni tasniflashda bir necha asosiy mezonlar qo‘llaniladi. Birinchi mezon – *semantik tasnif.* Bu tasnif maqollar mazmuniga asoslanadi. Masalan, insoniy fazilatlar, mehnat, do‘stlik, vaqt, bilim va boshqa tushunchalar bilan bog‘liq maqollar alohida guruhlarga ajratiladi.

Ikkinchi mezon – *struktur tasnif*. Bu tasnif maqollarning grammatik tuzilishiga asoslanadi. Masalan:

a) sodda gap shaklidagi maqollar;
b) murakkab gap shaklidagi maqollar;
c) parallel konstruksiyali maqollar.

Parallel konstruksiya maqollarda juda ko‘p uchraydi. Masalan: *“Easy come, easy go.”* Bu maqolda parallel sintaktik tuzilma mavjud bo‘lib, u mazmunni yanada ta’sirchan qiladi. Uchinchi mezon – *lingvokulturologik tasnif.* Bu tasnif maqollarda aks etgan milliy madaniyat va mentalitetni o‘rganishga asoslanadi. Masalan, o‘zbek maqollarida mehnat, oilaviy qadriyatlar va hurmat tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Ingliz maqollarida esa ko‘pincha individuallik, pragmatizm va vaqt qadri kabi tushunchalar aks etadi.

Shuningdek, maqollarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish orqali turli tillar o‘rtasidagi umumiy semantik modellar aniqlanadi. Bu esa til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tipologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli xalqlar maqollarida ko‘plab umumiy g‘oyalar mavjud. Masalan, ingliz tilidagi *“Knowledge is power”* maqoli o‘zbek tilidagi “Bilim – kuch” maqoli bilan mazmunan juda yaqin.

Shu bilan birga, har bir xalq maqollarida milliy madaniyat va tarixiy tajriba ham o‘z aksini topadi. Bu esa maqollarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganishni yanada muhim qiladi. Xalq maqollari til va madaniyatning muhim elementlaridan biri bo‘lib, ular xalqning ko‘p asrlik tajribasi va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiradi. Paremiologiya fanining rivojlanishi maqollarni lingvistik, folkloristik va madaniy jihatdan chuqur o‘rganish imkonini yaratdi. Maqollar semantik, struktur va stilistik jihatdan murakkab til birliklari hisoblanadi. Ular qisqa shaklda umumiy hayotiy xulosani ifodalaydi hamda obrazlilik va metaforik ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Tipologik tahlil maqollarni turli tillar kesimida o‘rganish imkonini beradi. Bunday tadqiqotlar orqali turli xalqlar madaniyati va dunyoqarashidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlar aniqlanadi. Shu sababli ingliz va o‘zbek xalq maqollarini qiyosiy-tipologik o‘rganish tilshunoslikda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Til insoniyat madaniy merosining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Til orqali xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari avloddan-avlodga uzatiladi. Xalq og‘zaki ijodining eng muhim va keng tarqalgan janrlaridan biri maqollar bo‘lib, ular xalq donishmandligining umumlashgan ifodasini tashkil etadi hayotiy kuzatuvlari asosida shakllanadi. Shu sababli ular nafaqat lingvistik birlik, balki madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida ham qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966.
2. Бархударов Л. С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975.
3. Виноградов В. В. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977.
4. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Высшая школа, 1980.
5. Гальперин И. Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа, 1977.

Gulshan ERGASHEVA,
BuxDU magistranti
ergashevagulshan01@gmail.com

TIL VA POETIKA UYG‘UNLIGI: LINGVOPOETIKA

Annotatsiya: mazkur maqolada lingvopoetika yo‘nalishining nazariy asoslari, shakllanish bosqichlari va uning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni olimlarning asosli fikrlariga tayanib yoritiladi. Lingvopoetikaning tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari integratsiyasi natijasida vujudga kelganligi asoslab berilib, uning antropotsentrik yondashuv bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, jahon va o‘zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, yetakchi olimlarning qarashlari umumlashtiriladi. Maqolada badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishning asosiy tamoyillari, til birliklarining konnotativ va estetik funksiyalari, eksplitsit va implitsit ma’no qatlamlari hamda intertekstuallik mexanizmlarining o‘rni ochib beriladi

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, poetika, lingvistika, integratsiya, retrospektiv, arxaizm, istorizm, neologizm, prospektiv, poetik aktuallashgan, lug‘at-indeks, eksplistik, implistik, intertekstual.*

Annotation: this article explores the theoretical foundations of linguopoetics, its stages of development, and its role in modern linguistics based on well-grounded scholarly views. It substantiates that linguopoetics emerged as a result of the integration of linguistics and literary studies and analyzes its connection with the anthropocentric approach. Furthermore, the paper summarizes research conducted in the field of linguopoetics in both world and Uzbek linguistics, along with the perspectives of leading scholars. The article also highlights the main principles of linguopoetic analysis of literary texts, including the connotative and aesthetic functions of linguistic units, the relationship between explicit and implicit layers of meaning, and the role of intertextuality mechanisms.

Key words: *linguopoetics, poetics, linguistics, integration, retrospective, archaism, historism, neologism, prospective, poetically actualized, dictionary-index, explicit, implicit, intertextual.*

Аннотация: в данной статье на основе научно обоснованных взглядов ученых освещаются теоретические основы лингвопоэтики, этапы ее формирования и ее место в современной лингвистике. Обосновывается, что лингвопоэтика возникла в результате интеграции лингвистики и литературоведения, а также анализируется ее связь с антропоцентрическим подходом. Кроме того, обобщаются научные исследования в области лингвопоэтики в мировой и узбекской лингвистике, а также взгляды ведущих ученых. В статье раскрываются основные принципы лингвопоэтического анализа художественного текста, коннотативные и эстетические функции языковых единиц, соотношение эксплицитных и имплицитных смысловых слоев, а также роль механизмов интертекстуальности.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, поэтика, лингвистика, интеграция, ретроспективный, архаизм, историзм, неологизм, проспективный, поэтически актуализированный, словарно-индексный, эксплицитный, имплицитный, интертекстуальный.*

Dunyo tilshunosligi bugungi davrga kelib tilni nazariy jihatdan o‘rganishdan ko‘ra shu tilda so‘zlashuvchi shaxsning tildan foydalanish qobiliyati, uslubi: nutqi, yoshi, kasbi, millati, mentaliteti, yashaydigan joyi, miya faoliyati va boshqa jihatlari bilan bog‘liq holda o‘rganishga diqqatini qaratmoqda. Mazkur holat natijasida esa antropotsentrik tilshunoslikda bir qancha yangi yo‘nalishlar: psixolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabilar vujudga keldi va jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Bu sohalar sirasiga esa XX asrda yangi bir yo‘nalish sifatida lingvopoetika vujudga keldi.

Lingvopoetika termini “linvistika” va “poetika” atamalarining birlashuvidan hosil bo‘lgan soha hisoblanadi. Bu sohaning tarixiga e’tibor qaratadigan

bo‘lsak, lingvopoetika bugun yoki o‘tgan asrda paydo bo‘lgan soha emas, u qadimdan ijtimoiy fanlar: tilshunoslik va adabiyotning negizida shakllanib borgan va keyinchalik shu ikki fan integratsiyasi natijasi o‘laroq vujudga kelgan. Mazkur yo‘nalishning chuqur tarixiy ildizlari Arastuning “Poetika” asariga borib taqaladi. Jahon tilshunosligida A.Xolodovich, G.O.Vinokur, V.M.Jirmunskiy, V.Y.Zadorovna, V.A.Kuxarenko,M.I.Gorelikova, N.A.Kupina,V .Vinogradov, B.A.Larin, Y.S.Stepanova, R.A.Bugadov, A.A.Lipgart va shu kabi ko‘plab olimlar ish olib borgan. Lingvopoetika nazariyasiga oid qarashlar o‘z aksini topgan manbalardan biri A.A.Lipgartning “Lingvopoetika asoslari” asaridir. Lingvistika va poetikaning oralig‘ida yuzaga kelgan lingvopoetika sohasining predmeti, maqsad va vazifalari tadqiqiga bag‘ishlangan ushbu asar chuqur tahlillarga tayanib yozilganligi ta’kidlanadi. O‘zbek tilshunosligida ham lingvopoetika bo‘yicha salmoqli tilshunos va adabiyotshunoslar ma’lum bir yozuvchi asarlarining lingvopoetikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.I.Mirzayevning “She’riy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari” (–T., 1992), S.Karimovning “O‘zbek tilining badiiy uslubi” (–Samarqand, 1992), M.Yoqubbekovaning “O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari” (–T.,2005), M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi” (–T.,2008) nomli doktorlik dissertatsiyalari, G.Muhammadjonovaning “80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o‘zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi” (–T.,2004), M.Muhiddinov va S.Karimovlarning “G‘afur G‘ulomning poetik mahorati” (–Samarqand, 2003), B.Yo‘ldoshev, Z.Shodiyevlarning “Ufq” trilogiyasining lingvopoetik tadqiqi masalalari” (–Samarqand, 2006) monografiyalari shular jumlasidandir. XX asrning boshlarida poeziyani o‘rganishda lingvopoetik yo‘nalishning shakllanishida Y.N.Tinyanov, V.M.Jirmunskiy, R.O.Yakobson, B.M.Eyxenbaum kabi olimlarning mehnati katta bo‘ldi.

Jahon tajribasi ko‘rsatmoqdaki, istalgan tilning ijtimoiy xarakterini o‘rganishni individual shaxs nutqi tadqiqidan boshlash to‘g‘ri yo‘ldir. Rus olimi V.P.Grigorev “Поэтика слова” (–M.: Наука, 1979) kitobi “Лингвопоэтика и стилистика” qismida “lingvopoetikani tilshunoslik fanlari qatoriga qo‘yish ham, adabiyotshunoslik fanlari sirasiga kiritish ham to‘g‘ri emas; lingvopoetika tilshunoslik, adabiyotshunoslik va shevashunoslik fanlarida erishilgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etib, filologiyaning yaxlitligini ta’minlashni o‘z zimmasiga olgan filologik fandir”, degan edi. Bu qarash lingvopoetikaning integrativ xususiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki badiiy matnni chuqur anglash uchun til birliklari bilan birga uning estetik va uslubiy jihatlarini ham birgalikda tahlil qilish zarur. Individual nutq orqali jamiyatga xos umumiy til qonuniyatlari ochilib boradi va bu jarayonda lingvopoetika muhim vosita vazifasini bajaradi. Shunday qilib, lingvopoetika filologik fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlab, matnni har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

A.Nurmonov esa lingvopoetikaga shunday izoh beradi: “Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy asarlarda qo‘llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o‘rganuvchi bo‘limidir.” Bu yo‘nalish badiiy asar tilini, unda qo‘llanilgan til birliklarining qanday maqsadda qo‘llanilganini va tilning konnotativ hamda estetik ta’sir etish funksiyalarini tahlilga tortadi. Abduvali Nurmonov tomonidan berilgan ushbu ta’rif lingvopoetikaning aniq ilmiy chegaralarini belgilab beradi. Unga ko‘ra, lingvopoetika badiiy matnda til birliklarining nafaqat shakliy, balki mazmuniy-estetik vazifalarini ham ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tilning konnotativ imkoniyatlarini o‘rganish orqali asarning yashirin ma’no qatlamlari va muallif niyati chuqurroq anglashiladi. Shu bois lingvopoetika badiiy nutqni har tomonlama tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari yaratilgan. Ma’rufjon Yo‘ldoshevning “Badiiy matn lingvopoetikasi” monografiyasida lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillari ko‘rsatilgan:

1. Shakl va mazmun birligi asosida yondashuv – xoh nasriy asar, xoh nazmiy asar bo‘lsin, har ikkisida ham shakl va mazmun teng darajada birlamchi jihat ekanligi, mavzu bilan tanlangan janr o‘rtasidagi mutanosiblik, matndagi lisoniy birliklarning matn tabiatiga mosligi masalasi lingvopoetik tahlilning shu tamoyilida o‘rganiladi.

2.*Makon va zamon birligi* – badiiy matnda tasvirlanayotgan davriga, zamoni, makoniga mos

bo‘lgan so‘zlardan: tarixiy asarlarda arxaizmlar va istorizmlar, zamonaviy asarlarda esa neologizmlar, zamon ruhiga mos bo‘lgan so‘zlarning ifodalanishi, shuningdek, retrospeksiya (voqealar rivojida orqaga qaytish) va prospeksiya (voqealar rivojida kelgusi zamondagi voqealarga ishora) ayni shu tamoyilda tadqiq etiladi.

3.Umumxalq tili va adabiy til munosbati – badiiy matn tahlilida uch hodisa – badiiy til, umumxalq tili, adabiy til tarixi munosabatlari inobatga olinishi kerakligi, matnlarda qabul qiluvchi uchun yetarli darajada tanish bo‘lmagan, eskirgan so‘zlarning yoki ilmiy terminlarning izohi (lug‘ati) berilgan qismlar ushbu tamoyilda tahlil etiladi.

4.Badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashish – asarning bosh g‘oyasi, asosiy konseptini aniqlash, qo‘llanilgan lug‘aviy birliklarning asar badiiyatiga qay darajada xizmat qilayotganligi, an’anaviy yoki individual ekanligi, komponentlarning birikish usullari mazkur tamoyilda o‘rganiladi.

5.Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash – bu tamoyilda badiiy matnda qo‘llanilgan emotsional mazmunni ifodalaydigan til birliklari aniqlanadi va tahlilga tortiladi, poetik aktuallashgan, asar badiiyati uchun xarakterli bo‘lgan birliklar (iboralar, sinonimlar, antonimlar, epitetli birikmalar, metonimiya, metaforalar, o‘xshatishlar) aniqlanib, lug‘at tartibida terilib, muayyan yozuvchining lisoniy mahoratini ko‘rsatuvchi lug‘at-indeks tuzilishi mumkinligi tadqiq etiladi.

6.Badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash – bu asardagi ochiq va yashirin ma’nolar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishdir. Eksplitsitlik matnda bevosita, aniq ifodalangan fikrlarni bildiradi. Implitsitlik esa yashirin, ramziy yoki kontekst orqali anglashiladigan ma’nolardan iborat bo‘ladi. Ushbu nisbatni aniqlash orqali asarda qaysi ma’no turi ustun ekanligi belgilanadi. Natijada asarning mazmuni yanada chuqurroq va to‘liqroq tushuniladi.

7.Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizm-larining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash – matn ichida qo‘llanilgan o‘zga matn ko‘rinishlari (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, mif, afsona, xalq qo‘shiqlari, kuylari, didaktema u yoki bu ijodkorning asari yoki asaridan parcha) va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg‘unligini aniqlash mazkur tamoyilning vazifasidir.

Shuningdek, badiiy mazmunning ifodalanishida tilning fonetik-fonologik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik va hatto supersintaktik kabi barcha sathi birliklari ishtirok etadi. Ammo ta’kidlash joizki, bu birliklarning, hech bir istisnosiz, hammasi ham ijodkorning badiiy niyatiga bevosita va bir xilda xizmat qilmaydi. Ijodkor tomonidan uning mahorati darajasiga ko‘ra yaratilgan muayyan qulay badiiy kontekst qurshovida mazkur birliklarning ayrimlari alohida badiiy-estetik ta’kid oladi. Lingvopoetik tahlilning tamalida ayni shu tamoyil, ya’ni poetik aktuallashgan – poetik mazmun bilan yukungan til birliklarini aniqlash va ularni tegishli tarzda baholash tamoyili turmog‘i maqsadga muvofiqdir. Bunday tahlil ijodkorning tilimizning tuganmas boyligi imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahoratini ko‘rsatish barobarida badiiy niyat xizmatidagi birliklarning butun mohiyatini ochishga, xolis baholashga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Galperin I.R. Tekst kak ob’ekt lingvisticheskogo issledovaniya. – M., 1981.
2.Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi.Filol.fan.dokt...dis. – Toshkent, 2009.
3.Nurmonov A. Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati / Tanlangan asarlar. 3 jildli. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
4.Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008. 119-b.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008
6.Turniyozov N. Matn lingvistikasi (ma’ruzalar matni). – Samarqand, 2004

Dinora KELDIYOROVA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti I kurs magistranti

ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING USLUBIY VAZIFALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada “it”, “ilon”, “tuya”, “ho‘kiz” komponentli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, frazeologizmlarning nomlash, obrazli tasvirlash, baho munosabati, emotsional-eksressivlik kabi okkazional uslubiy vazifalari badiiy asarlardan olingan zoofrazemalar orqali tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: *zoofrazema, okkazional uslubiy vazifa, obrazlilik, baholash, emotsional-ekspressivlik.*

Annotation: this article examines the semantic characteristics of phraseological units containing the components “dog”, “snake”, “camel”, and “ox”. Additionally, the occasional stylistic functions of phraseological units – such as naming, figurative description, evaluative attitude, and emotional-expressiveness – are analyzed through zoofrazemes (animal-based idioms) extracted from literary works.

Key words: *zoofrazeme, occasional stylistic function, figurativeness, evaluation, emotional-expressiveness.*

Аннотация: в данной статье изучены семантические особенности фразеологизмов с компонентами «собака», «змея», «верблюд» и «бык». Также на примере зоофразеологизмов, заимствованных из художественных произведений, проанализированы такие окказиональные стилистические функции фразеологизмов, как номинация, образное описание, оценочное отношение и эмоционально-экспрессивная выразительность.

Ключевые слова: *зоофразема, окказиональная стилистическая функция, образность, оценка, эмоционально-экспрессивность.*

Fikrimizni so‘zlar zanjiri hamda frazeologizmlar orqali atrofimizdagilarga yetkazamiz. So‘z va frazeologizm kommunikativ jihatdan bir xil vazifa bajarsa-da, ammo frazema obrazli tasvirlash, bo‘yoqdorlik, nutqning emotsional ta’sir kuchini oshirish kabi qator vazifalarni bajarishi bilan farqlanib turadi. Bu haqida A. Abdullayev quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Frazeologizmlar voqea-hodisa, belgilarning inson ongida kuchli ta’sir qilish, shu kuchli ta’sir natijasini nutqda to‘laligicha, borligicha ifodalash umuman fikrning ta’sirchanligiga erishish maqsadi zaminida yaratilgan til hodisasidir” [1:6].

O‘zbek tilshunosligida iboralarning uslubiy funksiyalari I. Qo‘chqortoyev, A. Abdunazarov, H. Qahhorova, A. Mamatov, B. Yo‘ldoshevlarning ilmiy tadqiqotlarida qayd etilgan. Jumladan, B. Yo‘ldoshev “Frazeologik uslubiyat asoslari” o‘quv qo‘llanmasida frazeologizmlarning uslubiy funksiyalari haqida fikr bildirib, ularni ikki guruh: a) uzual uslubiy funksiyalar; b) okkazional uslubiy funksiyalarga ajratadi [2:81]. B.Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, frazeologik birliklarning uzual uslubiy funksiyalari umumiy va doimiy xarakterga ega bo‘lib, har qanday matnda ham reallashadi [2:81].

Hayvon nomlari frazemalarning shakllanishiga ham asos bo‘ladi. “Zoonim frazeologik birlik komponentiga aylangach, o‘z leksik ma’nosini yo‘qotadi, shu bilan birga, zoonim insonga xos bo‘lgan zaruriy xarakter-xususiyatlarni: harakat faoliyati, yashash tarzi, odatlari, tashqi ko‘rinishi, tovushiga taqlidlarni amaliylashtirib beradi” [3:52].

Insonlar hayotidagi mashaqqatli holat, og‘ir damlar metaforik usulda itning qiyin hayot tarziga o‘xshatilishi asosida yuzaga kelgan “it azobida” zoofrazemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da “nihoyatda qiyin”, “mashaqqatli holat” deya izohlanadi [5:564]: Yashayotgan uyimga qarab, menga baho bermang. Biz kambag‘allikda, mehnat bilan, *it azobida* katta bo‘lganmiz. Akamning uylarini borib ko‘rdingizmi? (T.Malik) Berilgan misoldagi “it azobida” zoofrazemasi shaxsning qiyin, mashaqqatli turmush tarzini ixcham va tushunarli qilib nomlash bilan birga iborada salbiy baho munosabati ham o‘z aksini topgan. Shuningdek, matnda “kambag‘allikda,

mehnat bilan” kabi leksemalar hamda shaxs holatining obrazli ifodasi bo‘lib kelgan “it azobida” frazemasi kontekstda uyushib bir-birini ma’no jihatdan kuchaytirib kelgan.

Inson xarakteriga xos bo‘lgan ayyorlik, ustomonlikni obrazli ifodalashga xizmat qiladigan “ilonning yog‘ini yalagan” zoofrazemasi “juda ayyor”, “mug‘ombir” degan ma’noni bildiradi [4:198]. Buyam yetmagandek, hashar boshlab, mana shu uyni qurib berishga nima uchun bosh-qosh bo‘ldi? Qo‘rqqanidan qildimi? Yo‘q, oqsoqol *ilonning yog‘ini yalagan* odam! Qani, ko‘raylik-chi, qayoqqacha borarkin bu bola, deb o‘yladi. (O‘.Hoshimov) Keltirilgan misolda “ilonning yog‘ini yalagan” zoofrazemasi o‘zaro ilon – inson o‘xshatishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, inson xarakteriga xos bo‘lgan ayyorlik, ustomonlikni obrazli ifodalash uchun xizmat qilgan. Ma’lumki, ilon bilan bog‘liq “ilondek ayyor”, “ilondek sirg‘almoq” o‘xshatishlar, “ilonning yog‘ini yegan”, “ilonning oyog‘ini sanagan”, “ilon po‘st tashlaydi” kabi frazeologik birliklarda shaxs, voqea-hodisaga nisbatan salbiy baho munosabati ifodalanadi. Shuningdek, parchada qo‘llangan “ilonning yog‘ini yalagan” iborasi ham so‘zlovchining oqsoqolga nisbatan salbiy bahosini bildirgan. Emotsionallik jihatdan bu zoofrazema keltirilgan parchada ironik xarakterga ega bo‘lib, so‘zlovchining kinoyasi, shuningdek, g‘azab va nafratini ifodalagan. Semantikasiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, unda “o‘ta” kuchaytiriv semasi mavjudligi anglashiladi.

“Yer ostida ilon qimirlasa, sezmoq” iborasi “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” da “nihoyatda ziyrak”, “sezgir” deb izohlangan hamda “yerning tagida ilon qimirlasa, bilmoq”, “yer tagida ilon qimirlaganini bilmoq” kabi variantlari keltirilgan [4:548]. Ushbu ibora nutqda inson xatti-harakatiga xos bo‘lgan sezgirlik va ziyraklikni nomlash uchun xizmat qiladi. O‘z quloqlari bilan aniq va ravshan eshitgan machit imomi, ya’ni *yer ostida ilon qimirlasa sezadigan* va qaysi uyda qanday qozon qaynayotganini mo‘ridan chiqqan tutundanoq bilib oladigan hidgir, mug‘ambir Asad qori. (T.Malik) Keltirilgan parchada ham “yer ostida ilon qimirlasa, sezmoq” iborasida insonga xos xususiyatlar ixcham va obrazli qilib tasvirlangan. Bu frazemadagi obrazlilik harakat o‘xshashligi asosida vujudga kelgan. Ya’ni insonning ham jismoniy, ham aqliy jihatdan atrofidagi voqea-hodisalarni tez ilg‘ab olishi ilonning tez harakatlanishiga o‘xshatilgan. Buning natijasida insonga xos ziyraklikka ilon komponenti asos bo‘lgan “yer ostida ilon qimirlasa sezadigan” iborasi orqali obrazli tasvirlangan.

Shuningdek, “ot bilan tuya bo‘larmidi” va uning dialectal varianti sifatida qo‘llanuvchi “ot minan tuya bo‘larmidi” zoofrazemasi “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da juda katta sarf-xarajatni talab qilmaslik; u qadar katta, ko‘p emaslikni bildiradi [4:354]. Ushbu ibora narsa-hodisaga xos xususiyatni nomlash uchun xizmat qiladi. Iii, ha, sen bu qanaqa bedanaligini bilasanmi o‘zing? Yuzta bedanaga alishmasman buni, – dedi u behazil. – Qanaqa ekan? Yuztadan a’lo bo‘lsayam, *ot minan tuya bo‘larmidi?!* (M. Mansur) Ushbu ibora ot – tuya taqqoslanishi asosida shakllangan bo‘lib, nutqda narsa-hodislarga nisbatan u qadar katta va ko‘p emaslikni obrazli tasvirlaydi. “Ot minan tuya bo‘larmidi” zoofrazemasining uslubiy vazifasini quyidagi misolda tahlil etadigan bo‘lsak, so‘zlovchining narsa-predmetga nisbatan salbiy bahosini ifodalagan. Shuningdek, emotsionallik jihatdan bu zoofrazema parchada ironik xarakterga ega bo‘lib, bepisandlik, nazarga olmaslik kabi ma’nolarni bildirgan. Ekspressivlik xususiyati esa uning frazeologik ma’nosidagi “u qadar” semasi orqali hamda bu iboraning sintaktik jihatdan ritorik so‘roq gap holida qo‘llanishi bilan undagi inkor mazmuni kuchaytirilgan.

Adabiy tilda keng qo‘llanuvchi “arzimagan narsani deb jahl ustida nojo‘ya, zararli ishni qilib qo‘ymoq” ma’nosini bildiruvchi “burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirmoq” zoofrazemasi qo‘llaniladi. Lug‘atda bu frazemaning varianti sifatida “burgaga achchiq qilib ko‘rpasiga o‘t qo‘ymoq” keltirilgan [4:112]. Bu ibora yuqorida tahlil etilgan frazemalar singari holatni emas, balki harakatni bildiradi, shuningdek, so‘zlashuv va badiiy uslublarda qator stilistik vazifalarni bajaradi: Dimog‘imga urilayotgan telpakgul hidi nafasimni bo‘g‘ardi. Yuragimni hovuchlab mojaroning tezroq tugashini kutardim. O‘h-ho‘-o‘! *Daming baland-ku?* Hali direktorlikni ham da’vo qilarsan? *Burgaga achchiq qilib ko‘rpasiga o‘t qo‘ygan* lo‘li-yey? (N. Norqobil) Bu iboraning shakllanishiga kishilarning kunlik hayotidagi voqealar asos qilib olingan. Ya’ni avvallari ko‘rpa-to‘shaklarda burga ko‘p uchragan. Bundan jahli chiqqan odamlar hatto ko‘rpa-to‘shaklarini ham yoqib yuborishgan. Odamlarning bu harakati jahl ustida nojo‘ya, zararli ishlarni qilish ma’nosini bildiruvchi “burgaga achchiq

qilib ko‘rpasiga o‘t qo‘ymoq” zoofrazemasiga asos bo‘lgan. Kontekstdagi “yuragini hovuchlab” iborasi adresant holatini ifodalashga xizmat qilsa, voqea-hodisaga nisbatan so‘zlovchi munosabati “Burgaga achchiq qilib ko‘rpasiga o‘t qo‘ygan lo‘li-yey?” o‘xshatishi orqali ifodalangan. Shuningdek, badiiy matndagi undov so‘z, yuklama hamda frazemalar ekspressiv-baho vositasi bo‘lib kelgan.

Shuningdek, tilimizda gapni tushunmaydigan odamga foydasiz gapirish, bekorga tushuntirishni ixcham holda “ho‘kizning qulog‘iga tanbur chertmoq” zoofrazeologizmi bilan nomlaymiz. Bu zoofrazema “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da “gap uqtirishga behuda urinmoq” deb izohlanadi va uning varianti sifatida “qulog‘iga tanbur chertmoq” iborasi keltiriladi [4:193]. Uning nutqni obrazli ifodalash vazifasi ho‘kiz – tanbur taqqoslanishi orqali yuzaga kelgan. Bilamizki, musiqani anglash, uni his qilish faqat insonlarga xos. Tanbur ovozini ham faqat insonlar anglay oladi, xolos. Ho‘kiz esa bundan mustasno. Ya’ni ho‘kizning qulog‘iga tanbur chertgani bilan u buni tushunmaydi degan qarash bu zoofrazemaning shakllanishi uchun asos bo‘lgan. *Ho‘kizning qulog‘iga tanbur chertdimmi,* nodon xotin! – qizarib ketdi Yormat. – Kimga bo‘lar edi, boy otam o‘ziga so‘rayapti. Gulsumbibi irg‘ib tushdi-da, ikki qo‘li bilan tizzasiga shart-shurt urib, bobillab gapira ketdi. (Oybek) Bu zoofrazema baho munosabati jihatidan nutqda ham, keltirilgan parchada ham salbiy baho munosabatini bildirgan. Frazeologizmlarning emotsionallik vazifasi konteksda ifodalanishini inobatga olsak, bu zoofrazema keltirilgan parchada qahramonning g‘azabini ifodalagan. Iboraning ritorik so‘roq gap holida berilishi u ifodalagan ma’noni kuchaytirgan.

Nutqimizda odamlar bilan qo‘pol munosabatda bo‘ladigan, muomalasi dag‘al odamlarga xos holatni nomlash uchun “it fe’l” zoofrazemasi ishlatiladi. Bu zoofrazeologizm “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “fe’li juda yomon”, “juda badfe’l” deb izohlanadi [5:565]. Bu iboraning obrazli ifodalash vazifasi uchun itning tajovuzkorligini inson xarakteriga o‘xshatish asos qilib olingan: O‘sarqul battol hamisha o‘zini bo‘riga qiyoslashlarini yaxshi ko‘rardi. *It fe’lini* shu bilan xaspo‘shlamoqchiday, gohida buni o‘zi ham tez-tez ta’kidlab turardi. (N. Norqobilov) “It fe’l” zoofrazemasi nutqda, shuningdek, keltirilgan parchada ham salbiy baho munosabatini ifodalagan. Shuningdek, emotsionallik jihatidan muallifning O‘sarqul xarakteriga nisbatan nafratini ham bildirgan. Zoofrazemaning ekspressivligi uning semantikasidagi “juda” semasi orqali ifodalangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zoofrazeologizmlar shaxslarning xarakter-xususiyatini, uning harakat-holatni nomlash, unga ijobiy yoki salbiy baho munosabat bildirish, nutqni obrazli tasvirlash va emotsional-ekspressivlikni ifodalash kabi uslubiy vazifalarni bajaradi. Ularning bu vazifalari nutq jarayonida va badiiy matnlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Тошкент, “Фан”, 1983.
2. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд. 1999, 199- б.
3. Жумаева З. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи. Ф. ф.ф. д. дис. – Жиззах, 2021.147-б.
4. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [O‘TFL] 2022. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 636-bet.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati [O‘TIL]. 6 jildli. II JILD E – K/ Mas’ul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.964-bet.

Nazokat SOBIROVA,
Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti 2-bosqich magistranti
nsobirova0106@gmail.com

MEHMONXONA VA YOTOQXONAGA OID UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARI LEKSIKASI

Annotatsiya: ushbu maqola o‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining maishiy leksik qatlami o‘rganilishiga oid bo‘lib, mazkur lahjaga oid leksik birliklar tahlilga tortilgan. Maishiy leksika va uning tahlili, uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasining o‘g‘uz lahjasidagi variantlari, ko‘rinishlari ushbu maqolada yoritilgan. Maqolaning maqsadi – o‘zbek tili lahjalarining o‘rganilishini qo‘llab-quvvatlash, adabiy tilda muqobili bo‘lmaganligi boisdan o‘zlashgan ba’zi so‘zlar o‘rnini lahjadagi so‘zlar bilan to‘ldirish.

Kalit so‘zlar: *o‘g‘uz lahjasi, maishiy leksika, uy-ro‘zg‘or buyumlari, leksik qatlam, sheva, leksema, lug‘at.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению бытового лексического слоя огузского диалекта узбекского языка, в рамках которой лексические единицы данного диалекта подвергнуты анализу. В статье рассматриваются бытовая лексика и её анализ, а также варианты и формы лексики предметов домашнего обихода в огузском диалекте. Целью статьи является поддержка изучения диалектов узбекского языка и восполнение некоторых заимствованных слов литературного языка диалектными единицами в тех случаях, когда отсутствуют их полноценные аналоги.

Ключевые слова: огузский диалект, бытовая лексика, предметы домашнего обихода, лексический слой, говор, лексема, словарь.

Annotation: this article is devoted to the study of the everyday lexical layer of the Oghuz dialect of the Uzbek language, in which the lexical units of this dialect are analyzed. The paper examines everyday vocabulary and its analysis, as well as the variants and forms of household-related lexical items in the Oghuz dialect. The aim of the article is to support the study of Uzbek dialects and to supplement certain borrowed words in the literary language with dialectal equivalents in cases where no adequate counterparts exist.

Key words: *oghuz dialect, everyday vocabulary, household items, lexical layer, dialect, lexeme, dictionary.*

Kirish. Har davrda ham inson uchun uy eng muhim boshpana hisoblangan va uning tashkil qiluvchi qismlaridan tortib, ichki tuzilishi, buyumlar, jihozlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda uydagi har bir qism alohida ahamiyat kasb etadi va hozirda buning uchun alohida dizaynerlik kasbi ham shakllanib ulgurgan.

Nafaqat, bugungi kunda balki oldingi davrlarda ham uy jihozlari muhim bo‘lgan. Ularni o‘rganar ekanmiz, har bir xalqning yashash tarzi bilan tanishamiz. Quyida esa o‘g‘uz shevasi guruhiga oid mehmonxona va yotoqxonadagi buyum va jihozlar bilan tanishamiz.

Asosiy qism. Bilamizki, maishiy leksika turmush tarzi bilan bog‘liq buyumlar, jihozlar va kiyim-kechakka oid so‘zlarni tashkil qiladi. Maishiy leksikaga tilshunoslikka oid lug‘atda shunday izoh keltirilgan: “Kundalik hayotda ishlatiladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan, narsa va hodisalarni, ya’ni umumiy turmush tarzi, atrof-muhit, urf-odatlar va boshqalarni nomlaydigan lug‘at”.[1] Qadim zamonlardan shakllanib kelayotgan ushbu leksika, ayniqsa, shevalarda adabiy tildan ko‘ra ko‘proq farqli jihatlarni o‘zida mujassam etgan. Sababi, shevalarning ildizi qadimiy xalqlarga borib taqaladi va tabiiyki, har bir xalq va elatlarning til boyliklari bir-biridan farq qiladi. Maishiy leksika semantik qatlamlari kundalik inson turmushining ko‘pdan-ko‘p qirralarini qamrab oladi. Har qanday tildagi maishiy leksikani o‘rganish nafaqat ushbu toifadagi lug‘atning leksik va semantik xususiyatlarini, qo‘llanish holatlarini aniqlashga, balki xalqning moddiy madaniyati, uning tarixiy o‘tmishini va hozirgi hayoti bilan tanishish imkonini beradi.[2] Quyida o‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining maishiy leksikasiga oid bir nechta leksik guruhlarni lug‘atlar asosida shakllantirdik.

Uy ichidagi jihozlar va mahsulotlarni ifodalovchi leksemalar

Uy uchun kerakli anjomlar har vaqtda ham bo‘lgan va hozirgi kundagi leksemalarning tuzilishi asrlar davomida har jihatdan takomillashib kelgan ko‘rinishi hisoblanadi. Quyidagi so‘zlar qatorida o‘tgan asrgacha iste’molda bo‘lgan so‘zlarni, rus tili orqali o‘tib qolgan so‘zlarni va

1 Розенталь Д.Э., Теленкова М.А.Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение, 1985. С.30

2 Maxammadiyev X.L. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika. – Toshkent, 2023. 12-b.

hozirda ham iste'moldan chiqmagan so'zlarni ko'rishimiz mumkin.

Anaq sovïn (iroqi sovun, atir sovun), **Arqïndï /Alkïndï** (1) kir sovunning qoldig'i; 2) kir yuvilgan suv), **Ajna** (ko'zgu), **Arʒa** (sandiq), **Düjünʒik** (tuguncha), **Dävät** (siyohdon), **Ïškap** (shkaf), **Kürsï** (stul), **Küzgü** (ko'zgu), **Kïr savïn** (kir sovun), **Kïlït** (kalit), **Lampa** (lampa), **Lampïškä** (elektr lampochka), **Qapï** (eshik), **Qulïp** (qulf), **Qullap** (qullap), **Qutï** (quticha), **Qandïl** (qandil), **Qol arʒa** (kichik sandiq, quti), **Süprünč** (uy sidiradigan latta, cho'tka), **Pa:nïs** (to'rt burchli fanor), **Pïlïk** (pilik), **Pïndïq** (shishasiz tunuka chirog'), **Rädïj** (radio), **Räpčä** (qozuv-ariq tozalashda loyni yuqoriga chiqarish uchun qirg'oqda qilingan tokcha; paxsada qilingan tokchalar), **Sarïnʒaq** (belanchak, hayunchak), **Sä:t** (soat), **Süpsä** (supurgi), **Sïlapča** (qo'lni yuvishda qo'l yuvilgan suv tushishi uchun foydalaniladigan maxsus idish), **Sülji** (sochiq), **Täk***čä* (tokcha), **Tapčan** (taxta supa), **Üstär** (stol), **Ütïk** (dazmol), **Xakändaz** (xokandoz), **Jām** (sopoldan ishlangan gultuvak), **ɣïrɣïräk** (shamolparrak), **Čar sïpsa** (katta supurgi), **Šüttïk** (jinchiroq).

O'rin anjomlarini ifodalovchi leksemalar

Qadimdan odamlar yotib dam olish va tunash uchun turli mahsulotlardan foydalanganligi ma'lumdir. Bugungi kunga kelib esa ularning turi ko'payganini, boshqa tillardan kirib kelgan leksemalarning sheva vakillari nutqida o'rnashib qolganini quyida ko'rib chiqamiz.

Ädjal (adyol), **Kät** (yog'och karavot), **Bešik** (beshik), **Döšäk** (to'shak), **Hänjïrčäk** (belanchak), **Körpä** (ko'rpa), **Märjan kät** (katta yog'och kravat**), Peša:na** (pashshaxona **–** chivindan saqlanish uchun maxsus dokadan tikilgan chodir), **Qapas** (qafas), **Qovuzlav** (sholining qipig'i solingan beshik to'shagi), **Täk** (kichik karavot), **Jayïnlïq** (bola to'shakchasi, ko'rpacha), **Jejmä** (yupqa ko'rpa), **Sïpa** (so'ri), **Täkä** (yostiq), **Čïmdïyan** (par to'shak).

Uyga to'shaladigan buyumlarni ifodalovchi leksemalar

O'g'uz lahjasi vakillari dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi bois turmush tarzida ular ko'proq hayvon terisi va yunglaridan, turli o'simliklardan yasalgan buyumlarni uchratishimiz mumkin. Quyida ularning bir nechtasi bilan tanishib chiqamiz.

Börja / böjra (ichi teshik qamishdan to'qiladigan to'sham), **Dällïkčä** (bir kishi o'tiradigan kigizcha yoki ko'rpacha), **Dostïrxan** (dasturxon), **Döšäj** (yerga tashlanadigan namat, umuman, xonaga to'shaladigan uy-ro'zg'or ashyolari), **Kïjïz** (kigiz), **Körpäčä** (ko'rpacha), **Palas** (sholcha, ba'zan, yungdan to'qilgan), **Qaqra** (chiydan to'qilgan bo'yra), **Täkänät / täkä nämät** (gulli kigiz), **ɣalï** (gilam), **Šal** (ipdan to'qiladigan sholcha), **Čïptä** (yakandan to'qilgan bo'yra).

Parda va yopqich nomlarini ifodalovchi leksemalar

Texnika rivojlanib, transport vositalari kirib kelmasidan oldin odamlar hayvon resurslaridan transport sifatida foydalanishgan. Issiq va sovuqda yoki shamoldan himoyalanish, ham yopinish uchun odamlar turli yopinchiqlar, soyabonlar kashf qilishgan. Bundan tashqari, uyda ham shu kabi yopinchiqlardan foydalanishgan. Ushbu qismda shu vazifadagi nomlar bilan tanishamiz.

Gäjävä (tuya ustiga qurilgan go'shanga), **Köšäjänä** (ko'shagana – kelinlar to'yi kuni yopadigan yopinchiq), **Movärdäk / movurdäk** (arava ustidagi soyabon. Xuddi shunday soyabon tuya ustidagi kajavaga ham o'rnatilgan), **Pärdä** (deraza, eshik pardasi), **Sajavan** (shamsiya – zontik), **Šāmïjāna** (uy, ayvon oldiga tutiladigan soyabon).

Xulosa. Yuqorida biz o'g'uz lahjasining bir kichik qatlamining tahlilini kuzatdik. Guvohi bo'lganimizdek, o'g'uz lahjasi vakillari nutqida haligacha tarixiy so'zlar, adabiy tildan mutlaqo farq qiluvchi birliklar bilan tanishdik. Xususan, turli tillardan o'zlashgan so'zlar o'rnida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi so'zlarning turkiy muqobillari ham mavjud: *movärdäk = soyabon, kät = karavat, pïndïq = ventelyator* kabi. Tilimizda turli tillardan o'zlashgan so'zlar ko'payib, til korpusini egallayotgan bir paytda shevalardan so'z olish orqali muqobil variantlar bilan tilimizni o'z qatlam orqali boyitishimiz ayni maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Maxammadiyev X.L. Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlaridagi maishiy leksika. – Toshkent, 2023.
2.Xorazm so'zlarining qisqacha izohli lug'ati. Tuzuvchi: Komil Avaz – Urganch, 2006.
3.Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.
4.Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива Шеваси – Урганч, 1999.
5.Жуманиёзов Ш. Хоразм шеваси кичик луғати. – Урганч: "Қуванчбек-Машхура", 2019.
6.Розенталь Д.Э., Теленкова М.А.Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение, 1985.

Madina JUMABOYEVA,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Kattalar ta'limi mutaxassisligi magistranti

ANDROGOGIK YONDASHUVLARDA INTERFAOL TA'LIM MUHITINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada andragogik yondashuvlar asosida interfaol ta'lim muhitining pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kattalar ta'limining o'ziga xos jihatlari, ularning ichki motivatsiyasi, hayotiy tajribasi hamda mustaqil o'rganishga bo'lgan ehtiyoji yoritiladi. Shuningdek, interfaol ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar, o'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi subyekt–subyekt munosabatlar hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekistonda andragogik yondashuvlarni joriy etishdagi mavjud muammolar ham qisqacha tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kattalar ta'limini takomillashtirish va interfaol ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *andragogika, interfaol ta'lim, kattalar ta'limi, pedagogik xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, motivatsiya, mustaqil o'qish, tajribaga asoslangan ta'lim, interfaol metodlar, ta'lim muhiti, kompetensiya, refleksiya.*

Аннотация: в данной статье анализируются педагогические и психологические особенности интерактивной образовательной среды на основе андрагогических подходов. Освещаются особенности образования взрослых, их внутренняя мотивация, жизненный опыт и потребность в самостоятельном обучении. Также рассматриваются методы, используемые в интерактивном образовательном процессе, субъектно-субъектные отношения между учителем и слушателем, а также значение современных образовательных технологий. В статье также кратко проанализированы существующие проблемы внедрения андрагогических подходов в Узбекистане. Результаты исследования служат совершенствованию образования взрослых и повышению эффективности интерактивного обучения.

Ключевые слова: *андрагогика, интерактивное обучение, образование взрослых, педагогические особенности, психологические особенности, мотивация, самостоятельное обучение, обучение на основе опыта, интерактивные методы, образовательная среда, компетенция, рефлексия.*

Annotation: this article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of an interactive learning environment based on andragogical approaches. Specific aspects of adult education, their internal motivation, life experience, and the need for independent learning are highlighted. It also examines the methods used in the interactive learning process, the subject-subject relationships between the teacher and the student, and the significance of modern educational technologies. The article also briefly analyzes the existing problems in implementing andragogical approaches in Uzbekistan. The results of the study serve to improve adult education and increase the effectiveness of interactive education.

Key words: *andragogy, interactive education, adult education, pedagogical features, psychological features, motivation, independent learning, experiential learning, interactive methods, educational environment, competence, reflection.*

Zamonaviy ta'lim tizimida "butun umr davomida o'qish" tamoyilining ustuvor ahamiyat kasb etishi kattalarni o'qitish masalasini yanada dolzarb qilib qo'ydi. Shu nuqtayi nazardan, andragogika – ya'ni kattalar ta'limi nazariyasi va amaliyoti – alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, rivojlanib bormoqda. Uning tarixiy ildizlari XIX asrga borib taqaladi: sanoatning rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va aholining bilimga bo'lgan ehtiyoji ortishi kattalar uchun maxsus ta'lim shakllarini yuzaga keltirdi.[11] Natijada kechki maktablar, yakshanba kurslari, xalq universitetlari va madaniy-ma'rifiy muassasalar tashkil etilib, kattalarning bilim olish imkoniyatlari kengaydi.

Andragogikaning rivojlanishi jarayonida "qanday o'qitish kerak?" va "nima uchun o'qitish kerak?" degan muhim savollarga javob izlash ustuvor vazifaga aylandi. Ayniqsa, XX asr boshlaridan boshlab kattalar ta'limining psixologik jihatlari chuqur o'rganila boshladi.[11] Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inson turli yosh bosqichlarida ham o'ziga xos kognitiv va motivatsion xususiyatlarga ega bo'lib, samarali o'qish qobiliyatini saqlab qoladi. Bu esa kattalar ta'limida an'anaviy pedagogik yondashuvlardan farqli, o'ziga xos metod va texnologiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda andragogik yondashuvlar doirasida interfaol ta'lim muhiti alohida ahamiyat kasb etmoqda. Interfaol metodlar kattalarning hayotiy tajribasiga tayanish, ularning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish, o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va o'qitish jarayonini faol ishtirok asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday muhitda pedagogik va psixologik omillar uyg'unligi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Andragogik yondashuv kattalar ta'limini tashkil etishda o'ziga xos tamoyillarga asoslanadi va u an'anaviy pedagogik yondashuvdan tubdan farq qiladi. Ushbu yondashuv markazida o'qituvchi emas, balki o'quvchi – ya'ni katta yoshli shaxs turadi. Eng avvalo, kattalar o'z o'qish jarayonida mustaqillikka intiladi. Ular o'z ehtiyojlari, maqsadlari va qiziqishlariga mos ravishda bilim olishni xohlaydi, shu bois o'qituvchi nazorat qiluvchi

emas, balki yo‘naltiruvchi va hamkor sifatida faoliyat yuritishi lozim. Andragogik yondashuvning muhim jihatlaridan yana biri – bu kattalarning hayotiy va kasbiy tajribasiga tayanishdir. Kattalar yangi bilimni o‘zlarining avvalgi tajribasi bilan bog‘lab o‘zlashtiradi, bu esa ta’lim jarayonida interfaol metodlar, munozaralar va tajriba almashish shakllaridan keng foydalanishni talab etadi. Shu bilan birga, kattalar faqat o‘z hayoti va faoliyati uchun dolzarb bo‘lgan bilimlarni o‘rganishga moyil bo‘ladi. Ya’ni ular uchun o‘rganilayotgan materialning amaliy ahamiyati muhim hisoblanadi.

Mazkur yondashuvda ta’limning amaliy yo‘naltirilganligi ustuvor o‘rin egallaydi. Kattalar nazariy bilimdan ko‘ra uni real hayotda qo‘llash imkoniyatiga ko‘proq e’tibor qaratadi. Shu sababli o‘qitish jarayoni muammoli vaziyatlar, keyslar va amaliy topshiriqlar asosida tashkil etiladi. Bunda o‘rganish jarayoni muammolarni hal qilish orqali amalga oshadi, bu esa bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, kattalar ta’limida ichki motivatsiya muhim rol o‘ynaydi.[7] Ular o‘qishni tashqi majburiyat sababli emas, balki o‘zini rivojlantirish, kasbiy o‘sish va shaxsiy qoniqish uchun amalga oshiradi. Bu esa ta’lim jarayonini rag‘batlantirishda psixologik omillarning ahamiyatini oshiradi. Andragogik yondashuvda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat hamkorlik va dialogga asoslanadi. Ular teng subyektlar sifatida bilim almashadi, fikr bildiradi va birgalikda xulosa chiqaradi. Bundan tashqari, individual yondashuv ham muhim tamoyillardan biridir. Kattalar turli tajriba, bilim darajasi va o‘rganish tezligiga ega bo‘lganligi sababli ta’lim jarayoni moslashuvchan bo‘lishi kerak. Shu asosda har bir o‘quvchining ehtiyoji va imkoniyatlari inobatga olinadi.

Interfaol ta’lim muhiti – bu o‘quv jarayonini faqat bilim berish bilan cheklab qo‘ymay, balki o‘quvchilar (kattalar)ning faol ishtiroki, o‘zaro hamkorligi va mustaqil fikrlashini ta’minlashga qaratilgan ta’lim tizimidir.[10] Bunday muhitda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki ta’lim jarayonining bevosita ishtirokchisi va subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘zaro muloqot, muhokama, izlanish va tajriba asosida shakllanadi. Interfaol ta’lim muhitining mohiyati, avvalo, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi an’anaviy ma’ruzachi rolidan chiqib, fasilitator, yo‘naltiruvchi va hamkor vazifasini bajaradi. O‘quvchilar esa o‘z fikrini erkin ifoda etish, muammolarni birgalikda hal qilish va bilimni mustaqil ravishda egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada ta’lim jarayoni ikki tomonlama faol muloqotga asoslanadi. Mazkur muhitda o‘rganish jarayoni interfaol metodlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, guruhli ishlar, bahs-munozaralar, “aqliy hujum”, rolli o‘yinlar, keys tahlillari kabi usullar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni fikrlashga undaydi. Bu esa bilimlarning chuqurroq o‘zlashtirilishiga va amaliy ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi.[10] Shuningdek, interfaol ta’lim muhiti psixologik jihatdan qulay sharoit yaratishni ham nazarda tutadi. Unda o‘zaro hurmat, ishonch, ochiqlik va qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar xato qilishdan qo‘rqmaydi, o‘z fikrini erkin bayon eta oladi va bu ularning ichki motivatsiyasini oshiradi.

Andragogik yondashuvlarda interfaol ta’lim muhitining pedagogik xususiyatlari, avvalo, ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Bunda har bir tinglovchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy tajribasi va o‘rganish maqsadlari inobatga olinadi. Ta’lim mazmuni va shakllari aynan shu omillarga mos ravishda tashkil etilib, o‘quvchi markaziy o‘ringa qo‘yiladi. Natijada o‘rganish jarayoni samarali va mazmunli tus oladi. Mazkur muhitning muhim pedagogik jihatlaridan yana biri tajribaga asoslangan o‘qitishdir. Kattalar o‘zlarining avvalgi hayotiy va kasbiy tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida tajriba almashish, real vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin beriladi. Bu esa bilimlarni chuqurroq anglash va ularni amaliyotda qo‘llash imkonini yaratadi.

Muammoli o‘qitish ham interfaol ta’lim muhitining ajralmas qismi hisoblanadi. Unda o‘quvchilar tayyor bilimni olishdan ko‘ra, muammoli vaziyatlarni hal etish orqali bilimga ega bo‘ladi. Bu jarayon tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Shuningdek, guruhli ishlar, treninglar va keys-metodlar interfaol ta’limning samarali vositalari sifatida qo‘llaniladi. Bunday metodlar o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantiradi, fikr almashish imkonini kengaytiradi va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Har bir ishtirokchi o‘z fikrini erkin bildirish va boshqalarning qarashlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Interfaol muhitda o‘qituvchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat ham an’anaviy tizimdan farq qiladi. Ular subyekt–subyekt tamoyili asosida, ya’ni teng huquqli hamkorlar sifatida faoliyat olib boradi. O‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki o‘quv jarayonini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Bu esa o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bundan tashqari, moslashuvchan o‘quv dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Kattalar turli darajadagi bilim va tajribaga ega bo‘lganligi sababli, ta’lim mazmuni ularning ehtiyojlariga mos ravishda o‘zgartiriladi. Bu esa har bir tinglovchining imkoniyatidan kelib chiqib, samarali o‘qishiga sharoit yaratadi. Nihoyat, refleksiya va tahlil jarayonlari ham interfaol ta’lim muhitining muhim pedagogik xususiyatlaridan biridir. [5] O‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonini tahlil qiladi, erishilgan natijalarni baholaydi va kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Bu esa o‘z-o‘zini anglash va uzluksiz rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Andragogik yondashuvlarda interfaol ta’lim muhitining psixologik xususiyatlari, avvalo, kattalar shaxsining o‘ziga xos jihatlari bilan belgilanadi. Kattalarda o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiya ustun hisoblanadi, ya’ni ular bilimni tashqi majburiyat yoki nazorat uchun emas, balki o‘z ehtiyojlari, kasbiy rivoji va shaxsiy o‘sishi uchun egallaydi.[6] Shu bois ta’lim jarayonida ularning qiziqishi va ichki rag‘batini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda kattalarning o‘zini hurmat qilish hissi va mustaqillikka bo‘lgan ehtiyoji ham muhim rol o‘ynaydi, ular o‘z fikrini erkin ifoda etish va qaror qabul qilishda mustaqil bo‘lishni istaydi.

Kattalar o‘rganish jarayonida o‘zlarining avvalgi hayotiy va kasbiy tajribalariga tayanadi. Bu esa yangi bilimlarni tezroq anglash va ularni real vaziyatlarga tatbiq etish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘qish jarayonida ayrim psixologik to‘siqlar ham yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, yangi bilimni qabul qilishdagi qo‘rquv, o‘ziga ishonchsizlik yoki mavjud stereotiplar o‘rganish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida bunday to‘siqlarni kamaytirish va ijobiy psixologik muhit yaratish zarur.

Kattalar odatda, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intiluvchi shaxslar hisoblanadi. Ular o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam takomillashtirish orqali hayot sifati va kasbiy faoliyatini yaxshilashga harakat qiladi. Shu bilan birga, yoshga bog‘liq kognitiv xususiyatlar ham e’tiborga olinishi lozim. Masalan, diqqatning barqarorligi, xotira va tafakkur jarayonlari yosh o‘tishi bilan ma’lum darajada o‘zgaradi, ammo tajriba va mantiqiy fikrlash orqali bu jarayonlar muvozanatlashadi. Interfaol metodlar ushbu psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim samaradorligini oshiradi. “Aqliy hujum”, debatlar, rolli o‘yinlar, treninglar, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish va hamkorlikda o‘rganish (collaborative learning) kabi metodlar kattalarning faol ishtirokini ta’minlaydi.[10] Ayniqsa, real hayotga yaqin topshiriqlar orqali bilimni amaliy qo‘llash imkoniyati yaratiladi, bu esa o‘rganilgan materialning mustahkam o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Ta’lim muhitining psixologik iqlimi ham muhim omillardan biridir.[7] Interfaol muhitda ishonchli va erkin atmosfera yaratilishi, xatolarga nisbatan tolerant munosabat bo‘lishi, har bir tinglovchining fikrini erkin bildira olishi ta’minlanishi lozim. Bunday muhit motivatsiyani oshiradi va o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar ham interfaol ta’lim muhitining ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamli platformalar, onlayn va aralash (blended learning) ta’lim shakllari, multimedia vositalari o‘quv jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Ular mustaqil o‘qishni qo‘llab-quvvatlab, o‘quvchilarga o‘z tezligida bilim olish imkonini beradi. Natijada interfaol ta’lim muhitida o‘qitishning samaradorligi ortadi. Ta’limning amaliy yo‘naltirilganligi, bilimlarni darhol qo‘llash imkoniyati, zarur kompetensiyalarning shakllanishi va o‘z-o‘zini baholash hamda rivojlantirish ko‘nikmalarining paydo bo‘lishi kattalar ta’limining muhim natijalari sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida andragogik yondashuvlar va interfaol ta’lim muhitini joriy etishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular asosan, tashkiliy, metodik, texnologik va psixologik omillar bilan bog‘liqdir.

Birinchidan, kattalar ta’limi sohasida metodik tayyorgarlik yetarli darajada rivojlanmagan. Ya’ni, ko‘plab pedagoglar andragogik tamoyillar va interfaol metodlarni amaliyotda to‘liq va samarali qo‘llash bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emas. Bu esa ta’lim jarayonining an’anaviy, ma’ruza shakliga ko‘proq tayanib qolishiga olib keladi. *Ikkinchidan,* texnik va infratuzilmaviy muammolar ham mavjud. Ba’zi ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli platformalar va internet imkoniyatlari yetarli emas. Bu esa interfaol va onlayn ta’lim shakllarini to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qiladi. *Uchinchidan,* tashkiliy va psixologik muammolar ham sezilarli o‘rin tutadi. Ayrim pedagog va tinglovchilarda yangicha yondashuvlarga nisbatan qarshilik, odatiy an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechishdagi qiyinchiliklar mavjud. Shuningdek, kattalarda o‘ziga ishonchsizlik yoki o‘rganishga kech kirishish bilan bog‘liq psixologik to‘siqlar ham kuzatiladi. *To‘rtinchidan,* o‘quv dasturlarining andragogik yondashuvlarga to‘liq moslashtirilmaganligi ham muhim muammo hisoblanadi. Dasturlar ko‘proq standartlashgan bo‘lib, kattalarning individual ehtiyojlari, tajribasi va amaliy faoliyatiga yetarlicha moslashmagan. *Beshinchidan,* interfaol metodlarni qo‘llashda vaqt, resurs va metodik qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi ham ta’lim samaradorligini pasaytiradi. Bu esa o‘quv jarayonida yuzaki yondashuvlar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, andragogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan interfaol ta’lim muhiti kattalar ta’limining samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuvda o‘quvchi shaxs markaziy o‘ringa qo‘yilib, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy tajribasi va psixologik xususiyatlari to‘liq inobatga olinadi. Natijada ta’lim jarayoni passiv bilim olishdan faol, ongli va maqsadga yo‘naltirilgan o‘rganish jarayoniga aylanadi. Interfaol metodlar, hamkorlikka asoslangan faoliyat va amaliy yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali kattalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari hamda kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi. Shu bilan birga, qulay psixologik muhit yaratish, ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash va individual yondashuvni ta’minlash ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash esa interfaol ta’lim muhitining imkoniyatlarini kengaytirib, uzluksiz o‘qish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada kattalar nafaqat bilim oladi, balki o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va doimiy ravishda takomillashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, andragogik yondashuvlarda interfaol ta’lim muhitini samarali tashkil etish bugungi kunda raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va doimiy rivojlanishga intiluvchi shaxsni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. – Toshkent, 2017.
2.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Fan, 2010.
3.Ishmuhamedov R., Yuldashev M. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent, 2012.
4.Saidahmedov N. *Yangi pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Moliya, 2003.
5.Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. – Toshkent, 2006.
6.Zimnyaya I.A. *Pedagogik psixologiya*. – Moskva: Logos, 2004.
7.Leontyev A.A. *Psixologiya obsheniya*. – Moskva, 1999.
8.Johnson D.W., Johnson R.T. *Cooperative Learning Methods*. – USA, 2009.
9.Harmer J. *How to Teach English*. – London: Longman, 2007.
10.Sayidahmedov.N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T., 1999. 55-b.
11.Asqarova.O‘.M., Abdullayeva.M.A., Boltayeva.M. ANDRAGOGIKA. (o‘quv qo‘llanma). – Namangan, 2014. 14-b.

Gulshanoy ISOMIDDINOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti, O‘TVA yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Z.ASHUROVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotsenti

TIL DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ona tili darslarida qo‘llaniladigan turli xil pedagogik, interfaol metodlar haqida fikr yuritiladi. Darslarda interfaol metodlarning qo‘llanilishi o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatlarni beradi.Maqolada darslarda ko‘p qo‘llaniladigan “Klaster”, “Debat”, “Rolli o‘yinlar”, “Savol-javob” usullari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *metod, pedagogik, shaxs, jamiyat, o‘qituvchi, o‘quvchi, talaba, yosh avlod, madaniyat, mahorat*.

Аннотация: в данной статье рассматривается различные педагогические и интерактивные методы, используемые на уроках роднога языка. Использованию интерактивных методов на уроках предоставляет удобные возможности как для преподоставляет, так и для учащихся. В статье обсуждается методы «Кластер», «Дебаты», «Загадки», «Вопросы и ответы», которые часто используются на уроках.

Ключевые слова: *метод, человек, общество, культура.*

Annotation: this article diccusses various pedagogical and interactive methods used in native language lessons. The use of interactive methods in lessons provides convenient opportunities for techers and students.

Key words: *method, person, society, new generation, culture, skill*

Kirish. Mamlakatimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirish yuzasidan bir qancha ishlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ydi. Eng avvalo, o‘sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, shijoatli qilib tarbiyalash oldimizdagi mas’uliyatli vazifalardan biri bo‘ldi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”[1]gi Farmoni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”[2]gi Qarori amalda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Interfaol metodlar o‘quvchi ongini yanada rivojlantiradigan, aynan shu darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradigan usuldir. Ushbu metodlar tarkibiga “Aqliy hujum (brainstorming)”, “Klaster”, “Debat (bahs)”, “Rolli o‘yinlar”, “Savol-javob” singari bir qancha usullarni kiritishimiz mumkin. Ushbu metodlar o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi munosabatni yaxshilab, o‘quvchini ruhiy jihatdan sog‘lom qila oladi. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish yo‘llari va vositalari, ona tilini egallash, ya’ni nutqni, o‘qish va yozishni, grammatika va imloni o‘zlashtirib olish imkonini beradi. Interfaol metodlar til darslarining vazifalarini va mazmunini yanada aniq qilib, yuqori sinf o‘quvchilarini ham fanga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi. Shuningdek, metodlar oliy ta’limda tahsil oladigan talabalar uchun ham bir qancha qulayliklar olib keladi. Talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish, o‘zgalar nutqini tinglash va anglay olish, fikrni aniq, lo‘nda ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg‘unligiga, mantiqiy izchillikka erishish, “talaba – ta’lim – o‘qituvchi” munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish – ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til darslarida turli xil metodlardan foydalanish rivojlanib borayotgan yoshlar uchun aqliy tomondan juda katta yordam beradi. Shuning uchun ham ushbu metodlarni yanada kengaytirish maqsadida bir qancha yozuvchilar, mutaxassislar tomonidan kitoblar yozildi. Bunga misol qilib, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva[3] “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” kitobini keltirishimiz mumkin. Mazkur kitobda ona tili o‘qitishning yangilangan mazmuni texnologiyasini – ongli verbal – kognitiv ta’lim sistemasiga tayanilgan holda izohlab berishga, bu haqda qisqacha tushuncha berilgan. Bundan tashqari, H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayevlarning [4] “Pedagogik

1 O‘z.Res.Prezidentining PF-134 son Farmoni
2 O‘z.Res.Prezidentining 3775-son Qarori
3 B.To‘xliyev. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. 5-bet
4 H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat

